TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ABDULLA ORIPOV

26

84-A-15





ABDULLA ORIPOV





"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.133-1
KBK 84(5O')-5
A 15

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi


Doniyor Begimqulov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.



ISBN 978-9943-8569-3-6

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

MUAZZAM VA DILBAR SHE'RIYAT

Vaqt — oliy hakam. U o'zining odil tarozisi bilan tarixda yuz bergan barcha voqea-hodisalarga, buyuk shaxslarga, jumladan, ijod ahliga ham xolisona baho beradi. Xususan, o'zbek adabiyoti tarixida Abdulla Oripov o'zining xalqchil ijod namunalari bilan o'chmas iz qoldirdi desak mubolag'a bo'lmaydi. U O'zbekistonning milliy iftixori, zabardast shoiri sifatida ulug'landi, e'tirof etildi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida Abdulla Oripov ijodi alohida o'ringa ega. Shoirning she'r-u dostonlarida falsafa, hikmat, donolik va mutafakkirlik, O'zbekistonga bo'lgan cheksiz muhabbat hisi ufurib turadi, insonning dard-u quvonchi beqiyos mahorat bilan tasvirlanadi.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlaridagi o'zbek adabiyotini Abdulla Oripov ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U o'z ijodi bilan o'zbek she'riyatini yangi yuksak bosqichga ko'tardi. Betakror, chuqur falsafiy, tabiiy kechinmalarga yo'g'rilgan, qalb prizmasidan o'tgan, teran obrazli, mushohadalarga boy, badiiyati yuksak tizmalari, she'riyatga olib kirgan o'z ohanglari, o'z ifoda usuli, hayot hodisalarining yangicha talqini bilan o'z adabiy maktabini yaratdi.

Abdulla Oripov she'riyatining kamoli haqida o'ylaganda bu she'riyat qup-quruq yalanglikda paydo bo'lmaganligini unutmaslik lozim. An'analarga boy mumtoz she'riyatimizning rang-barang jilolaridan bahramand bo'lish, Pushkin, Lermontov, Husayn Jovid kabi siymolar ijodini chuqur idrok qilish, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Asqad Muxtor she'riyatiga xos ko'lamlilik, lirizm, falsafiylik yosh shoir ijodi uchun bamisoli bir pillapoya bo'lganligini, yuksakliklar sari undaganligini, asr boshida yangi o'zbek she'riyatini boshlab bergan Cho'lpon, Usmon Nosirlar ijodini chuqur istifoda etib, bamisoli ular qo'lidan tush-

gan qalamni qaytadan qo'lga olib erk, milliy istiqlol g'oyalariga esh bo'lganligini kuzatish mumkin. 50-yillar o'rtalaridan boshlab sobiq Ittifoqning "to'rt devor orasi"dagi muhitida "muzlar erib" hayotbaxsh shabadalar esa boshlaganligi, Yevgeniy Yevtushenko, Andrey Voznesenskiy, Bella Axmadulina, Bulat Okudjava kabi shoirlarning ovozi minbarlarga chiqib, inson ko'ngliga bir qadar yaqinlasha boshlaganligi, o'zimizning she'riyatimizda Erkin Vohidov, Husniddin Sharipov, Xayriddin Saloh kabi yosh shoirlar ijodida yangilanish kurtaklari ko'rina boshlaganligi ham o'ziga xos she'riyat parvoziga zamin bo'lgan omillardan bo'lganligini e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi, albatta.

U shoir sifatida she'riyat ixlosmandlarining ko'z o'ngida shakllandi. 1965-yilda yosh shoirning birinchi she'riy to'plami "Mitti yulduz" chop etilishi munosabati bilan M. Olimov va S. Mamajonovlarning taqrizlari e'lon qilindi. M. Olimov yosh shoir she'rlarining fazilatini poetik tafakkurda ko'rdi: "Abdulla she'rlari qalbga kuyday mayin singadi-yu, nogohoniy sukunatni tilka-pora qilib, tug'yon ko'taradi, yurakni o'rtab, shuurga chaqmoqday nur beradi. Bu ziyo poetik tafakkurdir". S. Mamajonov esa quyidagilarni qayd etdi: "...shoir voqelikni butun murakkabligi, ichki ziddiyatlari orqali ko'radi, undagi go'zallik va xunuk tomonlar, qiyinchiliklar va mushkulotlarni idrok etib, oldinga surayotgan g'oyasini ana shu mushkulotlar ichidan olib o'tib ifodalaydi va uning ishonarli chiqishiga erishadi". I. G'afurov shoirning ikkinchi to'plami "Ko'zlarim yo'lingda" (1966) haqidagi taqrizida yosh shoir she'rlarining falsafiyligi, lirik qahramonning dard va intilishlari, zamon haqida, kelajak haqidagi o'ylarining aks etishi to'g'risida so'z yuritadi. "Sharq yulduzi" jurnalining 1968-yil birinchi sonida "Shoir va tanqidchi suhbati" rukni ostida A. Oripovning yangi she'rlari va N. Xudoyberganovning "Izlanish yo'lida" nomli maqolasi e'lon qilindi. Maqolada shoirning shu davrgacha bo'lgan ijodiga keng nazar tashlanadi, shoir she'riyatining asosiy yo'nalishlari, dastlabki ijodiy muvaffaqiyatlari haqida fikr yuritiladi. U. Normatov "Adabiyotimizning yarim asri" to'plamiga kirgan "Ijod estafetasi ishonchli qo'llarda" maqolasida "...yosh shoirning keyingi paytlarda yaratgan har bir

she'ri davrning aks sadosi kabi yangrayotir, yosh shoir kunlarimizning eng muhim, xarakterli hodisalariga o'zining poetik munosabatini tayin etishga intilayotir", deb ta'kidladi.

Yosh shoir haqida bildirilgan dastlabki mulohazalarda uning she'rlari samimiyat bilan qarshi olinganligini ko'ramiz. Ammo shu bilan birga, ushbu taqriz-u maqolalarda o'sha davrning urfiga ko'ra shoir ijodi, ayrim she'rlari "jindak" tanqid ham qilinadi. Jumladan, M. Olimov "Chol va kommunizm" qissasini badiiy mukammal asar deb bo'lmaydi. Garchi she'rda chiroyli yumor bo'lsa-da, unda butunlik yetishmaydi, asarning g'oyasi mavhum, nazarimizda, "Mayakovskiyga" she'rida ham jo'shqin poetik harorat yo'q", deb yozadi. Ushbu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, A. Oripovning dastlabki munaqqidlari, garchi shoir ijodiga xos eng xarakterli xususiyatlarni to'g'ri ilg'ab olgan bo'lsalar ham, biroq A. Oripov Cho'lpon, Fitrat, U. Nosir an'analarini davom ettirib, erk va istiqlol kuychisi sifatida maydonga chiqayotganligini qayd etishmagan. Zotan, davr, hukmron tuzum bunday xulosaga kelish uchun imkon ham bermas edi.

Shoir she'riyati haqida aytib o'tilgan adabiyotshunos va tanqidchilardan tashqari, M. Qo'shjonov, B. Nazarov, N. Karimov, L. Qayumov, B. Qosimov, B. Akramov, I. Haqqulov, M. Ibrohimov, S. Meli, N. Rahimjonov, B. To'xliyev, Q. Yo'ldoshev, N. Shukurov, S. Mirzayev, A. Jabborov, M. Safarov, I. Jabborov, N. Afoqova, Y. Qosimov, G. Ashurova, F. Hamroyev, M. Hoshimxonov, G. Ibragimova va boshqalarning maqola-yu taqrizlari, ijodiy portretlari, risolalari chop etilgan. Shoir ijodi haqidagi tadqiqotlar orasida O. Sharafiddinov va M. Qo'shjonovning izlanishlari teranligi va shoir ijodidagi o'ziga xoslikni ko'rsatib berganligi bilan ajralib turadi.

Hur fikrlilik, istiqlol tarixi ming yillarga borib taqaladigan Vatanni ozod ko'rish, jamiyatdagi salbiy ko'rinishlarga ayovsiz munosabatda bo'lish, insonni ozod va hur ko'rish orzusi, haqqa, haqiqatga yetishish istagi, adolatga tashnalik A. Oripov ijodida markaziy o'rinda turadi va lirik qahramon obrazi ko'p jihatdan shoirning mana shu hayotiy va estetik prinsiplari, ideallaridan kelib chiqib shakllanadi.

O'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida yaratilgan "Men nechun sevaman O'zbekistonni", "Sarob", "Avlodlarga maktub", "Albomga", "Yuzma-yuz", "O'zbekistonda kuz", "Chol va kommunizm qissasi", "Biznikilar", "Bahor", "O'zbekiston", "Minorayi kalon tepasidagi laylak", "Uyqu", "Sovg'a" kabi she'rlar uchun umumiy bir ohang, umumiy bir g'oya bu — hurlik, milliy uyg'onish g'oyasidir. Albatta, A. Oripov bu g'oyani Cho'lpon 20-yillar boshida olg'a surgan tarzda ochiq-oshkora ilgari sura olmas edi. Biroq bu she'rlarni bugungi kun nuqtayi nazaridan tahlil qilganimizda ham bu g'oya A. Oripov ilk ijodining ko'tarilishi davrida eng asosiy o'rinda turganligini aniqlash qiyin emas.

Shoirning o'tli she'riyatida Vatanning o'tmishi, buguni va ertasi parallel chiziqlarda kesishgandek go'yo. Sohibqiron Amir Temur barpo etgan va boshqa buyuk ajdodlarimiz sa'y-harakati payvasta bo'lgan ulkan davlat mahobatini, yovqur bobolarimiz nafasi va qat'iyatini his qilgandek, sho'rolar davridagi mute va qaram holatimizdan ogoh bo'lgandek bo'lamiz, ayni zamonda buyuk ajdodlarimizning qasoskor ruhi Vatan hurligiga undayotgandek.

Abdulla Oripov ijodida Imon, Vijdon, Insof, Diyonat, Savob izlab O'zlikni anglash sari qadam-baqadam ilgarilab borgan isyonkorona ruh, insonning qalb to'lg'onishlari chuqur ochib berilgan, falsafiylik va lirizm, tuyg'u va fikr ajoyib tarzda qorishgan, bir-birini to'ldirgan, xullas "she'r arxitektonikasi" g'oyat mukammal she'riyatning ajoyib namunasini ko'rish mumkin.

Shoirning butun ijodi inson zakosi, uning sir-sinoati, anglab bo'lmas sehr-u jodusi, yuksakligi va tubanligi qarshisida lol bo'lgan qalbning hayratidek taassurot qoldiradi.

Biroq shoir inson tasvirida abstrakt muallaqlikdan juda yiroq. Uning o'lmas mavzudagi she'rlarini inson ruhiyati va ma'naviyati haqidagi tizginasiz, ziddiyatli falsafiy suhbatlar deyish mumkin. Kichik bir to'rtlikni olaylikmi yoki "Genetika", "Malomat toshlari", "Qo'riqxona", "Uchinchi odam", "Tafakkur monologi", "Vijdon", "Dengizga", "Bir tanishim haqida ballada", "Dialektika" kabi salmoqli she'rlarinimi, yoki bo'lmasam "Jannatga yo'l", "Hakim va ajal", "Ranjkom", "Sohibqiron" kabi katta janrdagi she'riy asarlarini olaylikmi, ularning barchasida inson ma'naviya-

ti, e'tiqodi, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va qabihlik, vijdon va imonsizlik o'rtasidagi kurash, dunyoni soflash, komil inson g'oyasi jozibali, ehtirosli, falsafiy teran ifodalanganligini ko'ramiz. Shoir doimo o'zi yashab turgan davrning, insonning sir-sinoatini bilishga, badiiy inkishof etishga, uning murakkab ruhiy olami manzaralarini chizishga oshiqadi, har biri o'ziga xos bir "sayyora" bo'lgan, yuragida, o'y-u fikrida so'z bilan ifodalash mushkul tilsimotlar yashiringan inson qalbini anglashga intilish mudom shoir dilini bezovta qilib keladi.

Bir tomondan o'zida Vatan, til, millat, bashar kabi umuminsoniy tushunchalarni mujassam etgan insonni mukammal ko'rish, unda insof, mehr, diyonat, adolat va odillik, vijdon kabi matlablar tobora noyoblashib borayotganligidan tashvishga tushish, ularni asrashga chaqirish, insonning goho idrok qilish mushkul bo'lgan sa'y-harakatlaridan yoqa ushlash, ikkinchi tomondan, umumiy, biroz mavhumroq insonni kuylashdan aniq bir insonga, aytaylik, shunday yonma-yon yashab turgan qo'shningning ichki olamiga nigoh tashlashga o'tish, ya'ni insonni badiiy-falsafiy talqin qilish barobarida konkret-hissiy idrok etish tuyg'usi, istagi shoir ijodida inson talqinining xarakterli xususiyatlaridir.

Abdulla Oripovning she'riy uslubi uchun aniq bir obrazdan falsafiy mushohada tomon borish, odatiy bir holning ichki ma'nosini ko'ra bilish, uni she'r tiliga ko'chirib o'ziga xos mo'jaz she'riy mo'jiza yaratish xosdir. Shoirning eng sara she'rlarida oddiy gapdek tuyulgan har bir so'z, hatto tinish belgisi she'r oldiga qo'yilgan ijodiy niyatni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Uning ko'pchilik she'rlari monolog shaklida, lirik qahramonning ehtirosli, ziddiyatli o'y-fikrlari asosiga quriladi. Bir turkum she'rlari uchun o'tkir satirik ruh, inson kamoloti va ma'naviyatga qarshi bo'lgan barcha salbiy ko'rinishlarga ayovsiz munosabat xosdir.

Mustaqillik, istiqlol yillarida shoir ijodi yangi pog'onaga ko'tarildi. Vatan va xalq taqdiri, istiqboli haqidagi o'ylar, mulohazalar, iztiroblar so'nggi uch-to'rt yillik ijodining bosh g'oyasini tashkil etdi. Umuman, xalq, uning dard-u tashvishi, O'zbekiston mavzusi shoir ijodida ayricha o'rinda turadi. Ona yurt — jonajon

O‘zbekiston — Abdulla Oripov eng baland pardalarda qalamga olgan mavzudir. Istiqlol arafasida, mustaqillikning dastlabki yillarida, hayotda aynan yuz bergan, shoir o‘zi guvoh bo‘lgan tarixiy jarayonlar ta’sirida yozilgan, mustaqillikning yigirma yilligiga bag‘ishlangan xalqona, qissago‘ylik uslubida bitilgan “Istiqlol manzaralari” dostonining “Tog‘lar hikoyasi”, “O‘zbek ishi”, “Muruntov”, “Elobod”, “Qamchiq dovoni”, “Imom Buxoriy”, “Jeneva” deb nomlangan qismlarida qalamga olingan lavhalar orqali xalqimiz ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotining muhim jihatlari, istiqloldan oldingi holat va istiqlol yillarida yuz bergan o‘zgarishlar yuksak badiiy inkishof etib berildi.

“Xalq”, “Vatan”, “Turkiston bolalari”, “O‘zbek boyining bayonoti”, “Bedorlik”, “Oliy ne’mat”, “O‘zbekiston asri” kabi she’rlarda Vatan mavzusining yangi qirralari ochib berildi, yurtning koriga yaragan ezgu fazilatli insonlar obrazi yaratildi. Bu she’rlarning mazmun-mundarijasini Vatan va xalq sha’niga madhiya aytish, mavjud reallikni shunchaki ta’kidlash tashkil etmaydi. Ularda jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo‘shgan qadim yurtning, “jonida bir gavhar bor”, qonida “imon nuri doimo oqib turgan”, “kattakon yo‘lga chiqqan” xalq kechmishi va istiqboli manzaralari chiziladi, mas’uliyatli bugunga xos xususiyatlar badiiy gavdalantiriladi, inson va jamiyat, inson va tabiat mavzusidagi azaliy o‘ylar davom ettiriladi. Istiqlolning qadriga yetish, Vatanni ko‘z qorachig‘idek asrash, o‘tmish saboqlaridan qat’iy xulosa chiqarib, nihoyat “olomonlik” psixologiyasini itqitib tashlab haq-huquqini, jahonaro qadrini tanigan xalq bo‘lishga da’vat, kelajagi buyuk O‘zbekistonning saodati uning farzandlarining yakqalamligida ekanligi hissiy-obrazli yo‘sinda ifodalab beriladi.

Garchi uning ijodida milliylik, millat sha’nini ulug‘lash ayricha bir ko‘rinishda bo‘rtib tursa ham, milliy biqiqlik uning uchun mutlaqo begona. “Yaxshi-yu yomonni yelkasiga ortgan” ona sayyoraning muammolari, insoniy dard to‘lg‘onishlaridan bunyod bo‘lgan bu she’riyat.

“Shoir qalbi” (1998-yil) she’rida shoir o‘zi bir umr sevib kuylagan ona diyorimizga bo‘lgan teran tuyg‘ularini quyidagicha izhor etdi:

Yurtda ne muborak ishlar bo'lg'uvsi,
Undan shoir qalbi shavqqa to'lg'uvsi...
Uning har go'shasi jahondir menga,
Toshloq yo'llari ham ravondir menga...
Mavjiga nogahon kimdir tosh otgay,
Zarbi yuragimning tubiga botgay...
Gar sen daryo bo'lsang — irmog'ingdirman,
Lat yesang, og'riqli barmog'ingdirman.

"Hikmat sadolari", "Haj daftari", "Jeneva daftari"ga kirgan turkum she'rlarda, "Xalq", "Vatan", "Turkiston bolalari", "O'zbek boyining bayonoti", "Bedorlik", "Oliy ne'mat", "O'zbekiston asri" kabi she'rlarda Vatan mavzusining yangi qirralari ochib berildi, yurtning koriga yaragan ezgu fazilatli insonlar obrazi yaratildi. Bu she'rlarning mazmun-mundarijasini Vatan va xalq sha'niga madhiya aytish, mavjud reallikni shunchaki ta'kidlash tashkil etmaydi. Ularda jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan qadim yurtning, "jonida bir gavhar bor", qonida "imon nuri doimo oqib turgan", "kattakon yo'lga chiqqan" xalq kechmishi va istiqboli manzaralari chiziladi, mas'uliyatli bugunga xos xususiyatlar badiiy gavdalantiriladi, inson va jamiyat, inson va tabiat mavzusidagi azaliy o'ylar davom ettiriladi. Istiqlolning qadriga yetish, Vatanni ko'z qorachig'idek asrash, o'tmish saboqlaridan qat'iy xulosa chiqarib, nihoyat "olomonlik" psixologiyasini itqitib tashlab haq-huquqini, jahonaro qadrini tanigan xalq bo'lishga da'vat, kelajagi buyuk O'zbekistonning saodati uning farzandlarining yakqalamligida ekanligi hissiy-obrazli yo'sinda ifodalab beriladi.

Vijdondan ayrilib qolgan fursatda
Boshlanar toj-taxtga ruju daf'atan.
Ne-ne zukko xalqlar qolib g'aflatda
To'zg'ib ketajakdir butun bir Vatan...

kabi misralarda orziqib kutilgan istiqlolni mustahkamlashga, yakdillikka, ogohlikka, o'zlikni tanishga, "urfoni zo'r millat bo'lish"ga, o'tkinchi zeb-ziynatlarga mukkasidan ketishdan baland turib, "yurak javhari"ni asrashga, yuksak ma'naviyat egasi bo'lishga da'vat yangraydi, ona yurtning kamoli uchun yurakdan kuyingan

bedor qalb o'rtanishlari kechinmalar, chuqur umumlashmalar tarzida beriladi.

Chuqur falsafiylik, butun bir she'rning vaqt va zamon, inson va tabiat munosabatlari zamiriga qurilishi, har bir satrda chatnab turgan tafakkur yog'dulari singari shoirning butun ijodiga xos xususiyatlar 90-yillarda va yangi asrning dastlabki ikki o'n yilligida yozilgan "Mayna", "Buyuklik", "Armon emasmi?", "Adolat", "Dunyo", "Bir qarasam..." kabi she'rlarda izchil davom ettirildi.

Teran falsafiylik, sharqona donishmandlik, Vatanning shonli o'tmishi va buguni haqidagi kuyunchaklik, hayotdagi salbiy ko'rinishlarga murosasozlik, nihoyatda murakkab olam bo'lgan inson ruhiyatidagi sirlilik 2012-yil fevral-mart oylarida voqeaband, yoyiq ifoda shaklida yozilgan "Ranglar va ohanglar" turkumiga kirgan she'rlarning ham bosh mavzusini tashkil etadi.

"Osmondan tushgan har bir meteorit bizga olis va notanish dunyolar haqida xabar va ma'lumot bergani singari ijodkorning har bir asari — xoh u nazm, xoh nasr bo'lsin — muallifning aql-u tafakkuri, qalb va sezgisi, idroki, orzu-armonlari to'g'risida bizni ogoh etadi. U nainki ijodkorning o'zi, balki u yashab turgan davr haqida ham ma'lumot beradi, taassurotlar uyg'otadi", deydi shoirning o'zi. "Ranglar va ohanglar" turkumiga kirgan birinchi she'rdagi quyidagi she'riy satrlar bu fikrlarning obrazli ifodasiga aylangan. Bugungi kunda shoirning, ijodkorning burchi nimalardan iborat ekanligiga urg'u beradi. Xilqatdagi ranglar va ohanglar turfa:

Bir qarashda ular hamohang, o'xshash,
Biroq sen, ijodga azm etgan shoir,
Ularni adashmay farqlamog'ing shart!

Sening ko'zlaringga ko'rinsin ular,
Sening qulog'ingga chalinsin unlar,
Barchasi rango-rang, saslari turfa. ..

Bilib qo'y, rangi bor armonning hatto,
Orzularning ajib shamoyillari,
Inson qancha bo'lsa, ular ham shuncha.

Turkumga o'n beshta she'r jamlangan. Ularning har birini qayta-qayta o'qib satrlarda yashiringan fikr durlarini anglab olish, shoirning she'riy mushohadasi naqadar ko'lamli, salmoqli ekanligiga iqror bo'lish mumkin. Birmuncha sujetli, kichik hikoyadek taassurot qoldiradigan bu she'rlarda faktlar faktligicha qolmaydi, muhim poetik xulosalar chiqariladi. Bu jihatdan "Uyg'unlik", "Tafakkur", "Millat", "Qadr", "E'tiqod", "Tarix" kabi she'rlar xarakterlidir. Ularda ildizi bir yaxlit chinor bo'lgan insoniyatning bugungi muammolari, Vatan, millat dardi, qalb tovlanishlari o'z aksini topgan. Turkumga kirgan falsafiy teran va badiiy nafosati yuksak she'rlar mana shu xitobli savolga berilgan obrazli javobdek yangraydi.

O'zining otashin she'riyati bilan o'zbek adabiyotiga yangicha nafas, yangicha ruh olib kirgan shoir ayniqsa umrining so'nggi yillarida ayricha bir g'ayrat bilan nihoyatda samarali ijod qildi. Bu davrda "Namoyish", "Hamjihatlik", "Gamlet", "Osmondagi zilzila", "Kun ko'rish", "Qalb", "Tavollo", "Surxon mo'jizalari", "Oddiy haqiqat", "Qishloq oqshomlari", "Kibr", "Daryo", "Sayrob chinori", "Qaytish", "Ozon qatlami", "Paradoks", "Najot", "Qiyomat alomatlari", "Kema" singari inson ruhiyatining qatlamlari rang-barang bo'yoqlarda inkishof etilgan she'rlar yaratildi. "Har qanday fikrni, har qanday g'oyani, tashbehni uddasidan chiqib ayta olish, tasvirlay bilish san'atkorlikning eng muhim xususiyatidir. Yo'qsa, har qanday kuchli fikr ham oddiy ilmiy axborotga aylanib qolishi hech gap emas", deydi shoir. Bu she'rlarda turfa xil yangi-yangi ranglar, quyma fikrlar jilolanadi. O'ziga xoslik, betakrorlik, topqirlik, ohori to'kilmaganlik, teran fikr, ayni chog'da yuraklarni o'rtab yuboradigan his-tuyg'u shoir ijodini bezab turgan xususiyatlardir. "Vorislik", "Apokalipsis" singari she'rlar shoir she'riyatining o'zak yo'nalishlaridan biri bo'lgan inson, uning nihoyatda murakkab shakl-u shamoyili, qalbidagi ezgulik bilan xarakteridagi yovuzlikning doimo egizakligi haqida:

"Apokalipsis" she'rida yong'in, zilzila, vulqon, lava kabi tabiat hodisalari qarshisida bandasi chorasiz ekanligi, "na boshi, na

adog'i bor poyonsiz ochun"da bunday hodisalar uzluksiz davom etib kelayotganligi haqida so'z yuritiladi:

Cheksiz koinotning tirik vujudi
Balki to'lg'onmoqda zamonlar o'tib.
Balki ummon bo'lgay tog'lar hududi,
Vaqt inson xohishin turmaydi kutib.

Balki milyard yillar ostonasida
Bundan battarrog'in ko'rgandir zamin.
Balki Yaratgan ham koshonasida
Ortig'in yo'qotib, butlaydi kamin.

Lekin ne bo'lsa ham inson zotini
So'ngsiz savollarga ko'mgay ushbu hol.
U faqat bilgaydir o'z hayotini,
Chorasiz qolgaydir kelganda zavol.

Daf'atan ayqashib yer bilan osmon
Do'zaxning beshafqat shamoli yelsa,
Deysan, o kibrga berilgan inson
Sen uni to'xtatgin qo'lingdan kelsa.

Biroq she'r bu haqiqatlarni qayd etish uchungina yozilmagan. She'rdan chiqarilgan poetik xulosaga e'tibor beraylik:

Ammo yuraklarda bordir bir alam,
U bois tugamas tashvishlar, g'amlar.
Zamin talvasasi bosilganda ham
Bir-birin tinch qo'ymas, afsus, odamlar.

Insoniyatga tahdid soluvchi tabiat hodisalari doimo bo'lgan va bundan keyin ham yuz beraveradi, ulardan qochib qutulish mushkul. Biroq har bir inson o'z qalb sofligini, insoniyligini saqlab qolishi uning o'z qo'lida. "Ozon qatlami" she'rida bu g'oya yanada teranroq ifodalangan. Yerni harir pardadek o'rab turgan havo qat-

lami sayyoramizni o'tkir nurlardan asrashi yaxshi ma'lum. Biroq dunyo o'z yog'ida qovrilib ado bo'lmasligi uchun har bir insonning o'z ozon qatlami bo'lmog'i zarur. Toki bu qatlam insonni noqislikdan asrasin, qalbida yovuzlikka joy bermasin:

Kimda sobit emas gar o'sha qatlam,
Imoni abasdir, o'ylari chirkin.
So'qirga aylanib ochiq ko'zlar ham,
Ezgulik o'rnini qoplar hasad, kin.

Yo'qolib ketgan choq insof, diyonat,
Toza vujudlarga Iblis bo'lur jo.
Alhazar, bundaylar alal-oqibat,
Anglay olmagaylar Vatanni, hatto.

Zaminda ustuvor bo'ldimi kibr —
Ellar bezovta-yu notinchdir zamon.
Aqlga zo'r kelsa jaholat oxir
Madad bera olgay na yer, na osmon.

Shoir mana shu ma'naviy "qatlam"ning barbod bo'lishidan, unga shikast yetkazilishidan bezovta:

Yashaysan goh shod-u, goh dilda kadar,
O'zingniki erur quvonching, g'aming.
Lekin ogoh bo'lgin doim, birodar,
Butun turibdimi ozon qatlaming?!

Uchinchi Renessansga poydevor qo'yilayotgan, Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan o'ta muhim bir davrida shoir ijodiga bo'lgan e'tibor va qiziqish yuksak pog'onaga ko'tarildi. Tavalludining sakson yilligi keng nishonlandi, poytaxtimizda va Qarshi shahrida shoir haykali qad ko'tardi, uning nomidagi ijod maktabi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatida yosh ijodkorlarning Zomin maktabi tashkil etilayotgan davrlarni eslab quyidagilarni ta'kidladi: "Abdulla Oripov

bir kun aylanib yurib uchta she'r yozib berardi. U uchta she'rlarning ma'nosini tushunish uchun o'nta kitob o'qish kerak edi". Ushbu qisqa ta'rifda shoirning katta san'atkor ekanligi, Abdulla Oripov bizga qoldirgan ulkan ma'naviy boylikni asrash zarurligi o'z ifodasini topgan.

Doniyor Begimqulov,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

KUZ XAYOLLARI

1

Qorayganda uzoq tog‘larning qori,
Bog‘larga cho‘kkanda oqshomgi tuman,
Sovuq kuz yelidan junjikib, nari
Ochiq ayvon ostin etganda maskan,
Do‘stginam, xayolan quchaman seni,
Xazon davrasida kutaman seni.

2

Bunda bari go‘zal: tim qora oqshom,
Yulduzlar boqadi tund va yovvoyi.
Qamishzor, shovullab turguvchi soy ham
Sovuq va yoqimli: shundoq anvoyi,
Ularga boqaman, to‘naman ba’zan,
Shirin bir xayolga cho‘maman ba’zan.

3

Nimani xohlayman? Istagim nima?
Changalzor shovqinin tinglab turaman.
Yaproqlar bandida kezgan jimgina
Ma’yus va bezovta kuzni ko‘raman.
Uning qo‘shig‘ida, uning ohida
Sezaman odamzod qalbin gohida.

4

Unga bari birday hayot va o‘lim,
Go‘yoki keksa chol so‘ngini o‘ylar.
Va sekin silkitib kahrabo qo‘lin

Ko‘rganin-bilganin birma-bir so‘ylar.
Bir hikmat o‘qiyman xazonlarda men:
"Yashagin-u, biroq yaproq bo‘lma sen".

5

Mangu yashillikning maskani qayda,
Qaydadir xazonni bilmagan bahor?
Nechun u hovliqib oqquvchi soyda
Chavandoz umrning qaytmas sehri bor?!
Nechun uyg‘onadi qaytadan bahor,
Nechun inson umri bo‘lmagay takror?..

6

Meni savollarga ko‘mar daf’atan,
Xazonning taqdiri, so‘nggi shovqini.
Ko‘zimga ko‘rinar umrim qaytadan,
Garchand surmoqdaman bahor shavqini,
Garchand yigit yoshim yashnab tursa ham,
Keksalik qismatin o‘ylayman shu dam.

7

Shu dam tuyg‘ularga to‘ladi ko‘nglim,
Titrab tarashlayman qalamim uchin.
Tong hami yorishadi, ey mening umrim,
Bunchalar tezlikda chopasan nechun?
Xazonlar shoshadi, shoshaman men ham,
Do‘stim, huzurimga shoshib kel sen ham!

1962

ODAMLAR

— Ey, yo'lovchi, bo'la qol qo'noq,
Uyda borin ko'ramiz baham.
Tag'in o'zing bilasan, biroq,
Qosh qoraydi, yiroqdir yo'l ham.
Yo'lchi qolar ovulda, mezbon
Keltiradi topgan-tutganni.
Otamlashar so'ngra ikkovlon
Yodga olib o'tgan-ketganni.
Horg'in yo'lchi mudrar ichib choy,
Cho'ziladi mezbon ham asta.
Tongda yo'lchi tovush qilar. — Hoy,
Men ketdim. — Qol! — Rahmat.
Shu bas-da!
Ajralishar, ular hattoki
Ismlarin so'rashmaslar ham.
Ular qayta uchrashar balki,
Balki qayta uchrashmaslar ham...

1963

ESLASH

Har tong qarshilardim seni shu yo'lda,
Bilmam, qaylargadir shoshib o'tarding.
Ilk bahor seliday toshib o'tarding,
Nigohsiz kimsaga, na o'ng-u so'lga
Men derdim, bu qizning qayda go'shasi,
Yo'llarida uning kimdir zormikan?
O, u sevgisidan baxtiyormikan,
Va yo manzilida xazon to'shagi?
Endi yo'llarimiz tushdi ko'p yiroq,
Bosildi qalbdagi o'shal to'fonlar.
Qaydasan, qalbimni tirnagan so'roq,
Qaydasan, ilhom baxsh aylagan onlar?

O'ZBEKISTON DAVLAT UNIVERSITETI
48941

Qaydasan, men seni unutgim kelmas,
Umr yo'llarimning totli damlari?
Bunda o'tgan bir yil, qayg'u ham havas,
Yonish, o'rtanishlar, xayollar bari...

1963

* * *

Derazangni qoplar oqshom zulmati,
Izin qora aylab botadi oy ham.
Nechun meni faqat shu zulmat payti
Quchib ardoqlaysan, nozik farishtam?
Samoviy ko'zlaring sachratib uchqun,
Nechun tikiladi faqat o'shanda?
O, nahot shu ko'zlar yotdir men uchun
Kunduz mash'alasi porlab turganda.
Teppamdan tun kabi quyiladi soch,
Qora tun yonadi otash yuzlarda.
Nechun o'zgalarga nur sochgan quyosh
Bizning oramizda bo'ladi parda?
Nechun ikkimizni qoldirib yolg'iz,
Koinot tubida quyosh chekar oh?
Javob ber, qoshingda cho'kmakdaman tiz,
Javob ber, makringdan meni qil ogoh.

1963

* * *

O'ylardimki, nomingni sening
Takror etmas endi tillarim.
Ko'p bo'lmishki, qo'msab vaslingni
Yo'llaringda oqmas unlarim,
Men beparvo yayrab arshimda
Sen uchun ham yurardim shodon.
Nechun paydo bo'lding qarshimda,

Yana kabob bo'lsinmi bu jon.
Yana qo'shiq aytaymi ingrab,
Yana anduh bo'lsinmi ishim?!
Istamayman, g'amimni tinglab,
Do'stlarimning ma'yus bo'lishin...
Xayr endi, xayr dilrabo,
Mayli kuylay nomingni aytib,
Katta yo'lga chiqqanman, ammo
Ul so'qmoqqa bormasman qaytib,
Xayr endi, xayr, dilrabo.

1963

* * *

Jajji go'dak, sen tug'ilding, sen uchun
Kim belanchak yasab turar shu damda.
Kimdir senga uchqur tulpor egarlar,
Kimdir senga hassa yo'nar shu damda.

1963

SEN BAHORNI SOG‘INMADINGMI?

Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yanog‘ingdan rang olgan dedim
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o‘zingni,
— Sen bahorni sog‘inmadingmi?

Uzoqlarda zalvarli tog‘lar
Xayolimni keldilar bosib.
Kechdi qancha intizor chog‘lar,
Vasling menga bo‘lmadi nasib,
Sensiz men ham, bahor ham g‘arib,
— Sen bahorni sog‘inmadingmi?

O‘ngirlarda sakraydi ohu,
Na’matakda sa’va mitti jon.
Qorliklardan sipqarilgan suv,
Daralarda uradi javlon.
Nigohimdan faqat sen pinhon,
— Sen bahorni sog‘inmadingmi?

Mana, bugun navro‘zi olam,
Do‘stlarimga gullar tutarman.
Qaylardasan, sevgili erkam..
Qo‘limda gul, seni kutarman,
Umrim bo‘yi chorlab o‘tarman,
— Sen bahorni sog‘inmadingmi?

1963

* * *

Kel, yorug‘ et, sensiz bu xona
Zulmat to‘la qorong‘i qafas.
Sensiz dunyo o‘zi e... nima
Huvullagan vayrona-ku, bas,
Kel, yorug‘ et, sensiz bu xona.

Qizig‘i yo‘q menga yashashning
Bu xilvatda do‘st-u yoronsiz.
Yorgudayin qalbimni g‘ashlik.
Yoril, yurak, do‘st-u yoronsiz
Kimga qizig‘i bor yashashning...

Eshigimdan o‘tgan yo‘lovchi
Ketma, ketma, kirgil uyimga..
Hamdam bo‘lgil fikrim-o‘yimga
Kelgil, mayli, dushman bo‘lsang-da.
O, tanholik qursin, kel, odam,
Mayli, kim bo‘lsang...

1964

KUZ MANZARASI

Kechki kuzak kirmoqda, nina sochar izg'irin,
Dehqon ham tashlab ketdi qadrdon dala-qirin.
Huvulab qoldi, mana, gavjum bog'lar, bog'chalar,
Yashil ellarga tomon uchib ketdi qushchalar.
Ketdi qirdan turna ham, bo'shab qoldi tabiat,
O'lik mezonlar kezar sovuq dalada faqat.
Kahrabo ko'z yosh to'kib turar faqat daraxtlar,
Ne qilsin, uchay desa, ularda yo'q qanotlar...

1964

* * *

Goho yer mehrini o'ylarkan,
Esga tushar dorning siyog'i;
Ajab hikmat, odam o'larkan
Uzilganda... yerdan oyog'i.

1964

YUZMA-YUZ

I

Kelingiz, do'stlarim, keling, bir nafas
So'zlashib olaylik ochiq, yuzma-yuz.
U yiroq istiqbol mavzumizdir, bas,
Demakkim, istiqbol borasida so'z.
Kelingiz, do'stlarim, keling, bir nafas
Shu ko'hna daftarni ochaylik yana.
Erish tuyulmasin tashbihlarim, bas,
Hozir dabdurustdan deymanki: ana,
Mamontlar to'dasi chiqdi o'rmondan,
Shimol ko'chkiniday vahshiy va sarmast
Va lekin vahshiyroq to'da har yondan
Bostirib keldilar guras va guras,

Yana to‘qnash keldi inson va hayvon,
Yana hayot uchun jang ketdi uzoq.
Yana g‘olib keldi vahshiy olomon,
Yana sho‘rlik mamont yengildi, biroq
O‘sha kun buzildi azaliy udum,
Uni inson o‘zi buzib tashladi.
Kunduzgi oshkora o‘g‘rilarday u
O‘ljasin uy-uyga torta boshladi.
Bizning boshimizni bog‘lagan zulmat,
Notiqlar tutaqib so‘kkan zulm, qon,
Dunyodagi neki yomonlik, kulfat,
Barchasi boshlangan edi o‘sha on...
Yo‘q, havas qilmayman maymunga hecham,
Ishtonsiz ajdodni qo‘msamoq nega?
Ammo o‘ljasini talashgan odam
Yo‘ldan adashganday ko‘rinar menga.
Men bir tajribasiz, g‘o‘r yigit, nechun
Adashding deyapman dunyoga, hayhot.
Abdulla, xanjarni o‘zingga urgin,
Sen o‘zing adashmay o‘sdingmi, nahot?!
Ha, yoshlikda men ham biroz adashdim,
Qotil bo‘lganim yo‘q, ammo har qalay...
Dunyo ham bir vaqtlar mamont talashib,
Adashib ketgandi yo‘lidan menday.
U sho‘rlik ilk bora o‘rmonga qochdi,
Quldorning kaltagi qonatdi burnin,
Spartak bo‘lib so‘ng haqqin talashdi,
Zevs siymosida axtardi o‘rnin.
Mangu ekzotika — Rimni u qurdi,
Biroq tiyolmadi ko‘zda yoshini:
Yuragiga Sezar nayzasin urdi,
Chingizxon cho‘qmori yordi boshini.
Asrlar shundayin tentib o‘tdilar,
Yer uzra hukmron g‘am bo‘ldi faqat!
Kimlarki yaxshilik donin ekdilar
Yomon deb nom oldi o‘zi oqibat!

Nahotki dunyoda haqsizlik mangu,
Nahotki odamzod qilingandir oq?!
Nahot o'sha Freyd haq bo'lsa, yohu,
Nahot qotil bo'lsa o'sib chaqaloq?!
Odamlar bir zamon eng buyuk ma'ni
Yoshlik sofligiga qo'yganlar sarhad.
Yoshlik sofligiga kim qaytmas, qani,
Adashgan yo'lidan kim qaytsa, shu mard!
Yer yuzida kechgan zulmat-u vahshat
Chekinar-ku oxir chirib va qarib.
Faqat U istiqbol — ul ezgu niyat
Insonga sofligin berar qaytarib.
...O'jar muxoliflar, sal pastga tushing,
Og'irroq bo'ling sal, siz ham, jo'ralar.
Ey, nozik o'quvchim, uchmasin hushing,
Buyuk maqsad sari yetsa misralar.
Faryod solmang tag'in, qizil gap, deya,
Elga farzand inson elning gapin der.
Sizga bir juft savol aylayin hadya:
Mavzuda nima ayb, g'aliz bo'lsa she'r?
Oson qutulamiz mavzudan ba'zan,
Xaspo'shlab o'tamiz, urra-urralab.
So'ngra dod solamiz: — Falon-u piston,
Quloqqa yoqmaydi deymiz — o'sha gap.
Holbuki, o'zimiz axtargan baxtlar,
Bo'g'zimizda turgan har ezgu armon
Barchasi bir so'zda jamlandi, agar
Yoqmasa topingiz boshqa biror nom!
Ha, men istiqbolni kuylayman, balli,
Unda xalq yo'liga tutashar yo'lim.
Biroq urralarni sevmayman hali,
Urra demoqlikka qisiqdir tilim!
Ba'zi odamlarni ko'rsatib hali
Qiyindir sof inson, deya atamoq.
Garchi inson zoti bo'lolmas pari,
Biroq hali bordir shaytonga o'rtoq.

Qora bulut yog'may ketsa-da magar,
Tiniq ko'zgularga to'shab o'tar nam.
Hali osmonlarda bulutlar uchrar,
Hali nayzalar bor, ba'zan menga ham
Shundayin tikanlar sanchilar goho...
Shunda hamdard bo'lar shirin mehnatim.
Do'stlar davrasidan ketaman hatto,
Olis yulduzlarga ko'char xilqatim.
...Yulduzlar, yulduzlar, siz mening uchun
Soflik va ma'sumlik bo'lib yondingiz.
Borim shudir, deya jovdirab sekin
Oq ko'ngil farzandim bo'lib qoldingiz.
Yo'q! Yo'q! Men sizlarga termilib bedor
Falak safarini o'ylaganim yo'q.
Yulduzlar, men sizga boqqanda xumor,
Qalbimda yer ishqi bo'ladi to'liq.
Yulduzlar, bilmaysiz mening xalqimni,
Bundayin zahmatkash yer yuzida kam.
Yelda tinim bordir, unda yo'q tinim,
Shunday ishparastdir u munisginam.
Men uni o'ylayman tun-kechalarda,
Ona xalqim, deyman, mehrim oqar jim.
Ko'zimga ba'zida ko'rinsa janda
Ko'nglim to'lib ketar, ingrayman, xalqim.
Xalqim, moziy o'tdi, tole ko'rmading,
Pishirding o'zingga benasib taom.
Kiygizding birovga, o'zing kiymading,
Yulduzni kashf etib nom olding — avom!
O'tganga achinmoq odatim yo'qdir,
Behuda motamlar tekkandir jonga
Va lekin tosh otmay ilojim yo'qdir
Furqatni badarg'a qilgan zamonga.
Meni kechiringiz, oddiy odamlar,
Sizni esga solar har mash'um taqdir.
Orangizda o'tdi qancha Furqatlar,
Bezgakka chalindi qancha Alisher!

Yer yuzida kezgan zulmat-u vahshat
Chekinar-ku axir, pok bo'lar dunyo!
Faqat u Istiqbol — ul ezgu niyat
Xalqimga baxtini aylar hadya.

II

Mezonlar uchmoqda, havo billurdan...
Yana hislarimga kel, deb yolvordim.
Xazonlar to'kildi, men ham qalbimdan
Badbin o'ylarimni quvib yubordim.
Ajoyib fasl bu: o'ychan, barkamol
Qizday ma'yusgina turadi kuylab.
Men kuzni sevaman, kezarkan xushhol
Oltin O'zbekiston tuprog'i bo'ylab.
Bo'g'zimga hislarim tiqilar yana,
Tanho tentirayman, bilmayman, nechun.
Kuylagim keladi, tunlar jimgina,
Gulgun shafaqlarning sog'ligi uchun.
Kumushrang yo'llarda ot surib yursam,
Shimirsam shabnamdan, kuylasam sarmast.
So'ngsiz vodiylarga termilib tursam,
Beparvo ohuda qo'zg'asam havas.
Ammo kechalar men kezsam-da bedor,
Ohular qo'ynimga kirsa-da qizdek,
Mening nigohimni tortadi takror,
Million egatlarga sochilgan o'zbek.
Garchand paxtazorga boqaman men ham
Va lekin dilimda tashvish bor mening.
Mayliga, sho'x qo'shiq yangrasin tilda,
Rangpar singilginam, o'ylayman seni.
Kuzgi rayhondayin ma'yus o'sding sen,
Tabiat bermadi bilagingga kuch.
O'zingday odamga qalliq tushding sen,
Na sog'liq, na yordan yolchimading hech.
Men seni o'ylasam, singlim — rangparim,

Goho to‘lg‘anaman so‘zsiz, hasratda.
Sen unda ter to‘ksang, singlim, jigarim,
Men nechun yuraman axir ishratda?!
Yo‘q, rangpar bo‘lmasin hech kim ham, yo‘q, yo‘q!
Singillar polvonday yursinlar bardam.
Va lekin tabiat bermaydi huquq
Polvon deb ularni unutmoqqa ham...
Sening qatoringda ona xalq bordir:
Sen kabi mehnatkash, sen kabi suyuk.
Uning tashvishini unutmoq ordir,
Uni unutganlar — to‘nkadir, kuyuk.
Singilga — xalqimga boqsam doimo
Ulug‘ kelajakni ayladim orzu.
Dedim: Istiqboldan baxt topar dunyo.
Dedilar: go‘dagim, to‘g‘ri yo‘ling shu.
Qo‘limdan tutdi-yu, shu ulug‘ imon,
Mening ham ko‘nglimda jo‘shdi tilagim,
Ammo ba’zilarga duch kelsam bir on
Achchiq iztirobga to‘lar yuragim.
Rost-da, birovlarni etadi shaydo,
O‘z aybi turganda o‘zga bir chiroy.
Kulgi arimasin lablardan, ammo
Taqdir erkalatdi bizni har qalay...
Sokin kechalarda kelar yodimga
Qanchalab juvonmarg yigit qismati.
Deyman, qani yonsa avlod qonida
O‘sha otalarning buyuk shiddati.
Xudbin tengdoshimga qarayman g‘amgin,
Ko‘lmak davra ko‘rsam ezilar ko‘nglim.
Xalqim, kelajaging o‘shalarmikin,
Xalqim, shundaylarga qolmasin kuning.
Men o‘zim nimaman? Aslida, balkim
Eng no‘noq odamdan no‘noqman, faqat,
Faqat bir narsani yashirmas qalbim:
Mening yuragimda bordir Muhabbat!
Seni, ona xalqim, sevaman jondan,

Sening tashvishingni tashvishim deyman.
Nima qilolardim? Foydam kam garchand,
Biroq men o'zimcha g'amingni yeyman.
Dildan quvonaman, qirlarda poda
Yag'rini yaltirab yurganin ko'rsam.
Dildan quvonaman, toshloq yerlarda
Bug'doyzor shovullab turganin ko'rsam.
Suyunib ketaman maktab boladay,
Sonsiz mo'rilarda ko'rarkan tutun.
Ana, tanish uyda dog' bo'lmoqda moy,
Shivirlayman: — Singlim, nasibang butun!
Kuylab zamondoshning qadd-u kamolin
Erkinning sho'x sozi taratsa jarang,
Deyman, u Istiqbol — ul munis tole
Xalqimga sho'x qo'shiq bermoqda, qarang.
To'y-u to'yxonani ko'rsam, hamma vaqt
Ulug' zamonaga aytdim shukrona.
Ammo inson umri to'y emas har vaqt,
Olddadir hali eng go'zal zamona.
Istayman, qora rang qolmasa jinday,
Istayman, botmasa shu rangin quyosh.
Akaning singilga achinganiday
Inson inson uchun to'ka olsa yosh.
Ona xalq baxti deb har vaqt, har qachon,
Istayman, bir safda tursa odamlar.
Sokin kechalarda qalbni nogahon
Qurshab olganida shunday ohanglar
Sizga talpinaman, odamlar, yana,
O'tmish muhabbatga talpinganday jon.
Ammo ba'zi mahal qolaman yakka
Sevgisi rad bo'lgan yosh Vertersimon.
Yo'qol, ey behuda mag'rurlik hissi,
Yo'qol, ey behuda samoviy damlar.
O'zimni sizlardan ajratsam, so'zsiz
Tavajjuh etmangiz deyman, odamlar!
Do'stlarim, men sizga talpingan damda

Qalbimda bo‘ladi yolg‘iz bir ra’yim:
Xiyonat bo‘lmasa deyman hech kimda,
Do‘stlarning imoni but bo‘lsa doim.
Deydilar: dunyoni kurash aylar bir,
Inson jang-jadalda bo‘lar juft-u toq.
Axir qon oqishi shartmikan, axir,
Bu kurash qaysi bir jangdan osonroq?!
Deymizki, olamni bug‘doyzor bossin,
Yer yuzida faqat yangrasin kulgi.
Axir, bug‘doyzorning o‘zi unmaskim,
Dildan kula bilish oson emas-ku.
Ha, buyuk jang bu ham, qoshida xomush
Ne o‘jar odamlar bosh egmoqda jim.
Shu metin saflarni kim buzolur, xo‘sh,
Shu ezgu kurashdan chetda turar kim?!
Qani, hey do‘stlarim, tinglangiz so‘zim,
Bir so‘zkim, oddiydir, haqiqatsimon.
Deymanki: Istiqbol — tarixning o‘zi,
Kelmoqda kimga do‘st, kimga beomon.
Hayqiryapman hozir... Ba’zida lekin
Zaif shamollarga bo‘ysunar sozim.
Yuragim, yuragim, mittisan-ku, sen,
Hayqirish aslida sengami lozim.
Bilaman, ortimdan kimdir o‘qrayib,
Qarab o‘tiribdi xuddi shu zamon.
Qani, hey, bu yo‘ldan bo‘lmasin toyish,
Qani, hey, Istiqbol, yangra beomon!
Mayliga sozimni sevmas davralar,
Oshiqlar satrimdan chekmaslar faryod.
Mening xayolimni hozir yetaklar
Faqat Istiqbolni eslatgan hayot.
Ana, yo‘l chetida borar qurilish,
G‘isht teruvchi yigit dorbozday yurar.
Otga qamchi urar kerosinfurush,
Bir kampir engashib ko‘cha supurar.
Ana u tanish joy — anhor qirg‘og‘i,

Pivoga ko'p xumor talaba do'stim,
Men sening ismingni bilmayman, soqiy,
Buyur men uchun ham mayli bir juftin.
Ularga boqaman, qalbimda o'qtin
Bir xushnud hissiyot ko'tarar yelkan.
O'zgalarning g'ami yig'latsa, nechun,
Nechun iqbollari quvnatmas ekan?
Axir insof bilan o'ylasang-ku, rost,
O'shalardir bugun sohibi zamon.
Hech kimning hech kimdan tili qisiqmas,
Chegaradir faqat insof va vijdon.

* * *

Qani, hey, do'stlarim, tashlang bir qadam
Shu ezgu Istiqbol himoyasiga.
Men sizni kutaman, ushbu she'rim ham
O'shanda yetadi nihoyasiga!

1964

SHUNDAY YASHAR ODATDA ODAM

Yo'q kerakmas, qo'ying, kerakmas,
Menga orom istamang, do'stlar.
Xilvat soz deb qistamang, do'stlar,
Qo'ying, bunday orom kerakmas.
Nogahonda xayolga botsam,
Yo uxlasam, uyg'oting darrov,
Nomim tutib, so'z qoting darrov.
Behudaga bir yoqqa borsam,
Qo'llarimdan ushlab o'shal dam
Kurashlarning safiga qo'shing,
Qur, yarat deng,
Hayqir deng, jo'sh deng,
Shunday yashar odatda odam.

1964

ONAMGA XAT

Qaytgim keldi, onam, yoningga
Yuragimda ismsiz dardlar.
Sovuq xonam, soat chiq-chiqi,
Tashqarida xazonrez bog'lar,
Yomg'irning jim xonish qilishi...
Barisi ham nechundir bu dam
Tushirmoqda seni yodimga...
Qaytgim keldi, onam, yoningga.
Yuragimni ochib gapirsam,
Kam-kam bo'lar menda bunday hol.
Shodmon yursam, mening yodimga
Sen tushmaysan rostdan, onajon.
Nogahoniy bunday holda-chi,
Shunday ko'rgim keladi seni.
Aytsam senga bor gaplarimni,
Orzularim, hasratlarimni
Yig'lab, kulib aytgim kelar, ha,
Odamlarning qadr-u qimmatin
Anglamaymiz birga bo'lganda.
Ammo nogoh uzoqqa tushsak,
Yo tanholik hasratin cheksak,
Ba'zan shundoq,
Odam zotining
Tirnog'iga zor bo'lamiz, ha!
Tushunmayman bul haqiqatni,
Sen-ku, axir onasan, ona...
Onam, ranjimagil xatimdan,
Men rostini yozdim, shod damim
Sen tushmaysan aslo esimga.
Ammo hayot o'zi, bilaman,
Solar seni yodimga bot-bot.
Ya'ni, boshimizni doim ham
Ona bo'lib silamas hayot.

1963

MEN NECHUN SEVAMAN O‘ZBEKISTONNI

Men nechun sevaman O‘zbekistonni
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo.
Nechun Vatan deya yer-u osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho.
Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.
Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Bog‘larin jannat deb ko‘z-ko‘z etaman,
Nechun ardoqlarkan tuprog‘ini men
O‘paman:
"Tuprog‘ing bebaho, Vatan..."
Aslida tuproqni odil tabiat
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.
Nechun bu tuproq deb yig‘ladi Furqat,
O, Qashqar tuprog‘i,
qashshoqmiding sen?!
Xo‘sh, nechun sevasan O‘zbekistonni,
Sababini aytgin desalar menga,
Shoirona go‘zal so‘zlardan oldin
Men ta’zim qilaman ona xalqimga:
Xalqim, tarix hukmi seni agarda
Mangu muzliklarga eltgan bo‘lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo‘lsayding,
Mehrim bermasmidim o‘sha muzlarga?
Vatanlar,
Vatanlar,
Mayli, gullasin,
Bog‘ unsin mangulik muzda ham, ammo
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo‘lsa kechirma aslo!

1964

DORBOZ

Bulutlarga yondosh,
Osmon ostida
Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz.
Qilichning damiday arqon ustida
Ko‘zlarini yumib yuribdi dorboz.
Odamlar, odamlar, uni olqishlang,
Qarang, u naqadar epchil va o‘ktam.
Biz-chi, eh... ba’zi bir ko‘zi ochiqlar
Eplab yurolmaymiz katta yo‘lda ham.

1965

ASRIMIZ ODAMI

Mening ko‘z o‘ngimda jonlanar tarix,
G‘amlardan to‘qilgan shu ko‘hna olam.
Asrlar birma-bir o‘tar va axir
Yuksalar qarshimda eng baxtli odam.
Yuksalar-u, shu dam chopar, urinar,
Talpinar qaygadir bilmasdan tinim.
Baxtining yonida g‘ami ko‘rinar,
G‘ami ko‘rinadi baxtida uning.
Bilagida garchand yetarli kuchi,
Boylik ergashsa-da garchand ortidan,
Uning chehrasida tashvish bor, nechun?
Nechun u ayrilmish halovatidan?
Goh bemor boshida jarroh bo‘lib u
“Taqdiri azal”ga ko‘rsatsa kuchin.
Goho bir dovyurak sayyoh bo‘lib u
Sovuq Arktikaga uradi to‘shin.
Dam og‘ir xayolga bo‘lur zanjirband,
Dam qo‘shiq to‘qiydi u yona-yona.
Intilar yulduzlar tumaniga dam,
Dam oyning yonida bo‘lar parvona.

O‘ZBEKISTON DAVLAT UNIVERSITETI
№ 48941

U nima istaydi? Shon-u shavkatmi?
Yulduzlardan baland, kundan purziyo.
U nima istaydi? Tengsiz qudratmi,
Oyog'i ostida yotsinmi dunyo?!
U nima istaydi? Balki istagi
Uning tegrasida aylansin olam?
O, do'stim, savolning yo'qdir keragi,
U istaydi buning hammasini ham!
Odamlar o'tdilar bir vaqt, bir zamon,
O'tdilar eng oddiy baxtdan ham yiroq
Yagona orzusi edi parcha non,
Eng buyuk armoni — ozod yashamoq!
Odamlar o'tdilar bir vaqt, bir zamon,
Ha, yashab o'tdilar, endi-chi, mana:
O'zi bandi bo'lgan olam ustidan
Hokim bo'lmoqni u istar yagona!

1964

"MUNOJOT"NI TINGLAB...

Qani, ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang,
Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am.
Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,
Qaylardan tug'ilmish bu oh-u faryod.
Kim u yig'layotgan? Navoiymikin
Va yo may kuychisi Xayyommikin, dod!
Yetar, ey cholg'uvchi, bas qil sozingni,
Bas, yetar, ko'ksimga urmagil xanjar.
Nahotki dunyoda shuncha g'am bordir!
Agar shu munojot rost bo'lsa agar,
Agar aldamasa shu sovuq simlar,
Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo,
Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,

Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!..
Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,
Asrlar g'amini so'ylar munojot.
Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod!

1964

ALBOMGA

O'z qalbini dafn etdi shunda.
Bayron.

Yuzlab shoir yotgan qabriston aro
Ko'mmoqdaman men ham qalbimni.
Yuzlab mozor ichra adashmay aslo
Topa olgin mening qabrimni.
Mana, gulga cho'mib yotibdi Bayron,
Faxrlanib lordligi uchun.
Sen meni unutib qo'ymagin ammo
Gunohim — havaskor, mo'rtligim uchun...
Reyn bo'ylaridan Geyne ham shunda,
Go'zal Loreleya tinglar sirini.
Bir qo'li inqilob nog'orasida,
Amaliya tomon cho'zgan birini.
Yuzlab shoir yotar bunda, bari ham
Janglar maydonida jangdan so'zlagan.
Nechun senga kelganda, albom,
Har kim o'z dardini aytib bo'zlagan?!
Buyuk jangchilar ham varag'ing ochib,
Alamlar sharhidan o'tmadi aslo.
Albom, albom, janglar da'vatiga sen
Nahot berolmasding bir aksi sado?!
Yuzlab shoir yotgan shu albom ichra
Men ham qalbim uchun qabr qazaman.
Hali iz tushmagan oppoq varaqqa
Men ham o'z dardimni yozaman.
Ammo kecha ko'rgan tushimni emas,

Hur Vatan so‘zini yozaman, o‘rtoq!
Zotan, yurt hurligi o‘zi men uchun
Barcha shaxsiy ishdan ko‘ra shaxsiyroq!
Kim menga aftini bujmaytdi shu zum.
Kim menga panadan e’lon qildi jang?!
Gar shu asrda ham hur Vatan ishin
O‘z ishimdir, deya qabul etmasang,
Tan olmasang agar millionlar dardin,
Uni albomingga yozmasang agar,
Mayliga, ko‘zlaring ko‘r bo‘la qolsin,
Mayli, quloqlaring bo‘lib qolsin kar.
Ko‘zlaringni ochgin, qara dunyoga,
Do‘stim, haqiqatni his et bir zamon.
Sen uchun, men uchun jangda mardona
Million-million odam to‘kkan edi qon.
Tarix bizlar uchun jangga kirganda
Nima kerak yashash o‘rgimchak misol.
Ozodlik, yo‘lingga g‘ov bo‘lganlarga
Nayzaday sanchil-u, tezroq bo‘la qol...
Hurriyat shundayin ezgu so‘zdirkim,
Uning zamirida eng oliy qismat...
Unda men axtargan eng porloq Inson,
Unda men istagan sinmas haqiqat!
Hur Vatan so‘zini yozdim albomga,
Sen unga boqmagin bir ermaksimon.
Qalbim buyurmasa, biror so‘zni ham
Yozmasman hech qayda, hech vaqt, hech qachon!

1964

O‘ZBEKISTONDA KUZ

Yurgil, dalalarga ketaylik, do‘stim,
Diqqinafas uyda yotmoq paytimas.
Oltin O‘zbekiston tuprog‘i bu kun
Bir pari faslning og‘ushida mast.

Shabnam shovullaydi bog‘lar qo‘ynida,
Salqin tuman ichra bo‘zarar tonglar.
Quyoshning erinchoq yog‘dularida
Nafis yaltiraydi bargi xazonlar.
Har yonda to‘kinlik...
Kuzdan nishona...
Har yonda go‘zallik yoymish daftarin.
Sonsiz egatlarga sochilmish, ana,
Mening shodliklarim,
ezgu dardlarim, —
Mening ona xalqim...
Ey qadim, halol,
Rizqi ona yerga sepilgan xalqim,
Ushoq chigitni ham etmay deb uvol,
Million egatlarga egilgan xalqim!
Bir nafas boshingni ko‘targin-u, boq
Yer yuzida ajib viqor va nufuz.
Sening o‘zing kabi o‘ychan va quvnoq
Xushfe’l bo‘lib kelmish tuprog‘ingga kuz.
Ulug‘ Alisherning soch oqin ko‘rib,
Og‘ir xayollarga cho‘mgan bu fasl,
Qayrag‘och yonida g‘amgin o‘tirib,
Chollarga hassalar yo‘ngan bu fasl,
Azaliy ko‘rkini qiladi ko‘z-ko‘z...
Nahotki shuncha tez aylanar dunyo?!
Baxtli keksalikni yodga solar kuz.
Sokin xilvatlarga chorlaydi, ammo,
Do‘stginam, paytimas, aylab sayribog‘,
Xilvatda o‘y surish yarashmas bugun.
Zahmatkash o‘zbekning hosili qandoq?!
Kuzning falsafasi shudir biz uchun.
Ulug‘ mehnat kezar shan dalalarda,
Har yonda hokim bir tashvishli ilhom.
Quyosh bota boshlar ... gavjum qirlarga
Qoraya-qoraya to‘shalar oqshom.
Eh, kuzgi oqshomlar...

Dilimda mening
Teran tuyg'ularim qo'zg'alar jo'shib.
Qo'zg'alar-u, shu dam qalbimdan sekin
To'kila boshlaydi oydin bir qo'shiq.

1964

* * *

Oilada tug'ilsa go'dak
Unga suyib qo'yarlar ism.
Gar bog'lansa ikkita yurak,
Do'stlik deyish bo'lgandir rasm.
Volidalar go'dagi uchun
Beshik olib, tortadilar osh.
Xuddi shunday, do'stlar ham u kun
Bir-biridan aylaydi maosh.
Inson yashar, payti ham kelar
To'xtab qolar umr — yugurik.
Lekin, do'stlar, ayting, ne bo'lar
Do'st do'stidan ayrilsa tirik?
Tobut o'tar so'nggi ko'prikni,
Qaro yerga uni qo'yarlar.
Do'stlar, ayting, so'ngan do'stlikni
Qayga olib borib ko'marlar?
Marhumlarga ochishib aza
Liboslarni ko'kka bo'yarlar.
Do'stlar, ayting, do'stlik so'nganda
Qanday yig'lab, qanday kiyarlar?
Azalilar ko'rsa yomon tush,
Mozor uzra sukut etarlar.
Tirik turib qayta kelsang duch,
Unda, axir, qayga ketarlar?
Hayhot, ilk bor ingradi ko'nglim,
Bir bargdayin titradim, toldim.
Men do'stimdan ayrildim bugun,

Tirik turib, ayrilib qoldim.
Yozarmidim yig'loqi baytni,
Chekarmidim men axir nola,
Do'stlar, agar boshlanmasaydi
Ikki qalbdan buyuk oila.
Yozarmidim yig'loqi baytni,
Titrarmidim ko'zda yosh bilan,
Do'stlar, agar boshlanmasaydi
Tog' qulashi ikki tosh bilan.
Do'stlar, ayting, dil yonmaganda,
Chekarmidim shunchalar oh-zor.
Agar, agar... Hech bo'lmaganda
Topilsaydi ko'mgali mozor.

1965

TEMIR ODAM

Bir haykal turibdi,
U — Robot emish,
Temirdan yasalgan, odam timsoli.
Ilmda eng so'nggi kashfiyot emish,
Aqlli zot emish, qusurdan xoli.
Shaxmat ham o'ynarmish,
Yer ham qazarmish.
Rasmona yuvarmish yuz-u qo'lini.
Hadis-u hisobdan adashmas emish,
Hattoki sanarmish Somon yo'lini.
Yonida xaloyiq hayratda turar:
— Qarangiz, naqadar aqlli, mumtoz!
Xullaski, olamda kashfiyot derlar,
Kashfiyot emas bu, kechiring, ustoz.
Tilsimni bilmayman, ammo anchayin
Odatim tark etib, ko'krak keraman!
Men sizga temirning xuddi shundayin
Ajib bir nusxasin topib beraman.

U ham ishlay bilar, uning qoshida
Sizning temiringiz ojiz bir buyum.
U ham sanay bilar, uning boshida
Aljabr usuli uyum va uyum.
Balki u donodir beqiyos, yakka,
Balki yo'q uning-chun biror muammo;
Balki u hech qanday temir-tersakka
A'lo vujudini egmaydi, ammo,
Ustoz, qalbi yo'qdir uning ham, hayhot,
Na nafrat, na ishqni tanlaydi u ham.
Uning ham ko'zida chaqnamas hayot,
Munis boqishlarni anglamas u ham.
U ham to'lg'anolmas,
ingramas,
kulmas,
Yig'lagan go'dakni yupatolmas ul.
U ham yulduzlarning hidini bilmas,
Bag'rini tirnamas so'layotgan gul.
Kimsaning mehridan, balki, o, balki
Sizning temiringiz bo'lar minnatdor.
Aziz do'st, mehrni bilmas bu hali,
Do'st kutib yo'llarga chiqmas intizor.
Dunyo-yu odamlar taqdiri zarra
Tashvishga solmagay, yo'q zo'r-u zori.
Tashvishga soladi na qo'shiq va na
Mening yuragimda nimalar bori.
Balki temirlar ham yig'laydi chindan...
Bu-chi, yig'lay olmas, aylangan toshga!
Kimdir u?
Kimdir u? Balki u menman?!
Balki u sizdirsiz?
Balki u boshqa...
Hayotning poyonsiz ummoni ichra
Bor shunday g'ariblar — temirlar hissiz.
Va lekin o'zlarin temirmas sira,
Muhtaram inson, deb atarlar, esiz...

Shundaylar bo‘lmasa, azaldan tuproq
Yashnardi tag‘in ham go‘zalu mumtoz.
Temir odam yasab yurguncha, ko‘proq
“Jonli temir”larni o‘ylangiz, ustoz.

1965

MILTIRAYDI BIR MITTI YULDUZ...

Ko‘k gumabazin bir chetida
Bo‘shliqlarga urib bosh,
Miltiraydi mitti yulduz,
Tanholikdan to‘kib yosh.
Atrofida na bir yulduz
Na bulut bor, na tuman.
Yulduzlarga termilib u
Titrab turar shamsimon.
Eh, bechora, yashash nechun,
Porlamasang, kulmasang.
O‘z to‘dangdan nega uchding,
Qaytish yo‘lin bilmasang?!

1964

TILLA BALIQCHA

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o‘tadi kuni,
Xor-u xas, xazonlar ustin yopdilar.
Dunyoda ko‘rgani shu tor hovuzcha
Va gavjum tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko‘lmak hovuz deb bilar dunyoni!

1965

* * *

Umid bilan suqilgan tayoq
Bir kun berar meva-yu yaproq.
Gyote

Uchqur xayol sohibi yigit
Yashar edi xilvat qishloqda.
Uni bir kun yetaklab umid:
"Xayr, — dedi ona dargohga.
Olim bo'lib qaytay, qishlog'im...
Kechir, qolib ketsam agarda".
Uni yosh va bo'ronli qalbi
Olib ketdi olis shaharga.

Odamlar-chi, ba'zi odamlar
Qishloq aro tarqatdilar gap:
"Hoy, falonchi, eshitdingmi, a,
Huv falonchi daydi bo'lmish zab,
Tagi past-da, qurt bor boshida,
Tortdi falon qarindoshiga..."

Yillar o'tdi... Barg yozdi axir
Umid bilan suqilgan tayoq.
Sharaf senga, sabot va aql,
Sharaf senga, mehnat va idrok!
Olim bo'lib qaytdi u, balli,
Cho'llariga suv chiqargali...

Odamlar-chi, endi, odamlar
Bir-biridan so'rar suyunchi:
"Hoy, birodar, eshitdingmi, a,
Olim bo'lmish o'sha falonchi.
Yoshlikda ham oqil edi, ha,
Tortgan edi bizga, ha, bizga..."

1964

* * *

Quy, do'stim, tillarang sharobdan menga,
Quygin, shonli ulfat ko'rsatsin kuchin.
Ichay, otaginam dehqon haqqiga,
Javdar xirmonining sog'ligi uchun!
Ortiq hech bir nima menga kerakmas,
Boshimda nur sochib tursa bas oftob.
O'sha zahmatkashim omon bo'lsa bas,
Quyilib tursa bas g'azal va sharob.

1964

GIYOH

Ulug'vor bir qudrat bilan
Chayqaladi cho'ng dengiz.
Qancha og'ar xarsang toshlar
Tubda unga cho'kkan tiz.
Ammo mo'jaz, nozik giyoh
O'sha tubsiz o'lkada,
Ko'kka o'sar, ha, dengizni
Ko'targancha yelkada!

1963

* * *

Ko'pdan kutgan edim orziqib, mana,
Bulutlar tarqaldi to'kishib ko'z yosh.
Xayolim osmonday yorishdi yana,
Yorug' kunlarimday porladi quyosh.
Shoshqin daryolarning zangordir labi,
Shamollar o'ynaydi yiroq-yiroqda.
Yurgil, sayr etaylik, yurgil, malagim,
Dunyo tashvishlari qolsin uzoqda.
Ko'ryapsanmi, qanday yasharmish olam,
Beparvo go'dakday jilmayadi jim.

Go‘dagim, bu chiroy qaytmaydi hecham,
Qaytmagani kabi mening yoshligim.
Bugun bosh ustingda yashnagan yaproq
Shovullab to‘kilar erta poyingga.
Bu uchqur yo‘lovchi solmaydi quloq
Sening iltimosing, sening ra’yingga.
Xazonli avgustning biror oqshomi
Uni ko‘rarsanmi tushingda takror?!
Mayliga, o‘zgadir kuzning ilhomi,
Bugun-chi ko‘z tashla: atrofda bahor!
Qani, qo‘lginangni bergil jimgina,
Shu ma’sum yo‘lchiga qo‘yaylik ixlos.
Shoirlar aldaydi bizni, jonginam,
Bahor doim emas, uch oydir, xolos...

1965

SHE’RIYAT

Sen Pushkinning sevgan malagi,
Sen Gyote orzu etgan qiz.
Sen Bayronning o‘tli yuragi,
Sen Geyneni yondirgan yulduz.
Alisherning Gulisisan sen,
Sen Lutfiyning so‘lim g‘azali.
Bulbulisan Hofiz gulshanin
Va Xayyomning shirin asali,
Toleyimda nozlanib turgan
Ey sen, mening erka go‘zalim!

1964

* * *

Yulduzlar o‘tiga bardosh berurman,
Fazolar taftiga qilurman toqat.
Yoningga sog‘-omon qaytib kelurman,
Otash nigohingda yongali faqat.

To‘lqinlar qutursin mayli, beomon,
Mening qismatimni ko‘molmagay u.
Baribir yoningga qaytaman omon,
Moviy ko‘zlaringga cho‘mgali mangu.

1964

* * *

O‘tinaman,
Yiroqlardan men
Huzuringga sog‘inib yelsam,
Toleyimga kulib chiqqin sen,
Quvonchingni yashirma hech ham.

Uzoqlarga otlansam yana,
Safar to‘nin kiysam erta-kech,
O‘tinaman, erkam, o‘shanda
Darig‘ tutma ko‘z yoshingni hech!

1965

* * *

(“Soya“ dramatik dostonidan)

Uni ko‘rsam, qora quyun qoplar dilimni,
Shunda kimdir yigit nomim masxara etar.
Alam bilan men qolganday tishlab tilimni
Feruza yot,
Feruza yot?!
Dahshat naqadar!
Ko‘z oldimda turibsan-ku, Feruzam, shu zum
Qaysi bir kuch ololarkan seni qo‘limdan!
Toki tanda jonim borkim, ochiqdir ko‘zim,
Qaysi bir kuch ajratolar tole gulimdan.
O, agar sen-chi?

Mamnun bo‘lib boqsang-chi sen o‘shal taqdirga?!
Unda, nahot, teng etsang-a er nomimni qora bir yerga?!
Nega gavhar bo‘lmading sen va yo chaqmoq tosh,
Qo‘llarimga tugib yursam kecha-yu kunduz.
Nega sevgim aylamagan seni bir gultoj?!
Boshginamga qo‘yib yursam kecha-yu kunduz.
Nega bir tosh bo‘lmagansan, seni avaylab,
Til ostimga solib yursam jonimga joylab,
Nega bir tosh bo‘lmagansan?!

1964

* * *

Yo‘lim boshlar,
Ketarman bir kun
Sendan yiroq, o‘zga tomonga.
Uy yonidan o‘tarkan, sekin
Ko‘z tashlarsan bo‘m-bo‘sh makonga.
Balki u kun kursida yakka
Turgan bo‘lar o‘zga bir odam.
Balki u ham yotib to‘shakka,
Xayol surar ehtimol u dam.
Balki uni o‘xshatib menga,
Chaqirarsan nomimni aytib.
Ishonmassan balki ko‘zingga,
Balki so‘ngra boqmassan qaytib.
Yorilmagan yaraday sevgi
Unda bizni qiynamas to‘lib.
Ko‘chalarda, yor emas, endi
To‘qnashamiz begona bo‘lib;
Nahot bizdan qolmas hatto mung,
Nahot bo‘lmas biror xotirot?
Ishonmayman, muhabbatdan so‘ng
Begonalik boshlansa nahot?!

1964

* * *

Jo‘nar bo‘ldim men bundan diltang,
Yo‘llarimga qarab qolding sen,
Sochginangni tarab qolding sen,
O, bilaman, badjahl otang,
Ostonangga yo‘latmas meni,
Ishonmaydi sen sevgan yorga.
Uzoqlarga jo‘natmas seni,
Ketar bo‘lsak ikkimiz birga.
Bilaguzuk taqibdi otang
Qo‘lginangni bog‘lab bir yo‘la.
Bilaguzuk, banding uzilsin,
Yor qo‘lini qisgandan ko‘ra.
Sen dedingki: “Bo‘lsaydim yulduz,
Osmonlardan boqsam-da sizga,
Tushishga yo‘l topardim, esiz,
Otam oq yo‘l bersaydi bizga...”
To‘xta, yetar, bir kun otangning
Huzuriga qaytib kelarmiz.
Kechir, — dermiz, yetmasa, agar,
Uchta bo‘lib uzr so‘rarmiz.
Bizni hech kim ayb etmas, do‘stim,
G‘amgin bo‘lmas bizdan xotira.
Sevgisidan baxt topganlarning
Bo‘lganmi hech nomlari qora?..

1963

* * *

— Xayr endi...
Qalbimda bir vido qoldi,
Xayr endi, sen ketding, begunoh ohu.
Bugun sen qaydasan? Qaylarda qolding?!
Bugun bosh ustingda kimning panohi?!

Seni kech topgandim, erta yo'qotdim,
Qarg'agin, loyiqman sening qahringga.
O'zgalar qalbida qadr uyg'otdim,
Biroq yetolmadim o'zim qadringga.
O, inson qismati, bunchalar chigal,
Bunchalar xilma-xil foje va aza.
Qismatim, o'zimman gunohkor bu gal,
Nahot, gunohkorga qo'shiqdir jazo?!
— Xayr endi...
Qalbimda bir vido qoldi,
Xayr endi, sen ketding, begunoh ohu.
Bugun sen qaydasan? Qaylarda qolding?!
Sen bugun kimlarning ma'sum hamrohi?!
Qaysi bir odamning baxtiga yorsan,
Ochildimi senga tole darchasi?!
Bugun sen kimlarning mehriga zorsan
Mening yuragimning majruh parchasi.

1965

QASAM DARA

Qasam dara guvullaydi mast,
Guvullaydi tubi yo'q makon.
Ko'kdan unga ko'rinar faqat
Mitti yulduz va parcha osmon.
Atrofidan qoq qoya toshlar
Jur'at bilan termuladi lol.
Bir ko'ray deb zina tarashlab
Qoyalarga tirmashar hilol.
Bunda na qush, na bir jonivor
Va na shamol ko'rsatar qora.
Afsonalar so'ylaydi takror
Mening chanqoq dilimga dara:
— Ana, ovchi, oh-u quvadi,
Uchadilar toshlar aro tik.

Qochqin oh-u tog‘ga qo‘nadi,
So‘ng daraga sakraydi sho‘rlik!
Qasam dara — daralar sheri
O‘lja kutib uvlarkan pastda,
— Hayt, — deydi-yu (o, sen, ov mehri)
Tashlanadi ovchi ham pastga.
Botirini saqlaydi omon
Tasodifga to‘la bu dunyo.
Ovchi ovin aylar saranjom,
Ovuliga chog‘lanar, ammo,
Ammo birdan qotadi karaxt...
Asir etmish uni bu makon.
Atrofida toshlar-u, faqat
Tepasida yulduz va osmon.
Alvonlarin yoyib ufqqa
Chiqqunicha zarkokil quyosh,
Sho‘rlik ovchi intilar ko‘kka,
So‘ng ilojsiz to‘kar yum-yum yosh.
Botirini axtarib shu zum
Kelar yori, ovuldoshlari.
— Ayting, ota, ne qilmoq lozim?! —
Keksa cholga yuzlanar bari.
— Bolalarim, ov mehri uni
Tushiribdi daraga oson,
Ayol mehri, yor mehri, ko‘ring,
Olib chiqar jardan begumon.
Shunda,
Yovqur bir yigit dadil
Bajo aylar cholning shiorin:
Dara uzra ko‘tarib adl
Quchoqlaydi ovchining yorin.
Faryod solar ovchi xotini,
Yigit esa quchar yaxshiroq.
Ovchi, hayhot, quturar yonib,
Qafasdagi sherdan vahshiyroq.
Go‘yo cho‘kar daraning mahri,

Go‘yo toshlar ketar oradan:
— Hayt, — deydi-yu
(o, sen, yor mehri!)
Ovchi chiqib ketar daradan.
Qasam dara guvullaydi mast,
Guvullaydi tubi yo‘q makon.
Ko‘kka boqib u ko‘r-u karaxt,
Afsonalar so‘ylaydi hamon.
Qasam dara, kezdim mahringda
Kiprikdagi yoshday omonat.
Qasam dara, sening bag‘ringga
Qasam ichgan tusharmish faqat.
Hayrat bilan senga boqurman,
Hali qasam ichmaganim rost.
Na ovchiman va na botirman,
Kezib yurgan oshiqman, xolos.
Payti kelsa, sevgim, sen uchun
Yor oldida ichurman qasam.
Fazolarni aylanib butun
Dengizlarga qo‘yarman qadam.
Amr etsa gar o‘sha dilbarim
Tashlanaman daraga shu zum.
Bir iltimos faqat, do‘stlarim,
Qaytishida chiqaman o‘zim!

1964

CHOL VA KOMMUNIZM QISSASI

Shaharning serhasham ko‘chasi bo‘ylab
Qaygadir munkillab ketar edi chol.
Keksalikda, axir, miyang bo‘sh turmas,
Har qadamda chulg‘ar yangi bir xayol.
Cholning tasavvuri mana bir zumda
Qurib qo‘ydi go‘zal kommunizmni:

"Mana shirin kulcha senga va menga,
Bu esa — emizak, yupat qizingni,
Kim nima istaydi, qani, marhamat,
Umum dasturxonda barchasi tayyor.
Mana, mehmon kutar chol — yigit yoshda,
Yonida kelinchak — kampiri ham bor..."
Va boshqa hokazo xayollar shundoq
Cholni o'z qa'riga tortdi-yu ketdi.
Shunday qilib, cholimiz Kommuna qurdi,
Yoshardi va unda mehmon ham kutdi.
Ammo padarla'nat nosning xumori
Parchalab yubordi xayolni birdan.
G'o'ldirab qoldi chol: "Hoy, ota go'ri,
Chekilmasang balo bormidi shu dam,
Shunday bir xayolga zavol bo'lding-a".
G'azabga to'lgan chol so'kishning barin,
Sakson yildan buyon asraganlarin
Rosa qalashtirib qo'ydi bir zumda.
Alam qilmaydimi, bir otim nos deb
Qaytib kelsang axir kommunizmdan!
Bo'lingan xayol ham ko'chgan g'isht misol
Qayta tushmas ekan o'z qolipiga.
Qancha o'y surmasin, yetolmadi chol
Xayol kalavasin qochgan ipiga.
"Kommunani endi qurib edim-a,
Rostdan ayb o'tdimi mening o'zimdan?"
Xayol-ku qaytmadi, cholning ham ammo
Qaytgisi kelmadi kommunizmdan.
Belini yigitday tutdi-yu, cholning
Xira ko'zlarida porladi zafar:
"Otimni boshqatdan qo'yganim bo'lsin
O'sha kommunani qurmasam agar!"
Do'konlarga kirib xarid qildi chol
Bir talay kulcha-yu hamda emizak.
So'ngra kimlargadir uzatdi: "Ma, ol,
Non senga, bu esa qizingga ermak".

Bundan nariyog‘in, aziz o‘quvchim,
Men ham ko‘rganim yo‘q, eshitdim faqat;
Tunov kuni cholimiz beribdi elga,
Umum dasturxondan umum ziyofat!

1965

* * *

(Manzara)

Bulut toshdi,
Vodiy osmonin
Qoplab oldi xira ko‘lanka.
Yel ovora,
Namxush xazonni
Uchirolmay bog‘dan yo‘lakka.
Novdalari birdan qotganday
Ko‘rinadi sukutda tolzor.
Go‘yo nimanidir kutganday
Bulutlar ham yuvosh, beozor...

1964

* * *

Qani, nay ber menga, do‘stginam,
Bergil, mayli, rubob bo‘lsa ham.
Ber, bir nafas bo‘shatib olay
To‘lib ketgan yuragimni man.
Qalamimning kuchi yetmadi
Hislarimni butkul to‘kmoqqa.
Do‘stim, tingla, yaproqchalarning
Shivirlashi eshitilmoqda...
Go‘zal, sokin oqshom cho‘kmoqda,
Tebranadi yelda chiroqlar.
Daraxtzor ham sokin sollanar..

Qanday ma'sum, erka bu chog'lar...
Qanday shirin damlar... mening ham
Yuragimda bir his toshmoqda,
Yuragim ham daraxtzor kabi
Nimanidir olqishlamoqda.
Ko'zlarimga bu yorug' olam
Ko'rinmoqda biram suyumli.
Qani, nay ber menga, do'stginam,
To'kay to'lib ketgan ko'nglimni.

1964

ONA TILIMGA

Ming yillarkim, bulbul kalomi
O'zgarmaydi, yaxlit hamisha.
Ammo sho'rlik to'tining holi
O'zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz
Bulbul kuyin she'rga solaman.
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to'ti bo'lib qolaman...

1965

HAYVONOT BOG'IDA

Ba'zan ko'p ajibdir dunyoning ishi,
Kim ham bu savdoni o'ylab ko'ribdi:
Hayvonot bog'ida bir telba kishi
Maymunni masxara qilib turibdi.

1965

BULBUL

Rahmatjonga

Sen — bulbulsan, bulbullarni mast qila qol, bulbulim,
Mening uchun sayrashingni bas qila qol, bulbulim.

Shom-u sahar tinim bilmay sharh aylading dilingni,
Qani, ayt-chi, bulbulginam, kim tushundi tilingni?

Birov seni nola dedi, birov dedi oh-fig'on,
Bulbul tilin bulbul bilar,
men bilmasman, bulbuljon.

Anglarmi deb behudaga roz so'ylama, qushim, hay,
Sen — bulbulsan,
bulbulginam,
seni bulbul tushungay.

1965

UYQU

Odamlar uxlaydi o'n yil, o'n besh yil[1],
Sezmasdan, sevmasdan, hissiz va mudroq.
Ba'zida, ochiq gap, o'rtansa ko'ngil
Uxlagim keladi mening ham uzoq.
Mayliga, do'stlarim unutsin sekin,
Umid ham uzsinlar alvido ayta.
Mayliga, olis yil uxlayin, lekin
Eng qutlug' saharda ko'z ochsam qayta.
Balki yer yuzida qolmas edi g'am,
Bundan ham yorug'roq bo'lardi dunyo.
Faqat tabassumda yashnardi olam,
Serjild kitoblarda yozganday go'yo.

[1] Letargiya uyqusi nazarda tutilgan.

Yomon tush ko'rmasdik saharlab qalqib,
Bosh egib qaytmasdik uyimizga kech.
Dunyoda yovuzlar qolmasdi balki,
Razillar, pastkashlar bo'lmas edi hech.
Balki tinchlanardi notinch asrimiz —
Ko'ksidan qon silqqan yarador ohu.
Uning dardlarini etyapsizmi his,
Qanday asr o'zi, birodarlar, bu?!
Urush-u falokat, nizo-yu ta'qib
Tinmaydi, tinmaydi, tinmaydi sira.
Qani, kim shodlanar asrga boqib?
Qani, kim ataydi uni bokira?!
Asrim, o'sha olis oy qorasini
Sanab bo'lguningcha bir zum tolmading.
Biroq odamzodning dil yarasini
Sanab yetolmading, yo'q, yetolmading.
Asrim, samolarda yoqolding chiroq,
Yulduz qilib otding fazoga o'zni.
Qo'zg'ata olmading o'rnidan biroq
Askar yelkasida turgan yulduzni.
Asrim, izga solding ummonlar kuchin,
Yaratmak istading so'nmas bir chiroy,
Biroq gulzoringni toptamoq uchun
Qaydadir razilga berib qo'yding joy.
Mitti farzand bo'lib, bir dilband bo'lib,
Asrim, seni baxtda ko'rmoq istayman.
Va lekin ba'zida uyquga cho'mib
Sendan ko'zlarimni yummoq istayman.
Ammo bormi imkon bunday uyquga,
Kurashga yaralgan jafokash inson.
Har qanday kurash ham hayotdir unga,
Har qanday uyqu ham — o'lim har qachon!

1965

OTELLO

Abror Hidoyatov
xotirasiga bag'ishlayman

Chig'atoy ko'chasin so'l tomonida —
O'tsangiz muqaddas xilxona taraf,
Sanoqsiz qabrlar g'aladonida
Yotibdi Otello — u buyuk arab.
Men ba'zan shu yo'ldan uyga qaytaman
Sayr etib hovliqma soyning qoshini.
Otello sha'niga salom aytaman,
Ziyorat qilaman mozorboshini.
Arabiy kulonkir — G'arbning xo'jasi,
Mayliga, gapimga qilma e'tiroz.
Men-ku bir o'zbekning sarkash jo'jasi,
Uyqashga o'xshaydi ismimiz biroz.
Bir zamon Ollohdan sening volidang
Tilanib olibdi, men-chi, sadaqa.
Savdomiz bir ekan, nomlar hamohang
Va lekin o'xshamas qalblar, shunaqa...
Men orzu qilardim senday sevishni —
Qo'limda xanjar-u qonimda olov.
Uddalay bilmadim lekin bu ishni,
"Telbaday sevardi" deyolmas birov.
Istardim sendagi rashkni ham, illo,
Bulbulga dard qayda gul yo'qsa agar.
Ham buning ustiga, bilsang, Otello,
Qizlarning qo'lida u qonli xanjar.
Sendagi nafratni xohlardim asti,
Razillar ko'ziga boqolsam xunxor.
Chunki haligacha, Otello, rosti,
Yagoni o'qitib qo'yguvchilar bor.
Ortiqcha nafrat ham kerakmas, ammo
Laqab ham taqmasman kimsa otiga,
Chunki bu asrda, aziz Otello,
Hurmat ko'p buyukdir inson zotiga...

Ba'zan ko'z o'ngimga tizilib kelar
Sevgiga gadolar ayqash va uyqash.
Gado deb atama sen bizni derlar,
Deydilar, dunyoda Otello yakkash.
Shunda sen kelasan ko'zingni yoshlab:
— Qayda ishq, qayda rashk,
qaydadir ular?!
Shu sho'rlik zaminni ketmangiz tashlab,
Muqaddas tuyg'ular, oliy tuyg'ular.
Bizning ruhimizga hokimdir ba'zan
Kanoat atalmish ojiz bir sezgi.
Otello, Otello, sening ishqingdan
Hayratga tushishning o'zi bir sevgi...
Yo'q, taqlid qilmasman senga rasmona,
Har kimning hayotda bor o'zga o'rni.
Rolingni o'ynasa, rashk qilib, mana,
Qabrga tiqibsan buyuk aktyorni.

1965

AYOL

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u.

Sevgidan yetim-u umrdan yarim,
Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak.
Abadiy firoqni, hayhot, do'stlarim,
Abadiy visol deb bildi kelinchak.

Qaqragan lablarda olovli nafas,
Kechalar kechmishin ayladi ko'mir.
Parishon sochlari yor ko'ksi emas,
Muzdayin bolishda qoldi bir umr.

Yillar ham o'tdilar, hamon u yolg'iz,
Mung'ayib termilar botguvchi kunga.
Ey nomard tabiat, bormi senda his,
Qaytadan baxt bersang bo'lmasmi unga?!

Nahot ishq qismati buncha berahm,
Bunchalar buyuksan vafo shevasi
Sengadir hurmatim, senga sharafim,
Qahramon jangchining sodiq bevasi.

Siz-chi ey, sadoqat satridan nolib,
Nadomat komida qolganlar, ayting.
O'zini ming bitta bozordan olib,
Ming bitta bozorga solganlar, ayting.

Shu cho'lpon ko'zlarning buyuk hurmati,
Shu aqiq lablarning rost so'zi deya,
So'ylang-chi, vafoning nadir qimmati,
Siz ham kutganmisiz biror soniya?!

Ba'zida tirnoqlar bezagi uchun
Sahardan shomgacha qilursiz toqat.
Biroq yoringizni kutgali nechun
Topilmas tirnoqcha sabr-u qanoat.

Nazokat paytimas, yaqinroq keling,
Buyuk zot qoshida aylangiz salom.
Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom.

Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,
Haykal ham qo'yingiz bamisli xayol.
Shundaylar bo'lmasa agar dunyoda,
Bu qadar muhtaram bo'lmasdi ayol.

1965

TUN

Tashqarida yomg‘ir shivirlaydi jim,
Ko‘ringay na chiroq va na bir ziyo.
Go‘yo derazamni chertar allakim,
Bosib kela boshlar qandaydir ro‘yo.
O‘zimni to‘shakka otaman shu on,
O‘ranib olaman vahima ichra.
Qorong‘i yo‘lakda shitirlar xazon,
Kimdir derazamdan ketmaydi sira.
Chiroqni yoqaman betoqat borib,
Go‘yo vahimalar bo‘ladi abas.
Yomg‘ir yaltiraydi nurda oqarib,
Tasalli chulg‘aydi dilni bir nafas.
Lipillab so‘nadi chiroq ham oxir,
Qaydadir shovullab egiladi tol,
Kimdir tashqarida entikar og‘ir,
Birdan derazamni qoplaydi xayol.
Kimsan, ey, tunlari meni poylagan,
Makriga boylagan yovuz darbadar.
Kimsan, ey,
ruhimni mag‘lub aylagan,
Mag‘rur yuragimga tashlagan nazar.
Yolvora boshlayman kimgadir yonib,
Bir zum irodamni etaman bekor.
Bir zum o‘zligimdan qolaman tonib,
Bir zum ojizlikka bo‘laman iqror.
Gunohkor bandaday titrab-qaltirab
Kimdandir so‘rayman so‘nggi himoya.
Shamol ham uvullar nimadir tilab,
Birdan kela boshlar u mash’um soya.
To‘lg‘onib ketadi nogoh yuragim,
Nimani istaysan, so‘yla, ey daydi!
Sekin g‘udurlaydi shunda allakim:
— Nahotki menga hech
rahming kelmaydi.

Yomg'ir ham savalar meni beomon,
Shamol ham holimdan kulgani-kulgan.
Boshpana ber menga, men — vahimaman,
Botirlar qalbidan quvg'indi bo'lgan.

1965

HAYOT ISHQI

Hazil

So'lim choyxonada davra qurishib,
Tengi-to'shi bilan yayrashar chollar.
Egilib -bukilib, baxtim bormi, deb
Gugurt qutisini tashlashar chollar.
Holbuki, ortdadir endi bu dunyo...
Manglayda borini ko'rgan bu chollar.
Yana qanday baxtni kutar, ajabo,
Har biri to'qsonga kirgan bu chollar.

1965

ARMON

Usmon Nosirga

Jajji bola tinmasdan sira
Akasiga yolvorar yonib:
— Jon akajon, ko'rsat birgina,
Jon akajon, bir ko'ray qonib.
Akasining qo'ymas qo'lidan,
O'rtanadi yoshgina joni.
Nimanidir olib qo'ynidan
Ko'rsatadi so'ng akajoni.
Go'dak yana o'tmayin fursat,
Akasiga tikadi ko'zin:
— Jon akajon, yana bir ko'rsat,

Ko‘zim bilan ko‘rayin o‘zim.
Tinchitmaydi uni bir nafas,
Osiladi “jon” deb bo‘yniga.
Akajoni ko‘rsatib birpas,
Yashiradi so‘ng bor qo‘yniga.
Nimaydi u? Ma’sum tuyg‘uning
Oromiga sololgan g‘avg‘o?
Ne bo‘lsa ham bolakay uning
Diydoriga to‘ymadi aslo.
Nimaydi u? Balki bir bezak —
Armon qilib yurgan nechalar.
Ne bo‘lsa ham o‘shani go‘dak
Tushlarida ko‘rdi kechalar.
Nimaydi u? Balki bir tugun,
Yo oddiy tosh, yoki oddiy gul.
Ne bo‘lsa ham yosh inson uchun
O‘sha damda noyob edi ul.

1965

MUHABBAT

Hayot mendan ayamadi ne’matlarini,
Ne istasam berdi doim, hech bir tonmayman.
Faqatgina bir g‘am o‘rtar yuraklarimni,
Men muhabbat taqdirimdan maqtanolmayman.
Bolalikdan o‘tib men ham, bo‘y yetib sekin,
Goho pinhon, goho asov daryoday toshib,
Bir yosh yigit sevganchalik sevdim-u, lekin
Boshqalarday tole menga bo‘lmadi nasib.
Ko‘ngil shisham bir so‘z bilan qolganda darz yeb,
Qalamimdan ilk martaba to‘kildi g‘amlar.
Sen bo‘lmasang dunyo o‘zi menga nadir, deb
Ichdim hatto talay-talay she’riy qasamlar.
O‘tar ekan hamma narsa, yo‘q ekan turg‘un,
Hatto sevgi nelargadir bo‘larkan taslim.

Bugun hayot nimaligi, sevgi yo‘rig‘i —
Bari ma’lum, hammasiga yetadi aqlim.
Yuragimda sevgi izi topilmas aslo,
Na bir afsus, na bir alam chiqqaydir undan.
Shoir satrin takrorlayman sekin, beparvo:
“Qaytmas endi, umid qilma ketgan to‘lqindan...”
Sokingina bo‘lib qolgan yuragim shundoq,
O‘tirmayman u kunlarni so‘kib, qoralab.
Endi menga bari birdir, deyman-u shu chog‘
O‘zga otash axtaraman hayot oralab.
Yolg‘iz turib yulduzlarga boqaman gohi,
Yo o‘zimcha tush ko‘rishning sirin o‘ylayman.
Kayfiyatim ko‘targanda, tushsa nigohim,
To‘g‘ri kelgan har narsani she’r deb kuylayman.
Ba’zan uzoq qishloqdagi keksa onamga
Yuboraman ma’nisi yo‘q, pala-partish xat.
Hamma narsa goho ermak tuyular menga,
Hamma narsa goho oson ko‘rinar faqat.
Ba’zan esa o‘z-o‘zidan ketaman to‘lib,
Titrayman ham ohanglarni tinglab jimgina,
O‘rtoqlarim o‘rab olar yupatmoq bo‘lib:
— Aytgin, axir, nima senga yetishmas, nima?!
Yo‘q, yo‘q, hayot ayamadi ne’matin mendan,
To‘rt mucham sog‘, do‘stlarim bor havas qilgulik.
Noligayman na kelajak, na o‘tmishimdan,
Irodam bor — kelsa agar biror ko‘rgilik.
Faqatgina bir kuch bordir, faqat ugina
Zor yig‘latar, qilolmayman men unga toqat.
Hayotimda chaqnamaysan faqat sengina,
Toleyimda sen bo‘lmading, baxtli muhabbat.
Kimga shoshay, kimni qo‘msab, kimga sig‘inay,
Farishtam, deb oq yuvib-u oq taray kimni?
Kimni Laylim, Shirinim deb, baxtim deb atay,
Hayotim, deb cho‘qqilarga ko‘taray kimni?!
Yo‘q, yo‘q, o‘tgan muhabbatni qo‘msamayman hech,
Nima kerak kulni titish, bo‘lmasa uchqun!

Nahot qayta sevolmasam! Nahot endi kech!
Nahot endi ko'ngil uzsam sevgidan butun?!
O, qalbimga sen ham oshno bo'lsayding, sevgim,
Ayriliqmas, visol kuylab qolsaydim g'amda.
Har qandayin ayanchni ham ulug'lar edim,
Men o'zimni baxtli derdim har qanday damda.
Yig'lasam-da kular edim mag'rur va oson,
Sevgim bilan zarb berardim har qanday g'amga.
Yana qayta sevarmanmi? O, gar sevolsam,
Mayli, hayot, bor-yo'g'ingni tashla yelkamga.
Romeoday o'limga ham tayyorman u kez,
Qotillik ham qilay, mayli, Otello monand.
Faqat sen kel, yuragimda armon bo'lgan his,
Sensiz hayot puch bir narsa, ermak, omonat...

1965

XO'ROZQAND

Jajji o'g'ilchasin yetaklab olib,
Ota shoshar edi qaygadir tongda.
Kimdir qarshisidan chiqdi jar solib:
— Xo'rozqand sotaman,
qolma armonda.
Dada etagiga yopishdi go'dak:
— Xo'rozqand olib ber, dada, dadajon...
Mayli, Umrigayam beraman qittak,
Qandfurush tirjaydi: — Obbering, arzon.
Ota cho'ntagiga qo'l cho'zdi sekin,
So'ngra boshqasiga, so'ng boshqasiga.
Hammasin birma-bir titdi-yu, lekin
O'g'liga engashdi: — Yur, boshqasiga...
Dada etagini qo'ymasdi bola,
Mitti ko'zlariga tizilgan marjon.
Eng so'nggi umidi chiqardi nola:
— O'g'lingiz bo'lardim, dadajon...

Dadajoni esa turardi birdak,
Xuddi nimanidir yo'qotgansimon.
... Qaydan bilsin bola, qaydan bilsin go'dak,
Ba'zan otalar ham bo'lar parishon.

1965

AVLODLARGA MAKTUB

Yo'q, yashay bilmasman asrimdan nari,
Da'vo ham qilmasman mangulik izga.
Balki bir kimsaning unut daftari
Nogahon yetkazar bu she'rni sizga.
U zamon mensiz ham bilursiz ayon
Bizning asrimizning buyuk ofatin.
Balki tush ko'rganday qolursiz hayron,
Eshitib Toshkentning sabr-u toqatin.
Kitobdan sanani izlab u nafas
Balki yuragingiz entikib urar.
Lekin qarshingizda fojia emas,
Xushnud odamlarning surati turar.
Tagida — sarg'aygan satrlar aro
Kimningdir so'zlari jaranglar mag'rur:
"Bunday jasoratni ko'rmagan dunyo,
Chunki u sovetlar Toshkenti erur".
Shu zamon ko'zingiz oldida birdan
Pompeya tarixi qolur bir chaqa.
Dersiz, yo Toshkentda hech gap bo'lmagan,
Yo esa bobolar sirli, shunaqa.
Bizning ruhimizni olis yulduzday
Xayol osmonida ilg'arsiz arang.
Zilzila tuyular mavhum bir so'zday,
O'ylarsiz, bobolar qo'rqmapti, qarang.
Do'stlar, buyuk edi chindan fojia,
Asablar tuproqqa cho'kkan edi tiz.
Va lekin o'ylamang sirlisiz deya,

Bizlar sirli emas, oddiy edik biz.
Bu cheksiz olamning ich-u toshida
Nima bor? Ilg'armi odamzod ko'zi?
Kim ko'krak kerardi dunyo qoshida,
Uni yaratmagan bo'lsa gar o'zi.
Odamzod xayoli yetmagan falak
Gar inson boshida aylantirsa tosh,
Iloj yo'q insonga bardoshdan bo'lak,
Jasorat atalmas ilojsiz bardosh.
Do'stlarim, hayratda qolmangiz faqat,
Sirlilik bizlarning she'rlarga mosdir,
Dunyo qarshisida ojiz jasorat
Inson bolasiga hamisha xosdir.
Botirni tan olmas so'qir fojia,
Charchash ham mardlikka keltirmagay shak.
Bobolar mehnatda horgandir deya,
Aziz nabiralar, o'ylarsiz beshak.
Serjild kitoblarni varaqlab yana
Rahmdil qalbingiz entikib urar.
Lekin qarshingizda tag'in mardona
Pahlavon kimsaning surati turar.
Tagida — sarg'aygan satrlar aro
Bizning uslubimiz jaranglar mag'rur:
"Bunday mehnatkashni ko'rmagan dunyo,
Chunki u sovetlar farzandi erur".
Shu zamon ko'zingiz oldida birdan
Kichik chumolicha qolgusi Farhod.
Oddiy jussangizga ko'z tashlab zimdan,
Aziz nabiralar, solursiz faryod.
O'ylarsiz, Alpomish davridan buyon
Pahlavon o'tmagan bular singari.
O'ylarsiz, muncha tez qaribdi inson.
Nahot biz shularning nabiralari.
Yo'q, polvon emasdik bizlar ham aslo,
Jussamiz oddiy deb chekmasdik anduh.
Bir kun aytibdirki Navoiy bobo:

"Doim o'zga bo'lur suvrat ila ruh".
Do'stlarim, hayratda qolmangiz faqat,
Devqarash bizlarning suratga mosdir.
Dunyo yaralgandan buyon shu mehnat
Inson bolasiga hamisha xosdir.
Sizga falokatdan berganda xabar
Do'stlik borasida yozurlar albat.
Yozurlar: "...biz bo'ldik tengsiz birodar,
Bu xislat bizlarga xos erur faqat",
Shu zamon ko'zingiz oldida behol
Rum, Romul nomusdan solib qolur dod.
O'ylarsiz, bundayin do'stlikni alhol
Ko'rmagan ekan-da qadim odamzod.
Do'stlik-ku insonning azaliy kasbi,
Dunyoday qadimdir oddiy bir salom.
Agar do'stlikni ham bilmasa asli
Kimga kerak axir, inson degan nom!
Do'stlarim, hayratda qolmangiz faqat,
Pahlavon asrga lof urish mosdir.
Inson bolasiga mehr ila shafqat
Hammaga xos edi, bizga ham xosdir.
Do'stlar, buyuk edi chindan fojia,
Chindan og'ir edi mash'um asorat.
Lekin o'ylamangiz badbinsiz deya,
Bizda ham bor edi mehnat, jasorat.
Biz ham izmimizni bergandik butun
Do'stlikning muqaddas qoidasiga.
Chin dildan rahmatlar ayturmiz bugun
Saxovatli ellar oilasiga.
Ammo qolmay deyman she'r gunohiga,
To vijdon qoshida cho'kmagayman tiz.
Do'stlar, jasoratni gohi-gohida
Biroz ko'pirtirib yozar edik biz.
Ba'zan o'zimizga mehrimiz jo'shib,
Bir chetda qolardi zamin-u zamon.
O'zi ham bilmagan xislatin o'qib

Uyalib yurardi sho‘rlik qahramon.
Yetar, mayda-chuyda gina endi bas,
Ko‘kda yuribdi-ku quyosh muzaffar.
Avlodlar, siz meni tinglang bir nafas,
Sizga bir sehrdan berurman xabar.
Yuz yilda qaytibdi bunday falokat,
Yuz yil-ku, tarixda — qoshning orasi.
Aziz nabiralar, unutmang faqat,
Har bir fojianing bordir chorasi.
Tuproq qo‘zg‘almasdan o‘rnidan battar,
Solmasidan avval dahshat, qatag‘on, —
Yer osti tinch tursin desangiz agar,
Sizlar yer ustida so‘ylamang yolg‘on!

1966

* * *

Xat yozmadim,
Xabar qilmadim,
Borolmadim, solib galga gal.
Qanday ekan onam, bilmadim,
Yo‘llarimga turgandir mahtal.
Xat yozarmi o‘g‘lim, deb, zora
U-ku meni turibdi kutib.
Men-chi, noshud, bo‘lib ovora
Avlodlarga yozaman maktub.

1966

ONAM VAFOTIGA

Makonda lomakonsan, endi qaydan izlagaydurman,
Fig‘onim kimga aytib, kimga sendan so‘zlagaydurman.
Birovlar motamida oh-u faryod aylagan erdim,
Sening-chun, ey, g‘aribim, ich-ichimdan bo‘zlagaydurman.

1966

KETGANLAR YODI BU

Tush ko'rdim,
Tushimda bir dengiz emish,
To'lqinlar sapchirmish moviy osmonga.
Manzil yiroq emish,
Ufq so'ngsiz emish,
Bir kema borarmish o'sha tomonga.
Uning sahnasida jami do'st-yoron,
Umrlik do'stlarni ko'rgan emishman.
Jannat xayoliday davrada shodon
Men ham qah-qah urib turgan emishman.
Kema bir sohilga yetgani mahal
Meni yo'l azobi qo'ymish toldirib.
Kema jo'nab ketmish yo'lida jadal,
Kema jo'nab ketmish meni qoldirib.
Men uning ortidan yugurdim giryon,
Nogoh ayriliqdan ko'zlarim yoshlab.
Nega sen qorong'u yoqlarga tomon
Mening do'stlarimni ketding deb boshlab.
Tanho yotar edim bo'm-bo'sh qirg'oqda,
Teppamda yulduzlar chekar edi oh.
Kema ko'zdan g'oyib bo'lgani chog'da
Achchiq yig'ladim-u uyg'ondim nogoh.
Bu bir tush-ku, axir, shunchaki ro'yo,
Tasalli berardim dilga shu zamon.
Bu bir tush-ku, axir, boshqa-ku dunyo,
Lekin tush derdim-u yig'lardim hamon.
Alam qilmas menga kemadan qolmoq,
Uyqu-ku, so'ngiga borib yetgandi.
Men-ku, bir manzilga tushgandim, biroq
Kema do'stlarimni olib ketgandi...

1966

ONAJON

Onam Turdi Erdona Karvon qizi
xotirasiga

I

Necha kunki yo‘q oromim
Kelolmayman hushimga.
Onajonim kechalari
Kirib chiqar tushimga.
Qo‘llarida oq yelpig‘ich
Oy nurida yaltirar.
Onajonim imlab meni
Qoshlariga chaqirar.
Keltirarlar goho beshik
Ko‘zlarida hayajon.
Yotar payting bo‘ldi-ku der,
Kela qol, der, bolajon.
Qaylargadir yuguraman,
Fig‘onimdan chiqar dud.
Yig‘lama, deb qo‘llarimga
Tutqazarlar so‘ng tobut.
Tongda ruhsiz ko‘z ochaman,
Qovurilar tanda jon.
Onajonim, bunday qilma,
Bunday qilma, onajon.
Axir o‘zing der eding-ku,
Silab o‘ksuk boshimni:
— Endi senga bersin umr,
Senga bersin yoshimni.
Afsus, o‘zing erta ketding,
Erta ketding olamdan.
Ukalarim bag‘rim ezar,
Ajradik deb onamdan.
Bevaqt xazon bo‘lmay har kim
Yashab o‘tsin dunyoda.

Onajonim, har kim oshin
Oshab o‘tsin dunyoda.
Garchi fano har kimsaga
Azaliy bir qismatdir.
Lekin, ona, tiriklik ham
Bilsang, yarim hikmatdir.
Tushlarimda, mayli, boshim
Silab turgin, onajon.
Qolganlarga endi umr
Tilab turgin, onajon.

II

U kun chetda oh chekardim
G‘ussalarning dastidan.
Sen otamga pul beribsan
Yostig‘ingning ostidan.
Aytibsanki, onasizlik
Kelmasin hech o‘yiga.
Sarf qilingiz, menga emas,
Abdullaning to‘yiga.
O, o‘g‘lingga sen shafqatni
Bilarding-ku, onajon.
Bundan ko‘ra bag‘rim o‘ysang
Bo‘lardi-ku, onajon.
Zarragina rahm etgali
Sabring menga yo‘qmidi?
Onajonim, bundan o‘zga
Jabring menga yo‘qmidi?
Yo‘qmidi hech o‘zga gaping, —
Nola qilib so‘ylasang.
Nahot, axir so‘nggi dam ham
Farzandingni o‘ylasang.
Axir orzu qochib ketmas,
Bitkazar-ku tiriklar.
Onajonim, bir kunini

O‘tkazar-ku tiriklar.
Unutilar g‘ussalar ham,
Orzular ham cho‘zar bo‘y.
Onajonim, balki bir kun
Aytganingday bo‘lar to‘y.
Balki sening qabring uzra
Ko‘karganda gul, chechak,
Ostonamga qadam qo‘yar,
Sen istagan kelinchak.
Kimdir uning yo‘llariga
Balki gul ham sochadi.
Balki munis opajonim
Kel, deb, quchoq ochadi.
Balki do‘stlar davrasida
Kamim bo‘lmas hech qachon.
Lekin seni o‘sha damda
Qaydan topay, onajon.

III

Esimdadir, titrar edim —
G‘amgin, bolish pastida.
Kitobimni ko‘rdim nogoh
Boshginangning ostida.
Toshday qotdim o‘shal oni
Bor toqatdan ayrilib.
— Shoir o‘g‘lim, — deding menga
Sekingina qayrilib.
Onajonim, so‘ng bor menga
Nafas qilding u zamon.
Shoir bo‘lgin, deya balki
Havas qilding u zamon.
Onajonim, balki men ham
Bir kun shavqqa to‘larman.
Balki men ham aytganingday
Bir kun shoir bo‘larman.

Kuylay desam hurmatingni
Ushbu kunda tilim lol.
Balki faqat shu sababli
Shoir bo'lsam ehtimol.
Balki sarson-arosatda
Qolib ketmas bu tanim,
Kamolimni ko'rar balkim,
Yurtim, ona-Vatanim.
Payti kelib to'lar bir kun
Paymona ham beomon.
Kuzatarlar meni ham so'ng
Senga tomon, sen tomon.
Balki u kun boshim uzra
Do'stlar bosh ham egadir.
O'sha damgi iqbolim ham,
Onajonim, sengadir.
Dilda neki jur'atim bor,
Dilda neki hayajon,
Bari, bari senga bo'lsin,
Senga bo'lsin, onajon.
Senga bo'lsin bor hayotim,
Nomim, shonim bir yo'la.
Xotirangga ushbu she'rni
Yozdi o'g'ling Abdulla.

1966

NAY

Yashnardi u adirda durkun,
Epkinlarga ochgancha quchoq.
Keldilar-u odamlar bir kun
Tanasiga sanchdilar pichoq.

Ayirdilar avval ko'zidan,
So'ng bag'rini oldilar o'yib:

Yetmaganday bu ham bo‘g‘zidan
Pufladilar lablarin qo‘yib.

Ko‘rmagandi bunchalar xo‘rlik
Hatto ayoz tilganda yuzin.
Alamiga chidolmay sho‘rlik,
Nola tortib yubordi uzun.

Odamlar-chi, to‘plandi shu on
Faryodiga qilolmay toqat.
Bir qamishni yig‘latib chunon,
So‘ng o‘zlari qildilar rohat.

1966

SHOIRLAR HAYOTI

(Hazil)

Shoirlar surati turibdi qator,
Mana bu — Lermontov, mana bu — Furqat.
Dunyoga sig‘magan buyuklar nochor
Bugun ramkalardan boqishar faqat.
Nima ham qilardi bir jonsiz bo‘yoq,
Parchalab tashlardi tirik bo‘lganda.
Shoirlar hayoti hamisha shundoq,
Ramkaga tushadi faqat... o‘lganda.

1966

JANNAT

(Hazil)

Ertak degani bu — bolaga ermak,
Ertak degani bu — shirin aqida.
Men bir kun ukamga so‘yladim ertak
Afsonaviy jannat haqida.

Kavsardan gapirdim unga avvalo,
So‘ngra maqtab ketdim shir-u sharbatni.
Dam o‘tmay u yig‘i boshladi rosa,
Topib bergin, dedi, o‘sha jannatni.

Nima ham der edim, o‘ylasam bundoq,
Tushibman men o‘zim qo‘ygan tuzoqqa.
U desam bu dedi, bu desam undoq,
Xullas, qand-qurs berib boshladim bog‘ga.

Jannat deb ko‘rsatdim bog‘chani andak,
Mayli, bolaga bu o‘yin bo‘ladi.
Lekin kattalarga so‘ylamang ertak,
Ulardan qutulish qiyin bo‘ladi.

1966

* * *

Chuvaladi o‘ylarim sensiz,
Xayolimga taroq urgayman.
Mening qo‘lim yetmagan yulduz,
Tushlarimda seni ko‘rgayman.

Balanddasan tog‘lar qoridan
Chaqirasan meni ilgari.
Yolboraman arvoh ortidan
Intiluvchi Hamlet singari.

Mahshargacha, mayliga, ketay,
Ketay, mayli, bo‘lib ovora.
Seni so‘rab qo‘ymasa netay
Yerda qolgan sevgi bechora.

1966

* * *

Yomg'irli kun edi,
Atrof jim, sokit,
Ma'yus ko'zlaringga boqardim sarmast.
Sekin shivirlading: — Boqmagil, yigit,
Sevging menga yangilik emas...

Yomg'ir ham tinmadi o'sha kuni hech,
U ham quvolmadi ko'zdan xobingni.
Sovuq, rutubatli xonamga shu kech
Olib qaytdim iztirobingni.

Tunda ham jimgina yosh to'kdi osmon,
U mening holimga yig'lar edi, bas!
Bas, do'stim, meni deb chekmagil fig'on,
Sening ko'z yoshing ham yangilik emas.

1966

"OSMON UFQLARGA..."

Osmon ufqlarga separ kul rangin
Bulutlar chopadi, horg'in beega.
Havo nega muncha ma'yus,
Havo nega muncha g'amgin:
Oh, men sendan ajraldim nega!..

1966

SAROB

Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada,
Olti oykim o'zgalarga tilayman omad.
Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada
Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.

Nimanidir axtaraman — she'rdan ham ulug',
Nimanidir axtaraman — nondan azizroq.
Dunyo o'zi bepoyon-ku, ranglarga to'lug',
Biroq mening ko'zlarimdan ranglar ham yiroq.
Injiq ruhim may istaydi gohi-gohida,
Faqat uning og'ushida topaman orom.
Xayollarim sarxush bo'lib kezgan chog'imda
U bearmon kunlarimga qaytaman tamom.
Ko'z oldimda kiprikdayin tizilar yillar,
Har biriga marjon bo'lar achchiq unlarim.
Xira tuman orasida cho'g'day miltillar,
Jayron quvib jayron yanglig' o'tgan kunlarim.
O'shanda ham bo'lar edi osmon-u adir,
O'shanda ham kezar edik shundoq yalangbosh.
Bilmas edik kitob nima, shahar nimadir...
Enagamiz tunda oy-u, kunduzi quyosh,
Quyundayin charx urardik doim to'zonda,
Chang neligin bilmas edik o'sha mahali.
Onamizni o'ylar edik inson deganda,
Ammo ona tanholigin bilmasdik hali.
Balolardan asrar edi o'zi tabiat,
Boshimizga sochar edi beminnat ziyo.
To'nkarilgan osmon osti — shu sirli xilqat
Bizning uchun ham kulba-yu ham buyuk dunyo.
Kunlarimiz jilg'alarday o'tdilar oqib,
Maktab bordik — og'ir bo'lib qoldik daf'atan.
Devordagi arslon yolli kartaga boqib,
Sekingina shivirlashdik: mana shu Vatan!
Vatan! Mening bor qismatim shu bir so'zda hal,
Balki men ham baxsh eturman unga jon-tanni.
Lekin do'stlar, rostin aytsam, men o'sha mahal,
Jondan ortiq sevar edim ona-Vatanni.
Do'stlik bilan bir butundir, derdilar dunyo,
Men ham mangu do'stlik uchun ichardim qasam.
Tayyor edim Rahimovday bo'lgali fido,
O'ylar edim, do'stlar uchun jangga yarasam.

Ko‘z oldimda shu qadarli pok edi olam,
Go‘yo nurdan yaralgandi inson degan zot.
Ha, onamni o‘ylar edim inson degan dam,
Yo‘q, maymundan tarqamagan derdim odamzod.
Bu dunyoda alam bo‘lmas, bo‘lmas deb firoq
Dasta-dasta kitoblardan o‘qirdik ta’lim.
Ravon yo‘llar qarshingizda turibdi mushtoq,
Derdi bizga harf o‘rgatgan yosh bir muallim.
Olis janub tortganiday qushcha yuragin,
Yiroqlarga yetakladi meni bir suron.
O, Abdulla, ko‘zlaringni ochib qaragin,
Kim aytadi bu dunyoda yo‘qdir deb bo‘ron.
Yillar ona quchog‘idan oldi-ku yulib,
Savdolarga urdi meni murg‘ak yoshimdan.
Bir mahallar quyundayin yurardim yelib,
Endi bo‘lsa u aylanar mening boshimdan.
She’r izlayman bu kun Toshkent ko‘chalarida,
Sekingina zirqiraydi beorom qalbim.
Men umrimning bu suronli kechalarida
Na bir taskin topa oldim, na she’r topoldim.
Yuragimga bir mahallar kirgan tuyg‘ular
Enda sendan ketgaymiz deb so‘raydi javob.
Meni bir zum hol-jonimga qo‘ymaydi ular,
Qo‘ymaydilar, va’dalaring chiqdi deb sarob.
Ko‘z oldimda sobit turar faqat shu Vatan,
Kulbasi ham kenglik qadar chulg‘aydi meni.
Tuyg‘ularim faqatgina unga berar tan,
Yurtim, men ham umrim qadar sevgayman seni.
Men ham sening quyoshingda o‘sib-ulg‘aydim,
Qarzdorman, tuprog‘ingda qoldirdim izlar,
Ammo ayting, qayda qoldi u yoshlik paytim,
Qayda qoldi men ishongan u o‘zga hislar.
Ta’na qilmay axir sevgim mukofotini
Inson uchun ming otashda kuyar edim men.
O, qanchalar sevar odim inson zotini,
Qanday buyuk muhabbat-la sevar edim men.

Bugun to‘nib, atrofimga qarayman sekin,
O‘t berolmas qalbga endi u yoshlik damlar.
Men insonni bir insonday sevardim, lekin
Nechun ko‘pdir haligacha razil odamlar.
Qaylardadir hamon kezar zulmat timsoli,
Qaylardadir hamon tinmay oqmoqda-ku qon.
Ko‘zlarimga goh ko‘rinar telba misoli
Men bir vaqtlar sajda qilgan hazrati inson.
Qaylardadir fisq-u fasod, hasad, xusumat,
Insoniyat farzandlarin tortmoqda dorga.
Gar bor bo‘lsang javob ber, ey ilohiy qudrat,
Nahot go‘dak ishonchini yozibsan qorga?!
Olti oykim, ruhim shunday uchmish tanadan,
Olti oykim, meni xayol ezar beomon,
Olti oykim allakimlar pana-panadan
Tosh otadi darvozasiz qalbimga tomon.
Shovqin to‘la ko‘chalarda kezaman tanho,
Yana she’rim yuva boshlar dildan g‘amimni,
Xayollarning girdobida qolganda ammo
Alam bilan xotirlayman muallimimni.
Xazon to‘la bog‘chalarga boraman, tag‘in,
Yana o‘zni xayol ila she’rga tashlayman.
To‘nib qolgan yuragimga berib bir taskin
Yana quvnoq qo‘shiqlarni kuylay boshlayman.
Ne tong, axir farzandmiz-ku shu zamonaga,
Axir ona siynasidan farzand tonolmas,
Qo‘l ko‘tarib bo‘larmidi axir onaga,
Zotan, unga qo‘l ko‘targan — farzand sanalmas.

1966

TABIAT

Uzoqlarda qoldi tug‘ilgan uyim,
Ajib bolaligim qoldi uzoqda.
Qoldi hommapishga ko‘milgan o‘yim.
Qoldi singillarim bari yiroqda.

Endi men eslayman ko'zlarimda nam,
O'sha yillarimning otash sehrini.
Qo'msab talpinaman gohi-gohi dam
Munis singillarim ma'yus mehrini,
Shunday paytda o'zing aylagil shafqat,
Singil bo'la qolgil, menga, tabiat.

Aqlim tanidim-u qoshimda shu kun,
Jasur akalarim safini ko'rdim.
Ularning bari ham botir va durkun,
Men ular safiga she'r bilan kirdim.
Endi men eslayman ko'zlarimda nam,
O'sha davralarning otash sehrini.
Qo'msab talpinaman gohi-gohi dam,
Jasur akalarim ajib mehrini.
Shunday paytda o'zing aylagil shafqat,
Aka bo'la qolgil menga, tabiat.

O'tgan kunlarimga boqib muntazir,
Sog'inchdan yonadi yongan bu jonim,
Afsuski,
yonimda emassiz hozir,
Donishmand ustozim — siz, otajonim.
Endi men eslayman, ko'zlarimda nam.
Hikmatli so'zlarning otash sehrini.
Qo'msab talpinaman gohi-gohi dam,
Donishmand otamning shafqat, mehrini.
Shunday paytda o'zing aylagil shafqat.
Ota bo'la qolgil menga, tabiat.

Men aziz onamni tuproqqa qo'ydim,
Hali tingan emas ko'zdagi yoshim.
Olis kechalari hijronda kuydim.
Endi qay siynaga qo'yaman boshim.
Endi men eslayman ko'zlarimda nam,
Ona degan so'zning qaytmas sehrini.

Qo'msab talpinaman har zum, har qadam
Onam og'ushini, onam mehrini.
Shunday payt ham o'zing aylagil shafqat,
Ona bo'la qolgil menga, tabiat.

1966

BAHOR

Yana bahor keldi. Yana olamda
Ajib bir go'zallik, ajib bir bayot.
Men seni qutlayman shu ulug' damda,
Ulug' yelkadoshim, muzaffar hayot!
Tashbih axtarmangiz ushbu g'azaldan,
Naqd joyda nasiya ne kerak asli.
Ayon bir xislating bordir azaldan,
Seni atamishlar uyg'onish fasli!
Yellar ham uyg'ondi ishqalab kaftin,
Oftob ham yuksaldi — tik kelar quyosh,
Tog'lar ham yuk tashlab ko'tardi kiftin,
Bezavol maysa ham silkitadi bosh.
Tarnovlar bo'g'zida lola ham ko'rkam,
Terak uchlarida izg'ir mavjudot.
Hattoki tuyg'usiz, chirik xazon ham
Yashil po'panakdan bog'labdi qanot.
Hovliqma jilg'alar chopar beega,
Qushlar qiy-chuviga to'lmish dala, bog'.
Sening visolingdan quvonmay nega,
Bahor, sog'intirding axir ko'p uzoq!
Yaldo kechasiday rutubatli qish
Soldi ruhimizga og'ir bir surur.
Sen kelding, uyg'ondi yana sho'x olqish,
Yig'lagan ko'zlarga tushgan kabi nur.
Ha, mangu zavollik bo'lmas olamda
To suyin socharkan abri naysonlar.
Men sizni eslayman ammo shu damda,

Manguga ko‘z yumgan aziz insonlar.
Azaliy hukmini o‘qidi hayot, —
Necha bor samo ham ko‘mdi quyoshin.
Iqboli sajdagoh bo‘lganlar, hayhot,
O‘zlari tuproqqa qo‘ydilar boshin.
O‘n oykim, so‘nmishdir u tanish na’ra.[1]
Hamon firog‘ida fig‘on chekar Shosh.
Bahor kelayotir, bosh ko‘tar, qara,
O, surur kuychisi, dongdor zamondosh.
Hamsuhbat bo‘lmadim (kim edim zotan),
Tavob ham qilmadim gulshan makoning.
Lekin she’r bahosi muxlisgadir tan,
Qanday cheksiz edi ruhiy poyoning!
Bugun-chi, ne kezar o‘tli qoningda!
Evoh, unda na she’r, na may, na safo.
Bu qanday muloqot? Ne hol? Yoningda
Joy olmish o‘zga bir suyukli daho.[2]
Beqiyos edi u she’r lochini!
Xayoli bamisli Ko‘ragoniydek.
Gar tarix evrilsa, shuhrat tojini
Unga kiygizardi Sulton Ulug‘bek.
Balxdan horib qaytgan Alisher misol
Endi to‘lg‘izgandi cho‘kkan dovotin.
Ketdi bir pok siymo, teran bir xayol,
Qoldirib dunyoda hech o‘chmas otin.
Baqo-yu bebaqo ayon buyuklik
O‘tdi so‘nggi damda bosh egib quyi.
Faqat bilganidan qolmas tiriklik,
Mana, gulga cho‘mmish Chig‘atoy bo‘yi.
Bu sokin elda ham ivirsir bahor,
O‘chgan xotiralar chirog‘in yoqib.
Qarayman, qabrlar yastanmish qator,
Ma’sum binafshadan sirg‘alar taqib.

---

[1] *G‘. G‘ulom ko‘zda tutilgan.*

[2] *M. Shayxzoda ko‘zda tutilgan.*

Kimningdir ko‘ksiga engashgancha gul
Marmar sag‘anadan o‘qib turar bayt.
Bahor, qatra yoshim aylagil qabul,
Onam boshiga ham bordingmikan, ayt?!
Uning oromgohi bundan olis joy,
Olisda yotibdi mening panohim.
Bugun ketganiga to‘libdi besh oy,
Besh oykim, ko‘ksimda yonadi ohim.
Faryod chekkanim yo‘q el ichra taqir,
O‘ch ham olmadim men o‘z qalamimdan.
Onajon, onajon, kechirgil axir,
Shodlanmasin dedim birov g‘amimdan.
Dunyodan ketmasin hech kim bemahal,
Hech kimni bosmasin nogahon o‘kinch.
Ammo o‘z boshiga kelmaguncha gal,
Onajon, tosh qalblar turarmidi tinch.
Kuylarman xotirang balki vaqt yetib,
Bir umr o‘rtanur lekin tanda jon.
Suronlar yo‘limda turibdi kutib,
O‘zing qo‘lla endi meni, onajon.
Bugun atrofingda bahordir balki,
Balki shabnam ichra g‘arqdir hazin tosh
Maysalar tegrangda qatordir balki,
Lekin sen yotasan ko‘tarolmay bosh...
Bunchalar qattolsan, o sirli olam,
Bunchalar bedilsan, bepoyon xilqat.
Sening hikmatingning so‘ngi-ku odam,
Nahotki shunga ham qilmaysan shafqat.
Maysa ham uyg‘onar qayta qish o‘tib,
Zarracha bo‘lsa ham bir himmat unga.
Nahotki eng ulug‘ farzanding ketib,
Boshin ko‘tarolmay yotsa manguga.
Onamni so‘rayman sendan erta-kech,
Qaytar deb so‘rayman chok etib yaqo.
Lekin mening dardli savolimga hech
Javob berolmassan, o, soqov daho!

Javob olabildi hech kim ham zotan:
Na sulton, na gado, na shoh, na faqir.
Kim qancha quvmasin sening ortingdan
Bir uyum tuproqni ko'rsatding axir.
Hayot talvasasi tinmagay, ammo
Mangu boqiy qolur Inson va Xayol.
Meros atalmagay barchaga fano,
Qismat atalmagay har kimga zavol.
Faqat o'tmish bilan yashamas inson,
Garchand bo'lolmaydi undan hech ozod...
Kechagi g'amini o'ylasa obdan
Bukchayib qolardi bugun odamzod.
Ketgan azizlarni xotirlab goho,
Mayliga, chekaylik bir zumgina oh.
Hayot tantanasi boshlanmish, ammo,
Do'stlar, nur vasliga tashlaylik nigoh.
Shu buyuk oftobning mukofotini
E'zozlab qo'yaylik aytib shukrona.
Dildan o'chiraylik g'amning otini,
Bahor ham baxt kabi axir yagona.
Bu kun she'ri chiqqan shoirday dunyo
Jilmayib qo'yadi barchaga masrur.
Temurbek gumbazin qo'ynini go'yo,
Yoritgani kabi bir lahzalik nur.
Dilbar kelinchakning ko'ksida g'ulu,
Zardolu shoxiga tashlar ko'z qirin.
Barg aro shu'lalar kaftlarmikan u...
Bahor tetapoya go'dakday shirin.
Yuksak arg'uvonning uchida hilol
Paxmoq bulutlarni etadi nimta.
Qaydadir shoira kuylaydi behol:
— Ko'nglim ham bu kecha oyday yarimta...
Uvada kamzulda billur tugmaday
Bulutlar ortidan boqadi yulduz.
Qaydadir yurtini eslab ingrar nay.
Qaydadir qo'zigul yoradi ildiz.

Qaydadir gulshandan axtarib visol
Yel kezar — tog'larning go'zal arvohi.
Shoirning dilrabo baytlari misol
Oh tortib tizilar turnalar gohi.
Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g'am,
Toshqinlar kiradi qalbimga manim.
Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam,
Mening O'zbekiston — dilbar Vatanim.
Faqat sen qalbimga cho'ktirmay malol
Charchagan ruhimga ilhom solursan.
Bahor ham, umr ham o'tar ehtimol,
Faqat sen dunyoda mangu qolursan.

1967

SENGA

Vatanim deb seni uyg'ondim!
Hamid Olimjon

Mening ham bor do'st-u qarog'im,
Sha'nlariga she'rlar kuyladim.
Lekin tanho quvongan chog'im,
Sirdoshim deb seni o'yladim.

Bedard emas umr ham aslo,
Hasratlardan goho so'yladim.
Shubha ichra qolganda tanho,
G'amdoshim deb seni o'yladim.

Qucholmasman men seni hargiz,
Sen osmonsan, men-chi, zarra tan.
Qiblagohim, yupanchim yolg'iz,
Sen barhayot onamsan, Vatan...

1967

SOZIM

Men shoirman,
Istasangiz shu,
O‘zimniki erur shu sozim,
Birovlardan olmadim tuyg‘u,
O‘zgaga ham bermam ovozim.
Men kuyladim — goh dilda kadar,
Goh sevinib she’r to‘qiyman men.
Tinglamasa o‘zgalar agar,
O‘z-o‘zimga she’r o‘qiyman men.
Men kuyladim ushbu olamda
Inson bo‘lib tug‘ilganimni.
Men kuyladim ba’zan alamda
Yig‘lab-yig‘lab bo‘g‘ilganimni.
Men kuyladim bu olam aro
Sobit turgan xalqimni faqat,
Men kuyladim o‘tmishning qaro
Zulmatida yo‘qligin shafqat.
Kerak bo‘lsa, amr etsa yurak,
Keltirurman umrimga imon.
Mening uchun na ta’zim kerak,
Na holvaytar kabi shuhrat-shon.
Shaydo bo‘lib yurganda birdan
Xayolimga tashlamang kamand.
Mijg‘ov va past, g‘iybat gaplardan
Jajji she’rim qo‘yurman baland.
Xayol kabi keng erur olam,
Mayda gapni ko‘tarmagay she’r.
Kerak bo‘lsa mening uchun ham
Javob berar bobom Alisher.

1967

ONA

Ko‘kda yulduz uchsa nogahon
Bitdi derlar qaysi bir taqdir.
Bunday g‘amni ko‘tarmak oson,
Bu ehtimol bizlar haqdadir.
Ba’zi tunlar ko‘kka tikib ko‘z
Eslab deyman onamni shu on:
Ona ketsa, yulduz-ku, yulduz,
Qulab tushsa arziydi osmon.

1967

* * *

O‘zimni moziyning bag‘riga urdim,
Va shu on shukrona aytib qaytdim men,
Kimdir ko‘rmay ketgan baxtni men ko‘rdim,
Kimdir aytmay ketgan so‘zni aytdim men.

Meni kutayotir ajib kelajak,
U mening iqbolim, mening baxtimdir.
Men ko‘rmagan baxtni kimdir ko‘rajak,
Men aytmagan so‘zni aytajak kimdir.

1967

MEN SENI KUYLAMOQ ISTAYMAN

Oq she’r

Men seni kuylamoq istayman,
Sening yuzlaringni kuylamoq istayman,
Sening ko‘zlaringni kuylamoq istayman.
Yuzlarkim, malagi afsonada yo‘q,

Ko‘zlarkim, jannati rizvonada yo‘q.
Men seni kuylamoq istayman.
Ammo shunday kuylasamki,
Yirtilib ketsa ovoz pardalarim...
Men sendan bo‘salar olmoq istayman:
Ammo shunday bo‘salarkim —
Tirqirab qon oqsa lablarimizdan,
Zotan, odamlar sevgisini ham
Alami, nafrati, quvonchi kabi
Hayqirib, hayqirib ochib tashlasin.
Istaymanki,
na’ra tortsin chaqaloqlar ham,
O‘liklar ham tinch yotmasin qabrlarida.
Men hamma narsani
buyukligicha ko‘rmoq istayman
XX asr odamlarida.
Zotan, bu asr
Har qanday cheklanish,
har qanday qullikni
Itqitib tashlamoqda o‘z yelkasidan...
Bu asrning talabi oddiy va sodda:
Yuraging buyurgan har qanday gapni,
Tilaging buyurgan har qanday gapni
Hech kimdan tortinmay o‘rtaga tashla,
Bo‘g‘zingda qolmasin ovozing aslo!
Men shu asrning bir mitti farzandiman,
Men uning butun qo‘polligini,
Butun nozikligini,
Butun sovuqligini,
Butun haroratini
Sening shu g‘unchadek nozik lablaringda
Jo qilmoq istayman,
sevgilim...

1967

ARMANISTON

Vatanim quyoshga ko'ksini ochib,
Osiyo qo'ynida yashnagan bo'ston.
Men bu kun daryolar, tog'lardan oshib,
Quchog'ingga keldim, go'zal Hayaston.
Bir yoningda turar oqsoch Ararat, —
Tog'lar tasbehining gavhar donasi.
Nima ham der edim, go'zalsan faqat,
Ey, sen arman yurtin g'amgin onasi.
Bir yoningda esa Sevanday bahr,
Misoli bulutlar ichida qamar.
Arman hasratlari bari bundadir,
Bundadir Majnunning do'sti Ohtamar.[1]
Bunda Sosun o'g'li kezib yuribdi.
Otdan tushgan emas hamon fidoyi.
Ming yillik g'amlardan so'ylab turibdi
Garni xarobasi, Zvartnos joyi[2].
Go'zal Armaniston, ey qadim diyor,
Ey, Odam Atoning o'gay bolasi.
Qancha ko'p darbadar farzandlaring bor,[3]
Barining ko'ksida o'kinch, nolasi.
Uch bo'ston bulbuli Sayot Navo bu,
Qo'lida sozi-yu, qalbida alam.
Tumanyan yurtim deb chekkanda qayg'u,
Arman qismatiga yig'ladi olam.
Charens ta'nalardan hayiqmay taqir,
She'riyat ko'kida ko'tardi yalov.
Hayhot, bu zotni ham yondirdi oxir,
O'zi muqaddas deb sig'ingan olov.
Go'zal Armaniston, meni afv et,
Da'vom yo'q shuhrating ovozasiga.

---

[1] **Ohtamar** — majnunsifat oshiq obrazi.

[2] **Garni, Zvartnos** — qadimiy ibodatxonalarning xarobalari.

[3] Arman xalqining katta bir qismi tarix taqozosi bilan butun dunyoga sochilib ketgan.

Sen bilan turibman bu kun betma-bet
Bosh urib Yerevan darvozasiga.
Buyuk fojiangning guvohi erur
Jahon puchmog'ida har yetti taraf.
Yo'l usti senga ham qo'ngandi Temur,
Seni mutab yotdi necha yil arab.
Afsona oshig'i buyuk Iskandar
Saroylaring buzdi ermakka faqat.
Dunyoga to'zg'iding bamisoli par,
Na Saljuq, na Chingiz qilishdi shafqat.
Toziga chap berib qochgan har tulki
Arman tuprog'ini bo'yadi qonga.
Bosqinchi so'zining ma'nosi shulki,
Nonga to'yganda ham to'ymas makonga.
Tarix deb atalgan qismat bu, axir,
Qoshida yuztuban hattoki Xudo.
Kimni u kamsitib, etmagan tahqir,
Kimni u yurtidan qilmagan judo.
Mening ham Vatanim janglar guvohi,
Mening ham tuprog'im toptalgandi xor.
Mening ham ruhimda ajdodlar ohi,
Mening ham qonimda qilich zangi bor,
Minorlar emas bu — falakka qasam,
Qasoskor bobolar ketmishlar sanchib.
Men tortgan g'amni ham bir-bir sanasam,
O'lik fir'avnlar ketarlar sapchib.
Yaxshiyam necha bir zamonlar o'tib,
Ko'rdik vatanimiz ozod, muzaffar,
Go'yo ta'na toshin sanog'i bitib,
Tarix sopqonidan tushgan kabi zar.
Yaxshiyam zamonlar dasturxonida
Barobar turibmiz ta'mi bir tuzdek,
Yaxshiyam quyosh bor tole tongida,
Arman may shishasi uzra yulduzdek.
Go'zal Armaniston, ey qadim diyor,
Ezgu ehtiromim qabul et jondan.

Sen qancha bo‘lmagin suluv va dildor,
Yurt izlab kelmadim O‘zbekistondan.
Men bir kezib yurgan kuychi shoirman,
Ne tong, Hayastonga kelibman bu kun.
Baxtni kuylamoqqa ancha mohirman,
G‘amni kuylamoqqa tillarim tugun.
Tashna bu ruhimga she’r bo‘lib kirdi.
Moviy daralarda asrlik tuman.
She’r meni chamanlar sayriga burdi,
Sargashta etgan ham o‘sha “yosuman”.
Xayr, Armaniston, ey, go‘zal diyor,
Xayr, Nairining tonggi salomi.
Xayr, Sevan qo‘li, pok va beg‘ubor,
Xayr, mangu o‘lmas arman kalomi.
Ezgu tilaklarim sen uchun bo‘lsin,
O‘tmishing qadarli boqiy bo‘l, bor bo‘l.
Yiroq farzandlaring bag‘ringga to‘lsin,
Bariga ona bo‘l, singil bo‘l, yor bo‘l.
Doim mag‘rur tursin Garnida Keg‘art,[1]
Ohu to‘dalari kezsin mardona.
Menday horg‘in yo‘lchi kelganda faqat
O‘zingni begona tutmagin, ona.

1967

NECHUN TIM QORADIR ARMAN KO‘ZLARI

Nechun tam qoradir arman ko‘zlari,
Hassos tabiatning sehrimikan bu?
Yo go‘zal bo‘lsinlar arman qizlari —
Degan onalarning mehrimikan bu?

---

[1] **Keg‘art** — armancha yo‘lbars degani. Garnida shunday haykal ham bor.

Yo‘q, bu mehr emas, sehr ham aslo,
Bu ko‘zlar o‘z-o‘zin aylab qo‘yar fosh.
Yig‘idan bo‘larmish ko‘zlar tim qora...
Hech kim armanchalik to‘kmagan ko‘zyosh.

1967

* * *

Alvido, deb qo‘llarimga boylading bir tola soch,
Oshiq ahli ichra kimni saylading, bir tola soch?
Qoldi umrim domi ishqda, soch kabi holim zabun,
Toleyimni tola-tola aylading, bir tola soch.

1967

SEVAN KO‘LI

Sevan ko‘li, senga aytar ikki og‘iz gapim bor,
Ushbu so‘zim senga g‘amdosh bir yurakning matlabi.
Armaniston osmoniday sof ekansan, beg‘ubor,
Ruxsoringda gard yo‘q ekan arman tuprog‘i kabi.
Mayli, sening og‘ushingda Zangu oqmasin aslo,
Mayli, moviy suvlar bilan qayta lim-lim to‘lmagin.
Sevan ko‘li, ruxsoringga g‘ubor qo‘nmasin ammo.
Qurib qolsang qurigin-u lekin nopok bo‘lmagin.

1967

YEREVAN KO‘CHASIDA

Salmina xonimga

Men Yerevan ko‘chasida ozar qizin uchratdim,
Umrim bo‘yi ilk martaba duch keldim men ro‘yoga.
Yo‘q, majusiy emas erdim, lekin suratday qotdim,
Birodarlar, bunday go‘zal kelmagay hech dunyoga.

Bekor bo'ldi iqtidorim, bekor bo'ldi yuragim,
Bekor bo'ldi she'riyatim ul go'zalning qoshida.
Bekor bo'ldi sayohatim, bekor bo'ldi yurmagim,
Bekor bo'ldi Yerevan ham tuyg'ular taloshida.
Yosh umrimni tarozuga solib asta qarayman,
Yoshlik va she'r bu dunyoning azal-abad timsoli.
Men-ku, she'rni to'qimoqqa sal-palgina yarayman,
Lekin sensiz yig'lab o'tgum Samad Vurg'un misoli.
Ozar qizi, nega menga zarra qiyo boqmading?
Boshim uzra turar edi O'zbekiston suvrati.
Ozar qizi, nega menga gullaringdan taqmading?
Fuzuliyning dahosiga hurmatimning hurmati.
Taqdir degan podsho bo'lsa oshiqlarning holi tang,
Qayonlarga olib ketar meni ham bu yo'llarim.
Tilaklarim bajo bo'lur va lekin sen bo'lmasang,
Bamisoli Iskandarday ochiq ketar qo'llarim.

1967

QUSHCHAGA

Bir tanishim sava qush asrab,
sal o'tmay qo'yib yuborgan ekan.
Sho'rlik qaytib kelibdi,
o'zi don topib yeya olmagan bo'lsa kerak,

Ey qushim, ko'kka qarab ko'zdan yoshingni to'kma ko'p,
Bunchalar anduhi g'am ichra qafasni so'kma ko'p.

Noshukurlik qilma muncha, sohibingga ayt sharaf,
Ul senga don-dun berib ahvolingga turgay qarab.

Yog'sa yomg'ir ko'chalarda qolmagaysan zor-zor,
Yig'lama, qushcham, sening kulbang-ku bor,
kulbang-ku bor.

Qayga ham borgay eding berganlarida erk senga,
Shahr axir g'ij-g'ij erur, oshyonlari ham berk senga.

Bosh olib qish kunlari qayga ketarding, jonginam,
Oh bechora, bilmagaysan sen janub yo'llarini ham.

Benavo har bir go'dak ko'rgach seni toshlar otur,
Pistadek qalbingga, vah, toshlar qadar g'amlar botur.

Qol o'shal maskanda sen, erk deb dilingni tilma ko'p.
Sen axir qushsan ojiz, insonga taqlid qilma ko'p.

Biz qafasni sevmagaymiz, bizga na uydir hojat,
Davrimizni yayrashib biz kuylasak yetgay faqat.

1967

* * *

Qo'ygil, u kunlarni eslatma menga,
Qalbimni yoqmasin bu xazon fasling
Endi begonaman, jonganim, senga,
Endi begonadir menga ham vasling
Gohida sevinib, gohi g'amdadir
Ishq uzra yozardim men erkin qanot.
Bilmayman qaysi kun, qaysi damdadir,
Mening qismatimga chang soldi sayyod.
Uning qo'lidadir bu kun imkonim,
Bu kun hamrohimdir go'zal iztirob.
Qo'ygil, u kunlarni eslatma, jonim,
Qo'ygil, yuragimga sen berma azob.
O'zgalar yuzimga boqsa ham hayron,
Faqat sen tomosha qilma holimni
Faqat sen she'rimni sevma hech qachon,
Faqat sen himoya qilma nomimni.
Darig' tut ishva-yu nazokatlaring,
Faqat sen yuzimga boqmagil kulib.
Hayhot, endi barcha iltifotlaring
Menga tuyuladi masxara bo'lib.

1967

GO'ZALLIK

Kuzning rutubatli oqshomi edi,
Bog'lar sokingina chekar edi oh.
Ruhimda bir xazon ayyomi edi,
Ajib go'zallikka duch keldim nogoh.
Misli xayol edi u malaksiymo
Chiroy olamining tengsiz sayqali.
Ko'zlarim oldida turardi go'yo
Navoiy g'azalin tirik haykali.
Bir zum ko'zlarimdan yo'qoldi uyqu,
Bir zum bahor kabi yorishdi olam.
Bir zum xayolimdan chekindi qayg'u,
Bir zum yuragimdan ketdi g'am-alam.
Bir zum go'zallikning huzurida jim
Samoviy hislarga bo'lib qoldim band.
O, dono tabiat, o buyuk hakim,
Hikmat ko'rmadim hech men senga monand.
O'zing yuraklarga cho'ktirib kadar,
Xalos ham qilursan rahm etgan damda.
Shunday go'zallarni yaratmasang gar,
Qolib ketarmidik bir umr g'amda.

1967

MUVASHSHAH

Ozod akaga

Oh urib har yonda izg'iydi shamol,
Zamon makon bermay uni qistaydi.
Orzusi faqat shul — u ham tog' misol
Dili orom olib yotmoq istaydi.

Arosatda ingrar tog'lar ham, ammo
Ko'hi zamonadan topolmay iloj.

Armon qilar u ham, shamolday go'yo
Moviy kengliklarda yozsam der quloch.
1967

* * *

Bahor kunlarida kuzning havosi
Tanimni junjitar oqshomgi shamol.
Nega muncha g'amgin nayning navosi?
Nega qalbim to'la o'kinch va malol
Barglar orasiga tinmasdan sira
Oshno yulduzlardan to'kiladi nur.
Bilmayman, qiynaydi qaysi xotira,
Titroq yulduz kabi muzlagan shuur.
Mag'lub bahodirning nayzasi misol
Ma'yus egiladi terak uchlari.
Barglar soyasida o'ynaydi behol
Uyqudagi qizning bedor tushlari.
Atrofimda yotar g'arib bir viqor,
Bilmam, nega o'chdi qalbim safosi.[1]
Nima ham qilardim, na ilojim bor,
Bahor kunlarida kuzning havosi.
1967

KUZ MANZARALARI

Yana dalalarga boshlaydi havas,
Bog'larda xazonlar yonadi lov-lov.
Do'stlarim, bu kuzning barglari emas,
Mening yuragimdan to'kilgan olov.

Shoxlarda mezonlar yaltirar xira,
Poyida shivirlar mening kuylarim.
Do'stlarim, bular ham mezonmas sira,
Bu mening chuvalgan, so'ngsiz o'ylarim.

Quyosh ham falakda bamisli ro‘yo,
U endi yondirmas, yaltirar faqat.
Do‘stlar, u ham endi quyoshmas aslo,
U olis yoshlikda qolgan muhabbat.

1967

SEVGI O‘LIMI

Yomg‘ir tinmay yog‘di kun bo‘yi,
Yomg‘irli kun kabi ezildi dardim.
Yaydoq ko‘chalarda jim yurgan ko‘yi
Sening izlaringni axtardim.
Ufqlarda esa achchiq bir tuman
Mening ko‘zlarimga quyardi zahar.
Uvushgan qalbimni sokinlik bilan
Ezar edi bo‘m-bo‘sh bu shahar.
Endi sen tutmassan aslo qo‘limni.
O‘tgan sevgim uchun ochmassan aza.
Oh, qanday o‘lim bu sevgi o‘limi,
Unga na qabr bor va na janoza.

1967

OHU

Makoning bo‘libdi tog‘lar orasi,
Sensan go‘zallikning asli, sarasi.
Ma’yus yuragingda ishqning yarasi,
Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.

Daralar qo‘ynida neni istarsan,
Nechun doim g‘amgin, doim mustarsan.
Latif shijoating qayga qistarsan,
Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.

Yo‘q, sen axtarmassan tog‘lardan makon,
Va na go‘zalliging uchun shuhrat-shon.
Sayyod jabri senga bermaydi imkon,
Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon,

Ko‘y, jonim, ko‘zlaring to‘lmasin yoshga,
Tongda oyog‘ing qo‘y baland bir toshga.
Seni quyosh o‘zi ko‘targay boshga,
Sen ham oshiqmisan yoki ohujon.

1967

PAHLAVON MAHMUD QABRI QOSHIDA

Madorsiz qo‘limga qalam olganda
Yo uzoq yo‘llarda horib-tolganda,
Bir nomard qoshida ojiz qolganda
Pahpavon Mahmuddan so‘radim madad.

Yulduzlar misoli kulganda ruhim,
Bo‘ronli hislarga to‘lganda ruhim,
Ba’zan she’r ustida so‘lganda ruhim,
Pahlavon Mahmuddan so‘radim madad.

Kuyladim, fazoga naqlim yetmadi,
O‘yladim, dunyoga aqlim yetmadi.
Qay ishga qo‘l urdim, shaxdim yetmadi,
Pahlavon Mahmuddan so‘radim madad.

Men uchun xilxona bo‘lganda olam,
Gumbazlar ostidan chiqdi bir alam:
— Hayotsan, bunchalar faryod aylama,
Men o‘zim madadga zorman-ku, bolam.

1967

* * *

Umr o‘tib borar misoli ertak,
Ertaning ketidan kelib qolar shom.
Faqat g‘aflat ichra yotmagin, yurak,
Qaytib kelmas sira bu yoshlik ayyom.

Payt kelar, va’daning qimmati qolmas,
Muhlat bermas u dam to‘lgan paymona.
O‘tgan bir oningni qaytara olgay
Na ko‘zyosh, na afsus va na bahona...

1967

* * *

Dunyo bir gulzordir keng va betimsol,
Yulduzlar g‘unchadir uning uchida.
Qo‘g‘irchoq ichida qo‘g‘irchoq misol
Gullar o‘stiramiz xona ichida.

Dunyo bir boladir sho‘x va betimsol,
Uning axtargani shodlik va kulgi,
Qo‘g‘irchoq ichida qo‘g‘irchoq misol
Unga ermak bo‘lib qolmasak bo‘ldi.

1967

SHOIR

Parvo qilma, do‘stim, ezilma sira,
G‘amgin qo‘shiqlarni kuylasa shoir.
Misralari garchand ma’yus va xira,
Lekin barchasi ham qalbiga doir.
Buyuk zamonaning otashin zarbi
Uning qalamiga yot emas aslo.

Agar kerak bo'lsa Sharqni va G'arbni
Yolg'iz bir she'riga eta olar jo.
Lekin u yuragin qasddan yoqmagay,
Qalbiga olamdan oqar ohanglar.
Ayting, hilol buncha ma'yus boqmagay,
Ayting, muncha suluv bo'lmagay tonglar.
Ayting, Bobotog'ning silsilasida
Sakrab kezmasinlar munis ohular.
Ular aks etadi she'r misrasida,
Ajib o'ychan qilib qo'yadi ular.
Parvo qilma, do'stim, ezilma sira,
G'amgin qo'shiqlarni kuylasa shoir.
Misralari garchand ma'yus va xira,
Barchasi ham shaydo qalbiga doir.

1967

SOVG'A

(Buxoro gazining Moskvaga yetib borishi munosabati bilan)

Qani qo'lingni ber, ey qardosh diyor,
O'zbek yigitining qaynoq kafti bu.
Bu kungi sovg'aning o'zga nomi bor,
Zahmatkash yurtimning yurak tafti bu.
Baxtini bus-butun topgunicha to, —
Ne-ne balolarni ko'rgan o'zbekman.
Mehmon joy so'rasa, ayamay hatto, —
Unga jonini ham bergan o'zbekman.
Dilbar Farg'onadan sohibkor xalqim
Har yili uzatar tonnalab meva,
Bundayin bisotni ko'rmagan balkim,
Makkaga qatnagan millionlab teva.
Tomdi yaylovida ma'sum qo'zichoq
Do'stlar deb ko'z ochmay berar jonini,
Hisoblab chiqishga son yetmas bu choq

Muruntovdan ketgan oltin konini.
Bizning paxtaga-ku, barcha muntazir,
Yer yuzi o'rtada ko'rmoqda baham...
Qanday bayon qilay fikrimni axir,
Mana, olib keldik o'timizni ham.
Gaz degan, do'stlarim, nima bo'libdi,
Azaldan jonimiz sizga sadaqa.
Jahon-ku rost gapni ko'rib turibdi,
Bizlar shundoq edik, bizlar shunaqa.
Bizlar baxsh etamiz do'stlarga olov,
Mana, Osiyoning quyoshi sizga.
Yoz payti saraton qizdirsa lov-lov, —
Sizdan ham shabboda kelgusi bizga.
Va lekin shamolday sargardon yurib,
Baxtimni axtarib kezmasligim chin.
Men bu kun Moskva yonida turib
Seni ulug'layman, ey ona xalqim.
Bir ne'mat bo'lsin deb qalbda qonni ham
Anor donasiga joylagan jonsan.
Agar qo'yib bersa, keng jahonni ham
Zarga o'raguvchi O'zbekistonsan.
Nurli istiqbolda barchaning ko'zi,
Oldinda kelajak turar alomat.
Mayliga, yashnasin butun yer yuzi,
Do'stlarning jonlari bo'lsin salomat,
Buyuk salaflarning silsilasida
Axir Rossiyaning farzandi bisyor.
Lermontovning o'tli bir misrasiga
Mayli, O'zbekiston otashi nisor.
Bu otash toblaydi do'stlikni faqat,
Bu otash orttirar iqbolning kuchin.
Bu otash taftida hurmat va himmat
Tabarruk zotlarning dahosi uchun...

1967

YOZAJAKMAN

Do'stlar, demangiz,
men she'r-u doston yozajakman,
Men she'r-u doston ichra bir afg'on yozajakman.

Hayrona boqur bu manim ahvolima har kim,
Men ersam o'zgalar ahvoliga hayron, yozajakman.

Shoir diliga qilma havas, but esa bag'ring,
Shoir yuragin doimo vayron yozajakman.

Soldi dilima qancha alam ul sho'xi badxo',
Bilmamki, axir qay biri qurbon, yozajakman.

Osmon elining turfa-tuman yulduzi ko'pdir,
Xo'bdir barisi, ravshani — cho'lpon yozajakman.

Sen she'rga qo'ling cho'zmagil, ey johili nokas,
Bo'lsang-da "xudo" nomingni shayton yozajakman.

Boshingga agar qo'nsa shu kun sharpayi iqbol,
Poyingga, elim, bosh urib Qur'on yozajakman.

Quldir demangiz garchi nomi Abdulla erurman,
Rasul ham emas, yo'q hali unvon, yozajakman.

1967

MINORAYI KALON TEPASIDAGI LAYLAK

Tashlab ketdi bu shaharni beklar, amirlar,
Tashlab ketdi bu shaharni islom shavkati.
Tashlab ketdi bu shaharni shayxlar, kabirlar,
Tashlab ketdi mahmadona Mang'it davlati.

Bulbullar ham ketdi bundan ko'zini yoshlab,
Tovuslar ham qaylargadir asta yo'qoldi.
Faqat bir qush bu shaharni ketmadi tashlab,
Faqat laylak Buxoroda manguga qoldi.

Men bu holga hayron bo'lib boqdim har safar,
Bir she'r izlab Buxoroni kezarkan uzoq.
Ajab, qushning oyoqlari g'o'zaga o'xshar,
Qanotlari esa uning paxtadek oppoq.

1968

ALISHER

Jahonki muqaddas neni ko'ribdi, —
Bariga onasan, ey qodir hayot.
Besh yuz yil naridan boqib turibdi,
Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.

Shu buyuk o'g'lingni ardoqlab dildan, —
Xalqim, ta'zim etsang arzigay tamom.
Uning nomi bilan birga bitilgan
Dunyo daftariga o'zbek degan nom.

Boyqaro irg'ishlab istak otida
Jahonga boqqanda misli bola sher, —
Hirot darvozasin bir qanotida
She'riy lashkarini tizgan Alisher.

Dunyoda biror nom qoldirmoq uchun
Yurt buzish shart emas, degan gap-ku, rost.
Kimdir pesh qilganda nayzaning kuchin,
Alisher qalamni ko'rsatgan, xolos.

Tun bilan tong erur tashbihda udum,
Misoli zahr-u may, hajri shakar lab.

Kimnidir quyoshday eslasa mardum,
Kimnidir zulmatday yurarlar qarg'ab.

Nido tingla, bu kun, yurting tarafdan,
Ey, yiroq Hirotda maskan topgan er!
Ogoh bo'l, Alisher, sen ushbu gapdan:
Har ikki nabirang biri — Alisher.

Baytingga bir bora qovushgan har lab,
Takrorlab ketgusi mahshargacha to.
Qaratib turibsan bu yon, ne ajab,
Milliard martabali jahonni hatto.

Birovlar nazdida johil Osiyo
Faqat zavol ko'rib, ko'rmagan kamol.
Muso iltijosi yetdi-yu go'yo,
Haq Tur tog'i uzra ko'rgazdi jamol —

Jahon mehrobida paydo Alisher...
Shodmon qasida ayt sen ham, ey quyosh!
Besh yuz yil unga ham nima gap axir,
Mingga qadam qo'ydi yigirma besh yosh.

1968

BIRINCHI MUHABBATIM

Kecha oqshom falakda oy bo'zarib botganda,
Zuhra yulduz miltirab, xira xanda otganda,
Ruhimda bir ma'yuslik, sokinlik uyg'otganda,
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim.
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.

O'tdi yoshlik zavq bilan, gohi to'polon bilan,
Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan,
Ayro ham tushdim ba'zan qalb bilan, imon bilan,
Lekin seni yo'qotdim, birinchi muhabbatim,
Mangu g'aflatda qotdim, birinchi muhabbatim.

Dunyo degan shundayin anglab bo'lmas sir ekan,
Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan.
Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan...
Nechun bilmovdim avval, birinchi muhabbatim,
Parvo qilmovdim avval, birinchi muhabbatim.

Holbuki orzulardan judo ham bo'lganim yo'q,
Yulduzday kulganim yo'q, oy kabi to'lganim yo'q.
Erta xazon gul kabi sarg'ayib so'lganim yo'q,
Seni eslab yig'layman, birinchi muhabbatim,
Eslab bag'rim tig'layman, birinchi muhabbatim.

Yo'lin yo'qotsa odam — muhabbatga suyangay,
G'ussaga botsa odam — muhabbatga suyangay.
Chorasiz qotsa odam — muhabbatga suyangay,
Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim.
Faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.

Nido bergil, qaydasan, sharpangga quloq tutdim,
Sirli tushlar ko'rib men bor dunyoni unutdim.
Tongda turib nomingga ushbu she'rimni bitdim,
Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yolg'iz Ollohim mening, birinchi muhabbatim.

1968

* * *

Bul ajab, xor kimsadin imdod so'raydi xorlar,
Siz bemor ko'ksiga bosh urmangiz, ey bemorlar.

Gar falak burjida shams uyquga solsa o'zni,
Yetdi navbat bizga deb chaqnar emish sayyorlar.

Sajdaga boshing urib faryod chekma, ey rafiq,
Endi sen topgaymiding, topmabdi-ku ag'yorlar.

Fozil-u donish eli qo'l yuvsa bu dunyoga gar,
Vo ajab, oqqan suvin no'sh etar shayx xunxorlar.

Nafs ila dunyoga dil bergan fosiqlar, siz bukun
Yassaviy xok-poyidan aylab oling tummorlar.

Kim berar dunyoga zar, abgor o'lib qolgay o'zi,
Kimki dorni buzsa gar, anga qurilgay dorlar.

Kimsalar, badbin deya boqmang bu kun Abdullaga,
Tinglasa gohi yurib moziy elidin zorlar.

1968

* * *

Sevgidan so'ylarding u kun entikib,
So'ylarding visolning yaqin kelishin.
Men bo'lsam ko'zimni qaygadir tikib,
O'ylardim dunyoning savdoli ishin.

Bugun-chi, bir o'zim, yuribman tanho,
Sevgi ham, visol ham bo'ldilar abas.
Barchasi manguga tark etdi, ammo
Faqat o'sha o'ylar tark etgan emas.

1968

BU KUN

Vahki, ishq sahrosida qoldim beishq tanho bu kun,
Chiqma, Qays, ohim bilan yonmoqda bu sahro bu kun.

Chehrayi zarrin sira ko'rmakka hojat qolmadi,
Shams narvoni uza ag'yor erur paydo bu kun.

Sharhi dil etmay turib rad etdi yorim, bo'ylakim
Qismat omin aytdi, aytmay zarra bismillo bu kun.

Nun labing uzra sokin qoldi hiloldek holatim,
Harf o'yin aylay desam, o'zga erur imlo bu kun.

Bag'ri qonlar birla yorning zarra dardi yo'q, ne tong,
Iblis ila ko'kda ham mashg'ul erur Olloh bu kun.

Charxi kajraftorning shevasi doim shul ekan,
Vasl uyida g'ayr eli aylab yurar yallo bu kun.

Yor visoli toleyingda bo'lsa, Abdullo, agar
Senga parvo qilsalar ham qilmagin parvo bu kun.

1968

BAHOR KUNLARIDA

(Hazil)

Bahor chog'i edi,
Shod edik juda.
Bog'da dildor bilan ayladik visol,
Jilmayib yurardik huda-behuda,
Xuddi kitoblarda yozilgan misol.

Birdan gumburladi momaqaldiroq,
Havoning avzoyi buzildi, ne hol?
Yomg'ir ham sharillab quydi-ku shu chog',
Xuddi kitoblarda yozilgan misol.

Bir zum yomg'ir ichra qoldik ikkimiz,
U mening ko'ksimga bosh qo'ydi behol.
Cho'mdik allaqanday hislarga ham biz,
Xuddi kitoblarda yozilgan misol.

Yo'q, endi kitobga o'xshamadi hech,
Qurg'ur yomg'ir bizdan ketibdi kulib.
Ikkov ikki yonga tarqaldik shu kech,
Mening belim og'rib, u tumov bo'lib...

1968

KETMOQDAMAN

Yaxshi qol, ey, dilbarim, dilda kadar, ketmoqdaman,
Ishq aro endi holim zer-u zabar, ketmoqdaman.

Na ishonch-u na quvonchu na ko'ngildan ochma gap,
Barchasidan ushbu kun yo'qdir samar, ketmoqdaman.

Men quyosh yuzlimga deb, tun-kechalar berdim yurak,
Oqibat otganda tong qondir jigar, ketmoqdaman.

Necha kunlar o'tdi, lekin so'rmading holimni bir,
Oxirida hol so'rab kelsang magar, ketmoqdaman.

Kelganimda dedilarki, bu yigit koni zarar,
Ketmagimdan, oxir ayt, bormi zarar, ketmoqdaman.

Bilmadim, hech bormikin asli dardimga shifo,
Xasta bu Abdulladan olgin xabar, ketmoqdaman.

1968

ILG'OR ISHCHI VA CHAQQON MUXBIR QISSASI

Ishchi tongda turib olib
Qurilishga boradi.
G'isht teradi, tosh yo'nadi,
Shag'alini qoradi.

Qo'l ishda-yu, ammo o'zga
Xayol kezar boshida,
Bog'chadagi qizchasining
Lentasi yo'q sochida.

Telpagini yo'qotibdi,
O'yinqaroq kenjasi.
Yangisini obber, — deydi,
Yig'lab chiqdi kechasi.

Biroviga papka kerak,
O‘ylab hamma-hammasin,
Ishchi shu kun ikki hissa
Bajaradi normasin.

Kun yarmidan og‘may turib
Muxbir kelib qoladi,
Ilg‘or, — deya uni, darrov
Suratini oladi.

Ergasiga gazetada
Xabar chiqar bir quloch:
“U yangi yil sharafiga
Mehnat qildi...” Na iloj!

Gazetani o‘qib ishchi
Kulibgina qo‘yadi,
Ilg‘orligin sababini
Yangi yilga yo‘yadi.

Kunlar bir-bir o‘tib borar
Qamchilashib otini.
Vaqti yetib bir kun uning
Tug‘ib qolar xotini.

Kim ham axir toleyidan
Quvonmaydi bu chog‘da.
O‘g‘il ko‘rdik, deb qo‘yadi,
Og‘zi uning qulog‘da.

O‘lmay bir kun katta bo‘lsa
Odam bo‘lar chaqaloq.
Ammo hozir boqish kerak,
Och qolmasin baqaloq.

Axir jinday chiqim kerak,
O‘ylab hamma-hammasin,

Ishchi shu kun uch baravar
Bajaradi normasin.

Ertasiga gazetada
Xabar chiqar bir quloch:
"Baliqchilar kuniga u
Mehnat qildi..." Na iloj!

Gazetani o'qib ishchi
Kulibgina qo'yadi.
Ilg'orligin sababini
Baliqchiga yo'yadi.

Kunlar yana o'tib borar
Bir-birini quvlashib,
Hozirchalik yomon emas
Yashaydilar quvnashib.

Ammo odam hayotida
Bordir kunning qorasi,
Ajal yetib bir kun uning
Qazo qilar onasi.

Marhum degan o'zi borib
Kirmaydi-ku qabrga.
Chiqim kerak ko'mishga-yu,
Mayda-chuyda tadbirga.

Onasining o'lishini
Qaydan bilmish u g'arib,
Yo'qsa avval ozroq narsa
Qo'ymasmidi jamg'arib.

Qabr ustiga lavha kerak...
O'ylab hamma-hammasin,
Ishchi endi to'rt baravar
Bajaradi normasin.

Kun yarmidan og‘may turib,
Muxbir kelib qoladi.
Peshqadamni qaqqaytirib
Suratini oladi.

Ertasiga gazetada
Xabar chiqar bir quloch:
“May bayrami sharafiga
Mehnat qildi...” Na iloj!

Gazetani endi ishchi
Bir burchakka otadi.
Bu maqtovga nima deysiz?
O‘ylab boshi qotadi.

Uyda bundoq ta’ziya-yu,
Bu yoqda bu masxara.
Nahot odam ahvolini
So‘ramasa tasqara.

Endi ish ham qolib ketib
So‘ka boshlar g‘urbatni:
“Bilamiz-ku biz ham
Bayramlarga hurmatni.

Shu zamonning og‘ushida
Yetdik biz ham voyaga.
Qalblarimiz limmo-limdir
Qancha-qancha g‘oyaga.

Mayli, bahor bayramidek
Yashnataylik olamni,
Lekin, uka, yoshlik qilib
Ranjitding-ku odamni”.

O‘ylab hamma-hammasini
Xullas, tinchi yo‘qolar,
Xumparni bir boplay, — deya
Gazetaga yo‘l olar.

Keyin bilsa muxbirning ham
Bor ekan o'z nolasi,
Chiqim uchun yozgan ekan, —
Tug'gan ekan xolasi.

1968

HAQIQAT YO'LLARI

Poyoni yo'q tarixning kechmishini o'ylayman,
Yosh idrokim zamonlar qarshisida qolur lol.
Va shu ulkan dunyoning kemtigidan bo'ylayman,
Unda birov quradi, birov buzar bemalol.
Ba'zan yomon ot qolur yaxshi odamdan hatto,
Qay bir yovuz kimsani yaxshi derlar erta kun.
Nahot, deyman, dunyoda sobit narsa yo'q aslo,
Nahotki yetuklikning timsoli yo'q bus-butun?
Deydilar, har zamonning bordir o'z tarozusi,
Oh, naqadar rost erur ushbu buyuk haqiqat.
Mangulik saltanatning qancha-qancha ko'zgusi
Oftob oldida shamday miltirab qoldi faqat.
Sulton esa ham garchand o'z davrida Ulug'bek
Oddiy bir qulboboday qilichga egdi bo'yin,
U-ku qayta tirildi hech nima ko'rmagandek,
Lekin dunyoning ishi bamisoli oto'yin.
Manguga qolay deya shuhrat quli Iskandar
Yuksak tog'ga o'zining suratini solibdi,
Xo'jasida bo'lsa ham qancha-qancha siym-u zar,
Qarangki, juldur kiygan Ezop mangu qolibdi.
Ha, sadaqa kam erur mangulik xaltasida,
Payhon bo'lar saroylar, qancha yuksak qabrlar.
Goh oddiy tasodifning oddiy bir hamlasida
Kapalak qanotiday uchib ketar qasrlar.
Balki zamonlar o'tib, davrlar shamolida
Sovurilar qancha zot, yana qancha buyuklik.
O'ylayman, mangulikning oynayi jamolida

Kim qolarkan sevgiday abadiy va suyuklik...
Kim muqim turar ekan sonsiz avlodlar osha,
Kimning ishi doimo atalar ekan savob?
Kim falakni quyoshday mangu qilgay tomosha,
Qay bir xilqatni inson beminnat aylar tavob?
Haqsizlikdan mazlumning ichga sig'masa dardi.
Agar zulmat ichida ko'rinmay qolsa hayot,
Qayga u sajda qilib, qayga dilin yorardi,
Qay suyanchiq qoshida aylar edi dod-faryod.
Shu mo'jaz hayotimda ko'rdim qancha sevinch,
g'am,
Goho tik boqolmadim razolatning ko'ziga.
Ushbu yorug' dunyoda topsam ham, topmasam ham,
Baribir talpinardim haqiqatning o'ziga.

1969–2000

SARATON

Saraton chog'i bu — zarra shamol yo'q,
Tutlar kovagida mudrar g'urraklar.
Nogahon falakka urgan kabi do'q,
So'zsiz qotib turar bo'ychan teraklar.

Osmon lol-lov yonar oftob qo'ridan,
Ufqda sarobdan otashin baldoq.
Chinqirib yuborar kunning zo'ridan
Qaygadir berkinib olgan chirildoq.

Birdan tinib qolar shu betinch dunyo,
Hatto sharsharaning o'chganday sasi.
Borliq suv tagiga cho'kkanday go'yo
Qanchalik termilma — chiqmas nafasi.

Go'dak uhicha ham shamol topilmas,
Butaning tagida bo'zto'rg'ay hayron.

Dehqon tol tagiga cho‘zildi birpas,
Tindi shoxchadagi qushcha ham biyron.

Mening dehqon bobom, andak orom ol,
Quyosh buroviga olgan palla bu.
Saraton o‘zi ham mudraydi behol,
Ohangsiz yalla bu, so‘zsiz alla bu!

Hali tong g‘unchasi ochmasidan lab,
Nahor farog‘atin o‘ylamay taqir,
Kimsasiz dalaga ko‘zni uqalab,
Chiqib kelganingni ko‘rdim-ku axir.

Ko‘rdim-ku manglaying ter bilan qotib,
Berahm otashga berganingni tob.
Ko‘rdim-ku tepangda o‘zin yo‘qotib,
Hayratdan lol qotib qolganin oftob.

Azm-u shijoating men axir ko‘rdim,
Ko‘rdim ko‘zlaringda charchoq bir kulgu.
Mayli, orom olgin, ey bobo yurtim,
Saraton junbushga kelgan payt-ku bu.

Butun olam go‘yo ulkan doshqozon,
Qaydadir — ko‘rinmas uning naryog‘i.
Bu qaynoq qozonni kuzatmoq oson,
Ichiga tushmoqlik osonmas chog‘i.

Cho‘ntakdan to‘kilgan tangalar misol
Shu’lalar o‘ynaydi supa uchida.
Birovdan xijolat bo‘lgan kabi tol
Yer chizib turadi — dami ichida.

Oftob qayta boshlar, ko‘lanka maydon,
Yana bosh ko‘tarar nomozshomgullar.
Sekin moviylashar qizargan osmon,
Oqarib ko‘rinar kumushrang yo‘llar.

Yana yelkanini ko'tarar shamol,
Yana chug'urchiqlar uyg'onar bog'da.
Bobo yonidagi boladay xushhol,
To'rg'aylar charx urar so'ngsiz samoda.

Yana yela boshlar oqshom nafasi,
She'r oni, ishq oni, mehnat oni bu.
Bu quyosh o'lkasin otashin sasi,
O'zbek diyorining saratoni bu.

1969

XOTIROT

Uydan ketganimga o'n yil bo'libdi,
O'n yil qishlog'imdan yuribman uzoq.
Men yurgan yo'llarda o'tlar unibdi,
Ko'milib bo'libdi men kezgan so'qmoq.

Yoshlik chog'im edi, sho'xligim tutib
Ismim o'ygan edim bitta terakka.
U ham jarohatday ketibdi bitib,
U ham yuksalibdi mensiz yuksakka.

Buzilib bo'libdi allaqaysi dam
Hovli ortidagi omonat ko'prik.
Bu yerda men bilgan odamlarning ham
Ba'zisi endi yo'q, ba'zisi tirik.

Hayratga tushmasman bu holdan sira,
Dunyo bu — quvg'indi ohuday yelar.
Dunyo bu — eng oddiy hukmiga ko'ra
Kimdir tug'iladi va kimdir o'lar.

Lekin qalbni bosdi nogoh bir sukut,
Nogoh bir hayajon ezdi dilimni.
Umrim yo'llarini bosmaganmi o't?
Xazon ko'mmaganmi hayot yo'limni?

Ko‘ksidan nomimni beshafqat, battar,
O‘chirgani kabi oqbadan terak,—
Bag‘riga ismimni yozgan bo‘lsa gar,
O‘chirmadimikan birorta yurak?

Yoshligim behuda o‘tmadimikin?
Go‘zal tuyg‘ularim bormikin tirik?
Nogahon buzilib ketmadimikin
Birorta yurakka men solgan ko‘prik?

Yillar umrimizga qilarmi shafqat?
Biror ish bormikan aylagali yod?
Qayta tiklash mumkin barchasin, faqat
Qayta tiklanmagay o‘chsa xotirot!..

1969

O‘ZBEK SHAMOLI

Yo‘llarda yeldirim misoli yeldim,
Yellar vodiysiga boshladi havas.
Yelvagay Qo‘qonning bag‘riga keldim,
Sen esding — taraldi siym tanda atlas,
Sen esding — ochildi yorning jamoli,
O, o‘zbek shamoli, o‘zbek shamoli.

Men-ku bu dunyoda bir zori visol,
Karbalo dashtida Majnunsifatman.
Shamollar ichida men ham bir shamol,
Chechaklar atridan men ham sarmastman.
Lekin sen ruhimning mangu xayoli,
O, o‘zbek shamoli, o‘zbek shamoli.

Qancha shamollarga yuzimni burdim,
Ulardan esdilar turfa xil nafas.
Ularda goh qayg‘u, goh shodlik ko‘rdim,
To‘xtamay o‘tdilar bari ham bir birpas.

Faqat qayg‘ulardan sen o‘zing xoli,
O, o‘zbek shamoli, o‘zbek shamoli.

Shamollar esgandir ushbu dunyoda,
Shamollar goh quyun, gohida dovul.
Ular goh oshkora, goho ro‘yoda
Qancha bo‘stonlarni sovurgan butkul,
Lekin sen bo‘lmagin bog‘lar zavoli,
O, o‘zbek shamoli, o‘zbek shamoli.

Esgin, ey, bog‘larning jamoli kulsin,
Moviy nafas bilan to‘lsin etaklar.
Uchqur qo‘shiqlarga bu olam to‘lsin,
Sha’ningga shoirlar aytsin ertaklar.
Esgin, Vatanimning taralsin boli,
O, o‘zbek shamoli, o‘zbek shamoli.

Meni chorlayotir oliy bir jamol,
Bilmasman, oh, unga qachon yeturman.
Bu gulshan vodiyda men ham bir shamol,
Shamol kabi keldim, shundoq keturman.
Lekin Abdullaning boqiy kamoli,
O, o‘zbek shamoli, o‘zbek shamoli.

1969-yil 7-sentabr

ONA SAYYORA

Qarshimda yer sharin surati turar,
Salmog‘i Quvaning anoricha bor.
Tim qora osmonda porlab ko‘rinar,
Shu jajji sayyora ko‘rkam, ulug‘vor.
Unga boqaman-u ushlayman yoqa,
Nahot shu ko‘rganim rost bo‘lsa, nahot?
Nahotki yerimiz shu kichik soqqa?
Nahotki biz shunga jo bo‘lsak, hayhot!..
Ummonlar ko‘rinar qatra yosh misol,

Chigit uvog‘icha kelmas tog‘lar ham.
Qitalar, dengizlar aftoda bir hol,
Bari bir nuqtaga bo‘lib olmish jam.
Nabilar, rasullar, dohiylar unda,
Qabrlar, qasrlar turgandir qator.
Balki huv ko‘ringan moviy to‘lqinda
Suv ichgan go‘dakning nafasi ham bor.
Quloqqa chalinar otlar dupuri,
Sor burgut o‘zini o‘ljaga urar.
Sharqda cho‘pon yoqqan gulxanning nuri
Shimol sayyohiga ko‘rinib turar.
Ana, Himolayning bag‘rida bir qiz,
Yelkada ko‘zasi — borar buloqqa.
Sohilda uchrashdi ikki qalb yolg‘iz,
Shivir-shivirlari kelar quloqqa.
O, ona sayyora, kurrayi qutlug‘,
Samodan suvrating ilk bora ko‘rdim,
Havoyi bir xayol sehri emas, yo‘q,
Farzand mehri bilan men boqib turdim.
Kun kecha emasmi, xislating sanab,
She’r yozib yurardim senga parvona.
Bu kun suvratingga so‘zsiz bosdim lab.
Shu senmi, yolg‘izim, shu senmi, ona...
Falakda bir o‘zing turibsan hayron,
Nahot sen bo‘lmasang bunchalar tanho,
Siynangga yopishgan farzanding — inson
Beva bag‘ridagi yetimday go‘yo...
Qayga ketmoqdasan bunchalar shoshib?
Orom istaysanmi ko‘kda ovora?
Balki farzandingni ko‘ksingga bosib
Yig‘lab ketmoqdasan, ona sayyora...
Farzandlaring bordir sonsiz-sanoqsiz.
Vo ajab, qadringni gohida bilmas.
Ular-ku qoshingda changday salmoqsiz,
Lekin bag‘ringga ham sig‘gisi kelmas.
Osmon torlik qilgan gala chumchuqdek

Makon talashadi goho betartib.
Sen-chi, mehvaringda aylanasan tek,
Yaxshi-yu yomonni yelkangga ortib.
Sening yuragingda laxta-laxta qon,
Siynang nimalardan bo'lmagan pora.
Qayg'u-hasratlaring barchasi ayon,
O, buncha dardkashsan, ona sayyora.
Sen hozir suratsan ko'zim o'ngida,
Eshita bilmassan so'zimni balkim.
Bir zumlik bezovta o'ylar so'ngida
Yana ruxsoringga tikilaman jim.
Bir yonda lojuvard Bahri Muhit bor,
Bir yonda za'faron Sahroyi Kabir.
Bir yonda oq sochli tog'lar purviqor
Sening toleyingga o'qiydi takbir.
Ellar to'zg'ib yotar gul yaprog'idek,
Bir yon shoh-u gado, bir yon do'st, g'anim.
Bir yonda xayoliy Eram bog'idek
Buyuk va betimsol mening Vatanim.
U mening ko'zimga hilolday mahvash,
Oftob kelar faqat uning qoshiga.
O, ona sayyora, bag'ringni poklash
Mening vatanimning tushgan boshiga.
Uning quchog'ida g'amdan yo'q nishon,
U yerda tentimas iblis xayoli.
U yerda do'stlikni ulug'lab inson,
Takallum qiladi qumri misoli.
Yillar o'tar, balki o'tar ko'p zamon,
Yer yuzi chulg'anar baxtga, chamanga.
Agar dardlaringga bo'lolsa darmon,
Ruhim fido bo'lsin shunday Vatanga.
Men ham bir o'g'lingman, ona sayyora,
Bag'ring men uchun ham xoki pok bo'lsin.
Toleying toabad bo'lmasin qora,
Manglaying oq bo'lsin, yarqiroq bo'lsin.

1969

* * *

Bu joylarga nega keldim men,
Qiziqmasam unut chiroyga.
Nechun kelib boshim egdim men
Hasratlarim ko'milgan joyga.

Axtaraman titrab damo-dam
U alamli kunimdan nishon.
Nahot ortda qolgan g'amin ham
Unutgisi kelmaydi inson.

1969

QANOT

Insonda qanot yo'q,
Achinmang bunga,
Zotan unga yurak — sabot berilgan.
Qushda-chi, sabot yo'q, shuning-chun unga
Qochib qolmoq uchun qanot berilgan.

1969

* * *

Yondim-u va lekin hijron tunida
Senga ahvolimni etmadim bayon.
Sokin kechalari ko'zim o'ngida
Munis qarashlaring bo'ldi namoyon.

Na sen nazar qilding holimga bir bor,
Na men ayta bildim senga biror so'z.
Shunday o'tib borar umrimiz bekor...
Oramizda sarson bir juft qora ko'z.

1969

ILK SEVGI

Oddiy mashinani ko'rsa bolalar
Hayratga tushishni kanda qilmaydi.
Olis-olislarda ulkan kemalar
Uchib yurganini ular bilmaydi.

Biz-chi, dunyo ishin bilamiz andak,
Oila quramiz, bola ko'ramiz.
Lekin mashinaga boqqanday go'dak,
Hamon ilk sevgini eslab yuramiz.

1969

* * *

Oh, o'tgan u kunlar qaytmagay zinhor,
O'chgan muhabbatning yonmog'i dushvor.
Nigohing qadama qarog'imga sen,
Unda to'kilmagan ko'z yoshlarim bor.

1969

BIZNIKILAR

Chapay askarlari keldilar bosib,
Bosib keldi oqlar ustiga.
Tomoshabin yigit yuragi toshib,
— Biznikilar, — dedi do'stiga.

Rahimov fashistlarning ko'zicha
"Missershmit"larning ko'zini o'ydi.
Kimdir mamnuniyat bilan o'zicha,
— Biznikilar, — deb qo'ydi.

Yiroq o'lkalarda kezardi sayyoh,
Kezardi yurtiga ko'zini tikib.

Yurtimiz nomini eshitib nogoh,
— Biznikilar, — dedi entikib.

Hech kim mangu emas ushbu olamda,
Agar bir kun tanim ko'msalar,
Koshkiydi kimlardir turib tepamda,
— U bizniki edi, desalar...

1969

RUHIM

Vujud deganlari asli nimadir?
Dayr dengizida yurgan kemadir.

Bir kun bir qoyaga urilgay kema,
Ruhim, sen vujudning g'amini yema.

Yuksak fazolarda aylagil parvoz,
Senda na ohang bor va na bor ovoz.

Senga na bo'ronlar kor qila olur,
Seni na yo'qotib, bor qila olur.

Sen misli kamalak —
yuksak va so'lmas,
Kamalakni esa parchalab bo'lmas.

1969

CHEKSIZLIK

Deydilar, fazoning chegarasi yo'q,
Milliard yulduzlarning so'ngi ham fazo.
U shu qadar cheksiz, shu qadar buyuk,
Xayolga sig'dirib bo'lmaydi hatto.

Ba'zan fazolarga boqaman uzoq,
Ruhimga shu tuyg'u sig'mas gupurib.
Cheksizlik yurakni qisganda, shu chog',
Torgina uyimga ketaman kirib.

1969

O'ZBEKISTON

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o'z yurtin butun —
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o'lka bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostondir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Yurmasman hech behishtni izlab,
Topolmasam chekmasman alam.
O'tirmasman ertaklar so'zlab,
Musallo deb yo'nmasman qalam.
Ko'klamingdan olib sururni,
Dovruq soldi ustoz Olimjon,
G'afur G'ulom tuygan g'ururni
Qilmoq mumkin dunyoga doston.
Olis tarix qadamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Kechmishing bor chindan ham uzoq,
Ilg'ay olmas barchasin ko'zim.
Maqtamasman moziyni biroq,
O'tmishingni o'ylayman bir zum.
Zabtga olib keng Osiyoni,

Bir zot chiqdi mag'rur, davongir,
Ikki asr yarim dunyoni
Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.
Aytgum, bu kun, u manim, manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so'z ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida.
Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor
Ko'ragoniy jadvallarida.
Qotil qo'li qilich soldi mast,
Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh.
Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas,
U, Ulug'bek ko'zidagi yosh.
Yerda qolgan, o, tanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Ko'z oldimdan kechar asrlar,
Ko'z-ko'z etib nuqs-u chiroyin.
Sarson o'tgan necha nasllar,
Topolmasdan tug'ilgan joyin.
Amerika — sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali,
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash'ali.
Kolumbda bor alamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,
Hammasiga guvoh — yer osti.
Lekin, do'stlar, she'r ahli aro
Jahongiri kam bo'lar, rosti.
Besh asrkim, nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir she'r.
Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.

Dunyo bo‘ldi chamanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so‘zladim, ammo
Bir zot borkim, baridan suyuk:
Buyuklarga baxsh etgan daho,
Ona xalqim, o‘zingsan buyuk.
Sen o‘zingsan,
eng so‘nggi nonin
O‘zi yemay o‘g‘liga tutgan.
Sen o‘zingsan, farzandlar shonin
Asrlardan opichlab o‘tgan.
Ona xalqim, jon-tanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Bosh ustingdan o‘tdi ko‘p zamon,
O‘tdi Budda, o‘tdi Zardushtiy.
Har uchragan nokas-u nodon,
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.
Seni Chingiz g‘azabga to‘lib
Yo‘qotmoqchi bo‘ldi dunyodan.
Jaloliddin samani bo‘lib
Sakrab o‘tding Amudaryodan.
Sensan o‘shal samanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Toleyingda bor ekan yashash,
Goh qon ichding, gohida sharob.
Etmoq bo‘lib yurtim xomtalash,
Bosh ustingga keldi inqilob.
Chora istab jang maydonidan
Samolarga uchdi unlaring,
Shahidlarning qirmiz qonidan
Alvon bo‘ldi qora tunlaring.
Qonga to‘lgan kafanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Lekin oftob poymol o‘lmas,
Kovaklarda qolmas oy nuri,
Odil hakam — Haq bor, beg‘araz,
Mazlumlarning buyuk g‘amxo‘ri.
Qilich serpab tole tongida
O‘zligingni tanib qolding sen.
O‘g‘lonlarning qatra qonida
O‘zbekiston nomin olding sen.
Nomi qutlug‘ gulshanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Tinch turarmi bu ko‘hna olam,
Tinch turarmi dog‘uli zamon.
Oromingni buzdi sening ham
Fashist degan vahshiy olomon.
Qonim oqdi Dansigda manim,
Sobir Rahim yiqilgan chog‘da.
Lekin, yurtim, kezolmas g‘anim.
O‘zbekiston atalgan bog‘da.
Sensan nomus va sha’nim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Kech kuz edi, men seni ko‘rdim,
Derazamdan boqardi birov.
U sen eding, o, dehqon yurtim,
Turar eding yalangto‘sh, yayov.
— Tashqarida izillar yomg‘ir,
Kir, bobojon, yayragil biroz.
Deding: — Paxtam, qoldi-ku axir,
Yig‘ishtiray kelmasdan ayoz.
Ketding, umri mahzanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Sen ketarsan balki yiroqqa,
Farg‘onada balki, balqarsan.
Balki chiqib oqargan tog‘ga,

Cho‘pon bo‘lib gulxan yoqarsan.
Balki ustoz Oybekdek to‘lib
Yozajaksan yangi bir doston.
Balki Habib Abdulla bo‘lib,
Sahrolarda ochajaksan kon.
Tuprog‘i zar, ma’danim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Mayli, yurtim, kezsang ham dunyo.
Fazolarga qo‘ysang ham qadam,
O‘zligingni unutma aslo,
Unutma hech, onajon o‘lkam.
Bir o‘g‘lingdek men ham bu zamon
Kechmishingni qildim tomosha.
Iqbolingni ko‘roldim ayon
Istiqlolning ufqlari osha.
Iqboli hur, sho‘x-shanim manim.
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Zavol ko‘rma hech qachon, o‘lkam,
Zavol bilmas shu yoshing bilan.
Muzaffar bo‘l, g‘olib bo‘l, o‘ktam,
Do‘st-u yoring, qardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening.
Ulug‘ bashar oilasida
Mangu yorug‘ peshonang sening.
Mangu yorug‘ maskanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

1963–70

QARSHI QO'SHIG'I

(Otamga bag'ishlayman)

Men bu cho'llar qo'ynida tug'ilib topdim kamol,
Ko'hna sardobalarda ko'milib qoldi dardim.
Lekin nar arslondan sut talab qilgan misol,
Olis shahar, tog'lardan ilhomimni axtardim.

Goho topdim men uni, gohida qoldim nochor,
Og'ir o'ylar ham surdim Sirdaryo bo'ylarida.
She'rlar bitdim gohida o'jar va majnunshior,
Sargashta bulbullarning beusul kuylarida.

Do'stlar orttirdim bunda turfa xil, turfa odat,
Goho birisin topsam, birisini yo'qotdim.
Mehmon bo'ldi bu yerda qalbimga ilk muhabbat,
Olis kechalar uning g'ussasini ham tortdim.

Mana bu kun, ey yurtim, g'oz turibman qarshingda,
Ot aylanib joyini topar, deganlar doim.
Sen haqingda she'r bitish sharafi bor boshimda,
Ey sen, sahroyi xalqim, ey sen, tug'ilgan joyim.

Kim aytadi qo'yningda ilhom bor deb doimo,
Xususan saratonning yonib turgan pallasi?
Bir nafas taklifingga tashrif etsa mabodo,
Har qanday shoirning ham pir bo'lar hafsalasi.

Bu yerlarning bori shu: qip-qizil sahro bari,
Faqat sarob jimirlab chorlar sirli bazmga.
Uncha ham suluv emas sahroning jonzotlari,
Nasrga yarashmasa, yarashmaydi nazmga.

Lekin uning bahori, o, sen, cho'llar bahori,
Sog'intirgan onamning diydori senday shirin.
Erta kun qovjirashdan bo'lsa ham dilda zori,
Lola labi xandon-u tubda dog'i yashirin.

Oyoqlangan qo‘ziday dovdirar yelda maysa,
Ko‘m-ko‘k moviy osmonda kezib yurar oq bulut.
To‘rt taraf qisib kelib, nogahon jala quysa,
Olamga anqib ketar ming xil ko‘kat, ming xil o‘t.

Lekin oftob zabtidan qochib boradi bahor,
Noshud sayyod dastidan qalbi qon oh-u kabi.
Xayr endi, bahorim, ko‘rishguncha to diydor,
Mahshar kelmay yumildi bahorning qaqroq labi,

Shundayin shitob bilan o‘tdi-yu ketdi ko‘klam,
Za’faron adirlarda tentirar endi quyun.
Bamisoli shaddod qiz bir bora aylab karam,
So‘ngra labin cho‘chchaytib qilgani kabi o‘yin.

Qaynoq bir to‘zon ichra gurkirar endi osmon,
Bosh ustingda o‘t purkar samoning ajdahosi.
Asta-sekin kun qaytar, bosilar qaynoq to‘zon,
Yelar oqshom nafasi — salqin tun ibtidosi.

Har nedan go‘zalroqdir balki cho‘l kechalari,
Ufqlar kaftdek ravon, ko‘k sochgan bor bisotin.
Termilsang ko‘ringaydir jannatning go‘shalari,
Yulduzlar chug‘urlashib so‘ylashar tafsilotin.

Sizni jondan sevaman, o, yulduzli kechalar,
Qo‘yningizda nihondir sirli va dilbar xayol.
Sizni suronli kunlar qo‘msaganman nechalar,
Siz bilan tanholikda so‘zlashsam, deb bemalol.

Lekin shaddod hayotning yulduzda bormi ishi,
Insonlar bor — yulduzdan yulduzlar qadar yiroq.
Insonlar bor — o‘zidan bo‘lak yo‘qdir tashvishi,
“Savdoyi” — deb ataydi shoirni ular ko‘proq.

Gina qilish endi bas, gapni har yoqqa bursang,
Xilma-xil kuduratlar chiqa berar qatma-qat.

Xullas, gul va yulduzni bir chetga qo'yib tursang,
Bu yerlarning bori shu — qip-qizil sahro faqat.

Yo'l yursang har joylarda rabotlar vayronasi,
Iskandar, Qutaybadan qolgan sonsiz dahmalar.
Bu yerlarda ilk bora yangragan Temur sasi,
Chingiziylar boshiga solib qo'rquv, vahmalar.

O, ulardan ne qoldi? Turfa rivoyat faqat...
Birovi qurganini boshqasi qildi vayron.
Vaqting bemalol bo'lib, so'ylay bersang hikoyat,
Hattoki Firdavsiy ham boqardi senga hayron.

Va lekin shu fursatda qalbimda hasrat bilan,
O'zbegim diyorining kechmishini o'ylayman.
Men bu kun do'stlarimga afsus-nadomat bilan,
Yerga cho'p qadamagan amirlardan so'ylayman.

Mening mang'it elimdan uyquchi Said Olim
Cho'l oshib Hisor tomon chiqqani mahal yo'lga,
Jilovdori bo'lmasa yugan tortmagan zolim,
Qaysi hafsala bilan suv chiqarsin bu cho'lga?

Shu boisdan sahroning qalbida bir go'r yotar,
U mening bobom qabri, qizimning bobojoni.
Har o'tganda ruhimga tuganmas qayg'u botar,
Qultum suv hasratida uzilgan yigit joni.

U bir zamon quduqning tubida qolgan ekan,
Suv ko'zin ochay desa — bosib qolibdi tuproq.
Shum ajal boyoqishning payidan chalgan ekan,
To'g'rirog'i, muhtojlik dastini qirqqan ko'proq.

Men bu kun sahar chog'i, zarrin quyoshga boqib,
Shu sho'rlik ajdodimning nomini she'rga soldim.
Maskanin yoritmoqqa qalbimda shu'la yoqib,
Lavhi yodin bitmoqqa tunlardan siyoh oldim.

Men uning nabirasi, qo'limda qalam bilan,
Qalbimda alam bilan poyiga qo'ydim qadam.
Uning-ku ishi yo'qdir bu tirik olam bilan,
Lekin orzusi bor-ku, niyat topmas-ku barham.

Ha, quduqlar tubida ko'milib ketmas armon,
Har qanday zavolning ham bordir so'ngi, hududi.
Qabrlar tepasida yongan o't ham begumon
Birorta o'ksik qalbning chaqnayotgan umidi.

Bu joylar obod bo'lar albatta erta-indin,
Go'riston gulistondir, Muqimiy aytgan misol.
Lekin o'tgan bobolar bu ishni bilarmikin,
Bilarmikin, tegrasin qurshab turganin iqbol?

Biz ham bir kun o'tarmiz bu dunyoyi qadimdan,
Bizning ham qalbimizda ketgusi balki armon.
Balki kimdir bizni ham xotirlab qo'ysa zimdan,
Parchalab qabr toshin kelurmiz o'sha zamon.

Mana bu kun bobolar arvohi chappor urar,
Mening azamat yurtim — o'zbekning sahrosida.
Hazrati Xizr emas, Jayhunning sasi yurar,
Saksovul bosib yotgan cho'llarning ma'vosida.

Men-ku she'r yozmasam ham sahrolarga suv chiqib,
Shu buyuk mamlakatim obod bo'lishi tayin.
Lekin ona xalqimning o'tmishiga ko'z tikib
Kelajagi haqida o'y surgum kelar mayin.

Ilojin topsa agar, ketmonning dastasin ham
Yerga qadab termilib, ko'kartirguvchi bu xalq.
Jazm etsa ko'kka bo'yar jahon xaritasin ham,
Bugun cho'lga chiqibdi, niyati topsin barhaq.

Bugun u Jayhun suvin kelmoqchi cho'lga boshlab,
Jayhun bu — o'z xalqimning o'z armoni, dunyosi.

Yarashmas bu daryoga o'tirsang qarmoq tashlab,
Jayhun bu — kuchga to'lgan Vatanimning daryosi.

Men uning bo'ylarida o'ylarga toldim uzoq,
Qirg'ovul xonish qilgan to'qaylarga burdim yuz.
Bir tomon Turkman eli, bir tomon Qoraqalpoq,
Yo nasib, deb Jayhunga cho'kka tushib tikkan ko'z.

Daryo-chi, shamshir kabi yaltirab yotar daryo,
Tushovidan bo'shalgan ot kabi chopar sarson.
O, sen darbadar daryo, o, sen serxatar daryo,
Bunchalar vazminsan-u bunchalar quv, o'jarsan!

Sen qayga hovliqasan erta-kech bilmay tinim,
Sen qayga hovliqasan, bekanor-u ko'r, basir?
Azizim, bu dunyoda yo'l yursang yo'qdir qo'nim,
Azizim, o'jarlikni yoqtirmas bizning asr.

Men sening visolingni ko'rgali keldim atay,
Mavjlaringga qo'shilib jo'sha bilmadim biroq.
Sen bilan suhbat qurish qo'limdan kelmas, netay,
Sen buyuk bir nahrsan, men bo'lsam oddiy irmoq.

Ha, dayr dengizida yakka inson — zarra qum,
Zamonlar soatidan o'tar u qator-qator,
Lekin sen borsan, Amu, dengizday teran ruhim,
Lekin sen borsan, xalqim, ko'kragim Pomircha bor.

Pomirday yuksaklikdan tegramga boqsam agar, —
Ko'zimga ko'ringaydir Vatanim, ona xalqim.
Uning-ku quchog'ida cho'llardan qolmas asar,
Abadiy muzliklar ham gul ochib ketar balkim.

Chunki shukuhin berdi xalqimga buyuk shuur,
Buyuklikdan buyuklik tug'ilib kelgan doim.
Sen ham shu buyuk elda yashnay ber doim mag'rur,
Ey, sen, azamat xalqim, ey, sen, tug'ilgan joyim!

1970

KENGLIK NUQTASI

Hisor tog'larining naq etagida
Makon bor xushhavo, sarbaland, yuksak.
Ajib bir osmon bu, osmon tagida.
Yulduzlar qo'l cho'zsang shundoq yetgudek.
Ona tabiatning xush san'ati bu,
Inson va yulduzlar saltanati bu.

Bu yerdan o'tibdi yerning belbog'i,
Beqasam to'n demak bu rangin diyor.
Falakda yulduzlar chaqnagan chog'i
Nishondor o'zbekning surati tayyor.
Ulug'bek nomida zo'r koshona bu,
Dunyoda beshdan bir rasadxona bu.

Bu yerga termilib parishon dunyo
To'g'rilab oladi qo'lda soatin.
Ne ajab, payt kelib aytolsak hatto
Jumlayi jahonning xush saodatin.
Shundoq qutlug' joy bu, qutlug' makon bu,
Ne qutlug', jonajon O'zbekiston bu.

Atrofda vodiylar tovlanar hal-hal,
Ming yillik chinorlar ko'kka boqqan tek.
Bu yerda, vo ajab, yuz yillar avval
Dunyoga kelibdi sulton Ulug'bek.
Ajib tasodif yo shahri Humoy bu,
Hoynahoy, dahosi tuganmas joy bu.

Oqshom tushmasidan bunda besabr,
O'nlab ko'z termilar osmon-falakka.
Bu Zuhal, mana bu Dubbi Akbardir,
Zuhraoy piqirlar bir chetda yakka.
Yulduzlar vasli bu, vasli jahon bu,
Oshiq munajjimga ayshi nishon bu.

Tong otib chiqar-ku ishboshi oftob,
Qoshida bosh egib qolma tag‘in jim.
Zamon shiddatini qilolmay hisob
Yer chizib turibdi yosh bu munajjim.
Azizim, g‘am chekma, vahm-u gumon bu,
Oxir tizginingga kelgay zamon bu.

Har zumda dunyoning burchaklariga
Xabarlar jo‘naydi qator va qator.
Xohlasang, uchaver Marsdan nariga,
Xohlasang, falakning u burchiga bor.
Qo‘lingda tap-tayyor haddi hisob bu,
Haddi hisob bergan shahri Kitob bu.

Qutlug‘ joy ko‘p erur ushbu dunyoda,
Yulduzni ko‘zlagan lochin ham talay.
Har nechuk, shu soat, shu soniyada,
Ona yurt, men seni sozimga solay.
Na maqgov, na olqish, na puch zanah bu,
Ona yurt qalbimga solgan farah bu.

Kezdim bu yerlarda tanho shodumon,
Yulduzlarga yaqin, ko‘zlardan yiroq.
Qalqib turgan bilan teppamda osmon
Anglab yetarmidim ma’nosin biroq.
Har nechuk, bilganim, yulduzfishon bu,
Uyg‘oq Vatanimdan bitta nishon bu.

Bor bo‘l, tafakkurga yor bo‘lgan diyor,
Bor bo‘l, yulduzli tun, oqshomlar mayin.
Bitta munajjiming misoli bedor,
Ona yurt, men senga maftun o‘tayin.
Balki shoirlik ham yaxshi otdir bu,
Ulug‘bek yurtidan xotirotdir bu.

1970

ILTIJO

Yuzlaringni mayliga yashir,
Kerak emas, nozlar, imolar.
Go‘zallikning qoshida axir
Cho‘kka tushgan hatto xudolar.

Kimga foyda behuda junun
Va dunyoga g‘avg‘o solishdan.
Ayriliqdan qo‘rqmasman bu kun,
Men qo‘rqaman sevib qolishdan.

1970

HAMID OLIMJON XOTIRASIGA

O‘rik gullaganmish kechagi tunda,
Bahor mujdasi bu, yayragin, ey jon.
Yillar o‘tar ekan, bugungi kunda
Oltmishga kiribsiz, ustoz Olimjon.

Bir yonda Hulkar bu, bir yon Omon bu,
Bir yon shoiramiz — mashhuri olam.
Sizning tegrangizda ahli zamon bu,
Sizning tegrangizda do‘stlar bo‘lmish jam.

Barhayot Oybek bu — qutlaydi mamnun,
Qutlar G‘afur G‘ulom — dongdor zamondosh.
Sizni qutlayotir do‘st-yorlar bukun,
Qutlar O‘zbekiston — mag‘rur egib bosh.

Yetimtov bag‘ridan chiqqan navqiron,
Siz bu — she’rimning eng jarang sasi.
Sizning satringizda qurmish oshyon
Uchirma qush kabi she’r ilohasi.

Oltmishga kiribsiz, yodingiz ammo
Shabnamday ma'sum-u ko'klam kabi yosh.
Axir qancha qadim bo'lmasin dunyo
Bag'rida nur borki, qarimas quyosh.

Hayot bo'lsaydingiz turardingiz shod
Ulkan shu davraning eng o'rtasida,
Tiriklik sha'nini ulug'lab kushod
Doston insho etib, bitib qasida.

Hayot bo'lsaydingiz, har salqin sahar
Oshno buloqlarga qo'yardingiz lab.
Yurardingiz elda aziz, mo'tabar,
Sonsiz shogirdlarning manglayin silab.

Yaxshiyam boqiydir dilbar she'riyat,
Samandar misoli o'lim bilmas jon.
Minnatdor yurt sizni qutlaydi faqat,
Qutlug' bu ayyomda, ustoz Olimjon.

Yurt bu kun karvonlar boshida nordir,
Yurt bu kun Sharq ichra tengsiz bir diyor.
Yurt bu kun ohuday xo'p ishvakordir,
Sir kabi sermavjdir, Pomirday poydor.

Tole yulduzining qutlug' ziyosi
Saodat burjida balqqay, zamon bu.
Qadim bir diyor bu — yo'qdir qiyosi,
Ajib bir bo'ston bu — O'zbekiston bu.

Ustoz, sozga solay boqiy hayotni,
Boqiy she'r qoshida bosh egay bir on.
Shodlik va baxtini kuylagan zotni
Shodlik bilan eslar odatda zamon.

1970

QIRG‘IZ DIYORI

Chingiz Aytmatovga

Azamat Manas yurti, To‘qtag‘ulning vatani,
Alpomish va Navoiy yurtidan senga salom.
Yuksak tog‘lar o‘lkasi, moviy ko‘llar maskani —
Qirg‘izlar diyoriga o‘zbeklardan ehtirom!
Mangu oppoq qor bilan yaltiraydi Olatov,
Bamisoli qirg‘izning boshidagi oq qalpoq.
Yam-yashil yaylovlarda son-sanoqsiz oq o‘tov
Qirg‘iz xalqin qalbiday beg‘ubor-u toza, pok.
Ey, qadim Osiyoning abadiy yosh o‘lkasi,
Yalangto‘sh va mehnatkash o‘zbek bilan inisan.
Qirg‘izlarda jengaydir o‘zbeklarning bekasi,
Shon-u sharaf osmonin chaqnagan chaqinisan.
Butun dunyo biladi ijodkor Chingiz nomin,
Azamat xalq,
shuhrating bundan ham bo‘lsin ziyod.
Ne ajabki, barhayot G‘afur G‘ulom kalomin
Qirg‘izlar ham unutmay, aylab turgan bo‘lsa yod.
Chorvadorsan, botirsan — qo‘lda qo‘bizing bilan,
Paxtakorsan, ishchisan, daryoni burguvchisan.
Rosa termilib boqsang shu qiyiq ko‘zing bilan
Kuppa-kunduz kunda ham yulduzni ko‘rguvchisan.
Shu bepoyon dunyoning bag‘rida teng farzandmiz,
Zavq olurmiz barobar o‘lan-u kuylaridan.
Azal-abad hamdammiz, azal-abad dilbandmiz,
Salom keltirdik senga Sirdaryo bo‘ylaridan.
Ketmasin boshimizdan aslo baxt belanchagi,
Yangrasin do‘stlik kuyi, yangrasin she’r, tarona.
Bor bo‘l,
ey Qirg‘iziston — quyoshning kelinchagi,
Do‘stini topgan inson do‘stni desin yagona.

1970

* * *

Kuzak shamollari esdilar yana,
Sokin yuragimda tuyg'ular qo'zg'ab.
Kelgil, parivashim, kelgil jimgina,
Kelgil samolardan mezonga o'xshab.
Oqshom tumanida kezaylik xushhol,
To'ngan yulduzlarga boqaylik to'yib,
Shivalagan yomg'ir, daydigan shamol,
Mayli, izimizni ketsinlar yuvib.
Bog'larda xazonlar shovullar quyuq,
Ular soyalardir, jonginam, faqat.
Ular bilmaydilar, bilolmaslar, yo'q,
Naqadar buyukdir bizning muhabbat.
Poyonsiz olamga boqaylik so'zsiz,
Na hasrat, na so'zning bordir keragi.
Bizning tegramizda yonayotgan kuz
Qaysi bir oshiqning so'ngan yuragi...

1970

XIVA BOZORIDA

Yig'lab turar edi bir qizcha,
To'zib ketgan sochlari paxmoq.
Nima bo'ldi senga, yulduzcha,
Nima bo'ldi senga, qizaloq.

Qizcha panoh istagan misol,
Ketmay turar edi qoshimdan.
Bir yigitni ko'rsatdi behol,
Dedi: "O'sha... tortdi sochimdan".

Yigit esa xurram, shodumon,
Yurar edi parvo qilmasdan.
Shundagina keltirdim imon:
—Xonlar davri tugabdi rostdan.

1970

MO‘MIN MIRZO

Hazrat Navoiyning nazari tushgan,
Yuragida balki she’r qoni jo‘shgan,
G‘unchadek qalbida ohi uvushgan
Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.

Qo‘lingga solmishlar tilladan zanjir,
Shahzoda yigitga hurmat bu, axir!
Bu nechuk qabohat, bu nechuk tahqir,
Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.

Go‘ringda o‘t yongur amirlar xudbin,
Bilganlar na nomus, na vijdon, na din,
Mayparast bobong ham bukibdi qaddin,
Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.

Senga saltanatning qanday daxli bor,
Sen-ku ma’sum go‘dak, pokiza dildor,
Olim bo‘larmiding, balki san’atkor,
Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.

Ukam, yovuzlarning topganlari shu,
O‘z o‘g‘lin it bo‘lib qopganlari shu,
O‘z qalbin kafanlab yopganlari shu,
Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.

Topganlari zahar, to‘kkanlari qon,
Qanday zamon ekan, do‘stlar, u zamon.
Bolam deb, oh chekar Badiuzzamon,
Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.

Sen-ku yo‘qsan, ammo qotillar yashar,
Hamon go‘daklarga qilich qayrashar.
Qachon pok bo‘larkan bulardan bashar,
Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.

Besh yuz yil berida esladim birpas,
Lekin bu behuda motaming emas,
Qalbimni o'rtadi allaqanday sas...
Mo'min Mirzo, ukam, seni o'ldirdilar.

1971

NOMA'LUM ODAM

"U na shoir edi va na mashhur zot,
Lekin dunyo bilan bir edi dardi.
U ham boshqalarday kechirib hayot,
Shoshib ishga borib sekin qaytardi.
Anglardi dunyoni u ham xo'p teran,
Ma'yus boqar edi botguvchi kunga.
Ba'zida yuragi yongani bilan
Parvo qilmas edi hech qachon bunga.
U qabr ustida so'zlamadi nutq,
Tabrik ham aytmadi to'ylarda xandon,
O'lim bu — nishonga borib tekkan o'q,
Tug'ilish — shiddat-la tortilgan kamon.
Shon-shuhrat talashgan turfa xil g'arib,
Sho'rlik kimsalarga kulib boqardi.
Yurmasdi har qayda ilinj axtarib,
Qalbida bir dunyo guvlab oqardi.
Birovning u bilan bo'lmadi ishi,
U ham duch kelganga ochmadi yurak.
Nasab, ikir-chikir, mol-mulk tashvishi
Uni etolmadi zarra jonsarak.
Loqaydni do'pposla, desa ehtimol
Unga yopishardi nokasning bari.
Uning ko'zlarida yonardi behol
Yiroq yulduzlarning sirli nurlari.
Olamning bu mayda g'alvasi nechun?
Bari o'tadigan, bari nokerak.
Tariqday zaminning ustida beun

Yashab o‘tdi shundoq buyuk bir yurak.
Qaydan kelgandi u? Bilmadi kimsa,
Qabrga ham jimjit kirib ketdi u.
Menimcha, dunyoning ustidan rosa
Miriqib qahqaha urib ketdi u.

1971

NEKRASOV HASRATI

(Shoirni o‘qib)

Pushkin she’ri hali yangrardi mag‘rur,
Lermontov charaqlar nazm osmonida.
Shoir bo‘lish qiyin,
Shoir bo‘lish og‘ir
Shunday buyuklarning Kahkashonida.

Shoir xayollarga beriladi, bas,
Yeryomushka yig‘lar sahar chog‘ida.
Faqat shoir bo‘lish...
Bu hali yetmas —
To kishan bor ekan yurt oyog‘ida.

Nechun kulfatlarga to‘la bu hayot,
Nechun mujik holin bo‘lmaydi kuylab.
So‘ngsiz hasratlarga ko‘milgan bu zot
Kezadi kimsasiz Peterburg bo‘ylab.

Nekrasov hasrati, o, rus hasrati,
Poyoning bormikan, hadding bormikan?
Sensan — bu ayovsiz Sibir dahshati
Va mujik qalbiga sanchilgan tikan.

Shoir qalamida hasratlar qat-qat,
Shoirni chulg‘aydi o‘ylar daf’atan.

Yashab qolarmikan she'rim oqibat?
Ozod bo'larmikan notavon Vatan?

Pushkin she'ri hali yangrardi mag'rur,
Lermontov charaqlar nazm osmonida.
Shoir bo'lish qiyin,
Shoir bo'lish og'ir
Bunday buyuklarning Kahkashonida.

1971

* * *

Keldim qoshingizga chopib, entikib,
Maysaga burkangan tog' etaklari.
Uch oy yo'lingizda yotdim ko'z tikib,
Ey, bahor bekasi — may chechaklari,
Garchand yuragimga gul ruxsoridan
Xazon yaproqlari endi yaqinroq.
Har nechuk qish faslin tund diydoridan
Jajji kapalakning vasli shirinroq.
Qaldiroq gumburlar yuksak tog'larda,
Chiltor qillariday taralar yomg'ir.
Shamol shovullaydi qadim bog'larda,
Buyuk ko'hna dunyo ko'pchiydi og'ir.
Men uning qo'ynida kezdim saboday,
Qorlardan lolarang olovlar yoqdim.
Bir zum shahanshohlik tekkan gadoday,
Umr o'tar, dedim-u dunyoga boqdim.
Quchoq och, dilbarim, shu gul nahorga,
Tumanli tuyg'ular bosmasin og'ir.
Iltifot qilmasak jajji bahorga,
Nuroniy kuz bizni siylamas, axir.

1971

MAKTUB

G'azallar to'qirdim senga bir zamon,
Qo'shiqlar aytardim tunlar boshingda.
Na chora, ushbu kun o'zga bir inson,
O'zga bir muhabbat turar qoshingda.
Eshitdim, xazonli bog'larda tanho
O'tkazar emishsan sokin paytlarni.
Sarg'aygan daftaring varaqlab goho
Takrorlar emishsan mahzun baytlarni.
Men ham tonglar ba'zan yo'lga qarayman
Munavvar quyoshga ko'ksimni ochib.
Sening xayolingdan madad so'rayman,
Sening xayolingga boraman qochib.
Lekin qutulmoq yo'q hijron dastidan,
Faqat qalbimizda bardosh va sabot.
Dunyoda jamiki hislar ustidan
Qahqaha uradi qadim bu hayot.
Nadomat nimaga va afsus nechun?
Olamda neki bor o'char beshafqat.
Bizning vazifamiz ko'nikmoq beun,
Bizning vazifamiz unutmoq faqat.
Yillar o'tib ketar takror va takror,
Yoshlik ham o'tadi benishon, besas.
Lekin o'sha chog' ham xo'rsinib, bir bor
Sevgandim, nabiram, deya olsak bas...

1971

CHORLASH

Do'sti g'arib, kel, qo'lingni tut,
Yuragingda yoqay alanga.
Kel, bir zumga dunyoni unut,
Ko'tarayin seni balandga.
Pastda qolsin nobakor xilqat,
Pastda qolsin tanbal bulutlar.

Yuragingda chaqnasin faqat
Yorug‘ xayol, samoviy o‘tlar.
Yuksaklarda charx urib aylan,
Ruhing mangu tursin yorishib,
O‘lganda ham vujuding bilan
Ketmagaysan yerga qorishib.

1971

* * *

Bulbul o‘gay erur zog‘lar orasida,
Yugurik suv o‘gay tog‘lar orasida.
Muhabbat dardidan bemor qalblarmiz,
O‘gay bo‘lsak ne tong, sog‘lar orasida.

1971

YOLG‘IZLIK

Ko‘kda oy kezadi besar-u somon,
Yiroq zamin uzra tashlab horg‘in iz.
Mana, o‘tsa hamki necha ming zamon,
Ko‘kda oy tanhodir, ko‘kda oy yolg‘iz.
Odamlar mohtobga yayrab qarashar,
Yolg‘izlik negadir oyga yarashar.

Ko‘kda quyosh kezar, u munis ona,
Milliard yulduzlarning shamsi tal’ati.
Yulduzlar bo‘lsa ham garchi parvona,
Yolg‘izlik bo‘libdi lekin qismati.
Har nechuk oftobning yo‘rig‘i boshqa,
Yolg‘izlik yarashar ona quyoshga.

Bobolar gohida o‘kinchda qolib,
Shohlarning nomiga noma bitganlar.

Insonlik sharafin xotirga olib,
Tangrining yodini zikr etganlar.
Deganlar boqishib sirli samoga:
— Yolg'izlik yarashar faqat xudoga.

Men na oy, na quyosh, na yer, na samo,
Shu'laga intizor giyohday o'sdim.
Yolg'izlik hasratin tortmaylik aslo,
Bor bo'lsang, yodga ol meni ham, do'stim.
Yolg'izlik hasratin ko'rsatma, taqdir,
Yolg'izlik insonga o'lim-ku, axir...

1971

SUV

(Hazil)

Juda ajoyibdir inson udumi,
U suvni juda ham, juda ham suyar.
Deylik, biror joyda nihol ko'rdimi,
Albatta, tagiga suv quyar.
Chanqab kelganda-ku, biror tashna lab
Albatta suv ichar, miriqar, to'yar.
Ortib qolganin ham hatto avaylab
Etagidan yo boshidan quyar.
Suv omborlarin-ku, aytib o'tirmay,
Inson bunday ishni joyiga qo'yar.
Uchragan puchmoqni kovlab erinmay,
Albatta, u yerga suv quyar.
Xo'sh, undan keyin-chi,
Xo'sh, undan keyin,
Inson suvdan yana qanday zavq tuyar?
Bekor qolganida, ba'zida sekin
Bir-birin tagiga suv quyar.

1971

* * *

Nogoh entikdi-yu, egildi kamon,
O‘q uchdi belgisiz yoqlarga tomon.
Keksa otasining qaddin dol etib,
Ketib borar edi farzand shu zamon.

1971

HANGOMA

Qor yog‘ardi bo‘ralab,
Qolishmasdi dovuldan.
To‘yga aytib ketishdi
Shundoq qo‘shni ovuldan.

Yo‘lga chiqdi ikki chol,
To‘yga borish qarz beshak.
Birovi otga mindi,
Birovi mindi eshak.

Qor-chi, hamon yog‘ardi,
Yog‘ar edi gupullab.
Yo‘lni eshak boshladi,
Ot ergashdi lo‘killab.

Gapga tushdi ikki chol,
Suhbat u yoq-bu yoqdan.
O‘tgan-ketgan, baland-past,
Goh kalla, goh tuyoqdan.

Suhbat degan soz narsa,
Qolmasang bas surgashib.
Yo‘rg‘alar eshak hamon,
Ot boradi ergashib.

Asta-sekin kun qaytar,
Ufqlarda o‘chgan rang,
Qor oralab qaydadir
Bir yulduz chaqnar arang.

Chollar-chi, hamon yo‘lda,
Suhbat o‘sha-o‘shaydi.
Biri dedi: — Oqsoqol,
Kun botganga o‘xshaydi.

Yo‘g‘-e, usta, — der biri, —
Ko‘zdan qolibsiz butkul.
To‘rt chaqirim ovulga
Nahot yursak bir kun yo‘l.

Ammo bu gap rost edi,
Yulduzlar chaqnar bot-bot,
Oldinda eshak borar,
Orqada lo‘killar ot.

Ovuldan-chi, darak yo‘q,
Oppoq edi qir-qiya,
“Adashib ketdikmikan,
Kuppa-kunduz kuni-ya?

Gap bosdimi yo g‘aflat,
Tavba, bu qandoq o‘yin?”
Qor tindi-yu, chollarning
Ichiga kirdi quyun.

— Qora qishda to‘y qilmay,
Battar bo‘lgur nokas, gov.
Bachchag‘arning aslida,
Fe’li sovuq edi-yov.

Qaydadir cho‘zib-cho‘zib
Uvlab qoldi-ku qashqir,

Kim ham, ayting, bundoq chog‘
Tashvishga tushmas axir?

Xususan, keksayganda
Xafa bo‘lib ketasan.
Aytaylik, o‘sha qashqir
G‘ajib ketsa netasan?

Qora sovuq tish qayrab
Qovurg‘ani ezardi.
Keng sayhonda ikki chol
Yo‘l axtarib kezardi.

Yo‘l qayoqda, to‘rt taraf
Qalin, oppoq qor edi.
Eng battari — sovuqda
Jon saqlash dushvor edi.

Qaytay desa iziga,
Belgi ham yo‘q, iz ham yo‘q.
Qaltiraydi ikki chol,
Taskin ham yo‘q, so‘z ham yo‘q.

Ne bo‘lsa ham topshirdik
Yarattanning o‘ziga!
Tavakkal deb, ot boshin
Qayirdilar iziga.

Peshonada borini
Ko‘rar inson degan zot.
Yo‘l soldilar qaygadir,
Ot boshin qo‘yib ozod.

— Bir kor-hol bo‘lmay endi,
Uyni topib borsak bas, —
Surgaladi ot horg‘in,
Orqada eshak besas.

To tonggacha ikki chol
Yurdi, turdi, surindi.
Uzoqlarda bir mahal
Qora narsa ko‘rindi.

Bo‘g‘oti bor, haytovur,
O‘xshab turar qishloqqa.
“Xudoga ming shukur”, deb
Yurdilar o‘sha yoqqa.

Tuman ichra dov-daraxt,
Turar edi yaltirab.
Tongga yaqin qishloqqa
Kirishdilar qaltirab.

Tugagandi bardosh ham,
Tugagandi bor sabot.
Yetmay bir darvozaga
To‘xtab qoldi sho‘rlik ot.

— Joy so‘raylik, naryog‘i
Bir gap bo‘lar, oqsoqol.
Qamchin bilan taqa-tuq,
Darvozani qoqdi chol.

Izg‘irin-chi, izg‘irin,
Yer-u ko‘kda horg‘in tus.
Bir kampir chiqdi shu tob,
Qo‘lida xira fonus.

So‘z boshladi chol titrab,
Halqumiga kelib jon:
— Bir kechaga bizlarga
Joy bersangiz, yangajon.

Qora quyun charx urib
Ko‘z oldini tutardi.
Kampir kelib yaqinroq
Fonusini ko‘tardi.

— Hoy, senmi bu, yer yutkur,
Imoningdan kechdingmi?
Aljiraysan yo to'yda
Araq-paraq ichdingmi?

Alqissa shu: ot yo'lni
Uy tomon burgan ekan.
Chol-chi, o'z kampiridan
Joy so'rab turgan ekan.

1971

QO'SHIQ

Qo'shiq uchar edi ko'kda bearmon,
Uchardi yangratib osmon, ufqni.
Badkirdor odamlar bir kun beomon
Yarador qildilar qo'shiqni.
Majruh turna misol qulab tushdi u,
Shodlik qulab tushdi arshi a'lodan.
Mana, ming yillarkim qo'shiq serqayg'u,
Hamon hasrat chekar o'sha balodan.
Shikasta yurak bu chekmasin ozor,
Jahon shoirlari turar qoshida.
Chollar duo qilsa, onalar bedor
Alla aytib chiqar uning boshida.
Hammaning armoni — sog'aysin qo'shiq,
Zarrin qanotidan chevrilsin osmon.
Shodlik bilan to'lsin to'rtala ufq,
Kulgi bilan balqsin bu qadim jahon.
Bedor termilaman qo'shiqqa men ham,
Mayli, hasratida rangim sarg'aysin.
Balki ko'rolmasmiz biz uni xurram,
Bolalar baxtiga qo'shiq sog'aysin...

1972

SOG'INCH

Parchagina bulut,
Cheksiz osmon,
Adir ortidagi yolg'izoyoq yo'l.
Barcha tashvishlarni unutib, shodon,
Qaytgim kelayotir qoshingga butkul.

Qismat mayin ichdim —
achchiq va taxir,
Tuydim ehtirosning samoviy kuchin.
Dunyoda odamzod yashamas, axir,
Faqat irodasin sinamoq uchun.

Parchagina bulut,
Cheksiz osmon,
Adir ortidagi yolg'izoyoq yo'l.
Barcha tashvishlarni unutib, shodon,
Qayta olsam edi qoshingga butkul.

1972

GENETIKA

Men ham yashayapman o'z zamonimda,
Davrimdan qayga ham tushardim yiroq.
Va lekin bilmadim, mening qonimda
Qaysi bir bobomning xislati ko'proq.

Barchaga barobar meros bu bashar,
Otadan qosh-ko'zni olgan o'g'ildek.
Bilmadim, qonimda qay ajdod yashar,
Balki Bobo Kayfiy, balki Ulug'bek.

Tunlar qulog'imga chalinar elas,
Tulporlar kishnashi, otlar gurrosi.

Balki Muqanna bu — tinib-tinchimas,
Balki Panipatda Bobur urhosi.

Balki tanglayimni ko'tarib ketgan,
Darbadar bir oshiq va yo sarbador.
Balki biror bobom shahanshoh o'tgan,
Balki vujudimda darvesh qoni bor.

Men yaxshi anglayman, moziy ne demak,
Tarixda har kimning bor o'z zamoni.
Lekin tanimizda kezar-ku beshak
Olis bobolarning ming yillik qoni.

Nechog'liq sabot bor yovqur Shiroqda,
Eryigitov to'pga ko'ksin bosar jim.
Rahimov g'animga tashlangan chog'da
Alpomish shiddatin payqamagan kim?!

Ohu bolasi bu — ohuday boqqan,
Sherbachchada esa sherning shiddati.
Avlodlar qonida ming yillab oqqan
Buyuk bobolarning turfa xislati.

Neki ezgulik bor jahonda poydor
Joylab ola bildik barchasin qonga.
Asrlar so'ngida tole kelib yor,
Farzand bo'la bildik o'tli zamonga.

Singdi ruhimizga, mangu barhayot
Alisher she'ri-yu Pushkin bayoti.
Singdi ruhimizga g'olib hissiyot —
Jasur bobolarning tengsiz saboti.

Singdi qonimizga shu otash dunyo,
Singdi qonimizga muhabbat, g'azab.
Yiroq avlodlarga bizlardan ammo
Qay bir xislatimiz qolarkan, ajab?

Nima qolar ekan? Qay ezgu tilak,
Qay his, yuraklarda topolgan kamol?
Yiroq avlodlarga bizlardan beshak
Qolar kurashlarda toblangan xayol.

Shu yovqur asrda yashadik ro'y-rost,
Ranj-u balolardan hayiqmay taqir.
Yiroq avlodlarga bizlardan meros,
Buyuk bardoshimiz qolgusi axir.

Yashadik shu rangin dunyoda mas'ul,
To ellar ko'z yoshi bo'lmasin chashma.
O'zni bag'ishladik kurashga butkul,
Demakki, yashadik oromga tashna.

Tashna yashadik biz mehrga mutlaq,
Ishqqa, muhabbatga tashna o'tdik biz.
Goh esa quyoshdek porloq va yiroq
Haqqa, haqiqatga tashna o'tdik biz.

Tashna yashadik biz nurga, ziyoga,
Qayon ketmoqdasan, ey uchqur zamon?!
Oqibat bel bog'lab keldi dunyoga
Bizning asrimizda vallamat inson.

To'fon, qasirg'alar kechar-ku hali,
Kechadi avlodlar qator, galma-gal.
Balki oro topib bashar sayqali,
Tug'ilar eng oliy inson, mukammal.

U o'zin tanigay shunda daf'atan,
To'fon, qasirg'alar bosiriq bir tush!
Shu buyuk sayyora — yagona Vatan.
Inson o'z baxtidan o'zi ham sarxush.

Munis nigohini qadab quyoshga
Turar u nurday pok, ishqday bezavol.
Kechmish kamolotin ko'tarib boshga.
Yiroq asrlarga ko'z tikib xushhol.

Turar u go‘dakday beg‘ubor kulib,
Balki kulgusi ham bizdan meros bu.
Rishtayi jonida bir zarra bo‘lib
Bizning ham qonimiz gupurgay, rost bu.

Bobolar dunyodan o‘tdilar shundoq,
Biz ham yetuklikka bo‘lmadik timsol.
Lekin sen bo‘larsan bokira mutlaq,
Lekin sen yasharsan farishta misol.

Kahkashon sayrida hur quyosh bilan
Kezarsan to abad shodumon, xurram.
Labda tabassum-u qo‘zda yosh bilan
Senga talpinaman, buyuk nabiram...

1973

DENGIZGA

Yo‘lim boshladi to, kezdim dala-tog‘,
Kezdim ne yurtlarni — chiroyi tengsiz.
Nasib etgan ekan sen bilan bu chog‘,
Ilk bora ro‘baro‘ keldim, ey dengiz.
Sahroyi o‘zbekman, toleyim kulib,
Muqimman, o‘z yurtim bilan hayotman,
Va lekin, dunyoda shamolday yelib,
Dengizday keng qalbni axtargan zotman.
Qalbim ochay deyman senga ushbu chog‘,
Lekin tinglarmiding, bahri beomon.
Menman bu — qoshingda zarra bir ushoq,
Sen — ko‘kka sha’shaa tashlagan ummon.
Neni anglar eding, sen-ku bir xilqat,
Milliard tuyg‘ulardan qotgan sharora.
Senga dil ochmoq ham fol ko‘rmoq faqat,
Inson o‘z qalbini anglasa zora.
U sohir hislardan kechdi beomon,

Afsungar tuyg‘ular bo‘lganlar g‘oyib.
Beshafqat tafakkur asri bu zamon,
G‘arib deymi uni va yo g‘aroyib.
Uning poyidadir zamin — ziroat,
Uning poyidadir hattoki samo.
Qayda she’r? Qayda sir? Qayda sinoat?
Qayda Majnun uchun dashti Karbalo?
Dengiz, tanib olgin uni bir karra,
Hazrati insondir — o‘zi qo‘ygan ot.
Dengiz, she’r emassan endi sen zarra,
Sen — po‘lat zanjirlar zabtidagi zot.
Ha, buyuk shoirlar qadami o‘chgan,
Hech kim mavjlaringdan o‘qimas tuyg‘u.
Xitobmas to‘lqinlar bag‘riga tushgan,
Qaysi bir baliqchi tashlagan to‘r-ku.
Farzandman shu buyuk asrimga beshak,
Men ham uning uchun dilni o‘rtarman.
Oh, lekin ko‘ksimda yongan shu yurak
Bir kun tosh qotmasa deya qo‘rqarman.
Olis ufqlarda yongan bu mayoq,
Afsus, men uchun ham xayolmas aslo,
Bo‘ronlar qalbimga solmagay titroq,
Yo‘qdir men uchun ham sehr ila ro‘yo.
To‘plar gumburlashi, vahshat sadosi,
Qutqularga to‘lgan ushbu kun zamon.
Tashlandiq ushoqning bo‘lib gadosi
To‘p-to‘p chag‘alaylar oh chekar nolon.
Yulduzlar yonadi, oftob charaqlar,
Kukunga aylanar vujud ham, ammo
Yaralgan ekanki Inson bir vaqtlar,
Nahot tuyg‘udan u bo‘lgay mosuvo?!
Sarson, sohillarda tentirab yana
O‘yga botarmikan beruh oshiqlar?
Dengizlar ufqiga boqib mardona
Kuylarmikan hech kim o‘tli qo‘shiqlar?
Moviy dalalarda o‘zni unutib,

Shabnam ichra kezsa mallarang toychoq,
Fazogir Mirrixning mehridan kechib
Boqarmikan unga entikib, mushtoq?
Ulug‘ ilohasin — tilsiz jamolin
Unutib qo‘ymasmi bir kun odamzod?
Buyuk nasibasin — tengsiz xayolin
Shu buyuk tafakkur etmasmi barbod.
Ilhoming dilimda, xayr, ey dengiz,
Garchand visolingdan aslo qonmasman.
Lekin yoshligim ham o‘tar-ku esiz,
Bir vaqt yonganimday balki yonmasman.
Balki sayr etgali mavjlaring bo‘ylab,
Tag‘in qaytajakman, ey oshno ummon.
Sen-chi, kuylayvergin hamisha guvlab,
Insonlar qalbiga solib g‘alayon.

1972

ALLOMA

Biror joyda topilsa nogoh gavhar donasi,
Cho‘ntagi teshik har kim da’vo qilgan hamisha.
Men ham orzu etardim, yaxshi nom bahonasi
Meni ham yodga olsa g‘ayri el, shuhratpesha.

Qancha buyuk zotlarga makon bo‘lgan Xorazm,
O‘tgan, ketgan tarixing barchaga kunday ayon.
Sira ajab emasdir Mashhad ham aylab bazm,
Bir Qiyot farzandiga ta’zimda bo‘lsa jahon.

Qaytdi buyuk alloma o‘z yurtin quchog‘iga,
U bois qalbim yana g‘urur bilan to‘libdi.
Vo ajab, shunday bir zot o‘z qadrin topmog‘iga
Uncha-munchamas, rosa ming yil kerak bo‘libdi.

Holini bilmaganga ro‘baro‘ kelsang agar,
Qalbingdagi arslonning mo‘yloviga cho‘zgay qo‘l.

Men-ku oddiy insonman, lekin shunday dam battar
O'n ming yillik g'ururim qo'zg'alib ketgay butkul.

Xalqim, tengsiz farzandlar bergansan-u dunyoga,
Zar qog'ozga ishqiboz murg'day ustin yopgansan.
So'ng yuz yillab faromush ko'zing tikib samoga,
Dafinayi ganjingni eslatishsa topgansan..

Beruniy bobomiz shu, ismi ham Abu Rayhon,
Ba forsi guftaam gar az zamoni pur Sino.
Bu zotni yetishtirgan qadim Sharq, ko'hna jahon,
Kumush soqol, tilla bosh, asl qomusiy daho.

Sharafayi zamondan boqadi u bepisand,
Buyuk Sharq tafakkurin benazir xazinasi.
Mustabid Mahmud emas xayolini etgan band,
Bilgisiz ellar shavqi, yulduzlar nashidasi.

Shunchalik bo'lar axir alloma deganlari,
Agar-chi, qismat chigal, noshukur ul zamona.
Javohir iste'dodning mevasi buning bari:
"Osor ul-boqiya"-yu "Hindiston"-u "Saydona".

Ushoqqina odamman, jussam otamdan hadya,
Lekin mayda hislarni yoqtirmas aslo jinim.
O, buyuk Sharq, buyuk Sharq, sening shavkating deya
Ne buyuk farzandlaring zahmat chekkan betinim.

Qayda ular? Qaysi bir puchmoqlarda benishon...
Afsuski, o'z qadrini bilmas doim odamzod.
Bu kun Abu Rayhonga ta'zimda ekan jahon,
Bu — buyuk bobomizga zamonadan bir imdod.

Dovotim qurimadi, mudom faxriya bitay,
Eng ulug' ajdodlardan xayolimga yog'sin nur.
Shunday zotlarni bergan xalqimga ta'zim etay,
G'ururimga g'ururdosh kim bo'lsa — ming tashakkur.

1973

QASOSKOR HAQIDA BALLADA

("Qoraqum" filmi uchun yozilgan)

Sahro otashida qovrilar gullar,
Charx urar boshida mahzun bulbullar,
Gulshanga qahringiz sochmang, ey, cho'llar,
Sizning o'zingizni yondirar qasos.
Qon yig'lar yarali oh-u bolasi,
Falakka chirmashar g'amgin volasi.
Haqqa yetganida uning nolasi,
Sayyodni qoniga qondirar qasos.
Shamshirga qo'ling cho'z, titrama, ey, jon,
Raqiblar ustiga ot sol beomon.
Nomus-u or uchun jangga kir, o'g'lon,
Tog'larni o'zidan tondirar qasos.
Qo'lida g'amgin soz — kuylaydi baxshi,
Hasratga to'lmasin bu ellar dashti.
Adolat yo'lida kimki adashdi,
Soylarni qon bilan to'ldirar qasos.
Qismati xor-u zor o'tdi bobolar,
Ajal shamshirini tutdi bobolar.
Bir-birin qonini to'kdi bobolar,
Muhabbat gullarin so'ldirar qasos.
Bu mungli qissaga shuldir intiho,
Qasos deb olamni bosmasin balo.
Bo'lsa gar dunyoda adolat, vafo,
Xayr-u saxovatga yo'l berar qasos.

1973

TURMUSH TASHVISHLARI

(Hazil)

Turmush tashvishlari,
Turmush tashvishlari,
Biz sendan balandroq tura olsaydik,
Biz sendan balandroq yura olsaydik,

Balki o‘ng‘ayardi dunyo ishlari,
Turmush tashvishlari,
Turmush tashvishlari.

Xotin ish buyurar,
Bola yig‘laydi,
Bog‘cha deb qaygadir yugurmoq darkor.
Balki shu tashvishlar bo‘lmasa edi,
Shoir bo‘larmidim ancha ulug‘vor.
Turmush tashvishlari,
Turmush tashvishlari.

Qassob og‘aynim bor —
Qaroqchi — “pirat”.
Suyakni qo‘shmasa ko‘ngli to‘lmaydi.
Axir, qofiyani yeb bo‘lmas “brat”.
Nahot sen bo‘lmasang turmush bo‘lmaydi,
Turmush tashvishlari,
Turmush tashvishlari.

Ulug‘ rejalar bor menda ham axir,
Xususan, bir ishni bitkazmoq darkor.
Unda qahramonim yovqur fazogir.
Koshkiydi,
sen shuni bilsang, nobakor
Turmush tashvishlari,
Turmush tashvishlari.

Shirindir shu hayot,
Xoli firoqdan.
Mayli, bitmasin hech uning ishlari,
Havolab ketsak goh
Tortsin oyoqdan,
Turmush tashvishlari,
Turmush tashvishlari.

1973

MEN ANGLAB YETGAN FALSAFA

Bozorga o‘xshaydi asli bu dunyo,
Bozorga o‘xshaydi bunda ham ma’ni.
Ikkisi ichra ham ko‘rmadim aslo,
Molim yomon degan biror kimsani.

1973

ONAMNI ESLAB

Shamol uvullaydi,
Qor, bo‘ron toshib,
Tepalik to‘shiga o‘zni uradi.
U yerda tuproqqa bag‘rini bosib
Tanho bir sag‘ana ma’yus turadi.
Qoshiga chiqay deb bo‘zlab yo‘l yurdim,
Ko‘kragimni tildi izg‘irin, tikan.
...Netay, onajonim, qancha odam ko‘rdim,
Sendan yaqin kishim yo‘q ekan...

1973

HAYRAT

(Qaysin Quliyevdan)

Gullar bosh egadi,
Yudduz charaqlar,
Qor erib, tog‘lar ham tovlanar turlik.
Men uchun dunyoda hammadan battar
Hayratni bilmagan odamlar sho‘rlik.

Ijod chamanida takror va takror
Hayratga tushamiz buyuk san’atdan.
Ular ham qachondir tug‘ilgan ilk bor
Oddiy narsalarga bo‘lgan hayratdan.

Hayratda boqdim men gulga, chechakka,
Garchand sirlaridan emasman voqif.
Hayratga tushdim men kuy tinglab yakka
Yoki o'zgalarning she'riga boqib.

Daryolar guvullab chopar dengizga,
Qushlar xayolingni zavqqa o'raydi.
Zamin mo'jizalar berar-u bizga,
Evaziga faqat hayrat so'raydi.

YOSHLIK

Elliginchi yillarning tonglari yodimdadir,
Erigan novvot kabi subhidam shirin uyqu.
Faqatgina ezgulik, ishonch bisotimdadir,
Xayollarim beg'ubor, yag'ir bo'lmagan tuyg'u.

U mahallar cho'llarda armondan bo'lak ne bor,
Bechora chorvadorga qaydadir rangin jahon.
Bir qalamkash ustozim aytgani kabi nochor —
Sahroyi yigitlarda qaydan bo'lsin hayajon...

Lekin inoq edim men aslim — tabiat bilan,
Bepoyon xilqat bilan tunlar bo'yi suhbatdosh.
Ko'chat ham o'tqazardim ko'p yaxshi niyat bilan,
Bilsam-da jaziraga bera bilmasin bardosh.

Nazarimda u chog'lar butun olam pok, toza,
Kamalak orzu esa, oftobdir ko'z qarog'im.
Esimdadir, o'zda yo'q quvongan edim rosa,
"Alifbo"ni qo'ltiqlab, maktabga borgan chog'im.

Do'ppimni yerga olib, endi o'ylab qarasam,
Yoshlik degani asli poklik ekan, beg'ubor.
Doimo xayol ezgu, doimo ezgu qasam,
O'rtada burda non-u qanoat topgan qaror.

Undan bu yog‘i esa demak ochilgan g‘uncha,
Turfa shamollar bilan dolg‘alangan bir hayot.
Tashvishsiz umrning ham qizig‘i yo‘qdir uncha,
Xayollar tingan bilan tinmagay hech girdibod.

Oh, ajib gulshanda ham bo‘lmasa deysan tikan,
Odam-ku bu — odamzod, betimsol, buyuk, kabir.
Lekin odam ichra ham olasi uchrar ekan,
Hayrat bilan boqmoqdan o‘zga chorang yo‘q taqir.

Orzu-yu armonimni she’riy yo‘lda qaytadan
So‘zlab turibman balki yoshlik bahona bo‘lib.
Muqaddas zamin haqqi yoqa tutib aytaman,
Qaniydi kuylayversang hamisha baxtni to‘lib.

Shu mo‘jaz hayotimda ko‘rdim qancha lo‘ttiboz,
Ko‘rdim goho she’rfurush, goho sur, mansabfurush.
Zarra bir maqtov desang tomdan tashlanar shovvoz,
Lekin ishdan gap ochsang bera bilmaydi turish.

Yaxshi ham bundaylarning dasti qisqa zamonda,
Yo‘q esa ko‘rsatmasin bularning amalini.
O‘z haykalin qo‘yardi uchragan har maydonda,
Ag‘darib tashlab hatto Navoiy haykalini.

Gang chaqqanday garangsib, noxush bir tuyg‘u bilan,
Turgan edim, lol, hayron katta yo‘l yoqasida.
O‘tib qoldi bir guruh otashin qutqu bilan,
Yiroq kelajak uchun aytganicha qasida.

Yetmishinchi yillarda qari bir o‘smir bo‘lib,
Qo‘ltiqda “Dante” bilan uning ortidan chopdim.
Qitmir yo‘ldoshlarimning fe’lidan rosa to‘yib,
Ukam qatorilardan samimiyatni topdim.

Oddiy she’rki, pok bo‘lsa qadri oshar jahonda,
Betimsol avlod uchun bo‘larmikin topib so‘z.
Ey mening yoshlik do‘stim, yasha deyman omonda,
Qo‘ldoshimsan qalbi sof, yo‘ldoshimsan yorug‘ yuz.

Odamzod — odamga xos neki bo'lsa dunyoda,
Sening ham qalbing aro joy topgani aniq gap.
Xislating mo'l va lekin hammasidan ziyoda,
Sen pokiza yoshliksan, beg'ubor-u toza qalb.

1974

HAMZA MONOLOGI

Meni o'ldirdilar Shohimardonda,
Yurtimning qonini tekin so'rganlar.
Meni o'ldirdilar ota makonda,
O'zimning tilimda so'ylab yurganlar.
Ular kimlar edi? To'rvadan bo'lak
Ilinji bo'lmagan gadoy xurofot.
Ular kimlar edi? Vatanni lak-lak
Aqchaga sotmoqchi bo'lgan musovot.
Fahmini yeb bo'lgan qay bir nogiron
Demish-ki, ko'r bo'lsin butkul bu dunyo.
Yangi yo'lga kirsa kattakon jahon,
Men uni tanisam aybimmidi yo?
Urush qilay desang olloh na hojat,
Topilar jahonda bahona bisyor.
Sarmoyang ushbu kun bo'lganda g'orat,
Shoirga toshingni otdingmi, g'addor!
Qaradim dunyoning ich-u toshiga,
Sultonlar xohishi sultonday qolmoq,
Yo'q esa shartmidi yurtning boshiga
Behuda qironni keltirib solmoq.
Buyuk Alisherni yurgan unutmay —
Elning shoni qani? Qani zakosi?
Vallohi a'zamdan nariga o'tmay
Qancha yigitlarning so'ndi dahosi.
Ulug'bek samoga intilganda tik,
Elning shuuriga chulg'ab bir ro'yo —
Ho'kizning shoxida xira pashshadek

Ming‘irlagan sen-ku, xurofiy dunyo.
Burning qani desa qulog‘in tutgan,
Xonni xoqon degan bechora to‘ra,
Kattakon dunyoni ayon eshitgan
Elni boshlarmidi oldinga sira.
Faylasuf emasman, askardirman chin,
Shoirman — g‘azalxon ahli turganda.
Yiroq ufqlarni o‘ylardim lekin
O‘zimcha she’rimni kuylab yurganda.
Ey battol g‘animim, anglab ol ro‘y-rost,
Senga ayon etsam dilda niyatni,
Umrimni yashadim kurashchiga xos,
Kurash bilan topdim abadiyatni.

1974

IRODA

Oshga yetganida yigitning dasti,
Toshlarga tegmasin boshi hech qachon.
Sen inson tayanchi, sen bashar baxti,
Ey buyuk iroda, to‘zim bilmas jon.

Farzandin qabrida ona jigarxun,
Uning faryodidan dunyo g‘amxona.
Bu g‘amdan tog‘lar ham lol qotmish butun
Va lekin oyoqda tik turdi ona.

Qirq yil zahmat chekdi qay bir zakiy zot
Bir kun etmoq uchun fikrin ifoda.
Uning butkul umri ketardi barbod
Agar sen bo‘lmasang, sobit iroda.

Sen borsan — toptalib ketmas zakovat,
Sen borsan — odamzod yetgay sharafga,
Yo‘q esa qalbida tog‘day matonat
Yashashdan ne ma’no edi Mashrabga.

Achchiq ko‘z yosh bo‘lib okdi u ba’zan
Muhabbat o‘tiga duch kelgani on.
Lekin iroda bu — yondi qaytadan,
O‘tli qo‘shiqlarga aylandi hijron.

Ne bir buyuk zotlar bosh egdi nochor
Tomug‘dan yo‘l topmay nurli hayotga.
Lekin iroda bu, yengoldi takror
Tayanch bo‘lganida Boburday zotga.

Nelarni ko‘rmagan insonning boshi,
Necha bor qovrilib, tirilgan jahon.
Bariga yetarkan sabr-u bardoshi,
Demak, irodadan yaralgan inson.

1974

CHO‘LI BOBONING NABIRALARIGA DEGANI

Yillar, oylar o‘tsa, Vatan topsa sayqal,
Bog‘larda ochilsa so‘lmas lolalar.
Shu joylar cho‘l edi desak bir mahal,
Ishonarmikansiz, bolalar.

Moviy ko‘llar uzra suzsa chag‘alay,
Adirlarda kezsa oqquv galalar.
Shu joyda hayot yo‘q edi desak, har qalay,
Ishonarmikansiz, bolalar.

Bu joylarda o‘tgan hasratli ajdod,
Tomchi suvga zor-u ko‘z yosh jolalar.
Ularning hasratin shoir etsa yod,
Ishonarmikansiz, bolalar.

Men-ku ishonaman, sahrolar gullab,
Sizning qiy-chuv bilan to‘lgay dalalar.
O‘shanda, fidoyi otalarni eslab,
Ta’zim qilarmisiz, bolalar. *1974*

* * *

G‘anim bo‘lolmasmiz ikkimiz sira,
Do‘st ham bo‘lolmasmiz balki hech qachon.
Balki emasdirsan sen ham bokira,
Balki emasdirman men ham pokdomon.

Ikkimiz uchun ham yolg‘iz shu oftob,
Ikkimiz uchun ham yagona zamin.
Men ham sening uchun bitmadim kitob,
Sen ham shuhratimni etmassan ta’min.

Kimga nima kerak? Nechun soxta shon?
Nechun mangulikdan behuda talab?
Axir ikkimiz ham so‘ng manzil tomon
Ketmasmiz dunyoning yukin orqalab.

1974

RAYHON

Fursat-fursat insonga ko‘ringanda tor jahon,
Yaxshilar diydorini qo‘msaydi doim ko‘ngil.
Bobolarim yurtida tutqazding dasta rayhon,
Boshim ko‘klarga yetdi, Shamsiqamar, jon singil.
Xonanishin kunlardan bezib kelgandim asli,
Cheksiz cho‘llar gardini aylasam devdim tavof.
Ruh menda tiyra fasli, ayni jazira fasli,
Jannatmakon go‘shangdan gul tutqazding bosavob.
Bu joylarda kezgandim tentirab yillar burun,
Sahro uzra tashnahol to‘rg‘ay kabi charx urib.
Kuylagandim goh to‘lib bobolar orzularin,
Goh mayin istiqbolning o‘ylariga edim g‘arq.
Sahroda sarbonlarning oqargan so‘ngaklari,
Jahannamiy dasht uzra yaltirab turgan sarob...
Abadiy orzulardan so‘ylardi buning bari,
Jahoniy dillarga ham solguday zarb, iztirob.
Men-ku bu yurt o‘g‘liman, jon ipim unga payvast,

Iqboli iqbolimdir, armoni bo‘lsa — armon.
Ota yurt vayron esa, farzandga jahon abas,
Nechundir menga u chog‘ tanho shuhrat, yolg‘iz shon?
Shul sabab, arqonga ham qil quvvat, degan misol,
Qadimiy Jayhun sari keldim aylab shitoblar.
Gohida yiroqlarda sog‘insam, qo‘msab visol,
Yo‘lladim qasam to‘la turli she’riy kitoblar.
Qalbida turfa niyat qaynagan zotlar aro
Sog‘inmas kim ham axir kattakon dunyo yuzin.
Ko‘kka boqsam, o‘yimni chulg‘aydi cheksiz samo,
Yerga boqsam, dilkash deb tingladim Jayhun so‘zin.
Mana bu kun u turar qarshimda viqor to‘kib,
Yo‘q, yo‘q, u — daryo emas, u — armon, u — bir hayot.
Kechib ne-ne asrlar, qanchalar zamon o‘tib,
Shu qondosh parcha yer ham topar bo‘lmishdir najot.
Bugun ota yurtimga kelmishdir ulug‘ Jayhun,
Hayratdadir bo‘zto‘rg‘ay: “Axir bu nechuk sayhon”.
Sahroda qaror topmish hattoki dilbar junun:
Bo‘y sochib turar, mana, bir dasta sadarayhon.
Singlim, shu rayhoningda bir armonim parchasi,
Umrimning bir g‘ussasi barham topdi muqarrar.
Undadir hali cheksiz chamanzorlarning sasi,
Nazar sol kengliklarga, jon singlim, Shamsiqamar.
Qo‘llaringda jon topmish ming yillik orzu, hali
Zangori ufqlarga uzangan chaman bo‘lg‘ay.
Inson buyukligidan nishona ushbu, hali
Ona zamin uzra sen yaratgan gulshan bo‘lg‘ay.
Dunyoda tariq kabi bedanabop gap ham mo‘l,
Dunyoda tashvish ham mo‘l qisgudek yuraklarni.
Lekin bu kun olamda baxtiyor o‘shal ko‘ngil —
Sig‘dirolsa o‘ziga eng oliy tilaklarni.
Zamin-u zamon yashnab, o‘chganda tamom sahro,
Peshkash bo‘lurman men ham tuganmas mehrim bilan.
Turfa rang chaman aro, Siz tuzgan gulshan aro
Yetib kelurman men ham rayhondek she’rim bilan.

1975

* * *

Haddim bormi sizga bir so'z demakka,
Hatto uzr aytmoqqa sig'armi haddim?
Sizning husningizga boqqali yakka,
Qancha savdolarni boshdan o'tkardim.

Sizga ikki olam boricha nisor,
Siz ikki olamdan balandsiz mutlaq.
Sizga faqatgina termilmoq darkor,
Sizga faqatgina lozim sig'inmoq.

1975

* * *

Sen borsan — men uchun bu hayot go'zal,
Sen borsan — men uchun dilbar koinot.
Sensiz qolar edim zulmatda tugal,
Sensiz qolar edim butkul bemurod.

Sening visolingda umrim yashirin,
Chechaksan, men uchun aslo so'lmassan.
Shu qadar dilbarsan, shu qadar shirin,
Afsus, shundayliging o'zing bilmassan.

1975

* * *

Sahro so'qmog'ida boshin egib jim
Bir kimsa ketmoqda, bilmasman u kim.
Agar u sen bo'lsang, qoshingga boray,
Agar u men bo'lsam, tezroq kel, do'stim.

1975

SHUKRONA

Shukrona ayt avval parcha non uchun,
So'ng qultum suv uchun shukrona takror.
Chunki bu olamda, yashirmoq nechun,
Senga shularni ham ko'p ko'rganlar bor.

Buyuklar baxtiga havas qil, ammo,
Insonliging uchun shukur aytgil zinhor.
Chunki bu olamda sen uchun hatto
Oddiy insonlikni ko'p ko'rganlar bor.

1975

IKKI SONIYA

Uyda tinchi bo'lsin yigitning avval,
So'ngra butun bo'lsin do'stning imoni.
Inson yuragini tilkalar azal,
Shu ikki narsaning buyuk armoni.

Biridan boshlanar shu yorug' olam,
Dunyoga qo'yilgay ostonadan ot.
Uydan boshi egik chiqdimi odam,
O'sha kun tor unga butkul koinot.

Yigitning bir umri do'st bilan butun,
Do'st bilan shirindir zaqqum hayoti.
Do'stdan pand yegan chog' ne
bor uning-chun!
Bad unga hattoki bor inson zoti.

Buyuk shiddat bilan jo'sharkan hayot,
Shu ikki narsaga biz goh beparvo,
Shu ikki soniya hamdam bo'lgan zot,
Mening nazarimda, eng aziz siymo.

1975

* * *

Tingla, bu abadiy sado bo'ladi,
Gadoning dushmani gado bo'ladi.
Ikkovi bir-birin yegunicha to
O'rtada bu dunyo ado bo'ladi.

1975

TARBIYA

Kengga keng dunyo,
Torga tor dunyo.
Xalq maqoli

BIRINCHI MASHG'ULOT

Jindakkina fe'lingizni
Kengroq qiling, domlajon.
Shunda sizga ko'ringaydir
Ko'p g'alati bir jahon.
Do'ppingizni olib avval
Qarang u yon-bu yonga,
Duch kelgaysiz eng avvalo
Hayot degan ummonga.
Unda sizdan bo'lak yana
Yashaydi ko'p odamlar,
Yelkasida va yo shodlik,
Va yo tashvish, yo g'amlar.
Dunyoyi xos deb atalgan
Bir makon bu, har qalay,
G'am-tashvishlar qatorida
Shodlik ham bor bir talay.
Bilmam nechun sizning nigoh
Bir nuqtada qotmishdir,
Cheksiz go'zal dunyo sizdan

Yuz o‘girib yotmishdir.
Keng bo‘lsangiz u chog‘ sizga
Ochilgaydir ko‘p sirlar,
Ko‘ringaydir ko‘hna moziy
Va kelajak asrlar.
Himmat nuri ko‘zingizni
Yoritolsa biror on,
Ruhingizga himmatlar ham
Yog‘ilgaydir begumon.
Xo‘ja Hofiz devonida
Bulbul sayrar siz uchun,
Oh, naqadar go‘zal erur,
Bu tiriklik, bu ochun,
Musiqa bor bu dunyoda,
She’riyat bor, safo bor,
Xuddi go‘dak kulgusidek
Muhabbat bor, beg‘ubor.
Moviy ko‘kka boqib tinglang
Turfa qushlar volasin,
Subhidamda oshiqlarning
Chekkan cheksiz nolasin.
Endi aziz kallangizni
Burib bu yon bir qarang,
Tovlanadi tegrangizda
Yaproqchalar tillarang.
Siz ularning holiga ham
Boqing xolis niyatdan,
Yaproq umri bitsa hamki,
So‘zlar abadiyatdan.
Qarang, nechog‘ go‘zal erur
Qir-adirlar zangori,
Shunday paytda dilni o‘rtar
Mangu yashash xumori.
Jildiragan ariqchaga
Bir zum qarab turgaysiz,

Ishonaman, siz unda tog‘,
Qorliklarni ko‘rgaysiz.
Ochilgaydir qarshingizda
Yuksak yurtlar jamoli,
Cho‘qqilarga tirmashgaysiz
Tog‘ serkasi misoli.
Oqshom cho‘kar va qo‘zg‘alar
To‘rt tarafdan shamollar,
Og‘ushiga olgay sizni
Ko‘p ajoyib xayollar.
Yulduzlarga termilgaysiz,
Uchgaysiz ham samoga,
Ko‘z tashlarsiz kengliklarga,
Ufqlarga, dunyoga.
Qalbingizda na adovat,
Na hasad bor, na kadar,
Ruhingizda ulug‘vorlik
His qilgaysiz bir qadar.
Endi yerni fahm etgaysiz,
U nok kabi yo‘q bandi,
Domla, mo‘jaz shu nok uzra
Yashar odam farzandi.
Odam esa sizga qavmdir,
Zamondoshdir, o‘lkadosh,
Biror yirtqich daf qilganda
Yoningizda yelkadosh.
Aniq sharif shajarangiz
Qarshingizga kelsin sal,
Siz ham odam farzandisiz,
Unutmangiz hech mahal.
Ruhingizni chulg‘amasa
Nogahoniy bir balo,
Miyangizning tarhi endi
Ochilgay inshoollo.

IKKINCHI MASHG'ULOT

Ba'daz, mavjud ahvolingiz
Tavsif etib atayin
Boshqalarga ibrat uchun
Mayli aytib o'tayin.
Tirik jonsiz, tongmi-peshin
O'rningizdan turasiz,
Odamsiz-ku, balki avval
Tush ta'birlab ko'rasiz.
O'ngingizda tunov kechgan
Turli badbin o'y-xayol
Tushingizda do'zax bo'lib
Aks etgandir, ehtimol.
Qiyin sizga, qandoq qilib
Bu holatdan qochasiz.
Zahringizni eng avvalo
Bolalarga sochasiz.
Qurbon bo'lar balki ilk bor
Sho'rpeshana bir chivin,
Tutib olib ezg'ilaysiz,
Topolsangiz gar evin.
Bolalar-chi, oh, bolalar,
Tarbiyasiz, quv, suyuq,
Shox bilan dum bitsa agar
Shaytondan hech farqi yo'q.
Xotin-chi, u xotin emas,
Dam so'zlab, dam to'xtaydi,
Supurgini minib chopgan
Alvastiga o'xshaydi.
Qovoq uyib, ijirg'anib
Endi ishga jo'naysiz,
Na biror gap chiqar sizdan
Va na gapga unaysiz.
Kuchukchangiz duch keladi,
Bir tepasiz, "vang" deydi,

"Vang" degani, kim biladi,
Balki "fe'ling tang" deydi.
Ostonadan boshlanadi
Ana endi keng hayot,
Siz-chi, ishga yo'l olasiz
G'oyat-g'oyat ehtiyot.
Musofirdek ko'cha-ko'yda
Jovdiraysiz alanglab,
Bamisoli o'g'ri mushuk
To'rt tomonga jalanglab:
Ana, Toshmat o'tib ketdi,
Payqamadi muttaham!
Payqasa ham so'rashmadi,
Demak, dushman o'sha ham!
Choyxonada uch-to'rtta chol
Chaq-chaq suhbat qiladi,
Suhbat qayda, aynaganlar,
Sizni g'iybat qiladi.
Joy bermadi tramvayda
Allaqanday bir bashang,
Kasofatning kasri urib
Yana tag'in siz tajang.
Ishxonangiz qarshi olar
Peshtoqlari yaltirab,
Gultuvakda chechaklar ham
Nozikkina qaltirab.
Siz-chi, dilgir, mahkamaga
Uvvos tortib kirasiz,
O'zingizni o'rgimchakdek
Bir burchakka urasiz,
Varaqlaysiz gazetani
Duch kelasiz olovga:
Mukofotni berishibdi
Padarla'nat anovga.
Axir qandoq bedodlik bu,
Miyangizga urar qon,

Qolmayotir bu dunyoda
Hayo, insof, din, vijdon!
Boshlanadi yana qayta
Ig‘vo, fitna, ur-surlar,
Odam emas bu yurganlar,
Xudo haqqi unsurlar.
Qo‘lingizdan kelsa agar
To‘kib timsoh yoshini,
Aylantirib tashlaysiz ham
Hatto do‘stlar boshini.
Tashqarida esa hayot
Ummon kabi toshadi,
Qit’alardan qit’alarga
Cho‘ng bulutlar oshadi.
Qaylardadir hal bo‘ladi
Butkul ellar taqdiri,
Yuz yillarga arzigay goh
Soniyalar har biri.
Buyuk tarix charxpalagi
G‘uvlar betinch har qachon,
Koinotga sachrab ketar
Uchqunlari, al’amon.
Bizga nasib bo‘lmish yashash
Shundoq ulug‘ dunyoda,
Buyuk inson qadamidan
Gursullar yer ziyoda.
Endi gapni ochiq aytsam,
Ko‘rsichqonga o‘xshaysiz,
Baroq moshni ko‘rmaguncha
Hech bir gapni uqmaysiz.
Holbuki, el himmat, mehri
Peshkash erur sizga ham.
Dil ochsangiz, jami odam
Dilkash erur sizga ham.
Holbuki, el zahmat chekar
Siz uchun ham kun-bakun

Siz-chi, faqat o'ylagaysiz
O'zingizni, xo'sh nechun?
Ne bir zotlar umrin tikib,
Kezadi ko'k bag'rini,
Siz bo'lsangiz ko'rmagaysiz
Burningizdan narini.
Tushunaman, umr qisqa
Haq dasti ham qisqaroq.
Ammo nechun shu umrda
Buncha badbin yashamoq?
Bir qarashda zakiy zotsiz,
Bir qarashda donosiz,
Ammo, bilmam, qay jin urmish,
Yasholmaysiz ig'vosiz!
Odam o'g'li, zavol ko'rma,
Bo'lma odam zavoli,
Tushuntirdim hamma gapni
Ko'rga hassa misoli,
Endigi so'z... xullas, fe'lni
Kengroq qiling, domlajon,
Sizning ko'rgan bu kun esa
Kun emasdir hech qachon.

1975

TAFAKKUR MONOLOGI

I

Bilmasman, qaydadir menga ibtido,
Bilmasman, qaydadir menga intiho.

Asrlar qa'ridan o'taman sokin,
Menga baribirdir — kim qul, kim hokim.

Sizning qutqu bilan zarra ishim yo'q,
Shundoq salobatli karvonman ulug'.

Mening qo‘ng‘irog‘im eshitolgan zot,
O‘zin baxtli desa arzir umrbod.

II

Meni atadilar xudo deb avval,
Payg‘ambar dedilar va daho tugal.

Buyukman baridan ming-minglab karra,
Xudo ham, daho ham mendan bir zarra.

Men asli hosila erurman garchand,
Lekin bugun ota — kechagi farzand.

Tegramda charx ursin, mayli, zamon, vaqt,
Men-chi, o‘z-o‘zimga mas’ulman faqat.

Qarshimda gerdayar tog‘lar ham bekor,
Ular mening uchun shunchaki sangzor.

Bahri Muhit nima? Nima u dengiz?
Chayqalgan suvlardir, rangsiz va nursiz.

Oftob, sayyoralar charaqlab yotar,
Men uchun oddiy hol: borliq muxtasar,

Hayrat nimaligin bilmasman aslo,
Hatto cheksizlik ham idrokimga jo.

III

Ha, menga hech erur koinot, jahon,
Lekin meni qiynar faqat bir armon.

Meni qachonlardir yaratgan zotdan,
Qarzdorman, ya’nikim, odamizoddan.

U goh buyuk erur, goh zabun, barbod,
Sira tushunmadim men uni, hayhot.

Faqat idrokimga zanjirdir shu dam,
Seni eplolmadim, juvonmarg odam.
1976

BIR TANISHIM HAQIDA BALLADA

Eslayman, bolalik chog'imda bir kun
Bezori tosh otdi menga besabab.
Yig'ladim bir chetda bag'rim bo'lib xun,
Atrofga ko'z tikdim nochor, mo'ltirab.
Albatta, biror-bir madad istardim,
Axir, tushunarli bundaqa holat.
(Bola bo'lgansiz-ku, sizlar ham qadim,
Demakki, eslasam tortmam xijolat.)
Xullas, kimdir kelib yo'l kanorida
Sayoq raqibimni ushladi mahkam:
— Quturib qoldingmi kuching borida,
Boshingga tushganda bilarsan, bo'tam...
Ancha mulzam qilib jo'natdi uni,
So'ng keldi men tomon jilmayib, yuvosh:
— Sen ham tortaverma hadeb burunni,
Kerak bo'lar, uka, hali ko'p ko'z yosh...
Hushyor tortib qoldim shunda, albatta,
Hatto dadillashib qolgandim biroz.
Uning-chi, ko'zlari porlardi katta,
Mard va mayin edi undagi ovoz.
Dedim: — Xizrmisiz, bobom aytgandek,
Madad berasizmi shunday chog'larda?
U ma'yus jilmayib, qosh chimirdi tek:
— Bolasan, xayoling ko'p uzoqlarda.
Mayli, Xizrmanmi yo Xizr emas,
Har nechuk turibman qoshingda ayon.

Biror nojo‘ya ish ro‘y berdimi, bas,
Kimdir ajrim qilsa — o‘sha men, o‘g‘lon.
Bolaga, albatta hikmat bir chaqa,
Chillak o‘yin kabi aniq tasavvur.
U ismin aytdi-yu, ketdi bir yoqqa,
Men ham hayyo-hayt deb ketdim haytovur,
Kim ko‘p bu dunyoda, har xil bola ko‘p,
Birimiz besarroq, birimiz yuvosh.
Men ham qanchasiga ozor berdim xo‘b,
Qanchasin dastidan to‘kdim ham so‘ng yosh.
Biroq, yillar o‘tib, ulg‘aygan sayin
O‘yga kelar ekan boshqacha gaplar.
O‘yga solar ekan, tayin-notayin,
Har xil narsadagi har xil taraflar.
Qurshay boshlar ekan miyangni rov-rov,
Nega? Nechun? — degan savollar o‘jar,
Deylik, falonchining o‘g‘li-ku, merov,
Nega imtihondan qatnashmay o‘tar?
Bunaqa gaplarni taftish qilishni
O‘rgatmagan edi agarchi otam.
Lekin ko‘ra berib shul kabi ishni
Lol qota boshladim endi chinakam.
Butkul hodisotning sababin ammo
Anglab yetmoqlikka o‘tmasdi tishim.
Shunday mahallarda ko‘zimga go‘yo,
Ko‘rinib ketardi o‘sha tanishim.
Bir kun guzarda deng, To‘xta lapashang
Suv to‘la ko‘zasin chil-chil sindirdi.
Uyga kelgach esa, aybdor deb qarang,
U o‘gay akasin tutib urdirdi.
Tavba demoqqa-ku, yosh edim hali,
Bovujud, qayga ham yetardi arzim.
O‘sha tanishimga o‘sha mahali
Hatto xat yozmoqqa etgandim jazm.
Qayga jo‘natardim maktubni, ammo
Qaylarda yuribdi g‘aroyib ul zot.

Olis kechalari u bilan tanho
Suhbat qurar bo'ldim xayolan bot-bot.
Vasvasa deysizmi, ro'yo deysizmi,
Dono fikringizga havola bu hol.
Bir kun zabtga olib tasavvur izmi,
Tushda ko'rdim uni aniq va yaqqol.
Arzim bayon etdim birato'lasi,
Nega kelmaysiz deb tutdim so'roqqa.
To'xta lapashangning o'gay akasi
Ketib qolganini aytdim, uzoqqa.
U ma'yus jilmaydi: — Bilaman barin,
Axir, yumushim ko'p olamda, ukam.
Birini eplasam, eplolmam birin,
Qanday ulgurayin, yolg'izman men ham...
Shunday deb tanishim ko'zdan yo'qoldi,
Ya'ni, to'g'rirog'i, buzildi uyqum.
Uning shahdi ammo yodimda qoldi,
Mardona edi u hamda kamsuqum.
Yillar o'tib ketdi, ozmi-ko'p, mana,
Olam ishlaridan bo'ldim xabardor,
Bilaman, Xizr kim va bid'at nima,
Bilaman, yoshlik ham ketdi betakror.
Bari o'tib ketdi bir tush misoli,
Eslayman goh mahzun, gohida quvnoq.
Faqat o'sha siymo, uning xayoli
Mening shuurimga o'rnashdi mutlaq.
Dunyo ishlariga bo'lib yuzma-yuz,
Goho kelolmasam o'zim-o'zimga,
Uning diydorini qo'msayman hanuz,
Ko'rinsaydi deyman bir zum ko'zimga.
Balki ko'rishmoqqa endi fursat yo'q,
Balki kutaverib o'zim ham toldim
Va lekin dunyoda u zotning aniq
Ishi ko'pligiga ishonib qoldim.
Mehribon ustozlar nazarida goh
Uning nigohini payqab qolaman.

Kimdir hushyor bo'l, deb, aylasa ogoh,
O'sha uchrashuvni yodga olaman.
Nabi ham, rasul ham emas edi u,
Lekin u men uchun beqiyos, porloq.
Balki kelmagayman endi ro'baro',
Lekin u yo'limni yoritgan chiroq!
Uning yodi bilan umrim sarafroz,
Usiz hayot menga mashaqqat edi.
Eslayman, qomati dol edi biroz,
Nomi esa uning Haqiqat edi.

1976

MALOMAT TOSHLARI

Hushyor boq, to foniy umr kechadi,
Tegrangda turfa xil toshlar uchadi.
Biri qora hasad yo g'araz toshi,
Biri yovuz tuhmat yo maraz toshi.
Mayliga qay biri kelmasin, qachon,
Ulardan muddao hamisha ayon.
Ular sabr kosang to'ldirmoq bo'lar,
Ular umring gulin so'ldirmoq bo'lar.
Boshimdan o'tganin etsam gar bayon,
Hushyor boq ularga hamisha, o'g'lon.
Va lekin dunyoda o'zga tosh ham bor,
U senga yetkazmas behuda ozor.
U aslo ko'ksingga o'q kabi botmas.
Taning zirqiratib, burning qonatmas.
Umring yo'llariga bo'lmagay u band,
Yo ko'ngil shishasin etmagay parkand.
Sen tomon nolakor, qay on yetar u,
G'aflat farishtasin bedor etar u.
Idrokning mavjiga tekkani zamon,
U mudroq ruhingga solgay g'alayon.
U vijdon tamali, diyonat toshi,

Malomat toshi bu, malomat toshi!
U balki aliksiz qolgan bir salom,
U balki avjida bo'lingan kalom.
U balki do'stingga ochib dil, yurak,
To'yida aytilmay qolgan bir tilak.
Farzandi duch kelgay balki alomat,
Jajji qo'llarida sangi malomat,
Qabr tepasidan tosh haykal boqur,
Olis xotiralar gulxanin yoqur.
Sen unga so'nggi dam egganmiding bosh,
Oh, nechog' shafqatsiz tosh erur bu tosh.
Insonning to fazl-u falokati bor,
Uning bir-biriga malomati bor.
Tashrifga ko'z tikkan bemorlardan to
Shohlar diligacha malomatdir jo.
Baxtsiz kimsalarning ko'zdagi yoshi,
Asli, yaratganga malomat toshi.
Janglardan qaytmagan farzandi uchun
Onalar dilida malomat tugun.
Qadim odamzodga necha ming zamon
Malomat toshlari hamroh har qachon.
Asriy koshonaga to ofat kelur,
Nolakor moziydan malomat kelur.
Ming yillab samoga boqdi odamzod,
Falakdan tiladi madad va imdod.
Va lekin topgani falokat bo'ldi,
Shul sabab har so'zi malomat bo'ldi.
Chorasiz Mashrabning qiyomati bu,
Insonning xudoga malomati bu!
"Men odam edim-ku, inson farzandi!"
Bu — yetim G'afurning malomat bandi.
Hanuz sarhadlardan g'amgin sas kelur,
Malomat toshlari basma-bas kelur.
Odamni mahv etur farzandi odam,
Odam erur ammo tomoshabin ham.
Yetim go'daklarning ko'zdagi yoshi,

Bu — jumla jahonga malomat toshi.
Gar buyuk zamonga farzand erurmiz,
Adolat birla gar payvand erurmiz.
Odam qadri magar buyukdan buyuk,
Lekin qay dillarda malomat tuguk.
Ne deb so'zlagankin, boqib biz sari,
Betimsol Oybekning horg'in ko'zlari?!
Sarg'aygan sahfalar aro boqib tek,
Qodiriy qabrini so'rar Otabek.
Yiroq sohillarda taralib ohi,
Kezar Alyendining qonli arvohi.
Ha, qon-u ter bilan yo'g'rilib kam-kam,
Shundoq barpo bo'ldi davron muhtasham.
Har lahza moziyga garchand ketajak,
Lekin oldda bizni kutar kelajak.
Gar qolur bizdan ham ezgulik, karam,
Lekin degaylarmi bizni mukarram?!
Mudroq vijdon uchun, soxta shon uchun,
Behuda to'kilgan qancha qon uchun,
Zaminning tuzalmas jarohati deb,
Moviy dunyolarning halovati deb,
Bir kun egilmasmi odamzod boshi,
Bizga ham yog'masmi malomat toshi?
O, buyuk mavjudot, hazrati inson,
Sening asling gahi g'aflati inson.
Gahi sen barkamol bo'lib ko'rinding,
Gahi bechorahol bo'lib ko'rinding.
Yulduzin boshingdan sochsa ham samo,
Goho o'z qadringni bilmading, ammo.
Ezgulik yo'lida har bitta qadam
Rahmat muhri erur senga, ey odam!
Olam uzra bukun qo'tarmishsan qad,
Unutma, buyuksan, buyuksan behad.
To kezar boshingda himmat quyoshi,
Senga yog'masa bas, malomat toshi!..

1976

SURAT VA SIYRAT

Mayli, suratimga boqqil-u quvon,
Lekin siyratimga tashlama nazar.
Bir yoqdan tuganmas baxt berdi jahon,
Bir yoqdan tuganmas o'kinch va kadar.

Charog'on umrimni yoritgan quyosh,
Torgina kulbamga boqmadi goho.
Zamindek aylangan savdoli bu bosh
Qoldi qismat ichra zamindek tanho.

Oh, nechog' ranglarga to'liq bu jahon,
Oh, nechog' shirin shu tiriklik, kadar.
Mayli, suvratimga boqqil-u quvon,
Faqat siyratimga tashlama nazar.

1976

MOMO OFTOB

Eng kichik zarradan Yupitergacha
O'zing murabbiysan.
G'afur G'ulom

Ey, sen momo quyosh, ey bibi oftob,
Yolg'izsan charog'san, yorsan boshimda.
Zardushtiy misoli yukinib shu tob,
O'tinib tururman yigit yoshimda.
So'nggi dam chorasiz Muqanna sifat,
Dil so'zim o'zingga aytay sarosar.
Oftobim shu kelar yilda ham faqat,
Shodliklar taratgin elga barobar.
Zulmat go'shalarni tundan et forig',
Baxt tomsin shu'langning zar qanotidan.
Oftobim, himmating tutmagil darig',
Dunyoda hech bitta inson zotidan.
Oydin derazadan kirib bor avval,

Umidvor bemorning xonasi tomon.
Baxsh etgin unga ham umri mukammal,
U ham bahorlarga yetolsin omon.
Tonggi shu'lang kabi tarat tabassum,
Ma'sum go'daklarning dudoqlariga.
Qatra yosh tommasin aslo, biror zum,
Munis onalarning yonoqlariga.
Balki sahar chog'i ko'z ochib o'qtin,
Keksa chol sen tomon boqqay intizor.
Balki u tilagay umridan bir kun,
Oftobim, unga ham rahm etgil zinhor.
Oftobim, garchi bu koinot aro
Mo'l senga aytgulik orzu ham tilak,
Mangu bir armonga bovar et ammo,
Hanuz ko'p dunyoda muz qotgan yurak.
Oftobim, mayliga, bir tong, biror zum
Taftingga chulg'ama dala-tuzlarni,
O'sha zotlarga ham qilgil tarahhum —
Erit dillardagi qotgan muzlarni.
O, qancha yurakni etmishdir asir,
Hasad deb atalgan qora bir balo.
Oftobim, shular ham kun ko'rsin axir,
Zulmat qalblariga yubor nur-ziyo.
Sening-ku, dargohing behad, bepoyon,
Mana bu G'arb bo'lsa, mana bu Mashriq.
Poyingda bu jahon misli bir oshyon,
Inson bamisoli sochilgan tariq.
Ustoz lutf etgandek, olamda ne bor —
Bariga murabbiy sensan doimo.
Oftobim, shu munis zaminni zinhor —
Mehr-u shafqatingdan etma mosuvo.
Do'stlar safida shod tarona aytib,
Men ham dildan senga qilurman xitob,
Har o'tgan zum uchun shukrona aytib,
Senga talpinurman, ey momo oftob!

1977

NISBIYLIK

Juda yaxshi! — deymiz mana bu narsa,
Go'yo hukm kabi yangrar so'zimiz.
O'ylab ko'rganmizmi hech biror marta,
Kimmiz o'zimiz?
Juda yomon! — deymiz mana bu narsa,
Go'yo hukm kabi yangrar so'zimiz.
O'ylab ko'rganmizmi hech biror marta,
Xo'sh, kim o'zimiz?
Kimgadir yoqamiz biz o'zimiz ham,
Kimgadir yoqmaymiz biz ham o'zimiz.
Shunaqa charxpalak ekan bu olam,
Demak, nisbiy erur har bir so'zimiz.

1977

MISH-MISH

Uning mish-mishidan ranjimang aslo,
Nima bo'lsa asli naslida bo'lgan.
Ona qornidanoq o'zi ham hatto,
Asli mish-mish bilan dunyoga kelgan.

1977

G'AZAL

Bu ishq sirrin kitob etding, kitobing ichra men borman,
O'qurman deb xitob etding, xitobing ichra men borman.

Yarashgaydir, ajab, senga ajab noz-u tamannolar,
Keturman, deb shitob etding, shitobing ichra men borman.

Yuzing hajri bilan oqqan labolab chashm selobin —
Ichurman, deb sharob etding, sharobing ichra men borman.

Umid uzgil, deding oshiq, muhabbat rishtasin uzgum,
Uzurman, deb azob etding, azobing ichra men borman.

Qayon qoldi o'shal so'zkim muhabbat ko'shkini, ey yor,
Tuzurman, deb sarob etding, sarobing ichra men borman.

Dilimda qolgan ushbu har na manzil kulbayi ishqni —
Buzurman, deb xarob etding, xarobing ichra men borman.

Muhabbat gulshani ichra olib Abdullaning qalbin,
Chalurman, deb rubob etding, rubobing ichra men borman.

1977

YILLAR ARMONI

Kimgadir yaxshi gap aytdik, birodar,
Kimdir bir umrga ranjib ham ketdi.
Kun kecha yosh derdik o'zni bir qadar,
Bugun-chi, balog'at payti ham yetdi.

Inson o'z umrini o'ylasa ko'p vaqt
Qiynaydi o'zidan o'tgan qusurlar.
Kimgadir aytilmay qolgan bir rahmat,
Kimdandir so'rolmay qolgan uzrlar.

Mukammal ko'rmoqchi bo'ldik dunyoni,
Yetuk bo'lolmadik o'zimiz biroq.
O, yillar armoni, yillar armoni,
Armon ko'rmadim men sendan buyukroq.

Insonga tobemas zamon, inchunun,
Inson yuragida alamlar qat-qat.
Faqat bir taskin bor, barchasi uchun
Afsus cheka bilsang — shu ham bir davlat.

1977

* * *

Koinot gultoji insondir azal,
Undadir eng oliy tafakkur, amal.
Hatto u tubanlik ichra ham tanho,
Yo falak, ijoding buncha mukammal.

1977

IZHOR

Qancha diyorlarda sayr etib yurdim,
Qancha manzillarda tuzdim oshyon.
Va buyuk hikmatga axir yuz burdim,
Siylangan joyida azizdir inson.

Yurtim senda ekan nasibam tugal,
Sen o'zing maskanim, sen o'zing shonim.
Sen onam, sen singlim, yorimsan, azal,
Ey, jonim, jahonim — O'zbekistonim.

Ista, qismatimga o'zing ber barham,
Ista, yaxshi kunda nomim qilgil yod.
Mensiz ham mukammal ekan bu olam,
Mensiz ham baxtga yor ekan odamzod.

Yurtim, faqat sening qo'lingdan tutib,
Bolangday ergashib keta olsam, bas.
Sen piri komilsan, men senga muhib,
Seni tanimagan meni ham bilmas.

1978

XAYRIXOH

Hamdam axtaradi har qanday odam,
Do'stim deb ataydi topsa begumon.
Do'st izlab behuda kezguncha olam,
Oyog'ing ostiga boqsang-chi, inson!

Munis ko‘zlarini tikib, mo‘ltirab,
Bolakay yuzingdan uzmaydi nigoh.
Unda ne murod bor? Unda ne talab?
U senga some’dir, senga xayrixoh.
Izingdan termilib qoldi keksa chol,
Ko‘zda tavajjuhi, duosi tilda
U senga tiladi baraka, iqbol,
Yana bir xayrixoh topibsan elda.
Sen g‘anim atagan qay bitta inson
Sen uchun qaydadir chekdi tanho oh.
O‘sha hasrat haqqi keltirgum imon,
U senga xayrixoh, chindan xayrixoh.
Xayrixoh odamlar, beta’ma hamdam,
Olam bir butundir shu inoqlikdan.
Axir muhabbat ham, axir do‘stlik ham
Boshlangan emasmi xayrixohlikdan?
Ular bor — ruhingga g‘am kelmas g‘olib,
Mayli, gado bo‘lgil, mayli, bo‘lgil shoh.
Gar do‘st yiqitsa ham oyog‘ing chalib,
Boshingni silaydi o‘sha xayrixoh.

1978

HOLAT

Bir nafas quyoshni o‘z holiga qo‘y,
Otashin dilingga etmagin qiyos.
Bir nafas quyoshday ko‘rsatsin u ro‘y,
Bir nafas quyoshday porlasin quyosh.

Bir zum dengizga ham boqqil betuyg‘u,
Dema, o‘ylarimday u teran, tengsiz.
Bir zum baliqlarga vatan bo‘lsin u,
Bir zum dengiz bo‘lib guvlasin dengiz.

Shamolning bo‘yniga osilma bir dam,
Yelmasin mayli u xayoling misol.

Bir zum o‘z holicha yayrasin u ham,
Bir zum shamol bo‘lib tentisin shamol.

Bir zum sen zaminni qo‘ygil bequtqu,
U axir ko‘p tuydi tuyg‘ular ta’min.
Bir zum maysalarga ona bo‘lsin u,
Bir zum zamin bo‘lib yashasin zamin.

Bir zum o‘z holimga qo‘y sen ham, bolam,
Ayon-ku menga ham Inson matlabi.
Bir zum odam kabi yashayin men ham,
Men ham yashay bir zum bir odam kabi.

1978

DIYOR

Ko‘pdir bu dunyoda ellar, elatlar,
Qadim va noqadim xalqlar, millatlar.
Har biri o‘z tili, o‘z eli bilan,
El ichra har biri o‘z fe’li bilan,
Rang-barang suratli odamlar yashar,
Ishlashar, kuylashar hamda kurashar.
Balki kimdir kimni uchratmas minba’d,
Ayricha namoyon shodlik va kulfat.
To‘ylar davom etar, bola tug‘ilar,
Cho‘qqi zabt etilar, kitob o‘qilar.
Chorrahalar tizgin, bozorlar g‘ujg‘on,
Ulfatlar, majlislar, yig‘in, olomon...
Har biri go‘yoki o‘z siri bilan,
Aloqasi yo‘qday bir-biri bilan,
Mana shu turfa xil ellar barini,
Ulfatni, yig‘inni, yoshni, qarini
Birlashtirib turar bir nom daf’atan,
U ona diyordir, jonajon Vatan!
Ko‘pdir bu dunyoda kentlar, ovullar,

Ko'chalar, shaharlar, bekatlar, yo'llar.
Ko'mir sepilganday tuproqlar ko'rdim,
Ne-ne vodiylar-u qumloqlar ko'rdim.
Uzoq qutb yoqda muzlar qarsillar,
Janub tog'larida gulxan charsillar.
O'zicha har biri o'zga ma'vodir,
O'zicha har biri ajib dunyodir.
Har biri go'yoki o'z siri bilan,
Aloqasi yo'qday bir-biri bilan.
Ammo shu turfa xil, rangdor tuproqni,
Kentlar va ovullar, shahr-u qishloqni
Tutashtirab turar bir nom daf'atan,
U ona diyordir, jonajon Vatan!

1978

KAVKAZ

Kavkazni sevaman.
Lermontov

Yashil Narzananing o'tloqlarida
O'ynaydi shamol va toychoq basma-bas.
Abadiy sukut bor osmon qa'rida,
Abadiy sukunat qa'rida Kavkaz.
Zamin arzandasi, e, kibor ma'vo,
Ayanch qismatlarga guvoh saltanat.
Bir yelkangda Demon — u yovuz daho,
Bir yelkangda shoyon insoni hazrat.
Kavkaz, kimlarga sen iqbol dargohi
Kavkaz, kimlarga sen qatag'on diyor.
Senda nasoron-u islom ilohi
Senda bari, bari bo'lmish barqaror.
Yovuz kimsalardan qochib, uloqib,
Kimlar axtarmagan bag'ringdan makon.
Moviy osmoningga hasratda boqib,

Lermontov poyingda bergan edi jon.
"Kavkazni sevaman, sevaman Kavkaz",
Bu — ne daholarning ezgu nidosi.
Bu joyga keltirgay quvg'in yo havas.
Bu joyda har zotning bor o'z xudosi.
Odam zuryodiga ne bo'lsa joiz —
Men ham yuragimga oshno bilganman.
Kavkaz, quchog'ingga na biron bois,
Uvoq tuyg'ulardan qochib kelganman.
Qor kabi pokiza, tog'dek sarbaland
O'tyurak insonlar diydori armon.
Inson dasti ko'kka yetsa ham garchand,
G'arib tuyg'ularga tutqun u hamon.
Hamon qaylardadir hasad, xusumat
Eng oliy hislarni toptagay mutlaq.
Yuksaklik istasang tog'ga chiq faqat,
Teranlik istasang dengizlarga boq.
Kavkaz, sayyoh so'zim ma'zur tut bir dam,
Kavkaz, hasratlarga yo'q menda ruju.
Dunyoda himmat ham, dilozorlik ham
Inson farzandiga hamrohdir mangu.
Na hayot, na o'lim, na baxt, na kulfat
Meni ham hayratga solgay bu zamon.
Yuksak cho'qqilaring qo'ynida faqat
Xasta yuragimga topsaydim darmon.
Kavkaz, Sharq ufqida ey, tengsiz diyor,
Ey, buyuk she'riyat dorulbaqosi.
O'zbek tuprog'idan kelibman bu bor,
Sengadir oshufta qalbim safosi.
Eng oliy hislarga kim bo'lsa gado,
Ko'targil, o, Kavkaz, cho'qqilar tomon.
G'arib tuyg'ularning bandasin ammo
Bo'ronlaring bilan g'arq et beomon!

1979

ONAJONIM, SHE'RIYAT

Hamdam bo'lding men bilan
Har qandayin kunlarda,
Yulduz bo'lding charog'on
Eng qorong'i tunlarda,
Suhbat qurdik goh shodon,
Goho hazin unlarda,
Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she'riyat.
Topgan toj-taxtim mening,
Jonajonim, she'riyat.

Sen bilan baqamti to
Bu olamda yurdim men,
Turfa xil insonlarni
Ham tanidim, ko'rdim men.
Do'stlar bilan goh shodon
Davronimni surdim men,
Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she'riyat.
Topgan toj-taxtim mening,
Jonajonim, she'riyat.

Esingdami, azizam,
O'tdi qancha dovonlar,
O'tdi qancha to'fonlar,
O'tdi qancha yobonlar,
Yaxshilikdan so'z ochdik
Goh duch kelsa yomonlar,
Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she'riyat.
Topgan toj-taxtim mening,
Jonajonim, she'riyat.

Hamdam bo'lib sen bilan
"Xamsa"dan saboq oldim,

Yiroq-yiroq yulduzlar
Sehrini dilga soldim,
Mehmon emas, qasringda
Balki bir umr qoldim,
Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she'riyat.
Topgan toj-taxtim mening,
Jonajonim, she'riyat.

Har qismatga har kimning
Davroni sabab bo'lgay,
She'r un cheksa shoirning
Armoni sabab bo'lgay,
Men faxr etsam umrimning
Har oni sabab bo'lgay,
Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she'riyat.
Topgan toj-taxtim mening,
Jonajonim, she'riyat.

Garchi mushkul ko'p bo'ldi
Mo'jaz mening muhitda,
Zuhur etdim barchasin
Hasratli bir sukutda,
Haq yo'lin topdim lekin
Sen bilan yongan o'tda,
Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she'riyat.
Topgan toj-taxtim mening,
Jonajonim, she'riyat.

Angladimki, olamda
Yurt tanho, Vatan tanho,
Band etgan xayolimni
Tengsiz shul chaman tanho,
Nokaslar emas, yo'q, yo'q,

Yolg‘iz sen baland, tanho,
Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she’riyat.
Topgan toj-taxtim mening,
Jonajonim, she’riyat.

Umid yorkim, yetgaymiz
Sen bilan yiroqlarga,
Maqsudim yoqib turgan
U nurli chiroqlarga,
Duch kelmasak bas endi
Turfa xil firoqlarga,
Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she’riyat.
Topgan toj-taxtim mening,
Jonajonim, she’riyat.

Haq senga murod o‘lsin,
Shavkating na zar, tillo,
Haq deganning umri ham
Haq kabi uzun, illo,
Boshin eggay hamisha
Ostonangda Abdullo,
Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she’riyat.
Topgan toj-taxtim mening,
Jonajonim, she’riyat.

1979

YOSH RASSOMLARGA

(Javlon Umarbekovga)

Bamisli Boysunda boychechak gullab,
Toshkent tomlarida yondi qizg‘aldoq.
Yo tovus patlarin yoyganday xillab,
Namoyon bo‘ldingiz ayni kutgan chog‘.

Davrada o‘rningiz, o‘ting, marhabo,
Yurtimning g‘aroyib o‘g‘lonlari Siz.
Qayda yurgandingiz o‘ychan va shaydo,
O‘zbek san’atining imkonlari Siz.

Hozircha nomingiz bilmaydi jahon,
Hozircha kelinni chizmoqdan siz shod.
Bilmaysiz, yelkangaz osha shodumon,
Kuzatib turganin Muzahhib, Behzod.

Sizga mushtoq hali turfa ohanglar.
Ustoz Chingiz Ahmar bor bu bo‘stonda.
Bilmaysiz, siz chetdan axtargan ranglar
Ko‘milib yotganin Chag‘aniyonda.

Sizni kutib turar hali ko‘p ma’ni
Dehqonning kiprigi uzra qo‘ngan chang.
Sizni kutib turar oppoq paxtaning
Bag‘rida yashirin qancha sirli rang.

Buguncha asliga o‘xshasa surat,
Zarrin ramkalarga quvnab solgaysiz.
Yuz rangda tovlanib kelganda shuhrat,
Suratin chizolmay shoshib qolgaysiz.

Uzun sochingizga bir kun oq tushar
Sezmay ham qolarsiz umr o‘tganin,
Chizgan rasmingizga o‘g‘lingiz besar
Notanish bo‘yoqni chaplab ketganin.

Mayli yursangiz ham darveshday kezib,
Bo‘yab chiqsangiz ham mayli jahonni,
Faqat bir o‘tinch bor, bergaysiz chizib,
Onamiz surati — O‘zbekistonni.

1979

INSON QALBI

Inson qalbi bilan hazillashmang Siz.
Unda millat yashar, unda til yashar.
Unda ajdod faxri yashaydi so'zsiz,
Unda istiqomat qiladi bashar.

Inson qalbi bilan hazillashmang Siz,
Unda ona yashar, yashaydi Vatan.
Uni jo'n narsa deb o'ylamang hargiz,
Hayhot! Qo'zg'almasin bu Qalb daf'atan!.

1979

OILA

Kattasi ketgandi baliq oviga,
Cho'milib-netmasin, ishqilib.
Turli tasavvurlar olar doviga,
Kampirning nafasi kelar tiqilib.

— Hoy, siz ham bolani o'ylang-da bundoq... —
Kampir erk bergancha puch xayoliga,
Kapgirni qaygadir ilib o'sha chog'
Tanbeh bera boshlar choliga.

Chol-chi, ko'zoynagin artgancha bot-bot
Kitob varaqlaydi:
Bedilmi, Mashrab...
— Moshinda ketuvdi kenjasi shaddod,
Yursin-da, ishqilib, ko'ziga qarab...

Kun ham erta botdi, bilmadim, kuzmi,
Bitgasi kechkida o'qiydi.
— Sen ham o'ylagin-da anavi qizni? —
Chol ham kampirini nuqiydi.

Hech qayda hech gap yo‘q, shundoq ikkovlon
Bir-birin besabab koyir, turtkilar.
Lekin ikkisi ham biladi pinhon:
Bolalarni o‘ylaydi ular.

So‘ngra bir mahalda uzun-qisqa bo‘lib
Bolalar ham kelar galma-gal.
Dasturxon atrofi boradi to‘lib,
Xayriyat, hammasi jam, tugal.

Kampir: — Shukur, — deydi qimtinib labi,
Chol ham jilmayadi:
Tushunar...
Dunyoda hech bir gap bo‘lmagan kabi
Bolalar ovqatni tushirar.

1979

SAMOVIY MEHMON, BESH DONISHMAND VA FARROSH KAMPIR QISSASI

Xabar keldi Fan shahriga
Olis Jungli tomondan.
O‘tgan kecha allanarsa
Yonib tushmish osmondan.

Yulduz desa yulduz emas,
Yo yo‘ldoshmi bir daydi.
Har holda u shov-shuv solgan
Tarelkaga o‘xshaydi.

Bu xabardan ilm ahli
Bir zum o‘yga toldilar.
Yana biror mish-mishdir deb
Shubhaga ham bordilar.

Charxlab turish kerak ammo
Tuyg‘u bilan aqlni...
Har ehtimol jo‘natdilar
Jungliga besh vakilni.

Beshovi ham tengsiz olim,
Besh qit’adan bo‘lmish jam.
Dunyodagi barcha ilm
Shul beshovda mujassam.

Dunyodagi tillarni-ku
Besh barmoqday bilishar.
Kerak bo‘lsa qushlar bilan
Xandon suhbat qilishar.

Xullas, beshov yig‘ilishib,
Jungli tomon yeldilar.
Hatto farrosh kampirni ham
Birga olib keldilar.

Darhaqiqat, Jungli notinch,
Ne daraxtlar shalpaygan.
O‘rtaliqda allanarsa
Yotar edi, yalpaygan.

Oynaklarni tutib beshov
Uyog‘idan o‘tdilar.
Bu qanaqa gap bo‘ldi deb
Buyog‘idan o‘tdilar.

Va nihoyat sirli uyni
Urib ochib olishdi.
Ichkariga qarab birdan
Angrayishib qolishdi.

Yotar edi o‘rindiqda
Allaqanday bir maxluq.

Bir ko‘zi bor...manglayida,
Ikkinchisi mutlaq yo‘q.

Lab-dahani odamga ham
O‘xshab-o‘xshab ketardi.
Qo‘l-oyog‘i uzun-uzun,
Sap-sariqdir rang zardi...

Besh donishmand o‘zni endi
Yo‘qotishdi tamoman:
Hazilakam gapmi axir
Mehmon tushmish samodan!

Mana buni aytsa bo‘lar
Eng oliy, zo‘r muammo!
O‘rab oldi uni beshov,
Miq etmasdi u ammo.

Ko‘rsatishdi unga dastlab
Cheksiz olam tarhini.
Somon yo‘li, alfa, beta
Burjlarining farqini.

Mehmon esa qimir etmay
Yotardi jim, sulayib.
Manglayida bitta ko‘zi
Boqar edi do‘layib.

Ko‘rsatdilar unga yana
Yozuv, shakl, formula.
Moziyni ham ko‘rsatishdi
Kino qilib bir yo‘la.

Dunyodagi tillarni-ku
Lug‘at qilib uyishdi.
Shu jumladan o‘zbekcha ham
Bir-ikki so‘z deyishdi.

Mehmon hanuz qimir etmay
Yotardi jim, sulayib.
Manglayida bitta ko'zi
Boqar edi do'layib.

Karmikan, deb qulog'iga
Baqirib ham ko'rdilar.
Soqovmi, deb imo bilan
Chaqirib ham ko'rdilar.

Tahdid bilan hatto biroz
Siquvga ham olishdi.
Oxir charchab, o'zlari ham
Sulayishib qolishdi.

Ish chiqmadi, demak bizni
Tushunmadi u taraf!
O'sha payt, deng farrosh kampir
Kirib keldi tentirab.

Farroshda u, uni-buni
Yig'ishtirmoq unga tan.
O'rindiqda yotgan zotni
Ko'rdi kampir daf'atan!

— Voy bechora bolaginam,
Dard zabtiga opti-ku!
Holdan toyib, boshqa ko'zi
Yumilib ham qopti-ku!

Rangini ko'r, somon deysan,
Suvdanmikan yo o'tdan! —
Shundoq deya farrosh kampir
Bo'la ketdi girgitton.

Azbaroyi mehr bilan
Boshginasin siladi.

Tikandayin tikka o‘sgan
Sochginasin siladi.

Kampir bilmas, kim bu maxluq,
Yo bilsa ham unutdi.
Icha qolgin, jon bolam, deb
Hatto unga suv tutdi.

O‘shanda deng, haligining
Qon chopdi-ya yuziga.
Duvva-duvva yosh ham keldi
Bittagina ko‘ziga.

Jon kirganday bo‘ldi birdan
Oyoq-qo‘li qimirlab.
Jilmayganday bo‘ldi hatto
Gapirganday shivirlab.

Aylantirib bitta ko‘zin
Boqdi u yoq-bu yoqqa.
Bir mahal deng, dabdurustdan
Mehmon turdi oyoqqa.

Olimlarning ushbu holdan
Chimirildi qoshlari.
Bu qanaqa sir bo‘ldi, deb
Tamom qotdi boshlari.

Kor qilmadi shuncha ilm,
Etdi qancha sargardon.
Farroshlarning yulduzidan
Tushdimikan yo mehmon.

Ne bo‘lsa ham murod hosil,
Fan shahriga yelishdi.
Farrosh kampir sirin esa
Sal keyinroq bilishdi.

Olimlarning xizmatlari
Yo‘q, bekorga ketmabdi.
Shuncha ishni qilishibdi.
Faqat Mehr yetmabdi.
1979

* * *

Hikmatli gaplarga quloq solmoq darkor.
Quloq solmoq darkor xalqning so‘ziga,
Lekin odamlarning bir odati bor,
Maqol to‘qiydilar moslab o‘ziga.

Masalan, it — vafo, demishlar, hayhot,
It egalari buni to‘qiganlar zab.
Birovlar itidan bo‘lgil ehtiyot,
O‘zingniki bo‘lsa boshqa gap...
1979

AYON BO‘LGAY

Agar yoring xirom etsa,
Sabolardan ayon bo‘lgay,
Takallumi chaman bergan
Sadolardan ayon bo‘lgay,
Agar yoring quyosh bo‘lsa,
Anga aslo boqib bo‘lmas,
Kamolingmi, zavoling yo —
Samolardan ayon bo‘lgay.
Agar yoring husn shohi —
O‘tar bo‘lsa shaharlardan
Guzarlarda qolib ketgan
Gadolardan ayon bo‘lgay.
Agar yoring jafokordir,
Jafokor, deb, otin aytma,
Uning asli o‘zing chekkan

Jafolardan ayon bo'lgay,
Agar yoring sadoqat deb
Senga ko'ngil qo'yar bo'lsa,
Kuyib ag'yorlaring, baxti,—
Qarolardan ayon bo'lgay.
Agar yoring muhabbatni
Nihon saqlar, gumon etma,
U bir ganjdir, biroq haddi
Adolardan ayon bo'lgay.
Agar yoring bo'lib Shirin,
Agar o'zni desang Farhod,
Qiyosing chin va yo lofdir,
Vafolardan ayon bo'lgay.
Agar oshiqsan, Abdulla,
Qanoat qil sabr birla,
Nadur holing — senga boqqan
Balolardan ayon bo'lgay.

1979

BOBO VA NABIRA

Imillab boradi yo'lda mo'ysafid,
O'tgan asrlarning xayoli boshda.
Yonida tipirlar nabirasi xit,
Qo'yvorsa yetguday shahdi quyoshga!

Chol-chi, tutmish uning qo'lidan mahkam,
Nabira ko'zida andisha-yu zor.
Ota, nabirangni ozod qo'y bir dam,
U hali uzoqqa ketmog'i darkor.

U hali nomingni ko'ksiga joylab,
Samolar qo'ynida urgusidir barq.
Uni qadamingga tashlama boylab,
Qo'yvor nabirangni, otajonim, Sharq...

1979

* * *

Bunchalar kamolot, ayt-chi, kimda bor,
Kimda bor bunchalik latofat, husn.
Shu chiroy, shu ishva, shu noz, shu viqor,
Baxtiyor juftingga muborak bo'lsin.

Sevganing qalbida, bilmam, qay niyat,
Demasman, sha'ningga she'rlar bitsin deb.
Seni yaratgandir asli tabiat
Bir shoir hajringda kuyib o'tsin deb...

1979

ISTAK

Orzum shul, o'chmasin yongan chirog'ing,
Yulduzday nur sochsin chashming-qarog'ing.
Magar chinor bo'lsang, chinorday yasha,
Bevaqt uzilmasin biror yaprog'ing.

1979

OZARBAYJON

Xayol oti bilan kezgil har yonni,
Topmassan bundayin xushbaxt bir onni.

Muhr etdi dillarga tarix inchunin,
Qadim qondoshlikni — oliy ehsonni.

E'zozlab turibdi ko'tarib boshga,
Bu kun ozar eli O'zbekistonni.

So'ylasin ming yillik mo'ysafid tarix,
Bu do'stlik bilganmi shubha, gumonni?

O‘zbekman, anglamay qayoqqa bordim,
Shu inja ozariy tilni, zabonni.

Do‘stlik bu — muhabbat yanglig‘ farahkim,
Bilgay u na hadni va na dovonni.

Asli Muqannaga qiyos etgulik
Bobakning qalbidan toshgan tug‘yonni.

Nizomiy bolidan halvo pishurmish
Navoiy zabt etib turkiy jahonni.

Bir lahza qo‘lidan qo‘yganmi o‘zbek,
O‘zing ayt, Fuzuliy bitgan devonni.

Azizim, dilimda asrab yuribman
Nasimiy qoldirgan sobit imonni.

Vurg‘unning she’ri deb jon cheksa o‘zbek,
Ozar ham ayarmi G‘afurdan jonni.

Sen bilan kechmishning janggohlarida
Birga taniganmiz yaxshi-yomonni.

Tarix-ku, muhtasham yodgordir oliy,
So‘ylayin shu kunni, ayni shu onni.

Qondoshlik tug‘ini ko‘tarib kushod
Tavob etmoqdamiz gulgun makonni.

Xazar kosa bo‘lsin, ya’ni jomi Jam,
Sipqirgil, sharafla davr-u davronni.

Men senday mezbonni topmog‘im gumon,
Sen ham topolmassan menday mehmonni.

Mavjud bo‘lmasaydi olamda agar,
O‘ylab topar edim Ozarbayjonni.

1979

INSON MANZARASI

Ba'zan o'ylab deyman, ne bo'lardi gar
Qudratin ko'rgazsa tabiat hassos.
Va inson suvratin uning muqarrar
Fe'l-u atvoriga aylab qo'ysa mos.

Bunyod bo'lar edi ajib bir holat,
Ne-ne insonlarning abas or sharmi.
Namoyon bo'lardi avval xushomad,
Emaklab yurardi bu qavmning bari.

Beshak yashirardi turfa qilmishin
Izdihom ichida badkor munofiq.
Tanib bo'lmas edi lekin yurishin,
Ya'ni o'z fe'liga mos va muvofiq.

Qanchalar rang-barang inson hayoti,
Bari ochiq-oydin shundoq turardi.
Oyog'i osmonda ig'vogar zoti
Ayri tili bilan izg'ib yurardi.

Ha, magar chevrilsa olam shu taxlit,
Imon keltirardim bir holga beshak:
Oyog'in zaminga qadagan sobit,
Komil Inson zoti nechog'liq yuksak.

Faqat u mavjudki, olam fayziyob,
Faqat insonlikka uning haqqi bor.
Ustuvor insonlar, siz nechog' noyob,
Sizni uchratgan qalb nechog' baxtiyor...

1980

QO‘RIQXONA

Asraymiz o‘simlik xillarin tayin,
Asraymiz hayvonlar kamyob zotini.
Hatto atroflarin o‘rab atayin
Qo‘riqxona deymiz so‘ngra otini.

Sayoq ovchilarga u yon yo‘l bo‘lsin,
Jarima solamiz, qamaymiz hatto.
To u jonzotlarni tinchiga qo‘ysin,
Qirilib bitmasin tirik dunyo to.

Munis mavjudotga mehr-u shafqat bu,
Bu inson qalbida balqqan hamiyat.
To yashar qaydadir bu yanglig‘ tuyg‘u,
Har nechuk qirilib ketmas tabiat.

Olamda ko‘p narsa kamyob bir qadar,
Ne-ne tuyg‘ular ham kamyobdir, alhol.
Men derdim sof qalbni uchratgan safar,
Darhol o‘rab oling atrofin, darhol.

Insof yo‘qolmasin, o‘rang mustahkam,
To uni yuzsizlik etmasin xarob.
Ezgulikni asrang, olamda u ham
Tojdor turna kabi bo‘lmasin kamyob.

Oqibatni asrang, oqibat go‘yo
Ayiqday qaydadir topmasin zavol.
Hayoni asrangiz, kuymasin hayo
Otashga duch kelgan palapon misol.

Imonni asrangiz, u doim tanho,
Undadir mujassam inson matlabi.
Avlodlar axtarib yurmasinlar to,
Uni allaqanday qor odam kabi.

Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,
Yagona zaminni asragansimon.
Bobolardan qolgan noyob bu tortiq
Toki avlodlarga yetolsin omon.

Ezgu, latif hislar bo'lmasin tahqir,
Bulbulni boyqushga topshirmang zinhor.
Xudbin va dilozor kimsaning, axir,
Og'zi qon yirtqichdan qanday farqi bor?!

To'qayga o't ketsa yongay bus-butun,
Adolat borliqqa yolg'iz onadir.
Dunyo ham, insonlar qalbi ham bugun
Yovuzlikdan zada qo'riqxonadir.

1980

UCHINCHI ODAM

Insonlar bir-birin yursa ardoqlab
O'rtada vosita asli ziyoda.
Har ikki odamni turguvchi bog'lab
Uchinchi Odam bor lekin dunyoda.

Uchinchi Odam bu — o'zi bir xilqat,
O'shadir dunyoga ilk qo'ygan qadam.
Ikkovlon o'ljani keltirgan fursat
O'choqqa o't yoqqan uchinchi Odam.

Payg'ambar shaklida u sohib qutqu
Bandaga xudoni dalolat etgan.
Ne o'jar shohlardan elchi bo'lib u
Goho bosh keltirgan, goh boshi ketgan.

Muhabbat bobida u-ku bir mahram,
Uningsiz visol ham yo'qdir aslida.

Shoirning yor uchun bitgan satrin ham
Yod olgan o'shadir — she'rxon shaklida.

Uning bir unvoni hakamdir azal,
Shunchalar muhtaram uchinchi bu zot.
Toki bu olamda mehr notugal,
Men faqat o'shandan qo'rqaman, hayhot!

Axir u emasmi do'stni g'anim-u
G'animni do'st qilib qo'yguvchi odam.
Magar u beshafqat boshlasa g'ulu
Dunyoga g'avg'olar solgay chinakam.

Ro'yoni rost desa, mittini kabir,
Janubni Sharq desa aylab imolar.
Kufrli dunyoda oz emas, axir,
O'shaning izmidan yurgan siymolar.

Uchinchi bu odam tirikdir toki
Dunyoning chayqalib turmog'i ayon.
Serg'alva asrda bu zot hattoki
Saltanat shaklida bo'lar namoyon.

Olamda, aslida, bordir do'st va yov!
Orzum shul: pokiza ko'rsam vijdonni.
Kimsaning nomidan kimsaga birov
Sotib yubormasa, deyman imonni.

Qo'llarim ko'ksimda, betinch, betoqat,
Ta'zimlar qilurman senga ushbu dam.
U — menmi,
u — senmi, kim bo'lma, faqat
Senga insof bersin, uchinchi odam!

1980

ILTIMOS

Senga balki ayon, balki noayon
Bir hayot hadisin aylayin bayon.
Mayli, suvlar kechgin, mayli, o'tda yon,
Hargiz iltimosga kuning qolmasin.

Sargardon, yo'llarda qolsang hamki och,
Sabr-u qanoatni qilgil boshga toj,
Notanti yo'ldoshga bo'lma hech muhtoj,
Hargiz iltimosga kuning qolmasin.

Ta'nadir dunyoda yomondan yomon,
Non berib rangingni etgaydir somon.
Aqling butun bo'lsa,
to'rt muchang omon,
Hargiz iltimosga kuning qolmasin.

Bo'ri emas deysan odam odamga,
Ko'zing kattaroq och, boqqil olamga,
Birov otamga der, birov onamga,
Hargiz iltimosga kuning qolmasin.

Saxovat ahliga garchi yuz burdim,
Gohi dam hayratda lol qotib turdim,
Norning it oldida cho'kkanin ko'rdim,
Hargiz iltimosga kuning qolmasin.

Oh, do'stim,
demagil qaydan bu tuyg'u,
She'rim sen uchun ham bo'lolsin ko'zgu.
Mening bir jaydari falsafamdir shu:
Hargiz iltimosga kuning qolmasin.

1980

TULKI FALSAFASI

— Ustoz, — dedi bir kun tulki tulkiga,
Nechun biz nishonmiz doim kulkiga?

O'rmonda bo'ri ham, hatto janob sher,
Bir-birin turtishib: — Tulkisan-a, der!

Boshqalar ustidan kulmaslar nechun,
Bu hol qorong'udir biz yoshlar uchun.

— Uka, — dedi shunda tulkiga tulki,
Bunday hodisotning sababi shulki,

Kasbini eplolmay qolsa aksari,
Tulkilik qiladi hayvonlar bari.

Ko'pincha ilojsiz qolgan fursatda
Tulkilik qiladi sher ham, albatta!

Lekin bizning ishni eplolmas ular,
Shu sabab o'rmonda masxara bo'lar.

Sen-chi, bunday holdan aslo o'kinma,
Boshqalar singari chetga bekinma.

Tulkisan, bunday chog'tulkilik qilgin,
Tulki deb kulsalar, qo'shilib kulgan...

1980

DO'STLARIMGA AYTGANIM

Dunyoda ko'p narsa unutiladi:
Qashshoqlik, martaba, quvonch, qayg'ular.
Unutilib borar muhabbat dardi,
Unutilar yillar, yo'llar, tuyg'ular.

Qirq yillik adovat unutilar sekin,
Unutilar hatto yurakdagi darz.
Yaxshilarning mehri unutilmas lekin,
Unutilmas ular oldidagi qarz.

1980

SHARQ HIKOYASI

Aniq yili esimda yo‘q,
Allaqaysi zamonda,
Bir qishloqda ota-o‘g‘il
Yashar ekan omonda.

Ular g‘oyat totuv ekan,
O‘rtada mol-joni bir.
Ming qilsa ham ota-o‘g‘il,
Ming qilsa ham qoni bir.

Bir kuni deng, shu ikkovlon
Qaygadir yo‘l olishdi.
Minay desa ot-ulov yo‘q,
O‘ylanishib qolishdi.

Qurib ketsin yo‘qchilik ham
Kim nelarga zor edi.
Ikkovining o‘rtasida
Bitta eshak bor edi.

Garchi u ham biroz yag‘ir,
Garchi andak bedarmon.
Shu eshakni minsakmi, deb,
O‘ylab qoldi ikkovlon.

Ota dedi: — o‘g‘lim bundan
Na sen, na men tingaymiz.

O‘g‘il dedi: — Ota, buni
Galma-galdan mingaymiz.

Ota doim ota axir,
Ya’ni mudom izzatda,
Eshakka u mindi dastlab,
O‘g‘il yayov, albatta.

Bir qishloqdan o‘tardilar
Ikkov sekin tiqirlab,
Ortlaridan to‘rt-besh odam
Kulib qoldi piqirlab.

— Ahmoq ekan manavi chol,
Ahmoq haddan ziyoda.
O‘zi ulov minib olgan,
O‘g‘li esa piyoda.

G‘alati bir hisni tuyib
Shartta pastga tushdi chol.
— Kela qolgin, o‘g‘lim, — dedi,
Eshakka sen minaqol.

Endi o‘g‘il to‘qimda-yu
Ota yayov ketardi.
Endi ular boshqa qishloq
Ko‘chasidan o‘tardi.

Borardilar so‘zsiz, sekin,
Asta-asta tiqirlab.
Ortlaridan to‘rt-besh odam
Yana kuldi piqirlab.

— Ahmoq ekan manov bola,
Ahmoq haddan ziyoda.
O‘zi ulov minib olgan,
Otasi-chi, piyoda.

Yosh emasmi, birdan uning
Oriyati qo‘zg‘oldi.
Shartta pastga tushdi u ham,
U ham yayov yo‘l oldi.

Yurib-yurib ikkalasi
Necha adir, qir oshdi.
— Bor-e, —
deya so‘ng eshakka
Ikkovi ham mingashdi.

Ammo tag‘in bir manzildan
O‘tar bo‘ldi ikkovlon.
Ne kulfatki, bu joyda ham
Tinch qo‘ymadi olomon.

— Ahmoq ekan bular rosa,
Insofi yo‘q lavanglar,
Ikki odam bir eshakni
Minib opti, qaranglar.

Malomatdan ota-o‘g‘il
Tamom horib toldilar.
G‘azab bilan bir-biriga
Termilishib qoldilar.

— Aytmabmidim, —
dedi ota, —
Gap uqmading, tirrancha.
El-u yurtning o‘rtasida
Bo‘ldik rosa bo‘lgancha.

Qo‘l siltashdi bir-biriga,
Qoldi foyda-ziyon ham.
Ota u yon ketib qoldi,
Bu yon ketdi o‘g‘lon ham.

Qondoshlikning million yillik
Rishtalari uzildi.
O‘rtaga bir eshak tushib
Oralari buzildi.

1980

ISHONCH

Tabiat, ishonchdan ayirma sira,
Ayirma, o‘chmasin dildan shukuhing.
Benishon yo‘qolib ketgandan ko‘ra
Yaxshi-ku tentirab yursa gar ruhing.

Tim qora osmonga oy chiqsa dilbar,
Zaminga to‘kilsa nuri sarsari.
Bulutlar ortidan boqolsang agar,
Abadiy yo‘qlikdan afzal-ku bari.

Sen yurgan bog‘larni baxtga to‘ldirib,
Sayr etsa shomlarda do‘st ila yoron.
Ularni o‘rgulsang shabboda bo‘lib,
Axir bu tolening nimasi yomon.

Bir kun farzandingning o‘ksik dilida
Uyg‘onsa g‘amlarni yenggan muhabbat.
Kapalak misoli uchib yo‘lida,
Sen uni qutlasang, axir, bu ne baxt.

G‘amgin va beiqbol yoring oh urib
Bolishga bosh qo‘yar, ko‘z yoshi taxir.
Sen uning tushiga bildirmay kirib,
Tasallo berolsang, saodat axir.

Sen-ki, xor vujudni bir kun, tabiat,
Yulqib olarkansan dilbar hayotdan,
Meni shu ishonchdan ayirma faqat,
Ayirma sen meni shul bir bisotdan.

1980

BOBOLARIM YURTI, OTAM MASKANI

Bobolarim yurti,
Otam maskani.
Onamning muborak xoki barqaror.
Bir farzand misoli qutlayman seni
Ey, otash zamindan yaralgan diyor.

Tug'gan xonadonin har kim yod etgan,
Sen ham mening uchun shundoq ma'vosan.
Tonib qayga bordim — bobomdan o'tgan,
Toleyimga bitgan Qashqadaryomsan.

Azaliy xalqing bor — bir el qatori,
Tanti-yu mehnatkash, to'g'riso'z, halol,
Hisor tepasida Muqanna g'ori
Ming yillik umringdan so'zlar ehtimol.

Jahongir mana bu, Bedil mana bu,
Ko'kdan tushmagandir ular, hoynahoy.
Buyuk Ulug'bekning chashmiga ko'zgu
Ko'kda hamon kezar o'sha to'lin oy.

Moziyni yod etmoq savobdir garchand,
Lekin zamon erur zamon sarasi.
Kattakon Vatanga jon iping payvand,
Sen ham ulug' elning bir shajarasi.

Kun kecha Nishonda yovshan oralab
Nortuya quvganlar aytsinlar ayon,
Qashqadaryo deya so'zga ochsang lab
Cheksiz bir sahroni anglardi jahon.

Kun kecha emasmi — bag'ringga boqib
She'riy hasrat bilan yongan har so'zim.

Nechun quvnmayin bugun men balqib
Yashnasa ming yillik sahroyi azim.

Jayhun shamoliga ochgan ko'zini
Cho'li bobom, mana, burkangan shonga.
Bir zamon cho'ldan u olgan ismini,
Bugun haykal bo'lib boqar bo'stonga.

O'tib ne bir davron, o'tib ne zamon
Quv daryo sahroga chiqdi ayqirib.
Ne ajab, qatrasi tashna dil tomon
Tengsiz ziy kabi borolsa kirib.

Ne ajab, saroblar qolib yo'qlikda
Istiqbol xayoli ayon barq ursa.
Ne ajab kitoblik munajjim ko'kda
Qarshi paxtazorin aksini ko'rsa.

Ayb emas, to'planib do'st-u yor bilan
Kechgan kunlaringni aylab qo'ysam yod.
Nazar sol yurtingga iftixor bilan,
Ona O'zbekiston shunchalar obod.

1980

SEN QAYDAN BILASAN

Sen qaydan bilasan,
Balki yulduzlar
Menga sirlarini
So'ylayotgandir.
Sen qaydan bilasan,
Balki bu ko'zlar
Unsiz bir qo'shiqni
Kuylayotgandir.
Sen qaydan bilasan,

Balki keng olam
Shu mo‘jaz qalbimga
Bo‘ylayotgandir.
Sen qaydan bilasan,
Balki meni ham
Kimdir qaydadir jim
O‘ylayotgandir...

1980

* * *

Umr qisqa edi,
Qisqartirdik yana.
Ozgina baxtni ham bo‘lib tashladik.
Kulfat oqibatda qildi tantana,
Shundagina ko‘zni yoshladik.
Jahldor tabiat endi yuz o‘girdi.
Boqmadi, chopsak ham yig‘lab ortidan.
Tirik ot o‘rniga yog‘och otni berdi,
Uyni esa berdi yerning ostidan.

1980

* * *

Deydilar, it hurar
O‘tadi karvon,
Ranju balolardan
Yonmasin joning,
Lekin alam qilar,
Bir umr giryon
Itlar orasidan
O‘tsa karvoning.

1980

OLOMONGA

Mashrab osilganda qayoqda eding?
Cho'lpon otilganda qayoqda eding?

Surishtirganmiding Qodiriyni yo
Qalqon bo'lganmiding kelganda balo?

Hukmlar o'qilur sening nomingdan,
Tarixlar to'qilur sening nomingdan.

Nimasan? Qandayin sehrli kuchsan?
Nechun tomoshaga bunchalar o'chsan?

Qarshingda hasratli o'yga tolaman,
Qachon xalq bo'lasan, ey sen, olomon?!

1980

UY

Ijroqo'm uy bermish,
Ko'zlaringda yosh...
Shunchalar ko'pmida dilingda darding.
Yetar, ta'zim bilan egaverma bosh,
Yetar, yuragimni ezib yubording.

Seniki atalar shu yer, shu zamin,
Yo uni nazarga ilmaganmiding?
Senga ham taqdirning xatlab berganin
Shuncha yil o'tibdi, bilmaganmiding.

Ijroqo'm uy bermish,
Bag'oyat savob,
Lekin ko'rmay seni mute shaklida.
Haqiqatning tagin izlasang shu tob
Mutlaq senikidir uylar aslida.

1981

* * *

Baxtiyor har dilga oshno topilgay,
G'ussali yurakka lekin yo'q hamdam.
Do'stlar eshigi ham taq-taq yopilgay
G'ussali qalb u yon gar qo'ysa qadam.
Horg'in bir yo'lchingman, darvozangni och,
Boshlab keldi dema kulfat, qayg'uni.
Nogoh ko'zlarimda ko'rsang qatra yosh
Sog'inch yoshlari deb qabul et uni.

1981

* * *

Dunyoda diyonat hali mavjuddir,
Hali mard yigitlar yashab yuribdi.
Onalar oq suti hamon oq sutdir,
Quyosh ham falakda porlab turibdi.
Hali qay dillarda yashar tangri ham,
Hali afsonalar o'lib ketmagan.
Hali sof tuyg'ular topmagan barham,
Inson orzusiga hali yetmagan.

1981

SHOIR UMRI

Daraxtni hamisha o'raydi shamol,
Shoirni tashvishlar chulg'ar hamisha.
Sen shoir umrini dema bezavol
Uning ham har oni tashvishga pesha.

Qara-ya, o'tibdi qirq yil muttasil,
Yashabman yulduzlar ostida karaxt.
Oh, shoir umriga havas qilmagil,
U quyun ichida ungan bir daraxt.

1981

* * *

Yerdan o‘zga joyda hayot yo‘q emish,
Yo‘q emish samoda biror-bir jonzot.
Olimlar shundayin qarorga kelmish,
Sira ajablanmang bu holdan, ustod.

Ular xo‘p tinchibdi, toleyi kulib,
Asli yo‘q narsani axtarmoq bekor.
Men esa to hanuz umidga to‘lib
Izlayman zaminda do‘sti vafodor.

1981

QIRQ YOSH

Qirq yosh ham keldi-yu qo‘limdan tutdi,
Borman na ertakda, na afsonada.
Qirq yilning naq yarmi yo‘llarda o‘tdi,
Yarmi esa o‘tdi bemorxonada.
Shu mo‘jaz uyimda yonsin deb chiroq,
Ne aziz zotlarga yondashdim gohi.
Birin aka dedim, birini o‘rtoq,
Ba’zan nom chiqardim: davron maddohi!
Kim alam chekmabdi umrida bir bor —
U meni anglamas, anglamas aslo!
Kim haqqa tashnadir, kim mehrga zor,
Men unga umrimni etgumdir fido.
Ming bora roziman ona yurtimdan,
Ko‘rdi u erkalik onlarimni ham.
Kimdir tosh otsa ham goho ortimdan,
Qoshimda bosh egdi kelib so‘nggi dam.
Qirq yillik umrimning eng avj pallasi
Kelajak kunlarga munglig‘ qarayman.
Ukajon, navbating yetdi chamasi,
Endi men saflarga qanday yarayman?!

Bir vaqtlar jo‘r bo‘lib o‘tli yoshlikka
Yurardim hech so‘nmas tilagim bilan.
Bugun-chi, dardlashib turibman yakka
Shu majruh, shu xasta yuragim bilan.
Afrosiyob kabi vayrondir dilim,
Cho‘ng larza yuz berdi unda nogahon.
Oh, faqat ko‘milib ketmasin yo‘lim,
Faqat o‘tib tursin ko‘chamdan zamon!

1981, Moskva

XAYRLASHUV

Xayr, ey, bearmon kezgan qirlarim,
Xayr, ey, yiroqda qochgan so‘qmoqlar.
Xayr, ey, maskanim — tug‘gan yerlarim,
Xayr, ey, sahrolar, xayr, ey, tog‘lar.
Endi sizni qayta qucha bilmasman.
Inja diydoringiz endi o‘zgadir.
Shamollar, siz bilan ucha bilmasman,
Chechaklar, endi siz menga beqadr.
Oshno kengliklarga tashlab jim nazar,
Tirqirab keladi ko‘zlarimga yosh.
Shamollar holimdan olganday xabar,
Bir lahza teppamda tinganday quyosh,
Ulardan nogahon tinglayman xitob:
— Shoirim, sen qayga qaytmoq bo‘libsan?
Kim seni badarg‘a qilmish, ber javob,
Sen nechun alvido aytmoq bo‘libsan?
Oltin bolaliging o‘tgan tuproqda
Nahot topilmasa senga bir madad?
Nahot onang ruhi qolmish yiroqda,
Nahot bobolaring qo‘llamas minba’d?
Go‘zal bu dunyoga kelib ketmoqlik
Nahotki shuncha jo‘n, shunchalar oson?!

Yulduzlar shivirlar, dillari dog‘lik:
— Yo o‘zga sir bormi? Aytgil, qadrdon!
Yo‘q, deyman va lekin sim-sim yig‘layman,
Qirq ko‘zgu keladi qarshimga bot-bot,
Dilbar kunlarimni bir-bir ilg‘ayman,
Misli oyinaga boqqanday Farhod.
Endi qaytib kelmas u damlar sira,
Shul sabab dilda g‘am, ko‘zlarimda yosh,
Qoldi qaylardadir yoshlik — bokira
Quduq tublariga cho‘kkanday quyosh.
Men ko‘rar endigi bu go‘zal olam,
Sirli u damlarning mavhum soyasi.
Shul sabab qalbimni o‘rtaydi alam,
Shul sabab g‘amimning yo‘q nihoyasi.
Hayajon bu — o‘lim, kulfatdir — qo‘shiq,
Qilt etgan shamoldan titramas yurak.
Unga endi na dard, na quvonch, na ishq,
Balkim to‘ng‘ib qolgan bir orom kerak.
Bir hovuch kul emish otash qismati,
Men ham yona-yona tindim nogahon.
Endi tillarimda vido hasrati,
Endi ko‘zlarimga tiyradir jahon.
Olam tin oladi, tinurman men ham,
Endi u sirlarin so‘ylamas ortiq.
Faqat derazamda bir qushcha beg‘am
Menga qo‘shiqlarin etadi tortiq.
Hayot deb atalgan xush tilak bilan
Kechalar behudud o‘yga tolurman.
Tosh qotgan, nogiron shu yurak bilan
Mo‘ysafid quyoshni qarshi olurman.

1981, Moskva

MENI OLIB KETING

Tinch edi hamma yoq, tinch edi har yon,
Titradi go'yoki yer bilan osmon,
Boshimga xastalik tushdi nogahon,
Meni olib keting o'z diyorimga.
Issiq jon, deydilar, jon bo'lsa bo'lar,
Payt kelsa chechak ham sarg'ayar, so'lar.
Kim bilgay paymonang qay yerda to'lar
Meni olib keting o'z diyorimga.
Ginam bor bu yurtning na havosidan,
Mehribon doktorning na davosidan.
Qaytarmang xastani muddaosidan,
Meni olib keting o'z diyorimga.
Sha'nimga g'ayirlar bir so'z demasin,
Har kim o'zi tortar umr kemasin.
Hech kimni mushtoqlik dardi yemasin,
Meni olib keting o'z diyorimga.
Talpingan diyorim, u — O'zbekiston!
Sehrini aytishga bormi hech imkon!
Yo'q, o'zga yurtlarda berolmasman jon,
Meni olib keting o'z diyorimga.

1981, Moskva

RANGLAR

Irinaga

Qachondir Shimolning oppoq qoridan,
Seni yaratgandi zukko tabiat.
Ko'zingga rang berdi osmon qa'ridan,
Shul sabab moviydir bu ko'zlar behad.
Sunbul sochlaringni yaratgan chog'da
Za'faron shafaqqa bo'yab oldi u.
Boqib lablaringga o'zi ham dog'da,
Qontalash bir rangni bera qoldi u

Rosa pardoz qildi tabiat to'lib,
To oydin ranglari tortguncha xira.
Barcha rang ustidan qo'riqchi qilib
Qora Otelloni yaratdi so'ngra.

1981, Moskva

HAYRONLIK

Chindan g'alat erur dunyo ishlari,
Miyang g'ovlab ketar o'ylagan sari,
Diyonat, xiyonat aralash bari,
Boqib bu savdoga, hayron o'tdik biz.

Ko'rdik inson fe'lin o'r-u qirini,
Baham ko'risharlar avval sirini.
So'ngra nimta qilar biri birini,
Boqib bu savdoga, hayron o'tdik biz.

Goho sendan aziz ostingda oting,
Goh bir g'alamisga bog'liq hayoting,
Yaxshiyam qatorda bordir bayoting,
Boqib bu savdoga, hayron o'tdik biz.

Sen deysan, dilim pok, rashkdan yiroqman,
Sen unding, men esa hanuz tuproqman.
Yo'q, do'stim, men sendan bechoraroqman,
Boqib bu savdoga, hayron o'tdik biz.

Ne qilay, yomonga o'qiymi la'nat,
Yo shodon qo'shiqlar aytaymi faqat.
Birovda mehr mo'l, birovda nafrat,
Boqib bu savdoga, hayron o'tdik biz.

Har qalay baxtlimiz — tirikmiz magar,
Qolgan gaplar esa o'tarda ketar.
Bamisli karnayga ishqi tushgan kar,
Boqib bu savdoga, hayron o'tdik biz.

1982

* * *

Senga bu dunyoning guli, ne'mati,
Senga, ey qay bir dam yaralgan san'at.
Senga oshufta bu dilning rag'bati,
Senga ohista bu arzi muhabbat.

Yillar o'tib ketmish, qayoqda eding,
Qaysi gulshanlarda yasharding, armon.
Xazonli bu bog'ga nechun ham kirding,
Nechun xasta dilga solding g'alayon.

Sobit esam-da, gar topolmasman ep,
Qarshimda osmonni past qila qolding.
Sen o'tgan dunyoga qaydan yo'l topib,
Kechmish bir insonga qasd qila qolding.

1982

O'ZBEGIM TOJIK BILAN

Do'st-u qardoshdir azaldan
O'zbegim tojik bilan,
Ikkisi bir bayt g'azaldan
O'zbegim tojik bilan.
Qay yo'sin aylay qiyos men
Bul shirin do'stlik so'zin,
Totlidir boldan, asaldan,
O'zbegim tojik bilan.
Baxtga yor doim Navoiy toki
Jomiy bor ekan,
Biz ular qo'ygan tamaldan,
O'zbegim tojik bilan.
Fahm etib boqsang agarda,
Biz qo'sha sayyoramiz,
Bu Ali so'zlar Zuhaldan,
O'zbegim tojik bilan.

Bir egatning boshi sen-u
Bir egatning boshi men
Yer ekib tinmas hamaldan,
O‘zbegim tojik bilan.
Bul qadrdon ikki do‘stga
Xohishimdir, to abad
Topsa bir ma’no masaldan,
O‘zbegim tojik bilan.

1982

SAVOB

Avji saratonda hansirab, yonib,
Qovrilib olovli yo‘llar taftida,
Muzdayin buloqdan suv ichgach qonib,
Hordiq olganmisan chinor tagida?

Ruhingda safo-yu taningda mador,
Umidbaxsh qo‘shiqlar kuylaganmisan?
O‘sha payt, o‘sha on hech qursa bir bor
Chinorni kim ekkan — o‘ylaganmisan?

Ro‘baro‘ kelding sen toshqin daryoga,
Qolding sohil uzra chorasiz, giryon,
Lekin yo‘liqqanday ajib ro‘yoga,
Qarshingda bir ko‘prik bo‘ldi namoyon.

Bamisli uzala tushgan xor vujud,
Ko‘targay u turfa insonlar korin.
O‘tding sen daryodan salomat va but,
Lekin o‘yladingmi ko‘prik me’morin?

O‘rmonlar bag‘rida sayr etgan sayyoh,
Changalzor qo‘ynida sargardon ovchi,
Mo‘jaz boshpanani ko‘rdingmi nogoh,
Uni qoldirmishdir qay bir yo‘lovchi.

Qoldirmish u senga qaro kun uchun,
Bir chimdim tuz bilan bir juft chaqmoq tosh.
O'ylab ko'rganmisan, bu himmat nechun,
O'ylab ko'rganmisan, kimdir u g'amdosh?

Ha, inson umrining kechmishi ajab,
Goh to'ng'ar, goho u yashnar qulf urib...
O, balki qaysi bir fidoyi sabab,
Yuribsan sen hayot nash'asin surib.

Ayt, axir o'zing ham to borsan sobit,
Kimsaga nasiba uzatganmisan?
Ko'changdan lapanglab o'tganda tobut,
Sen uni to'rt qadam kuzatganmisan?

Chorasiz bir inson uchragan damda,
Unsiz so'rog'iga qildingmi javob?
Ayt-chi, bilarmisan, yorug' olamda
Bularning barchasi atalgay savob.

Yo'q, yo'q, o'zga erur bid'at va karam,
Himmat-u saxovat tiriklarga xos.
Bobolar betama qurgan dunyo ham
Asli savob uchun qolgan bir meros.

Kimdir tuzar uni, kimdir buzadi,
Kimdir borini ham qiladi barbod.
Kimdir tama bilan dunyo kezadi,
Kimdir o'ksuk dilni etadi obod.

Savob deb ingraydi dunyomiz behol,
Zordir u najotbaxsh hislar sehriga.
Janglarda toliqqan majruh zot misol,
Suyanib yashar u inson mehriga.

To hayot ekanmiz savobga zormiz,
Yilt etgan shu'ladan dillar fayziyob.
Goh g'amgin, goh esa umidga yormiz,
Yo'qolmasa deymiz dunyodan savob.

Axir uning bilan gullagay ochun,
Axir uning bilan umrlar shoyon.
Faqat savob borki, jahon bus-butun,
Faqat savob borki, azizdir Inson!

1982

* * *

Yiroq Yevropada, Oxrit bahrida,
Jahon shoirlari jam bo'lgan oqshom,
Kimdir she'r o'qidi boshoq haqida,
Rizqini tanidi hamma shu ayyom.

Falastinlik shoir arz etdi dodin,
Men ham insonman deb, bo'lay deb otlik.
So'ng daryo qa'riga otdi kitobin,
Uning bir talabi edi ozodlik.

Ha, non-u tuz bilan tirikdir inson,
Erkinlik, istiqlol mening ham jonim.
Xayriyat, ust-boshing butundir, jahon,
Paxtangni o'yladim, O'zbekistonim.

1982, Makedoniya

QONUNIYAT

Oqshom baroq mushuk labini yalab
Uyquga ketadi sichqonni o'ylab.
Sassiz qanot qoqar boyqush tunlari,
Es-hushida faqat qushning inlari.
Tulki to'qaylarda izg'iydi giryon
Xayolida uning tovuq yo quyon.
Burgut yuksaklarda qanot qoqadi,
U ham o'lja izlab tuban boqadi.

Bu-ku, tabiatda qonundir azal,
Foydasiz bu yerda axtarsang masal.
Lekin olamda bor o'zga bir holat
Uni sharh etolmas hech kimsa, hech vaqt.
Oh, faqat odamzod — farzandi bashar.
Bir-birin mahv etish qasdida yashar.

1982

BOBUR

Men-ku, oddiy odam,
Shundoq bo'lsa ham
Shukur, bas, degancha g'animlarim bor.
Shart emas ularga ta'rif chinakam,
Biri junun sifat, birovi hushyor.

Biroviga yoqmas jindek jur'atim,
Biroviga yoqmas men yurgan yo'lak.
Nogoh biror joyda chiqsa suratim
Biri uxlay olmay qiynalsa kerak.

Biz shunday o'tamiz,
Ya'ni kun ko'rib...
Maydagina kuchsiz, maydagina zo'r.
Hayotning mana shu burjidan turib,
Men Sizni o'yladim, hazrati Bobur.

Siz — zobit, dastini cho'zgan dunyoga,
Siz — shoir, mangu bir alanga yoqqan.
Nainki bandalar, Sizning siymoga
Ne-ne saltanatlar kek bilan boqqan.

Bahodirlik ichra yor Sizga Humoy,
Siz ulug' zotlarning izin bosgan er.
Nazmiy sajdagohda Sizga, hoynahoy,
Imomlikka o'tgay faqat Alisher.

Ha, yolg'iz she'r qoldi, boshqasi, abas,
Yetti iqlim aro doston naqlingiz.
Ne baxt, parchin bo'lib toj degan qafas,
Bizga yetib keldi olmos aqlingiz.

Ayting, ne topdingiz Siz kezib dunyo,
Hanuz boqisharlar sho'rishga to'lib.
Shoirsiz, yaxshisi, qolingiz, Mirzo,
Mushfiq yurtingizda bir shoir bo'lib.

1983

BIR SIRKI...

Dedingki, mumkinmas senga hayajon,
Kulfatdan yiroq yur,
may ham shart emas.
Magar yer yuzini bossa ham to'fon
Sening to'pig'ingga chiqmasa, shu bas!

Ha, do'stim, hayajon endi muvaqqat,
Shodlig-u g'amni ham totganman biroz.
To'fon bosganda ham yer yuzin, faqat
Qutulib qolardi o'rdak yoki g'oz.

Lekin ogoh etay seni bir sirdan,
Balki, tanish senga bu holning foli.
Ayt-chi, qay ahvolga tusharding, birdan
Yelkangda o'rmalab qolsa chumoli.

O, kibor tuyg'ular, ezgulik, vijdon...
Bular hayotdagi mavjud bir ishdir.
O'zingni osmonda sanama, Inson,
Seni yengadigan...
mayda tashvishdir.

1983

BOG'BON

Mashhur bog'bon
Temur aka Mirzayevga bag'ishlayman

Qashqadaryo degan so'z aytilgan chog',
Hanuz miyig'ida kulguvchilar bor.
Emishkim, u yerga noravodir bog',
To'rt tuyoq yemishin o'ylar chorvador.

Mana paydo bo'ldi Temur Mirzolar,
Turfa chechaklarni o'stirgan inson.
Ne-ne bog'bonlar ham undan dars olar,
Mana, nimalarga qodir tirik jon.

Qarshi ko'chasidan o'tsangiz magar,
Sizni kuzatadi ming-minglab charog',
Qayoqdan kelmoqda bu hid muattar!
Bu — Temur Mirzolar barpo etgan bog'.

1983

SO'NGGI URUSH

... Nahotki insoniyat o'z kashfi bilan
o'zini o'zi vayron etadi.

Javoharla'l Neru

Bir qadam qo'ysang bas — naryog'i o'lim,
Bir qadam qo'ysang bas— shaksiz halokat.
Odamzod boshida turibdi shu zum
Qazoyi muallaq, mudhish falokat.

Entikib ketadi nogoh yuragim,
Mash'um bu so'zlarni tinglaganim dam.
Bugun faqat toshlar befarqdir, balkim,
Bugun, balki, faqat bulutlar beg'am.

Asrlar so‘ngida yaralgan inson
Nahot endi o‘zin aylasa barbod.
Nahot oxiratga yuz bursa jahon,
Nahot karomatlar haq chiqsa, nahot.

Navoiy abasdir, Pushkin ham abas,
Rim yo‘q, Samarqand yo‘q,
dahshat, alhazar!
Moziydan biror nom qolarmidi, bas,
Kelajakning o‘zi bo‘lmasa magar.

O, odam, har nega topinding nechun,
Ayt, u yaradimi biror-bir korga!
Falloh manglayidan o‘q yeydi bugun,
Sig‘inib turgan chog‘ parvardigorga.

Yo‘q, bu pok dillardan yiroq malomat,
Bu — bani odamga ko‘rgilik, sho‘rish.
Bu — sho‘rlik zaminga chang solgan ofat,
Bu — do‘zax, bu — o‘lim,
bu — so‘nggi urush.

Alhazar, olamda nainki odam.
Hayotning o‘zi ham kirsa qabrga
Koinot qa’rida zamindan u dam
Nahot eshitilsa so‘nggi qasirg‘a.

Nahotki, tangri ham, iblis ham ko‘r-kar,
Osiy banda bilan ketsa jonhalak.
Ayt-chi, sobit kuching bor bo‘lsa magar,
Bizni ne murodda yaratding, falak?!

Bu bari — asrimiz kashf etgan balo,
Bu — yovuz sarmoya, ko‘r-u kar, so‘qir.
Boshimiz ustida turibdi go‘yo
Bir soch tolasiga bog‘langan shamshir.

Ummon ortidagi mitti qiz Smit
Jahon taqdiri deb jar solar bu chog'.
Hayhot, o'shal joyda qaysidir palid
Uning qismatiga qayraydi pichoq.

Munis o'zbegimning osoyish chog'in,
Kuylamoq menga ham baxtdir bazavol.
Kurashlarda o'tgan farzandlar dog'in
Unutmoqni lekin kim qilar xayol.

Har kim ona deydi mushfiq yerini,
Oh, ne g'am, onani kulfatda ko'rish.
Mayli, shoir yozsin so'nggi she'rini,
Faqat, bo'lmasa bas,
so'nggi bu urush!
1983

OFTOBSHUVOQ

Bahor kunlarida,
Oftobshuvoqda,
Hordiq olar edi ko'pincha onam.
Naykamalak balqsa
Qo'ng'irtov yoqda,
Nechog' yosharardi bu ko'hna olam.

Xastalik qiynardi onamni biroq,
U chetga termilib uh tortar edi.
Bahor yoqsa hamki olamga chiroq,
Mening yuragamda g'am ortar edi.

Men onam yonida ivirsib beun,
Kun bo'yi yurardim dilgir, betoqat.
Yiroq-yiroqlardan mungli va uzun,
Turnalar tovushin tinglardim faqat.

Shu-shu o‘nglanmadi onam rahmatlik,
Mening ham yillarim topdilar to‘zim.
Bugun onam kabi yolg‘iz, toqatlik,
Bahor quyoshiga boqaman o‘zim.

Endi meni ezar ming bitta xayol,
Ular o‘tkinchi do‘st, vafosiz yorlar.
Endi o‘zim dardkash, o‘zim jim va lol,
Endi o‘zim uchun tiyra bahorlar.

Iliq tomchilagan yomg‘ir ham goho
Tuyular onamning ko‘z yoshi bo‘lib.
Onam turganiday teppamda go‘yo
Bahorning mehribon quyoshi bo‘lib...

1984

ODAM BOLALARI

Odam bolalari turfa naqadar,
Biri mo‘min bo‘lsa, boshqasi asov,
Biriga quyuqroq salom bersang gar,
Xushomadgo‘y deydi,
nomingni darrov.

Mayliga, ataylab biror kun sen ham
Qad kerib, sipo-yu o‘ychan bo‘lib yur.
Malomat yog‘ilar boshingga shu dam,
Seni ataydilar darhol takabbur.

Yaxshisi dilingda bo‘lsin muhabbat,
Oshkor etaverma uni jo‘rttaga.
Avliyo misoli jim yurgin faqat,
Ko‘zlardan yiroq bo‘l, chiqma o‘rtaga.

1984

DIALEKTIKA

Men hayotni sobit holda ko'rmadim aslo,
Tuzilgan u agarlardan va magarlardan.
Deylik, biror firibgarga duch kelgan asno,
Iboratmi deysan hayot firibgarlardan.

Qattol urush davom etgan elning shoiri
She'r bitadi hasratga yo g'azabga to'lib.
Kimki agar biror dardning bo'lsa asiri,
Tuyuladi butun olam unga dard bo'lib.

Sevishganlar uchun esa dunyo bir jannat,
Oy-chi, nondek tuyuladi qorni ochlarga.
Butkul hayot diydasi yo'q tosh erur faqat,
Kuning qolsa deylik faqat bag'ritoshlarga.

Faylasuflar so'z ochsa gar abadiyatdan,
O'ylaysizki, har bir onim mangulikka yor.
Inson zoti ayri tushmas aslo niyatdan,
Ne tilasang shuni bergay, degan gap ham bor.

Modomiki shundoq ekan tabiat asl,
Sobit narsa qanday o'zi? Boqiylik qayon?!
Bo'larmikan bu dunyoda bir murod hosil,
Tugallikka yetisharmi biror kun jahon!

Shoir ahli kuylarmikan bitta qo'shiqni,
Bormi ekan bu dunyoda oliy, komron dam.
Quyosh bir kun chulg'armikan har to'rt ufqni,
Tug'ilarmi baxti komil, bus-butun odam?

Bu — bir xayol, chorasi yo'q armondir xolos,
Hamishalik qo'shni erur kunduz bilan tun.
Yolg'on dasti gar dunyoda bo'lolmas daroz,
Lekin haqning qo'llari ham emasdir uzun.

Chora bitta: Niyatingni ezgulikka bur,
Faqat shunda go'zal bo'lib ko'ringay falak.

Yo‘qsa hasrat og‘ushida o‘tgaydir umr,
Bamisoli o‘ra ichra qolgan kapalak...

1985

ONA DEGAN NOM...

Deydilar, qahrli bahodirlar ham
Janglarda jon berar chog‘i mardona,
Behad azoblarga chidab so‘nggi dam,
Bitta so‘z demishlar shivirlab: Ona.
Ulug‘ bir donishmand olamni sharhlab,
Axiyri tanibdi tug‘gan elini.
Zabon baxsh etganga ehtirom saqlab,
Ona, deb atabdi ilk bor tilini.
Dunyo shoirlari Vatan sha’niga
Sifat axtarmishlar qator va qator,
Nihoyat, kelmishlar bitta ma’niga:
Ona-Vatan deya bitmishlar ash’or.
Bisyor bo‘lsa agar bol ham beqadr,
Takror aytilganda rangsizdir kalom.
Bu yorug‘ olamda Vatan bittadir,
Bittadir dunyoda Ona degan nom!

1986

“MENI SAYLANG”

Ey, ahli diyonat, hangomatalab,
Mana bu nidoga quloqni shaylang.
Hamzaning davridan kelar bitta gap:
“Meni saylang. Meni saylang”.

Ularning jismi-ku, yo‘qdir ko‘p zamon,
Lekin ruhlari bor, e’tibor aylang.
Idoralar uzra yangraydi hamon:
“Meni saylang. Meni saylang”.

1986

YALANG‘OCH SATRLAR

Siz, mening yalang‘och satrlarim,
Doroning oldida Shiroq kabi,
Yoki uzoq borsa,
Laylining qoshida Majnun yanglig‘,
Yoxud muz qobig‘idagi Karbishev misol,
Siz, mening yalang‘och satrlarim...

Sizni o‘rayolmadim baxmalga,
Shamollardan sizni asrayolmadim.
Ochiq yara kabi sizilladingiz,
Turfa nazarlardan bezilladingiz.

Mening ko‘z oldimda turdingiz mudom,
Doyalarga mute chaqaloq kabi.
Yoki Chig‘atoyda ustozimdek yupun,
Siz, mening yalang‘och satrlarim...

Tarix unsiz edi, unsiz bo‘lib qolar,
Kelajak uzoqdir, tili yo‘q uning.
Bugunning oldida nechog‘ mas’ulsiz,
Siz, mening yalang‘och satrlarim...

Hali kimlarnidir maqtamoq kerak,
Hali xudochalar yasamoq kerak,
Hali payg‘ambarlar yasamoq kerak,
Hali avliyolar yasamoq kerak.

Siz hali o‘zingizni odam sanaysiz-a,
Siz, mening yalang‘och satrlarim...
Torting yuzingizga aldamchi niqob,
Yolg‘on dabdabadan chechaklar taqing.

Balki bezanursiz malikalar misol,
Balki jilmayarsiz xudochalar misol.

Hozircha dunyoda ma'sumsiz balkim:
Siz mening yalang'och satrlarim...

Boqing, qoraymoqda yer, osmon, oftob,
Farishtaman, deydi bulutlar tag'in.
Yolg'iz tentiraysiz, xoksor, beniqob,
Siz, mening yalang'och satrlarim...

1986

ISHONCH KO'PRIKLARI

Yuzdan parda ketsa,
Dildan diyonat,
Mehr rishtalari zimdan uzilsa;
Yuraklarni bossa shubha, xiyonat,
Ishonch ko'priklari buzilsa;

Yetimlar haqidan qo'rqmasa birov,
So'qmoqqa aylanib ketsalar yo'llar;
Qiblagohlar osiy, tug'ishganlar yov,
G'aznalarga cho'zilsa qo'llar;

Bolalar ruhiga hayot degan dars
Manmanlik urug'in joylasa;
Oshiqlar ko'chada ma'shuqasin emas,
Kimningdir qadamin poylasa;

Elning shoirlari g'anim zotlar kabi
Bir-birlarin g'ajib-yesalar;
Minbarlarga chiqsa ko'cha-ko'yning gapi,
Andishani qo'rqoq desalar...

Bunday yurtda endi qirg'in shart emas,
Vabo ham qochadi undan yiroqqa;
Hatto daryolari qurir basma-bas,
Hatto tuproqlari tushar titroqqa.

Xalqim, bundaylarni ko'rgansan azal,
Ko'p chekkansan ular ozorin, dog'in,
Sen yengib o'tgansan, lekin har mahal,
Xalqim, topinaman o'zingga tag'in.

1986

ADI-BADI HAQIDA RIVOYAT

Xotin bir kun eriga:
— Manov ish qandoq, — dedi.
Eri esa javoban:
— Undoqmas, bundoq, — dedi.
Xotin dedi: — Bolani
Bundoq qilib boqamiz.
Eri dedi: — Undoqmas,
Mundoq qilib boqamiz.
Xotin dedi: — Mehmonni,
Kutmoq kerak bunaqa.
Eri dedi: — Yo'q, aslo,
Mening gapim munaqa.
Xotin axir charchadi,
Hayotdan to'ydi hatto.
Bola-chaqa, mol-u mulk,
Bisotdan to'ydi hatto,
O'zimni osaman deb,
E'lon qildi so'zini...
Bunaqa osmaslar deb,
Eri osdi o'zini.

1986

QALDIRG'OCH

Deydilar, qaygadir o't ketsa, albat,
Chumchuq xas tashirmish, qaldirg'och-chi, suv.
Balki, bu chumchuqning sha'niga tuhmat,
Yong'in nimaligin, balki, bilmas u...

Sen dunyo holiga nazar sol birpas,
Nazar sol ko‘zlardan oqqan yoshlarga.
Dunyoda kulbalar yonar har nafas,
U doim muhtojdir qaldirg‘ochlarga.

1986

KO‘NGIL

Mendan ko‘ngil uz, deysan,
Qandoq qilib uzurman.
Sendan ko‘ngil uzgan chog‘,
Xazon kabi to‘zurman.
Tosh kabi yo ko‘chgayman,
Tog‘larimni aylab tark,
Qush kabi yo uchgayman,
Bog‘larimni aylab tark.
Yo dengizsiz qayiqday
Qolib ketgum uzlatda,
Karvonidan adashgan
Kimsa kabi kulfatda.
Yo o‘t tushgan daraxtday
Ich-ichimdan yongayman,
Sen bo‘lmasang, muhabbat
Ka’basidan tongayman,
Mendan ko‘ngil uz, deysan,
Qandoq qilib uzurman,
Qandoq qilib bu ko‘ngil
Imoratin buzurman.
O‘zingga ham, azizim,
Rahm etsang-chi bir qadar,
Ne bo‘lurin bilmassan,
Sendan ko‘ngil uzsam gar.
O‘ylaysanki, bir taraf
Omon qolur, sog‘ qolur.
Uzilgan ul joyda ham
Chandiq qolur, dog‘ qolur...

1986

TO‘LIN OY

Keksaygan hilolim, ey sen, to‘lin oy,
To hanuz buzursan halovatimni.
Yodimga solursan endi, hoynahoy,
Sochlari oqargan muhabbatimni.

Yillarim kechdilar yeldirim misol,
G‘unchalar bag‘riga xayolday indim.
Endi-chi, toliqib, horg‘in va behol,
G‘orlarga bekingan shamolday tindim.

Bilmadim, qaydadir yotar sarg‘ayib,
Otashin hislarim o‘ralgan daftar.
Qaysidir go‘shada bo‘lmishdir g‘oyib,
Bir zamon qo‘limdan uchgan u kaptar.

Endi visol o‘zga, o‘zgadir firoq,
To‘lin oy, o‘tinchim yodingda tutgin.
Bizning tomonlarga yo‘ling tushgan chog‘,
Mening kulbamga ham mo‘ralab o‘tgin...

1986

OTALAR ILGIDA ZAMON BILAN VAQT

Otalar sha’niga loyiq so‘z demoq
Tabarruk bir kitob yozish bilan teng.
Ularning mehri-ku; bamisli chiroq,
Bag‘ri ham yulduzli osmon kabi keng.

Sharqona tashbehni olsam gar yodga,
Bir nomi buzurgu bir nomi faqir.
Zaminni kaftida tutib, avlodga
Bus-butun yetkazgan otalar, axir.

Yuksak-yuksaklarda uchgan sor lochin
Nazar uzmagandek palaponidan.
Bardavom naslini asramoq uchun
Axir ota qavmi kechgan jonidan.

Non, degan farzandning dardli xitobi
Goh uni tiriklay chohlarga tiqqan.
Bardoshli umrning zaqqum zardobi
Sochlari qirovdek ko'pirib chiqqan.

Taxti Sulaymondan balanddir beshak
Ota deb atalgan martaba-yu baxt.
Farzand bunyod bo'ldi, o'lim yo'q demak,
Otaning ilgida zamon bilan vaqt.

Men ko'kka termilib kutmasman madad,
Do'st izlab har yonda kezmasman sarson.
Do'st-u madadkor ham otadir abad,
Shoni — shoning erur, armoni — armon.

1987

AYTISHUV

A j d o d l a r:
— Samarqand-u Buxoroni bizlar qurganmiz,
A v l o d l a r:
— Bizlar esa siz qurganni borib ko'rganmiz,
A j d o d l a r:
— Shaxmatni biz o'ylab topdik, shavqlarga to'ldik,
A v l o d l a r:
— Bizlar esa uni o'ynab chempion bo'ldik.
A j d o d l a r:
— Ipakni ham yetishtirdik qadim zamonlar.
A v l o d l a r:
— Bizlar esa u ipakdan eshdik arqonlar,

A j d o d l a r:
— Til yaratdik, yozuv tuzdik go'zal hamda boy,
A v l o d l a r:
— Biz ularga muzeylardan topib qo'ydik joy,
A j d o d l a r:
— Bizdan qoldi sho'x daryolar, ko'llar musaffo,
A v l o d l a r:
— Ularni ham quritgaymiz bir kun, inshollo...
A j d o d l a r:
— Biz poroxni xumga tiqdik kashf etgan oni
A v l o d l a r:
— Xum ustiga o'tirg'izdik bizlar dunyoni.

1987

SARHADLAR

Kimsaga baho berish ilinjida yurganlar,
Eng avval o'z-o'ziga boqishlari kerakdir.
Qadimiy bobolar ham ming o'ylab bir deganlar:
Har kimning go'ri boshqa, Azroili bo'lakdir.
Qanchalik ishing bordir hayotim bilan, ey yov,
Seni tangri teppamga posbon qilib qo'yganmi?
O'z tushim o'zimniki, goh otliqman, goh yayov,
Men yegan burda nondan sening qorning to'yganmi?
Muqaddas sarhadlar bor insonning hayotida,
Ularni bosib o'tish odamlikka yot erur.
Qancha-qancha sir yashar har kimning bisotida,
Shul sabab u INSONDIR, shu sabab u zot erur.
Kimga muhabbat qo'yib, kimga nafrat bildirmoq,
Nafas olish singari ixtiyoriy jo'n bir gap.
Afsonaviy devlar u — qo'llarida urto'qmoq,
O'tgan-ketgan bandani o'zicha yurgan tergab.
Mana bu buloq menga g'oyatda yoqib qolmish,
Mana bu shabboda ham menga g'oyat alomat.
Sening esa hushingni, deylik, dengizlar olmish,

Yo'lingdan sira qolma, joning bo'lsin salomat.
Azizim, dil qasriga beso'roq kira ko'rma,
Unda qo'sh-qo'sh ilonlar, ajdaholar yotadi.
Sen birovni toptay deb behudaga ot surma —
Har kimning o'z quyoshi o'z ufqiga botadi.
O'z uying, o'z to'shaging o'z-o'zinga buyurib,
O'z farzanding, o'z yoring bo'laversin seniki.
Xohla tingla xohlama — ketaver qanding urib,
Ixtiyor senikidir, bu she'r esa meniki.

1987

KOMETA

Chingiz Ahmarovga

Har zamon, har zamon yer yaqinidan,
Noyob kometalar o'tib qoladi.
Kimlardir ko'z uzmay nur chaqinidan,
Ularning suratin oladi.

Kimlardir payqamas, yo bo'lmas ogoh,
Ko'p borsa ta'birlar ko'rgan bir tushin.
Ular qaydan bilsin, kometalar goh,
Yuz yilda bir marta qaytib o'tishin.

Nechog'liq g'aroyib manzaradir bu:
Samoviy nur bilan yo'g'rilgan san'at.
Somon yo'llarida yugurgan ohu,
Zuhro jamolidan uzilgan tal'at!

Endi yana qachon kelar u qaytib,
Gohi yuz yil o'tar, ming yillar gohi.
Yolg'iz u o'tmishdan afsunlar aytib.
Olis kelajakning bo'lgay guvohi.

1987

XATOLARING KERAK ULARGA

Shundaylar bor, senga lutf aylab,
Do‘stman, deya qo‘lin tutarlar.
Lekin har zum qadaming poylab,
Xato qilishingni kutarlar.

Xato qilsang, ularga bayram,
Yo‘qsa, zahr-u zaqqum yutarlar.
Mayli, jindek, zarra bo‘lsa ham,
Xato qilishingni kutarlar.

Xatolaring kerak ularga,
Shox-novdangni darhol butarlar.
Tag‘in kunni ulab tunlarga,
Xato qilishingi kutarlar.

Axtarurlar hamisha illat,
Yetti pushting go‘rin titarlar.
Faqat unma, ulg‘ayma faqat,
Xato qilishingi kutarlar.

Ular senga bir umr yo‘ldosh,
Sodiq hamroh kabi o‘tarlar.
Qabring uzra egsalar ham bosh,
Xato qilishingni kutarlar.

1987

ISMALOQ

Sen — bahor ne’mati, oddiy bir ko‘kat,
Poyang arg‘uvoniy, barging yapaloq.
Quvondim, men seni ko‘rsam har fursat,
Har ko‘klam men seni kutdim, ismaloq.

Sen bir gul emassan, nozlarga to'lib,
Ilhom bera olsang injiq ijodga.
Men uchun sen najot elchisi bo'lib,
U og'ir kunlarni tushirding yodga.

Esimda, oyog'i pilikday go'dak,
Ochlikdan qoq qurib, bergan edi jon.
Bir taqa arpa ham ko'zga surtgudak,
Janglar jarohati bitmagan hamon.

Onalar chorasiz, bobolar miskin,
Diydaga yopishgan yenglar, etaklar.
O'shanda el-yurtga darmon-u taskin,
Nasiba bo'ldingiz, aziz chechaklar.

Ko'rganman, qishlog'im ko'chalarida,
Ochlikdan gezarib ketganlarni men.
Ko'rganman, uzun qish kechalarida
Sizni armon bilan kutganlarni men.

Bugun dasturxonda bezaksiz faqat,
Kimdir e'zoz etar, bepisand kimdir.
Sizning qadringizni bilguvchi har vaqt,
O'sha yo'qchilikni ko'rgan xalqimdir.

Siz — ravoch, chuchmoma,
Siz — quyonto'piq,
Yaltirbosh, ko'k beda, Siz — tuyatovon.
Sho'ra o't, yeryong'oq, qoqi, zamburug',
Sharbat bera olgan sahroyi tikan.

Aziz ne'matlarim, Sizga tashakkur,
Doimo bo'y cho'zing zamin komidan.
Men sizni ko'zimga surtayin har qur,
Shukrona aytayin hayot nomidan.

1987

FURQAT NIDOSI

Men Vatandan ketmaganman,
Ayri tushganman xolos.
Ajragandek suv kecharda
Bir nafas tandin libos.
Yurt u yonda, men bu yonda,
O'rtada hijron seli,
Anga kiprik tashlamakka
Baytlarim bo'ldi asos.
O'ksib-o'ksib yig'ladim men,
Misli til bilmas go'dak,
Onaizor ko'kragidan
Ayrilib qolgan bexos.
Men Vatanda Xolmuhammad
O'g'li Zokirjon edim,
Furqatiy deb nom qozondim,
Bunga hijron iqtibos.
So'nmagan ishq, o'lmagan qalb,
Bir uyum tuproq bo'lib,
Sarzamindan bosh ko'tardi,
Ushbuga qabrim qiyos.
Kim Vatan deb yona-yona
Kul bo'lib bitmish magar,
O't-olovni mendan olsin,
O't-olov mendan meros.
Shoiringni yod etarda, o'zbegim,
Sendan o'tinch:
Bir-biringga qil muruvvat,
Bir-biring bag'ringga bos!

1987

* * *

Yiroq bo'l hasratdan, mungdan, ko'zyoshdan,
Sha'ningga otilgan ta'nadan, toshdan.

Mag'rur tursang agar, mag'rur degaylar,
Mutelik izlarlar fe'li yovvoshdan.

Yupanch topoldingmi, dunyoga kelib,
Ustoz yo shogirddan yoki tengdoshdan.

Qashqir to'dasida qolgan bir otsan,
Tuyog'ing sinmasa basdir, bardoshdan.

Faqat muhabbatga topingil, ey qalb,
Sen mehr ko'rgaysan o'shal quyoshdan.

Axir bobolar ham demishlar qadim;
Muhabbat yaratgan dunyoni boshdan.

1987

* * *

Gar muhabbatning hayotda turfa xil bozori bor,
Oshiq ahlin lek muhabbatga yetishmay zori bor.
Uzma ko'ngil garchi hijron xor etar bir zum seni,
Gul tikansiz bo'lmagay, har bir chamanning xori bor.
Muz kabi tekkay dilingga gar jafo etsa sanam,
Yashnagay vodiy uza bilki bulutning qori bor.
Oshiq ahli ichra o'zni doimo mardona tut,
Ishqiga vosil bo'lur qayda yigitning nori bor.
Ayb emasdir gar muhabbat sha'niga aytsang qo'shiq,
Baxtlidir, kimning muhabbatga sazovor yori bor...

1987

TURG'UNBOY

Ish axtarib Turg'unboy
Necha kunki sarsondir.
Omadining teskari
Yurishidan hayrondir.

Yo‘qsa, bajo qilingan
Barcha tartib-qoida!
Hujjatlari bir talay,
Propiska joyida.

Qayga borsa keling, deb
Xushnud qarshi olishar.
Lekin suhbat so‘ngida
O‘ylanishib qolishar.

— Afsus, afsus, — deyishar,
Tag‘in biroz kutgaysiz,
Va’da bergan bo‘lsak gar
Bizni ma’zur tutgaysiz.

Ish axtarib Turg‘unboy
Necha kunki sarsondir.
Omadining teskari
Yurishidan hayrondir.

Turg‘unboyga shum taqdir
Sira shafqat qilmaydi.
Pora beray, der, ammo
Usulini bilmaydi.

Oxir dadil bostirib
Kirdi bir idoraga.
Zora endi baxt kulsa
Turg‘unboy bechoraga.

Tik turgancha boshliqqa
Shikoyatin so‘zladi.
Ko‘rgan-kechirgan barcha
Hikoyatin so‘zladi.

Dedi: — Aybim nimadir,
Bilolmayin hayronman.

Shu mushkulning chorasin
Qilolmayin hayronman.

Boshliq uzoq o‘yladi,
Hujjatlarni varaqlab.
So‘ng xazina topganday
So‘z boshladi charaqlab:

— Hujjatlar-ku joyida,
Tuppa-tuzuk jismingiz.
Faqat bir gap: bizlarga
To‘g‘ri kelmas ismingiz.

Afsus, qayta qurishning
O‘tmabsiz yo‘llarini.
Turg‘un ismi eslatar
Turg‘unlik yillarini.

Turg‘unboyning nogahon
Yorishdi o‘ksuk dili.
— Bor-yo‘q aybim shumi, — deb,
Kalomga keldi tili.

Dedi: — Nainki ismim,
Olamdan ham tonurman.
Irim bilan nom qo‘ygan
Onamdan ham tonurman.

Menga faqat ish kerak,
Kechgum daryo, soy bo‘lsin.
Ismim Turg‘unboy emas,
Mayli, Urg‘unboy bo‘lsin.

Urg‘unboyga munosib
Vazifani topdilar.
Turg‘unlikning yana bir
Sahifasin yopdilar.

Majlislarda endi u
Fursat poylab turadi.
Ur, desa bas, Urg'unboy
Duch kelganni uradi.

1987

UZLAT

Menga uzlat kerakdir,
Izdihomdan to'yganman,
To'da-to'da joylarga
Endi bormay qo'yganman.
Iztirobli turmushning
Savdosi zo'r bag'oyat,
Inja, nozik ruhni u
Yengib oldi nihoyat.
Uzlat izlab bormagan
Joyim balki qolmadi,
Hech bir go'sha kelgin deb,
Og'ushiga olmadi.
Uzlat qayda men uchun,
Balki yiroq ellarda,
Qadam yetmas tog'larda,
It yashamas cho'llarda.
U yoqlarga yo'limni
Bura olmay hayronman,
Nechuk o'ksik bandaman,
Nechuk baxtsiz insonman.
Do'st-u yordan yuragim
Ayrilar nari-nari,
Uzlatning sog'inchi bu,
Yolg'izlik dardi bari.
Qay yovuz kuch daf'atan
Soldi meni bu holga,

Nechuk uyg‘oq idrokim
Moyil bo‘ldi malolga.
Zamon-zamon bahona,
Do‘stlar yuzin burdilar,
Endi ular o‘zga yurt,
O‘zga maskan qurdilar.
Men ulardan yiroqda —
Tanho qoldim oqibat,
Hattoki, jonzotlardan
Bezgan bir darvesh sifat.
Endi men qayon borib,
Qay yo‘l bilan ketgayman.
Qayga eltib oyog‘im,
Qay uzlatga yetgayman.
Bildimki men, neki bor
Bevafodir ushbu kun,
Kechirganim — ko‘rganim
Bebaqodir ushbu kun.
Mening kabi mardud dil
Topilgaymi, bilmasman,
Giryondirman, g‘aflatni
Kiprigimga ilmasman.
Men uzlatni elimning
Yuragidan axtargum,
O‘ksuklarning eng pinhon
Tilagidan axtargum.
Darvozangni chertib men
Kelsam, jonajon ukam,
Tashrifimni qabul et,
Mehmonnavoz, ey bekam.
Yuz o‘girma, bu yo‘lchi
Na quvonch, na kulfatdir,
Uning yolg‘iz ilinji
Uzlat erur, uzlatdir...

1988

MALAK

Nechun o'g'irlading o'y-u fikrimni,
Nechun xayolimni aylading sarson.
Endi men bilmasman borar yerimni,
Endi tuyg'ularim qoldi sargardon.

Seni ko'rgandayman tushimda faqat,
Uchib o'tgandaysan misoli yulduz.
Samoviy mo'jiza, ilohiy tal'at,
Tengi yo'q bir malak, qoshlari qunduz.

Nasib etarmikan biror kun visol,
Nasib etarmikan tutmoq qo'lingni.
Va yo noshud qolgan munajjim misol,
Poylab o'tarmanmi qaytar yo'lingni...

1988

"QUL-QUL"

Men hangoma talabgori,
Ya'ni o'sha-o'shaman.
Bor gaplarning yoniga goh
Xayolotni qo'shaman.
Yana she'riy yo'l tanladim,
Yozolmadim nasrda.
Axir shitob uslub kerak
Bizning uchqur asrda.
Shu deng, zamin olimlari
Yig'ildilar bir kuni.
Va dedilar: — Tokaygacha
Bo'lamiz yer tutquni.
Ilmimizning mevalarin
Payti keldi — teraylik.
Keling, yiroq yulduzlarga
Yozma xabar beraylik.
Borligimiz bildiraylik,

Sado chiqsin bizdan sal.
Xabarimiz yetsa-yetar,
Yetmasa ham tavakkal!
Olim xalqi g'alati xalq,
Bir kelmasin junbushga.
Hamma gapni yig'ishtirib,
Kirishdilar shu ishga.
Eng avvalo yozuv uchun
Magnit taxta topishdi.
Silliq qilib tarashlashdi,
Ortiq joyin chopishdi.
Zamindagi ovozlarning
Yig'ish kerak barchasin.
Tuzish kerak o'ziga xos
Shovqin-suron kartasin.
Atay borib, dengizlarning
Guvullashin yozdilar.
Junglidagi hayvonlarning
Uvullashin yozdilar.
Qayd etdilar, yaproqlarning
Shitir-shitir sasini.
Hansiragan tulporlarning
Pishirgan nafasini.
Bahor chog'i guldurakning
Sadosini yozdilar.
Tongda yoniq bulbullarning
Navosini yozdilar.
Go'daklarning kulgusi-yu
Yig'isi ham bitildi.
Chigirtkalar chirillashi...
Bari muhr etildi.
Hech unutib bo'larmidi
Bastakorni, kuychini.
Qo'shishdilar Chaykovskiy
Hamda Mulla To'ychini.
Yer yuzida ne suron bor

Bir-bir sanab o'tishdi.
Hatto miltiq ovozin ham,
Maktubga zarb etishdi.
Xullas, ishlar bajo bo'lib,
Yig'ildilar so'nggi bor.
Xursand edi ahli ilm,
Nasib etsa — umid yor,
Kimdir dedi: — Xo'p horidik,
Charchoqni sal quvaylik.
Keling, do'stlar, qadah olib,
Shu ishni bir yuvaylik.
"Qul-qul" qilib mayi nobdan
Quyishdilar, gap tamom!
— Salom, yiroq yulduzlar! — deb
Ichishdilar, vassalom.
So'ng magnitli raketaning
Qopqog'ini yopishdi.
Oq yo'l tilab, shartta uni
Koinotga otishdi.
Yillar o'tdi mung'ayishib,
Yillar o'tdi chopishib.
Shu orada ne-ne olim
Yerga ketdi qapishib.
Manzili yo'q sayyoh maktub
Fazoni xo'b aylandi.
Oxir borib, allaqanday
Sayyoraga boylandi.
Shubha yo'qki, endi u yon
Ko'char mavzu-temamiz.
Xullas, o'sha bir yulduzga
Borib tushdi kemamiz.
Baxtni qarang, u joyning ham
Fuqarosi bor ekan.
Ilm-u urfon, ong, tafakkur
Ularga ham yor zkan.
Yetuk ekan ular g'oyat,

Ne-ne sirlar dastida.
Ajab, lekin, yashar ekan
Ular yerning ostida.
Qay birovi sayxonlikka
Chiqib qolib bir kuni.
Nogahonda topib olmish
Biz yuborgan qutini.
Vahimani ko'ring endi,
Yulduzliklar bo'lmish jam.
Axir yiroq samovotdan
Xabar kelmish chinakam!
Bu tuhfaning neligini
Ular darhol tuymishlar.
Matohimiz olasolib
Patefonga qo'ymishlar.
Biroq hech ne anglashmabdi,
Ajab, ajab, ajabo!
Na biror-bir tanish sas bor
Va na tanish bir sado.
Ha, olamda ovozlar mo'l,
Sanog'in kim bilarkan.
Shu sohada ular bizdan
Tamoman farq qilarkan.
Guvullashni anglashmabdi —
Ummonlari yo'q demak.
Uvullashni anglashmabdi —
Hayvonlari yo'q demak.
Demak ular miltiq otmas,
Tulpor minib chopmaydi.
Musiqaning o'rnini ham
Boshqa narsa qoplaydi.
Go'daklari yig'lashmaydi,
Guldiraklar bermas sas.
Bulbullarning sayrashi ham,
Ular uchun yo'q, abas.
O'zimizga qiyos qilib

Kamsitmaylik barchani.
Deylik, biz ham bilmaymiz-ku,
Insof degan narsani.
Yulduzliklar jim qolishdi,
Hafsalasi tamom pir.
Axir qancha kovlashmasin
Gap chiqmadi, baribir.
So'ngga bora aylanganda
Patefonning burovi
"Qul-qul" degan bir tovushni
Ilg'ab qoldi birovi.
To'xtang! — dedi. — Gap bu yoqda!
Tanish sado topildi.
Endi birdan tushkunlikning
Eshiklari yopildi.
Yulduz bo'ylab o'sha zahot,
Tarqaldi-ku bu xabar:
— Olamshumul yangilikdan
Qolmang, do'stlar, bexabar.
Ming-ming shukur, yolg'izmassiz,
Go'shadoshlar bor ekan.
Alla qaysi bir puchmoqda
Shishadoshlar bor ekan.
Javob yo'llash kerak endi,
Ular ham xo'b chopishdi.
O'zlarining konlaridan
Magnit taxta topishdi.
Biroq boshqa ovozlarni,
Ular chetlab o'tdilar.
Faqatgina o'zlarining
"Qul-qul"ini bitdilar,
Shu kunlarda o'sha maktub
Yelayotir biz tomon.
"Qul-qul" degan tanish sado
Kelayotir biz tomon.

1988

QUSH TILI

1

Bo‘ron, sen sham uzra guvlayverma, bas,
Arslondek o‘kirib chekaverma sas.
Shamni o‘chirmoqlik juda ham oson,
Unga yetar bitta “puf” degan nafas.

2

Fe’lini kuzatib sodda bolamning,
Tashvishin o‘ylayman chigal olamning.
Soddalik yaxshi-ku, lekin ko‘pincha
Ishi yurisharkan qitmir odamning.

3

Qushlarning tilida faqat bir oyat,
U inson uchun ham ibratdir g‘oyat.
Qushlar der: — Iloyim, qafasga tushma,
Tushgan bo‘lsang gar, chiqqil nihoyat.

4

Bir hazil to‘qidim bugun senga deb,
Chaqaloq yig‘laydi nega “inga” deb.
“Inga-inga” sining ma’nosi shulki,
Da’vo qilayotir “menga”, “menga” deb.

5

Mayliga, raqibing bo‘lsin har nima,
Hech zamon sen uning g‘amini yema.
Unga har baloni ravo ko‘rsang ham,
Tilingni sug‘irib olaman dema.

6

Nazar sol hattoki yetti qat yerga,
Qiyos topilgaydir o‘tgan umrga:
Oltinga aylangan yaxshilar xoki,
Yomonniki esa qora ko‘mirga.

7

Bir dono bazmining guvohi bo‘ldim,
Shodumon davrada o‘ynadim, kuldim.
Bazmining boisin so‘rasam, dedi:
— Bugun men nodondan qochib qutuldim.

8

Abdulla Qodiriyga

Azaliy haq gapni yashirmoq nechun
Zavol yo‘q eng asl iste’dod uchun.
Agarda koinot tegirmon bo‘lib,
Olamni yanchsa ham, qolgay u butun.

9

Eski alifboni dilga qilsang jo,
Mana bu hikmatni unutma aslo:
Egri niyati-yu yuvuqsiz qo‘lni
Sira yoqtirmaydi o‘sha alifbo.

10

Xalqim deb yugurar hovuchlab jonin,
Xalqiga bag‘ishlar shuhratin-shonin.
Lekin shu chopishda keta-ketguncha,
Tozalab boradi xalqning hamyonin.

1988

TOQAT

Bozordan tutaqib qaytar uyga chol,
Go'sht qayda? Yog' qani? Va'da so'zdami?
Kampiri xo'rsinib yupatar darhol:
— O'kinmang, taqchillik faqat bizdami?!

Yonboshlab gazeta varaqlaydi chol,
To'polon chiqibdi zavod, Vuzdami.
Kampiri yupatar surgancha xayol:
— O'ylamang, janjal ham faqat bizdami?!

Oqshom televizor ko'rayotib chol
Birdan sapchib tushar. Esi o'zdami?
— Davlatga tosh otdi kimdir bemalol.
Kampiri yupatar: faqat bizdami?!

Toqatim toq bo'ldi, deydi endi chol,
Toqat yurakdami? Toqat ko'zdami?
Kampiri yer chizib shivirlar behol:
Chidang-da, toqat ham faqat bizdami?!

1988

RENTGENCHI DO'STIMGA

Sizga talpinadi bor bemor zoti,
Ayoli, erkagi, keksa, yoshi bor.
Aytib berolasiz o'sha zahoti
Kimning buyragida, deylik, toshi bor.

Sizning kasbingiz ham aslida ijod,
Siz hatto zarursiz bizning Soyuzga,
Qaysi bir shoirda bordir iste'dod? —
Aniqlab bersangiz qaniydi bizga.

1988

* * *

Boqar u zamonning oqishiga deb,
Orttirmang boshimga malomatlarni.
Uning bir ishvali boqishiga deb
Qurbon qilajakman siyosatlarni.

O'ylamang, saroylar qoshida mustar
Yuribman erta-kech bag'rimni dog'lab.
Uning qadamiga, kerak bo'lsa, gar,
Keltirgum shohlarni bir ipga bog'lab.

1988

E'TIQOD

(Shu kunning rivoyati)

"Mahshar yaqin qoldi,
Qiyomat yaqin,
Ota bilan o'g'il bir-biriga yov.
Samovot boshida chaqsa ham chaqin,
Hech kimsa hayiqmas, qo'rqmaydi birov.

Og'izda bol kabi turgan bu til ham
Zaharga aylangan, nishga aylangan.
Dilbarlar chashmini kuylagan qalam
Ko'zlarni o'yishga endi shaylangan.

O'g'lim libosimni burdalab ketgan,
Tavba, deb ushlashga qolmagan yoqa.
Malomat pichog'i suyakka yetgan,
Qalqonlar teshilgan, otlar betaqa".

O't bosgan qabrning tepasida chol
G'arq bo'lib turardi shundoq o'ylarga.
Dam-badam o'tmishga eltardi xayol,
Eltardi kurashlar, aza, to'ylarga.

Qabrdan bir ovoz chiqdi-ku, shu chog‘,
Hazin va g‘azabnok, dardli, shiddatkor:
“Mahshar yaqin emas, qiyomat uzoq,
Hamma balolarga o‘zingsan aybdor.

O‘g‘lingga topilgay qilich-u qalqon,
Taqalab bergaysan bir kun otini.
Lekin ishni buzgan sen o‘zing, nodon,
Toptading davrlar e’tiqodini.

Uchib ketayotib hatto qaldirg‘och
Borar manzilini fahm etar beshak.
Sizlar-chi, bir kun to‘q, bir kun yupun, och,
Tashvishingiz yo‘qdir vujuddan bo‘lak”.

Tindi iztirobli qabrning sasi,
Nima bu? Ro‘yomi?
Vasvasmi? Gumon?
Chol endi, ichiga tushib nafasi
Ketdi, uyigamas, raykomga tomon.
1988

BEGONALIK

Yoy o‘qi kamondan qochadi yiroq.
Tog‘lardan qochadi daryo va buloq.

Bulutlar bag‘ridan qochadi yomg‘ir,
Sukunatdan qochib shamollar sang‘ir.

Nafis chechaklarning xushbo‘y atri ham
G‘unchalar qo‘ynidan qochar damodam.

Gar to‘lqin bo‘shliqqa quchog‘in ochar,
Vahshiy qoyalarga bosh urib qochar.

Burgut panjasini yerdan uzgan on,
Tovushqon qochadi butazor tomon.

Ogoh bo'lsang agar olam siridan
Dunyolar ham qochar biri biridan.

Shu taxlit yashaydi buyuk koinot,
Manzlin topolmas idroksiz hayot.

Biroq yiroq tushsa insondan inson,
Bu holning sharhiga ne deysan, ey jon!

Ona farzandiga quchog'in ochsa,
Farzand-chi, onadan ming farsah qochsa.

Qochsa bir-biridan o'g'il ham padar,
Yodini unutgan telbalar qadar.

Do'stlar bir-biridan qochsalar zimdan,
Bosh olib ketgudek shahri azimdan.

Birlashsa yovuzlik, turfa illatlar,
Qochsa bir-biridan ellar, millatlar.

Qovushmasa insof, ezgulik, sabot,
Men buning sababin bilmasman, hayhot!

Tafakkur basharga garchi yalovdir,
Nechuk odam qavmi odamga yovdir.

Javob berar bunga na yer, na osmon,
Na Budda, na Zardusht, na Injil, Qur'on.

Endi bandalarga o'zing qil shafqat,
Ey oliy joziba — Sirli Muhabbat!

1989

SHOSHMASLIK HAQIDA BALLADA

Zaminga shoshmasdan qadam qo‘y, bo‘tam,
Shoshmasdan aylanar yerning o‘zi ham.

Shoshmasdan nazar sol cheksiz samoga,
Shoshmay quloq tutgil kuyga, navoga.

Mozorlar yonidan shoshmasdan o‘tgin,
Yorni kutar bo‘lsang, shoshmasdan kutgin.

Gullarni uzishga shoshilma biroz,
Ko‘rgil, g‘unchalar ham shoshmay qilar noz.

Avlod-ajdoding kim? Shoshmay fikr qil,
Shoshmay so‘z degil-u shoshmay zikr qil.

Shoshqin daryoman deb vaqt-bevaqt toshma,
Ummon bo‘lmoqlikka ayniqsa shoshma.

Hukm chiqarmoqqa shoshilmasang bas,
Shoshganda birdekdir kas bilan nokas.

Do‘st izlab har qayda shoshilma, qo‘zim,
Barchani do‘st atab shoshgan men o‘zim...

Shoshmagin g‘animdan olay deb qasos,
Shoshmaslikning o‘zi zo‘r tiyg‘i olmos.

Axir, bobolar ham shoshmay deganlar:
Humoyun ovlaydi shoshmas merganlar.

Afsus, umr o‘zi shoshar doimo,
Shul sabab nomini derlar: bevafo!

Biroq shunday hol bor, shunday fursat bor,
U fursat dastingdan ketsin ixtiyor.

U fursat belingni daf'atan bog'la,
O'zingni tirnoqli sher kabi chog'la.

Unut gullarni ham, bulbullarni ham.
Ulfat-u shaydoyi ko'ngillarni ham.

Oting egarlangan, chaqmoq singari,
Shay bo'lgin u mahal, boqqil ilgari.

Eling madad so'rab ingragani on,
Shoshilgin o'sha payt, shoshilgin, o'g'lon!

1989

ELIM DEB YONGAYDIR
SOHIB JUR'ATLAR

To'yni ortga surdi qay kun xotining,
Dedi: — Kuyov tomon sabr etib tursin.
Sababi nimadir — sezar botining,
Yo'qchilik yomondir, yo'qchilik qursin.

O'g'il ulg'aymoqda, tor kelmish boshmoq,
Yangisin olishga imkon yo'q biroq.
Deysan: Maoshgacha chidagin, o'rtoq,
Yo'qchilik yomondir, yo'qchilik qursin.

Gap-gashtak xos qadim qishloq, shaharga,
Ulfatlar yig'ilar norin osharga.
Navbating kelganda qochding safarga,
Yo'qchilik yomondir, yo'qchilik qursin.

Noming gar olamni qo'yar gangitib,
O'zini bilganni holin tang etib.
Kabobpaz yo'lingni o'tdi changitib,
Yo'qchilik yomondir, yo'qchilik qursin.

Qo'shning cho'ntagida yo'qdir hech vaqo,
Uy quraman deydi, sir bermay ammo.
Suvrati podsho-yu, siyrati gado,
Yo'qchilik yomondir, yo'qchilik qursin.

Hatto Ka'bada ham ko'rganman bir bor,
Boyga choy tashirdi mashhur san'atkor.
Rabbim, bunday kundan asragin zinhor,
Yo'qchilik yomondir, yo'qchilik qursin.

Boshiga tushsa gar mushkul fursatlar,
Elim deb yongaydir sohib jur'atlar.
Bir-birin qo'llagay hatto davlatlar,
Yo'qchilik yomondir, yo'qchilik qursin.

Toleda borini sen ham ko'rgaysan,
Bir kun to'qchilikka yuzni burgaysan.
O'shanda she'rimni eslab yurgaysan,
Yo'qchilik yomondir, yo'qchilik qursin.

1990

OXIRAT

Nimadandir g'ashdir ko'ngillar,
Tikanakka burkanmish gullar.
Bog'ga nogoh adashib kirsang,
G'azab bilan sayrar bulbullar.

Qonga to'lmish Mirrixning ko'zi,
Ummonlarning sachraydi tuzi.
Allaqachon bol tommas tildan,
Shoirlarning zaqqumdir so'zi.

Yo'lga boqsang ko'ringaydir jar,
Go'daklarning tushida ajdar.
Tuni bo'yi yigitlar bedor,
Yostiqlarin tagida xanjar.

Bilib bo'lmas — kimda bor imkon,
Olag'ovur mahshardir zamon.
Ne qilarin bilmay hayratda
Dengiz kabi qalqir olomon.

Xabar bordir na do'st, na yordan,
Na do'st-u yor, balki, diyordan.
Yolg'iz Hazrat mehrob qoshida
Madad tilar parvardigordan.

1990

BAXTSIZ FARISHTA

Ma'sum farishtalar — go'daklar bari
Bulutlar ustida uchib yuribdi.
Jannatning hayotbaxsh shabbodalari
Parquv qanotlarin yelpib turibdi.
Kunlari kechardi baxtli va shodon,
Abadiy rohatga barchasi noil.
Faqat bir farishta yashardi nolon,
Faqat bir farishta qayg'uga moyil.
Sira yozilmasdi ko'ngil chigili,
Munglig' ko'zlarida dunyoviy alam.
Taskin berolmasdi behishtning guli,
Taftin bosolmasdi kavsar suvi ham.
Bir kun so'radilar: — Ma'yussan nechun?
Axir sen — begunoh, sen yaxlit savob!
Bolakay farishta uh tortdi uzun,
So'ng sekin shivirlab, ayladi javob:
— Meni ota-onam ketgandi tashlab,
Do'zaxda yonmoqda ular beomon.
Shul sabab g'amginman, ko'zimni yoshlab,
Ularga tilayman shafqat va imon.

1990

YULDUZ QAZOSI

Qazo qildi ko'kda bir yulduz,
Koinotda aza ochildi.
Uzoq-yaqin dunyolarning o'z —
Ta'ziya toshlari sochildi.

Qora kiydi bir nafas quyosh,
Mung'aygancha Oy qaltiradi.
Zuhra yulduz berolmay bardosh
Ko'zlarida yosh yaltiradi.

Ular kimga dillarin yorar,
Cheksiz zulmat o'ng-u so'lida.
Tobutni jim ko'tarib borar
G'uj bo'lgancha Somon yo'lida...

1990

IBLIS

Obro' kerak bo'lar iblislarga ham,
Ularga ham dovruq, shon-shuhrat darkor.
Bir kuni osmondan Iblisi Olam
Yerga tushmoqlikni qildi ixtiyor.
Go'zal liboslarni tanladi rosa,
Ko'rgan-bilganlarin yig'di ko'pisin,
Avval o'zbeklardan oldi andoza,
Ya'ni kiyib oldi to'n va do'ppisin.
Boshdan bozorlarga kirdi u atay,
Turfa jamoaga kelay deb to'qnash.
Boqsa — har kallada do'ppi o'shanday,
Kiygan to'nlari ham bir xilda, o'xshash,
Qaytib ketdi Iblis falakka dilgir,
O'zin oqlamadi do'ppi-yu chopon.
E'tibor qilmadi hech kimsa axir,
Qayrilib boqmadi hech bitta inson.

Iblis boshqa firib qo'lladi endi,
Tanladi Kavkazning popoq bo'rkini,
Kelib cho'ponlarning yoniga qo'ndi,
Ko'z-ko'z qilganicha qomat, ko'rkini.
Cho'ponlar Iblisni oldi o'rtaga,
Dedilar: — Millating nadir, ey qo'noq.
Aslingni yashirsang agar jo'rttaga,
O'zingdan ko'rgaysan, bilib qo'y, biroq.
Iblis shosha-pisha uchdi osmonga,
Gangib qolgan edi sho'rlikning boshi.
Nazar soldi obdan barcha tomonga,
Dedi: hindularning bo'lay yo'ldoshi!
Belida lungi-yu oyoqda sandal,
Hindu tuprog'iga Iblis qo'ndi jim.
Kimlardir beparvo, kimlardir tanbal,
Izzat ko'rsatmadi xullaski hech kim.
Iblis qarg'ay ketdi kasbi korini,
Axir bu xo'rlikka bormi nihoya.
Kimdir eshitganday oh-u zorini,
Boshiga yarq etib keldi bir g'oya.
Bejirim shlapa kiydi u darhol.
Serjun gardaniga ildi bo'yinbog',
Kamzul-u shimiga yurgizdi dazmol,
Zarhal ko'zoynakdan ko'ngli edi tog'.
Duch kelgan manzilga sho'ng'idi endi,
Vo ajab! Bu ne hol! Bu ne karomat?
Uni ko'rgan zahot shovqinlar tindi,
Yurishib ketdi-ku ishlar alomat.
Iblisni rahbar deb qarshi oldilar.
Balki siyladilar undan ham ortiq,
Poyiga ipakdan palak soldilar,
So'ng yuksak bir taxtni etdilar tortiq.
Hindi-yu o'zbek, rus, bulg'or-u kavkaz,
Barchasi salomga keldi daf'atan.
Iblis jami xalqqa go'yo beg'araz,
Bepoyon zaminni ayladi Vatan.

Hukm-u farmonini yurgizar pinhon,
Qosh-u qabog‘iga keksa-yosh qarar.
Ezgulik g‘aflatda qolgani zamon,
Odamlar hayotin Iblis boshqarar.

1990

OYISINING JAMG‘ARMASI

Ishchi yigit maosh poylab
Turar edi navbatda,
Bu birinchi moyanasi,
Zavqi ham zo‘r, albatta.

Barmoqlarin bukib-bukib,
Rejalarin tuzardi.
Ko‘z oldida alvon-alvon
Orzulari suzardi.

Oyisiga g‘ijim ro‘mol,
Qaylig‘iga isirg‘a.
Peshayvonga bitta ilgich, —
Kiyim-piyim osurg‘a.

Eh, orzuning cheki bormi,
Sanab yetmas baxshiyam.
Kassir ayol: “— Hoy, ovsar”, — deb
Chorlab qoldi yaxshiyam.

Bo‘ydoqmisan, deya zimdan
Kulimsirab turibdi,
Tug‘ilmagan bola uchun
Maoshidan uribdi.

Mayli, dedi, yigit quvnoq,
Savobi ko‘p olamning,
Jo‘jabirday farzandi bor
Axir katta xolamning.

Yigit yana oylik haqin
Sanab ko‘rar bir boshdan,
Kasabalar uyushmasi
Chegiribdi maoshdan.

Xo‘p ajoyib bir hodisa
Yuz berdi deng o‘sha on,
Allaqanday to‘da uni
Qurshab oldi nogahon.

Jazavaga tushib ular
Ayamasdi o‘zini.
Va, nihoyat chechanrog‘i
Boshlab qoldi so‘zini:

— Madaniyat fondidanman,
Uka, bizni bir qo‘lla.
Viloyatda rahbarimiz
O‘sha, shoir Abdulla.

— Ma, ol, deya so‘lkavoyni
Cho‘zdi yigit shoshmasdan,
Madaniyat rivojlansin,
Tushunaman, yoshmasman.

O‘sha zahot boshqa biri
Qo‘lga oldi shitobni,
— Yaxshi yigit, nazarimda,
Xush ko‘rasan kitobni.

Ha, kitobdan ko‘chirasan,
Maktub yozsang qizlarga.
Modomiki, shundoq ekan,
Aqchani cho‘z bizlarga.

Bayon etdi kimdir shu on
G‘oyat mungli bir holni:

— Ukajonim, asrash kerak,
O‘layotgan Orolni.

Ishchi yigit ko‘zlarida
Miltiraydi sho‘rtang yosh.
Dedi: — Madad bo‘la qolsin
Bitta emas, o‘n maosh.

Unga cho‘zdi, bunga cho‘zdi,
Hamyon ozdi ozgancha.
Yaqin keldi tag‘in biri
Qulochini yozgancha:

— Navoiyni bilasan-a,
Xalqqa ma’lum har ishi,
Shu kunlarda sal yordamga
Muhtojdirlar u kishi.

— Hazratimning qalam haqqin,
Ayting, kimlar oladi?
— Ulushlari Davlat degan
Tog‘asiga qoladi.

Ixtirochi bolalar-u
Baliqchilar keldilar.
Yana qancha nomi mavhum
Soliqchilar keldilar.

Yigit g‘oyat mamnun edi,
Ko‘tarinki kayfiyat,
Cho‘ntagida o‘n besh tiyin
Ortib qolmish, xayriyat.

O‘z-o‘zini yupatdi u,
O‘kinmadi armonda.
Olay desa, baribir ham,
Hech vaqo yo‘q do‘konda.

Oyisiga kelib dedi:
— Xoh yuting, xoh yutqazing,
O'n besh tiyin maosh oldim,
Fondingizga o'tkazing.

1990

SABABLARI QIDIRILMOQDA

Odamlar och,
Kolbasa lekin
Kuchuklarga yedirilmoqda.
Sharh etamiz bu holni sekin:
Sabablari qidirilmoqda.
O'ldirmoqda aka-ukani,
Oilalar yemirilmoqda.
Sababini kim aytar, qani?
Sabablari qidirilmoqda.
Samolyotni opqochdi birov,
Norozilik bildirilmoqda.
Javobimiz tayyordir darrov:
Sabablari qidirilmoqda.
Yer yuzidan katta bir davlat
Shitob bilan sidirilmoqda.
Biz-chi majlis qilamiz faqat:
Sabablari qidirilmoqda.

1990

OQAR DARYO

Ming yillar qa'ridan kelar karvoning,
Chorlar ushalmagan orzu-armoning.
Jahonda yagona O'zbekistonsan,
Ma'rifat, iste'dod bo'lg'ay sarboning.

Oqar daryolaring hayqirib oqsin,
O'chgan mash'allarni mardlaring yoqsin.
Do'stga do'st, bag'ri keng yashnagan diyor,
Senga ham to abad tangri bo'lsin yor!

Uyg'onish yellari esmoqda takror,
Tabarruk ajdodlar ruhi senga yor,
Ulug' daholari paydo bo'lgan chog'
Olamni o'ziga qaratgan diyor!

Oqar daryolaring hayqirib oqsin,
O'chgan mash'allarni mardlaring yoqsin.
Do'stga do'st, bag'ri keng yashnagan diyor,
Senga ham to abad tangri bo'lsin yor!

Bu zamin kengga keng, torlargadir tor,
Ko'klarga uchgudek qanotlaring bor.
Inon o'z kuchingga, jon O'zbekiston!
Parvozing hur bo'lg'ay, erking barqaror.

Oqar daryolaring hayqirib oqsin,
O'chgan mash'allarni mardlaring yoqsin.
Do'stga do'st, bag'ri keng yashnagan diyor,
Senga ham to abad tangri bo'lsin yor!

1991-yil yanvar —
1992-yil dekabr

DUNYONING YO'RIG'I

Dunyoning g'alati yo'rig'iga boq,
Kimga aysh tashna-yu kimga dor mushtoq.
Lekin hammasidan ma'no bittadir:
Qurbon oldin ketar, jallod keyinroq.

1991

* * *

O‘kinma, ona yurt, o‘kinma xalqim,
Desalar, dilingda zorlaring bordir.

Aslida, qo‘yningga sirg‘alib kirib,
Zaharlar sochguvchi morlaring bordir.

O‘tgan yo‘llaringga tashlasam nazar,
Qayrilmas qanotli sorlaring bordir.

Senga shum g‘animlar qazmasinlar choh,
Yov kelsa atagan dorlaring bordir.

Bugun yolg‘izman deb boshingni egma,
Tegrangda do‘st ila yorlaring bordir.

Balli, istiqbolga ko‘zni tikibsan,
Axir haqqa muhtoj xorlaring bordir.

Oqqan daryolaring qaytadan oqsin,
Hali erimagan qorlaring bordir.

Sen san’at o‘lkasi, she’r diyorisan,
Qancha chertilmagan torlaring bordir.

Uyg‘onish zamoning muborak bo‘lsin,
Azaliy shiddating, orlaring bordir.

Men mitti o‘g‘lingman, lekin yukingni
Ko‘tarib o‘tguvchi norlaring bordir.

1991

ADOLAT OFTOBI

Adolatning hayotbaxsh shamollari yeldimi,
Haq nihoyat xalqimning arzin qabul qildimi,
Necha yillar orziqib kutgan kunlar keldimi,
Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo'lsin.
O'zbekning o'z niholin ekkanligi rost bo'lsin.

O'tdi qancha taloto'p,
o'tdi qancha g'avg'olar,
O'tdi qancha malomat, g'iybat-u kin, ig'volar,
Oqartirdi sochlarni necha qora savdolar,
Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo'lsin,
O'zbekning o'z niholin ekkanligi rost bo'lsin.

Safga tizil, nabiram, otajonim, tur endi,
Mustaqillik nash'asin, haqqing bordir, sur endi,
Qo'lni berib qo'llarga,
bir tan bo'lib yur endi,
Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo'lsin,
O'zbekning o'z niholin ekkanligi rost bo'lsin.

Unutmagin va lekin oldda bor hali yotlar,
Qadamingni poylaydi ochko'z, yuho ne zotlar,
Shoh suribsan, injima,
g'ingshisa agar motlar,
Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo'lsin,
O'zbekning o'z niholin ekkanligi rost bo'lsin.

O'z qo'lingga olganing — yalov senga muborak,
Yuragingda so'nmagan — olov senga muborak,
Yondirolding qorlarni — qalov senga muborak,
Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo'lsin,
O'zbekning o'z niholin ekkanligi rost bo'lsin.

1991

FOJIA

Baxtlidir, o‘z davrin zavolin ko‘rmay
Yo‘qlikka ravona bo‘lolgan inson.
Baxtlidir, yanglishib ekkanin o‘rmay,
Shudgorin qaytadan boshlagan dehqon.

Mo‘ysafid jangchiga qarayman g‘amgin,
Ko‘ksida nishon-u ko‘cha-ko‘yda xor.
Unga na o‘tmishi berolgay taskin,
Va na kelajakdan zarra umid bor.

Nahot o‘tgan umr butkul havoyi,
Nahot ko‘rganlarin barchasi sarob.
Nahot yetmish to‘rt yil sig‘ingan joyi
Manfur manzil bo‘lsa, jirkanch va xarob.

Avliyo degani — yovuz jodugar,
Dohiy deganlari — kallakesar zot.
Nabirang o‘zingga tutsa og‘u gar,
Dardingni kimga ham degaysan, hayhot!

Shahid ketmasmidi o‘sha jang chog‘i
Fidoyi bir askar nomini olib.
Bugun na qalqon bor, na bor yarog‘i,
Mag‘lubdan sadaqa so‘raydi g‘olib.

Olamda fojia ko‘p erur, biroq,
Bunisin alami haddan ziyoda,
Oh, nechog‘ dahshatdir,
tirik turgan chog‘
Umring oyoqosti bo‘lsa dunyoda...

1991

HAJ DAFTARI

(Turkum)

KA'BATULLOH

Hanuz biri ikki bo'lmagan eldan
Keldim, najot izlab, yo Ka'batulloh.
Bag'ri xun, toleyi kulmagan eldan
Keldim, najot izlab, yo Ka'batulloh.

Bir zamon uning ham bo'lgan qudrati,
Dunyoni yoritgan zehni, fikrati.
Hatto qirg'oqlarni buzgan shiddati,
Keldim, najot izlab, yo Ka'batulloh.

Tegirmon toshidek aylandi taqdir,
Karvonlar to'zg'idi, sarbonlar basir.
Bandi bo'lgan edi ulug' yurt, axir,
Keldim, najot izlab, yo Ka'batulloh.

Avj oldi ig'vo-yu firib, razolat,
Yig'ladi bir chetda yetim adolat.
Bormi saodatga, axir, kafolat,
Keldim, najot izlab, yo Ka'batulloh.

Duch kelgan sanamga sig'indik gohi,
Bizga keng ochildi Shayton dargohi.
Axir, nima edi elning gunohi,
Keldim, najot izlab, yo Ka'batulloh.

Xor bo'ldi Vatanda kimki ilmi bor,
Birovlar zar bilan topdi e'tibor.
Hiylagar ko'paydi, ko'paydi makkor,
Keldim, najot izlab,
yo Ka'batulloh.

Magar bo‘ri ekan odamga odam,
Bir-birin boshini yegay damodam,
Insof, diyonatni unutdik biz ham
Keldim, najot izlab, yo Ka’batulloh.

Hargiz aynimasin tomirdagi qon,
Mudom ta’zim qilgay asli qul Inson.
Haqiqat yo‘q joyda yashnagay yolg‘on,
Keldim, najot izlab, yo Ka’batulloh.

Qay zamon odamlar bad fe’lin sezdim,
Vafoli do‘st izlab dunyoni kezdim.
Topmadim, topmadim, baridan bezdim,
Keldim, najot izlab, yo Ka’batulloh.

Qoshingda tiz cho‘kib turibman shu dam,
Dilimda iltijo, qo‘limda qalam.
Shafqating ayama mendan ham, Egam,
Keldim, najot izlab, yo Ka’batulloh.

Shukrona ayturman o‘zingga, yo Rabb,
Yuz burdik hidoyat yo‘liga qarab.
Haq degan yurtimning baxtini so‘rab
Keldim, najot izlab, yo Ka’batulloh.

PAYG‘AMBAR

Siz bashar farzandi, Abdulloh o‘g‘li,
Arab sahrosidek otashin, cho‘g‘li,
Payg‘ambar bo‘ldingiz, muzaffar tug‘li,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Yo, Alloh Rasuli, tengi yo‘q Inson,
Sizning yo‘lingizni yoritgay Qur’on,
Siz — olam sarvari, Siz — nuri jahon,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Qiyomat ayyomi, Mahshar ayyomi,
Sizga nasib etsin Mahmud maqomi.
Mudom tilingizda ummatlar nomi,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Siz bilan olishdi mushriklar avval,
Bir nafas tinmadi jang ila jadal,
Rabbano qo‘lladi Sizni har mahal,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Sizning murodingiz hidoyat erur,
Sho‘rlik bandalarga inoyat erur,
Sizga ummat bo‘lmoq saodat erur,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Sizning ziyoratga kelmishdir jahon,
Siz bois Madina tun-kun charog‘on,
Quyosh ketmas bundan, oy boqar shodon,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Qabringiz qoshida turfa ummatlar,
Suratlar boshqa-yu o'zga siyratlar,
Axir, xos Insonga alvon sifatlar,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Bir yonda iymoni butunlar turar,
Bir yonda takabbur, manmanlar yurar,
Bari ham Allohdan kushoyish so'rar,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Rahmdil insonsiz, bag'ri keng Rasul,
Barchaga yaxshilik tilaysiz nuqul,
Lekin kufr bilan kimlardir mashg'ul,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Kimdir pok bo'lgali ichadi qasam,
Lekin ichi qora, Shaytonga hamdam,
Ular Sizga faqat orttiradi g'am,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Hazrat, so'rang bizning gunohimizni,
Boshlang to'g'ri yo'lga gumrohimizni.
Egamga yetkazing oh-vohimizni,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Dunyoda yaxshilar ko'p hali, shukur,
Ular bor, yog'ilar zamin uzra nur.
Ummatsiz yo'q Sizga halovat, huzur,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Keldim ziyoratga, ozurda jonman,
Ranj-u balolardan to'ygan Insonman.
Sizning poyingizda gardman, to'zonman,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Haq deb nina bilan tog'larni qazdim,
Bandaman, rost yo'ldan gohida ozdim.
Tavbamning izhori, shu she'rni yozdim,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

TILANCHI BOLA

Ka'baning muqaddas namozgohida
Ming-minglab mo'minlar
yukinmoqqa shay.
Saflar orasida gohi gohida
Ko'rinib qoladi bitta bolakay.

Kimdir uzatardi sadaqa — riyol,
Biroq ehsonga u qilmasdi ruju.
Qop-qora ko'zida cheksiz mung,
xayol,
Lablarida esa hazin, nim kulgu.

Jim boqar, ishlari go'yo sarishta,
Faqat nigohida o'tinch porlardi.
Mening nazarimda u bir farishta,
Mehr-u saxovatga unsiz chorlardi.

ALLOH DARGOHI

Necha ming musulmon tun-u kun uyg'oq,
Ka'ba atrofini tinmay aylanar,
Murodi — tabarruk maskanni o'pmoq,
Sajdaga har biri har zum shaylanar.

Olam ummon bo'lsa, girdobi shu joy,
Olam osmon bo'lsa, mehvari bunda.
Milyard martabali jahon hoynahoy
Kemadek qalqadi bitta to'lqinda.

Yer bo'ylab tariqday sochilgan inson,
Bir qushning oldiga kelib tizilmish.
Abasdir bu joyda millat, irq, lison,
Zamin yo'riqlari bunda buzilmish.

Bu joyning bor erur na Qorabog'i,
Na O'zgan, na O'sh-u Farg'onasi bor.
Allohning o'zidir yolg'iz charog'i,
Charog'ning hisobsiz parvonasi bor.

Hatto nafrat mushti bunda tugilgay,
Axir yagonadir bu yerda maqsad.
Sig'insang, gunohing duv-duv to'kilgay,
Imonsiz bandaga yo'q lekin shafqat.

Shunchalar mukammal Alloh dargohi,
Mag'firat qil, deya dilni tig'ladim.
Har yondan taralar mo'minlar ohi,
To tongga qadarli yum-yum yig'ladim.

HASRAT

Qochgan ham, quvgan ham Allohim deydi
Qochgan ham,
quvgan ham emasman, do‘stim.
Mening iztirobim shul Inson edi,
Insondan o‘zgani demasman do‘stim.

Insonki to hanuz vahshiy va g‘addor,
Bir-birin tinimsiz qulatar chohga.
Bundayin qismatga ko‘nikmoq dushvor
Netay, hasratimni aytgum Allohga.

ONA

Ka'ba qopqasida turgan, ey posbon,
Avval onalarning ochgin yo'llarin.
Onalar poyiga tiz cho'k o'shal on,
Tavof qil, ko'zga surt, o'pgin qo'llarin.

Hojar onamizning nidosi sabab
Ka'bada ko'z ochgan obi zam-zam ham.
Bir umr talpinmish onaga qarab,
Ne-ne payg'ambarlar, ko'zlarida nam.

Qavmimni ranjitib qo'ymayin, ammo
Tobut yasab kelgan er zoti doim.
Onalar bag'riga faqat beshik jo,
Hayotbaxsh allalar aytgan, muloyim.

Sho'rlik odamzodning toleyi uchun
Eng avval onalar qilsin ibodat.
Zora, gunohlardan pok bo'lgay ochun,
Onalar o'tinchi topib ijobat.

Ka'ba qopqasida turgan, ey posbon,
Avval onalarning ochgin yo'llarin.
Onalar poyiga tiz cho'k o'shal on,
Tavof qil, ko'zga surt, o'pgin qo'llarin.

AROFAT

Arofat tog'ining etaklarida
Ko'rdim qiyomatning alomatlarin.
Hamma bir xil libos — ehrom sarida,
Qaytadan varaqlar umr daftarin.

Yo'qdir birov bilan birovning ishi,
Ayqash-uyqash bo'lmish yer bilan osmon.
Har kimning ichida dardi, tashvishi,
Shukrona aytmasang osiysan shu on.

Majruh boladan to munkillagan chol,
Labbay, Allohim, deb qilar iltijo.
Kimdir tashnalikdan ingraydi behol,
Kimningdir hayoti shul yerda ado.

Namoz vaqti kelar, tumonat muslim
Sajdaga egilar, ko'zda jiqqa yosh.
Men ham safim bilan tiz cho'kaman jim,
Balki men ham qayta ko'tarmasman bosh...

Qiyomat nima deb so'rama endi,
Uning bir sahnasin ko'rsatdi Alloh.
Zo'r dengiz tonggacha qaynadi, tindi,
Sinovdan o'tganim rost bo'lsin, valloh!

HAYOT HAQIQATI

Umrning yarmini o'tdik amallab,
Qolgan yarmiga ham podshodir xudo.
Faqat ayriliqdan asragin, yo Rabb
Do'st-u yoronlardan qilmagin judo.

G'animlar makrini o'ylasang agar
Dunyodan yashamay ketgan yaxshiroq.
Ba'zan dil uyingni aylar munavvar
Yetti yot begona yoqqan bir chiroq.

Muhtoj bo'lganingda silaydi boshing
O'zi muhtoj bo'lgan tanti mardumlar.
O'lim tilaganda tirik safdoshing,
Hayotga qaytarar seni marhumlar.

HOJILAR

Halollik Islomda eng oliy matlab,
To'g'rilik Muslimning asl gultoji.
Bir kuni o'rtada Shayton oralab,
Hojining hamyonin urdi-ku hoji.

Qaysi bir o'lkadan kelgan keksa chol,
Bor-yo'q bisotidan bo'ldi mosuvo.
Ne qilsin? Chorasiz tura berdi lol,
Dilida shukrona, tilida duo.

O'g'ri hoji esa mamnun ishidan,
Tinmayin sajdaga egilar boshi.
Nobakor bandaning bu qilmishidan
Battarroq qoraydi Ka'baning toshi!

ASLIYAT

Bu yerga o'g'ri ham, to'g'ri ham kelar,
Poklanish har kimning muddaosidir.
Gunoh-u savobni har banda bilar,
Elning u shohidir yo gadosidir.

Hayotning oqimin to'xtatish qiyin,
Hech kim ayri tushmas qorgan loyidan.
Bir karra poklanib olgandan keyin
Ishlarin boshlaydi kelgan joyidan...

HAJ SAVOBI

(Hazil)

M u x b i r:
Haj qildingiz borib Makka taraflarga,
Ko'mildingiz nogahoniy sharaflarga.
Bundayin baxt tushingizga kirganmidi?
Hoji bobo, nima deysiz bu gaplarga?

H o j i b o b o:
Inshoolloh, hurlik keldi guldir-guldir,
Qola bersa, har bir ishning boshi puldir.
Hovli-joyni sakson mingga sotib ketdim,
Muxbir bolam, savolingga javob shuldir.
M u x b i r:
Xalq aytadi chuchvaradan go'shtdir ma'ni,
Siz ko'rdingiz Makka bilan Madinani.
Ka'batulloh darvozasi qandoq ekan?
Hoji bobo, o'shalardan so'zlang, qani?

H o j i b o b o:
Ka'batulloh jamoliga yo'qdir taraf,
Ammo-lekin bozori ham maqtovtalab.

Xaridorlar, durbin bormi, deb so‘rashar,
Muxbir bolam,
hayron bo‘ldim shunga qarab.

M u x b i r:
U yoqlarda xayolga ham botdingizmi,
Arofatning mashaqqatin tortdingizmi?
Mino degan tog‘ga chiqib, g‘ayrat qilib,
Hoji bobo, Shaytonga tosh otdingizmi?

H o j i b o b o:
Endi bildim, Shayton asli qaydan ekan,
Bir tomon tog‘, bir tomoni maydon ekan.
Bozorchisi soddagina arab desam,
Muxbir bolam, bizlardan ham shayton ekan.

M u x b i r:
So‘ray bersam savollarim hali talay,
Mayda-chuyda, ikir-chikir, alay-balay.
Madinada Payg‘ambarning daxmasi bor,
Hoji bobo, ko‘rdingizmi uni, qalay?

H o j i b o b o:
Madina ham shahar ekan oliyhimmat,
Ayollari yurishibdi yuzda chimmat.
Atlas olib borgan edim, arzon ketdi,
Muxbir bolam, u joylarda asal qimmat.
M u x b i r:
Savolimni quloqqa hech ildingizmi,
Qayga borib kelganingiz bildingizmi?
Men savobdan gapiraman, siz savdodan,
Hoji bobo, aslida haj qildingizmi?

H o j i b o b o:
Tayyoraning pattalari qo‘limdadir,
Guvohlarim mana o‘ng-u so‘limdadir.

Bunday makruh savollarni kim o'rgatdi,
Muxbir bolam, haj savobi dilimdadir.

SHAYTON

La'natlab bo'lsa ham,
qarg'ab bo'lsa ham,
Har kun tilovatda aytilar nomi.
Uning bosh suqmagan joyi kamdan kam,
Ichilgan har qadah uning ham jomi...

Deydilar, norasta go'dakni hatto
Uyquda qitiqlab kuldirar emish.
Salgina g'aflatda qolsang mabodo,
Qilmagan ishingni qildirar emish.

Shaytonning hunari chindan rang-barang,
Sallani paytava qilib o'ratgay.
Agar sidqidildan ko'rsatsa nayrang,
Nodonni shoh qilib, yurtni so'ratgay.

Minoda Shaytonni qildik toshbo'ron,
La'natga ko'mildi badbaxt u lain.
Dedik,
shuncha yukning ostidan Shayton
Ming yillar chiqolmay yotmog'i tayin.
Shodumon yo'l oldik Vatanga qarab,
Shayton qoldi, deya chuqurda-chohda.
Manzilga qaytgandik, Shayton, vo ajab,
Bizni kutib oldi tayyoragohda.

1992-yil 25-may—16-iyun
Makka — Madina — Toshkent

O‘ZBEKISTON DAVLATI

O‘zbekiston bayrog‘i ko‘tarildi chinakam,
Ushbu kunni, ayting-chi, qay birimiz kutmadik.
Zarur bo‘lgan chog‘da goh dor tagida turib ham,
Qay birimiz tarixning sinovidan o‘tmadik.

Dong‘il safarga chiqdi endi hur O‘zbekiston,
Kimgadir oyoqosti, kimga u osmon bo‘ldi.
Shukurkim, o‘z-o‘zini tanidi keksa jahon,
Ya’ni o‘zbek davlatin jumlayi jahon bildi.

Ne-ne kamsituvlarni ko‘rgan shu boshim bilan,
Ona xalqim, qoshingda tizza bukib turibman.
O‘zbekcha gapirganda, bir cho‘qum oshim bilan
Sadaqayi baxting deb borim to‘kib turibman.

Garchi doim ungandir gulchechaklar bog‘imda,
Temur va Navoiyni eslaymiz takror-takror.
Men-ku uzoq yasharman, lekin ketar chog‘imda
Tepamda egilajak o‘z tug‘im — bayrog‘im bor!

Nasib etmish bu kunlar, taralsin yangroq unlar,
Do‘stlar bilan yonma-yon qutlaylik bu ayyomni.
Iloyo, boshimizga kelmasin qaro kunlar,
O‘zbegim, deb ko‘taring, do‘stlarim, oltin jomni.

1992-yil 4-mart

TURKISTON BOLALARIGA

(Mustaqilligimizning bir yilligi munosabati bilan)

Turkistonning bolalari, maqtovimga quloq tutmang,
Gina qilsam chidang, ammo gaplarimni hech unutmang.

Eng avvalo, shajarangiz qaydan chiqqan, bilib oling,
Siz ham bashar farzandisiz, Haqni bayroq qilib oling.

Men Temurdan so'zlayinmi, so'zlayinmi Navoiydan,
Barchasini o'qigansiz, eshitgansiz yo roviydan.

Tarixingiz shundoq uzoq, jang-u jadal desa ham bor,
Bosqin ham bor, toshqin ham bor, kasb-u amal desa ham bor.

Bobur bo'lib so'radingiz qo'ni-qo'shni dunyolarni,
Mashrab bo'lib kezdingiz goh qashqir yurmas sahrolarni.

O't ketsin u qora kunga — birovlarga qul bo'ldingiz,
Sharq-u G'arbning o'rtasida oyoqosti yo'l bo'ldingiz.

Biroq imon nuri doim oqib turgan qoningizda,
O'zingiz ham sezmagansiz, bir gavhar bor joningizda.

Ming-ming shukur, zamon kelib istiqbolga erishdingiz,
Xarob bo'lgan xonadonni butlamoqqa kirishdingiz.

Hurlikni-yu saodatni muborakbod etgum, lekin
Aytib qo'yay, qulog'ingiz bitgan ekan sekin-sekin.

Nazaringiz tushar avval zeb-ziynat dasturxonga,
Hanuz ta'zim qilmoqdasiz mol-dunyosi bor insonga,

Bo'y-bastini ko'rsatguvchi urfoni zo'r millat qani,
Sizning uchun obro' — oltin, arzon-garov shuhrat — ma'ni.

Yuragida javhari bor kimsalarni ko‘rmagaysiz,
Karnayi yo‘q bechoraning to‘yiga yo‘l burmagaysiz.

Har qadamga xushomadni o‘z o‘rniga qo‘yolsaydim,
Peshvolarning poylariga haftada qo‘y so‘yolsaydim,

Bo‘lmas edi mendan ulug‘, mendan aziz biror inson,
Oh,xalqimni ne ko‘ylarga solding zamon, solding zamon.

Turkistonning bog‘larida bulbullari bor, holbuki,
Xor bo‘lsa ham tog‘day baland ko‘ngillari bor, holbuki.

Birov u yon tortar bo‘lsa, birov bu yon tortayotir,
Qonsiragan jallodlarning shodliklari ortayotir.

Bilib bo‘lmas rost gap qayda, bilib bo‘lmas qayda yolg‘on,
Malomatga yo‘liqadi, elga:
“Birlash” degan inson,

Turkistonning bolalari, Turkistonning bolalari,
“Puf” deganda to‘zg‘igudek mo‘jazgina lolalari.

Chinor bo‘lib ildiz oting, qoya bo‘lib tiklangiz qad,
Ulug‘-ulug‘ ajdodlarning xavotiri Sizdan behad.

Soyangizda panoh topsin horib tolgan qondoshingiz,
Unutmangki, bul chamanda har bir yaproq jondoshingiz.

To‘qayzori bo‘lmasa gar sher-u arslon qaydan unar,
Bir manzili bor ekanki, burgutlar ham kelib qo‘nar.

Oldindadir hali zahmat, oldindadir imkoningiz,
Osilmagan ne-ne Mashrab, otilmagan Cho‘lponingiz.

O‘tinch ila hasratimni nasihat deb yuzga solmang,
Xudo insof bergan kuni barmog‘ingiz tishlab qolmang.

Muruvvat-u ma'rifatdir buyuklikning nishonasi,
Qadam qo'ying,
mana sizga dong'il yo'lning ostonasi.

Turkistonning bolalari, Turkistonning bolalari,
"Puf" deganda to'zg'igudek mo'jazgina lolalari...

1992

SHAROF RASHIDOV XOTIRASIGA

Marhumlar hayotdan erurlar yiroq,
Demakki, yiroqlar xushomaddan ham.
Makr-u nayranglarin qo'ymaydi biroq,
Toki hayot ekan Nobakor Odam.

Ularning turfa xil odatlari bor,
Avval ganjlarini ko'mgay tuproqqa.
So'ng birdan o'zlarin his etib nochor,
Gavharim qayda deb tushgay titroqqa.

Dunyoda har kimga qismat yor emish,
Kimdir toj kiygaydir, kimlardir kuloh.
Go'yoki Alisher sizga ham dermish:
"Siyrating darvesh-u suratingdir shoh".

Ezgulik niqobin yuziga tortgan
Manfur bir maydonda surgandingiz ot.
Kimdir o'z padarin bir pulga sotgan,
Qo'l-oyoq kishanda, talangan bisot.

O'ychan ko'zingizda ne g'am bor edi,
Kelajakmidi yo moziyning shoni?
O'zbek-ku, bir erkka intizor edi,
Sizni ado qildi ming bir armoni.

Erksevar ellarning orzusin yoqlab,
Xayol dengizida tunlar suzgansiz.
Istiqlol so‘zini yurakda saqlab,
Siz qafas ichida gullar tuzgansiz.

Shoirman, bo‘ynimda she’rning gunohi,
Sohibin asraydi Saltanat makkor.
Ochko‘z, amalparast kimsalar gohi
Adolat menman deb topgay e’tibor.

Ularning dastidan notinch el, zamon,
Tanimay qolursan oq-qorani ham.
Chalg‘itib kelganlar topganda imkon,
Hattoki Temur-u Boyqaroni ham.

Odildir — kim elni boshlagan baxtga,
O‘zi o‘tda yonib, yo‘lni ochganlar.
Lekin intilarkan toj ila taxtga,
Vo ajab, ko‘pincha dordan qochganlar.

Qulluq, Sharof ota, ming bora qulluq,
Boqiy O‘zbekiston sizga ham yodgor.
Bugun u istiqlol shavqiga to‘liq,
Xizmatingiz eslar takror va takror.

Ilohi, har kimga bersin-u to‘zim,
But bo‘lsin Vatanning metin qo‘rg‘oni.
Sizni qo‘llab turar O‘zbegim — o‘zim,
Va, yurtning posboni — jasur o‘g‘loni!

Sulton bo‘lmasangiz, Sharof ota, gar,
Yashardingiz qalam qo‘ldoshi bo‘lib.
Poklikka, vafoga timsol muqarrar,
Xursanoy ayaning yo‘ldoshi bo‘lib.

1992-yil 2-noyabr

MEN KIMGA SUYANGUM

Bir kun savol berdi yoshgina o‘g‘lon:
— Nechun Allohim deb yig‘laysiz nolon.
Dedim, javobimdan bo‘lmagin hayron,
Men kimga suyangum Allohdan boshqa.

Tinimsiz aldasa muhit, makoning,
Tortsa oyog‘ingdan do‘st-u yoroning.
Shunday o‘tar bo‘lsa har zum, har oning,
Men kimga suyangum Allohdan boshqa.

Noshukur emasman dunyoda garchand,
Qaydadir menga ham bor balki dilband
Va lekin tiriklay kuydirsa farzand,
Men kimga suyangum Allohdan boshqa.

Insof-u ishonch ham shirin so‘z bari,
Tiriklik toshqindir yoki ko‘pkari.
To hayot ekansan qochgaydir nari,
Men kimga suyangum Allohdan boshqa.

Shunchalar kaj erur dunyoyi gardun,
Undan diyonatni axtarmoq nechun,
Padar shod o‘z o‘g‘lin bag‘rin etsa xun,
Men kimga suyangum Allohdan boshqa.

Mingta ko‘z poylaydi bitta joningni,
Joningmas, martabang, balki shoningni,
O‘t qo‘ymay yoqarlar xonumoningni,
Men kimga suyangum Allohdan boshqa.

Bu ko‘hna dunyoda yashadim nega,
Yaydoq ot misoli bo‘ldim beega.
Malomat qilurman, olomon, senga:
Men kimga suyangum Allohdan boshqa.

Mendan ranjimasin bo'lsa do'st agar,
Balki ularning ham dilida kadar,
Hoynahoy mendaylar degay muqarrar:
Men kimga suyangum Allohdan boshqa.

Umr ham oxirlab bormoqda sekin,
Endi sarg'aymoqda men ekkan ekin.
Mayli, sen o'zingga suyangil, lekin,
Men kimga suyangum Allohdan boshqa.

1992

MULOQOT

— Baxtsizman, toleyim kulmaydi,
Onajon, qoshingga ketayin.
—Ketganlar hech qaytib kelmaydi
Bardosh qil deyman, oh, netayin.

—Ne uchun dunyoda tug'ildim,
Bu qadar omadsiz, bechora.
—O'zim ham bir umr bo'g'ildim,
Bolajon, noiloj, nachora.

—Ne uchun yovuzdir odamlar,
Birovi toptaydi birini?
—Meni ham yedi-ku shu g'amlar,
Bilmadim bu holning sirini.

—Insonga ishondim — xor bo'ldim,
Sen deding — bir ishonch sabrdir.
—O'zim ham ishonchga zor bo'ldim,
Oqibat topganim qabrdir.

—Bosh urib borarga yo'qdir joy,
Onajon, qoshingga ketayin.

—Bolajon, horibsan hoynahoy,
Bardosh qil deyman, oh, netayin.

—Chorlasang, madadkor bo'lolsang,
Visoling ruhimi shod etar.
—Sen ham gar yo'qlikka yo'l olsang,
Borliqda kim meni yod etar?!

1992

O'ZBEK QOMUSI

Men bechora bir odamman,
Ertangi kunim,
Ne bo'lishin bilmaydigan ojiz bandaman.
Yer-u osmon o'rtasida topmagan qo'nim,
Botinimda botmon tosh-u zohir xandaman.

Yolg'izlikning rutubatli ko'chalarida,
Ne-ne oltin fasllarim o'tdi junjikib.
She'riyatning tund qorong'u ko'chalarida
Yiroq-yiroq yulduzlarga boqdim entikib.

Ig'vo, hasad, fitna bilan to'lgan bu hayot,
Har onimda mingta etdi bir hasratimni.
Xira tuman orasida butkul koinot,
G'ira-shira ilg'ar edim mamlakatimni.

Eslar edim Buxoriyni, Yassaviyni ham,
Ha, ha, ayri tushmagandi xotirotimdan,
Faqat ular chalinardi ko'zimga mubham,
Lekin sira ketmas edi xayolotimdan.

Ham Temurbek, ham Ulug'bek, Alisher, Bobur,
Sizlar tuzgan ul saltanat — Saltanat bo'ldi.
Ulug' tarix Turkistonga cho'ng guvoh erur,
Davlat edik, davlat edik, u davlat bo'ldi!

Emikdoshim, ay, qardoshim, quloq tut menga,
Ushbu ko'hna kahkashonda mag'rur tutgin bosh
Sen zaminga loyiqdirsan, zamin ham senga,
Senikidir endi bu yer, seniki quyosh.

Qo'lingda erk, boshda yalov, tilingda surud,
Vataning bor, bola-bog'chang, or-nomusing bor,
O'zbekiston deb atalgan muqaddas hudud,
O'z Davlating, Mamlakating, o'z Qomusing bor.

1992

TEMUR

Har qancha faxr etsang arziydi, o'zbek,
Balqibsan bir zotning yuksak shonida.
Temurbek yulduzi Oltin qoziqdek
Charaqlar buyuklar kahkashonida.

Vo ajab, yolg'iz bir Zanjirsaroyning
O'chini O'rdadan ola bilgan zot.
Turon deb atalmish kattakon joyning
Bag'riga shuncha yil sig'mabdi, nahot?!

Jahonni mo'g'ullar istilosidan
Qutqarib qololgan barlosiy botir -
Qocholmay taqdirning taqozosidan
Fotih deb nom olmish o'zi ham oxir.

Eng ulug' binolar mujassam bo'lmish
Olamda tengi yo'q Samarqand-ku bor:
Temurbek jang-jadal shavqiga to'lmish,
Qo'lida shamshir-u tagida tulpor.

Hukmi oliy bilan etmish namoyon
"Kuch bu — adolatda", degan so'zlarin.

Qon to'kmish Jahongir goho beomon
Yovlari tikmasdan qonli ko'zlarin.

Otani boladan tirik ayirib,
Toj-u taxt taloshi qizirkan borho.
Sulton ne zotlarning qo'lin qayirib,
Muhtasham saltanat aylamish barpo.

Allohim baxsh etmish shunchalar shukuh,
Komil-u yetukdir shajara, zoti.
Bir yon Bibixonim, bir yonda Shohruh,
Bir yonda Ulug'bek — sinmas qanoti.

Ne baxtkim, tug'gan yurt bo'lganda ozod,
Muborak Vatanga qaytib kelmishsiz.
Quloq tutgaymi, deb noahil avlod,
Tashakkur, bizlarni ko'zga ilmishsiz.

Hamon yer yuzida shayton tug'yoni,
Tillarda duo-yu dillarda zarda.
Ko'rib bu noqis-u notinch dunyoni
Qayta bosardingiz balki, sarkarda.

Sa'yi niyatlarda ruhingiz sardor,
Yovuzlik chekingay, o'chgay yomonlik.
Dastingiz shamshirga bormasin zinhor,
Hazrat, barchamizga tilang omonlik!

1993-yil 30-avgust

O'ZBEKISTONIM, SENGA

Aylayin qalbimni tortiq nurli bo'stonim, senga,
Sen vatandirsan, fidodir tanda bu jonim senga.

Bebahosan, asragayman gavharim, deb men seni,
Sen qarog' bo'lsang agarda, sadqa mujgonim senga.

Sendan ayru dam uzundir, lahzalar ham yilga teng,
Bir umrga lek barobardir kerak onim senga.

Har bir ahling bitta yulduz, kavkabistonim o'zing,
To hayotdirman, charog'im, shu'layi shonim senga.

Yor-u do'stlar jam bo'libdir, to'y qilur o'zbek elim,
Men degayman xush kelibsan, do'st-u mehmonim, senga.

Xizmatingga shay erurman, mehnatingda ham o'zim,
Baxtiyorman, sarf etolsam borki imkonim senga.

Dilda borim sen uchundir, qo'lda torim sen uchun,
Qayda bo'lsam talpinurman, O'zbekistonim, senga.

1993

LO'TTIBOZ

Ne-ne balolarga goho tutildim,
Ko'pidan, inshoolloh, endi qutuldim.

Boshimga tushdi goh muhtojlik, kulfat,
Bariga ko'nikib ketdim oqibat.

Tutqin eta oldi na shuhrat, na g'am,
Qutuldim behuda orzulardan ham.

Bir zamon qolganda chorasiz, yakka,
Dard xuruj qilgandi o'ksik yurakka.

Necha oy yo'l qarab, to'shakband bo'ldim,
Shukurkim, darddan ham oxir qutuldim.

Toki, g'olib ekan bosqinchi zoti,
Qafasda o'tgaydir xalqning hayoti.

Vatan ozod bo'ldi, nash'aga to'ldim,
Demak, kishanlardan men ham qutuldim.

Ammo bir kasofat qiynaydi hamon,
Unga bas kelolur na vaqt, na zamon.

Uni daf'atan-da tutib ham bo'lmas,
Va lekin aylanib, o'tib ham bo'lmas,

Qutuldim necha qish, necha yozlardan,
Faqat qutulmadim lo'ttibozlardan,

Dargohing buncha keng, oh, Parvardigor,
Sening marhamating bisyordan bisyor.

Mushrik bandalaring nahot oz senga,
Nechun zarur bo'ldi lo'ttiboz senga.

Uning ham odamdek bor yuzi, ko'zi,
Lekin aldab ketar kuppa-kunduzi.

Manfaat bo'lsa bas, qaytmas balodan,
Quruq chiqa berar cho'ksa, daryodan.

Uning do'ppisini bunga kiygizar,
Qisir sigirni ham hatto iygizar.

Uning jinsi yo'qdir, yo'qdir millati,
Umumbashariydir, ya'ni illati.

Qaraysan, bir go'zal turar, aylab noz,
Botiniga boqsang, afsus, lo'ttiboz.

Mana bu janob-chi, jilmayar mamnun,
Aslida libosga o'ralgan maymun.

Rizqing but bo'lsin deb chekkandim nola,
Qay kun aldab ketdi bir cho'loq bola.

Lo‘tgiboz oshnodir ishi bitguncha,
Eshagi kechuvdan toki o‘tguncha.

Iloho, olamda o‘zingsan eng sof,
Bergil ularga ham diyonat, insof.

Qancha sinoving bor, solgin boshimga,
Ularni yuborma hargiz qoshimga.

Mayli, do‘zaxingda qiyna, o‘tda yoq,
Meni lo‘ttibozga duch qilma biroq.

1993

MEHR-U OQIBAT HAQIDA BALLADA

Dema ko‘tarildi mehr-u oqibat,
Birgina chora bor bunday chog‘ faqat.

Toki tanangda jon, og‘zingda so‘zing,
Endi xabar olgin o‘zingdan o‘zing.

Xotin nonushtaga olib kirsa choy,
O‘zingni taklif qil: — Ich, falonchiboy!

Tongda ishxonangga qo‘ysang gar qadam,
Jumladan, salom ber o‘z-o‘zingga ham.

Ilgakka paltongni hurmat bilan os,
Ko‘rsat o‘zingga ham sadoqat, ixlos.

Odatda bir kimsa ishga bo‘lar g‘ov,
Hayfsan e’lon qilgin o‘zingga darrov.

Balki yo‘l olarsan uzoq safarga,
Yiroq qishloqqami, olis shaharga,

Hol so‘rab dadangdan, tug‘gan onangdan,
O‘zingga maktub yoz borgan joyingdan.

Dema, ko‘tarildi mehr-u oqibat,
Buning chorasi bor, izla, top faqat.

Tug‘ilgan kuningni balki bilarsan,
O‘zingga nimadir sovg‘a qilarsan.

Nogoh tushib qolsang kasalxonaga,
Ko‘z tikkil na do‘st-u na begonaga.

Yaxshisi, o‘g‘lingga tezlikda sim qoq,
Degil: Kelmasang gar, oq qilaman, oq!

Magar shoir bo‘lsang g‘azal yoz, yoz fard,
Lekin topilmaydi o‘qiydigan mard.

Ijro et she’ringni o‘zing barala,
Degil: qotiribman, uh, barakalla!

Nabirang ko‘ngliga izlasang kalit,
Bir juft saqich ber-u o‘zingni tanit.

Ulfat izlamagin ko‘cha yuzidan,
Hozir hamma ketgan pulning izidan.

Nihoyat qartayib, horib tolgaysan,
Barcha tashabbusni qo‘lga olgaysan.

Bir kun tramvayga chiqsang hoynahoy,
Senga biror kimsa bo‘shatmagay joy.

Xoli o‘rindiqqa tushsa gar ko‘zing,
O‘tiring, domla! — de o‘zingga o‘zing.

Kimlardir tortmasin, tashvish, jabringni,
Albatta, qazdirib qo‘ygin qabringni.

Bir juft so‘z o‘ydirgin marmar toshga ham:
“Bu yerda yotibdi Eng Yaxshi Odam!”

Axir tirigingda yo‘qlashmadi, bas,
O‘lganingdan so‘ng ham hech kim eslamas.

Xullas, yo‘qolmagay mehr-u oqibat,
Buning chorasini izla, top faqat.

1994

TELEFON DAFTARI

Sira ajab emas,
Shomdan to sahar
O‘nlab daftarlarga ko‘milib qolsam.
Telefon daftari —
Lekin, bu daftar...
Yuragim bezillar, qo‘limga olsam.

Unda qancha-qancha do‘st-u qadrdon,
Tanish-notanishning nomlari bordir,
Biri Inson edi, to hanuz Inson,
Boshqasi, afsuski iblisga yordir.

Biri boyib ketgan, quv, izzattalab,
Balki o‘zgartirgan eski raqamin.
Birovi, ko‘zimning yog‘ini yalab,
Mendan allaqachon uzgan qadamin.

Biroviga esa yoqmabdi mansab,
Atrofin yaltoqi zotlar o‘rabdi.
Qay kuni qirq yillik do‘stiga qarab,
Isming nima edi, — deya so‘rabdi.

Manovi kamtarin, yo‘qsil tanishim,
Ko‘ngli o‘smasmidi bitta so‘zimdan.

Men ham o‘zgardimmi? Mo‘lmi yo ishim?
Bir bor yo‘qlamabman. Gina o‘zimdan...

Fojia emasdir bu gaplar zinhor,
Balki qay birini tuzatsa bo‘lar.
Lekin daftar ichra qator va qator,
Marhum do‘stlarimning nomlari turar.

O, mening qalbi pok birodarlarim,
Qoningiz ne uchun bemahal tindi.
Siz yo‘qsiz — men uchun davralar yarim,
Kunim kimlargadir qolmishdir endi.

Ha, nomard bo‘lsa ham shirin shu hayot,
Ha, zaqqum bo‘lsa ham g‘animat zumlar.
Bilaman, ortiga qaytmas koinot,
Bilaman, tirilib kelmas marhumlar.

Balki o‘chirsammi nomlarin? Aslo!
Cho‘chiyman, o‘zimdan dakki yeganday.
Ular, raqamlarin tersam mabodo,
Yulduzlar ortidan “Labbay” deganday.

1994

DUNYO

Bir kimsa umrining so‘ngiga qadar,
Yig‘di mol-u dunyo, yig‘di siym-u zar.

Uni qiziqtirdi na do‘stning holi,
Va na qo‘shnisining o‘ksik ahvoli.

U chindan mol-mulkning jilovin tutdi,
Faqat nafs ortidan ot surib o‘tdi.

Bir kuni ba hukmi taqdiri azal,
Shamshirin ko‘tarib keldi-ku ajal.

Endi na siym-u zar qutqara olur,
Na billur, na gavhar qutqara olur.

Rozi yo norizo — farqi yo'q mutlaq,
Bunday chog' chorasiz hatto do'st-o'rtoq.

Beshafqat ajalga berar ekan tan,
U dedi: "Shu ekan, dunyo shu ekan".

Marhumga marhumlik ko'rilgay loyiq,
Uni qabristonga eltdi xaloyiq.

Uyum tuproq bo'ldi quvonchi-g'ami,
Kimdir boqib dedi: "Shunga shunchami..."

1994

* * *

Balki chaman bo'lar dashti Karbalo,
Balki, behisht mavjud yulduzlar aro.
Mening O'zbekiston — Vatanim bordir,
Ularning baridan a'loroq, a'lo!

1994

VATAN

Agar do'stlar erur sodiq bir-birin qiyratib bo'lmas,
Agar qilg'il necha fitna alarni ajratib bo'lmas.
Demishlar: mor-u qushni bir qafasda asratib bo'lmas,
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Vatan deb men bayon qildim, ayo do'stlar, muxammasni,
Vatanni kim ulug' bildi, aziz bildim men ul kasni.

Vatan deb jo'sh urar ersa ko'targum boshima xasni,
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Nadomat birla boqg'ayman vatansizlarga har doim,
Egib boshini zor yig'lar, agarchi davlati qoyim,
Faqir bo'lsam-da bor yurtim — toj-u taxtim, borar joyim.
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Bobolar kechmishin hargiz faromush aylamang, do'stlar,
Haqiqat tongi otganda ani tush aylamang, do'stlar,
Agar kim e'tiqodsizdur, ani xush aylamang, do'stlar,
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Diyorim O'zbekistondur, ki andin iftixorim bor,
Demakkim, hur adolatlig', davlati barqarorim bor,
Onamdek mehribon, munis Vatan bor, g'amguzorim bor,
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Vatan, sen hur, yo'ling shonli, qadamni tashlagin shahdam,
Faxr-la boqqay Abdullo, ko'zida shodligidan nam
Panohingni tilab Haqdin dilida iltijo har dam,
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

1994

BUYUKLIK

Osmon-u falakda mo'jaz yulduz — tosh
Mindi o'z tabiiy tayyorasiga.
Rosa bo'shliqlarda daydigach bebosh,
Urildi Mushtariy sayyorasiga.

Mushtariy degani oftob misoli
Fazo karvonida muhtasham nordir.
Ne kechdi u sho'rlik yulduzning holi,
Vazni tog' qoshida zig'ircha bordir.

Buyuklik qudratin sezmay yo sezib,
O'zi izlab topmish so'nggi marrani.
Mushtariy samoda milyard yil kezib,
Axir axtarmagan o'sha zarrani.

Taajjub qilaman, buyuklik asli,
Tanlagan yo'lidan burilmas ekan.
Zarra buyuklikka urilgay, ammo,
Buyuklik zarraga urilmas ekan.

1994

DIL OG'RIG'I

Qo'l og'rig'i bosilsa
Dil og'rig'i boshlanar.
Olis xotiralardan
Ko'ngil tag'in g'ashlanar.

Sokin o'tgan bir damni,
Eslolmayman, yo Rabbim.
Taqdir qo'lida yoydek
Egilib borar qaddim.

Yaxshi bilan yomonni
Yetolmayin farqiga,
Faqat yo'l izlab o'tdim,
Muhabbatning arkiga.

Bir qarasam, paykondek
Umr uchib ketmishdir.

Bilmadim, u chaqin — o‘q
Qay manzilga yetmishdir.

Qaydadir intilganim —
Muhabbatim qayonda,
Balki men bu yonda-yu,
Qalbim esa u yonda.

Inson umri shul ekan —
Yo‘li to‘la nadomat.
Gar vaslingga yetkazsa
Kela qolgil, qiyomat.

Hayotimning ma’nosin
Bir nafasga qaytib ber,
Mayli, so‘ngra barchasin
Doston qilib aytib ber.

Mushkul ekan bu qadar
Ezgulikka yetishmoq.
Hayot-ku, bir chistondir,
Muhabbat ham topishmoq.

Qo‘l og‘rig‘i bosilsa
Dil og‘rig‘i boshlanar.
Olis xotiralardan
Ko‘ngil tag‘in g‘ashlanar.

1994

VIJDON

Jahon shoirlari vijdon haqida
Azaldan ming-minglab baytlar yozmishlar.
Vijdon-ku, aslida sobit aqida,
Kimlardir bu yo‘ldan goho ozmishlar.

Balki vijdon deya tinmay chekib oh,
Hayqirib yurmaydi har qanday odam.
Topilgay bobolar hikmatlarin goh,
Shunchaki nasihat deguvchilar ham.

Qay bitta narsaga muhtoj bo'lsa gar,
Eng avval o'shanga topingay inson.
Mayli, ummon qadar yo zarra qadar,
Har nechuk qalblarda bor bo'lsin vijdon.

Magar ketar bo'lsa vijdon bosh olib,
Imon ham u bilan birga ko'chgaydir.
Butkul mard-u nomard tayanchsiz qolib,
Choh uzra chirpirak bo'lib uchgaydir.

Devlar qutulgandek Sulaymon o'lib,
Betizgin tuyg'ular har yon yugurgay.
Qalb degan istehkom posbonsiz bo'lib,
Eng avval nafs unga o'zini urgay.

Haqiqat atalmish ravshan quyoshni,
Ochiq diydalarki, ilg'amas ko'rib.
Avliyo degaylar so'qir avboshni,
Adolat o'rnini egallar firib.

Ilojin topsalar har qanday onda
El-yurtni chalg'itib qo'yarlar oson.
Gar hakam bo'lsalar biror maydonda,
Mag'lubni g'olib deb etarlar e'lon.

Kuppa-kunduz kuni kiprik qoqmasdan
Yolg'on so'zlay boshlar daholar hatto.
Kimlardir umrida bir sham yoqmasdan,
Mash'al bo'lmoqlikni qilgaylar da'vo.

Vijdon ketgan joyda albatta bir kun,
Ilondek qo'zg'olur bo'hton va tuhmat.

Bu yorug‘ olamda odamzod uchun
Bormikan ulardan ortiqroq kulfat.

Vijdonsiz kimsaga duch kelgan nafas
Kofir ham dod solgay:
Asragil, yo Rabb!
Oddiy bismillohni bilmaydigan kas
Iltijo qilgaydir qiblaga qarab.

Vijdondan ayrilib qolgan fursatda
Boshlanar toj-taxtga ruju daf’atan,
Ne-ne zukko xalqlar qolib g‘aflatda,
To‘zg‘ib ketajakdir butun bir Vatan.

Ha, o‘zing yorlaqa, yaratgan egam,
Iblis yuraklarga qutqu solmasin.
Vijdondan mosuvo etmagin hech ham,
Toki u xotirot bo‘lib qolmasin.

1994

SHUKUR BURHON

Azamat bir chinor,
Ayqirgan daryo.
Undan nariroqda salobatli tog‘.
Tepada poyonsiz haybatli samo,
Atrofda ufqqa tutash dala, bog‘,

Chinor soyasida ulug‘ mo‘ysafid
Sokin kuzatadi yer-u osmonni.
U Shukur Burhondir, goho shu taxlit
Tasavvur qilaman O‘zbekistonni.

1994

XALQ

Hamma narsa o'tadi, mansab, shon-u shavkat ham,
Shirindan shirin qolur, talxdan esa qolur talx.
Bir kuni tuproq bo'lur, tengsiz shamsi tal'at ham,
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Gohida ko'zda yosh-u gohida xandon bo'ldik,
Gohida bolg'a bo'lsak, gohida sandon bo'ldik,
Axiyri kulib tole, sohibi davron bo'ldik,
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Nomingni qaro degan — paxtaginam, senmisan,
Lo'ppi deya yutganim — laxtaginam, senmisan,
Avaxtada bosh urgan taxtaginam, senmisan?!
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

O'zbekning peshonasin po'latdan yaratmishdir,
Yumushini malomat, zahmatdan yaratmishdir,
Bir so'z bilan aytganda — mehnatdan yaratmishdir,
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Tinglasang tuganmaslik afsonasi bor bu el,
Sarkardasi, shoiri, taronasi bor bu el,
Ming oqilga arzirlik devonasi bor bu el,
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Farishta emasdirmiz, ushbu gapim sir emas,
Har uchragan eshon-u, har sallalik pir emas,
Lekin dasturxon haqqi, ko'nglimiz hech kir emas,
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Janggohlarda jon bergan bobolarni unutmang,
Mashoq terib non bergan momolarni unutmang,
E'tiqod, imon bergan duolarni unutmang,
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Amalparast, lo'ttiboz bo'lmagan qachon axir,
Sak bir nima yemasa og'zi bo'larmish taxir,
Bizning barchamiz shohmiz, bizning barchamiz faqir!
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

O'tganlarni yod etmoq qolgandir shariatdan,
Inson sharafi yuksak millat-u tariqatdan,
O'zbekka bul fazilat yuqmishdir tabiatdan.
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Olimmi yo paxtakor, kim bo'lmasin — odamdir,
Ya'ni Alloh bandasi — har biri bir olamdir,
O'zbegim o'z volidam, o'zbegim o'z otamdir,
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Ayon gapki, adolat elning ko'z, qoshi bo'lur.
Urgani un oshi-yu, so'ksa so'k oshi bo'lur,
Yurt og'irin tortolgan asli yurtboshi bo'lur,
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Kattakon yo'lga chiqding, yo'ldoshing bo'lay, xalqim,
Farzandingman, qo'llaysan, qo'ldoshing bo'lay, xalqim,
Hasrating ko'p dilingda, dildoshing bo'lay, xalqim,
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

1994

ARMON EMASMI

Lolazor qirlarda chopa bilmasman,
Axir u men uchun armon emasmi?
Bolalik yillarim topa bilmasman,
Axir u men uchun armon emasmi?

Xayol gulshanida tersam chechaklar,
Jajji nabiramga bo'ldim ermaklar,
Endi onam aytmas menga ertaklar,
Axir u men uchun armon emasmi?

Qorong'u tunlarda olovlar yoqib,
Ilk she'rim yozgandim yulduzga boqib,
Endi axtaraman ko'zoynak taqib,
Axir u men uchun armon emasmi?

Qancha zot dunyoga keldi-yu ketdi,
Birin dushman etsa, birin do'st etdi,
Birining boshiga shon-shuhrat yetdi,
Axir u men uchun armon emasmi?

Meni aldab ketdi lo'ttiboz olchoq,
Ishongan kishim ham ko'rsatdi yarog',
Ularni xudoga topshirdim biroq,
Axir u men uchun armon emasmi?

Shukrona aytaman, do'stlarim bordir,
Biri balki qo'rqoq, birisi botir,
Yaxshilik qildimmi ularga axir,
Axir u men uchun armon emasmi?

Goho esh bo'lsam-da siyosatlarga,
Qalbimni baxsh etdim malohatlarga,
Ular deb qoldim men malomatlarga,
Axir u men uchun armon emasmi?

Ogohman ishq degan ko'hna shevadan,
Muhabbat atalmish tansiq mevadan,
Ortga qaray-qaray qaytdim Xivadan,
Axir u men uchun armon emasmi?

1995

AMUDARYOGA

Kimligimni bilar edim ozroq,
Bilar edim suyukligimni.
Amudaryoni ko'rganda biroq
Bilib qoldim buyukligimni.

1995

TAFSIR

Tuzumlar o‘zgarsa ham,
Inson o‘zgarmas ekan.
Tizimlar o‘zgarsa ham
Inson o‘zgarmas ekan.
Jaholat davrida ham
Avliyo — avliyodir.
Kaforat davrida ham
Anbiyo — anbiyodir.
Balki davron yo‘rug‘i
Aslan to‘g‘ri bo‘lgaydir.
Lekin ming bor dod dema,
O‘g‘ri — o‘g‘ri bo‘lgaydir.
Har qadamda bir masjid
Qurganing bilan, inson,
Insof bermasa, hech kim
Muslim bo‘lmas
hech qachon.
Ko‘pkariga kirganning
Halollik erur dardi.
Lekin ular safida
Ot surar bir nomardi.
Gohida sadoqatli
Do‘stlaring qolib bir yon,
Yo‘lin topib, qo‘yningga
Kirib olgaydir ilon.
Mo‘min deb atar o‘zin
Goh yaxshi ham,
yomon ham.
Qaysi biri haq erur?
O‘zi bilgaydir Egam.
Tuzumlar o‘zgarsa ham
Inson o‘zgarmas ekan.
Tizimlar o‘zgarsa ham
Inson o‘zgarmas ekan.

Shul boisdan Payg'ambar
Ummat g'amin yeganlar.
Allohdan boshqasiga
Sig'inmagin, deganlar.

1996

ARMON

Kajrav falakning charxi
Bir zum o'ngga aylanib,
Sog'intirgan onamning
Diydorin ko'rolsaydim.
Onajonim qoshida
Erkalanib, shaylanib,
Goh quvonib, gohida
Xo'rsinib turolsaydim.

Aytolsaydim men unga
Ko'hna dunyoga kelib,
Menga qancha shodlig-u
Qancha g'am tekkanligin.
Ezgulikni jahonda
Axtarma qancha yelib,
Faqat ona mehrining
Betakror ekanligin.

Aylansa tag'in falak,
Qo'lin tutsam yoshlikning.
Oh, qandayin g'avg'o-yu
Ne kunlarga qolardim.
O'sha qalam qoshlikning
Hajrida tag'in yonib,
Tag'in uning yoniga
Jadallab yo'l olardim.

Ko‘ngildagi ishq o‘tin
Sel kelsa ham so‘ndirmay,
Faqatgina uni men
Hayotim, deb o‘ylardim.
Qalamimning uchiga
Zarra g‘ubor qo‘ndirmay
Faqatgina muhabbat
Nashidasin kuylardim.

Falak yana charx urib,
Rahm etsa-yu bir qadar.
Armonim ushalmog‘in
Chorasin ko‘rsatsaydi.
Shu sho‘rlik bandani ham
Tark etsin, deb g‘am-kadar,
Tashvishlardan qutulmoq
Yo‘lini o‘rgatsaydi.

Men ko‘kka yetib boshim,
Chulg‘ar edim olamni.
Yovuzlik, razillikni
Olovdek eritardim.
Umrim bo‘yi qaqshatib
Kuydirgan bir bolamni
Qayta boshdan ma’sum, pok
Go‘dakka evriltardim.

Afsus, bunga chora yo‘q,
Yo‘qdir aslo imkoni.
Ortga qaytganmi axir,
Falak biror zamonda.
Insonni qabrigacha
Kuzatgaydir armoni,
Ilojing — ilojsizlik,
Iloj esa osmonda.

Shul sabab, har o'tgan kun
Ko'zimga o'tday issiq.
Shul sabab, har ertani
Kutib olgum dovdirab.
Bugungi ko'rganlarim
Bo'lsa ham ancha tansiq,
Faqat o'shal armonga
Termilaman jovdirab.

Yaratganning ishin ko'r,
Umr yo'lin qayirgach.
Keng dunyoni ko'zingga
Tor qilib qo'yar ekan.
Avvali, berib-berib,
So'ng birma-bir ayirgach,
Faqatgina o'ziga
Zor qilib qo'yar ekan.

1996

AYRILMAS

"Yo haq!" — deb yo'l olsa manzilga karvon,
Yo'l boshlagan cho'ng noridan ayrilmas.
Oshiqlar ko'nglidan kechar ming armon,
Bir armoni — dildoridan ayrilmas.

Nelarni ko'rmagay insonning boshi,
Bejiz aytmaganlar: "U soyning toshi".
Donolar, bir joyga yetsa ham yoshi,
Piri bergan tumoridan ayrilmas.

Qachon dong chiqarmish, axir, yolg'iz ot,
Farzand oqil bo'lsa — padarga qanot.
Yigitga duch kelsa Hayot yo Mamot,
Do'stlarining diydoridan ayrilmas.

Demishlar:
"So'qir ham ko'rgay yorqin tush".
Ozod davron surmoq har narsadan xush.
Qafasga gar tushsa uchib yurgan qush,
Erkinlikning xumoridan ayrilmas.

Xor bo'lmas, ajdodin kimki yod etgan
O'tgan azizlarning ruhin shod etgan.
Avlodlar taqdirin o'ylab dod etgan,
Ota-bobo mozoridan ayrilmas.

Har kim bilganicha chertgay sozini,
Moli toza odam qilgay nozini.
Mard kishi ko'p degay hatto ozini,
Rizqin topgan bozoridan ayrilmas.

Bog'-u chamanzori ko'pdir olamning,
Dilda orzusi ham mo'ldir odamning.
Agar din-imoni bo'lsa bolamning,
Turon otlig' diyoridan ayrilmas.

Peshvosi bor yurtning butundir baxti,
Aslo xazon bo'lmas ekkan daraxti.
Har kimga buyursin o'z toj-u taxti,
Nomusli el shunqoridan ayrilmas.

Bir yonda turkmanim,
qirg'iz, qozog'im,
Orolga termilgan qoraqalpog'im,
O'zbegim, tojigim — ko'zim-qarog'im
Jam bo'lganda qatoridan ayrilmas.

Ayrilsa ayrilgay tog'lar qoridan,
Ayrilgay behimmat boy ham boridan,
Vafosiz ayrilgay do'st-u yoridan,
Shoir xalqi ash'oridan ayrilmas.

Qo'lga qalam oldim qutlug' bir kuni,
Maxtumquli she'rin bo'lib maftuni.
Agar kuylar bo'lsa Abdullo uni,
Bir umrga sho'x toridan ayrilmas.

1996

BU YURTDA...

Akademik Ibrohim Hamroboyevga

Toki tong otgunchalik intiq qilar Quyoshni,
Qishning beli yoy kabi bukilgaydir bu yurtda
Bolg'a bilan bir ursang uchragan har bir toshni,
Oltin qumi shovullab to'kilgaydir bu yurtda.

1996

TUSHMASIN

U yiroq tog'larga qor tushsa tushsin,
Sening bog'laringga zinhor tushmasin.
O'rtaga ayriliq, zor tushsa tushsin,
Va lekin hech qachon ag'yor tushmasin.

Men sekin kuzatdim shitob dunyoni,
Nechog' omonatdir odamzod joni.
Qo'ling endi oshga yetgani oni,
Boshingga nogahon cho'qmor tushmasin.

Birov tinglamasa suxan ne kerak,
Har kimga buyursin sirdosh bir yurak.
Agarda bor bo'lsa sodiq do'st-tirgak,
Oraga to'g'anoq — devor tushmasin.

Uchragay dunyoda turfa xil armon,
Gohi g'olibdirsan, goh mag'lub, nolon.
Ko'nikkay bariga hayotda inson,
Lekin g'am ustma-ust, takror tushmasin.

Tepangda bor ekan Parvardigoring,
Magarki el-u yurt nomus va oring.
Vatanni kuylamak bo'lsa shioring.
Dilingga boshqa hech qaror tushmasin.

1998

BIR QARASAM...

Bir qarasam, do'st-u yordan ko'nglim to'qday,
Bir qarasam, atrofimda hech kim yo'qday.

Bir qarasam, suyanchiqday bolalarim,
Bir qarasam, ular siniq lolalarim.

Bir qarasam, bu dunyoda baxtim borday,
Bir qarasam, butkul olam menga torday.

Bir qarasam, murodimga yetgandayman,
Bir qarasam, ko'zim ochiq ketgandayman.

Bir qarasam,
shon-shuhratga yo'g'rilganman,
Bir qarasam, endigina tug'ilganman.

1998-yil avgust

TO‘RTLIKLAR

1

Allohim qayda deb bermagil so‘roq,
Yaxshisi, mana bu manzaraga boq:
Qozonning ichida otashin taft bor,
Olovning o‘zini ko‘rmaysan biroq.

2

Bilmasdan birovni ranjitma, bolam,
Bilmasdan birovni maqtamagin ham.
G‘unchani bag‘ri qon deydi shoirlar,
Biroq ochilganda ne chog‘liq ko‘rkam.

3

Ey inson, nazar sol o‘ng-u so‘lingga,
Munosib baho ber ushbu yo‘lingga:
Molni bo‘kirtirib so‘yasan, ammo
O‘kraysan, zirapcha kirsa qo‘lingga!

4

Jannat der: — Xush kelding, ey karam ahli.
A’rof der: — Sabr qil, ey alam ahli.
Bu yerda hech banda javobsiz qolmas.
Do‘zax der: — Yon endi, muttaham ahli.

5

His etib dunyoning shodligin, g‘amin,
Ulug‘ bir hikmatga bo‘lganman amin:
Yaxshi-yu yomonni ko‘tararkan teng.
Shu bois, ona deb nom olmish zamin.

6

O‘zbegim, munosib posbonlaring bor,
Sarhadlarda po‘lat qalqonlaring bor.
Sen ulug‘ Temurning zuryodidirsan,
Manguberdi kabi o‘g‘lonlaring bor.

7

Xalqimning istiqlol ahdi mangudir,
Buyuk davlatimning taxti mangudir.
Kelajak ko‘zimiz qarog‘i bo‘lsa,
Jajji farzandlarning baxti mangudir.

8

Ey, Ajal,
men sendan qo‘rqmasman hech ham,
Ro‘baro‘ kelmoqqa tayyorman har dam.
Sababi bittadir, sababi bitta:
Senga duch keldilar Otam ham Onam!

9

Tiklanish bir yonda, nurash bir yonda,
Javob bir yonda-yu so‘rash bir yonda.
Bu ko‘hna dunyoni tinch ko‘rmadim hech,
Ahillik bir yonda, kurash bir yonda!

1998

LUVR MUZEYIDA

(Farangiston xotiralaridan)

Luvrda — muzeyning bag'rida sokin
Ming yillik ashyolar turibdi qator.
Bunda shohlar taxti hashamdor, yorqin,
Bunda gadolarning sopoli ham bor.

Boqib, o'yga cho'mdim Luvr uyida,
Tarixni bus-butun ko'rarmikanman?
Payt kelib, O'zbekning bir muzeyida,
Singan sopolchalik turarmikanman?!

1998

UCHAR QUSHLAR

Uchar qushlar uchdi-ketdi,
Qo'llarimda pati qoldi.
Yoshlik ketdi, umrning ham
Sharti ketib, parti qoldi.

Dema, bukun sevgining ham
O'zi ketib, oti qoldi.
Lablarimda u bo'saning
Hech aynimas toti qoldi.

1998

* * *

Yurtimda beso'rov kezganing yetar,
O'zingni xoqondek sezganing yetar.
Bir yuz o'ttiz yil qul bo'ldim senga,
O'zbekni shuncha yil ezganing yetar.

1999-yil 18-aprel

O‘ZBEK ONASI

Mushtipar ham o‘zing, buyuk ham o‘zing,
Kuyinchak ham o‘zing, kuyuk ham o‘zing,
Olamga tatirlik suyuk ham o‘zing,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.

Seni To‘maris deb, maqtaganim bor,
Sen Temur beshigin tebratgan bedor,
Sensan Bibixonim, Nodirayi zor,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.

Vatanni Ona deb bekor aytilmas,
Ona buyurganda yo‘ldan qaytilmas,
Sen o‘zing Ka’bamsan, Baytul muqaddas,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.

Boshingdan nimalar o‘tmadi axir,
Vatandek taqdiring bo‘ldi goh taxir,
Bobur shoh bo‘lsa-da, qoshingda faqir,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.

Gohida balqiding Barchindek to‘lib,
G‘o‘zadek quriding Tursunoy bo‘lib,
Timsoling yalovda yulduzdek kulib,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.

Farzanding quvonsa — sen ham quvonding,
Faqat bolam deding, yashading, yonding,
Nokasi uchrasa, o‘rtanding, tonding,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.

Kelajak toychog'-u toyingizdadir,
Jannat ham, albatta poyingizdadir,
Vatan-ku, Siz turgan joyingizdadir,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey, o'zbek onasi, o'zbek onasi.

Sizga ta'zim qilib turibman bu payt,
Sizga baxshidadir eng shohona bayt,
Aziz Yurtboshingga duolaring ayt,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey, o'zbek onasi, o'zbek onasi.

1999-yil 6-mart

OLIY NE'MAT

Bir Xoja yo'liqdi nogahon dardga,
Holi tang, rangi ham aylangan zardga.

Qilmagan dori-yu darmon qolmadi,
Yelib-yugurishdan armon qolmadi.

Dunyodan umidin uzar bo'ldi u,
Oxirat kengashin tuzar bo'ldi u.

Xullas, paymonasi to'lganda butkul,
Kirdi eshigida ishlab yurgan qul.

Qulning tabiblikka daxli bor edi,
Unga shu asnoda omad yor edi.

Quldan bo'ldimikan, Xalloqdanmi yo,
Xoja shifo topdi, ba haqqi xudo:

— Ayo, qul, sen bo'lding dardim davosi,
Qilgan xizmatingning yo'qdir bahosi.

Sochayin boshingdan oltin va kumush,
Olgin xazinamdan eng katta ulush.

Istasang, mulkimning teng yarmin beray,
Toki men qulimni shod, xurram ko'ray.

Qul dedi: — Hozirman xizmatingizga,
Rahmat ham ayturman himmatingizga.

Biroq hozirgina dedingiz, Xojam,
Ya'ni xizmatimga baho yo'q hech ham.

Lekin oltinning ham bahosi bor-ku,
Oltinning bahosin bergan bozor-ku.

Hattoki xunning ham narxi bor, Xojam,
Bebahoning bundan farqi bor, Xojam.

Xoja o'ylab dedi: — Nima ekan u?
Qandayin ne'mat u? Qandayin inju?

Aytgin armoningni, bajargum shu zum,
Axir, sen tufayli ochiqdir ko'zim.

Qul dedi: — Bir ne'mat bordir — bebaho,
Unga sadqa bo'lsin mol-u mulk, dunyo.

Falaklar bekordir uning qoshida,
Malaklar bekordir uning qoshida.

Unga nisbat bersa — qafasdir jannat,
U shundoq tansiq his, tengi yo'q ne'mat.

— Uning nomi ne deb, qistardi Xoja,
Sirni bilmoqlikni istardi Xoja.

Qul dedi: — Bu ne'mat jondan-da totlik,
Nomi Ozodlikdir, nomi Ozodlik!

1991-yil avgust

AKTYOR

Bir kun tomoshaga tushib lahzada,
Turfa aktyorlarni ko'rib qaytibsan.
Lekin sen ularni faqat sahnada
Mavjud deb o'ylasang bekor aytibsan.

Chin aktyor san'at deb, bag'rini tig'lab,
Amallab kunini ko'rib yuradi.
Shunday insonlar bor, bir ko'zi yig'lab,
Bitta ko'zi esa kulib turadi.

Shunday insonlar bor, voy otam, deya,
Bir zumda o'zgarar turqi, siyohi.
Lekin o'sha mahal, o'sha soniya
Onasin ko'ksida turar oyog'i.

Shunday insonlar bor, go'yo yurtparvar,
Yurtini ulug'lar go'yo har so'zi.
Lekin razm solib qarasang agar,
Amal poyasida ikkala ko'zi.

Shunday insonlar bor, xalqim der har chog',
So'zlaydi hamisha olib xalq yonin.
Bir qo'li ko'ksida, bir qo'li biroq,
Tozalab boradi xalqning hamyonin.

San'atga umrini kim etmish fido,
Sharafi yuksalsin, olamni tutsin,
Hayotni o'yin deb bilganning ammo
Toleyi kulmasin, biri kam o'tsin.

2000

AJRIM

Dunyoning yarmini sayr etdi o'g'lon,
Kelib otasidan so'radi ajrim:
— Chin do'st topolmadim nega, otajon?!
Ota esa jim.

Yana dunyo kezdi charchamay o‘g‘lon,
Yana otasidan so‘radi ajrim:
— Vafo topolmadim nega, otajon?!
Ota hamon jim.

— Nega savolimga bermaysiz javob?!
O‘g‘lon turar edi nolakor, haqir.
Ota javob qildi uh tortib shu tob:
— Sen ham bor narsani axtar-da axir!..

2000

IKKI SHOIR

(Hazil)

Bir shoir arz etdi ikkinchisiga:
— Do‘stim,
shoirlikdan endi voz kechgum!
Qancha intilmayin xalqning ichiga,
She’rimni o‘qimas, o‘qimas hech kim.

Ikkinchisi uni yupatib dedi:
— Oldinroq ketibman men sendan ko‘ra.
Xalq-ku o‘qimasdi meni ham, endi
O‘zim ham o‘qimay qo‘yganman, jo‘ra.

2000

SHOIR YURAGI

O‘tar bu ko‘prikdan jamiki jonzot,
Chumolidan tortib fillar ham o‘tar.
Sultonlar o‘tadi goh shod, goh noshod,
Zanjirlarin sudrab qullar ham o‘tar.

Elchilarga o‘xshab turfa zamondan,
Shaloq aravalar “mers”lar o‘tadi.
Ro‘baro‘ kelishib ikki tomondan,
Bir-biriga tamom terslar o‘tadi.

Suyishganlar o‘tar, suyab bir-birin,
Buzuvchilar o‘tar, o‘tar ustalar.
Hushyorlar o‘tadi tejab ko‘z qirin,
O‘tadi emaklab piyonistalar.

O‘tib borayotir ana juft guruh,
Biri sho‘x, birovin ko‘zlarida nam.
Yetaklab bormoqda birini shukuh,
Boshqa birovini yetaklagan g‘am.

Oliftalar o‘tar — g‘arib siyrati,
Botirlar o‘tadi qalbida o‘tlar.
Beshiklar o‘tadi,— dunyo ziynati,
O‘tadi lapanglab, vazmin tobutlar.

Muttasil bu yo‘lda keladi to‘qnash,
Nur bilan zulumot, o‘lim va hayot.
Bu ko‘prik olamning o‘ziga o‘xshash,
Bir farqi — sohibi ixtiyorsiz zot.

Ko‘prik ostidagi jo‘sh urgan daryo,
Suv emas — o‘tganlar taxir ko‘z yoshi.
Har neni ko‘targan bir o‘zi tanho,
Bor na ta’mirchisi, na bir yuqdoshi.

Bu ko‘prik, bu ko‘prik qulasa agar,
Ne hislar qolardi sarson-sargardon.
Garchi qismatida bor qancha xatar,
Har nechuk bariga u balogardon...

2000-yil avgust

SIRLI OLAM

Yozuvchi va muharrir ukam
Hojiakbar Shayxovga

Hojiakbar, sen ajoyib adibsan, ko'rkam,
Maftun etding bizni nurli qalaming bilan.
Biroq nega qo'rqitasan, muharrir ukam,
"Qalb ko'zi"-yu, ajib
"Sirli olam"ing bilan.

Har sahifa orasidan devlar quturib,
Ins-u jinslar g'uj-g'uj chiqib kelaveradi.
Xotin emas, alvastilar uyni supurib,
Nabiralar "likopcha"dek yelaveradi.

Darpardalar silkinadi sirli ravishda,
Gaz o'choqdan cho'ziladi ajdaho tili.
Kelining ham odam emas, yovuz farishta,
Salom bergan "qor odam"ning jun bosgan qo'li.

Jiringlaydi yarim tunda telefon nogoh,—
U narigi dunyolardan xabar bo'lsa-ya!
Simyog'ochda qunishgan u qush emas, arvoh,
Balki o'zga sayyoradan anov hamsoya?!

Ular bizni ta'qib etar sira tinmasdan,
Bekorchiday, boshqa qilar ishlari yo'qday.
Biz ham uchib yurgandaymiz
yerga qo'nmasdan,
Latif olma yemishidan qornimiz to'qday.

Hojiakbar, aytganlarim kelmasin malol,
O'shalaring balki do'stdir, yoinki raqib,
Nima deysan bu gapimga, balki, ehtimol,
Ular emas, biz ularni etarmiz ta'qib?!

Balki ular qochib yurar bizdan har lahza,
Yer yuziga har qalay biz ko'proq burchlimiz.
Bizlar moddiy dunyo, axir, bizlar bor narsa,
Bilib qo'ygin, biz ulardan ancha kuchlimiz.

Mana, bitta tanishim bor, shunchalar makkor,
Ming ajinang qilolmaydi uning ishini.
Suhbatdoshi sal anqaysa bermay hech ozor,
Qoqib olar og'zidagi bor-yo'q tishini.

Boshqasi-chi, qitiqlamas shayton singari,
Lekin gapga biram chechan, kuldiraverar,
Qo'yib bersang, oqizadi suvni teskari,
Foydasiga bo'lmaganni bo'ldiraverar.

Yana birin bilib bo'lmas yoshmi yo keksa,
Bilib bo'lmas, sig'ingani rahmonmi, shayton.
Bitta ko'zi nimadandir duv-duv yosh to'ksa,
Boshqa ko'zi nimadandir charaqlar shodon.

Tag'in biri qo'llaringni o'pishga tayyor,
Noming sotib bitkazadi har qanday ishni.
Loydan o'tgach, unutadi barchasin, ayyor,
Hatto talab qila boshlar poyin yuvishni.

Bular tama qullaridir, lo'ttiboz va suq,
Xayolida na Alloh bor, na yurtning g'ami.
Bundaylarda nainki ko'z, qalbning o'zi yo'q,
Lekin sirga to'lib ketgan butkul olami.

Hojiakbar, jinlaringni eplab, aslida
Murosaga keltirish ham mumkindir hatto.
Lekin shundoq yoningdagi inson shaklida
Yashab yurgan iblislardan asrasin Xudo!

2000-yil oktabr

O‘ZBEKMAN

Yangi bir asrning ostonasi bu,
Yetishdim umrimning qutlug‘ yoshiga.
Tilimda shukrona, dilimda g‘ulu,
Tarix sarkotibin keldim qoshiga:

— Mana, men —
O‘zbekman, qo‘limda tug‘im
Va barcha a’molim bitilgan kitob.
Shuning ichidadir borim va yo‘g‘im,
Shuning ichidadir men uchun oftob.

O‘zbekman,
inshoolloh, imonim butun,
Tilim qisiq emas bashariyatdan.
Kimgadir tengdirman,
kimdandir ustun,
Zuvalam qorilgan samimiyatdan.

O‘zbekman, gohida iqbolim kulib,
Gohida o‘zimdan chiqqan ofatim.
Dunyoni olsam-da jahongir bo‘lib,
Go‘dak yig‘isiga yo‘qdir toqatim.

O‘zbekman, qanchalik jafo chekmayin,
O‘zimga haq bo‘ldim, o‘zimga haqman.
Yashadim yovlarga bo‘yin egmayin,
Bu kun o‘z erkiga erishgan xalqman.

Istiqlol, ketma yurt peshonasidan,
Tole, tark etmagin bizni ilohim.
Mana, yangi asr ostonasidan
O‘tdim.
Bismillohir rahmonir rohiym.

2000

SAHARLIK

Ro‘za kunlarida bizning uyda ham
O‘chmasdi tonggacha toat chirog‘i.
Ibodat qilardi otam va onam,
Men ham uyg‘onardim saharlik chog‘i.

Mo‘jaz dasturxonda shukrona taom:
Bitta chalpak non-u mayiz yo o‘rik,
Saharlik jimgina etardi davom,
Bularning bariga men ham bir sherik.

Yillar o‘tib ketdi, endi men uchun
Armon u kunlarning har bir fursati.
O‘sha azizlarim... ular yo‘q bugun,
Bitgan ular uchun ro‘za muddati.

2001-yil 20-noyabr

BO‘LDILO

Dedim: Yoshligimni qaytib ber, zamon,
Dedi: U gullaring payhon bo‘ldilo.
Dedim:
Tik qilsang-chi qaddimni, davron,
Dedi: U tog‘laring sayhon bo‘ldilo.

Falakka yetmadi chekkan unlarim,
Tiyra kunduzlarim, qora tunlarim,
Baxtiyor, bearmon kechgan kunlarim
Endi tutqich bermas jayron bo‘ldilo.

Yillar jarohatin bormi davosi,
Bormikan Luqmoni, bormi Sinosi.
Muhabbat mulkining nozik binosi
Hijron seli ila vayron bo‘ldilo.

Baxtga zor bo'lsam-da kuyladim baxtni,
Sarobga termilib, boy berdim naqdni.
Gohida somondek sovurdim vaqtni,
Ko'rganlar tamomi hayron bo'ldilo.

Suv izlab, qumlarga duch keldim ba'zan,
Madad berolmadim do'stga daf'atan.
Yovlarim qurshadi misoli tikan,
Ne-ne orzularim armon bo'ldilo.

Bu foniy dunyoda men ham bir sayyoh,
Gohida shoshildim, shoshiltirdim goh,
Asl manzil ekan u Oliy dargoh,
Qolgani shunchaki sayron bo'ldilo.

2002-yil sentabr

G'ALATI MANTIQ

Ajal kelsa ne diydalar
Yoshlanadi.
Xonadonda g'am-tashvishlar
Boshlanadi.
Qabristonning g'alvasin-ku
Qo'yaturing.
Zudlik bilan ko'chasini
Qayta quring.
Anov eski simyog'ochni
Bo'yash kerak.
Kesing darrov, ko'rinmasin
Manov terak.
O'ydim-chuqur yo'llarni tez
Asfalt qiling.
Janozaga axir kimlar
Kelar, biling!..
Bunday chog'da hamma totuv,

Esh bo‘ladi.
Bir kechada hamma ishlar
Besh bo‘ladi.
Voqealar birdaniga
Evrilsaydi.
Sho‘rlik marhum bir fursatga
Tirilsaydi.
Ko‘rar edi, mahallasi
Nechog‘ to‘kis.
Ko‘chasi ham binoyidek,
Ravon, tekis.
Holbuki, u shu yo‘llardan
O‘tgandi-ku.
Qish-qirovda avtobus ham
Kutgandi-ku.
Bosim oshib, ko‘zlari ham
Tingan edi.
Yaxda toyib, oyog‘i ham
Singan edi,
Yo‘l tuzaldi, biroq marhum
Yurmay ketdi.
Tirigida bu hurmatni
Ko‘rmay ketdi.
Gaplarimdan boshqa ma’no
Axtarmangiz.
Yo‘qni bor-u, borni yo‘q ham
Demang hargiz.
Bunday holga na yig‘lab, na
Kulish kerak.
Nahot bir ish bitish uchun
O‘lish kerak.

2002-yil dekabr

YAXSHILIK

Bu yorug‘ dunyoda davrini surib,
Birovga yaxshilik qilmaganlar bor.
Va lekin bir umr yaxshilik ko‘rib,
Uning nimaligin bilmaganlar bor.

Og‘ir dard chekkandim men ham bir zamon
Begona ellarda, do‘stlardan yiroq.
Madad bergan edi ulug‘ bir inson,
Men uning siymosin unutay qandoq.

Yarqirab turibdi ko‘ksingda yulduz,
Osmondan tushmagan u ham, hoynahoy.
Kimdir sen haqingda aytdi yaxshi so‘z,
Shundan ko‘kragingda yulduz topdi joy.

Deydilar, dunyoning doim biri kam,
Yaxshilik qilish ham osonmas biroq.
Mening nazarimda, yaxshilikdan ham,
Uning qadrin bilmoq ming bor yaxshiroq

2003-yil 16-fevral

YAPON

Boshimda do‘ppi-yu, egnimda chopon,
Mehmon bo‘lib keldim, men senga yapon.

Sake sharobingdan bir qultum yutdim,
Oroldan orolga sakradim, o‘tdim.

Yaponcha salom bu — qaddim — toki yo
Senga ehtiromim bo‘lsin, Tokio.

Sayr etdim Kioto ko‘chalarida,
O‘y surdim yomg‘irli kechalarida.

Qadrdon ko‘rinding menga chindan ham,
Kamtarin tog‘amday yo mushfiq xolam.

Ixcham qadamlaring, qisiq ko‘zlaring.
Buncha dilga yaqin o‘g‘il-qizlaring.

Sira parvo qilmay o‘tar umrga,
Jon berib turibsan toshga, temirga.

Rulsiz mashinada asra omonda,
(Haydovchi o‘ltirar boshqa tomonda.)

So‘rayman o‘rtaga qo‘yib vijdonni:
Sen qanday zabt etding butkul jahonni?

She’r yozib, gap sotib turibman shu on,
Yapon-chi, ish bilan mashg‘uldir yapon!

2003-yil iyun

RUHIYAT

Qaydadir toliqib, tin olar dengiz,
Yam-yashil qirlarga cho‘ka boshlar tun.
Sokin havo uzra taralar unsiz —
Yapon ohanglari mahzun va uzun.

Yomg‘ir yog‘a boshlar — nomsiz bir armon,
Ruhimga mo‘ralar o‘zga bir dunyo.
Ular bari tanish... Balki bir zamon
Men ham yapon bo‘lib yashadimmi yo.

2003-yil iyun

IBRAT

Mendan yapon kim deb so‘rama, ukam,
O‘zingcha bejama o‘z palagingni,
Agarchi yumaloq erur bu olam,
Dunyo deb o‘ylama handalagingni.

Taqdirdan o‘zgasi ko‘pincha yolg‘on,
Hech kim bo‘la olmas baxtning o‘g‘risi.
O‘rgatgani kelmas dunyoga inson,
O‘rgangani kelar, to‘g‘risi...

2003-yil iyun

KARVON

Dunyoda tugamas ekan armonlar,
O‘tdi qancha zamon, qancha sarbonlar.
O‘tira beribman buyukman deya,
Manzilga yetibdi boshqa karvonlar.

2003-yil 13-iyun
Tokio shahri

YAPON

Sening amalingga qoyildir jahon,
Burgani taqalab qo‘ygaysan oson.
Nozik san’atingga tikilaverib,
Ko‘zlarim qisilib ketdi-ku, yapon.

2003-yil 18-iyun

O‘ZBEK NONI

Qaysi bir zamonda, qaysi bir Sulton
Topibdi aqchani, topibdi shonni.
Va lekin duch kelib taqdir beomon,
U orzu qilibdi bir burda nonni.

Bir ulug‘ alloma fikrin aylab jam,
So‘zimni matalga yo‘ymanglar, debdi.
Tokchaga bo‘y cho‘zsang, Qur’on tursa ham,
Nonga sira oyoq qo‘ymanglar, debdi.

Non va O‘zbekiston uyqashdir azal,
Bu yurtga ne ellar non deb kelganlar.
Sargashta qushlar ham doim, galma-gal
Bu yurtdan rizqini terib yeganlar.

Yurtim,
buyukliging bildi keng jahon,
To‘ldi omborlaring o‘z doning bilan.
Siylaysan olamni yozib dasturxon,
Mehnatdan yaralgan shu noning bilan.

Seni ushbu kunda qutlayman, yurtim,
Rizqingni but qildi oltin xirmonim.
Har issiq noningni quyoshday ko‘rdim,
Dunyoga non bergan O‘zbekistonim!

2003-yil avgust

IQROR

Sen yaxshi ko‘rasanmi
yo yomon ko‘rasanmi —
Shu daryo meniki.

Sen yaxshi ko‘rasanmi
yo yomon ko‘rasanmi —
Shu tog‘lar meniki.

Sen yaxshi ko‘rasanmi
yo yomon ko‘rasanmi —
Shu sahro meniki.

Sen yaxshi ko‘rasanmi
yo yomon ko‘rasanmi —
Shu bozor meniki.

Sen yaxshi ko‘rasanmi
yo yomon ko‘rasanmi —
Shu mozor meniki.

Yaxshidir, yomondir —
shu Vatan meniki.

2003-yil oktabr

MENING HASRATLARIM

Mening hasratlarim,
Sizlar buncha ko‘p,
Inon-ixtiyorim qo‘lga olgansiz.
Gohi yolg‘iz-yolg‘iz, gohida to‘p-to‘p,
Go‘yo tug‘ishganim bo‘lib qolgansiz.

Biringiz — bolamdan yaralgan hasrat,
Og‘riysiz, ezasiz yurak-bag‘rimni.
Biringiz — hasaddan qolgan jarohat,
Ichimga yutganman zahrimni.

Biringiz — og‘amdek iltifot etib,
Lekin begonasan, degan so‘zdansiz.
Biringiz — erta-kech zavolim kutib,
Yovuz niyat bilan boqqan ko‘zdansiz.

Biringiz — tun-u kun tarqatib mish-mish,
Do‘stlarim orasin buzganlardan dog‘.
Biringiz — qo‘limdan yeb turib yemish,
Ishonch rishtalarin uzganlardan dog‘.

Qochgan ham, quvgan ham Xudoyim dermish,
Har kimning orzusi — egarlangan ot.
Dunyoda ko‘rganing — ko‘rgilik emish,
Balki but emasdir hasratsiz hayot.

Mayli, sinovlarga duch kelay har on,
Roziman, baxsh etding hayot nusratin.
Lekin ko'rsatmagin, Tangrim, hech qachon
Farzand hasrati-yu Vatan hasratin.

2003-yil noyabr

SHAMBALA

Olis Himoloyda, Tibet tomonda
Bor emish Shambala nomli mamlakat.
Bizdek davron surmish qay bir zamonda,
Hozir yer ostida yasharmish faqat.

Lemur, Atlant emish ularning nasli,
Hatto koinotga sololgan titroq.
Ular odamzodning pushtidir asli,
Tanlari muz qotgan, ruhlari uyg'oq.

Magar yer yuzini chulg'asa balo,
Inson xudo desa aqchani, zarni,
Imonni himoya aylab Shambala
Jo'natib turarmish bir payg'ambarni.

Ular orasida bormikan o'zbek —
Bunisi, albatta, menga noayon.
Biroq yer ustida aybimiz birdek,
Buzilib ketdi-ku tag'in bu jahon.

Odamzod charog'i o'chmasin toki,
Shambala, qavmingga yana parvo et.
Biror vakilingni jo'natgin, yoki
O'sha diyoringga bizni olib ket.

2004-yil aprel

TUYG‘ULAR

Dunyo ishlariga boqib hayron, lol,
Shogird ustoziga berdi-ku savol:

— Mudom o‘tganlarni yod aylagaymiz,
Yod aylab, ruhlarin shod aylagaymiz.

Devorlarga osib cho‘girmasini,
O‘tkazamiz yetti, yigirmasini.

So‘ngra qirqi bo‘lar, yili bo‘ladi,
Ketgandan qolganning ko‘ngli to‘ladi.

Chorlab mamlakatni ehson oshiga,
Baytlar ham bitamiz qabr toshiga.

Bularning barchasi savob, albatta,
Tirik bandalarga ibratdir katta.

Insonlik rutbasi nechog‘ muhtasham,
Yelkada eltamiz hammasini ham.

Biroq yecholmadim men bir savolni,
Sharhlay ololmadim sira bu holni.

Insonda jam bo‘lmish ne-ne tuyg‘ular,
Ular ham tug‘ilar, yashar va o‘lar.

Nechun tuyg‘u o‘lsa ochilmas aza,
Nechun o‘qilmaydi unga janoza?

Marhum bo‘lib ketdi chunonchi vijdon,
Ko‘z yoshi to‘kmadi bironta inson.

Kimdir o‘q uzibdi turib panada,
Mehr halok bo‘ldi Qo‘riqxonada.

Mehrsiz qolsa ham katta-kichik jim,
Go'yo eshitmagan bu gapni hech kim.

Bir hakam Insofdan so'rabdi pora,
Ko'ksiga tig' urmish Insof bechora.

Hayo ham osibdi dorga o'zini,
Birov aytgani yo'q taskin so'zini.

Hech kim parvo qilmas bunday zavolga,
Ustoz, javob bering ushbu savolga.

Ko'zlarini yumib valilar kabi
Ustoz javob qildi qimtinib labi:

— Aza ochilmaydi hech kimga agar
Tiriklikdan bo'lsa zarracha asar.

Sen buncha vahima qilma, bolajon
Ularning ko'plari hali chalajon.

Agarda butunlay topsalar barham,
Bo'lmasdi ularni so'rovchilar ham.

2006-yil 25-may

TALOSH PALLASI

Quyosh botib borar,
Ufq qirmiz rang,
Qurshab olayotir yer yuzini tun.
So'nggi daqiqada qilayotir jang
Tun va kun, tun va kun, tun va kun.

Talosh payti derlar ushbu lahzani,
Olishar oshkora nur bilan zulmat.

Borliq jim kuzatar qonli sahnani,
Har yonda vahmkor, sirli sukunat.

Shamol ham qaygadir berkingan bu on,
G'ujg'on qushlarning ham tingan nafasi.
Safarga chiqilmas, o'qilmas Qur'on,
Talosh pallasi bu, talosh pallasi.

Tongda qayturman deb, umidga to'lib,
Falak puchmog'iga chekinar Quyosh.
Endi marjon-marjon yulduzlar bo'lib,
Samo yanog'ida yaltiraydi yosh.

2006-yil 9-oktabr

KELDIM...

Keldim...
Ketmoqdaman.
Sariq yaproqlarda
G'arib, xazin kuy.
Seni uzoq yillar
Sog'ingan edim.
Keldim...
Ketmoqdaman.
Kechir, Ona uy.
Meni eslatguchi
Biror narsa yo'q.
Otam yo'q. Onam yo'q.
Na shodlik, na g'am.
Faqat hammasini
Yodimga solib
Ko'rinding ko'zimga -
O'zing Hanifam...

2006-yil 23-oktabr,
Nekuz qishlog'i

ODINA MASJIDI

Yovuzlik keldi-yu, yomonlar birdan
O'zlarin zulmga shaylantirdilar.
Marhumlar badarg'a qilindi go'rdan,
Masjidni zindonga aylantirdilar.

Zulmat nur eshigini daf'atan yopib,
Falakda mo'ltirab qoldi yolg'iz oy.
Zindonning eng ovloq burchagin topib,
Menga ham tayyorlab qo'ydilar bir joy.

Ezgulik keldi-yu odamlar nogoh,
O'zlarin savobga shaylantirdilar.
O'tganlar ruhidan bo'ldilar ogoh,
Zindonni maktabga aylantirdilar.

Qaytdi to'lin oy ham uning yoniga,
Taqdir o'yiniga buni yo'ydilar.
Maktabning eng baland bir javoniga
Endi kitoblarim taxlab qo'ydilar.

2006-yil 27-oktabr,
Qarshi

NAKURT

Shoir Azim Suyunning qishlog'isan, sen Nakurt,
Tog'lar saltanatining ajib, suluv makoni.
Qoyalarda olqor-u cho'qqilarda sor burgut,
Qiyoq o'tlar shiviri uning sirli zaboni.

Yam-yashil daralarda aylanib shamol uchar,
Tillaqo'ng'iz qanotin yelpiydi parvozga shay.
Shu on buta tagidan yo'rg'alab kaklik o'tar,
Osmonda tomoshabin — muallaq so'fito'rg'ay.

O‘zicha balog‘atning betakror zavqin surib,
Toshdan toshga sakraydi o‘spirin uloqchalar.
Qaysidir serkachaning noshud ahvolin ko‘rib,
Uzala tushganicha qiqirlar buloqchalar.

Nozanin bir malakning billur ko‘zgusidir bu –
Bulutlar orasidan quyosh nazar tashlaydi.
Bor ekan-ku dunyoda bundayin sokin tuyg‘u,
Dolg‘ali umrim yo‘li yodga tusha boshlaydi...

2007-yil 17-may

INSON

Senga bo‘lsin ezgu hislarim,
Nafratlarim boshqa yoqlarga.
O‘zni tanib, Seni izladim,
Duch kelsam ham shum siyoqlarga.

Birov seni avliyo dedi,
Birov dedi mehnatkash siymo.
Gar siyrating yodimda edi,
Suvratingni ko‘rmadim ammo.

Yo‘liqasan go‘dak bo‘lib goh,
Goh mo‘ysafid, goh shod, goh nolon.
Kimligingdan bo‘lmadim ogoh
Va atadim nomingni — Inson.

2007-yil 20-noyabr

INSON OMILI

Samolyotlar qular,
Kemalar cho‘kar,
Poyezdlar izidan chiqib ketadi.
Bu holning sababin qancha izquvar,
Qancha idoralar tahlil etadi.

Kichik murvatgacha axtarib topib,
Tekshirar ilmning necha komili.
Oxiri besamar daftarin yopib,
Deydilar: sababchi inson omili.

O, inson omili, so'nggi sababkor,
Tangri qoshidagi yolg'iz dalolat.
O'zingning dardingga o'zingsan aybdor,
O'zingga yuklaysan o'zing malomat.

Hatto nadomating o'zingga tortiq,
Cho'kkan kema bilan cho'kkaymi zoring.
Baridan ortiqdir, baridan ortiq
Sening bir-biringga bergan ozoring.

G'alva chiqarmoqqa sen doim shaysan,
Buraysan tinch turgan boshning murvatin.
Umring o'tib borar, sen-chi yashaysan
Bir shumlik qilishning poylab fursatin.

Ne-ne zakiy zotlar sening dastingdan
Shaytonga koranda bo'lgani ham rost.
Sening makringdan-u sening qasdingdan
Kimlardir beajal o'lgani ham rost.

Ulug' kashfiyotlar seniki garchand,
O'zingsan falakning tengsiz olimi.
Bir kun mehvarida zamin yesa pand
Sabab bo'lmasmisan, inson omili.

2007-yil 23-dekabr

MENGA XUSHXABAR AYT...

Menga xushxabar ayt, yolg'on bo'lsa ham...
Dard-u mashaqqatlar o'tgaydir bari,
O'ksima, oyoqqa turgaysan, deb ayt.

Umringni farahbaxsh, totli onlari
Hali oldindadir, ko‘rgaysan deb ayt.

Menga xushxabar ayt, yolg‘on bo‘lsa ham...
Do‘stlaring bordir-ku hali dunyoda,
Seni kulfatlarda qoldirmas deb ayt.
Yovuzlik bo‘lsa ham haddan ziyoda
Seni changaliga oldirmas, deb ayt.

Menga xushxabar ayt, yolg‘on bo‘lsa ham...
Olis muhabbating so‘nmagan hamon,
To hanuz unutmay yuribdi degil.
Sarg‘aygan daftarin varaqlab pinhon,
U seni tushida ko‘ribdi degil.
Menga xushxabar ayt, yolg‘on bo‘lsa ham...

2008-yil 7-iyun

CHINGIZ AYTMATOV

O‘tdi Chingiz og‘a,
Tengsiz bir daho,
Ulug‘ bir qissago‘y, tug‘ma donishmand.
Mayda tuyg‘ularni suymasdi aslo,
Mahobati esa Manasga monand.

U inson dardini kuyladi to‘lib,
So‘zni aziz bildi non bilan tuzdek.
Mehr-u sadoqati mustajob bo‘lib,
Adibni boshiga ko‘tardi o‘zbek.

Ota yurti uchun kurashlarga shay,
Ne buyuk zotlarga bo‘ldi hamnafas.
Qirg‘iz ekanligin zarra unutmay,
Tulporin boshqacha kishnatmadi, bas.

2008-yil 12-iyun

IMON

Qanday ko'kararding, aytgin, birodar,
Agar, Vatan degan bo'ston bo'lmasa.
Yuksalarmiding yo tog'larga qadar,
Tepangda cheki yo'q osmon bo'lmasa.

Zaminda mavjuddir turfa xil jonzot,
Biri o'rmalaydi, birida qanot.
Mukarram atalmas inson degan zot,
Qalbida zarracha imon bo'lmasa.

Baribir g'alati qavmdir bashar,
Bir umr nafsiga qul bo'lib yashar.
Haqqa yetishardi, yo'lida agar,
Hamrohi hazrati Shayton bo'lmasa.

Ezgu niyatlarni ko'zladim faqat,
Garchi yuragimda armonlar qat-qat.
Kuyishlar, yonishlar lekin na hojat —
Seni anglaydigan Inson bo'lmasa.

2008-yil 29-sentabr

HIMOYA

Bu bir tushdir:
She'r o'qirmishman
Ilhomimning jo'shgan pallasi.
Tashlanibdi menga daf'atan
Allaqanday itlar galasi.

Quturishib, uvvos solishib,
Qilmoqchilar baxtimni yarim.
Atrofimni o'rab olishib
Chirqirardi nabiralarim.

Bu bir tushdir:
Cho'chitmas meni,

Axtarmasman hech undan g‘oya.
Lekin, aniq: payt kelsa seni
Avlodlar ham qilgay himoya.

2008-yil 14-noyabr

HUJJATSIZ ODAM

Har qanday tarix ham ibratli emas,
Ibratsiz ham kechmas hayot batamom.
Qay yurtda qaysi bir kimsani, xullas,
Qamab qo‘yishdilar qay kun, vassalom.

Balki to‘dasidan adashgan sayyoh,
Balki qismatidan qochib yurgan qul.
Unda na hujjat bor va na bor guvoh,
Kim va qaydanligi mubhamdir butkul.

Tushunib bo‘lmasdi tilini mutlaq,
Aqli butundayin, hushi joyida.
Yechilmog‘i kerak lekin bu jumboq,
Shuni talab qilar qonun, qoida.

Mirshablar tinmayin izlashdi chora,
Tayin etmoq zarur uning hujjatin.
Oxir o‘qidilar erinmay sira
Dunyo davlatlarin uzun ro‘yxatin.

Qanchalar rang-barang olam va odam,
Ellar, mamlakatlar, shaharlar turlik.
Tug‘ilgan yurtining nomi chiqqan dam
Qiyqirib yubordi haligi sho‘rlik.

Har qanday tarix ham ibratli emas,
Ibratsiz ham kechmas hayot batamom.
Hatto chumolining Vatani bor, bas,
Insonning hujjati Vatan, vassalom!

2008-yil 10-dekabr

AVLIYOLAR

Deydilar, qaydadir, Shambala yoqda
Aziz avliyolar ruhi yasharmish.
Ular qo'llar emish bizni yiroqda,
Tibet tog'laridan gohi osharmish.

Gohida Yassaviy, Naqshband gohi
Namoyon bo'larmish biror makonda.
Nechog'liq keng erur Alloh dargohi,
Sir-u sinoat ko'p vaqt-u zamonda.

Deysan, ular ruhi kezarkan beshak,
Bilmasmi, to hanuz kutmoqda xalqi.
Oh, buyuk tilsimga keltirmagil shak,
Ular yonginangda yuribdi balki.

2009-yil 4-yanvar

ODAT

Nimanidir izlar tinmag'ur Odam,
Zulmatda axtargan kabi ziyoni.
Gohi falaklarga termilsa mubham,
Gohi hasratlarga ko'mar dunyoni.

Olis manzillarga karvonin yo'llab,
Gohida umidbaxsh duolar aytar.
Bizni umr bo'yi tursin deb qo'llab,
Har xil qabrlarga sig'inib qaytar.

Bir kun el ichidan chiqib yovqur zot
— O, qavmim, zaminga yaragin, dedi.
Sen aql sohibi,
Sen zo'r mavjudot,
Oyog'ing ostiga qaragin, dedi.

Garchi qancha tashvish, qancha iztirob,
Qancha xavf-u xatar yo'llaringdadir.
Turfa sinovlardan chekasan azob,
Holbuki, barchasi qo'llaringdadir.

Tangri ato etmish senga Tafakkur,
Inshoolloh, dardlaring topgaydir barham.
Sen davron surgaysan zamin uzra hur,
Qadaming qo'ygaysan yulduzlarga ham.

Odamlar chuvlashib dedilar: — Rahmat!
Sen bizga eslatding bardosh, sabrni.
Biroq tarqalishdi o'tmayin fursat
Axtarib ketdilar yangi qabrni.

2009-yil 24-yanvar

TAVALLO

O'qing Anvar qori, o'qing, birodar,
Muqaddas Qur'onning oyatlaridan.
Ruhimga tinimsiz yog'dular yog'ar,
Cheksiz samovotning qavatlaridan.

O'qing "Fotiha"ni, o'qing "Yosin"ni,
Tavba eshiklari ochilsinlar lang.
Tazarru deb biling ko'zda yoshimni,
O'qing, barchamizga shafoat tilang.

O'qing, bor gunohlar butkul to'kilsin,
Arshgacha yuksalsin savobning haddi.
O'qing yovuzlikning beli bukilsin,
Toki ezgulikning rost bo'lsin qaddi.

Insonni ming yillar jaholatidan
Asliga qaytargan imon-ku axir.
O'qing, ilohiy so'z haroratidan
Erisin hattoki tosh qotgan bag'ir.

O‘qing, zarra g‘ubor qolmasin dilda,
Kunduz quyosh guvoh, tunda guvoh oy.
Mo‘minlar qatori o‘sha manzilda
Bormikan menga ham tangachalik joy?..

2009-yil 16-iyun

HURRIYAT

Hurriyat, muqaddas bayrog‘im o‘zing,
Garchi g‘animlar bor ich-u toshingda.
Men uchun faxrdir har aytar so‘zing,
Bir umr parvona bo‘lgum qoshingda.

Hurriyat, dadil boq, yovlar ig‘vosi
Tutsa, etagingdan tutaversinlar.
Hasadga to‘ladir ular da’vosi,
Oldingdan bari ham o‘taversinlar.

Hurriyat neligin mash’um zamonda
Poymol bo‘lgan huquq, haqqimdan so‘rang.
Qadrin topolmayin yashab armonda,
Tili zabun bo‘lgan xalqimdan so‘rang.

Hurriyat neligin xoki xor bo‘lgan
Imom Buxoriydek Insondan so‘rang.
Vatani o‘ziga tang-u tor bo‘lgan
Qodiriydan so‘rang, Cho‘lpondan so‘rang.

Odamzod bor ekan ko‘kka tikib ko‘z,
Orzu qilganini kutgay betoqat.
Tarix tuhfa bersa, olgay u so‘zsiz,
Hurriyat atalmish gavharni faqat.

Shoirlar yozgaydir qasidasin ham,
Kuylab hurriyatning xush safosini.

Rizqin terib yursin, mayli, har odam,
Har el aziz tutsin Rahnamosini.

Bolam, sen yo‘ldasan, yet niyatingga,
Ozod kechgan umr — jannatlardan soz.
Bilib qo‘y, shu qutlug‘ Hurriyatingga
O‘n sakkiz ming olam fido bo‘lsa oz!

2009-yil 20-iyul

ODDIY HAQIQAT

Bobolar uqdirmish necha zamonlar,
Ajalning oldida jonimiz bir deb.
Nogoh duch kelishsa hatto hayvonlar,
Bir-birin tanirmish, qonimiz bir deb.

Inson fazolarga chiqsa ham garchand,
Zaminga bog‘liqdir umri, hayoti.
Odam degan so‘zga jon ipi payvand,
Har xil bo‘lsa hamki rutbasi, oti.

Birimiz oqdirmiz, birimiz qora,
Birimiz bug‘doyrang, shundoqmiz, xullas.
Taroq tishlaridek tengmiz va sara,
Bir xildir hamisha orzu va havas.

Bitta deb sipqordim, taqdir, jomingni,
Bitta olov bo‘lib taralgay ohim.
Yagona bo‘lsang-da, turfa nomingni
Barchaga tarqatib berding, Allohim.

Baxt bir xil quvnatar, bir xil ezar g‘am,
Bir xil tug‘ilgaymiz, bir xil o‘lgaymiz.
Yig‘lasak bir xildir ko‘z yoshimiz ham,
Kulsak ustimizdan asli kulgaymiz.

2009-yil 4-oktabr

XABAR

Turfa xabarlarni tinglaymiz har kun,
Qaydadir toshqin-u, qaydadir bo‘ron.
Xabarlarga to‘la bu olam butun,
Xabarlarga to‘la har lahza, har on.

Daydi shamolning ham mujdasi bordir,
Kabutarlar berar poklikdan xabar.
Telefonlar esa doim bedordir,
Xabar tarqatadi to tongga qadar.

Olis qit’alardan xabarlar kelar,
Kelar sog‘inch sasi, g‘azab yo alam.
Uchqur raketalar fazoda yelar,
Keladi ularning xabarlari ham.

Xabar kutib o‘tar kunlarim sekin,
Xabarlar to‘xtamas, bundan ko‘nglim to‘q.
Biz bitta shaharda yashaymiz, lekin,
Sendan xabar yo‘qdir,
sendan xabar yo‘q....

2010-yil 10-yanvar

QORA TAQDIR

Qora taqdir kezib yurar yer yuzi bo‘ylab,
Tirnoqlari o‘sib ketgan, sochlari pahmoq.
Bir zum tinmas yovuzlikning rejasin o‘ylab,
Yuragida qahr-u g‘azab, qo‘lida yaroq.

Kemalarni cho‘ktiradi dovul bo‘lib u,
Chaqmoq bo‘lib uchoqlarga uradi changal.
Fitna qo‘zg‘ab saroylarga soladi g‘ulu,
Bezgak bo‘lib ovullarga tarqatar ajal.

U istaydi, biror kimsa topmasin omon,
U istaydi, ho'l-u quruq barobar yonsin.
U istaydi, tinch turmasin zamin-u osmon,
Tog'lar titrab, avliyolar dinidan tonsin.

Qora taqdir, qora taqdir, nimasan o'zing,
Qaysi manzil, qay makondan chiqqansan, ofat?!
Axir nechun ezgulikni ko'rmaydi ko'zing,
Nechun sening axtarganing doim falokat?!

Qora taqdir, sendan xoli yasharmi olam,
Yasharmikan zug'umingdan nola chekmay to.
Qora taqdir, qaysi qudrat senda bo'lmish jam,
Soqqa qilib o'ynagaysan o'limni hatto.

Qora taqdir, noming asli ayovsiz qismat,
Duch qilding sen odamzodni mudom bir korga.
Iblis bo'lsang, umrim bo'yi o'qirman la'nat,
Hasratimni aytgum yolg'iz Parvardigorga.

2010-yil 29-yanvar

BEGONA

Ko'changdan adashib o'tsam nogahon,
Menga g'anim kabi yovqarash qilma.
Mayli siylamagil misoli mehmon,
Mayli gap qotmagil, nazarga ilma.

Sen uchun na yaproq va na tomirman,
Yangilik emasdir axir bunday hol.
Axir men adashib yog'gan yomg'irman,
Axir men adashib esgan bir shamol.

Kimdir sherik bo'lsa gar hayotingga,
Uning bahosini bergaysan shul dam.
Noil bo'lolmadim iltifotingga,
Men loyiq emasman nafratingga ham.

Qalbing darvozasi berkdir men uchun,
Uning kaliti bor senda yagona.
Ko'changdan adashib o'tdim, sen tushun,
Ko'changdan adashib o'tdi begona.

2010-yil 14-fevral

O'ZBEK

Xalqimning tarixi juda ham qadim,
Hamisha oqqan u daryoday to'lib.
Hali turfa dinlar bermasdan ta'lim,
Dunyoga tanilgan Xorazm bo'lib.

Ko'hna Samarqand-u Buxoro-yu Shosh
Mudom kimligimiz anglatib turgan.
Ne ellar Temurga bo'lay deb yondosh
Qo'liga obdasta olib yugurgan.

Ko'hna shajarani chuvatsang agar,
Uchi borib yetgay Odam Atoga.
O'zbek unvoningdan tonma, birodar,
Tayanib kimlardir qilgan xatoga.

Hanuz suzib yurar Nuhning kemasi,
Barcha jonzotlarning qismati birdek.
Biz ham alal-abad hujjat egasi,
U yerda yozilgan O'zbek deb, O'zbek!

2010-yil 5-aprel

QAYTISH

Umrim safarlarda o'tibdi ko'proq,
O'tibdi samoviy tayyoralarda.
Goho xayollarga cho'mibman uzoq,
Kezibman u olis sayyoralarda.

Qay bir kun Zaminga tushdim shaylanib,
Balki jonga tegmish osmon hududi.
Shu zahot yiqildim boshim aylanib,
Meni mast qilgandi tuproqning hidi.

Boqib ona yerga to'ymasdim aslo,
Turfa go'zallikka to'lgan har taraf.
Unut xotiralar uyg'ondi go'yo,
Ko'zim yarq ochildi tegramga qarab.

Siz — cheksiz dalalar, yam-yashil xilqat,
Qachondir yo'qotgan boyligim --zarim.
Bo'tako'z, qoqio't — barglari qat-qat,
Salomat bormisiz, azizalarim.

Sayroqi qushlarim, bormisiz omon,
Bormisan, ufqqa cho'zilgan so'qmoq.
Bormisan, qirlarda chopib bearmon,
Uchqur shamol bilan o'ynashgan toychoq.

Bormisan, tinmagur mitti chumoli,
Men sening do'stingman, buni bilgaysan.
Payt kelib vujudning yetsa zavoli,
So'nggi suhbatdoshim o'zing bo'lgaysan.

Oqshom cho'ka boshlar, osmon qa'ridan,
Sekin taraladi yulduzlar nozi.
Kelar qorong'i tun puchmoqlaridan,
Yolg'iz bir ukkining mungli ovozi.

Falakda goh chaqnab, goho yo'qolib,
Yana chorlar meni o'sha sayyora.
Yana bosh ustimdan gulduros solib,
Uchib o'ta boshlar tanish tayyora.

2010 yi 6-aprel

VORISLIK

Har qanday g‘aflatning intihosi bor,
Tong otib, bedorlik boshlangay yana.
Oxiri, g‘am bosgan joyda ham takror,
Shodlik qayta boshdan qilgay tantana.

Ko‘zga yosh berilgan,
barmoqqa uzuk,
Toy bosib kelgaydir otning izini.
Silsila bardavom bo‘lmog‘i tuzuk,
Har kim zuryodida ko‘rgay o‘zini.

Azaliy bu zanjir kelar uzilmay,
Bor bo‘lsa, bandasi yo‘qota olmas.
Palapon ulg‘ayib, uchmoqlikka shay,
Zargar dastgohi ham egasiz qolmas.

Kimdir ezgulik deb tinmaydi, biroq
Kimdir xanjar bilan yo‘lini poylar.
Hayotning mana bu yo‘rig‘iga boq:
Yovuz ham yovuzni himoyat aylar.

Bunday vorislik ham nahotki mangu,
Boisin bilolmay, boqurmiz nochor.
Bu dunyo nafis bir chinni ekan-u,
Ko‘ksida darz ketgan chiziqlari bor.

2010-yil 14-aprel

FIL

Shafqat ko‘rgizdilar qari bir filga,
Uni zanjiridan qildilar ozod.
Ketdi u o‘rmonga — so‘nggi manzilga,
Xartumini silkib, aylab xayrbod.

Qirq yil yog‘och tashib topdimi qadr,
Har nechuk yashadi xo‘ragin oqlab.
Fil-ku ozod bo‘ldi, lekin negadir
Odamlar zanjirni qo‘ydilar saqlab.

2010-yil 27-aprel

POYEZD

Sayohatdan topdim ruhimga dalda,
Axir xonanishin kunlardan bezdim.
Men seni betoqat kutdim vokzalda,
Nega kechikasan, mening poyezdim.

Olis manzillarda sirli bir diydor,
Sirli chamanlarning iforin sezdim.
Ko‘rgim kelayotir ularni takror,
Nega kechikasan, mening poyezdim.

Bedor o‘tkazganman qancha tunlarni,
Hijronlar dastidan yurakni ezdim.
Sog‘indim farahbaxsh, oydin kunlarni,
Nega kechikasan, mening poyezdim.

Qaydadir halovat, nurli visol bor,
Men uni topay deb bir umr kezdim.
Qo‘limda safarning chiptasi tayyor,
Nega kechikasan, mening poyezdim.

2010-yil 7-may

IQROR

Har qanday savolning javobi-ku bor,
Qolgani vijdonga mayli havola.
Garchi bo‘lmasa ham aybiga iqror,
Ko‘zin olib qochar gunohkor bola.

Aslida insonga mardlik xos erur,
Haqqa u doimo ko'ksin ochgaydir.
Lekin Alloh nomin eshitsa bir qur
Bandasi ko'zini olib qochgaydir.

2010-yil 27-may

BERUNIYGA MAKTUB

Termizlik buyuk alloma Ahmad Usturlobiyning Abu Rayhon Beruniyga yozgan maktubi ma'lum bo'ldi.

Ming yillar muqaddam Xorazm tomon
Ahmad Usturlobiy yubormishdir xat.
Yosh olim Beruniy topsa gar imkon
Kelib ketsin, demish, Termizga albat.

Demish: — "Fazolarni o'rganmoq uchun
Usturlob yasadik, yaratdik dastur.
Shoyad, zehnimizdan sachragan uchqun
Sizdek iqtidorga bo'lolsa manzur".

Ajabo, oradan asrlar o'tib,
Men ko'rib turibman xatni zohirda.
Kecha To'ytepadan yo'llangan maktub
Bugun o'qilganday Shayxontohurda.

Chindan ham o'chmagay taralgan bir bong,
So'nmas buyuklarning o'tli kalomi.
Daf'atan hayajon uyg'otsa ne tong
Hatto maktublarda bitilgan nomi.

Siz dersiz, shunchalar noyobmi bu hol,
Har kim ham yo'qlagay do'stni — mahbubni.
Bir kunda har qanday odam ehtimol
Yozishi mumkindir mingta maktubni.

Lekin o‘z maqomin buzmagan hayot,
Uning o‘lchovlari qat’iy, must
Har kuni tug‘ilmas Beruniydel
Har doim uchramas Usturlobiy

2010-yil

MANZARA

Ikki tobut chiqdi bitta ko‘chadan,
Qazoga xos edi g‘amgin manzara.
Kimlardir qarasa go‘sha-go‘shadan,
Kimningdir qalbida silqidi yara.

Azaldan barchaga tanish ushbu hol,
Davom etib kelar Odam Atodan.
Marhumning hurmati boshlanar darhol,
Garchand xoli emas hech kim xatodan.

Lopillab ketardi ikki tobut ham,
Lekin bir holatdan junjikdi etim:
Birining ortida tumonat odam,
Birining ketida to‘rt nafar yetim.

Holbuki, bir xildir ayriliq, firoq,
Umr ham o‘tkinchi, oqqan soy edi.
Odamlar ularni farqlashdi biroq,
Biri yo‘qsil edi, biri boy edi.

2010-yil 19-sentabr

ODAM

Bir zarrin ip tortar qo‘limdan go‘yo,
Bolalik kirgandek chollar tushiga.
Men undan dastimni uzmasman aslo,
Bog‘liq u bobomning og‘riq tishiga.

Ikkinchi qo'limdan tortar bir arqon,
Maqomi yuksaklik yo'llaridadir.
Uning bitta uchi beshak, begumon,
Yovqur nabiramning qo'llaridadir.

Dunyoda shu taxlit yashaydi Odam,
Goho mag'lub bo'lsa, gohida g'olib.
Avlodlar izidan tashlar u qadam
O'tgan ajdodlarni yodiga olib.

2010-yil 1-noyabr

OZON QATLAMI

Qanchalar bag'ri keng bo'lmasin samo,
Zaminga yetgaydir jabri, sitami.
Yerni o'rab turar harirday go'yo,
Ozon deb atalgan havo qatlami.

Fazodan kelguvchi qattol nurlar bor,
Ular o'tolmagay harirdan biroq.
Shundoq asrar bizni Qodiri G'affor,
Kaftin orasida tutgandek chiroq.

Garchi barchaga teng nuri quyoshning,
Garchi inson jismi zarradir, garddir.
Va lekin dunyoda har bitta boshning
O'z ozon qatlami bo'lmog'i shartdir.

Zaminga yovuz nur yetsa mabodo
Kulfatga mahkumdir jamiki jonzot.
Insonga noqislik daf etsa ammo
Uning bor siyrati bo'lg'usi barbod.

Yovuzlik joy olsa qalblardan agar,
Undayin kimsaning nomi adodir.
Mol-u mulk, dunyosi bisyordir magar,
Lekin ruhi uning majruh, gadodir.

Kimda sobit emas gar o‘sha qatlam,
Imoni abasdir, o‘ylari chirkin.
So‘qirga aylanib ochiq ko‘zlar ham,
Ezgulik o‘rnini qoplar hasad, kin.

Yo‘qolib ketgan chog‘ insof, diyonat,
Toza vujudlarga Iblis bo‘lur jo.
Alhazar, bundaylar alal-oqibat,
Anglay olmagaylar Vatanni hatto.

Zaminda ustuvor bo‘ldimi kibr —
Ellar bezovta-yu notinchdir zamon.
Aqlga zo‘r kelsa jaholat oxir
Madad bera olgay na yer, na osmon.

Mehvarda bor ekan to o‘sha qatlam
Tiriklik bexatar, zavolsiz hayot.
Asli yovuzlikdan xoli inson ham
Arshning nazariga munosib bir zot.

Yashaysan goh shod-u,
goh dilda kadar,
O‘zingniki erur quvonching, g‘aming.
Lekin ogoh bo‘lgin doim, birodar,
Butun turibdimi ozon qatlaming?!

2010-yil 22-dekabr

BIR MARTA...

Bir marta ko‘rganman,
Faqat bir marta,
Tushimning hayotda rostga do‘nganin.
Bir marta ko‘rganman,
Faqat bir marta,
Oyning o‘rog‘iga yulduz qo‘nganin.

Bir marta ko'rganman,
Faqat bir marta,
Otamning jimgina yig'laganini.
Bir marta ko'rganman,
Faqat bir marta,
Onang yo'q, deb bag'rin tig'laganini.

Bir marta ko'rganman,
Faqat bir marta,
Yangradi Ozodlik so'zi daf'atan.
Bir marta ko'rganman,
Faqat bir marta,
Yagona bo'lgandi o'sha kun Vatan.

2011-yil 17-yanvar

APOKALIPSIS

Junbushga kelmoqda zamin beto'xtov,
Go'yo boshlangandek mudhish bir o'yin.
Yonib ketayotir o'rmonlar lov-lov,
Qit'alarni bosar ajdardek quyun.

Zilzilalar tinmas, o'kirar vulqon,
Otilar jahannam o'ti — lavalar.
Bu holning qoshida ahli yer hayron,
Hayrondir muftiylar, ravvin, lamalar.

Cheksiz koinotning tirik vujudi
Balki to'lg'onmoqda zamonlar o'tib.
Balki ummon bo'lgay tog'lar hududi,
Vaqt inson xohishin turmaydi kutib.

Balki milyard yillar ostonasida
Bundan battarrog'in ko'rgandir zamin.

Balki Yaratgan ham koshonasida
Ortig‘in yo‘qotib, butlaydi kamin.

Lekin ne bo‘lsa ham inson zotini
So‘ngsiz savollarga ko‘mgay ushbu hol.
U faqat bilgaydir o‘z hayotini,
Chorasiz qolgaydir kelganda zavol.

Daf’atan ayqashib yer bilan osmon
Do‘zaxning beshafqat shamoli yelsa,
Deysan, o kibrga berilgan inson
Sen uni to‘xtatgin qo‘lingdan kelsa.

Kerak bo‘larmikan bizning bu ash’or,
Kimdir tursa agar ko‘zlarin yoshlab.
Inshoolloh, rahm etgay Qodiri G‘affor,
Bandasin kulfatga qo‘ymagay tashlab.

Shunchalar poyonsiz ekan bu ochun,
Uning na boshi bor va na adog‘i.
Samoda bir yulduz topsa ham yakun,
Kamayib qolmaydi uning sanog‘i.

Intiho yo‘q erur boqiy qudratda,
Mutlaq, abadiydir “Bo‘l!” degan kalom.
Kim ketsa, o‘sha chog‘, shaksiz, albatta,
Yangi bir zuryodga qo‘yilgaydir nom.

Ammo yuraklarda bordir bir alam,
U bois tugamas tashvishlar, g‘amlar.
Zamin talvasasi bosilganda ham
Bir-birin tinch qo‘ymas,
afsus, odamlar.

2011-yil 17-may

MEROSIYLIK

Zuhro nega yashnaydi,
Yarqiraydi nega oy.
Ularning ham olamda
Egasi bor hoynahoy.

Oftobning mahobatin
Ko‘ray desang sen agar,
Shom cho‘kkanda kunbotar
Shafag‘iga sol nazar.

Kimdir yaxshi so‘z bilan
Ta’riflasa biror on,
Bu kabi maqtovlardan
Taltayib ketma, inson.

Magar tama yo‘q ekan
Savob-u imdodingda,
Shundoq bir xislat o‘tgan,
Demakki, ajdodingda.

Qayga borma, topilgay
Albatta, odam nasli.
Firibgar ham yangidan
Paydo bo‘lmagan asli.

Ular ham suyak surib
Kelayotir azaldan.
Hattoki joy olishgan
Qasida-yu g‘azaldan.

O‘ylab ko‘rsang, imonga
Tegishlidir bu kalom:
“Qadim o‘zbek xalqisan” —
Degandi G‘afur G‘ulom.

Faxr eturman shu elga
Men ham farzand erurman.
Bobolarga tutashgan
Bitta dilband erurman.

O'rnim bordir olamda
O'zgalardek barqaror,
Bobolar tufaylidir
Menda ne fazilat bor.

Bir zamon o'tgan edi
Shoir Turdi Farog'iy,
Bitta edi u zotning
Armoni-yu firog'i.

U zamon xalqqa shoir
Birlashgin, degan edi.
Qay qavmdan bo'lsang ham
Sirlashgin,
degan edi.

Nur sochib turgan kabi
O'sha quyosh, o'sha oy,
Xalqimning tayanchidir
Asli imon, hoynahoy.

Daf'atan tutilganda
Osmonning oftob, mohi,
O'sha shoir Turdini
Eslab qo'yaman gohi.

Bitta deb bildim doim
Qadim o'zbek yerimni,
Bag'ishladim men unga
Madhiyamni — she'rimni.

Bu elni olam aro
To abad tanho dedim.
Kichkintoy vakilin ham
Payt kelsa daho dedim.

Chunki u mening uchun
Tuganmas armon erur,
Buyuk Vatan qurgali
Ulug‘ bir imkon erur.

2011-yil 16-avgust

PARADOKS

Uyin tashlab ketdi olim bir inson
Turfa mojaroga topolmay chora.
Bo‘ldi uning uchun oila zindon,
Bu taxlit yashashdan to‘ydi, bechora.

Faqat g‘alva bilan umr kechirmoq
Battarroq demishlar jahannamdan ham.
Shundoq qurilgandir bu ko‘hna ravoq,
O‘zidan o‘tganin bilgay har odam.

Gapning davomini eshiting endi,
Bundan ham ayanchli, bundan ham g‘alat:
Olimning sohasi oila edi,
Ilmi chuqur edi, har so‘zi ibrat.

Dersiz, xo‘sh, qayonga ketdi u siymo,
Balki bir do‘stining qoshiga borgay.
Balki soy bo‘yida o‘tirib tanho,
Yugurik suvlarga ko‘nglini yorgay.

Yo‘q, axir olim u, shogirdlari bor
Hali tajribasiz, dumbul, xom, so‘qir.
Bugun ham darsini o‘tmog‘i darkor,
Oila haqida ma’ruza o‘qir.

2011-yil 18-oktabr

PARKENT

Qadim Parkent tog'larida sayr etdim xurram,
Turli-tuman g'avg'olardan, o'ylardan xoli.
Qonib-qonib suvlar ichdim buloqlardan ham,
Bir zamonlar mehmon bo'lgan Bobur misoli.

Yuksak qorli cho'qqilarda in qurgan burgut,
Qoya bilan bo'ylashganday teraklar qator.
Tokzorlardan anqib turar baraka-yu qut,
Bunda shodlik,
bunda quvonch, bunda orom bor.

Adirlar-chi, bamisoli yoyilgan kashta,
Maftun etgan o'shanda ham balki Mirzoni.
Bir yonda tog', bir tomonda bulut sargashta,
Esga solar ham sobit-u notinch dunyoni.

Taqdir ta'qib etar edi Boburni u payt,
Taxti ketgan,
Andijon ham bo'lgandi abas.
Shu tog'larga vido aytib bitganida bayt,
Topilganmi "Qoling!" degan birorta bir kas.

Shoh bo'lsa ham, hind fillari cho'ksa hamki tiz,
Tamg'a bo'ldi manglayida hijronning dog'i.
Qoraqumga teng kelmadi Panipat hargiz,
Chotqol o'rnin bosolmadi Hindikush tog'i.

Men uchun hech tashvish qilmang,
muhtaram mezbon,
Men oddiy bir insondirman, ko'ngil bo'lsin to'q.
Bafurjaman, shoshirmasman sizni hech qachon,
Axir mening boradigan Hindistonim yo'q.

2011-yil 27-dekabr

SHIKVA

Botqoqqa yiqilsa filcha nogahon
Uni qutqaradi fillar o‘sha on.

Va yoki nazar sol lochinga — sorga,
Bermas palaponin ilonga — morga.

Bizlar-chi, har nechuk zoti Insonmiz,
Tomiri to abad tutashgan jonmiz.

Birimiz daf’atan qolsak kulfatda,
Boshqamiz madadga kelgay, albatta.

Samovot qoshida har ikki odam
Yaqinroqdir hatto egizlardan ham.

Do‘stim, bu gaplarni shikvaga yo‘yma,
Meni har kimlarga talatib qo‘yma.

2012-yil 5-yanvar

HAYOT

Otam o‘yga cho‘mib derdi doimo:
—Bolam, fe’li torlik bu ham bir zavol.
Keng bo‘l, oyoqlaring orasidan to
O‘tib keta olsin tuya bemalol.

Umrim yo‘llarida ko‘rdim ko‘p zotni,
Otam aytganidek ulug‘vor, yuksak.
Ular o‘rgatdilar menga hayotni
Ne-ne sinovlarda ibrat va o‘rnak.

Komil bo‘lolmadik afsus ko‘p zamon,
Xatolar, o‘kinchlar yurdi safma-saf.
Bag‘ri keng insonlar o‘zi bir tomon,
Badbin kimsalar ham bo‘ldi bir taraf.

Tavba eshiklari ochiq har mahal,
Shu qadar keng erur Alloh dargohi.
Egam-ku kechirgay, lekin dastavval,
Insonga oiddir Inson gunohi.

Otamning gaplarin eslasam goho
O'tar ko'z oldimdan tuyalar, otlar.
Ular uchramadi menga, ajabo,
Ko'proq duch kelishdi mayda jonzotlar.

2012-yil 4-fevral

SAYYOHLAR

Borib qolsangiz gar aylanib nogoh
"Labihovuz"gami, "Ichanqal'a"ga
Ajib manzaraga bo'lgaysiz guvoh,
G'alati fikrlar kelar kallaga.

Yoshi to'qsonlarni qoralab qolgan
Chol-kampir sayyohlar bunda oz emas.
Biri minorani suratga olgan,
Biri cho'girmaga qo'yibdi havas.

Ertaning tashvishi chulg'ab miyani
Yo'lning xarajati bossa yelkadan.
Kim tashlab chiqardi Olmoniyani,
Kim kelib ketardi Amerikadan?!

Sayohat hissi ham kamyobdir ancha,
Bir bor ko'rmaguncha ko'ngil hech to'lmas.
Yuksak xayollarga berilma qancha,
Bu holni shunchaki izohlab bo'lmas.

Hisob-kitob qilgay ular har yoqni,
O'zbekning odatin bilib-bilmagan.
Kampir eshitmagan "to'qqiz tovoq"ni
Chol ham kuyoviga sarpo qilmagan.

2012-yil sentabr

TAJRIBA

Boshqa yoqdan,
O‘zga dunyodan
Kelib qolgan jonzot emasman.
Men o‘zimni tog‘dan, daryodan
Yo qushlardan farqli demasman.

Tinim bilmay shamol g‘uvullar,
Ochiladi gullar ham qiyg‘os.
Yomg‘ir yog‘ar, bo‘ri uvullar,
Faqat nomim insondir, xolos.

Tajribangga qo‘shib meni ham,
Izoh qilding o‘z bisotingga.
(Kerak bo‘lib qoldimmi, qaydam,
Allaqanday mashg‘ulotingga.)

Ijodxonang puchmoqlarida
Qolib ketmay, etma faromush.
Osmonlaring quchoqlarida
Ana, axir, uchib yurar qush.

Shamollar ham kezar xayolday,
Oqib yotar daryolar dalli.
Nafas olay men ham shamolday,
Jilg‘a bo‘lib oqay, aqalli.

Sening buyuk darsxonang ichra
Quyosh chiqib, aylanadi yer.
Yo‘q bo‘lishni istamam sira,
Yashab yuray,
Egam,
ruxsat ber.

2012-yil 8-dekabr

QIZIQISH

Agar yoqmay qolsang,
Ters bo'lsa dunyo,
Sug'irib o'tirmas biror tishingni.
Tayyor ishtahangni bo'g'ib mutlaqo,
Yo'qotar taomga qiziqishingni.

Tag'in sen ko'ziga ko'rinsang yomon,
Tortib olmaca ham amal, ishingni.
Bormaydigan qilar idorang tomon,
O'chirar hafsalang, qiziqishingni.

Maydalashib yurmas dunyo yuz bursa,
To'kin ham qilgaydir yozing-qishingni.
Va lekin loqaydsan gullar qulf ursa,
So'ndirar borliqqa qiziqishingni.

Bir kuni zerikar o'zi kajraftor,
Unutar kelajak va o'tmishingni.
Unga o'yin kerak, o'yinchoq darkor,
Yana tiriltirar qiziqishingni.

1912-yil 24-dekabr

TURNALAR

Bahor kelganida yashnab Qo'ng'irtov
Poda o'tlar edi etaklarida.
Ufqqa cho'zilgan yam-yashil yaylov
Uchramas jannatning ertaklarida.

Bilmadim, Hindiston tomonlardan yo
Namoyon bo'lardi ko'kda bir chiziq.
"Qure, qure" degan olis bir sado,
Bir ovoz kelardi uziq va cho'ziq.

Ular turnalardir, pastlab nogahon
Qir uzra uchardi sassiz, aylanib.
Go‘yo o‘rganardi borliqni obdan,
Qo‘nmoqqa joy izlar go‘yo shaylanib.

Poda o‘tlab yurar sokin, beozor,
Ocmon ham beg‘ubor, yaylov sarishta.
Turnalar qo‘nardi, misli fusunkor
Harir ko‘ylak kiygan ziyrak farishta.

Yer-u osmonlarning shavqini tuyib,
Jonzotlar kezardi hur va muloyim.
Shundoq manzarani yaratib qo‘yib,
Tomosha qilardi o‘zi, Xudoyim.

2012-yil 25-dekabr

AYOL MADHI

Dunyoga keltirding — onamsan,
Men uchun tengi yo‘q olamsan.
Yoritding hamisha yo‘limni,
Sevikli qizimsan — bolamsan.
Bormikan sendayin iboli,
O‘zbekning farishta ayoli.

Temurbek yonida Bibixon,
Poyingga sochildi kahkashon.
Gohida anordek ezilding,
Uvaysiy qalbiday bag‘ring qon.
Husningdir goh umring zavoli,
O‘zbekning farishta ayoli.

Momosan, Atoda haqqing bor,
Bu go‘zal dunyoda haqqing bor.
Yurtim deb jangga ham kirgan sen,
Yod etsa, duoda haqqing bor.

Ot surding To‘maris misoli,
O‘zbekning farishta ayoli.

Sen ozod zamonga yetishding,
Hur, obod davronga yetishding.
Farzandlar yulduzdek parvona,
Ming yillik armonga yetishding.
O‘zingsan Vatanning jamoli,
O‘zbekning farishta ayoli.

2013-yil 18-yanvar

TARAQQIYOT

Hali bahor kalendarda ko‘rsatmagan yuz,
Hali po‘stin ichida ham junjikar odam.
Hali momiq qor ostida uxlar dala-tuz,
Birdan Surxon tomonlarda gul ochar bodom.

Balki kimdir hovlisida shu zum, shu soat,
Moylab yotar eski, shaloq aravasini.
Xuddi shu on qaylardadir bitta azamat,
Kashf aylaydi mototsikl kajavasini.

Qay bir hofiz havas qo‘zg‘ab oshnalarida
Sayrab yotar bazmlarda so‘lagi oqib.
Kimdir esa Italiya sahnalarida
Qo‘shiq aytar millionlarning yuragin yoqib.

Qayda esa yo‘qsilgina bitta havaskor
She’r yozadi, maqtovlarni o‘ylamas garchand.
Lekin shu dam boshqa birov qator va qator
Kitoblari ro‘yxatini sanash bilan band.

Yo‘qolmagay, badar ketmas kashf-u ixtiro,
Unib-o‘sgay, balki Xudo nazar solganlar.
Taraqqiyot yo‘li shunday, payt kelsa, ammo
Ular bizning shogirdimiz, deydi qolganlar.

2013-yil 21-yanvar

MO‘JIZA

Qay bir insonlar bor,
O‘zi o‘tsa ham,
Bus-butun qoldirgay nomusin, orin.
Bundaylar ortiga boqib so‘nggi dam
Kesib ketmagaylar ekkan chinorin.

Bundaylar o‘ziga sag‘ana yasab,
O‘zga saroylarni buzib tashlamas.
Foniy shu dunyoda imonli yashab,
Izida aytgulik nomi qolsa, bas.

Asriy qafasni-chi buzmoqlik avlo,
Elni ozod etib kishan — kulfatdan.
Tarixda buzg‘unchi so‘zini ammo
O‘chirib tashlasa bo‘lgay lug‘atdan.

Qo‘lingda ko‘chating, ek uni o‘g‘lon,
Koshona barpo et, poyingda g‘isht bor.
Deyman, bog‘laringni bosmasin xazon,
Deyman, qasrlaring tursin ustuvor.

Men-chi, ko‘ngil degan bir Vatan qurdim,
Mo‘jiza atadim oddiy go‘shani.
Uni bo‘ronlardan qo‘riqlab turdim,
To‘fon yiqitmasin, dedim o‘shani.

2013-yil 11-mart

YEVROPA

Muhabbat atalmish bir his bor edi,
Uni deb qavmlar bir-birin yegan.
Julyetta ismli bir qiz bor edi,
Bir yigit bor edi Romeo degan.

Bor edi muhabbat atalmish qo‘rg‘on,
Uchib kirolmasdi chivin ham hatto,
Sovg‘asin Yagoning qo‘lida ko‘rgan,
Bo‘g‘ib qo‘ya qolgan juftin Otello.

Endi bu yurtlarda dunyo teskari,
Muhabbat hislari badar ketganlar.
Jannatni madh etib yurganlar bari
Jahannam komiga borib yetganlar.

Xo‘roz xo‘roz bilan o‘tkazsa to‘yin,
Buqalar buqa deb ipini uzsa.
Bu qanday tomosha, bu qanday o‘yin,
Sigirlar sigirga ko‘zini suzsa.

Inson mukarramdir, unutma aslo,
Sha’niga yomon gap to‘qima, bolam.
Bu she’rni bir o‘zing o‘qiding, ammo
O‘qima birovga, o‘qima, bolam.

2013-yil mart

UMR MANZILLARI

Seni kutar endi o‘zga manzillar,
U olis yoshliging o‘tdi tush kabi.
Bir-bir g‘oyib bo‘ldi qarchig‘ay yillar,
Iniga qaytmagan ovchi qush kabi.

Nabirang qaysidir, shogird qaysidir,
Bormisan ularning g‘oyalarida.
Balki orom olib yotmoq paytidir
Ekkan nihollaring soyalarida.

Buyuk shiddat bilan o‘zgargan davron
Eslab qo‘yarmikan kalomlaringni.
Bir zumda “yulduz”ga aylangan o‘g‘lon
Yerda qoldirmasmi salomlaringni.

Goho monand bo'lar og'u bilan qand,
Goho aralashdir izzat va qo'rquv.
Oyoqdan qolsang gar, betama farzand
Ich, deb uzatarmi bir piyola suv.

Ro'yobga chiqarmi o'ylaganlaring,
Horigan ruhingga kim bo'lur darmon.
Hozircha sening bu so'ylaganlaring
Kimgadir nasibdir, kimgadir armon.

2013-yil 2-iyun

MAYDANAK

Osmonga uchmoqni orzu qilasan,
G'alvali zaminga bo'lolmading el.
Fazogir emassan, buni bilasan,
Yaxshisi, og'ayni, Maydanakka kel.

Bunda koinotning haramlariga
Sen ham durbin bilan solgaysan nazar.
Milyard chaqirimmi, undan nariga
Xohlasang bir zumda yo'llaysan xabar.

Ana, tong yulduzi — Zuhro nurafshon,
Dur taqib olibdi oppoq bo'yniga.
Oymomo poylaydi tun bo'yi giryon,
Kirib ketmasin deb yerning qo'yniga.

Somonchi yo'lida g'aflatda qolib,
Molidan ayrilgan Mirrixga boq-chi.
Bir suruv echkini oldiga solib,
Changitib ketmoqda yetti qaroqchi.

Yulduzlar hayoti g'oyatda qiziq,
Yasharlar samoviy parvozni ko'zlab.
Biri kuylayverib ketgandir qizib,
Biri tinglayverib qotgandir muzlab.

Ana, kometalar baayni uchqun,
Balki do‘st axtarib kezishar ular.
Balki izlaganin topishar bir kun,
Balki biror shahar ustiga qular.

Endi jiddiy turib bu yonga qara,
Falakda ko‘rinar ikkita oq qand.
Biri “O‘zbekiston” degan sayyora,
Birovining esa nomi — “Samarqand”.

Mana shu tomosha yetar sen uchun,
Agar mag‘iz bo‘lsang, olam bir danak.
His et Ulug‘bekni, xayolning kuchin,
Parvoz maydonidir senga Maydanak!

2013-yil 16-iyun

QIYOMAT ALOMATLARI

Ja’miki daryolar oqib teskari,
Ilondek o‘rmalar cho‘qqilar tomon.
Yer qa’riga kirib burgutlar bari,
Parvoz qila boshlar kalamush, yumron.

Idrok odamlarni butkul tark etgan,
Go‘daklar ko‘zida yovvoyi bir his.
Avliyolar ko‘kka bosh olib ketgan,
Hukmini o‘tkazar har qayda Iblis.

2013-yil 2- iyun

SAVQI TABIIY

Otam ko‘z yumgancha surardi xayol,
Go‘yo bizlar bilan yo‘qdek hech dardi.
Va lekin ro‘zg‘orda ne gap, ne ahvol
Bilib yotardi.

Dono aka degan muallimimiz
Chindan dono edi va chindan ham dov.
Darsga tayyormizmi yoki yo‘qmi biz
Aytardi darrov.

Shundoq shifokor ham uchraydi goho,
Unga zarur emas rentgenning qaydi.
Seni nima qiynar? So‘ramay hatto
Darhol payqaydi.

Tushunish mumkindir bularning barin,
Har holda shamoli o‘tar oldingdan.
Lekin og‘ir ekan hayot zarbalarin
Sezsang oldindan.

2013-yil 2-iyul

HINDISTON

Odamzod adadi balki ziyoda,
Har kimdan har turli xotira qolur.
Ajab, hindiy qavmi ushbu dunyoda,
Tirik avliyosin e’zozlay olur.

Yuz yillab kutgaydir Avatarini,
Boshiga ko‘targay Sai Bobosin.
Kimdir xochga tortsa payg‘ambarini,
Hindu dorga borgay, tilab duosin.

Bu gaplar shunchaki jaholatmi yo
Tagida bormikan o‘zgacha mag‘iz.
Boyligi bir parcha lungidir, ammo,
Unutmay yurarlar pirlarin hargiz.

Nechuk bunday baxtga yor bo‘lmish ular,
Bu holning sababini o‘yladim uzoq.

Mening nazarimda, o'sha hindular
Havasga yaqindir, hasaddan yiroq.

Shu bois tillashar Xudosi bilan,
Shu bois yaxlitdir Borliq va Inson.
Shu bois tafakkur jilosi bilan
Yashnab ko'rinadi ulug' Hindiston.

2013-yil 15-iyul

KEMA

Goh dengiz ufqiga tashlasang nazar
Ko'rinar nuqtaga o'xshash bir nima.
Goho g'oyib bo'lar, gohida qalqar,
Yuzib kelayotgan kema u, kema.

Kattalashib borar fursat-bafursat,
Shakl-u shamoyili aniq namoyon.
Ulug'vor dengizdan oshib, nihoyat,
Kema yaqinlashar sohilga tomon.

U ulkan kemadir, g'oyatda ulkan,
Vahshiy to'lqinlarni o'tolgan yengib.
Bo'ronlarga qarshi ko'targan yelkan,
Yo'l topgan tumanlar qa'riga singib.

Biz ham kema yanglig' suzgaymiz barho,
Noayon erurmiz bizlar ham dastlab.
Yelkandek tortilsa tuyg'ular goho,
Jismimiz goh balqar, goh ketar pastlab.

Buyuk ummon erur o'zi bu olam,
Chorlar odamzodni sohillar vasli.
To'fonlarni yengib, suzarkan har dam
Kemaga o'xshaydi Vatan ham asli.

2013-yil 22-iyul

KO‘CHA

Ko‘cha to‘la odam,
Tinib turmas bir dam,
Aralash odimlar kichik-kattasi.
Lekin g‘alatiroq tashlaydi qadam,
Ular orasida bittasi.

Goho gaplashadi o‘zi o‘zi bilan,
Gohida jilmayar, tundlashar goho.
Nimanidir ilg‘ar tiyrak ko‘zi bilan,
To‘xtab ko‘kka boqar,
mast emas, ammo.

Nimadandir birdan zavq ham tuyadi,
Bir sandiqni go‘yo ochdi-yu yopdi.
Havoga chiziqlar tortib qo‘yadi,
Shoirmikan deysan, qofiya topdi.

Nogoh hayajondan qizarar yuzi,
Chala imorati bitdimikan yo?
Kontraktda o‘qir kenjatoy qizi,
Budjetga o‘tdimikan yo?

Ko‘cha to‘la odam,
Tinib turmas bir dam,
Aralash odimlar kichik-kattasi.
Hamon o‘sha-o‘sha tashlaydi qadam,
Ular orasida bittasi.

Hamon o‘yga band u,
goh shodmon kular,
Tegmang, holatini buzmang nogahon.
O‘zini baxtli deb sanasa bo‘lar
Surgan xayoliga ishongan inson.

2013-yil 24-sentabr

BOBO DUOSI

"Ko'zingiz tubida cheksiz bir armon,
Nega siz bunchalar g'amgin, bobojon?

Ne-ne davralarni ko'rgansiz axir,
Behishtday joylarda yurgansiz, axir.

Yupanch bo'lmadimi bularning bari,
Bormi yo bu holning o'zga sirlari?"

Tiyrak nabiraga ko'z tashlab qiyo,
Sekin gap boshlaydi o'ylanib bobo:

"Ne-ne davralarni ko'rganman garchand,
Behishtday joylarda yurganman garchand.

Garchi o'z oshimni oshab kelganman,
Bir odam qatori yashab kelganman.

Uchratdim avliyo insonlarni ham,
Lekin ular ozdir, ular juda kam.

Mudom ulug' qildim dilda niyatni
Izladim doimo samimiyatni.

Yaxshiliklar qildim shavqlarga to'lib,
Ular qaytdi goho yomonlik bo'lib.

Bolam, boshqa erur sening davroning,
Boshqadir zamoning, boshqa imkoning.

Qayga uzatsang ham qo'ling yetgaydir,
Seni ham behishtday joylar kutgaydir.

Faromush qilma lek bitta naqlni:
Boylik deb boy berib ko'yma aqlni.

Inson bolasiga shaytondir hamroh,
Uning firibidan bo‘l doim ogoh.

Aql-u tajriba top, yashagil dadil,
Bilib qo‘y, baxt uchun mehnatdir kafil.

Payt kelar, yoshimga yetarsan albat,
Iloho, o‘zib ham ketarsan albat.

Nabirang sening ham qadringga yetgay
Va balki seni ham savolga tutgay.

Sen ham zuryodingga topgaysan bir gap,
Duo ham qilgaysan, bobongga o‘xshab“.

2013-yil 4-oktabr

GULDASTA

Har qayda azizdir do‘st-u qardoshlar,
Musofir yurtda-chi, qadri ko‘p katta.
Keldi istanbullik bir guruh yoshlar
Mehmonning hurmati uchun, albatta.

Guldasta bor edi ular qo‘lida,
Rang-barang, anvoyi, g‘unchali, inju.
Marmara dengizin sohillarida
Ungan chechaklarning jamlamasi bu.

Guldasta degani yaxlit degan gap,
O‘tdi xayolimdan turkiy ellarim.
Ajib bu hadyaning ko‘rkiga qarab,
Ochilib ketdi-ku qulfi dillarim.

Dedim: — Bu gul — O‘zbek, bunisi Turkdir,
Bunisi Ozardir, bunisi Qozoq.

Bunisi Bolqordir — boshida bo'rkdir,
Bunisi Uyg'urdir, bu — Qoraqalpoq.

Xullas, jam bo'lishgan ularning bari,
Hammasi bir chaman, bitta guldasta.
Garchi turfa erur rangi, ifori,
Ular bir gulshanga bog'liq, payvasta.

Mening gaplarimni tinglab shu asno
Kimdir lutf ayladi: — Kechiring, xojam,
Bizning guldastamiz yaxshi-ku, ammo,
Qo'shsak yaxshi o'zga qit'alarni ham".

Dunyoning orzusin aytgan edi u,
Chindan kishilikning o'zi guldasta.
Oh, inim, yer yuzin armonidir bu,
Shu sabab notinchmiz, yuraklar xasta.

Istanbul. 2013-yil 13-oktabr

O'ZBEKISTON MADHIYASI

Vujudning sog'ligi shartdir odamga,
Unutmang, ammo ruh tarbiyasini.
To'rt nafar turk qizi kelib xonamga
Ijro etdi O'zbek madhiyasini.

Dengizlardan osha, tog'lardan osha
Yurtim ko'z o'ngimda bo'ldi namoyon.
Go'yo diyorimni qildim tomosha,
Jannat xaritasin ko'rganimsimon.

Yuksak va shiddatli, latif ham mayin
Ohang taralardi Marmara bo'ylab.
Yurtim qo'shig'ini shu lahza, tayin,
Osiyo, Yevropa turardi kuylab.

Misli ufurardi menga nafasin
Oltin vodiylarim, kumush tog‘larim.
Ilg‘adim Do‘rmonda bulbullar sasin.
Ko‘rindi shovullab turgan bog‘larim.

Madad qo‘llarini cho‘zardi shu dam
Yiroq-yiroqlardan mardona bir ruh.
Dengiz tumanidek tarqab ketdi g‘am,
Tog‘lar qori kabi eridi anduh.

Istanbul. 2013-yil 10-oktabr

QORA DENGIZ

Qora dengiz, Qora dengiz,
Yuragimda yara, dengiz.
Bitta o‘zbek shoirining,
Ko‘ngliga ham qara, dengiz,
Qora dengiz, Qora dengiz.

Izlab ezgu insonlarni,
Erkin, sho‘x-sho‘x jayronlarni,
Ko‘rdim lekin har qayda ham
O‘z holiga hayronlarni.
Shundan qalbim pora dengiz,
Qora dengiz, Qora dengiz.

Oshib Bosfor tomonlardan
Suv ichasan ummonlardan.
Xabaring bor barchasidan —
Yaxshilardan, yomonlardan.
Chiqqanida yayrab quyosh,
Jimirlaysan yuvosh-yuvosh,
Ko‘tarasan goho suron,
Yo al’amon, yo al’amon.
To‘lqini tog‘, dara dengiz,
Qora dengiz, Qora dengiz.

Suhbatdoshim bo'la qolgin,
Bir darddoshim bo'la qolgin,
Bahrdirsan, gar yiroqsan,
Vatanimga yaqinroqsan.
Zarra sochib yuzlarimga,
Quloq tutding so'zlarimga.
Menga o'zing sara dengiz,
Qora dengiz, Qora dengiz.

Riva. 2013-yil 16-oktabr

MUHABBAT

Turfa mo'jizaga boydir bu dunyo,
Yer-u osmon to'la kamalakdek rang.
Lekin ko'z o'ngimdan ketmaydi aslo,
Bir sening qiyofang, bir sening chehrang.

Dunyoda oz emas sohibjamol ham,
Duch kelsang nogahon titraydi yurak.
Baribir, men seni qo'msayman, erkam,
Muhabbat degani shu bo'lsa kerak.

2013-yil 2-noyabr

TASHLANDIQ VAGON

Vokzal ulkan shahar chegarasida,
Poyezdlar shamoli tinmay ufurar.
Chekkada, temiryo'l zaxirasida
Faqat bitta vagon mung'ayib turar.

Qayoqdan kelgan u? Bilmaydi birov,
Uning na yo'lovchi, na egasi bor.
Yoz bo'yi saraton yondirar lov-lov,
Qish o'tib, erimas tomidagi qor.

Bir zamon yo'lchiga ko'shk bo'lgan u ham,
Vodiylardan o'tgan, sahrodan o'tgan.
Bulutday viqorli, shamolday ildam,
Ne-ne manzillarga qadami yetgan.

O'tgan yo'llarini eslasa hamon
O'zi ham ishonmas yurganligiga.
Bag'ridan joy topib qanchalar inson,
Hatto shohlar bazm qurganligiga.

Hech kim qatoriga endi ulamas,
O'rnidan jilmoqqa yetmaydi xoli.
Hatto suvaraklar yaqin yo'lamas,
Tashlandiq vagon u. Shuldir ahvoli.

2013-yil 25-dekabr

RANGLAR VA OHANGLAR

Shu'layi ohim chiqar har yon qizil, sorig', yashil.
Alisher Navoiy

1

Oq dengizdan oq shamollar essalar,
Qizilidan kelsa alvon shabboda,
Qora dengizda-chi, tim qora nasim.

Oq tanli kishidan oqlik ufursa,
Sarg'imtil qavmdan zahil epkinlar,
Qoralardan esa siyohrang tutun.

Ne hol yuz berardi rub'i maskunda,
Kim ham ko'z yumardi bu manzaradan,
Yaxshiyam shamolning ranglari yo'qdir.

Bir qarashda ular hamohang, o'xshash,
Biroq sen, ijodga azm etgan shoir,
Ularni adashmay farqlamog'ing shart!

Sening ko'zlaringga ko'rinsin ular,
Sening qulog'ingga chalinsin unlar,
Barchasi rango-rang, saslari turfa.

Qay eldan janggohning hidlari kelar,
Ular qon hididir — dodga qorishiq,
Kultepa rangida to'fonlari ham.

Boshqasidan esa keltirar shamol
Yerto'laning zaqqum havolarini,
Unda mahbuslarning hirqirog'i bor.

Qaydadir yelvizak nafasi kezar,
Undan par yostiqning atri qatori,
Ilg'aysan kimningdir xurraklarin ham.

Bilib qo'y, rangi bor armonning hatto,
Orzularning ajib shamoyillari,
Inson qancha bo'lsa, ular ham shuncha.

Biroq ko'z suratkash anjomi emas,
Oddiy some' emas qulog'imiz ham,
Nozik mehroblarga tegishli ular.

Ko'rganin yetkazgay Qalb degan joyga,
Tafakkurga aytay eshitganlarin,
Bunday izdihomda uxlab bo'lurmi?!

Faqat bir holatda emasdir xilqat,
Tinch yo dolg'ali deb bo'lmaydi uni,
Uyqudagi tushing o'ngingga sherik.

Avval-oxiri yo'q majhul dunyoning,
Suvrat-u siyratin chiza olgan kim?!
Sinab ko'rajak u seni ham albat.

Shamollar yeladi, suvlar chopag‘on,
Qumursqalar tinmas, o‘kirar sherlar,
Hadeb kuymalanar o‘rtada Inson.

Qara, na’matakning quruq shoxida
Bir qush sayrab turar sahardan to kech,
Sergak bo‘lolsaydik o‘sha qush kabi.

2012-yil 13-fevral

UYG‘UNLIK

2

Olam uyg‘unlikdan iborat asli,
Bo‘shliq deganlari yo‘qdir mutlaqo,
Makonni nimadir to‘lg‘izib turar.

Suvsiz idishda ham zangor havo bor,
Qop-qora koinot qa’rida esa
Vaqt yashar, jismsiz ruhlar kezadi.

Biroq har ma’voga munosib va xos
Yarashiq ashyolar bo‘lmog‘i shartdir,
Qorni to‘q kimsaga taom nodarkor.

Uyqu oromini shovqinlar buzar,
Faqat visol kerak bedor oshiqqa,
Marhumlarga esa sokin qabriston.

Chindan uyg‘un bo‘lib yaralgan olam,
Bezovta qilamiz uni ko‘pincha
Kulgili, noo‘rin tashvishlar bilan.

Go‘yo koshonada nahs mehmon bo‘lib,
Masjidga yuvuqsiz odam kirganday,
Navbat kutgan kabi tuya hammomda.

Toki har zarraning nomi mavjuddir,
Uning aksin demoq zarurmi, axir?!
Odamzod charchagan soxtaliklardan.

Buyuk istisno bor dunyoda biroq,
Bunyod etib bo'lmas uni qo'l bilan
Muhabbat deydilar uni, Muhabbat:

Qaydan kelganini bilmaydi birov,
Har nechuk quyoshning nurlari misol,
Hammaga barobar, barcha uchun teng.

Faqat u tufayli qorishiq xilqat
Yashnab ko'rinadi ko'zlarimizga,
Zulmat bamisoli yo'qolgan, abas.

Yoring ham ehtimol husn-u chiroyda
Yagona emasdir, emasdir tanho.
Sening nazdingda-chi, tengsiz, benazir.

Muhabbat shundayin sirli qudratkim,
Tog'lardan buyug-u gullardan nozik,
Uning qadri hatto jondan azizroq.

Qoshida sham kabi vahshiy qoyalar,
Dengiz to'fonlari g'ujum harirdek.
Muhabbatning shundoq sinoati bor.

U bois sen uchun suyukli bashar,
Go'zaldir, xunukdir — barcha-barchasi
Yaqinroq tuyulgay qarindoshingdan.

U bois sen uchun betimsol millat,
U bois sen uchun tiling ham tansiq,
U bois sen uchun muqaddas Vatan!

2012-yil 18-fevral

QISMAT

3

Badavlatlik kim uchundir iftixor emas,
Kim uchundir ayb emasdir kambag'allik ham.
Ular go'yo hayotdagi turfa liboslar.

Shunday hikmat aytgan ekan qadimda bir zot:
— Magar kosang oltin bo'lsa, sopol deb bilgil,
Agarda u sopol bo'lsa, oltin deb o'yla!

Bashang tovus don cho'qilar ko'rkam qafasda,
Toshbaqa-chi, o't chaynaydi jo'yak oralab.
Ikkisin ham mashg'uloti aslida bir xil.

Nogoh seni esga oldim, ko'hna Hindiston,
Ko'rgan edim Ograng bilan Dehlilaringni.
Sen ulkan bir fil kabisan, lekin parvosiz.

Ne uchundir,
gadoylaring maymundan ham ko'p,
Eshitganman, tap tortmasdan bir qavm, hatto
Atay majruh qilar ekan chaqaloqlarin.

Qo'l-oyog'i egri o'sgan g'alati bola
Toki, ko'proq uyg'otolsin shafqat hissini,
Toki, ko'proq rupiy bersin unga sayyohlar.

Muhtojlig-u gadolikdan asrasin Xudo!
Lekin bundan battarrog'in ko'rganman, hayhot.
Uning barcha tafsilotin so'ylab bo'lurmi?!

Aytay sizga, qachonlardir kezib chiqqanman
Yevropaning necha qasr-u ma'volarini,
Saroylari, go'shalari, ko'chalarini.

Go‘yo ko‘z-ko‘z qilar edi to‘qlikni ular.
Qay bir mahal boyonlarning bazmida hatto
Olis yurtim sha’ni uchun qadah ko‘tardim.

Savlat to‘kib o‘ltirgan bir davradosh janob
O‘zbek nomin eshitdi-yu qalqdi o‘rnidan,
Mahshar kuni otasini uchratgan misol.

Alqissakim, zoti-budi o‘zbek edi u,
Ne so‘z bilan tasvir etay uning holatin.
Qo‘lidagi sharob emas, ko‘z yoshi go‘yo.

Bu dunyoda inson qadrin yerga urguvchi
Faqatgina kambag‘allik, yo‘qsillik emas.
Vatansizlik degan og‘ir qismatlar ham bor.

Bir siqim yurt tuprog‘iga zor edi u zot,
Farqi bormi uning o‘sha nochor hindiydan?!
Biri nonning gadosidir, biri Vatanning.

O‘tgan-ketgan kechmishlarni o‘ylasam agar
Ko‘z oldimdan o‘ta boshlar tarix birma-bir
Yer yuzining Amriqo-yu, Hindistonlari.

Sen bag‘rimda o‘smoqdasan, jajji nabiram.
Hozirgina kirib kelding ko‘cha changitib,
Kiprigingda gardlarni ham artib o‘tirma.

2012-yil 21-fevral

TAFAKKUR

4

Bul ikki his hamroh erur insonga azal,
Biri — qo‘rquv, yakunida mag‘lubiyat bor.
Biri — hurmat, qarindoshdir e’tiqodga u.

Aralashib ketadilar ular ko‘pincha,
Ajratolmay qolasan goh ikkalasini,
Bamisoli o‘xshagandek sho‘r va chuchuk suv.

Qo‘rqqanidan sig‘ingandi borliqqa odam,
Bora-bora, chorasizlik oqibatida
Bu his hatto but-sanamga aylanib ketdi.

Bolakaylar sezishadi ularni, ajab,
Cho‘chiganda lablariga uchuq toshadi,
Yuvoshgina o‘rganishar izzatni esa.

O‘tgan-ketgan, katta-kichik hukmdorlar ham
Bu hislarning bahosini yaxshi bilganlar.
Ochiqrog‘i, qadrlashgan qo‘rquvni ko‘proq.

Siz naqadar aldoqchisiz, inson hislari,
Miqdoringiz belgilovchi hakam bormikan?!
Siz eltasiz goh kamolot, goh jaholatga.

Yupungina xonadonda, yomg‘irli bir kun
Chakka toma boshladi-ku nogahon shiftdan,
Tomga chiqib, chorasini ko‘rmoqlik darkor.

O‘g‘il deydi: —
O‘tiribdi muhtaram otam,
Qandoq chiqay boshlariga — uyning ustiga.
Oqibatda hammasini tom bosib qoldi.

Tarix guvoh, o‘tgan asr olmondayin xalq
Quloq tutib bir yovuzning vasvasasiga
Urush qildi, barbod bo‘ldi, qoni to‘kildi.

Tog‘-u tosh-u adirlarda qo‘y-qo‘zilarni
Boshlab yurar tajribali otar serkasi,
Yo‘qsa, bari nobud bo‘lgay, qulab jarlarga.

Odamzodni qutqaruvchi bir mash'ala bor,
U bo'lmasa ko'r qoridir har qandayin zot.
Ming urinsin, G'arb-u Sharqni aniqlay olmas.

Bu tufhani bandasiga bermishdir Alloh,
Qolgan barcha jonivorlar undan benasib.
Shu sababdan, qurbonlikka mustahiq ular.

Mash'alaning asl nomi tafakkur erur!
Koinotda unga teng kuch yaralgan emas.
U belgidir Parvardigor irodasidan.

Oliy hislar qurshovida kamol topgan chog',
Sig'dirgay u shuuriga butun olamni,
Aksi bo'lsa, sarkardasiz qo'shindir vujud.

Ahli bashar najotkori tafakkur faqat.
Uy to'rida hurmat ko'rsin otang ham, mayli,
Lekin chakka o'tmasin hech tomingdan, bolam.

2012-yil 26-fevral

MILLAT

5

Bahor chog'i, mehr bilan quyosh charaqlar.
Bulutlar ham momiqqina o'rdakchalarday.
Birdaniga yomg'ir quyar. Naqadar rohat!

Siz bu holni birinchi bor ko'rgan emassiz,
Sira-sira bekor turmas samo dargohi.
Goh yomg'irin yuborgaydir, goho qorlarin.

Ahyon-ahyon sayyoramiz tomorqasiga
Tushib qolar katta-kichik daydi toshlar ham.
Ular tubsiz koinotning yo'lchilaridir.

O‘yinqaroq shamollarning shiddati bilan
Qurbaqa-yu baliqlar ham sho‘ng‘ir osmondan.
Bular bari ilm-u fanda jumboq emasdir.

Ishonayin mayli har xil mo‘jizalarga,
Hatto chalpak yog‘ishi ham mumkindir, biroq
Ko‘kdan odam tushganini birov ko‘rmagan.

Biz shu zamin farzandimiz, yerning zuryodi,
Yaralganmiz tuproq bilan obihayotdan.
Shu boisdan, barchamizga zamin onadir.

Inson nasli bir-biridan aslo farq qilmas,
Bir tandirdan uzilgandir, oqmi yo qora.
Juda uzoq davrlarga ketgaydir xayol.

Qaysi bir yil o‘zga yurtda safarda edim,
Yuragimni siqar edi musofirchilik.
Boz ustiga gung-soqovman, tilmoch bo‘lmasa.

Sayyohlikning yo‘rig‘i shul:
Uchrashib qoldim
Koreyalik bir nuroniy onaxon bilan.
U, albatta, bilmas edi o‘zbekligimni.

Bir zum qisiq ko‘zlarini tikkancha kampir
Jilmaydi-yu, shama qildi aftimga qarab:
— O‘z tilingni unutibsan, yaxshimas, bolam.

Sergak tortdim “bolam” degan uning so‘zidan,
Ona bo‘lmay kim u menga? Ona-ku, axir,
O‘sha-o‘sha mushtipar-u mehribon, mushfiq.

Million yillik tarixlarni kovlab yurguvchi
Qadimshunos emasman men yo folbin emas.
Inson zoti o‘z-o‘zini tanisa, netong?!

Biz qachondir bir qavmdan tarqab ketganmiz,
So'zlashgin, deb turfa til ham bergan Xudoyim,
Birlash, deya bayroq tutgan qo'llarimizga.

Odamzotning poyoni yo'q sarguzashti bor,
Insoniyat — ildizi bir yaxlit chinordir.
Yashnab turgan barglaridir ellar, millatlar.

Koinotda sayyoramiz charx urar ekan,
Koreyalik kampir meni duo qilganda,
Men ham uning halovatin tilab qolaman.

2012-yil 1-mart

HIMOYAT

6

Bilasiz, Tangriyev degan polvon bor,
Tog'larning farzandi, mening otdoshim.
To hanuz kuragi yerga tegmagan.

Gurjimi, yaponmi, unga baribir,
Raqibning hurmatin saqlaydi, lekin
Kurash tushsa bormi — shaksiz yiqitar.

Hatto tuprog'imiz birdir u bilan,
Mening ham bobomdir balki Alpomish.
Lekin u qayda-yu men qayoqdaman.

Ko'rdim, olamshumul bellashuvlarda
Necha bor ko'tardi yurtning bayrog'in.
Tangriyev shon topdir fazogir qadar.

Faqat omad emas uni qo'llagan,
Allohim baxsh etgan iroda-yu kuch,
Mashq-u iqtidorning mukofoti bu.

Dunyoning dovruqli ne-ne alplari
Tan berdi o‘zbekning pahlavoniga.
E’tirofdan bo‘lak mardlik bo‘lmagay.

Tog‘larni qo‘porgan Farhodga qarab,
Noiloj degandir tubandagilar:
— Qo‘limdan kelmasa netgumdir axir.

Dunyoda jamiyki xavf-u xatarning
Asl murabbiysi qora hasaddir.
Iblis ham u bois tondi Odamdan.

Qadimgilar demish: Ehtiyot bo‘ling
Omadsiz kimsadan, kibrli zotdan.
Goho armonlari qasdga aylanar.

Umrim yo‘llarida bo‘lganman guvoh,
Ariqdagi oqqan suvni ham hatto,
Boshqalarga ravo ko‘rmaganlar bor.

Qiz bolaning husni — dushmani derlar,
Kimdir o‘ylab topgan naql emas bu.
Hasad — jaholatning pinhon belgisi.

Uning na boshi bor va na oxiri,
Osish mana bundoq bo‘ladi, deya
Osib qo‘ygan ekan o‘zini kimdir.

Bag‘rikeng insonlar saf-qatorida
Yashasang, jannatning zavqin tuygaysan.
Ichi qoralarda do‘zax tutuni.

Allohim, hayratdan ayirma meni,
Benasib qilmagin iftixoringdan.
Havas g‘unchalari guldek ochilsin.

Kimki ezgulikka bel bog‘lasa gar,
O‘zbekning Abdulloh polvoni misol
Namoyish etolsin qudratin doim.

2012-yil 3-mart

MUFTI

7

Mufti hazratlari, sizga osonmas,
Osonmas, dunyoda eng ulug‘ dinning
Qutlug‘ dargohida mujovir bo‘lmoq.

Bir payt johiliyat korandalari
Malomat qilgandi Rasulullohga:
— Biz ham yozishimiz mumkin Qur’onni.

U so‘qir bandalar bilmas edilar,
Jabroil lafzida, Hiro g‘orida
Ilohiy oyatlar nozil bo‘lganin.

O‘sha olomonning ichida esa
Bor edi zamonning shoirlari ham.
Qalamlari ravon, lekin kibrli.

Rasulullоh dedi: — Biror oyatni
Kimdir uddasidan chiqib yozolca,
Ka’ba devoriga keltirib ilsin!

Bir to‘da qalamkash tun-u kun tinmay
Yozdilar, va lekin, eplay olmagach,
Dedilar: — Ojizmiz bunday kalomga.

Quyoshga tik qarab bo‘lurmi axir,
Shundoq nido keldi qodir Allohdan:
— Bu qavm shaytonning yugurdaklari!

Ulug‘ e’tiqodning mujdasi esa
Olis ellarga ham borib yetgandi.
Poklanmoqda edi kir bo‘lgan qalblar.

Biror oilada qiz tug‘ilsa gar
Jaholat tiriklay ko‘mib tashlardi.
Mudhish yovuzlikni man etdi Qur’on.

Yerda bunyod bo‘ldi Insof, Diyonat.
Bebahra qo‘ymadi shoirlarni ham,
Hikmat bo‘lsin, dedi, she’rlaringizda.

Mufti hazratlari, sizga osonmas,
Axir yashab kelar nodonlik hanuz,
Nafs bilan yonma-yon, nayrangga o‘rtoq.

Muqaddas Qur’onni zikr etib go‘yo,
Savob panasida kechirgaylar kun.
Goho saltanatga intiladilar.

Shayton hunarini tashlagan emas.
Hamon qon oqadi qay bir ellarda,
Qizlar yonib ketar, onalar giryon.

Hali ko‘rinmasdan Chotqoldan quyosh,
Yuksak Xasti Imom minorlaridan
Yoyila boshlaydi azon tovushi.

Usmon Mushafidan nurlar taralar.
Mufti hazratlari, tilovat qiling,
Bandasiga O‘zi qanoat bersin.

2012-yil 4-mart

QADR

8

Afg'on tuprog'ida, Jayhun ortida
Bordir G'azna degan qadim manzilgoh.
Alloma Beruniy qabri u joyda.

O'rta asrlarning ulug' siymosi,
Ilm-u fan ganjida bebaho gavhar.
Hanuz qiyosi yo'q dahodir bu zot.

Ko'hna Xorazmda dunyoga kelib,
O'zga diyorlarda fano topmishdir.
Taqdiriga o'xshar taxallusi ham.

Afsus, vayronadir uning turbati.
Tirigin eplolmay yurgan mamlakat
O'tgan mahrumlarga ne qilib bergay.

Har nechuk, zuryodlar bilmog'i darkor
Kimning yelkasida turganligini.
Inchunun, tayanchi Beruniy bo'lsa.

Zakoning qadriga yetmagay nodon.
Bir kun Rasulullоh shundoq demishdir:
— Olim o'lganida olam o'lgaydir!

Axir, Brunoni qaysidir zamon
"Gullar maydoni"da yoqqanda cherkov,
Olam ham bir karra yonmaganmidi?

Magar unutsalar bobolar shonin,
Hatto qabrlari qolsa qarovsiz,
Olam uyiga ham ketmasmikan darz.

Qanchalik kamolga yetmasin inson
Zavol ham shunchalik unga sherikdir.
Bejiz aytmaganlar: Birniki mingga.

Ko'kka uchganida ilk bor fazogir,
Cheksiz koinotning sirli qa'riga
Asli odamzodning o'zi chiqqandi.

Sening zafarlaring menga ham oid.
Martaba talashgan takabbur qavm
Qachon mahdudlikni tark aylagaysan.

Hanuz baxillikdan qutulolmading.
O'zga sayyoralik tushsa osmondan
Uning ham urug'in surishtirgaysan.

Koinot majlisi bo'lsa mabodo
O'zbekning Beruniy, Ulug'beklari
Qatnashardi albat Inson nomidan.

Ko'rdim, at-Termiziy qo'yilgan yerda
Tengsiz maqbarani tavof qilgach el
Qurganni alqashib, so'ng tarqalardi.

Jayhun ortiga-chi, tashlasang nazar,
Go'yo o'chog'iga o'tin axtarib
Kezib yurgan kabi hamon Beruniy.

2012-yil 6-mart

E'TIQOD

9

Mutal Burhon doim ta'kidlar edi:
— Biling, bu dunyoda ikki xil do'st bor,
Biri non do'stidir, biri jon do'sti.

Umri davomida ulug' bastakor
Uchrata oldimi ikkinchisini?
Bu menga qorong'i, menga noma'lum.

Lekin aytgan gapi rostdir mutlaqo,
Isboti ko'p erur tarixda buning.
Hozir ham odamzod fe'li o'shadir.

Ta'ma degan illat toki yasharkan
Duch kelgan har ishga aralashadi:
Do'stlikka, sevgiga, hatto o'limga.

U bois yoqtirmas gadoni gado,
Apoq-chapoq yurgan nomdor boylar ham
Yovlashar, oraga manfaat tushgach.

Sulton Boyqaroning pinjiga kirib,
Martaba topishgan yaltoqi zotlar
Qatl ettirganlar Mo'min Mirzoni.

Rimda, toj-u taxtning tamasi uchun
Xanjar urganida ishongan do'sti,
Sezar nido qilgan: "Sen hammi, Brut?!"

Do'stni farmon bilan tayinlab bo'lmas,
O'rtaga tusholmas birorta qozi.
Faylasufning gapi — shunchaki yupanch.

Yolg'izlikni kim ham ixtiyor etgay,
Lekin topilgaymi sen istagan do'st?
Nahot o'lim kabi chorasi bo'lmas.

Sobit bir tuyg'u bor, E'tiqod degan,
Mansab-u boylikka bo'ysunmagay u.
Imonga esh bo'lsa, aynimas sira.

Yaxshilik, sadoqat, hatto adolat
Goho iltifotga o'xshab ketgaydir.
E'tiqod yo'q joyda ular burch asli.

Kimdir bir zamonlar bemor onasin
Makkaga yetti bor opichlab bormish.
Onaga e'tiqod hikoyati bu.

Otang duosini poylamoq shartmi,
Shartmi kutib yurmoq farzand xizmatin.
Vatanni sevmoq ham imondan emish.

Faqat e'tiqoding tufayli seni
Ko'kda farishtalar qo'riqlar ekan,
Ular so'raydimi bunga bir evaz?

Xudo rahmat qilsin Mutal Burhonni.
Hissa shul: do'stlikda e'tiqod bo'lsa
Omonat ko'prikka boshlab bormagay.

2012-yil 9-mart

TARIX

10

Sira tushunmadim men bir holatni
Yuksakni ko'zlagay Inson va lekin
Qulasa yumalar jar tubigacha.

Hech kimga yoqmaydi o'rtacha o'lchov,
Boy odam yanada boyroq bo'lsam der.
Sevgi haqida ham shunaqa gaplar.

Zukko bir olim bor, ilmida doim
Murojaat qilar insoniyatga.
Jumladan, Afrika birlashsin, deydi.

Teng bo'lsin deydi u adolat hissi,
Butkul bashariyat gullab yashnasin,
Hammaga barobar bo'lsin der, Vatan.

Birgina aybi bor u zotning biroq,
Quyuq nasihatdan charchagan chog'i
O'z xalqin mevaday xillay boshlaydi.

Ezgu g'oyalarin unutar mutloq,
Aylanar eng xudbin qavmparastga.
Go'yo nopok chiqdi hammomga kirib.

Xalqim, tarixingga tashlasam nazar,
Ilg'ayman, sen Temur qiyofasida
Yakto bo'lgan eding, hamjihat, kuchli.

Kuya yegan kabi asl matoni,
O'zingdan o't chiqib, bo'linib ketding.
Bo'linganning esa ahvoli ayon.

Tishi taqqillagan chiyabo'rilar
O'ljasin to'dadan ayirib olib
So'ngra osongina bo'g'izlaydilar.

Mutelikda qolgan azamat xalqning
Tegdi yelkasiga oftob nihoyat.
Uni ko'p ko'rmagin endi, xudoyim.

Bunyod bo'ldi yana ulug' mamlakat.
Satrlar biturman shukrona aytib,
Go'yo qaytib keldi ketgan g'ururim.

Mening olim do'stim, ilmingga sharaf,
Dunyoni chorlayver ezgulik sari.
Hatto Mirrixga ham maktublar yubor.

O'tgan bobolarning nomin yod etib,
Mayli dovrug'iga bo'laver sherik.
Mayli o'z-o'zingga mahliyo boqqin.

Kechgan tarixlarni unutma ammo.
Qadam qo'y hamisha niyatingga mos,
"Amri ma'ruf"ingga o'zing sodiq bo'l.

Birlash, deb elingga qilganda xitob,
Qulog'ing ostidan ketmasin o'sha
Chiyabo'rilarning uvlashlari ham.

2012-yil 11-mart

YAXSHILIK

11

... Kim, degaylar, dahraro qoldi falondin yaxshilig'!
Zahiriddin Muhammad Bobur.

Qirq yilcha muqaddam, olis Maskovda
Nogahon boshimga xastalik tushdi.
Ko'rdim, qilcha emas qolgan masofa.

Avval xudo derlar, uning amrisiz
Kirmas barmog'ingga zirapcha hatto.
Men buni ilohiy mantiq deb bilgum.

O'zi berar demak shifosini ham.
Kimningdir qalbiga joylangan mehr
Muruvvat shaklida ko'ringaydir u.

Meni yo'qlamishdir yurtimdan bir zot,
Ajabo, kichkina she'riyatimning
Kattakon muxlisi ekan u inson.

Endi tafsilotin so'ylab o'tirmay.
Shukur, omon qoldim, qaytdim uyimga.
Lekin yillar o'tib o'zgardi zamon.

Tarixning daf'atan evrilishlari
Teran sabablarga borib taqalar.
Quyunlar, bo'ronlar qo'zg'alar shundan.

Kemaga kim tushsa suzishga mahkum,
U kema g'arq bo'ldi ba hukmi zamon,
Ko'p zotlar girdobda ko'milib ketdi.

Butkul barham topdi qattol bir tuzum.
Xalqim, deb chiqdi-yu dovyurak siymo,
Yana yalov bo'ldi yurtda ezgulik.

Toki hamroh ekan senga xush niyat
Yoqimli tuyulgay muhit va davron.
Barchasi yaxshilik sharofatidir.

Axir muruvvatni sezar hayvon ham.
Deydilar, bolasin qaytarib bergach,
Ovchiga o'ljasin keltirmish bo'ri.

Ko'ngildan o'tadi: kim ko'ra turib
Agar yaxshilikdan ko'z yumar bo'lsa —
So'qir hisoblangay mahshargacha to.

Xayotda uchraydi tamom aksi ham.
Bugun qaysi dilga ozor bersam deb,
Uyidan qasd bilan chiqquvchilar bor.

Shukrona aytaman taqdirimgakim,
Aziz insonlarga zamondosh bo'ldim.
Bahra oldim cheksiz mehrlaridan.

Hayolim qochadi olis tunlari:
Alloh hukmi bilan o'nta qashqirdan
Seni qutqaradi bitta kabutar.

Yaxshilikning shundoq hosiyati bor.
Sen buni unutma, ushbu she'rni ham
Yozib qo'y, nabiram, yon daftaringga.

2012-yil 28-mart

HAQIQAT

12

Chaqaloqlar ajoyibdir, ona ko'ksining
Birin emib, ikkinchisin changallab turar.
Xuddi uni birov tortib oladiganday.

Eshigingga keladi goh bozorchi bola,
Ayt-chi, deysan, qatig'ingga suv qo'shilganmi?
Javob qilar: — Bizlar suvga qatiq qo'shamiz.

Bolalikning qiliqlari naqadar ma'sum,
Ochiq-oydin maqtovlari, aldovlari ham.
Yoqtirsa der: — Sizni yomon yaxshi ko'raman.

Chaqaloqlar ulg'ayadi, bola ham o'sar,
Qarabsizki, qarshingizda bir avlod bunyod.
Qonlarida ajdodlarning fe'li bor ammo.

Amudaryo tomonlarda, Ellikqal'ada
G'oyat dilkash, ko'ngli ochiq bir do'stim yashar.
Tanti, rostgo'y bobosiga tortgan emish u.

Gohi odam boshqarolmas o'z harakatin,
Har qadami, har ishidan chekar xijolat.
Demak, uning tomirida oqadi hadik.

Menga bir payt xorijliklar savol bergandi:
— Farqi nedur Chingiz bilan Amir Temurning?
Men degandim: biri buzgan, birovi qurgan.

To o‘lguncha inson fe’li qolipga tushmas,
O‘qtin-o‘qtin turfaligin bildirib turgay.
Biroq uni yo‘lga solar aql-u tajriba.

Yo‘l chetida paxsa urar kimdir ter to‘kib,
Unga “Horma”
deyishni-ku bilmabsan, endi a
Devorini qiyshiq deya bo‘hton ham qilma.

Registonni qurayotib, qandaydir kimsa
Bu yumushdan bir tovoq osh afzaldir demish.
Bilmaydiki, uni shu choq nafsi aldagan.

Havaskor bir nazmgo‘yning dostonin o‘qib,
Dabdurustdan uni yangi
“Shohnoma” demoq
Muazzam she’r maydonida yolg‘ondir qabih.

G‘oyat komil insonlarning davralarida
Men ham o‘tgan yo‘llarimni eslayman bot-bot.
Afsus, afsus, aldanibman, ko‘p aldanibman.

Biz-ku oddiy bandalarmiz, taqdir to‘lqini
Bir lahzada yuvib ketar qum zarrasiday.
Yana paydo bo‘lurmizmi sohilda?
Qaydam.

Biroq ulug‘ bir haqiqat hushyor torttirar:
Tarixni-yu xalqni aldash eng mudhish gunoh!
Hatto do‘zax intiqomi yupanch berolmas.

Men-chi bu kun boshim ko‘kda, ayta olaman:
Yengib qancha aldovlarni, kamsituvlarni
O‘z haqqiga, o‘z erkiga erishdi xalqim.

2012-yil 24-mart

VATAN

13

Eslayman, yoz payti ko‘chib chiqardik,
Chayla-kapa tikib poliz boshiga.
Paykalni qo‘rirdik bizlar — bolalar.

Tars-tars yorilardi tong chog‘i qovun,
Tulki-yu ignasi hurpayib ketgan
Jayraning “hay-hay”dan qochishin ko‘ring.

Bir safar qirg‘ovul tuxumin yig‘ib,
Kurk tovuq ostiga bostirib qo‘ydik,
Lekin qochib ketdi ochgan jo‘jalar.

Bo‘ri oraladi deyishdi bir kun,
Qishloq yigitlari otliq chiqishib,
Uni kaltak bilan urib olishgan.

O‘sha yillar turar hamon yodimda,
Namxush poxol hidi, yalpiz ifori
Hanuz ketmagandir dimoqlarimdan.

Dunyoda qasrlar bo‘lgan, albatta,
Biroq o‘sha kapa, o‘sha chaylamiz
Bizga vatan bo‘lmay, xo‘sh, nima edi ?!

Zilzila yuz berdi Toshkentda so‘ngroq,
Nogahon titradi ulkan bir shahar.
Qashqar mahallasi tamom to‘kildi.

Gurzi yegan kabi behush odamlar,
Timirskilar edi vayronalarni.
O‘sha xarobalar vatan edi-ku!

Chegarada turgan o‘spirin soqchi
Tunlar el oromin qo‘riqlayman der.
O‘sha vatan bo‘lmay, nimadir, ayting?

Qatag‘onda ketgan Alizodaning
Xokin Samarqandda dafn etdilar.
Axir, shu emasmi vatan degani.

Vatan hissi tanho, muqaddas, abad,
O‘zbek ovoz berdi dunyoviy bahsda,
Vatanga mansubdir o‘sha ovoz ham.

Xudo ko‘rsatmasin o‘zga holatni:
Buyuk bir koshona bunyod etsang-u,
Unda yashaydigan odam bo‘lmasa.

Vatanni sevmoqlik ne ekanligin
Meros qilib ketgan bizga ajdodlar,
Ulug‘ qahramonlar, sohibqironlar.

Bizga nasib etdi tengsiz saodat,
Dorulamon davr, qasri oliylar
Munosib bo‘lmoqni so‘rashar endi.

Vatan deb atalgan sirli muhabbat
Poliz chekkasida mung‘ayib turgan
O‘sha chaylalarda tug‘ilgan asli.

2012-yil 2-aprel

KO‘NGIL

14

Ko‘ngil nimalarni tusamas, axir.
Deylik, menga o‘xshash tepakal odam
Balki orzu qilar tilla taroqni.

Jiydaning tagida uxlab, tush ko‘rib
O‘zini avliyo sanovchilar bor.
Nasihat qiladi otasiga ham.

Bir polvon tanishim gapga berilsa
Jahon chempioni bo'lganman deydi.
Jahon deb bilar u qishlog'in. Mayli.

Hatto ertaklar ham to'qilgan nozik.
Yo'qsa, dabdurustdan aytmas edilar
Shahzodaning ko'ngli qurbaqada, deb.

Binoyidek odam keldi oldimga,
Dedi: — Juda muhim bir masala bor:
— Bobomning yerini qaytarib olsam.

Qachon o'tgan dedim bobongiz, jo'ra?
Bir zum barmoqlarin sanagach, dedi:
— Uch yuz yilcha bo'ldi, vallohi a'lam.

Dedim: —
Shu masala meni ham qiynar.
Axir, Amir Temur avlodidirman.
Qaytib olmoqchiman yarim dunyoni.

O'sha ketganicha badar ketdi u.
O, odam bolasi, o'zingni o'nglab,
Egalik qilsayding xayolingga ham.

Aslida, jo'yali orzuga ayb yo'q.
Bir zamon ajdodlar uchar gilamni
Niyat qilgan edi — chiqdi osmonga.

O'tli yoshligingni yonib qo'msaysan,
Lekin bu yoshlikka qaytganing emas.
Aytmasang ham kelar qarilik esa.

Dunyoning ko'ziga tiyrak boquvchi
Jasur insonlarga sharaflar bo'lsin!
Ularning shiori rostgo'ylik faqat.

Xayolimni bezar go‘zal she’riyat.
Munis va mehribon ulug‘ xalqimni
Hamisha baxtiyor ko‘rgim keladi.

Ko‘z oldimdan o‘tar turfa davrlar.
Inson baxtsizlikdan qiynalib ketsa
Jannat farog‘atin mavjud deb bilar.

Soddadil, xayolkash Don Kixotni biz
Beg‘ubor his bilan yaxshi ko‘ramiz.
Uning fe’li uchrar har birimizda.

Ko‘ngil nimalarni tusamas, axir.
Mana, hozirgina kechdi o‘yimdan:
Dushmanimdan ko‘ra do‘stim ko‘p emish.

2012-yil 5-aprel

SINOV

15

Ajabo, dunyoda dinlar barchasi
Avvaldan kelishib olganday go‘yo
Insonning umrini sinovdir deydi.

Buni tushunmadim, afsus, ko‘p zamon,
Nahot maromiga yetmagan bu fan,
Nahotki muallif o‘zin sinasa?

Anglash qiyin edi uning ma’nosin.
Aslida sanoqsiz qavmlar aro
Sochilib yotardi ulug‘ bir mantiq.

Mayli, o‘rganib ol sen yuzlab tilni,
Lekin tushunmasa dilingni birov
Bu axir eng og‘ir sinov emasmi?

Chiqsang-u ilmning cho‘qqilariga
Kerak bo‘lmasa gar birovga kashfing –
Bunisi hammadan battarrog‘i-ku.

Alloh bergan bo‘lsa senga iste’dod,
Biroq yashab yursang hissizlar ichra,
Pishirib yermiding iste’dodingni.

Biz bilan teng bo‘lgin deydilar ular,
Oldinroqqa o‘tsang yeb tashlashadi.
Naqadar shafqatsiz bundayin sinov.

Yaxshiyam qo‘llaydi Egamning o‘zi,
Azobga qo‘ysa-da esdan chiqarmas.
Misli o‘tkir tig‘dek charxlab boradi.

Biroq tugamaydi hali imtihon.
Oyog‘ingdan tortar hasadgo‘y ahli.
Yong‘oqni talashgan maymunlar misol.

O‘tgan davrlarni, qatag‘onlarni
Eslaysan va lekin shukur ham deysan:
Jaholat ilmni yo‘qotolmabdi.

Xudoyim baxsh etgan iroda-yu kuch
Bir bor yutqazsa-da o‘n karra yutgay.
Shu taxlit yuksalar taraqqiyot ham.

Olis falaklarga qadami yetib,
Chumolining tilin tushundi zako.
Qancha havaskorlar unga xalfadir.

Asli kamolotning chegarasi yo‘q,
Jam’i sarhadlarni zabt etgay inson.
Faqat Parvardigor qo‘llab tursa bas.

Sen esa, kichkina qariching bilan
O'zing tengilarning bo'yin o'lchab yur.
Undan balandrog'in eplay olmaysan.

Payt yetib, nokomil o'tmishing eslab,
Nogoh duch kelarsan nadomatlarga.
Shunda sen uchun ham boshlangay sinov.

2012- yil 9-aprel

BOBURSHOH

Temurbek naslidan chiqqan
Ajib siymodir, Bobur shoh.
Navoiydek she'riyatda
O'zi dunyodir, Bobur shoh.

G'alat holkim, qalam birla
Tanildi sohibi shamshir,
Buningdek zo'r saodatda
Hanuz tanhodir, Bobur shoh.

Ne yurtlar nusratiga tan berib,
Shaydo ham bo'lmish, lek
Tug'ilgan yurtiga zor-u
Abad shaydodir, Bobur shoh.

Bu zotning toza qoni
Qayda tomsa, bir chechak undi.
Xumoyun, Gulbadan, Akbar
Boqing, paydodir, Bobur shoh.

Jahon ahlini lol etmish
Mislsiz "Voqe'ot" birlan,
Asrlar qa'ridan kechgan
Ulug' daryodir, Bobur shoh.

Buyuk Hind yurtida qolmish
Malomat ichra sabr aylab,
Musofir ko'p bu dunyoda,
Valek yaktodir, Bobur shoh.

Qilib ko'p yaxshiliklar
Yaxshilikni ko'rmasa hamki,
Der Abdullo, Vatan ichra
Bobur Mirzodir, Bobur shoh.

2013-yil 20-yanvar

BOSFOR

Ko'kda raketalar uchrashar, qara,
Quyosh-ku har kuni ko'rgazar diydor.
Bir yon Qora dengiz, bir yon Marmara,
Ikkala bahrni ulaydi Bosfor.

Jonim, sen u yonda, men-chi bu yonda,
Masofa bilmagan faqat yurakdir.
Diydor ko'rishmakka yorug' jahonda
Nahot yana bitta Bosfor kerakdir.

2014-yil 18-yanvar, Bosfor

XALQIM

Agar bola bo'lsang, bag'rimga bosib,
Yelkamda ko'tarib yurarman, xalqim.
Agar ota bo'lsang, senga munosib,
Tayanch, aso bo'lib turarman, xalqim.

Dunyoda ko'p erur shahri azimlar,
Muhtasham qasrlar, oliy bazmlar.
Qurshagan chog'da ham e'zoz, ta'zimlar,
Davramni sen bilan qurarman, xalqim.

Umr-ku o‘tajak, fano muqarrar,
U yoqdan hech kimga kelmagan xabar.
Mabodo jannatga bo‘lsam muyassar,
Shunda ham xayoling surarman, xalqim.

Gohida rizqingdan qolding ayrilib,
Mayli, o‘tgan o‘tdi, boqma qayrilib,
Kelsa baloxo‘rlar, qo‘lin qayirib,
Boshini toshlarga urarman, xalqim.

Zaminning ayqirgan daryolari bor,
Tonggi shabbodalar taratar ifor.
Menda bo‘lib qolsa bir zum ixtiyor,
Barisin sen tomon burarman, xalqim.

Sen zavol topmading, qolmading horib,
Suv kelsa sipqorib, toshni qo‘porib.
Men kim shoir o‘g‘ling Abdulla Orif,
Ertan kamoling ham ko‘rarman, xalqim.

2014-yil 21 yanvar,
Istanbul

KO‘NIKISH

Bu dunyo o‘zgarib ketdi mutlaqo,
Ochiq gap, hamma ham barobar emas.
Mehnat qilgan odam kun ko‘rar, ammo
Bekorchiga ko‘kdan chalpak ham yog‘mas.

Orzu-havaslarga to‘liq bu olam,
O‘g‘lim, sog‘ yursang bas, o‘zingga yarab.
Endi qanoatga, ko‘nikkin sen ham,
Oyog‘ingni uzat ko‘rpangga qarab.

2014-yil 6-may

IKKI BOLAKAY

Go'yo olis fazolarga uchmoqlikka shay,
Suhbatlashib turar edi ikki bolakay.

Biri derdi: — Men o'qiyman Oksfordlarda,
Sayohatlar qilajakman ulug' yurtlarda.

Ikkinchisi dedi: — O'qi puling yetgaydir,
Yulduzlarni uzishga ham qo'ling yetgaydir.

Menda esa bunaqangi imkon yo'q, afsus,
Otamizda siznikiday do'kon yo'q, afsus.

2014-yil 6-may

ODIL YOQUBOV

Saksoninchi yillarning taloto'p davri edi,
Ijod otxonasiga sayis bo'lib qoldingiz.
Tashqaridan boqqanda go'yoki omad keldi,
Yozuvchilar ahliga rais bo'lib qoldingiz.

Jasur safdoshlar bilan eng katta minbarlarda,
Siz ham o'zbekning sha'nin qiloldingiz himoyat.
Ammo ulkan hududning shahr-u guzarlarida
Amalga ishqibozlik ortib ketdi nihoyat.

Yo'lboshchi bo'laman, deb oddiy mulladan tortib,
Havaskor shoirgacha chiqqan edi o'rtaga.
Na temir-u na po'lat — necha bir chulchit adib,
Erta-kech boshingizni aylantirdi jo'rttaga.

Siz odamlar qalbining adibi edingiz-ku,
Nahotki bilmasdingiz ularning ayyorligin.
Manfaati yo'lida duch kelsa hali siz-ku,
Otasining go'rin ham sotishga tayyorligin.

Nahotki bilmasdingiz bu qavmning kimligin,
Hasadgo'y va davrachi, shuhratparast, olifta.
Olimi ham ko'rmaydi bu jahonning kengligin,
Barchani tiqishtirar o'zi chizgan qolipga.

Holbuki anglardingiz zulmat bilan ziyoni,
Ulug'bekning boshini o'z o'g'li yeganligin.
Eng buyuk vatan bo'lmish muhtasham Osiyoni,
Kelgindi yovdan avval tarqoqlik yengganligin.

Anglardingiz aslida Oloylik qotil kimdir,
Insonparvar yozuvchi Chingiz kimdir dunyoda.
Bir qarasa, fe'lingiz muloyimdir, halimdir,
Bir qarasa, qahringiz nortuyadan ziyoda.

Bir kuni oh chekdingiz yolg'iz qolgan paytimiz,
Nega men shu qavmga o'ralashib qoldim, deb.
Eh, oqsoqol, elga siz ko'p o'gitlar aytdingiz,
Ezilmang, dedim sizga pushaymonlik g'amin yeb.

Biroq dildan o'tardi tamomila boshqa gap,
Tinchgina ijod qilib yursangiz bo'lmasmidi.
Abdulla Qahhor yoki ustoz Oybekka o'xshab
Xolis bir qo'rg'on bo'lib tursangiz bo'lmasmidi.

Ruhingiz topsin orom, siz tarixiy yo'llarda,
Imonli insonlarga chin yo'ldosh bo'loldingiz.
Istiqlol bayrog'ini baland tutib qo'llarda,
Asl, buyuk zotlarga zamondosh bo'loldingiz.

2014-yil 9-may

POCHTA QUTISI

Darvozam yuziga qadalgan shundoq
Ajoyib bezakli pochta qutisi.
Yo'lovchi yo muxlis yoki do'st-o'rtoq
Unga o'z xatlarin tashlab o'tgusi.

Goho ta'sirlanib ketaman rostdan,
Olganda masalan, qutlov xatlarni.
Birov po'pisa ham yozadi qasddan,
Ba'zan o'rganaman shikoyatlarni.

Hayotning oddiy bir manzarasi bu,
Kimdir balki mendan kutgaydir madad.
Biroq bir armon bor dilimda mangu—
Qayga boray o'zim magar bossa dard?

Dunyodan o'tganda otam va onam,
Chidash berolmadim hijron o'tiga.
Faryodim qog'ozga bitgan bo'lsam ham,
Uni tashlar edim qaysi qutiga?!

Uchratdim hayotda turfa odamni,
Nokaslar tinch qo'yar na o'ng, na tushda.
Ular yuragingga solgan alamni,
Qabul qilarmikan birorta pochta?!

Kechagi yoronlar ketsa qayrilib,
Mansab-u boyliging yo'qligi sabab.
Agar yolg'iz qolsang, do'stdan ayrilib,
Kimga xat yozarding tasalli so'rab?!

Har lahza uchraydi azal bir ma'ni,
Hayotda abadiy shundoq ibrat bor:
Qayta tiklash mumkin hatto Ka'bani,
Lekin qalbni tiklash dushvordir, dushvor.

Magar nola cheksa yuraging zimdan,
Uni tinglar faqat Alloh dargohi.
Gina qilib yurma, aslo hech kimdan,
Qutiga sig'maydi insonning ohi.

2014-yil 17-may

VATAN MEHRI

Singlim Bibisoraga

Xastalikka yo'liqdim Vatanimdan yiroqda,
Vayron bo'ldi ming karra shundoq ham vayron
ko'nglim.
Dengiz-u tog'lar osha, goh yayov, goh uchoqda
Meni ko'rgani kelding,
Bibisora, jon singlim.

Ellik yil ayro tushgan ikki jigarband misol
Aka-singil yig'lashdik,
yelkalarga qo'yib bosh.
Shu lahza onam ruhi charx urardi ehtimol,
Balki otam arvohi tilardi bizga bardosh.

Noshukurlik yomondir, yashadim-ku harqalay,
Qayga borsam, muxlislar bizniki deb atashdi.
Biroq o'tgan yillarning fe'lin ham aytib o'tay:
Avvalo qo'rqitdilar, so'ngra esa talashdi.

Boylik va amal topish qiyin emas dunyoda,
Jindek chaqqonlik bilan ustakorlik bo'lsa, bas.
Dushman-ku poylab turar har o'r-u har qiyoda,
Faqatgina chin do'stni uchratmoq oson emas.

Men ham bir do'st axtarib, shamol misoli yeldim,
Goho topdim, gohida topolmay chekdim alam.
To'rt muchaning qadrini yoshim o'tganda bildim,
Jarohat topdim goho tuyaning ustida ham.

Donishmadlar hayotni aslida sinov deydi,
Bu hikmatni har inson o'zicha anglar biroq.
Tiriklikda sobit bir mantiq bo'lsa qaniydi,
Bo'rilar qolib ketib, qo'yni sinashar ko'proq.

Sog‘ayib safingizda yurarman hali men ham,
Oshno bo‘lib she’r degan abadiy bir sehrga.
Yolg‘iz xudoga soldim, gar birovdan yetsa g‘am,
Lekin mudom talpindim ezgulikka, mehrga.

Kim bo‘libman axir men, mehrga zor-ku bashar,
Chulg‘ab olmish olamni zo‘ravonlik va aqcha.
Oddiy bir to‘p teparga qiyoslab ko‘rsang agar,
Gomer va Tolstoyning narxi bo‘larkan qancha?!

Ha, odam bolasi bu, qon qaqshatar dillarni,
Qo‘li hech bo‘shamaydi ig‘vo bilan urushdan.
Ko‘rdim afsus dunyoda hatto shundoq ellarni,
Zavq oladi o‘z birin toptab, yerga urishdan.

Sen Vatanim mehrini keltirding, Bibisora,
Endi oyoqqa turgum sog‘-omon, o‘ynab-kulib.
Bilib qo‘y, bu mehrni topib bo‘lmaydi sira,
Inchunin, u ko‘ringay gohida singil bo‘lib.

2014-yil 4-avgust

UNUTISH

Unut bahorlarni, qishlarni unut,
Unut osmonlarning zangor ko‘ylagin.
Yulduzlarni unut, qushlarni unut,
Ularni ko‘rmadim deya o‘ylagin.

Dunyoda jamiki mavjud narsani
Yaralmagan degin, yo‘q deb bil, erkam.
Hayratga solursan shunda barchani,
Shunda unutarsan balki meni ham.

2014-yil 16-avgust

MADAD

Yashin urgan daraxt,
Yarador bo‘ri,
Qoyaga urilib,
Yiqilgan burgut.
Tanida bor bo‘lsa,
Hayotning nuri,
Tangrim, sen ularni
Aylama unut.

Yovuzga kuch berib,
Zolimni qo‘llash
Ehtimol Iblisning
Azaliy kasbi.
Nochor-u ojizga
Madadin yo‘llash
Yaratgan Egamga
Xos erur asli.

Butun bo‘lolmadim,
Jonim ham yarim,
Lekin to‘liq sezdim
Tiriklik sasin.
Beozor do‘stlarim —
Chumolilarim,
Gurs-gurs qadam tashlang,
Tangri qo‘llasin.

2014-yil 23-avgust

QARIYALAR SUHBATI

Yomg‘irlar yog‘ardi qirq kecha-kunduz,
Qorlar yog‘ar edi terakni ko‘mgan.
Tulporlar bo‘lardi ko‘zlari yulduz,
Poygada raqiblar changini ko‘rgan.

Yigitlar bo‘lardi baquvvat, bardam,
Bir o‘zi yer edi bir semiz qo‘yni.
Tobutlar bo‘lardi fayzli chunonam,
To‘ldirib o‘tardi mahalla-ko‘yni.

2014-yil 9-sentabr

SAFAR

Olib ketmasmidim safarga seni
Zarracha imkonim bo‘lsa agarda.
Bir sen kuzatmading vokzalda meni,
Ketmagandek bo‘ldim men ham safarga.

Qaytdim sog‘inch bilan yo‘l bosib og‘ir,
Yana faqat seni izladim, erkam.
Bir sen chiqmaganding vokzalga axir,
Qaytmagandek edim safardan men ham.

2014-yil 15-oktabr

KUN KO‘RISH

Chalpak yoqqan emas osmondan aslo,
Har kim nasibasin albatta yegan.
Odam bolalarin lafzida ammo,
Bitta ibora bor — kun ko‘rish degan.

Asli bu qismatga yo‘liqqan har kas
Orzu umididan ayrilgan demak.
Qayda bir luqmani ilg‘adimi, bas,
O‘sha tomonga u yugurgan beshak.

Kun ko‘rish degani o‘rtab dillarni,
Amallab yashashdan bir belgi, nishon.
Zabtiga olgay u hatto ellarni,
Ne-ne mardlarni ham aylagay yakson.

— Nega yolg‘on aytding, aldading nega,
Nega haqni yoqlab bermading turish?!
Deydi: — Sen haq deysan, jon kerak menga,
Kun ko‘rish kerakmi, axir, kun ko‘rish.

Kun ko‘rish yo‘lida yurarlar kuylab,
Kun ko‘rish dardida to‘karlar ko‘z yosh.
Agarda teranroq qarasang o‘ylab,
Jallod ham kun ko‘rish uchun olgay bosh.

Faqat kun ko‘rish deb qilingan ishdan,
Bahra toparmikan birorta banda.
Odam charchar bir kun bunday yumushdan,
O‘zini o‘ylar-ku hech bo‘lmaganda.

Ulug‘ orzularga etgandi da’vat
Fidoyi insonlar — benazir zotlar.
Nahotki, kun ko‘rish yo‘lida faqat
Yonib bitgan bo‘lsa o‘sha hayotlar.

Insof bera qolsin har kimga Egam,
Hayot ko‘zgusida turlanmoq nechun?!
Ehtimol, mana shu satrlarni ham,
Yozib turgandirman kun ko‘rish uchun.

2014-yil 8-noyabr

NONUSHTA

Chol-kampir va o‘g‘il. Nonushta chog‘i.
O‘rtada dasturxon. Choy va qattiq non.
Oraga cho‘kmishdir sukunat tog‘i,
Nihoyat gap boshlar sekin onaxon:
—O‘sha so‘raganin bersangiz agar,
O‘g‘limizning ishi bitarmidi yo.
Chol birdan g‘azabga minadi battar:
—Hech vaqo yo‘q menda, yo‘q menda dunyo!

Shartta turib ketar chol ham, o‘g‘il ham,
Qaygadir yo‘l olar birin va ketin.
Kampir yolg‘iz qolar, ko‘zlarida nam,
Ma’yus g‘ijimlaydi dasturxon chetin.

2014-yil 22-noyabr

KECHIR, SHE’RIM

Kechir she’rim, kechirgin meni,
Yillar o‘tib charchadim, toldim.
Shunday paytlar bo‘ldiki, seni—
Muhofaza qilolmay qoldim.

Quduq qazdim suv tanqis damlar,
Erishdim ham balki yutuqqa.
Cho‘ktirdilar lekin odamlar
O‘zim qazgan o‘sha quduqqa.

2014-yil 1-dekabr

FAZILAT

Ariza yozib yo iltimos qilib,
Hech kim bu dunyoga kelgan emasdir.
Har banda o‘tirsa o‘rnini bilib,
Nafsiga berilmay yashasa, basdir.

Mehnat-u tafakkur, tajriba bois
Mukarram bo‘lgaydir hamisha inson.
Kim bundan mosuvo — hurmat nojoiz,
Uning odamligi aslida gumon.

Oyoqsiz bo‘lsa-da suv ham yurolgan,
Ibrat ol, hech qursa, sen unga qarab.
Oshyon-u uyasin o‘zi qurolgan
Chumoliga sharaf, qushlarga sharaf.

Qarayman — moziyning dovonlarida
Botirlar mash'ali to hanuz porlar.
Gard bo'lmish tarixning maydonlarida
Yasama polvon-u soxta tulporlar.

Mansab-u shon-shuhrat, boylig-u dunyo
Halollik tufayli aziz, muborak.
Nainki zaminga, ko'kka ham hatto
Faqat fazilatli bandalar kerak.

2014-yil 16-dekabr

UCHINCHI BO'LIM

Tiriklikning ehtimol yarmin,
O'tkazasan xushomad qilib.
Kimlarningdir bosh kiyimlarin
Garderobga — qoziqqa ilib.

Nasib etsa birorta mansab,
Endi senga xushomad bo'lgay.
G'animlar ham iltifot aylab,
Garderobga telpaging ilgay.

O'zingni ham qildingmi hurmat?
Deysan, bunga tegmadi qo'lim.
Bu insoniy, qisqa bir muddat,
Umringdagi uchinchi bo'lim.

2014-yil 24-dekabr

TO'DA

Ming yillardan buyon jami hayvonlar,
Bo'rilar, shoqollar, sherlar, arslonlar.

To'da-to'da bo'lib yashab kelishgan,
Birga ov qilishgan, birga yeyishgan.

To‘daning bosqini dahshat juda ham,
Mamontni yiqitgan bir to‘da odam.

Agarda qo‘zisa to‘daning fe’li,
Unga teng kelolmas soylarning seli.

Xos unga yovuzlik, shafqatsizliklar,
Qorni to‘q bo‘lsa-da, toqatsizliklar.

Irsiyat so‘zini aytishmas bekor,
Barchasi to hanuz yo‘qolmagan, bor.

Bir hisni yashirib axir netaman,
To‘dani ko‘rganda qo‘rqib ketaman.

2015-yil 6-yanvar

UZR

Shoir deydi: —
Topdim shon-shuhrat,
Xayolimni nurga o‘rayman.
Hasadgo‘ylar ko‘p ekan faqat,
Men ulardan uzr so‘rayman.

Bemor deydi: — O‘ldim, tirildim,
Endi jonni zarga o‘rayman.
Bemorlikda bezovta qildim,
Do‘st-u yordan uzr so‘rayman.

Chaqaloq der: — Salom, ey olam,
Seni shaksiz gulga o‘rayman.
Ostonangda turibman men ham,
Zamin, sendan uzr so‘rayman.

2015-yil 10-yanvar

MOMO

Men ko‘rgani keldim atayin,
Hozir sensan eng qadimgi jon.
Nabirangdek tinglab yotayin,
Afsonalar aytgin, momojon.

Aytgin, odam bolasi bir vaqt
Insof bilan yashaganligin.
Halol va pok, faqat va faqat,
O‘z oshini oshaganligin.

Insonlarda sadoqat, vafo,
Bir zamonlar bo‘lganini ayt.
O‘zi och-u ko‘zlari ammo,
Mehr bilan to‘lganini ayt.

Bandalarni makkorlik, kibr,
Kemirmagan, yemagan degin.
Boshlariga tushsa ham shamshir,
Yolg‘onlarni demagan degin.

Men ko‘rgani keldim atayin,
Hozir sensan eng qadimgi jon.
Nabirangdek tinglab yotayin,
Afsonalar aytgin, momojon.

Tilagingdan bahra olsin to
Oqmi, qora — jamiki odam.
Ezgulik deb sen qilgan duo
Yerda qolmas,
momo, sira ham.

2015-yil 12-yanvar

AKSIOMA

Tomni bo‘yash uchun yetmadimi gal,
Mehmon qay ilgakka to‘nini ilgay?
Bularning javobin hammadan avval
Shu uyning egasi — mezboni bilgay.

Bir bog‘ shovullaydi ko‘zni yashnatib,
Olamga tatirlik hosil ham qilgay.
Bul ajib ma’voda bor qanday tartib?
Buni ekkan odam — bog‘boni bilgay.

O‘zini har yonga urmaydi karvon,
Turfa to‘siqlar bor — ko‘ksini tilgay.
Aslida bu karvon ketmoqda qayon?
Buni — yulduz ko‘rgan sarboni bilgay.

Mening kiprigimda qalqib turar yosh,
U qachon to‘kilgay, u qachon jilgay?
Dengizlar tosharmi, ko‘charmi yo tosh?
Olamlar sohibi — darboni bilgay.

2015-yil 13-yanvar

SOG‘INCH

Seni sog‘insinlar,
Sen ko‘p sog‘inding,
Chora yo‘q baribir ikki holda ham.
Daryodek tosharding, ko‘l kabi tinding,
Faqat ruhing qoldi sen bilan hamdam.

Afsus, sog‘inchning ham bordir adog‘i,
Keyin unutilish, bari abasdir.
Sog‘ingan odamning ko‘nglida dog‘i,
Sog‘intirganga ham oson emasdir.

2015-yil 27-yanvar

DO‘STLAR VA RAQIBLAR

Yoshlik yillarimni eslayman sekin,
Gohida tinibman, gohida qaynab.
Turfa satrlarni bitibman, lekin
Bir so‘z ham yozmabman qalamni qiynab.

O‘rni kelganida kechdim daryodan,
Bitta o‘zim qoldim girdobda goho.
Kuch oldim do‘stlarim bergan himodan,
Tortdi oyog‘imdan raqiblar ammo.

Agar tog‘ atalsa u shonli ravoq,
Oltin zinasiga qo‘ydim bir kun bosh.
Do‘stlarim qutlovga qo‘l cho‘zdi, biroq
Raqiblar tepadan otib turdi tosh.

Ravon yo‘l yo‘q ekan,
har yon so‘qmoqdir,
Yo‘lbars ham yurmagan chigal bu o‘rmon.
Do‘stlar-ku yulduzdek senga mayoqdir,
Raqiblar bildirmay qo‘yarlar qopqon.

Bu yorug‘ dunyoda yo‘l yurib albat,
Oxiri to‘xtaysan, paymonang to‘lib.
O‘sha kun do‘stlarga bermasdan navbat,
Raqiblar so‘z aytar birinchi bo‘lib.

Insonga ko‘rgilik azaldan o‘tgan,
Doimo vijdonga keltirganlar shak.
Xudoyim urgan-u payg‘ambar turtgan
Raqibning ustozi — Iblisdir beshak.

2015-yil 29-yanvar

TANISHLAR

Qonunda yozilmagan kuchlar bordir dunyoda,
Ko‘zga tashlanmas, ammo qo‘zg‘alsa shahdi yomon.
Noziklikda tarozu shayinidan ziyoda,
Urishtirguvchi hamda Yarashtirguvchi tomon.

Ulug‘ yoshdaman, biroq hadigim bordir katta,
Qo‘rqaman kim bilandir oshno bo‘lib qolishdan.
Urishtirguvchi tomon topar seni albatta,
Ishin boshlar oraga nifoq, nizo solishdan.

Bu mening xulosamdir, do‘stlikni xufya saqlang,
Ihota aylang uni har xil shirin so‘zlardan.
Ayniqsa, muhabbatni oshkor etmay ardoqlang,
Zada bo‘lmasin toki turfa yovuz ko‘zlardan.

Urishtirguvchi tomon har qayda doim shaydir,
Chang soladi tap tortmay e’tiqodga, imonga.
Oila rishtasin-ku maroq bilan uzgaydir,
Hatto Vatan tuyg‘usin olmoq bo‘lar nishonga.

O‘ylayman goh, odamzod nahotki loqayd boqar,
Nahotki, ezgulikni asray olmaydi omon.
Urishtirguvchi taraf chittakdek qanot qoqar,
Og‘ir karvonga o‘xshar Yarashtirguvchi tomon.

2015-yil 20 fevral

POYEZDDA

Qarshigami, Termizgami poyezd yurar,
Ikki ayol choy ho‘plashib suhbat qurar.

Biri deydi: — Ming shukurki uyimiz bor,
Tarnovlari oq tunuka, zap naqshinkor.

Unisi der: — Bizniki ham juda ko‘rkam,
Bordir hatto hovlimizning devori ham.

Qarshigami, Termizgami poyezd yurar,
Ikki ayol choy ho‘plashib suhbat qurar. . .

2015-yil 6-mart

MONOLOG

Men uzoq davrlar qaroqchi bo‘ldim,
Shu yo‘lda toblandi aql va yurak.
O‘zimdan o‘tganin men o‘zim bildim,
Sen nega qaroqchi bo‘lmog‘ing kerak.

Men yopiq qo‘rg‘onda yashadim qo‘rqib,
Najot devoriga tirmashdim uzoq.
Sen nega dunyoga qaraysan hurkib,
Nega sen bo‘lishing kerakdir qo‘rqoq?

Qasamxo‘r dunyoda kun ko‘rmoq uchun
Aytmagan yolg‘onim qolmadi biror.
Sen-chi hiylakorlik qilasan nechun,
Senga o‘trik aytish nimaga darkor.

Duch kelgan kimsaga qildim xushomad,
Oyog‘in yaladim mushukday hatto.
Egildi bir zamon tik bo‘lgan qomat,
Bu holni senga hech ko‘rmasman ravo.

Endi sen bobolar shavkatiga boq,
Aktyordek soxtakor shavqlarga to‘lma.
Men hayot qo‘lida bo‘ldim o‘yinchoq,
Baxtsiz yashab o‘tdim, sen baxtsiz bo‘lma.

2015-yil 13-mart

QISHLOQ ZIYOLILARI

(Esdaliklardan)

Sizdan necha nafar qoldi, bilmadim,
Oradan o'tdi-ku ellik-oltmish yil.
Sizga ehtiromim kanda qilmadim,
Aslo uzilmadi Sizdan bu ko'ngil.

Biringiz feldshersiz — o'rtacha do'xtir,
Biringiz muallim — galstuk taqqan.
Sizda armon degan so'z o'zi yo'qdir,
Siz — nurli ufqqa entikib boqqan.

Namuna bo'ldingiz qishloqqa, elga,
O'rischa so'zni ham qotirardingiz.
Rioya aylashib adabiy tilga
"Juda"ni "yuda" deb gapirardingiz.

O'zni nimagadir aylab safarbar
Xayoliy dushmanga qiron solgansiz.
Yarador bo'libdi, deyishsa, askar
Siz ham boshingizni boylab olgansiz.

Siz do'xtir bo'lgansiz, bilmasdan asli
Qayerda joylashgan o'pka yo yurak.
Bemorga bergansiz taskin-tasalli,
Har xil dori-darmon shart emas demak.

Muallim bo'lgansiz, bitta kastumni
Rosa yigirma yil tepkilab kiygan.
Biror shogirdingiz besh olgan kuni
Qalbingiz Napoleon faxrini tuygan.

Sizni chulg'ab olmish ishonch mutlaqo,
Buyuk orzularga to'liqqan miya.
Qoq po'stak ustida yostiqsiz hatto
Uyquga ketgansiz "Yashasin!" deya.

Sizni qadrlardi el-yurt begumon,
Siz ham xalq qadriga shaksiz, yetgansiz.
Lekin barchangiz ham ba hukmi zamon
Biri ikki bo'lmay o'tib ketgansiz.

2016-yil 14-mart

QO'RQUV

U zamon o'tib ketdi,
Degaymiz: sho'ri qursin.
Insonni tahqir etgan
Zo'ravon, soxta g'oya.
Qolgan-qutgani bo'lsa
Xudoning o'zi ursin,
Lekin ba'zan ruhimga
Qo'rquvi solar soya.

U deydi: — "She'rdan qayting
Sog'-omon paytingizda,
Kimlargadir tegmasin
Satringizning bir joyi.
Xalqim, deb bong uribsiz,
Mana bu baytingizda,
Xalqimiz desangiz gar
Bo'lmasmidi binoyi.

Muhabbatim demishsiz,
Bu gap xato, albatta,
U qaysi muhabbatdir?
Yashirgaysiz siz doim.
Muhabbat hammaniki,
Ma'nosi juda katta,
Xususiy bo'lib qolsa,
Ne der el-yurt, xudoyim!"

O, sen qo'rquv sharpasi,
Yuz yil naridan turib,

Shubha bilan avraysan
Millionlarning kallasin.
Qonmi, deb qaltiraysan
Tarvuz suvini ko'rib,
Askar kaskasi deysan
Uning qo'sha pallasin.

Qarg'ami yo toshbaqa
Yasharmish juda uzoq,
Aslida ular umri
O'tkinchidir, bir onlik.
Jaholat necha yoshda?
Yetmaydi bunga sanoq,
Afsuski, aslo o'lmas,
Abadiydir nodonlik.

Bu Vatan menikidir,
Bu til mening tilimdir,
Muhabbatim meniki,
Chidaysan-da, nachora.
Izzat qilsa o'g'lim deb,
Bu el mening elimdir,
Oh, senga nima qoldi?
Qo'rquv qoldi, bechora.

2015-yil 26-mart

HIMMAT

Daryoning himmati daryoga o'xshar,
Bir oqsa oqadi bilmasdan tinim.
Yig'sam sovg'a bo'lgan gullarni agar,
Kattakon chamanzor bo'lardi, inim.
Dunyoning zulmi ham qolishmas, ammo
Bir umr topmassan halovat, qo'nim.
Otilgan toshlarni yig'sam mabodo
Ulkan bir tepalik bo'lardi, inim.

2015-yil 7-aprel

SHOIR QISMATI

Sizga achinaman, shoir Hamzaxon,
Bu gapni aytmadim aslo jo'rttaga.
Qaysi jin urgandi sizni u zamon,
— Sho'ro!
deb chiqdingiz birdan o'rtaga.

Tuzum makkor edi, tuzum hiylagar,
Aldamchi edi u, qabih, ko'ngli kir.
Toshbo'rondan tirik qolsangiz ham gar,
Otib tashlardilar sizni baribir.

Ular yasadilar sizdan bir yalov,
Oyoq ostingizda chohni ham qazib.
Sizga yetmasmidi qalbdagi olov,
Yurmasmi edingiz she'ringiz yozib.

Vatanning yovi-ku bosqinchi axir,
Sart so'zin eshitsa g'azabga to'lgan.
Imonsiz kimsalar xudosiz — kofir,
Millatni yerlarga urmoqchi bo'lgan.

Siz-chi vasf etdingiz ularni behad,
Zamon shoiri deb chiqdi nomingiz.
Sizni o'rab oldi maqtov va hasad,
Aldanish mayiga to'ldi jomingiz.

Qismat tanlab oldi sizni Hamzaxon,
Ergashib ketdingiz yumuq bir ko'zdek.
Bitta farzandini boy berdi Qo'qon,
Bitta shoiridan ayrildi o'zbek.

2015-yil 10-aprel

KASSETA

Nabiram kasseta qo‘yar gohida,
Uzoqdan keladi o‘ktam bir nafas.
Yer-osmon yongudek uning ohida,
Muhabbat atalmish hech o‘lmas bu sas.
Baland qil, ko‘klarga o‘rlasin nolam,
Bu mening navqiron chog‘im-ku, bolam.

Tag‘in ovoz kelar yiroq-yiroqdan,
Vatan deb, elim deb tortilgan na’ra.
Hanuz nur olaman o‘sha chiroqdan,
Sen ham shu Vatanning koriga yara.
Qog‘oz janggoh edi, tug‘im-chi — qalam,
Bu mening ulg‘aygan yillarim, bolam.

Turfa sadolarni turgayman tinglab,
Mana bu suhbatim, mana bu — doston.
Bari muhrlanib qolmishdir, ajab,
Birida ma’yusman, birida shodon.
Baribir, yashadim shuhratga hamdam,
Bu mening yetuklik davrimdir, bolam.

Oxir eshitilar parishon ovoz,
So‘zin anglab bo‘lmas, bari aralash.
Har she’r o‘qilganda shildirar qog‘oz,
O‘rnimdan qalqaman, ko‘nglim bo‘lar g‘ash.
Bas qil, yuragimni ezmasin alam,
Bu mening keksalik paytim-ku, bolam.

2015-yil 14-aprel

IKKI XUSHOMADGO‘Y

Ikki xushomadgo‘y uchrashdi bir kun,
Ochig‘i, tajriba almashmoq uchun.

Shundoq gapni boshlab qoldi havaskor:
— Mening qalbim to‘la g‘urur, iftixor.

Oxiri meniki bo‘ldi xo‘jayin,
Ishlarim yurishib ketmog‘i tayin.

U kun o‘zlarini yaladim ancha,
Tovonidan tortib tizzasigacha.

Gal keldi ikkinchi xushomadgo‘yga,
Gapin boshladi u, tolgancha o‘yga:

— Hozirgi kasbdoshlar o‘zgargan butkul,
Kamtarlikni bilmas, maqtanar nuqul.

Mana biz dongdormiz, taniydi har kim,
Lekin o‘tiribmiz, gerdaymasdan jim.

Aytsam ishonmaysan, eh sodda ukam,
Yalaganmiz undan yuqorisin ham.

2015-yil 18-aprel

KIBR

Men borman — dunyo bor,
men yo‘q — dunyo yo‘q,
Faqat bugunni bil, faqat bugunni.
Bisoting mavjudmi — ko‘ngling bo‘lsin to‘q,
Eslatma, oxirat degan u kunni.

Turli afsonalar to‘qiydi odam,
Sevgi bu — qushda ham uchraydigan nafs.
Bordir o‘z egasi erta kunning ham,
Menga kelajakdan o‘qiyverma dars.

Insof nodonlarga erur munosib,
Sen-chi faqatgina o‘z-o‘zingni bil.
Hatto avliyolar xokini bosib,
Maqsadga intilgil, maqsadga intil.

Uch-to‘rt xayolparast bukkanicha qad
Tushining ta’birin topgunicha to.
Sizning fikringizcha ya’ni men — murtad
Egallab olaman dunyoni hatto.

Nega tinglamaysan kibrning so‘zin?
Olijanob eding, ahvoling tangmi?
Asrlardan buyon butkul yer yuzin,
Boshqargan menmi yo kamtar otangmi?

2015-yil 21-aprel

TOG‘ BOLASI

Yuksak tog‘lar ichra qora ko‘z bola,
Yashardi hur, ozod, ko‘rmay g‘am, nola.

U faqat borliqdan andoza olgan,
Jami jonzotlarga do‘st bo‘lib qolgan.

Balki odamlarni anglamas, ammo
Tabiat fe’lini bilardi a’lo.

Bilardi arslonning buyukligini,
Ohuning nozik va suyukligini.

Go‘yo so‘ragandek mehr va najot
Undan qochmas edi sira hayvonot.

Bir kuni qo‘shnilar chiqdilar yo‘lga,
Qo‘noq bo‘lmoq uchun pastga — ovulga.

Har nechuk, qiziqdir madaniy qatlam,
Ola ketishdilar bolakayni ham.

Biroq ko‘nikmadi bola hech elga,
Tushunib-tushunmay hattoki tilga.

Uning g‘alatligin payqab qolishdi,
Odamlar bir zumda o‘rab olishdi.

Dedilar: “Epchilsan bo‘riday go‘yo”,
Bola tushunmadi bu gapni aslo.

So‘ngra ko‘rsatdilar bo‘ri suratin,
Bola yashirolmay qoldi hayratin:

Bo‘riday uvladi, sakradi quvnab,
Bo‘ri bolasidek ag‘anab, o‘ynab.

Ayiq suratini ko‘rsatishdi so‘ng,
O‘rmonlar otasi pahlavon va cho‘ng.

Bolakay ayiqni tanidi darhol,
Mashq qila boshladi lapanglab,
xushhol.

G‘oyat baxtli edi shu lahza, shu on
Ko‘chib kelgan kabi yoniga o‘rmon.

Va lekin o‘rtaga chiqdi bir odam,
Tog‘lik bola tomon tashladi qadam.

Go‘yo olmoqchiday eski qasdini,
Bolaga uzatdi tulki rasmini.

Daf’atan oh chekdi tog‘ning bolasi,
Atrofni titratdi dardli nolasi.

Olomon tarafga shiddat-la boqdi,
G‘azabnok so‘zlarni aytib tutaqdi:

Men tulki emasman, tulki emasman,
Tulki deganlarni odam demasman.

So‘ng ketdi tog‘ tomon la’natlar ayta,
Hech kimsa ko‘rmadi bolani qayta.

Deydilar, uvlasa bo‘rilar nogoh,
Bola ovozi ham kelarmish goh-goh.

2015-yil 24-aprel

OILA YANGILIKLARI

Bola o‘qib qaytdi xorijdan bir kun,
Kasbi kor orttirdi — diplomli me’mor!
Uyda bayram bo‘ldi momosi uchun:
— Bolam, tandir qurgin, o‘tirma bekor.

Bittasi injener bo‘lib qaytdi-ku,
Temir-tersaklarga bag‘ishlarmish jon.
Tog‘a o‘g‘il bola gapni aytdi-ku:
— Eski aravam bor, tuzat, jiyanjon.

Katta do‘xtir bo‘ldi kenjatoyi ham,
Bobo der: — G‘ururga endi to‘laylik.
Biroz xashakidir dardimiz, bolam,
Senga munosibroq kasal bo‘laylik.

2015-yil 25-aprel

OGOHLIK

Qora kunlar keldi ko‘hna diyorga,
Ustoz yig‘lay-yig‘lay ayladi xitob:
— Mayli suvga oqsin, singsin devorga,
Nodonning qo‘liga tushmasin kitob.

Yengdi ma’rifatni manfur jaholat,
O‘zbekda qatag‘on davri boshlandi.

Qodiriy muxlisi qilindi g‘orat.
Cho‘lponni o‘qigan otib tashlandi.

Yillar o‘tib ketdi, ozodmiz shukur,
Lekin sen ogoh bo‘l, ma’rifatli jon.
Hali tirik yurar kalamush qurg‘ur,
Ko‘zlari yiltirab turibdi sichqon.

2015-yil 25-aprel

ZIYOLI

Hech kimga ziyoni tegmaydi aslo,
Boqsalar — ko‘zlari qiyolilarim.
Lekin maqtov kutar qushdan ham hatto,
Mening aziz qavmim — ziyolilarim.

To‘g‘ri, birozgina og‘ziga botir,
Biroz xayolparast, biroz havoyi.
Bir boqsang, o‘zini ataydi Bobur,
Bir boqsang, tasavvuf piri — Navoiy.

Ularning fe’lini o‘rganmoq darkor,
Bu gap bab-barobar hammasiga xos.
Xayoli bo‘lsa-da puch hamda bekor,
O‘zlari ishonar unga ro‘yirost.

Deydi, tongga qadar yozdim xumorni,
Shukur Burhon bilan o‘tirdik ancha.
Ming afsus, benazir, ulug‘ aktyorning
O‘tib ketganiga bo‘lgandir qancha.

Deydi, qarab turar bizlarga millat,
Kecha ko‘rib keldim, uyiga borib.
Mendan so‘rab oldi ko‘plab maslahat,
Xursand bo‘lib qoldi Abdulla Orif.

Ba'zida unvonlar hidini sezib,
U darrov o'zini ramkaga solar.
Goho dabdurustdan kallasi qizib,
Nobel mukofotin talashib qolar.

Farishta qavmini ko'rmadim hech vaqt,
Demak, Iblisni ham uchratmadim, bas.
Lekin biroz o'trik, biroz mahobat
Ziyoli xalqiga begona emas.

Asl ziyolidir millatning yuzi,
Hatto seziladi sirlilik ham sal.
Uning "Sog'ayasiz!" degan bir so'zi,
Yuzaki taskindan ming bora afzal.

2015-yil 1-may

NAMOYISH

Osmoni falakda chiqdi farmoyish:
"Somonchi yo'lida o'tsin namoyish!

Qatnashsin katta-yu kichik davlatlar,
Barcha qit'alardan barcha millatlar".

Chindan ko'rik bo'ldi g'oyatda katta,
Olam yig'ilgandi axir paradda.

Nayzasin ko'tarib Afrika o'tdi,
Tam-tam ovozlari samoni tutdi.

Ular kiyib olgan turfa libosin,
Biri filin mingan, biri qo'tosin.

Osiyo yetaklab bolalarini,
Aravaga ortgan bombalarini.

Biznikilar o‘tdi xushnud va g‘olib,
Paxta chanog‘ini qo‘liga olib.

O‘tdilar, deyishib akani opa,
Jinsni farqlay olmay qolgan Yevropa.

Turli o‘yinning ham borligi durust,
Raketasi bilan qo‘rqitdi o‘ris.

Hamma yoqni bosgan turli shtablar,
Rejissorlik qildi o‘zi — Shtatlar.

Tomosha oxirlab qoldi-ku qariyb,
Oh, hech kim o‘tmadi kitob ko‘tarib.

2015-yil 4-may

TOLSTOY

Siz ulug‘ siymosiz, tengi yo‘q daho,
Bizga ijodingiz hamroh doimo.
Lekin uydan qochish rejangiz qayda?
Menga o‘sha zarur, Tolstoy bobo!

2015-yil 7-may

BANDLIK

Nafaqachi deb bilmang meni,
G‘oyat bandman, juda ham bandman.
Poygalarni unutib, endi
Omoch tortgan otga monandman.

Bilib, sezib yuribman men ham
Atrofimda qancha do‘st va yov.
Balki qay bir qalamkash jo‘ram
Kutib turar mendan ham maqtov.

Har kun bir gap chiqadi, shukur,
Muammolar uchrar qadamda.
Charchamaydi g'animim tushkur,
Yiqitmoqchi bo'lar har damda.

Yumushim ko'p, och qolar axir
Men bo'lmasam hasadgo'ylarim.
Boz ustiga tinmas, besabr,
Qalbimdagi she'rim, o'ylarim.

Hali meni kutmoqda safar,
Buyuk do'stim — hayotga vido.
Ahvolimni tushun, birodar,
Juda bandman, ba haqqi xudo.

2015-yil 8-may

HAMJIHATLIK

Qadimda yashagan ekan bir xoqon,
Davlati qudratli, xalqi farovon.

Lekin bir kun qo'zib fotihlik dardi,
O'zga mamlakatga xufya yubordi.

O'sha tomonlarga darhol yel, dedi,
Qudrati nimada, bilib kel, dedi.

Kunlar o'tib oxir, xufya ham qaytdi,
Barcha bilganlarin birma-bir aytdi.

Dedi: — Kirmas bunga o'rmon, soyligi,
Boyligi ko'p ekan, ko'pdir boyligi.

Jim o'tirgan xoqon birdan tutaqdi,
Qahrli so'zlari daryoday oqdi.

Dedi: — Men chinorman, u esa cho'pdir,
Undan boyliklarim yuz bora ko'pdir.

Menga ma'qul emas ushbu xabaring,
Ko'rinma ko'zimga, sotqinsan baring.

Ikkinchi xufyani topdi-ku xoqon:
— Sirni sen bilib kel, yugur, chopag'on.

Xufya borib keldi, bamisli shamol,
Ko'rganin yetkazdi xoqonga darhol:

— Men borgan joylarda yaroq ko'p ekan,
Har yon qilich-qalqon, minglab to'p ekan.

Bu gapni eshitib qichqirdi xoqon,
Dedi: — Qurolimni ko'rmabdi jahon.

Qimirlagan jonga berganman yaroq,
Qilich taqib olgan hatto chaqaloq,

Quturgan tuyalar, sovutli fillar,
Ko'rsa tildan qolar ne mag'rur ellar.

Menga dushmanimni turibsan maqtab,
Xoqon bunisin ham yubordi haydab.

Endi yo'lga chiqdi xufya — uchinchi,
Aralashib ketdi yolg'onchi, chinchi.

U ham qaytib keldi bir muddat o'tgach,
So'zladi, xoqonning etagin o'pgach:

— Sizga fido bo'lsin xufya bu jonim,
Sirni bilib keldim, tinglang, xoqonim:

Ularda bir orzu, bir niyat ekan,
Hammasi jips ekan, hamjihat ekan.

O'rnidan qalqarkan boymi, kambag'al,
Vatan degan so'zni eshitgan mahal.

Xoqon so‘z demadi, og‘ir tin oldi,
Taxtiga yonboshlab, o‘ylanib qoldi.

Dedi: — Bunday yurtni olib bo‘lmaydi,
Olsang ham, izmingga solib bo‘lmaydi.

Safarning bu yo‘lin yopingiz menga,
Tarqoqroq davlatni topingiz menga.

2015-yil 10-may

QANOAT

Bolam, umid bilan yashagin, biroq
Hayot baland-pastin bo‘yninga olgin.
O‘zing kabilarga yaqin bo‘l ko‘proq,
Qol, desa mardlarning yonida qolgin.

Kattakon karvonga mansub bo‘lsa ham
Gadoning rutbasi gadodir doim.
Omad bilan imkon mangu biri kam,
Faqat teng yaratgan nafsni xudoyim.

Kiborlar ichiga adashib kirgan
Qalandar u joydan albatta bezgay.
Yo‘qsilning davrasin bir bora ko‘rgan
Boylar ham o‘zlarin ortiqcha sezgay.

Inson umid bilan yashaydi, ammo
Ruhini ezgaydir xorlik, kam-u ko‘st.
Alloh ayirmasin rizqidan aslo,
Yo‘qdir, qanoatdan ortiq biror do‘st.

Sira rostlanmaydi bukri bu olam,
Bizlar-chi, o‘tamiz takbirlar aytib.
Shundoq degan ekan jo‘mard bir odam:
“Fazolarga uchsam kelmasdim qaytib!”.

2015-yil 15-may

KOSMODROM

Kosmodromga tun cho‘kar asta,
Chor-tevarak odamga to‘liq.
Bir tomonga sotilgan chipta,
Marsga borish. Lekin qaytish yo‘q.

Yer yuzini bosgan sukunat,
Juda og‘ir, juda ham og‘ir.
Olis yulduz miltirar faqat,
Ko‘z yoshidek tomchilar yomg‘ir.

Radioning bosiq ovozi
Bu holatni buzar dam-badam:
Insoniyat sizlardan rozi,
Rozidirsiz axir sizlar ham.

Fazogirlar ro‘yxatin kimdir,
So‘nggi marta o‘qib, yo‘qlaydi.
Hayrat ichra olomon jimdir,
Faqat birov piq-piq yig‘laydi.

Odamzodning tarixida bu,
Ro‘y bermoqda bamisoli tush.
Ayrilishar tiriklay mangu,
Bo‘lib o‘tar so‘nggi xayr-u xo‘sh.

Bir hasadgo‘y qiyqirar shu on:
— Yovim ketdi, endi men hurman.
Bilib qo‘ygin, ey ko‘hna jahon,
O‘zim qoldim,
hammadan zo‘rman!

2015-yil 17-may

PAXSA UY

Bobolardan qolgan paxsa uy, mana,
Obdan oyoq bilan pishitilgan loy.
Qurilgan chog'ida bunday boshpana
Bor edi na qal'a, na biror saroy.

O'tib necha asr, balki milyon yil,
Olimlar qazishar yerni galma-gal.
Ularga topildiq oddiy paxsa — gil,
Ganchdan ham qadimiy, marmardan avval.

— Zarur bo'lsa qurgan koshonamga boq!
Bu — Hazrat Temurning mag'rur so'zlari.
Qo'shni devorda-chi turibdi shundoq
Paxsakash avlodning panja izlari.

Binolar bo'y cho'zar endi paydar-pay,
Axir biz guvohmiz boshqa ayyomga.
Biroq she'rlar yozib, ichgan bilan may
Teng kela olurmi birov Xayyomga.

Shundoq turfa erur aslida odam,
O'zini har ishda etgay namoyon.
Uning bir oyog'i oyda bo'lsa ham,
Biri paxsa loyni tepkilar hamon.

2015-yil 22-may

BOYQARO

Koshonaning ko'rkam bog'ida
Savlat to'kib, amirlar aro,
Chog'ir ho'plab gohi-gohida,
Osh yer edi sulton Boyqaro.

Birdaniga qisildi ko‘krak,
Birdaniga yo‘qoldi orom.
Bir luqma osh — ichida so‘ngak,
Tomog‘iga tiqildi tamom.

Ahli tabib shu zahot boqib,
Afsungarlar bo‘ldilar giryon.
Ko‘zidan yosh daryodek oqib,
Arang nafas olardi sulton.

Oy-u yillar o‘tdilar sekin,
Yurt ham bunga ko‘nikdi hatto.
Ba’zi dard bor, o‘ldirmas, lekin
Hamroh bo‘lar mahshargacha to.

Eshitgan do‘st albat qon yutgan,
Na g‘animlar bundan rizodir.
Bu — sultonning o‘zi qatl etgan
Nabirasi Mo‘min Mirzodir.

2015-yil 26-may

SO‘NGGI MAKON

Qayga borib qo‘nar uchayotgan sor,
Qaysi joyda to‘xtar yugurik ohu?
Javob berib bo‘lmas bu gapga zinhor,
Bu jihat yopiq,
deb aytilgan, yohu.

Uzoq yillar yashash har kimga armon,
Garchi dunyo o‘zi foniy, muvaqqat.
Filda ham bor emish eng so‘nggi makon,
Insonga buyursin Vatani faqat.

2015-yil 28-may

KAPALAK

Bir kun yashar ekan ba'zi kapalak,
Tabiatning bunday o'yiniga boq.
Maqsadi shunchaki yashashmas, demak
Nasl qoldirmoqdir, avlod qoldirmoq.

Juda rahmim kelar sho'rlik bu jonga,
Ko'rdi tiriklikni atigi bir kun.
Boqib ulgurmagan balki osmonga,
Balki yo'qmiz biz ham kapalak uchun.

Yetmas barchasiga odamning aqli,
Butun olam o'zi topishmoq go'yo.
Uzoq yashaydigan ikki oyoqli
G'alati zotlardan iborat dunyo.

Ularning ishlari egrilik aksar,
To'g'rilik ustidan bo'lay der g'olib.
Kapalak ikki kun yashaganda gar,
Gerbariy qilardi albomga solib.

Ushbu she'rim uchun ma'zur tut, jo'ra,
Dema, kapalakdan shunchami malol?
Mudom hadik bilan yashashdan ko'ra,
Ertaroq ketish ham afzal, ehtimol.

2015-yil 29-may

TUSH

Olisdasan zamindan — yerdan,
Yetolmaydi birorta chaqin.
Yaqin bo'lib qolasan birdan,
Millimetr. Undan ham yaqin.

Olam buncha muattardir, oh,
Bo‘ylaringdan bo‘laman sarxush.
Ko‘z ochaman uyqudan nogoh,
Ko‘tarilar oramizdan tush.

2015-yil 29-may

YURAK

Yurak mulki ichra yastanib yotar
Gobi sahrosi-yu Pomir tog‘lari.
Dengizlar, daryolar qator va qator,
Semiramidaning osma bog‘lari.

Unga qo‘li yetmay yurganlar qancha,
Termila-termila tolgan ne ko‘zlar.
Lekin kaslar ham bor, unga boqqancha
Bor-yo‘g‘i sichqonning inini izlar.

2015-yil 30-may

UCHAR LIKOPCHA

Koinotdan kelgan uchar likopcha
Ko‘kka yer haqida berardi xabar.
Qayda sahro yotar, qayda bog‘-bog‘cha,
Bormi sayyorada hayotdan asar?

Gobi sahrosiga qo‘ndi u bir kun,
Cheksiz-chegarasiz, qup-quruq har yoq.
Ko‘kka xabar qildi samoviy to‘lqin:
— Bu joyda hayot yo‘q, bordir qum, tuproq!

Likopcha osmonda kezib sargardon
Ummon o‘rtasiga keldi nihoyat.
Falakka ma’lumot jo‘natdi shu on:
— Yer degan manzilgoh suvdan iborat!

Tun-u kun yer uzra aylanib yurib,
Daf'atan Dehliga tushdi bechora.
Sim qoqdi yuz minglab odamni ko'rib:
— Ulkan bozor ekan ushbu sayyora!

Oxiri likopcha toliqib, behol,
Mingchinor bag'rida tindi bir fursat.
Quvonchin yetkazdi fazoga darhol:
— Jannat shu yerdadir, shu yerda jannat!

Omadsiz kimsaman dunyoda, evoh,
Men ham likopchamni uchirdim ko'p bor.
U tushdi abadiy muzliklarga goh,
Goh vulqon o'tiga bo'ldi-ku duchor.

Bilaman, zaminda — yerdadir jannat,
Boqqanda do'zahiy o'ylardan qaytgin.
Chulg'ar xayolimni bir orzu faqat,
Mening Mingchinorim, qaydasan, aytgin?!

2015-yil 6-iyun

BOZOR

Ko'nikasan, ochlikka, bolam,
Senga hech kim beri kel demas.
Yopiq senga pullik yerlar ham,
Qondoshlaring g'amingni yemas.

Yer yuzida shundoq bir davr,
Shundoq udum bo'ldi hukmron:
Ilmda yo'q zarracha qadr,
Daholar ham kezar sargardon.

Bu tizimning nomidir — bozor,
Bas kelolsang seniki marra.

Axtarmagin insofni bekor,
Aldanasan kunda yuz karra.

Qayga borma, baribir, shu hol,
Bozor yetgan har qanday joyga.
Boylar boyni taniydi darhol,
Suv, albatta, oqadi soyga.

Sen turmushdan ibrat ol, bolam,
Bo'rini ham boqqan oyog'i.
Chumolining jag'i mustahkam,
Cho'ponning ham bordir tayog'i.

2015-yil 8-iyun

IBODAT

Darvozang tagida poylaydi ajal,
Achchiq dard bosadi ko'kraklaringni.
Kimlardir, ko'zingni yumishdan avval,
Tozalab qo'yadi cho'ntaklaringni.

Derlar, o'limning ham qoidasi bor,
Ikki gaz yer uchun janjal, mojaro.
Aqchani kim to'lar? Qaysi azador?
Endi go'rkov bilan boshlanar savdo.

Hali tugamaydi bu achchiq qismat,
Kimdir nom talashib aqldan ozar.
Eng mudhish tomoni, o'tmay sal fursat
Seni mahv etganlar xotira yozar.

Dunyoda ne'mat yo'q hayotdan aziz,
Sen unga bag'ishla o'lmas satringni.
Tirik paytingdaki ochirmadi ko'z,
Kimdan ham so'rarding keyin qadringni?

Yaxshisi o‘lmasdan yashamoqlik shart,
Emaklab bo‘lsa ham, yotib bo‘lsa ham.
Uzun kechalari qilgum ibodat,
Og‘irim tushmasin birovga, Egam.

2015-yil 1-iyun

ABADIY SADO

Mening bir odamim, ya’ni soyam bor,
Yuradi ergashib, mudom izma-iz.
Ko‘rinishi oddiy, hatto xokisor,
Lekin gapirmaydi, aytmas biror so‘z.

Qachon biror joyga borsam mabodo,
Buni daftarida qayd qilib qo‘yar.
To‘y-u hashamda ham ergashar hatto,
Pastda qolib ketsa, qovog‘in uyar.

Mening bir odamim, ya’ni soyam bor,
Uning kimligini aslo bilmasman.
Balki bekorchidir, balki havaskor,
Lekin kuzatadi, shubha qilmasman.

Bir kitob o‘qidim — ajib va ajab,
Nomi ham qadimiy:
“Zindon va Soqchi”.
Qaysidir zamonda barchani aldab,
Qochib ketgan ekan bitta ayg‘oqchi.

Kallamga chaqmoqdek o‘y keldi, hayhot,
O‘zimning dilimni yoritdi g‘oyam.
O‘rta asrlardan qochib kelgan zot
Nahot o‘sha odam? Nahotki soyam?!

2015-yil 16-iyun

KO‘PCHILIK

Qancha Sharq shoiri yig‘lab yozdi she’r,
Turfa ma’no berar har bitta so‘zi.
Furqat, karvonimdan adashganman, der
Aslida, adashgan karvonning o‘zi.

Buyuk Brunoni yoqdilar o‘tda,
Quyoshni markazdir degani uchun.
Millonlab nasoron boqdi sukutda,
Inson rad etgandi ilmning kuchin.

O‘ris Saxarovni o‘rtaga olib,
Xo‘rladi, ulug‘ zot ko‘tarmadi bosh.
Vo ajab, hammani hayratga solib,
O‘zbek ayoli ham otib qoldi tosh.

Mening ko‘pchiligim,
sendan aylanay,
Seni jahongirlar sudrashgan uzoq.
Orangda yashagan daholar talay,
To hanuz yo‘lingga qo‘yarlar tuzoq.

Kim kimni ayblardi tarix qa’rida,
Deymiz-ki, mukammal emasdir olam.
Bordir odamzodning lug‘atlarida,
La’nati bir qavm degan so‘zlar ham.

Alloh tepamizda turibdi qarab,
Aslo poymol bo‘lmas haqning huquqi.
Shoir, qadam bosgin tegrangga qarab,
Goho bir odamga she’ringni o‘qi!

2015-yil 18-iyun

GULXANIY

Gulxaniy o'lib ketib juda yomon ish bo'ldi,
"Zarbulmasal" ahli-ku yetim qoldi butunlay.
So'z san'ati ajnabiy jonzotlar bilan to'ldi,
Gulxaniyni mensimay qo'yganlar ham birtalay.

Qaysidir mahallada anjuman bo'ldi katta,
Mavzusi g'oyat jiddiy: "Gapirarmi hayvonlar".
Bir to'p olim da'vosin ma'qulladi, albatta,
Aynan "Zarbulmasal"dan keltirishib bayonlar.

Bir guruhi gapida turdi lekin ustuvor,
Chinakam fanning kuchi ko'tardi yana yalov!
Ular dedi, masalan, gapirmas biror tulpor,
Mushukning ma'ruzasin eshitgan emas birov.

Saviyamiz shunaqa, uzr, Gulxaniy bobo,
Unchalik yoqtirmaymiz qiyoslashni, isbotni.
Ahli ilm sanaydi o'zlarin yetuk, tanho,
Masal, deb kamsitadi sizning adabiyotni.

Men ham vijdon qoshida yolg'onchi bo'lib qolmay,
Ona tilimiz hanuz siz bilgandek tengsiz, boy.
To'tiqushni tanishar, chunki u har qayda bor,
Ot deganda qazini tushunadi, hoynahoy.

2015-yil 19-iyun

SHE'RIYAT

Shunday shart qo'ydilar menga bir zamon:
Omonlik istasang she'r yozma faqat.
Ajabo, o'zlari taslim qilib jon,
(O'sha ichi qora, o'sha g'o'r, nodon,)
Bugun yer qa'riga singmish beshafqat.

Goh o'ylab qolaman, kimmiz o'zi biz,
Sohibi davronmi, falakning quli?

O‘zga zabonlarga cho‘kmasdan ham tiz,
Barpo bo‘lgandi-ku o‘zbeklar tili.

Alisher ellik yil do‘konni ochib,
Qulfi kalit qilib ketganmikin yo.
Saroyda she’riyat durlarin sochib,
Ado qilganmikan yoki Boyqaro.

El-yurtning qalbida pinhon oh-u zor
She’r bo‘lib o‘zidan bergaydir xabar.
Ana, Mashrab uchun qurilgan u dor
Buzilmay turibdi shu kunga qadar.

Kimgadir yoqmasa shoir ijodi,
Dushman bosdi deya, hamon bong chalar.
Yer yuzin zabt etgan zotning avlodi,
Nahot, she’riyatdan qo‘rqsa bunchalar.

Yo‘q buning sababi boshqadir mutlaq,
Davr o‘tib, mukammal bo‘lmadi odam.
Yovuzlik tinmadi, yer yuziga boq,
Chorasiz xoqon-u sultonlari ham.

Shu sabab yovlaring xush ko‘rmas, shoir,
Shu bois yozma deb qo‘yishgaylar shart.
Kuylagin sen faqat qalbingga doir,
Hech qachon tushirma vijdoningga gard.

2015-yil 25-iyun

SOG‘UNIY

Turkiy dunyomizda tengsiz alloma,
Adolat yo‘lida kurashchi, botir.
Garchi qo‘lda qalam, boshda amoma,
Sizni qurshab o‘tdi faqat xavotir.

Sho‘rlik xalq qay zamon bo‘larkan ozod,
Bo‘larmi uning ham tug‘i, davlati.
Bosqinchi zotlarni titratdi bot-bot,
Sog‘uniy domlaning o‘tli da’vati.

Bu siymo nelarga kelmadi to‘qnash,
Izma-iz yurardi ajal muqarrar.
Tabobat ilmida Sinoga o‘xshash,
Tafakkur bobida Beruniy qadar.

Yarador bo‘ldi-yu yiqilmadi u,
Pinhon na’ra tordi bamisli arslon.
Payg‘ambar kalomi dilida mangu,
Faqat orzusidir ozod Turkiston.

Zulmki, ustuvor bo‘ldimi agar,
Endi hamrohingdir o‘kinch va hasrat.
Avlodlar kechmishin to ro‘zi Mahshar
Kuzatib turgaydir Sog‘uniy hazrat.

2015-yil 29-iyun

IMON

Keksalik boshlanib, tanni bemorlik
Zabtiga oldi-yu xor-u zor qildi.
Bir zamon yurardim davlatlik, norlik,
Ko‘zimga dunyoni endi tor qildi.

Shogirdlar o‘stirdim joylab jonimga,
Mahramdek sanadim xonadonimga.
Oqibat o‘shalar hatto yonimga
Kelib o‘tirishdan go‘yo or qildi.

Hech kim “Bas” demaydi boylikka to‘yib,
Yo‘qsil ham chidaydi, yonmaydi kuyib.
Bir juft she’r aytishni bo‘ynimga qo‘yib,
Olamda yo‘q edim, O‘zi bor qildi.

Hayot go‘zalligini kuyladim, bay-bay,
Tulporim falakni quchmoqqa ham shay.
Lekin qancha sevib, qancha yolvormay,
Bir sanam yo‘liga intizor qildi.

Afsus, dunyo meni aldadi boplab,
Oldimga tashladi yolg‘onni qoplab.
Ekkan daraxtlarim ko‘rsam hisoblab,
Yarmin beshik qildi, yarmin dor qildi.

Noshukur emasman umrimdan zinhor,
Birovdan qolishmas qadim xalqim bor.
Kimnidir ko‘rishdan qilsam iftixor,
Kim meni ko‘rishdan iftixor qildi.

Nafs degan hammani urdi yo‘lidan,
Aylan avliyoning o‘ng-u so‘lidan.
Aqchasiz hech narsa kelmas qo‘lidan,
Masjidni buzdi-yu cho‘ng bozor qildi.

Men ham jilovladim goho fikratni,
Asl deb o‘yladim soxta suratni.
Mehr-u muhabbatni, ilm-u hikmatni
Faqat siyratimda barqaror qildim.

Yovuzlik har yonni etsa ham xarob,
Bir kuni qaydadir bergaydir javob.
Ezgulik sedana donidek noyob,
Bo‘y sochib, o‘zidan umidvor qildi.

Yer yuzi bo‘lgaydir shaksiz farovon,
Insonga qaytgaydir diyonat, vijdon.
Shoir kelajakka keltirib imon,
Shu she’rni yozmoqqa ixtiyor qildi.

2015-yil 30-iyun

HAYOT

Hayot, seni ulug‘lay nechun,
Ko‘zim ochiq, emasman garang.
Senda shafqat yo‘qdir men uchun,
Ijarangda yashayman arang.

Hayot, seni ulug‘lay nechun,
Qalbga nimang ilhom solgaydir.
Uydan chiqsam, izimdan har kun,
To‘rtta ishsiz qarab qolgaydir.

Hayot, seni ulug‘lay nechun,
Yerga urding ochiq, oshkora.
Endi loshim nimtalab butun
Tashlamasang itlarga zora.

2015-yil 3-iyul

IMKON

Bu gaplar bor edi Marksdan avval,
Ya’ni qorni och-u va qorni to‘qlar.
Mayli, yumshatayin tashbihni sal-pal,
Imkon-u borlar-u imkoni yo‘qlar.

Iskandar Maqduniy imkoni sabab,
Borib yetgan edi Badaxshonga to.
Oddiy odamni-chi, kaltaklab, haydab,
Uydan chiqarish ham mushkul, muammo.

Imkoni bor ekan, Temurdayin zot,
Jahonning yarmini oldi ro‘yi rost.
Imkoni yo‘qni-ku, siylamas hayot,
O‘sha eski hammom, o‘sha eski tos.

Balxning sahrosida hazrat Beruniy,
O‘tin yig‘ar edi yilda ikki bor.

Majbur qilar edi imkoni shuni,
Qolgan barcha vaqti ilmga nisor.

Imkoning kelibdi, omad yo‘liqib,
Qoshingda Hotam ham ko‘krak kerolmas.
Kimdir hayitda ham bozorga chiqib,
O‘g‘liga xo‘rozqant olib berolmas.

Imkon deganlari ulug‘ kuch g‘oyat,
Eplagan insonga uchrar u ko‘proq.
Unda tilsim mavjud, bordir sinoat,
Arslonning mo‘yiga tegishma biroq.

Xudoyim meni ham qo‘llab bir zamon,
Benasib qilmadi ilm-u ziyodan.
Imkon-chi bermadi, yo‘q boshqa najot,
O‘tdim qo‘l oyog‘im bog‘liq dunyodan.

2015-yil 4-iyul

KO‘PRIK

Chegarada,
Ko‘prik ustida,
Turar edi mag‘rur bir inson.
Gap uqtirar balki do‘stiga,
Nabirasi esa yonma-yon.

U bir zamon ajdodlar topgan
Xudolarga o‘xshab ketardi.
Egniga sher terisin yopgan
Pahlavondek o‘zin tutardi.

Ko‘zlarida yonardi nafrat,
Ovozida qahr, qaldiroq.
G‘azab bilan so‘zlardi faqat,
Yosh oqardi ko‘zidan biroq.

— Ellar aro qo‘ymish chegara,
Iblislarga qolmish bu olam.
Shu ko‘prikning ortiga qara,
Katta dunyo bor edi, bolam.

Ular bizni kamsitdi har vaqt,
Ular uchun yo‘q edi xudo.
Sayohatning o‘zi-ku bir baxt,
O‘shandan ham qildilar judo.

Davring keldi endi bolajon,
G‘oliblarning safiga kirgil.
Seniki ham axir bu jahon,
Ikki zotning biridek yurgil.

Nabira der, o‘zgardi dunyo,
Ko‘ring, olam bo‘yoqlarini.
Bobo tirik turardi, ammo
Sindirishgan oyoqlarini.

2015-yil 5-iyul

O‘KINCH

Bir vaqtlar tug‘ilgan joyim bor edi,
Uchsam qo‘nadigan ishonchli oshyon.
Men uchun hamisha iftixor edi,
Bugun begonadir menga u makon.

Mehr ila muhabbat, hurmat, oqibat,
Bilmadim, qaygadir bo‘lmishlar g‘oyib.
Tepalik bag‘rida ko‘rinar faqat,
Otam va onamning qabri mung‘ayib.

2015-yil 11-iyul

TUG‘MA NODON

Ba’zi suhbatdoshning o‘y-fikri g‘alat,
Yashirib o‘tirmay, ochiq-oydin der:
— Bosh vazir ekanlar Navoiy hazrat,
Nega shunday odam yozib yurgan she’r?

Savollar chulg‘aydi uni galma-gal,
Miyasi to‘ladi mubham tutunga:
— Bobur vazir emas, shoh ekan tugal,
Nima kerak bo‘lgan she’r yozish unga?

Bunday suhbatdoshdan asrasin xudo,
U tug‘ma nodondir, aslini bilsam.
Gar Vatan haqida so‘z ketsa hatto,
Qancha beradi der, himoya qilsam.

2015-yil 19-iyul

IMTIHON

Sen Vatan haqida berma ko‘p savol,
Lof urma Vatanning muhabbati deb.
Uni mansab kabi aylama xayol,
Yoxud ma’ruzangga emasdir u zeb.
Vatan tanangdagi jondir, qondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Bu ulug‘ sevgida ilohiylik bor,
Vatanni chin farzand faromush etmas.
Menga o‘z tuyg‘umni o‘rgatma zinhor,
Inchunin, kibrning bozori o‘tmas.
Rost gapni yolg‘ondan farqlar ondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Asl qahramon kim yorug‘ dunyoda?
G‘oyasin tamaga almashmagan zot.
Chug‘urchiq ko‘paysa haddan ziyoda,
Burgut bo‘lib yashash oliy mukofot.
Qul ham yurtin sevsa shohdir, xondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Garchi ko‘hna zamin umum makondir,
Insonning har joyda yonsin chirog‘i.
Mo‘jaz bo‘lsa hamki, kulbang oshyondir,
Ona dargohidek uning quchog‘i.
Sen uchun poyonsiz kahkashondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Azal musofirdir dunyoda odam,
Ruhim garchi sobit, muallaq tanim.
Bir umr qo‘yningda muqim tursam ham,
Sog‘inib yashadim seni, Vatanim.
Mehr bir, nafrat ham bir tomondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Mayli suymasinlar meni g‘animlar,
Yo‘limni to‘ssinlar raqiblar hatto.
Vatan har qayda ham mayoqdek imlar,
G‘ururim yuksalar samogacha to.
Hech kimga berguvsiz dovruq, shondir bu,
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

2015-yil 24-iyul, Xyuston

ATLANTIKA

Qush ham o‘tolmaydi Atlantikadan,
Axir ucholmaydi muttasil bir oy.
Xabar tarqasa-chi, manov chekkadan,
Daqiqa yetarli bunga, hoynahoy.

Men orzu qilardim, butkul jahonda
Tumandek tarqasa ko'ngil g'ashlari.
Sado berib tursa har ikki yonda
Billur qadahlarning jaranglashlari.

Men orzu qilardim, inson nafasin
Har qayda his qilsang yuzga tekkudak.
Bu yonda aytilgan ona allasin
U yonda eshitib tin olsa go'dak.

Men orzu qilardim, bepoyon ummon
Ko'prikdek yelkasin tutib tursa jim.
Olis Samarqandda yangragach azon
Sajdaga bosh qo'ysa dallaslik muslim.

Orzuni olmadim aslo osmondan,
Bugun xayol emas qutlug' safarlar.
Qushlar uchib o'tsin mayli ummondan,
Faqat tarqamasin noxush xabarlar.

2015-yil 25-iyul, Xyuston.

OSMONDAGI ZILZILA

Uchardik olis yurtga,
Bulutlar ko'p, yaltiroq.
Daf'atan samolyotni
Tutib qoldi qaltiroq.

Bezgakka o'xshab ketar,
Yoxud zilzila kabi.
Biz derdik: — Subhonalloh,
Yo Yaratgan, yo Nabi.

Bir kampir uchuvchini
Qarg'ab, go'yo tig'lardi.
Kalima qaytarolmay,
Men ham shu, — deb yig'lardi.

Tinimsiz derdi bir chol:
— Gunohlarga botganman.
Haj qilgani borganda,
Ul-bul narsa sotganman.

Uchardik olis yurtga,
Bulutlar ko‘p, yaltiroq.
To hanuz samolyotni
Qo‘yvormasdi qaltiroq.

Bir olim g‘o‘ldirardi:
— Xudo, holimga boqqin.
Hay attang, ko‘p yedim men
Talabalarning haqqin.

Qandaydir tanqidchi ham
Bor edi bu salonda.
O‘lim-ku barhaq, lekin
Vahimasi yomon-da.

U derdi: — Kun ko‘ray deb,
Qorani ham oqladim.
O‘zimga hech yoqmagan
Kitoblarni yoqladim.

Faqat bitta bolakay,
Qorako‘z, ozg‘in, nimjon.
Onasiga biqinib,
— Qo‘rqmang, —
derdi, ayajon.

Talvasa o‘tib ketdi,
Tinchlandi samolyot ham.
Xudoga ming shukur deb,
O‘tirar kampir xurram.

Bozorchi hoji hamon
Qovrilardi hislarda.
Derdi: — Tijorat mumkin,
Aytilgan hadislarda.

Olimning-chi tinchi yo‘q,
Alanglab turar ko‘zi.
Derdi: — Netay, talaba
Keltirib berar o‘zi.

Tanqidchi ochiq-oydin
Talmovsirar, tushmay past:
— Maqta, deb qo‘yishmaydi,
Adiblar shuhratparast.

Samolyot uchib borar,
Bosilgandi hayajon.
Faqat qorako‘z bola
— Qo‘rqmang, — derdi, ayajon.

2015-yil 26-iyul, Xyuston

UMMON QOSHIDA...

Yigitlik yoshida bo‘lsaydim agar,
Sen kabi solardim balki g‘alayon.
U kunlar yashadim tutqundan battar,
Yurtdan chiqarmasdi bizlarni zamon.

Endi men uchun ham ochiqdir dunyo,
To hanuz qalbimda bordek jur’atim.
Ey ummon, qoshingda turibman, ammo
G‘alayon solishga yetmas qudratim.

2015-yil 31-iyul, Xyuston

UZR

Hangoma ko'p uchrar hayotga doir,
Keksa bir qalamkash odam bor edi.
Sizga ko'p yomonlik qilganman, shoir,
Kechiring, uzrimni so'rayman, dedi.

Balki rahmat deysan shunisiga ham,
Gunohin bo'yniga olmish-ku inson.
Sen gugurt chaqqanda yonsa-yu olam,
Uzringdan ne foyda, ey so'qir, nodon.

Attangki, qaydadir noshud shifokor
Kimningdir dilbandin ayladi nobud.
Unga uzrlarning ne keragi bor,
Qo'lma-qo'l ketmoqda kichkintoy tobut.

Siz mening umrimni qildingiz ado,
Turfa puchmoqlardan bo'lgan hujumlar.
U temir panjalar yurakni borho
Anorni siqqandek, ezib g'ijimlar.

Kun-bakun taraqqiy etmoqda dunyo,
Nogoh odamkushni topmoq ham qiyin.
Hozirgi madaniy jallodlar hatto
Avval uzr so'rab, so'yishar keyin.

2015-yil 31-iyul, Xyuston

NASA

Men hayron qolaman,
Odamzod goho
Ko'rgan mo'jizasin birdan unutgay.
Iskandar, Magellan dovrug'i hatto,
NASA[1] ignasining ko'zidan o'tgay.

[1] *Izoh:* NASA — Xyustonda joylashgan AQSH fazogirlar tayyorlash va nazorat qilish markazi.

Qandoq bunyod bo'lgan hazrati Odam,
Hech kimsa ko'rmagan ilohiy damni.
Lekin mashq qilganlar ming yil muqaddam,
Oyda Armstrong qo'ygan qadamni.
Konrad[1] korjomasi osig'lik turar,
Marhum fazogirlar ko'rgazmasida.
Shohlarning libosi yaxlit siym-u zar,
Baribir, ilingay uning pastida.
Tog'ning etagida o'tirgan sayyoh,
Uning mahobatin ko'rmas hech qachon.
Asrlar qa'ridan tashlasang nigoh,
Inson qurib olmish yangi bir jahon.
Nizolar yo'qolur bir kun, albatta,
Odamzod o'zligin topar qaytadan.
Shonli o'tmishini eslab u paytda,
Kelgay ma'rakaga har bitta Vatan.
Bashar bolalari faxrga to'lib,
Tafakkur to'yida ko'targaylar jom.
Ishongum, o'sha kun birinchi bo'lib,
Yodga olinajak Ulug'bek bobom.

2015-yil 7-avgust, Xyuston

TELEFON SUHBATLARI

Har zamonning tashviqoti bor,
Har davronning targ'iboti bor.

Yer yuzida turli qit'alar,
To'rt tarafga mushtin o'qtalar.

Ko'rishmasdan bir-biri bilan,
Yashaydilar o'z siri bilan.

[1] **Konrad, Armstrong** — Oyga qadam qo'ygan dastlabki fazogirlar.

Siyosat ham telefon ammo,
Vajohat ham telefon ammo.

Buni qarang, o‘tib zamonlar,
Yerga tushdi ko‘kdan davronlar.

Qolishmasdan prezidentlardan,
Oshib ummon, oshib kentlardan.

Gaplashadi oddiy odamlar,
Otamlashar xohlagan damlar.

Nyu-Yorkka uchgandi kuyov,
Kelinposhsho sim qoqdi darrov:

— Bordingizmi? Nechuk holingiz?
Buyumlarga qarab olingiz.

Narsalarning bari yetibdi,
Ko‘k galstuk qolib ketibdi.

Kuyov deydi: — Keldim, juda soz,
Ummon uzra ayladik parvoz.

Meni o‘ylab, bo‘lmangiz diqqat,
Yetishmaysiz o‘zingiz faqat.

Davom etar suhbatlar shundoq,
Shamol tinar, u tinmas biroq.

Diplomatlar, bir gapni tuying,
Odamlarni holiga qo‘ying.

Bo‘lsin mayli turfa fuqaro,
Til topishar ular o‘zaro.

2015-yil 10-avgust, Xyuston

BEGONA ODAM

(Esdaliklardan)

Sahro qo‘ynidagi tap-taqir qirlar,
Sokin, osoyishta, mo‘jaz bir qishloq.
Tarqalib qolardi shivir-shivirlar,
Musofir yo‘lovchi kelganda biroq.
Derdi, bir-biriga odamlar mubham:
— Qishloqda yuribdi begona odam.

U qaydan kelmishdir? Balki, ehtimol
Uyidan bosh olib ketgan qalandar.
O‘g‘ridir, kazzobdir, molingga zavol,
Yo jonni olguvchi ajaldan battar.
Ishqilib, bo‘lmasin yovuz, shum qadam:
— Qishloqda yuribdi begona odam.

Bir vaqtlar kelardi ayg‘oqchi mehmon,
Hammaning bisotin ro‘yxat qilardi.
Qanchalab sho‘rlikni aylab qatag‘on,
Qayga jo‘natishni o‘zi bilardi.
Yosh-qari boqardi atrofga purg‘am:
— Qishloqda yuribdi begona odam.

El-u yurt qolgandi qo‘rqib, bezillab,
Yo‘lda ko‘tarilgan changdan hadik bor.
Yashardi yuragi mudom sizillab,
O‘lib o‘lmagandi, tiriklayin xor.
Ochma eshigingni, Xizr kelsa ham:
— Qishloqda yuribdi begona odam.

Sen mendan xavotir olma, qishlog‘im,
Men ham o‘zing kabi ozurda jonman.
Tikandan tilinib ketgan har yog‘im,
Tug‘ilgan go‘shamsan, senga mehmonman.
Demagin shu lahza, demagin shu dam:
— Qishloqda yuribdi begona odam.

2015-yil 12-avgust, Texas

HAYOT KECHINMALARI

Umrim qiyomiga yetgan chog'ida,
Qo'g'irchoq o'yinin ko'rsatma menga.
Shuhrating balqsa ham Olimp tog'ida,
O'zingni hurmat qil, o'rgatma menga.

Turfa vaziyatda yashaydi inson,
Kimdir vatanda ham yurgaydir sarson.
Niyating sof bo'lsa, pok bo'lsa vijdon,
O'zingni hurmat qil, o'rgatma menga.

Necha savdolarni ko'rdi bu boshim,
Goho zaharlarga qotildi oshim.
Oqdi xalqim desam ko'zimdan yoshim,
O'zingni hurmat qil, o'rgatma menga.

Zamin bir va lekin odamlar har xil,
Men ozor berishni istamayman, bil.
Shundoq shikva bilan yaralmish ko'ngil,
O'zingni hurmat qil, o'rgatma menga.

Bir sabab bo'ldi-yu dilimni ochdim,
Dunyoga o'zimcha mehrlar sochdim.
Taloto'p joylardan ming farsah qochdim,
O'zingni hurmat qil, o'rgatma menga.

Qalbimni yupatar aziz bir tuyg'u,
Shoshilma, oldinda uyqu bor mangu.
Hayotning mardona kechinmasi bu,
O'zingni hurmat qil, o'rgatma menga.

Yuzlarga kirgayman men hali, valloh,
Undan naryog'in ham bilgaydir Alloh.
Eslasa eslaydi xalqim, insholloh,
O'zingni hurmat qil, o'rgatma menga.

2015-yil 12-avgust, Texas

SEHRLI DIYOR

Osmondan qarama, yerdan qarama,
Odamdek nazar sol sen bu diyorga.
Uning korlariga mayli yarama,
Tosh ham otib yurma lekin bekorga.

Uni kim kashf etgan? Tortishmasdan tur,
Har holda, padari Hazrati Odam.
Arshi a'lodagi yalt etgan bir nur
Yetib ortmasmikan barchamizga ham.

Odamzod shundoqdir: shovqindan qo'rqsa,
Ilondan so'rarkan: — Nega sen jimsan?
Nega filsan, derkan gar filni ko'rsa,
Chumoliga qarab aytarkan: — Kimsan?

Bir-birin yetaklab kelgay karvonlar,
Safari tinch o'tsa, shuning o'zi bas.
Komil bo'la olsa agar insonlar,
Nizolar bartaraf, ig'volar abas.

Aslo o'rgatmasman birovga aql,
Mutlaq menikidir qo'ldagi sozim.
Hozir Sizga atab aytilgan naql,
Mening zaldan turib bergan ovozim.

2015-yil 14-avgust, Xyuston

YANGI ASR MO'JIZALARI

Qizim Mavludaga

Falak gardishdirmi, gardish emasmi,
Meni bu savdolar qiziqtirmas ko'p.
Insoniy saodat yetarmi, basmi,
Demakkim, tolening etagidan o'p.

Bu shundoq asrdir, qoqquncha kiprik
Ovozing yangragay sayyoralarda.
Yuz yil reja tuzib, solguncha ko‘prik,
Yulduzga yetgaysan tayyoralarda.

Bir qultum suvingni yutib, yutmasdan,
Nafasing borgaydir Toshkentga qadar.
Samolyot qo‘nishin kutib, kutmasdan,
Oshni suzgaymiz, deb bergaylar xabar.

Xotiring jam bo‘lsin, endi odamzod
Qayta kirib olmas eski g‘origa.
Agarda Allohim aylasa imdod,
Bergay osmonlarni ixtiyoriga.

Basharning mulkidir zamin, hoynahoy,
Kimgadir atalgan tomorqa emas.
Xonangga sig‘maydi quyosh bilan oy,
Xarobot uzra ham porlayverar, bas.

O‘tgan davrlarning asoratlari
Ko‘zikkan yaraday bitib ketgaydir.
Insholloh, eng oliy murodlar sari
O‘zbek ayoli ham borib yetgaydir.

Men faxr qilurman, haq aylab nazar,
Senga ham yuz burib turibdi olam.
Ulug‘ ajdodlarni eslasang ham gar,
Baxtliman, deyishga haqqing bor, bolam.

Jajji farzandlaring o‘zi bir davlat,
Halol jufting bilan davroningni sur.
Deyman, ona qizim, qalbingda faqat
Hech qachon so‘nmasin Vatan degan nur.

2015-yil 15-avgust, Xyuston

INSON UCHUN JANG

Tulpor eding, hammadan o‘zgan,
Taladilar qashqirlar yomon.
Nahang eding, ummonda suzgan,
Nayza sanchdi yovlar beomon.

Botir eding, shonlarga to‘liq,
Choh qazdilar oyoq ostingda.
Sen donishmand zot eding, ulug‘,
Nodon yurdi mudom qasdingda.

Bo‘lib o‘tdi Inson uchun jang,
Asoratin bilolmassizlar.
Hali yillar o‘tadi, attang,
O‘zingizga kelolmassizlar.

2015-yil 16-avgust, Xyuston

OTA-O‘G‘IL TORTISHUVI

Ota-o‘g‘il tortishardi Mahshar kuni,
Qog‘ozga ham yozib bo‘lmas hatto buni.

Ota derdi: — Go‘daklikdan seni boqdim,
Bayramlarda o‘yinchoqlar etdim taqdim.

Yegan barcha ovqatlaring hisobi bor,
Ro‘yxat qilib qo‘yganman men, sen — qarzdor!

O‘g‘il derdi: — Men ularni uzgum albat,
Mahshar kuni bersa bo‘ldi imkoniyat.

Biroq, Sizning gunohingiz g‘oyat katta,
Kallangizni uzishsa ham oz, albatta.

Qilmishingiz ko‘rib, bilib o‘ltirgansiz,
Meni yolg‘on shu dunyoga keltirgansiz.

2015-yil 17-avgust, Xyuston

YOLG‘ONCHI HAQIDA BALLADA

Balki ko‘rdim men uzoq umr,
Ko‘p narsadan charchadim, netay.
Boshim egib, so‘rayman uzr,
Yolg‘on aytma, sadag‘ang ketay.

Yashirayin kemtiklaringni,
Artib qo‘yay etiklaringni.
Yo‘qot o‘sha o‘triklaringni,
Yolg‘on aytma, sadag‘ang ketay.

Shu chiqdimi kamtarin jondan,
Shaytonlikda o‘tding shaytondan.
Xudodan qo‘rq, qo‘rqqin imondan,
Yolg‘on aytma, sadag‘ang ketay.

Deysan, o‘ynab, kulgan men — o‘zim,
Rosa kuchga to‘lgan men — o‘zim.
Kim bo‘lsam ham bo‘lgan men — o‘zim,
Yolg‘on aytma, sadag‘ang ketay.

Eslaysanmi, yoshlik pallangni,
Aytolmasding hatto yallangni.
Ishlatdilar qovoq kallangni,
Yolg‘on aytma, sadag‘ang ketay.

Odamzodga loyiq ishni qil,
Bordir sendan boshqalar ham, bil.
Nelar demas suyaksiz bu til,
Yolg‘on aytma, sadag‘ang ketay.

Ikki dunyo bo‘lmassan obod,
Sen sog‘larning belidagi bod.
Keltirgaysan har joyda isnod,
Yolg‘on aytma, sadag‘ang ketay.

2015-yil 18-avgust, Xyuston

ABADIY JARAYON

Ajabo, ummonning bag‘ridan ketib,
Ummonga qaytadan yog‘adi yomg‘ir.
Go‘yo hislarim ham meni tark etib,
Boshqatdan quyilar qog‘ozga oxir.

Borliq avval boshdan yaralmish shundoq,
Misoli shamol va sukut aralash.
Oyning yog‘dusida bir yuzi oppoq,
Bir yuzi qoraygan devlarga o‘xshash.

Baxtni va’da qildi taqdir bir zamon,
Kulfatni yubordi o‘rniga ammo.
Bahorda nasimni kutgandim shodon,
Afsus, izg‘irinni ko‘rdilar ravo.

Do‘stlaring ko‘p bo‘lar,
deya muloyim,
Bashorat qilgandi lo‘li qiz bir vaqt.
Attang, kechikdilar do‘stlar ham doim,
Sadoqat eshigin qoqdi xiyonat.

Ulug‘ hodisotlar yuz bergay bari
Yolg‘iz Xudoyimning hukmiga ko‘ra.
Xayolim ketadi asrlar sari,
Orzu qilmoqlikdan tolmasman sira.

Hozir-chi, tentirar sargardon bu ruh,
Hozir-chi, olamda shunaqa ishlar.
Faqat rejasini buzmagay anduh,
Faqat, o‘z vaqtida kelgay tashvishlar.

2015-yil 19-avgust,
Xyuston

MUVOFIQLIK

G‘oyat rang-barangdir ishi olamning,
Muvofiq kelmagay yo‘q bilan bori.
Juda og‘ir gapdir, ikki odamning
Gar to‘g‘ri kelmasa fe’l-u atvori.

Birovi issiqqa o‘zini urar,
Lekin sherigiga yoqar qahraton.
Vijdoni qoshida ular teng turar,
Sanar ikkisi ham o‘zin qahramon.

Turfa el bosgandir cheksiz dunyoni,
Unda yolg‘iz bir kas yurmasligi rost.
Birisi tanganing oldgi tomoni,
Boshqasi o‘shaning orqasi, xolos.

Iltijo ayladim dunyoga kelib,
Iloyo, bergin sen loyiq suhbatdosh.
Yashayin har qayda o‘zimni bilib,
Topilsin meni ham anglovchi yo‘ldosh.

To‘rt qavm tun-u kun tortishar, ajab,
Aslida yig‘ilgan uzum yegani.
Palaxmon otishar yo‘qlikka qarab,
Aziz-ku eng avval Inson degani.

Tafakkur chiqajak oxiri g‘olib,
O‘rin qolmagaydir nozga, firoqqa.
Faqat, tushunganlar yo‘rgaklab olib,
Faqat,
tushunganlar qo‘ysin tuproqqa.

2015-yil 19-avgust,
Xyuston

TAFAKKUR MADHI

Beruniy sha'niga yo'q aslo ta'rif,
Kolumb ham davriga yarashgan ko'zdek.
Biroq hanuzgacha qalam ko'tarib,
O'zicha kelmagan bu joyga o'zbek.

Sirli yurt sanchiqday bergandi azob,
Sho'roning kibrli saltanatiga.
Derdilar, bormangiz, bo'lgaysiz xarob,
Burjuyning chirigan mamlakatiga.

Magar kelsa hamki birorta sayyoh,
Yozg'irib yozardi yetgancha kuchi.
Emishki, ko'chalar to'la oh-u voh,
Mashaqqat karvonin ko'rinmas uchi.

Go'yo payqashmadi g'alabani sof,
Armstrong oy uzra qo'yganda qadam.
Yo, falak, bandangda bormi hech insof,
Shunchalar hasadgo'y bo'larmi odam.

Eplay olmagan u o'zini aslo,
Butlab ham bermagan birovning kamin.
Shu bois, dunyoda to'xtamas g'avg'o,
Shu bois,
o'nglanmas sho'rlik bu zamin.

Va lekin o'zbekka tafakkurdir zeb,
Ma'rifat merosdir chunki qonida.
Agar kerak bo'lsa, ilm-u fanni deb
To'y bergay Samarqand Registonida.

2015-yil 20 avgust,
Xyuston

OQLOVCHI

Oqlovchilik qiladi kotib,
Ko‘pchilikdan qilmang, der gina.
Yomonlarni bo‘ldik yo‘qotib,
Qolganlari uch-to‘rttagina.

Uchrab turar balki byurokrat,
U ham yurar o‘rtadagina.
Poraxo‘r-ku arzimas illat,
Borlari ham uch-to‘rttagina.

Siz vahima qilmang, ey shoir,
Yo‘lingizda yo‘qolsa zina.
Gap chiqarmang ularga doir,
Bezori ham uch-to‘rttagina.

2015-yil 21 avgust, Xyuston

TAVSIYA

Menga turli yumush yoqavermas, bas,
Mayli aytib qo‘yay dilda niyatni:
Senga salom berish vazifam emas,
Olmaganman bundoq majburiyatni.

Mayliga, ahvolim bo‘lsa hamki tang,
Mayli, hay’atingga qo‘ymagin saylab.
Umrimning qoq yarmin o‘tkazdim, attang,
Har xil kimsalarga takalluf aylab.

Soxtalik jonimga tekkan shu qadar,
Menga tinchligim ber, oromimni ber.
Ko‘chada nima ko‘p — tosh ko‘p, birodar,
Yaxshisi, borgin-u o‘shalarni ter.

2015-yil 21-avgust, Xyuston

QADR

Hayotda odamday
Ko'rmaganman kun,
Na tirik yurganman,
Na o'lmaganman.
Birovlar izmida
Yashadim butun,
Umrimda hech qachon
Haq bo'lmaganman.
Sevdim men o'zimcha
Xalqim, elimni,
E'zozlab, toptalgan
Ona tilimni.
Bo'ynimga qo'ydilar
Lekin o'limni,
Umrimda hech qachon
Haq bo'lmaganman.
Meni chetlab o'tdi
Mudom adolat,
Ko'zim ochirmadi
Zulm-u zalolat.
Chunki zo'rlikdadir
Jami kafolat,
Umrimda hech qachon
Haq bo'lmaganman.
Ezgulik yo'lida
Qo'limni boylab,
She'rdan ayirdilar
Yillab va oylab.
Bir kimsa chiqmadi
Himoyat aylab,
Umrimda hech qachon
Haq bo'lmaganman.
Doim birga yurdi
Men bilan nodon,

Hasadgo‘ylar bo‘ldi
Sohibi maydon,
Ular orasida
O‘tdim sargardon,
Umrimda hech qachon
Haq bo‘lmaganman.
O‘zimdek nochorlar
Uchradi har vaqt,
Nogoh gurzi yegan
Jonzotdek karaxt.
Qayrilib boqmadi
Omad bilan baxt,
Umrimda hech qachon
Haq bo‘lmaganman.
Ming yillar naridan
Kelar bir oqim,
U marddir, birovga
Emasdir boqim.
Agar qo‘llamasa
Shu tanti halqim,
Umrimda hech qachon
Haq bo‘lmaganman.
Keksaygan chog‘imda
Nolimoq nechun,
Mutlaq begonaman
Axir siz uchun.
Menga ko‘rsatgandir
Yovuzlik kuchin,
Umrimda hech qachon
Haq bo‘lmaganman.
Qachon qadr topmish
Shoirning so‘zi,
Qadr topganda ham
Beqadr o‘zi.
Zora, qiyomatda
Oq bo‘lsa yuzi,

Umrimda hech qachon
Haq bo'lmaganman.
Safarda bitilgan
Manzumam basdir,
Ulug' do'stlarimdan
Gina emasdir.
Asrlar qa'ridan
Kelgan bu sasdir:
Umrimda hech qachon
Haq bo'lmaganman.

2015-yil 22-avgust, Texas

G'URUR

G'orning ichida yo quduq tubida,
Aytma ashulangni, qilmagin pastlik.
Aqchang mo'lligida, puling ko'pida,
Senga to'g'ri kelmas lattaparastlik.

Bozorga kirdingmi, jonoqi qolib,
Xaridor bo'lmagin eshak olmaga.
Nazaring baland qil, himmating g'olib,
Bo'z ko'ylak yarashmas sochi tolmaga.

Qul so'zi ortiqdir o'zbekka endi,
Ismingdan bu tuban qo'shimchani ot.
Qay bir dam kamolot otiga mindi,
Hatto chumoli ham chiqazdi qanot.

Olam vakillari jam bo'lgan fursat,
Gunoh ish qilgandek, yurma qisinib.
Kimlardir sendan ham olsinlar ibrat,
Oloving taftida tursin isinib.

Axir bir zamonlar Sohibqironning
Tegrasin o‘ragan ellar, bo‘lib yoy.
Udumi yashaydi har bir davronning,
Misoli, soylarga oqqan kabi soy.

Men-ku umr ko‘rdim, aytmasdan bir so‘z,
Duch kelgan kimsani sizlab o‘tganman.
Olis shuhratimdan uzolmasdan ko‘z,
Ketgan g‘ururimni izlab o‘tganman.

2015-yil 22-avgust, Xyuston

EVEREST VA UMMON

Everest tog‘ida yashar bir odam
Va Bahri Muhitning eng tubida ham.

Cho‘qqida turgan u, albatta, sensan,
Ummon ostidagi, shubhasiz, menman.

Aslo qo‘lim yetmas yuksak poyangga,
Everest atalmish baland qoyangga.

Lekin sen to‘xtovsiz toshlar otgaysan,
Mudom kamsituvchi so‘zlar qotgaysan.

Bir vaqtlar derdilar: — Insof, Vijdon bor,
Ming afsus, bori ham g‘arib va nochor.

2015-yil 25-avgust, Xyuston

VATANPARVAR

Men ilg‘or lektorman hozir g‘oyatda,
Meni kelajakka g‘ayratim boshlar.
Vatanparvar bo‘lgay yarim soatda,
Mening ma’ruzamni tinglagan yoshlar.

Tongdan savol qo'yar katta nabiram,
Formaga o'ragan miqti savlatni.
Deydi, chiqishim bor, dolzarb juda ham,
Bobo, so'kib bering biror davlatni.

Sal o'tmay kiradi nabira qizim,
Litseyning oldidir, quvnoq, suxandon,
Deydi, seminarda bor muhim so'zim,
Dushman topib bering menga, bobojon.

Qo'ymas hech men kabi bir ko'ngli bo'shni,
Hamsoyam doim mast, yuradi arang.
Deydi, yuvmaymizmi o'risni, qo'shni,
Raketasi qulab tushibdi, qarang.

Xabarlar tarqaydi yildirimsimon,
O'sal yotgan emish arab podshosi.
Qandaydir mo'g'ulni chaqibdi ilon,
Elga uyqu bermas shular g'avg'osi.

O, sen — maydakashlik,
o, eski hamdam,
Meni qora zamin qa'riga otgin.
Senga bo'lgunimcha bir zum hamqadam,
Meni bu dunyodan mayli yo'qotgin.

Aytgin, nimang qoldi o'zi mukarram,
Tun-u kun ochgaysan yolg'on folingni.
Hanuz xayolparast, hanuz biring kam,
Bilmaysan, o'zingning hasbi holingni.

Buyuklik kamarin belingga ilib,
Nazar sol, tarixning o'ng-so'llariga.
Bir no'yon Temurbek qoshiga kelib,
Qirq yil kirolmabdi qabullariga.

Sen ham qalam tortib, kerak bo‘lsa gar,
Insho qilib yubor G‘arbni va Sharqni.
Hamonki, ulug‘lik bo‘lmish muyassar,
Ravo ko‘raverma har kimga sharhni.

Bitta cho‘g‘ni topib, mash’ala deya
Ayyuhannos ko‘tarmoq bizga xos emas.
Kimki Aflotundan olmish tarbiya,
Aldar Ko‘sani u ustozim demas.

Lekin men ushbu kun lektorman, tayin,
Esga solmang o‘tgan saltanatlarni.
Yaxshisi, men sizga topib berayin,
Mayda-chuyda, har xil mamlakatlarni.

2015-yil 25-avgust, Xyuston

O‘TGAN TARIXLAR

So‘ylayin ajoyib voqeotlardan,
Aziz avliyolar, o‘tgan zotlardan.

Yaxlit bo‘shliq ekan olam bir zamon,
Ya’nikim, aralash zamin va osmon.

Bo‘lgan na tartibot, na o‘y, na niyat,
Tagi bilan yo‘qdir o‘zi jamiyat.

To‘rt-beshta qaroqchi yurgan qo‘rqitib,
O‘tgan, ketganlarni talab, hurkitib.

Arz qilay desalar podsholari yo‘q,
Hatto arzigulik gadolari yo‘q.

Sayrab yurar ekan bir qushcha xushhol,
So‘yib yeyishganlar uni ham darhol.

Oxir yolvordilar yig‘lab Xudoga,
Quloq solgin, deya bizning nidoga.

Yaratgan yaratdi so‘ngra bir davlat,
Rioya qiling deb qonunga faqat.

Mudom ezgulikka aylangiz amal,
Balki bo‘lajaksiz yetuk, mukammal.

Oh, nechog‘ go‘zaldir orzu va armon,
Komil bo‘lolmadi va lekin Inson.

Aslo arimadi g‘am, tashvishlari,
Endi ruxsat bilan bitgay ishlari.

2015-yil 26-avgust, Xyuston

HAYOT YO‘LLARIDA

Ikki guruh bordir asli dunyoda,
Birovining oti Yalovchilardir.
Lekin faollikda undan ziyoda,
Ikkinchisin oti Talovchilardir.

Birinchisi bo‘lsa, tun-u kun yotib,
Xojasin oyog‘-u ketin yalaydi.
Ikkinchisi esa, hujjat ko‘rsatib,
Kuppa-kunduz kuni seni talaydi.

Qancha fir’avnlar kelib ketmagan,
Yer yuzin qaqshatgan qanchalar xoqon.
Va lekin ularga kuchi yetmagan,
Balki kishi bilmas, qo‘llagan pinhon.

Men-ku yoqtirmasman g‘alvani aslo,
Ehtimol, hayotda yo‘q kam-u ko‘stim.
Xaqsizlik balosin ko‘rganda, ammo
Yuragim ezilib ketadi, do‘stim.

Bir umr sog'inib o'tdim ziyoni,
Bandidek men unga talpindim, bo'zlab.
Yorug' ko'ray, dedim shu tund dunyoni,
Mudhish sovuqlarda qolsam ham muzlab.

2015-yil 27-avgust, Texas

BUYUK SABR

Balki insondirsan oddiy va kamtar,
Balki sarkardasan — janglarda hodiy.
Birovni yakkalab, kamsitsang agar,
La'natlar ayturman senga abadiy.

Bilib qo'y, Allohning keng dargohida
Shafqat bo'lmagaydir kibrga aslo.
Joying jahannamning tubi — chohida,
Hatto, Iblisga u ko'rilmas ravo.

Goh hayron qolaman dunyoga qarab,
Tavba, deb yoqamni ushlayman bot-bot.
Bir umr malomat komida yashab,
O'zgarib qolmagan nechuk odamzod?

Bu holga chidamish botirlar nega,
Nega daf qilmagan nohaqni axir?
Nahotki, ezgulik qolgan beega,
Nahot, tiriklikning hamrohi tahqir?

Angladik, rahm etib o'zi Xudoyim,
Arshlarga ko'tardi oliy qadrni.
Qo'llab tursin deya ishonchin doim,
Bizlarga o'rgatdi buyuk sabrni.

2015-yil 29-avgust, Texas

BAXSHIYONA

Shoir Usmon Azimga

Usmon shoir, yosh bo'lsang ham
Qo'llab yubor,
Baxshiyona she'rga meni
Yo'llab yubor.
Bu dunyoda nima ko'pdir —
Tashbeh ko'pdir,
Ajabtovur obrazlarni
Mo'llab yubor.
Ba'zi birov, sen-u menga
Qumsan deydi,
Men gapiray, o'tiraver,
Jim san deydi.
Ustozni-ku nazar-pisand
Qilmas ular,
O'rni kelsa, otasiga
Kimsan, deydi.
Yo'lda nogoh uchrab qolsa
Biror rahbar,
Sodiq itday ergashadi
Balxga qadar.
Kerak bo'lsa, kuzatadi
Hammomgacha,
Tiz cho'kadi, buyrug'ini
Bersa agar.
Boy zotini ko'rganda-ku
Uchar hushi,
Qolib ketar qarindosh-u
Teng-u to'shi.
Dunyo topgan tentak kabi
Quvonadi,
Sarqitidan ko'z uzolmas
Ko'ngil qushi.

Shoirman, deb chiqqanlarning
Yarmi po‘kdir,
Xo‘rozchaday qichqiradi,
Qorni to‘qdir.
Ramazonda ravgan aytgan
Bolalardan,
O‘lay agar, tirnoqcha ham
Farqi yo‘qdir.
Bir maktabda hammamiz ham
Saboq oldik,
Yolg‘on-yashiq maqtovlarni
Ishga soldik.
Vo ajabo, iljayishib,
Tirjayishib,
O‘zimiz ham o‘shalarga
O‘xshab qoldik.
Usmon shoir, umrim o‘tdi,
Endi netay,
Payti keldi, pushaymonim
Bayon etay.
Eng yaxshisi, Boysun tog‘dan
Biror g‘or top,
Chorig‘imni sudrab unga
Kirib ketay.
2015-yil 30 avgust, Texas

AVGUST

Bearmon suzdim men ummon bag‘rida,
Zerikkan chog‘imda nabiralar do‘st.
Olis Amriqoning chet bir shahrida,
Xayr-xo‘sh qilaman sen bilan, Avgust.

Mevalar g‘arq pishgan yurtimda hozir,
Kunduz jazirama, salqindir tunlar.

Ishkomlar hosilin ko'targay bazo'r,
Tugab ketgandir ham gurvak qovunlar.

Men bugun musofir, sargashta sayyoh,
Balki qumloqlarga singmish so'zlarim.
Sen ham sog'indingmi, ey ona dargoh,
Meni kutgaysizmi, xumor ko'zlarim.

Vatandan yiroqda kechdi ko'p damlar,
Baytlarim o'xshadi ko'priklarimga.
Do'rmon bog'larida toza shabnamlar,
Qo'nib turgan kabi kipriklarimga.

Mana, oqshom tushdi ummonga asta,
Olis samolarda yulduzlar bodroq.
Shundoq jo'sh uradi Jayhun ham pastda,
Sahro qo'yniga ham tun cho'kar shundoq.

Rahmat, qo'ymading sen meni toldirib,
Avgust, hali senga she'rlar biturman.
Qalbimning bir qismin bunda qoldirib,
Yurtga sihatimni olib keturman.

2015-yil avgust, Texas

UMMON BO'YIDAGI O'YLAR

Ummon sohilida kezaman bedor,
Tong qolib Tangrining mo'jizasiga.
Qulog'im tutaman takror va takror,
Hayotning abadiy, o'lmas sasiga.

Ezgu diydor uchun aytaman rahmat,
Mavjlarga qo'shilib ketadi so'zim.
Tutgan bir qo'limdan kuyovim Ahmad,
Bir qo'limdan esa Mavluda qizim.

Shukurlar deyman-u ko‘zim yoshlayman,
Jajji nabiralar mehriga qona.
Irim, deb ummonga tanga tashlayman,
Zora, qaytib kelsam sen tomon yana.

Mening ko‘z o‘ngimdan har lahza, har dam
Aslo ketgan emas yurtim jamoli.
Uzoq bu ummonda suzib yursam ham,
Yuzimga urildi go‘yo shamoli.

Hamisha o‘zingdan oldda bo‘l, Inson,
Bu dunyo barchaga barobar, bilgil.
Tepangda turgan shu dumaloq osmon,
Sharqda ham mavjuddir, tasavvur qilgil.

Alloh dargohiga ruxsatin berib,
Taklif etilsaydi jami odamzod.
Boshqalar qatori ko‘ksini kerib,
O‘zbek ham yurardi mamnun hamda shod.

Xudo yaratmagan sarhadlar yasab,
Bandasi orttirgay o‘ziga malol.
U yuksak bo‘lmadi tog‘larga o‘xshab,
Keng ham bo‘lolmadi ummonlar misol.

O‘zga ma’volarga keldim men nechun,
Begona joylarga mehrimni sochib.
Olis yo‘llar bosdim sihatim uchun,
Balki g‘avg‘olardan nariga qochib

Bir mantiq hayotda uchraydi biroq,
Qoshida milyonlar o‘yga tolgaydir.
Yomonlik tilagan yashaydi uzoq,
Yaxshilik qilganlar nochor qolgaydir.

Qo‘shnining mushugi erinmay aslo,
Bizning yerto‘lada ovlaydi sichqon.

Hozircha tush menga mansubdir, ammo,
U ham qo'lga tushgay, topsalar imkon.

Afsuslar chekaman Mahshargacha to,
Unutdim o'z arkim kungurasini.
Nima deyarimni bilmasdan hatto
Chaldim birovlarning do'mbirasini

Bugun hech kimsaga keltirmas sharaf
Yasama shuhrat-u soxta savlatlar.
Lekin imon keltir tegrangga qarab,
Bordir buyuk zotlar, ulug' davlatlar.

Janob Rasulullоh aylab marhamat,
Chaqirmish ummatin bardosh, sabrga.
Dedilar, o'tganni qarg'amang minba'd,
Tegmang ular yotgan go'rga — qabrga.

Meni-ku tiriklay mahv etdi bular,
Hatto bezdirdilar butkul olamdan.
Bunday qabohatdan tog'lar ham qular,
Dengizlar sho'r tortar bunday alamdan.

Qírg'íy uchíb yursa hovííng uzra gar,
Tovuqda qolarmi birorta jo'ja.
Yurtni taladilar necha-necha g'ar,
Necha qoracha-yu, necha bir xo'ja.

Menga ajablanib qarama, bolam,
Hamrohing bo'lolsin bardosh va toqat.
Men balki keksayib, charchagan odam,
Xolislik izlagan kuychiman faqat.

Topsam ezgulikni chulg'adi surur,
Barobar tuyuldi yozim va qishim.
Adolat qalbimga baxsh etdi huzur,
Boshqa yumush bilan yo'q zarra ishim.

Mudom hayolimda u qutlug‘ ajdod,
Muborak taftlari quyoshlar qadar.
Magarkim, ularga ekanman avlod,
Nega yo‘qolayin nomsiz va badar?

Zuryodim erursan o‘zing, nabiram,
Olgin yulduzlarni qo‘lingni cho‘zib.
Axir qonim jo‘shar taningda shu dam,
Nega sen ketmassan mendan ham o‘zib.

Bir umr kurashdik orzular uchun,
Havoyi so‘z aytib, o‘rtama jonni.
Dunyo karvonining boshida bir kun
Ko‘rsam yetarlidir, O‘zbekistonni.

2015-yil 1-sentabr, Atlantika

KUZ TASHRIFI

Qaydadir samoda o‘qilar bayot,
Qulog‘im tutaman sirli ovozga.
Ko‘rdim, o‘n yil oldin o‘tib ketgan zot
Keldi Tillashayxga — juma namozga.

Ayni kuz, bog‘larning pishgan mevasi,
Chumoli safiga tashlayman razm.
Olma turshagining bordir egasi,
Qarri ajinalar qilurlar bazm.

Porlab ko‘rinadi Qutbda yulduz,
Osmon ham qoramtir — rangi aslidir.
Sariq chakmon qiygan Xizr kabi kuz,
Chindan u donishmand ruhlar faslidir.

Afsus, bahorlarim o‘tdilar ketib,
Terga botganicha qoldi saraton.

Buyuk tomoshaning so‘ngini kutib,
Fasllar oralab kezdim sargardon.

Nimani izladim kunduzdir, tundir,
Barcha ko‘rganlarim nahotki abas.
Shamolni g‘orlarga qamash mumkindir,
Qayta olinmagay “puf” degan nafas.

Ibtido bor ekan, bordir intiho,
Chigal hislaringga kuz bergay barham.
Balki o‘n yil o‘tar, yuz yildir, ammo
Juma namoziga kelurman men ham.

2015-yil 2-sentabr, Xyuston

HAYOT SINOVLARI

Menga kibr bilan tashlaysan nazar,
Sening ko‘ngling butun, meniki yarim.
Roziydim, dardimni so‘rasang agar,
Seni qandoq sevay, aytgin, jigarim.

Men ham aziz edim, inson farzandi,
Bir vaqtlar halqimning erka dilbandi.
Lekin qisqa bo‘ldi taqdir pisandi,
Seni qandoq sevay, aytgin, jigarim.

Bilurman, etmassan nomim himoya,
Chunki o‘zga erur qalbingda g‘oya.
Tulporing solmasin ustimga soya,
Seni qandoq sevay, aytgin, jigarim.

Afsus, yer yuzida oz emas bizlar,
Mahkum bechoralar, so‘ligan yuzlar.
Eshigi tiq etsa qarar bu ko‘zlar,
Seni qandoq sevay, aytgin, jigarim.

Xastalik yengmoqda pinhon-u oshkor,
Shukurkim, qaydadir haloskorlar bor.
Uyatdir, qolmasa nomus bilan or,
Seni qandoq sevay, aytgin, jigarim.

Ishongum, bizlarga rahm etur Alloh,
Hayotning bag'riga qayturmiz, valloh.
Begona bo'lsayding chekmas edim oh,
Seni qandoq sevay, aytgin, jigarim.

2015-yil 3-sentabr, Xyuston

MAS'ULLAR

Yerda taraqqiyot avjiga mindi,
Ega topilgaydir har qanday korga.
Avval bitta qassob yetardi, endi
O'nta qassob bordir bitta qo'chqorga.

Ilgari zamonlar dovrug'i baland,
Bir baxshi yashardi ovulda g'olib.
Bugun katta-kichik ijod bilan band,
Kuylar xalacho'pni qo'liga olib.

Qachondir kattakon mahalla-ko'yni,
Uddalab kelardi yolg'iz oqsoqol.
Hozir rota bo'lib boshqarar to'yni,
Basdir, yodda qolgan uch-to'rtta maqol.

Gaplarim kinoya, pichingdan yiroq,
Bu — yangi asrning mutoyibasi.
Mas'ullar yanada bo'lsalar ko'proq,
Shakllanib borar halq toifasi.

Go'daklar o'zini posbon deydi cho'ng,
O'yinchoq miltig'in otib tolmaydi.

Hamma qo‘riqchiga aylangandan so‘ng,
Qo‘riqlanadigan narsa qolmaydi.

Xo‘sh, undan keyin-chi? Yuz berar ne hol?
Yana majlis qilib, yo‘riqlashadi.
Vazifa ko‘rinib turibdi yaqqol:
Endi bir-birlarin qo‘riqlashadi.

2015-yil 3-sentabr, Xyuston

UCHINCHI YO‘L

— Qayoqqa yo‘l olding?
— Borsa kelarga.
— Qayoqqa yo‘l olding?
— Borsa kelmasga.
Uchinchi yo‘l eltar lekin qaylarga?
O‘zimni olaman bilmasga.

Zaxiraga o‘xshar uchinchi bu yo‘l,
Har kimsa yurolmas, berilmas huquq.
Bu yo‘ldan botirlar qatnaydi nuqul,
Xohlasa qaytadi, xohlamasa yo‘q.

2015-yil 4-sentabr, Xyuston

XONAKI FIL

Yillarim o‘tdilar,
O‘rgandim qo‘lga,
Aylandim siz ko‘rgan
Xonaki filga.

Garchi xo‘jayinim
Qiltiriq, oriq,
Jonimni sug‘urib
Olmog‘i aniq.

Firib tushmasaydi
Agar yoniga,
Uloqtirar edim
Hind ummoniga.

Qamchin va tayoqning
Zahrin bilmabsiz,
Dunyoga kelmabsiz,
Hali kelmabsiz.
2015-yil 4-sentabr, Xyuston

IJOD SABOQLARI

Hayotni tizginda bo'lmaydi ushlab,
Zilzila, yong'inlar uchraydi bari.
Mushuk bolasini bo'ynidan tishlab,
Har xil kulfatlardan qochadi nari.

Yarim asr bo'lmish bu gapga mana,
Bilmayman, birovga nima derimni.
Lekin mushuk kabi izlab boshpana,
Ko'tarib chopaman men ham she'rimni.

Nafaqaga chiqqan erinmas muxbir
Va yoki havaskor sinchi — talaba.
Jami bisotingni tekshirar bir-bir,
Qusur topa olsa — katta g'alaba.

Hech kimsa o'ylamas, satrlar aro
Ko'z yoshlar, alamlar oqib yotganin.
Birov xayoliga keltirmas aslo,
Armonlar qa'riga shoir botganin.

Asli jaholatdir bu holning siri,
O'zini hakam deb sanaydi har kim.

Oybolta ko‘targan Luqmondir biri,
Biri nayza tutgan Suqrotdir, balkim.

Ular osmon qadar olis hayotdan,
Ma’no topolmaysan ko‘ziga qarab.
Deydilar, hammasin bilamiz yoddan,
Sochini o‘stirib yurgandir Mashrab.

Bu g‘amsiz kaslarga hurmat noravo,
Lo‘ttiboz misoli surgaylar davron.
Soqovin atarlar bulbuligo‘yo,
Salla patak bo‘lsa — qolma hech hayron.

Har banda o‘zini axtargay har chog‘,
Cho‘qinar — omadin kutib, hoynahoy.
Quduq qazganida sho‘r chiqar biroq,
Yuvib ketaverar kulbasini soy.

Ezgu niyat bilan boshlasa bir ish,
Afsuski, g‘ovlarga duch kelar doim.
Nahot, unga mudom hamrohdir tashvish,
Nahot, qadamida qiyomat qoim.

Shoir, maqtanasan o‘zingcha nega,
Nodonlar ichida qilib iftixor.
She’ringga mushukday bo‘lolgin ega,
Mashrabning, yaxshiyam, kuchukchasi bor.

2015-yil 5-sentabr, Xyuston

KUNDALIK HANGOMALAR

Bu ne kundir, atrofingga boqsang sekin,
U ham kerak, sen xam kerak, men ham kerak.
Barchamizni davrasiga to‘plab, lekin
Bir o‘tirib o‘ylaydigan odam kerak.

Bu ne kundir, bir-biriga kerak hamma,
Birovimiz tog'a bo'lsak, birov amma.
Bir choynakdan choy ichamiz, chaynab shama,
Bir o'tirib o'ylaydigan odam kerak.

Bu ne kundir, o'z aybini ochar birov,
Ko'ringanga g'azabini sochar birov.
It quvlagan soqov kabi qochar birov,
Bir o'tirib o'ylaydigan odam kerak.

Bu ne kundir, qarz olganlar qaytarmaydi,
Sudxo'rga ham birorta vaj aytolmaydi.
Cho'ntagini urib ketar har xil daydi,
Bir o'tirib o'ylaydigan odam kerak.

Bu ne kundir, tamagirlar kelsa g'olib,
Tevaraging o'rab olar, do'stlar qolib.
Haydab yurar so'ng oldiga molday solib,
Bir o'tirib o'ylaydigan odam kerak.

Bu ne kundir, mezbon qochsa mehmonidan,
Nima qilsin? To'ymagan-ku o'z jonidan.
Pora degan gap chiqadi osh-nonidan,
Bir o'tirib o'ylaydigan odam kerak.

Bu ne kundir, qorinni ham to'qlab olding,
Hatto, qo'ni-qo'shnilarni yo'qlab olding.
Uxlamasding, rosa to'yib uxlab olding,
Bir o'tirib o'ylaydigan odam kerak.

Bu ne kundir, g'am-tashvishlar ortda qoldi,
Yuragingga umidlaring quvonch soldi.
Rahbar ukang salomingga alik oldi,
Bir o'tirib o'ylaydigan odam kerak.

Bu ne kundir, osmonlaring bo'ldilar sof,
Ko'ksing go'yo Pomir tog'i yo Ko'hi Qof.

Xudoyimdan tushgan emish yerga insof,
Bir o'tirib o'ylaydigan odam kerak.

Bu ne kundir, xursandchilik qilgin, shoir,
Bamisoli Zuhrosini topgan Tohir.
Yaxshi gap xam tarqalibdi senga doir,
Bir o'tirib o'ylaydigan odam kerak.

2015-yil 6-sentabr, Texas

AGAR SENSIZ...

Quyosh chiqib charaqlaydi tengsiz bu olam,
Qushlar sayrar, esar tongning shamollari ham.
Bamisoli qayta boshdan tug'ilgay odam,
Agar sensiz o'tar bo'lsa, onlarim bekor,
Tandagi bu jonim bekor, shonlarim bekor.

Oy balqadi, billur ko'kni shu'laga chayqab,
Ol shafaqni simiradi bulutlar chanqab.
Yulduzlar ham raqsga tushar, nenidir payqab,
Agar sensiz o'tar bo'lsa, onlarim bekor,
Tandagi bu jonim bekor, shonlarim bekor.

Bitta sen, deb bu dunyoda yurgan men o'zim,
Gardlaringni to'tiyolar aylagay ko'zim.
Isming aytsam, sadolarga to'ladi so'zim,
Agar sensiz o'tar bo'lsa, onlarim bekor,
Tandagi bu jonim bekor, shonlarim bekor.

Men oshiqman, mehr ko'rgaz, nazarga ilgil,
Sendan o'zga qiblam yo'qdir olamda, bilgil.
Azal kasbing rahmdilsan, rahmlar qilgil,
Agar sensiz o'tar bo'lsa, onlarim bekor,
Tandagi bu jonim bekor, shonlarim bekor.

Umid yorkim, faqat sensan oy va quyoshim,
Mahshargacha tik boqolmas, egilgan boshim.
Saqlan, jonim, to tutmasin ko‘zdagi yoshim,
Agar sensiz o‘tar bo‘lsa, onlarim bekor,
Tandagi bu jonim bekor, shonlarim bekor.

Falaklarning salomiga chiqqin sen kulib,
Bahra olsin zamin, osmon shavqlarga to‘lib.
Ostonangda turibman men, Abdullo bo‘lib,
Agar sensiz o‘tar bo‘lsa, onlarim bekor,
Tandagi bu jonim bekor, shonlarim bekor.

2015-yil 8-sentabr, Xyuston

O‘TAR DUNYO

O‘zingni har lahza azobga shayla,
Shunchaki po‘pisa emas mashaqqat.
Zulmning borligin e’tirof ayla,
G‘oyat kulgilidir gina, kudurat.

Arslon panjasini urib turgan dam,
Axloqdan dars berib, qilaverma do‘q.
Demakki, saviyang shuldir, ey odam,
Senga boshqa ta’rif topib bo‘lmas, yo‘q.

Men ham kuylagandim zamonni to‘lib,
— Assalom! — deb turdim, otmasidan tong.
Bosqinchi haqqimni olsa ham yulib,
Ta’zim bajo aylab, chalaverdim bong.

Dunyoda eng baland, yiqilmas dorni,
Avval aldanganga qurmoq kerak, rost.
Bo‘yniga oldimi magar iqrorni —
Mardona ish tutsin, botirlarga xos.

Ko‘rdim, yo‘l chetida turardi bir chol,
Yosh-u tajribasi yetgan anchaga.

Bajarar ishin u anglatdi darhol,
Topshiriq beraman, deydi, barchaga.

O'tmishin o'ziga rostlaydi Inson,
Chingizning zulmidan zarra qilmas or.
Ko'ziga ko'rinmas daryo-daryo qon,
Endi unga faqat shon-shuhrat darkor.

O'tib ketar ekan baribir dunyo,
Yomonning umri ham o'chgan nafasdir.
Men uning ismini bilmayman, ammo
Yaxshi odam bo'lgan, desalar basdir.

2015-yil 8-sentabr, Xyuston

KOINOT

Ko'm-ko'k yaylov, ko'rinmaydi
Boshqa hech bir zot,
Yollarini silkitgancha
O'tlaydi bo'z ot.

Yaltir-yultir uchib o'tar
Kapalak ba'zan,
Sirli olam mana shuldir,
Shuldir koinot.

2015-yil 9-sentabr, Xyuston

ASR FOJIASI

(O'tmish esdaliklaridan)

Yetmish to'rt yil umr ko'rdi mudhish bir tuzum,
Bunaqasi tarixlarda uchramagan hech.
Goh ishonib, goh ishonmay eslayman o'zim,
Gap poylardi fuqarosi ertadan to kech.

Pavlik degan bola buni bergandi boshlab,
Unga butun mamlakatda qo‘yganlar haykal.
O‘z otasin quloq, deya sotgan u boplab,
Shu tariqa, avjga mingan qatag‘on jadal.

Shohlar o‘tgan, Iroddan to Neronga qadar,
Tulporini senatiga saylagan biri.
Pavlikchilar hammasidan bo‘ldilar battar,
Milyon-milyon begunohning yo‘q hatto go‘ri.

Bog‘chadagi bolaga ham, kerak bo‘lsa gar,
Gap tashishni o‘rgatardi hushyor enaga.
Der edilar, bundan chiqar zo‘r vatanparvar,
Insof so‘zin, shart bo‘lmasa, qo‘llamoq nega?

Ishga solmish cherdakdagi kaptarlarni ham,
Mish-mishlarni tarqatardi, bog‘lab patiga.
Dinlar abas, e’tiqodlar topgandi barham,
Darz ketgandi ulug‘ xalqning sadoqatiga.

Arslon degan so‘z aslida turar hurkitib,
Yovuzlikning asorati o‘zidan yomon.
So‘ngsiz ta’qib sho‘rliklarni qo‘ymish qo‘rqitib,
Baxtlimiz! — deb, qiyqirardi tun-kun olomon.

Yillar o‘tdi, bugun chindan o‘zgarding, yurtim,
Zamin uzra farzandlaring fikri bor, poydor.
Bayrog‘ingni ko‘zga surtib, bosh egib turdim,
Jahon tuzgan mashvaratda sening o‘rning bor.

Ko‘rganlaring kechmish bo‘lsin, endi, iloyo,
Yo‘llaringni yorug‘ qilsin o‘zi, kahkashon.
Qo‘lin ochib, pirlar seni aylagay duo:
Toptalmasin elning qadri aslo, hech qachon.

2015-yil 11-sentabr,
Xyuston

BASHORAT

Rahmatli ustozlar,
Domlalarim, Siz,
Dorilfunundagi bilim tayanchi.
Qabringiz qoshida deyman cho'kib tiz:
Umringiz yakuni g'oyat ayanchli.

Bashorat qildingiz nimalarnidir,
Ularning hech biri topmadi isbot.
Boshga ko'tarardik Sizni baribir,
Chunki bilmas edik, qanaqa hayot.

Bizga uqdirdingiz, butkul yer yuzi
Ketib borayotir noto'g'ri yo'ldan.
Tarixni yoritar Marksning so'zi,
Boshqalar baxtini boy bergan qo'ldan.

Bizga uqdirdingiz, e'tiqod, imon,
Ko'p borsa, chilimning tutuni, xolos.
Sira do'st bo'lmaydi qorni to'q inson,
Dunyoni yangilash bizlargadir xos.

Bizga uqdirdingiz, ummon ortida,
Bir tuzum yotibdi, tagidan chirib.
Oxir tong qoldingiz tarix oldida,
Aytgan gaplaringiz aksini ko'rib.

Nahot, o'yin edi inson taqdiri,
Nahot, o'tgan umr tavakkal yakkash.
Nahot, jaholatdir bu holning siri,
Qoldi bo'yningizda basharni aldash.

Rahmatli ustozlar,
Domlalarim, Siz,
Achchiq qismatingiz ibratdir biroq.
Uzr so'ramoqlik shart ekan so'zsiz,
Bashoratdan avval, foldan oldinroq.

2015-yil 12-sentabr, Xyuston

O‘G‘RILAR HAQIDA BALLADA

Go‘zal hislar tuhfa bo‘lmish bizga barobar,
Uyimizni bezagaymiz berib oro, zeb.
Boshqalarni kamsitmagin aslo, birodar,
Kim aytadi, o‘g‘rilarning qalbi yo‘qdir deb.

Eng avvalo, o‘g‘rilikni qo‘yar joyiga,
Xumchalarni to‘ldiradi ilik moyiga.
So‘ng jo‘naydi maishatga— tog‘ning poyiga,
Kim aytadi, o‘g‘rilarning qalbi yo‘qdir deb.

U albatta o‘ylab ko‘rar hamma yog‘ini,
May ichishga topar hatto bosh chanog‘ini.
Otarchilar o‘rab olar so‘l-u sog‘ini,
Kim aytadi, o‘g‘rilarning qalbi yo‘qdir deb.

Suluvlarni qadrlaydi bu qavm xushhol,
Ko‘zi tushsa, qo‘rg‘oniga keltirgay darhol.
Qiyshiq joyi bo‘lsa agar bosgaydir dazmol,
Kim aytadi, o‘g‘rilarning qalbi yo‘qdir deb.

Aqli butun, yaxshi bilgay nedir gunohi,
Yuragini tilkalaydi go‘daklar ohi.
Ajab holdir, shoirlarga tegmaydi gohi,
Kim aytadi, o‘g‘rilarning qalbi yo‘qdir deb.

Zo‘rlari bor, mardman deya ko‘kragin kerar,
Duch kelganni olavermay, yaxshisin terar.
Uy egasi kasal bo‘lsa, dorisin berar,
Kim aytadi, o‘g‘rilarning qalbi yo‘qdir deb.

Modaning u oldidadir, kiyinar bashang,
Egnidagi liboslari talashadi rang.
O‘la qolsa, tuflisiga qo‘ndirmaydi chang,
Kim aytadi, o‘g‘rilarning qalbi yo‘qdir deb.

Har joyda ham ish vaqti bor, besh-olti soat,
Xizmatchilar shunga arang qilgaylar toqat.
Faqat o'g'ri yumushidan topgaydir rohat,
Kim aytadi, o'g'rilarning qalbi yo'qdir deb.

Barcha soha olg'a qarab ketmoqda borho,
Tomni teshish shart emasdir endi mutlaqo.
Qo'ysang basdir kerak joyda o'xshatib imzo,
Kim aytadi, o'g'rilarning qalbi yo'qdir deb.

O'ylab boqsam, ko'p narsaning egasi shular,
Buyuk-buyuk shaharlarda yashaydi ular.
O'g'ri deb ko'r, o'sha kuni paymonang to'lar,
Kim aytadi, o'g'rilarning qalbi yo'qdir deb.

2015-yil 13-sentabr, Xyuston

MANGU PANOH

Ozroqqina mehr bergil,
Bizlarga, Alloh,
Ozroqqina shafqat ham ber,
Qodir Xudoyim.
Yer yuzini qoplab borar
Faqat oh-u voh,
Hamma joyda bamisoli
Qiyomat qoyim.

Oshyoniga yaqin kelmas
Qushlar ham aslo,
Daraxtini chirmab olsa
Agarda ilon.
Uyasiga qadam bosmas
Bo'rilar hatto,
Agar sezsa shu atrofda
Borligin qopqon.

Inson axir Inson erur,
Yashirmoq nega,
Kun ko'rar u xonadonin
Holiga qarab.
Agar bir kun mushuk kabi
Qolsa beega,
Yurmas axir nola chekib
Eshikni tirnab.

Farzandlardan buyurmasa
Fojiadir bu,
Ota endi o'z-o'ziga
Qilgay malomat.
Bir zamonlar qartayganda
Padarin, yohu,
G'orga eltib tashlaganlar,
Qandoq jaholat!

Qadrdonlar ajrab ketar,
Birdan, nogahon.
Ayri tushar balki mash'um
Manfaat sabab.
Bunday chog'da odam kimga
Suyansin nolon,
Nahot, do'stlik ro'yo erur,
Kechirgin,
yo Rab.

Qashqirlarning to'dasida
Qolsa birov gar,
Kim himoya qilar edi
Uni shu fursat.
Bir ojizga berishmasa
Madad muqarrar,
G'olibman deb bong urgaydir
Yovuzlik albat.

Ko‘z tashlayman olis o‘tmish
Qa’riga goho,
Tarix mudom botirlarning
Yonini olgan.
Yengib chiqqan kurashlarda
Alpomish borho,
Prometey o‘t-olovni
Saqlab qololgan.

Parvardigor, sen bandangni
Qilding himoyat,
Yana o‘zing muruvvatlar
Aylagil ehson.
Odamzodga ezgulikni
Qaytib ber faqat,
Yolg‘iz sening panohingda
Baxt topgay Inson.

2015-yil 18-sentabr, Texas

NODONLAR HAQIDA BALLADA

Qaydadir yuz bersa biror falokat,
Tushar tahlikaga jamiki hayvon.
Muxbir yengamiz, deb jar solar albat,
Bundan faqatgina qo‘rqmaydi nodon.

Amir qushbegining ketiga tepdi,
Shu zum Peterburgni olaman, debdi.
Shaksiz u — bekorning beshtasin yebdi,
Bundan faqatgina qo‘rqmaydi nodon.

Zilzila Toshkentning yarmini buzsa,
Kimdir o‘sha kuni yozganmish qissa.
His et, fojiadan chiqargin hissa,
Bundan faqatgina qo‘rqmaydi nodon.

Yer yuzin zabt etgan ular chinakam,
Yo dovdir, yo lofchi yoki muttaham,
Chopib chiqaman der Everestga ham,
Bundan faqatgina qo'rqmaydi nodon.

Payt kelib, qasamlar ichadi hatto,
O'zining foydasin unutmas ammo.
Tinmaydi, do'zaxga tushgunicha to,
Bundan faqatgina qo'rqmaydi nodon.

Turfa forumlarda qatnashar ba'zan,
Uni yuborganmish go'yoki Vatan.
Tugatar, qo'liga tushsa ilm-u fan,
Bundan faqatgina qo'rqmaydi nodon.

Xudoyim, hamisha holimizga boq,
Sening panohingda yashaylik uzoq.
Tamagir hukmiga topshirma biroq,
Bundan faqatgina qo'rqmaydi nodon.

Tarixda o'tgandir botirlar bisyor,
Necha sarkarda-yu shohlar purviqor.
Avliyo zotlarning nazari ham bor,
Bundan faqatgina qo'rqmaydi nodon.

Inson bolasiga hushyorlik odat,
Yurtiga kiritmas yovlarni minba'd.
Toki, boshlanmasin qirg'in va ofat,
Bundan faqatgina qo'rqmaydi nodon.

Balki uning davri emasdir mangu,
Lekin yashab kelar tinch va beqayg'u.
Bir kun tupugiga toyib o'lar u,
Bundan faqatgina qo'rqmaydi nodon.

2015-yil 20-sentabr,
Xyuston

MUAZZAMLIK

Ulug‘ daryo bilan qo‘ysang barobar,
Aytilmas, mana bu muazzam ariq.
Bahaybat fil tursa yonida agar,
Muazzam chumoli deyilmas, aniq.

Muazzam shoirdir Firdavsiy hamon,
“Shohnoma” olamda tengi yo‘qdir, bas.
Qanchalik chiroyli bo‘lmasin do‘kon,
Kolizey singari muazzam emas.

Magar chiqib qolsa biror havaskor,
Muazzam daho, deb yozar xabarchi.
Yolg‘onning nahotki jozibasi bor,
Choyxona palovga qo‘yilmas jarchi.

O‘zbek muhtoj emas o‘trikka, ammo
Jahon minbarida o‘qiy olur dars.
Kiming bor, deganda birovdan aslo
Buyuk insonlarni olmagaymiz qarz.

Xayol surish yaxshi bolaga o‘xshab,
Orzu yarashadi keksa-yu yoshga.
O‘zini muazzam deyish boshqa gap,
Muazzam bo‘lmoqqa intilish boshqa

2015-yil 21-sentabr,
Xyuston

INSON SHARAFI

Eskirgan kovushni yoki jandani
Qayga tashlasang ham, nima farqi bor.
Tuproqqa jo bo‘lgan marhum bandani
Marmartosh mahliyo etmog‘i dushvor.

Yuksak sag‘ana-yu bezaklar bari
Azador bir zotning himmati xolos.
Balxda qarovsizdir Beruniy qabri,
Bu ayni nodonlik jaholatga xos.

Zamin farzandidir, shubhasiz, Inson,
G‘oyalar mevasi emasdir aslo.
G‘animi choh qazsa unga har bir on,
Do‘stlari boshiga ko‘targay ammo.

Va lekin xolislik mudom omonat,
O‘zini hakam der salla, besalla.
Bandasi Allohga yolvorar faqat,
Xudoga soldim, deb aytar barala.

Nozim Rus yerida joy topdi mangu,
Ammo satrlari had bilmay yashar.
Eng avval, dunyoning shoiridir u,
So‘ngra kommunistdir, bilib qo‘y, bashar.

Olamda daxlsiz bir mantiq mavjud,
Unga daf qilolmas vaqt-u zamona.
Birovning xochi bor, birovda-chi but,
Lekin Yaratganga bari parvona.

Millat deganlari bir daraxtsimon,
Ildizi zaminning qa’riga yetgan.
Kishilik boshiga tushgan har to‘fon,
Uning ham butog‘in sindirib ketgan.

Insonga ikki his doimo hamdam,
Biri — Otamakon, birisi — Dunyo.
Ba’zan o‘zi chiqqan tepani odam
Hisoblab yuradi olam, deb go‘yo.

Garchi yer yuzida ko‘p erur jonzod,
Turlarin sanab ham bo‘lmas, ehtimol.

Tarixni yaratar faqat Odamzod,
Tafakkur uyining me'mori misol.

Bu tuyg'u mening ham umrimda g'olib,
Yo'qolmas, suvga ot, tashla o'tlarga.
Vatan tuprog'idan bir siqim olib,
Keyin borajakman o'zga yurtlarga.

2015-yil 24-sentabr, Xyuston

MUMIYO

Ajib hol yuz bergay,
Tiriklay turib,
Mumiyo nusxamni yaratdirsam gar.
Amal kreslomda o'sha o'tirib,
Bir kun ish yuritsa, oqshomga qadar.

Arzago'y dod solib kelsa, baribir,
Mendan sado chiqmas, so'zlaydi o'zi.
Yordamchim tushunmas, anglamas, ne sir,
Chunki tik boqmagan hech qachon ko'zi.

Ehtimol, bekorchi quloqni izlab,
Oldingga bir olim kirgay shu kuni.
Uzun ma'ruzasin o'qiydi bo'zlab,
Jimgina tinglaydi mumiyo uni.

Kassir qiz kutishdan charchadi oxir,
Tirqishdan mo'ralar senga atayin.
So'ngra bosh chayqaydi: — Ishi ko'p og'ir,
Qorayib ketibdi sho'rlik xo'jayin.

— Tepadan so'rashdi! — deydi nogahon
Kotiba eshikdan boqqancha qiyo.
Mo'jiza yuz berar xonada shu on:
Jonlanib ketadi birdan mumiyo.

2015-yil 27-sentabr, Xyuston

RANG-BARANGLIK

Zaminga barobar kulfati, baxti,
Majnuntol yonida zaqqum daraxti.

Sahrolar belibos, o'rmonlar bashang,
Delfinning hamrohi odamxo'r nahang.

Shodlik bir tomonda, bir tomonda g'am,
Ikki xil balodir suv bilan o't ham.

Lekin qozonda suv, tagida cho'g'dir,
Birovi bo'lmasa taom ham yo'qdir.

Yaxshilar bor joyda yomon ham mavjud,
Bu — qadim bobolar qoldirgan o'git.

Men ham o'z fikrimni aytay yakunda:
Qaysiga mansubsan — hamma gap shunda!

2015-yil 27-sentabr, Xyuston

MARDIKOR

Bajargin o'zingga mansub yumushni,
Ovchi ham o'ljasin bir o'zi ovlar.
Agar yoqtirmasa qandaydir ishni,
Mardikor yollaydi ba'zi birovlar.

Ehtimol, hashardir, shanbalikdir yo,
Mahallang chorlaydi — yordaming darkor.
Bunday muammodan qo'rqmagin aslo,
Hamyoning bor ekan — mardikor tayyor.

O'qishga kirmoqchi farzand besavod,
Unga suvdek zarur baholar — ballar.

Ota chorasini topar shu zahot,
Bilag'on bolani mardikor yollar.

Paydo bo'lgan emas bu odat darrov,
Shohlar ham ishlatgan qiyofadoshin.
Kelinga topilar mardikor kuyov,
To'yida o'tirar eggancha boshin.

Bandaga rahm etsin Allohning o'zi,
Qandoq hukm qilar — unda ixtiyor.
Marhumning bo'lmasa o'g'il yo qizi,
Yo tavba, mardikor yig'ichilar bor.

Madadsiz qolganda inson bolasi,
Qo'llagan zotlarga ming bora rahmat.
Savobni mahv etar tama balosi,
Behuda ketmagay chekilgan zahmat.

Hech kimning qo'rg'onin bosmasin xatar,
Hatto zor qolmasin hamsoyasiga.
Vatanning boshiga ish tushsa agar,
Mardikor borgaymi himoyasiga.

2015-yil 2-oktabr, Xyuston

TAQDIR TUHFALARI

Sendan rizq so'radim hamisha, taqdir,
Boylik o'tinmadim lekin muhtasham.
Ol, deya butun non yubording, shukur,
Balki boshqalardan aylamading kam.

Sendan do'st so'radim, yolvorib yana,
To'g'rigo'y hamrohlar duch keldi, qulluq.
Ular ham men kabi yuribdi, ana,
Chayqov bozoringga kirgulari yo'q.

Sendan salomatlik so‘radim, taqdir,
Axir har kimsaga mukofotdir bu.
To‘rt muchang sog‘ bo‘lsa, shu o‘zi baxtdir,
Qarigan chog‘ingda yetar qush uyqu.

G‘anim yuborgin, deb kim aytar senga,
Esi bor har banda bu gapdan kular.
Negadir, bir to‘pin jo‘natding menga,
Sig‘may qolganmidi hovlingga ular.

Baribir, lutfingdan roziman men ham,
Qaylarga borardim taqdirsiz — sensiz.
Eng avval, onadan tug‘ilganim dam,
Vatan ato etding, qadim va tengsiz.

Sening bitta noming, ehtimol, qismat,
Xato qilgan bo‘lsak, bizlardan ko‘rma.
Tepangda Egam bor, shoshilma faqat,
Umrni o‘zingcha qisqartib yurma.

2015-yil 4-oktabr, Xyuston

HAYOT

Rafiqamga

Kimdir dedi oh chekib:
— Zulmatga botdi ziyo,
Tulporlar ketib bo‘ldi,
Qirchang‘iga zot qoldi.

Tiriklikni o‘limlar
Yenga bilmadi, ammo,
Zavol topmay dunyoda,
Baribir, hayot qoldi.

Afsus, ne-ne insonlar
Tark etdilar olamni,

Qaytmadilar, to‘ksam ham
Ko‘zimdagi jolamni.

Bu ne sirkim, kulfatlar
Bukolmadi odamni,
Zavol topmay dunyoda,
Baribir, hayot qoldi.

Onam ketsa, o‘ylovdim,
Yiqilib tushgay osmon,
Otam ketdi, men uchun
Zimiston bo‘ldi jahon.

Lekin men yodgor edim,
O‘lmay qolgan tirik jon,
Zavol topmay dunyoda,
Baribir, hayot qoldi.

Yuragim siqilganda
Mozor oralab yurdim,
Keksa bir donishmandning
Qabri yonida turdim.

Vo ajabo, toshida
Ushbu yozuvni ko‘rdim:
— Zavol topmay dunyoda,
Baribir, hayot qoldi.

Sanog‘iga yetmaydi
Hanuzgacha odamzod —
Zaminda qurbon ko‘pmi,
Ko‘pmikan va yo jallod.

Yaxshilardan ot qolur,
Yomonlardan qolur dod,
Zavol topmay dunyoda,
Baribir, hayot qoldi.

O‘kinmagin, azizam,
Orqada endi g‘ovlar,
Ajaldan ham aslida
Battarroq ekan yovlar.

Degaymiz,o‘sha kuni —
O‘tgach barcha sinovlar:
Zavol topmay dunyoda,
Baribir, hayot qoldi.

2015-yil 6-oktabr, Xyuston

ARMON

Xayr, Atlantika,
Xayr, ey ummon,
Sendan ayro tushmoq
Gumondir, gumon.

Mening ham qalbimda
Bir ummonim bor,
Faqat, uning nomi
Armondir, armon.

2015-yil 10-oktabr, Xyuston

VATANIM

Har bir uyda ayg‘oqchi,
Har qadamda iskovuch,
Odamni ko‘rsa qochar,
Bedovlaring hurkovuch.
Oshingga zahar soldi,
G‘animlaring bir hovuch,
Yovuzlarning qo‘lida
Gulday vatanim qoldi,

Boshida panohi yo‘q
Tulday vatanim qoldi.

Non bermaydi va lekin
Non yeganni o‘ldirar,
O‘sib turgan niholni
Ayoz kabi so‘ldirar.
Bozor bormay qo‘yningni
Puch yong‘oqqa to‘ldirar,
Yovuzlarning qo‘lida
Gulday vatanim qoldi,
Boshida panohi yo‘q
Tulday vatanim qoldi.

Har ko‘chada ming mirshab,
Har go‘shada avaxta,
Haq deganning og‘zi berk,
Qon yutar laxta-laxta.
O‘zi-ku paxta ekkan,
Yostig‘i bo‘ldi taxta,
Yovuzlarning qo‘lida
Gulday vatanim qoldi,
Boshida panohi yo‘q
Tulday vatanim qoldi.

Ilm-u urfon jaholat
G‘origa kirib ketdi,
O‘lik tirikdan o‘tdi,
Tirik o‘likdan o‘tdi.
Adolat istab borsang
Yolg‘on tirjayib kutdi,
Yovuzlarning qo‘lida
Gulday vatanim qoldi,
Boshida panohi yo‘q
Tulday vatanim qoldi.

Qaylargadir yo‘qoldi
Mehr bilan muhabbat,
Qo‘lida xanjar ushlab,
Adovat qoldi faqat.
Yomon gap arzon-garov,
Yaxshi gap bo‘ldi qahat,
Yovuzlarning qo‘lida
Gulday vatanim qoldi,
Boshida panohi yo‘q
Tulday vatanim qoldi.

To‘g‘rigo‘ylar bir chetda,
E’zozdadir ig‘vogar,
Qaytdik o‘rta asrga,
Odam pullar savdogar.
Ming yillik xazinangni
Talab yotar o‘g‘ri, g‘ar,
Yovuzlarning qo‘lida
Gulday vatanim qoldi,
Boshida panohi yo‘q
Tulday vatanim qoldi.

O‘lib ham bo‘lmay qoldi,
Yuvg‘ich urar kafandan,
Kimlardandir yuqqan kir
Ketmas sira badandan.
Quruq xashaklar qoldi
Gullab turgan chamandan,
Yovuzlarning qo‘lida
Gulday vatanim qoldi,
Boshida panohi yo‘q
Tulday vatanim qoldi.

Quvgan ham xalqim deydi,
Xalqim deydi qochgan ham,
Lekin xalqning ahvolin
O‘ylamas biror odam.

Jallod ham xalq nomidan
O‘qir farmonni u dam,
Yovuzlarning qo‘lida
Gulday vatanim qoldi,
Boshida panohi yo‘q
Tulday vatanim qoldi.

Turfa xil zamonlarni
Ko‘rgan bitta insonman,
Goh faxr etsam, goho
Baridan pushaymonman.
Netayki men na Xorun,
Va na Sulaymonman,
Yovuzlarning qo‘lida
Gulday vatanim qoldi,
Boshida panohi yo‘q
Tulday vatanim qoldi.

Barchasiga sababdir
Asli nafsning balosi.
Mehnatkash xalqning esa
Yechilmas muddaosi,
Inshoolloh bandaga
Boqqay bir kun Xudosi,
Yovuzlarning qo‘lida
Gulday vatanim qoldi,
Boshida panohi yo‘q
Tulday vatanim qoldi.

2015-yil 10-oktabr, Xyuston

ZINALAR

Dedilar: — Ko‘klarga qilursan parvoz,
Birinchi zina bu, chiqqin, seniki.
Shu zahot atrofdan taraldi ovoz:
— Bu zina meniki, zina meniki.

O‘rlab boraverding tepaga o‘ktam,
Bundayin marraga yetishgay ozlar.
Lekin eshitilib turdi dam-badam,
Bu zina meniki, degan ovozlar.

Eng yuksak poyaga chiqolding u kun,
Uh tortding, sochingga qirovlar ingan.
Vo ajab, o‘chgandi endi turfa un,
Menikidir, degan ovozlar tingan.

Biroq kimlarningdir imkoni bisyor,
Hattoki, omadni aylab olgay qul.
Umrida mashaqqat chekmagan bir bor,
Chunki zinalari boshqadir butkul.

Seni ham qaydadir anglashar, balkim,
Orttirgan tajribang behuda ketmas.
Pastda bo‘lsang agar, toptaydi har kim,
Balandlikda tursang — qo‘llari yetmas.

2015-yil 11-oktabr, Xyuston

YO‘QOLGAN BO‘RI

Hayvonot bog‘idan
Yo‘qoldi bo‘ri,
Shu zahot efirda
Berildi e’lon:
— Bo‘ri qochib ketgan,
Jaydari turi,
Tutib keltirganga
Mukofot falon.

Bo‘ri-ku topildi
Va lekin bu ish,
Tashabbus singari
Ko‘rsatdi kuchin.

Hanuz davom etar
Bo‘ri topshirish,
Albatta, aytilgan
Mukofot uchun.

2015-yil 11-oktabr, Texas

“IKKICHI” BOLA

Fizikadan “ikki” olib,
Bola qaytdi maktabdan,
Ostonada turib dedi
Otasiga daf’atan:

— Otajonim, xafa bo‘lmang,
Axir bizga omad yor,
“Ikki” olsam olibman-da,
Beruniy bobomiz bor.

Endi tildan “ikki” olib
Qaytdi bola maktabdan,
Otasiga yana dedi
Ostonadan o‘tmasdan:

— Otajonim, xafa bo‘lmang,
Axir bizga omad yor,
“Ikki” olsam olibman-da,
Navoiy bobomiz bor.

Bu gaplarni tinglayverib
Otaning boshi qotdi,
Har kun shu hol takror bo‘lar,
Bor tinchini yo‘qotdi.

Oxir dedi: Bas qil, bola,
Hammamizga omad yor,
Bobolarni pesh qilma ko‘p,
Hamyonimda aqcham bor.

2015-yil 13-oktabr, Xyuston

DON KIXOT

Mudom boshqalarning g‘amini yeysan,
Sendek g‘amgusorni birov ko‘rganmas.
Nechun haydovchiga tezroq yur, deysan,
Axir, seni hech kim kutib turganmas.

Har kim sayohatga chiqqay, albatta,
Dunyo keng, manzil ko‘p, sarhadlar katta.
Tez yurar poyezdga olgaysan patta,
Axir, seni hech kim kutib turganmas.

Minbarga chiqasan, o‘xshab olovga,
Zarbalar berasan qandaydir yovga.
Yoqding yo yoqmading hozir birovga,
Axir, seni hech kim kutib turganmas.

Tekshirib o‘tirmay tug‘ilgan yerin,
O‘zingcha maqtading shoirning she’rin.
O‘ylab ham ko‘rmading, u nima derin,
Axir, seni hech kim kutib turganmas.

Goho adolat deb kuydirasan jon,
Tilingdan tushmaydi Hazrati Inson.
Nimaga erishding shu bilan, nodon,
Axir, seni hech kim kutib turganmas.

Kitobiy qahramon — nomi Don Kixot,
Shamol tegirmonga qarshi surgan ot.
Degaylar, bizdan ham chiqmish shunday zot,
Axir, seni hech kim kutib turganmas.

Eshitding, qaydadir toshibdi daryo,
Tun bo‘yi oh chekding, mirobday go‘yo.
El-yurtni asra, deb qilding iltijo,
Axir, seni hech kim kutib turganmas.

Sog‘lomsan, ter to‘kib, shavqqa to‘lgaysan,
Lekin qarib-chirib, bir kun o‘lgaysan,
Bilib qo‘y, shu zahot unut bo‘lgaysan,
Axir, seni hech kim kutib turganmas.

Dunyodan bezmagin, so‘nib hafsalang,
Kimlardir ot mingan, kim oyoqyalang.
Madad so‘rab dodlar, holi bo‘lsa tang,
Axir, seni hech kim kutib turganmas.

Magar shundoq ekan, ne qilmoq darkor?
Bolam, ushbu gapni unutma zinhor:
Faqat, tamasi yo‘q savob ustuvor,
Axir, seni hech kim kutib turganmas.

2015-yil 14-oktabr, Xyuston

HASBI HOL

Yo‘qotaman, deydi hasadgo‘y nomard,
Taslim bo‘lmas lekin aql-u tafakkur.
Ezgu umidingga qo‘ndirmaydi gard,
Xayrixoh do‘stlarga ming bor tashakkur.

Men-ku, yurgandirman o‘z g‘amimni yeb,
Chidab hijronlarga, sog‘inch, firoqqa.
Kimning hisobidan safar qilding, deb,
Hatto allakimlar tutar so‘roqqa.

Qo‘ling ishga bormas ular dastidan,
Vo darig‘, tinchgina yurib ham bo‘lmas.
Bildirmay choh qazar oyoq ostingdan,
Kosang oqarmaydi, toleying kulmas.

Hayronlar qolaman bir holga doim,
Zarra ulg‘aymagan go‘yoki Inson.
Uni bandam degan bir vaqt Xudoyim,
Afsus, tark aylamish bandasin imon.

She'rimni daf'atan arz-dodga yo'yma,
Poyingda yotibdi pajmurda tanim.
Meni o'shalarga talatib qo'yma,
O'zing qo'lla yana, xalqim, Vatanim.

2015-yil 17-oktabr, Xyuston

ZAMONLAR

O'zimizning gap, deb boshlaydi so'zin,
Ko'rsatkich barmog'i labida turar.
Eshikdan bir lahza uzmaydi ko'zin,
Kimdir kirib qolsa, mavzuni burar.

Odamlar to'p joydan qochar ming qadam,
Hatto, radioni tinglaydi pinhon.
Magar, ob-havodan gap ketsa, shu dam
Deydi: — Gazetani o'qing, o'rtoqjon.

Biror ta'ziyaga borib qolsa goh,
Tilovat qilmaydi, mo'ltirar giryon.
Hech kimsa ko'rmagan chekkanini oh,
Sobiqlar to'yiga bormas hech qachon.

Kunduzi Qomusni qo'yniga solib,
Chorlar ogohlikka yaxshi-yomonni.
Tunlari ko'rpaga burkanib olib,
Qiroat qiladi yig'lab, Qur'onni.

Shu qadar shafqatsiz edingmi, hayot,
Qo'lim yoqangdadir, Mahshargacha to.
Quyondek beyurak, qushdek besabot,
Soqov qilganmiding xalqimni, Sho'ro.

Bolajon, sen bunday kunlarni ko'rma,
Shukur, senikidir zamona bu payt.
Mag'lublar singari bosh egib yurma,
Sen endi g'oliblar qo'shig'ini ayt.

2015-yil 17-oktabr, Xyuston

ONA TUPROQ

Bir vaqt Vatanimdan ketdim ko'p uzoq,
Keldim-u zaminga egildim shu choq.
Orada qandayin muloqot bo'ldi
Bitta men bilaman va bilgaydir tuproq.

2015-yil 24-oktabr,
Toshkent, Aeroport

HAYOT IBRATI

O'tgan yo'llarimga ko'z tashlab giryon,
Gohida o'zimga qolaman hayron.
Ruhim zamin uzra uchsa ham baland,
Tanim bir umrga bo'ldi zanjirband.

El-u yurt nomini qo'yib o'rtaga,
Aldab yurishdilar meni jo'rttaga.
Ba'zan duch kelganga
aytdim shirin so'z,
Lekin siyratini bilmadim, afsus.

Yosh do'stim, volidang qadriga yetgin,
Mayli, o'zgalarni faromush etgin.
Ona-yu Vatandir asli beminnat,
Boshqalar sherikdir, hamrohlar faqat.

2015-yil 28-oktabr

SO'ROVNOMA

Qo'rqmagin, olmasman zarracha safo,
Sening na kunduz-u kechalaringdan.
Ajdodlar nomini yodda tut, ammo
Ruxsat ber, o'tayin ko'chalaringdan.

Sen ulug‘ shoirsan, men-chi havaskor,
Zo‘rg‘a aravasin tortguvchi nochor.
Mayliga, pisand qil bizni ham bir bor,
Ruxsat ber, o‘tayin ko‘chalaringdan.

Sen tengsiz olimsan, men-chi nodonman,
Sen — Sino, men esa muhtoj bir jonman.
Hech kimga da’vom yo‘q, ko‘zdan nihonman,
Ruxsat ber, o‘tayin ko‘chalaringdan.

Sen buyuk san’atkor, ko‘kdadir boshing,
Olamga tatiydi tarqatgan oshing.
Quyoshing oltindir, oltin — quyoshing,
Ruxsat ber, o‘tayin ko‘chalaringdan.

Muhtaram muharrir, cho‘chirsan balkim,
Unutma, xalq erur mening ham xalqim.
Ehtimol, shu yurtda bordir-ku haqqim,
Ruxsat ber, o‘tayin ko‘chalaringdan.

2015-yil 12-noyabr

HAYOT TUHFALARI

Seniki dedilar yorug‘ jahonni,
Hatto senikidir Inson degan sas.
Senga qoldirdilar orzu, armonni,
Lekin borliq o‘zi seniki emas.

Abad senikidir mehnat zahmati,
Loy bilan, qon bilan qorishiq dunyo.
Seniki, turmushning barcha kulfati,
Seniki emasdir rohati ammo.

Odamlar unutgan nomus va orni,
Kashfiyot yaratding — quyondek ovlar.

Boqqin, sen egarlab qo‘ygan tulporni,
Har kun minib chopar boshqa birovlar.

Moviy ko‘llardagi maftunkor oqqush,
Sening hovuzingdan uchganligi rost.
Endi u sen uchun bamisoli tush,
Senga buyurgani patlari, xolos.

Ne-ne orzu bilan qazsang ham quduq,
Senga qultum suvin ko‘rmaslar ravo.
Sen-chi, shukur deysan, zarra da’vong yo‘q,
Yana boshqa quduq kovlaysan, ammo.

Hayot tepkilaydi yoqangdan tutib,
Yig‘laysan o‘kinib, chiqarmay ovoz.
Go‘yo birov uchun ro‘zangni tutib,
Go‘yo birov uchun o‘qiysan namoz.

2015-yil 22-noyabr

HAYOT JUMBOQLARI

Do‘st axtarib kezma jahonni,
Bugun uni ko‘rding, ehtimol.
Eslaysanmi, yosh bir o‘g‘lonni,
Salom berdi bekatda xushhol.

Dushmanni ham izlama aslo,
Yoningdadir ko‘rsatar firib.
U, nomingni eshitgan asno
Radiosin qo‘yar o‘chirib.

Muhabbatni qo‘msaysan har choq,
Sening uchun misli diyonat.
Payti kelib, o‘ksirsan biroq,
Men o‘shaman, desa xiyonat.

Samolardan gina qilma hech,
Laqillatar turmush shunchaki.
Bir yuzingga qo'ndimi o'pich,
Bir yuzingga tushar tarsaki.

Bu jumboqning yechimi faqat
Yurakdagi sabotingdadir.
Peshonangga yozilgan qismat,
Yashab turgan hayotingdadir.

2015-yil 24-noyabr

ADOLAT

Mening bitta armonim bor,
Kimliging bilmay,
Sen haqingda chiqarmasin birov xulosa.
Lekin yuzsiz raqiblaring andisha qilmay,
Titkilaydi tarjimayi holingni rosa.

Ko'zi ochiq har narsani albatta ko'rar,
Ajratolmay qolar goho ruh va jismni.
Bir qarasang, shaytonlar ham ko'tarib yurar,
Ota-onang Abdulla deb qo'ygan ismni.

Tashna chog'ing namakobni uzatsa taqdir,
Deysan, ushbu ishorada ma'no bor, katta.
Balki suvni icholmassan, lekin baribir,
Shukronalar aytmog'ing shart dildan, albatta.

Bu dunyoga kelgandayoq bashar farzandi,
Qo'l-oyog'in beshigiga qo'yarlar bog'lab.
Ulg'ayganda fikrini ham eturlar bandi,
U bir umr o'tajakdir ko'ksini dog'lab.

Oldda esa kutib turar poyonsiz xilqat,
Rost dalaga kuppa-kunduz ekurlar yolg'on.

Aqlni-chi, oyoqosti qilgaylar har vaqt,
Lekin bu so‘z nodonlarga bo‘lgaydir qalqon.

Hasrat bilan ko‘z tashlaysan yaydoq olamga
Xayolingga kela boshlar har xil badbin o‘y.
Hatto yo‘lda ketayotgan aybsiz odamga,
Dabdurustdan tosh otadi xudbin hasadgo‘y.

Qo‘ysalar-da seni ipak ko‘rpaga o‘rab,
Orasiga kirib olib, chaqar chayonlar.
Axir qayga borar eding himoya so‘rab,
O‘z ichingdan chiqar bo‘lsa o‘sha yomonlar.

Qancha-qancha nazmchini ko‘rdim dunyoda,
Tishi o‘tkir, ammo lekin qalami emas.
Soxta shuhrat asliyatdan doim ziyoda,
Afsus, ular bir havodan olgaydir nafas.

Aravamni o‘zim tortdim, ochiq aytganda,
Chumoliga ozor bermas ozurda jonman.
Bilaturib, nayzalaring sanchasan, banda,
O‘ylamassan, men ham axir sendek insonman.

Agar chindan odil bo‘lsang poyingda dunyo,
Mana og‘och, mana arqon, bilganingni qil.
Irodangga qarshi chiqmas hech kimsa aslo,
Dor tagiga o‘zi borgay, shuni yaxshi bil!

2015-yil 7-dekabr

XONADON SHE’RI

Kattakon shu dunyo qo‘ynida
Yashnab turar bizning xonadon.
Ertangi kun mudom o‘yida,
Har bittamiz orzumand chandon.

Sog‘liqdadir mening xayolim,
Tun va kunim o‘tar imillab.
Yonimdasan, munis ayolim,
Kuymanasan tinmay g‘imillab.

Yashirasan holingni doim,
Emasmiz-ku axir tuyg‘usiz.
Guvoh erur yolg‘iz Xudoyim,
Men uyqusiz, sen ham uyqusiz.

Mendan olib qochasan ko‘zni,
Jilmayasan lablaring titrab.
“Tuzalasiz”, degan bir so‘zni
Shivirlaysan yoningga qarab.

Dasturxonga kelganda taom
Termilasan, bir so‘z demassan.
Men ochlikka bandi batamom,
Sen ham biror luqma yemassan.

Tush ko‘ribman deyman, kun porlab,
Yoritibdi bizlarning uyni.
Entikasan o‘g‘lingni chorlab,
So‘ysin, deysan bog‘langan qo‘yni.

Tongda ba’zan kuzataman men,
Telefonda manzil so‘raysan.
Bilamanki, shu ketishda sen
Folbinlarga borib uchraysan.

Nega shundoq mahzun kunni ham
Ko‘rolmaysan, badkirdor g‘anim?
Xohlaysanki, yengsa meni g‘am,
Tuproqlarga qorishsa tanim.

Qayta boshdan tug‘ilmoqni gar
Tangri menga ko‘rsaydi ravo.

Yo‘latmasdim seni muqarrar,
Yoningga ham bormasdim aslo.

Yer yuzining qay bir burjida
Kun ko‘rardim, xayolim bilan.
Yashar edim baxt ilinjida,
O‘sha munis ayolim bilan.

2016-yil 15-yanvar

GAMLET

O‘tganlar tushimga kiradi ko‘proq,
Men keksa, ular-chi, to hanuz o‘sha.
Oradan shuncha vaqt kechibdi, biroq,
Ko‘zlar o‘zgarmagan — malomatpesha.

Men garchi ruhlarga ergashib yurgan
G‘alati shahzoda Gamlet emasman.
Kimsaman, olamga lol boqib turgan,
Turfa ro‘yolarni yo‘q ham demasman.

Asli shahzodada bor edi alam,
Taxtin olib qo‘ymish orsiz amaki.
Uylanmish Gamletning onasiga ham,
Bunday qabih holat uchramas, balki.

Mash’um haqsizlikdan o‘rtanib takror,
Yozdi Shekspirday tengi yo‘q daho.
Adolat izlagan yuzlab xalqlar bor,
Minglab Gamletlardan iborat dunyo.

Ulug‘ tomoshagoh yer usti hamon,
Biz hamon sahnada no‘noq artistlar.
Talpinib yashaymiz ruhlarga tomon,
Zaminga to‘kilib boradi hislar.

2016-yil 23-yanvar

SHARQ QISMATI

Sharqlikman,
Emasman yo‘lidan ozgan.
San’atga o‘rayman aytar so‘zimni.
Tagor hindu bo‘lib madhiyam yozgan,
Mulla To‘ychi aytgan
“Qora ko‘zim”ni.

Kashfiyot qilay, deb urinmay harchand,
Yo‘limni muttasil to‘sdi hurofot.
Fikrim koinotni quchsa ham garchand,
Mudom hamroh bo‘ldi aroba-yu ot.

Men hatto quyoshning hidini sezdim,
Yulduzlar iforin tuydim bexato.
Gar sevsam, Karbalo dashtida kezdim,
Kirdi tushlarimga Tojmahal tanho.

Boshqalar yaratdi, men esa tun-kun,
Unga maftunlikdan aylamadim or.
Afsus,
eng chiroyli gulning ham bir kun,
So‘lib, oyoqosti bo‘lmoqlig‘i bor.

Boylik qazib oldim yerning ostidan,
Tugab qolishini o‘ylamay aslo.
To‘y qilib, ayrilgan bor bisotidan,
Noshud boyvachchaning o‘ziman go‘yo.

Endi anglab yetdim,
shuhrat-shonimni
Ta’min etgan ekan buyuk daholar.
Yovlarning o‘qidan xonadonimni
Asrab kelmish doim ezgu duolar.

2016-yil 2-mart

YURAK

Sizning yuksakdagi rutbangiz ko'rib,
Ta'zim qilmoqlikni istayman, biroq
Turfa zinalardan yuguraverib,
Ishdan chiqib qolgan qurg'ur bu oyoq.

Aslo toliqmasman Sizni ko'rishdan,
Olqishlasan deyman soyangiz hatto.
Har xil yig'inlarda qarsak urishdan
Charchab,
ado bo'lgan bu qo'llar ammo.

Faqat yurak bordir, ishlar bardavom,
Unda gina yo'qdir, yo'q unda zarda.
Sizni ko'rganida topgay u orom,
Urar minutiga yetmish besh marta.

2016-yil 3-mart

HAYOT IBRATLARI

Ko'chadan keldim-u hovlimda nogoh,
Ari uyasiga boshimni tiqdim.
Qaysi kun, jarchi qush qilsa ham ogoh,
Qashqir to'dasiga birdan yo'liqdim.

Yoz payti safarga chiqib bir zamon,
Daf'atan tushganman qishning zabtiga.
Ayozda yo'l bosdim, egnimda chopon,
Biroq duchor bo'ldim yozning taftiga.

Jannatni ko'ray deb, men sho'rim qurib,
Qancha sinovlarga ayladim bardosh.
Va lekin dunyodan ketmasdan turib
Do'zax ahli bilan bo'ldim davradosh.

Axir ezgulikka tikkandim-ku ko‘z,
Dilimda yashardi ulug‘ ibodat.
Barcha yukunishlar hayf ekan, afsus,
Agarda bo‘lmasa ular ijobat.

Qirq yil kamsitdilar erinmay, sekin,
Kirar eshigimni qattiq yopmadim.
O‘zimcha barchani tushundim, lekin
Meni anglaydigan zotni topmadim.

2016-yil 29-mart

UMRIMIZ YO‘LLARI

Oqshom cho‘kar asta,
Boshlanadi tun
Toshkentning o‘rda-yu go‘shalarida.
O‘g‘lim ikkalamiz kezamiz beun,
Ulkan bu shaharning ko‘chalarida.

Samodan tushgandek millionlab chiroq,
G‘aroyib nur bilan chulg‘anar zamin.
Bu joyda jam bo‘lar yaqin va yiroq,
Men bunda totganman yoshlikning ta’min.

Ulug‘ davralarda charxlandi ruhim,
Ko‘rdim do‘stlarimdan izzat, e’tibor.
Sirli she’riyatga to‘ldi shukuhim,
Balki zinalarda izlarim ham bor.

Endi yoshim o‘tgan, qadrdonlar kam,
Bilmayman nogahon borar yerimni.
Torayib qolgandek ko‘rinar olam,
Garchand e’zozlashar hamon she’rimni.

Bolam-chi, vo ajab, u ham bemanzil,
Go‘yoki sohilda qoldik ikkovlon.

Shahar qaynab yotar, odam turfa xil,
Omad boqmas lekin bizlarga tomon.

Umrning bepoyon yo'llari bo'ylab,
Qaygadir jimgina tashlaymiz qadam.
Men-ku nimanidir yuribman kuylab,
Farzandim ko'nglida nelar bor, bilmam.

Inson tafakkuri, baxt-u iqboli
Jo'n bir tasodifga bog'lanmasin hech.
"Olam zavolidir olim zavoli",
Buni Rasulullоh aytgan erta-kech.

Hikmatni uqmadi lekin odamzod,
Oyoqosti bo'ldi ong bilan shuur.
Zaminda yursak ham bepar, beqanot,
Har nechuk hayotmiz, shunga ham shukur.

O'g'lim faqatgina Haqning yo'lin tut,
Mudom ezgulik deb qilgin ibodat.
Bir kun bu sinovlar bo'lgaydir unut,
Buyuk irodangga tayangin faqat.

Hamdamdek quvonchim va faryodimga,
Yana ko'rinadi quyosh tong-sahar.
Olis yoshligimni solib yodimga,
Boshimni silaydi onamdek shahar.

2016-yil 7-aprel

XAYOL VA HAYOT

Magar chiqib ketsam tog'larga tomon,
Bo'lardim ayiqlar bilan suhbatdosh.
Do'lana terardim balki yonma-yon,
Mehribon do'stlardek tun-u kun yo'ldosh.

Sho‘ng‘ib ketsam agar teran ummonga,
Suvlarning ostida yurardim yashab.
Baliqda toqat yo‘q shovqin-suronga,
Ular baqirmaydi bizlarga o‘xshab.

Bir kun osmonlarga aylasam parvoz,
Turnalar safida chappor urardim.
Tanishdir yulduzlar chalib turgan soz,
Bazmiga qo‘shilib, jo‘r ham bo‘lardim.

Bu gaplar amalga oshmagay aslo,
Endi xayol bilan qolganman butkul.
Boshqa birovni-ku aytmangiz, hatto
Nabiram ko‘ngliga topolmasman yo‘l.

Hanuz taraqqiyot to‘xtagan emas,
G‘ordan chiqqan kabi shu zum odamzod.
Turfa sinovlarga kela oldi bas,
Lekin o‘zligini unutdi, hayhot!

Afsus, qalbsizlikka yuz burdi Inson,
Aqchadir suyangan murabbiysi ham.
Tuyg‘ular bir chetda qoldilar hayron,
Bevaqt nafaqaga chiqqandek odam.

Hech kimning sen bilan ishi yo‘q zarra,
Mayli, ko‘k toqiga chirog‘ingni os.
Ismingni so‘rashmas, hatto bir karra,
Falon raqamdagi bandasan, xolos.

2016-yil 30-aprel

ISTIQLOL YURTI

Ko‘rganlaring emasdir sarob,
Olganing ham qarz emas, naqddir.
Niholni-ku ekmoqlik savob,
Mevasini yemoq ham baxtdir.

Bir yigitning kamolotiga
Kafolatdir yigirma besh yosh.
Egar urdi o‘g‘il otiga,
Xizr bo‘lsin, iloyo, yo‘ldosh.

U ko‘zini ochgan kundanoq
Sabot o‘zi yo‘rgaklab oldi.
Sinovlarga duch keldi, biroq
Ular izdek orqada qoldi.

Sevgi yurak mulkidir tanho,
Muhabbatning yo‘qdir bozori.
Bunday o‘lka uchramas aslo
Tilidadir dilida bori.

Yurtim, senga baxshida ko‘ngil,
Farmon erur menga har so‘zing.
Yuragimda yigirma besh yil
Olib yurgan dardimsan o‘zing.

2016-yil 8-may

YOLG‘IZ DARAXT

Adirda o‘sardi yolg‘iz bir daraxt,
Birov bilmas edi kim ekkan, qay vaqt.
Uning tegrasida hatto yantoq yo‘q,
Har yon qovjiragan xaslarga to‘liq.

Saraton chillasi kelsa quruqshab,
Daraxt ko‘rinardi sarobga o‘xshab.
Sahroning turfa xil qushlari g‘ujg‘on,
Barglar orasida saqlar edi jon.

Qish fasli izg‘irin quturgan onlar,
Qurshab olar edi uni bo‘ronlar.
Ko‘rdi u gullagan bahorlarni ham,
Lekin bo‘ldi doim yolg‘izlik hamdam.

Bir kun chaqmoq chaqdi, xullasi kalom,
Daraxt yonib ketdi, tamom vassalom.
Taqdir, qayga borma, ko‘rsatgaydir bo‘y,
Biz adir ustida qurgan edik uy.

O‘tdi bolaligim yaxshidir, yomon,
Olis u yillarni eslayman hamon.
Sira ajablanma bir holga, do‘stim,
Men o‘sha daraxtning o‘rnida o‘sdim.

2016-yil 11-iyun

SADO

Uzoqlardan kelar bir sado,
Ayting, nima qilayin, bobo?
U Vatandan taralgan ovoz,
Yo‘llariga solgin poyandoz,

Sado keldi yana nogahon,
Nima qilay, ayting, bobojon?
Yelkasida yuk bor bir olam,
U xalqingdir, madad ber, bolam.

2016-yil 24-iyun

BARDOSH

Mudom chappor urib uchgan qaldirg‘och,
Qish-u yoz uyimdan ketma, orom ol.
Men senga tegmasman, yayrab bola och,
Faqat qanotlaring menga beraqol.

Musicha in qurgan xonadonimda,
Hech kimdan cho‘chimas, shunchalar yuvosh.
Xay qushim, fazilat bo‘lsa qonimda,
Mo‘minliging bilan aylay ayirbosh.

Osmon-falaklarning egasi burgut,
Bir umr shahdingga qilganman havas.
O'sha armonimni esla, yodda tut,
Menga shijoating hadya qil birpas.

Qushlar jam bo'lishar, pasayib osmon,
Yerga qaray-qaray, chug'urlashib der:
— Barcha xislatimiz olgin-u, Inson,
Bizga tirnoqchalik bardoshingdan ber.

2016-yil 1 iyul

HAYOTGA MUHABBAT

Sendan uzoqlashib boraman tun-kun,
Balki bir qadamdir, balki bir, yarim.
Fanoning bag'riga singaman beun,
Payqamas g'animlar, bilmas do'stlarim.

Shamollar qaydan ham bo'lsin xabardor,
Men axir safarga otlangan banda.
Qushlar davra qurar tepamda takror,
Tomosha qilishar, hech bo'lmaganda.

Qo'l cho'zsa yetgudek yulduzlarim ham,
Sezishmas o'rnimdan ko'chganligimni.
Bir umr ularga bo'lsam-da hamdam,
Endi-chi nogahon o'chganligimni.

Umrning poyonini anglaysan, biroq
Uni ko'rib turish og'irdir faqat.
Tiriklik dunyoda baxt erur porloq,
Ayri tushmoq esa eng qora qismat.

Boqib atrofingga boshing qashlaysan,
Qarzing qolmaganmi biror kimsadan?
Hisob-kitobingni o'ylay boshlaysan,
Sendan rozimikan el-u yurt, Vatan.

Yelpinib haydaysan tumanni go‘yo,
Yana ko‘z oldingda she’riyat, bayot.
Baribir, shirindir shu taxir dunyo,
Baribir, go‘zaldir shu qari hayot.

2016-yil 20 iyul

TAROZI

Tongda ayvoningga chiqasan yayrab,
Tarbiyat qilasan jism-u joningni.
Tinchlik degan bir qush tepangda sayrab,
Qo‘riqlab turadi xonadoningni.

Holbuki, ellar bor, qirq yildan buyon,
Motam libosini yechgan emasdir.
Har zum falokatga mahkumdir inson,
Tinchlik degan so‘z ham,
demak, abasdir.

Yuvinib, taranib jo‘naysan ishga,
Kundalik yumushni o‘ylaysan faqat.
O‘rganib qolgansan sokin turmushga,
Yoningdan oqadi osoyishta vaqt.

Holbuki, dunyoda shunday joylar bor,
Tekshirib ko‘radi paypog‘inggacha.
Kimliging so‘raydi takror va takror,
So‘raydi yetti pusht— aymog‘inggacha.

Bu holning tagiga yetganlar bormi,
Daryo ham yondoshdir sahrolar bilan.
Nafratda yashaydi dunyoning yarmi,
Yarmi esa yashar duolar bilan.

2016-yil 26-iyul

INSON

Shukrona ayt doim, vijdoning qiynab,
Turfa savdolardan bo‘g‘ilganingda.
Bir umr yasharding bambukni chaynab,
Agar panda bo‘lib tug‘ilganingda.

Xudo ko‘rsatmasin,
chayon bo‘lsang gar,
Nobud qilar eding o‘zingni o‘zing.
Faxr etsang arziydi osmonlar qadar,
Bordir Inson degan shonli yulduzing.

Odamga yarashmas tubanlik, pastlik,
Xudbinlik emasdir oliy g‘oyasi.
Insonning kiftidan boshlanar asli,
Cheksiz koinotning pillapoyasi.

Oyog‘ing ostida poyandoz dunyo,
Saxovat bobida erursan Hotam.
Ikki oyog‘ingning orasidan to,
Tuya o‘tib ketsin — der edi otam.

Agar sen nolisang, daryolar qurib,
Tog‘larning o‘rnidan ko‘chgani yaxshi.
Olis yulduzlar ham ko‘kka bosh urib,
Nadomat komida o‘chgani yaxshi.

Falak faxr etmishdir Insonni tug‘ib,
U aslo halokat nedir — ko‘rmasin.
Prometey sahroda xas-xashak yig‘ib,
Alpomish chumoli terib yurmasin.

2016-yil 2-avgust

NUR

Nima qolur mendan dunyoda,
Farzandlar-u to‘rt-beshta bayot.
Toliqsam-da haddan ziyoda,
Seni juda sevaman,
hayot.

Fahm etarman, ne bo‘lar keyin,
Marmar toshning narxi bir tiyin.
Qiyin, qiyin, ketganga qiyin,
Seni juda sevaman,
hayot.

Tug‘ilgandim mehrdan garchand,
Yashash uchun kurashdim harchand.
Turmush doim bersa hamki pand,
Seni juda sevaman,
hayot.

O‘z joyiga moslashgay yantoq,
Darranda ham apoq va chapoq.
Ko‘nikmadim tegramga biroq,
Seni juda sevaman,
hayot.

Zimistonning yuzin ters qilsin,
Umr qadrin bilganlar bilsin.
Bilmagan-chi, ko‘ksini tilsin,
Seni juda sevaman,
hayot.

Yashayapman, Tangriga shukur,
Derazamdan tushib tursin nur.
Men shundan ham qilurman huzur,
Seni juda sevaman,
hayot.

2016-yil 26-avgust

MANTIQ

Dunyodagi jamiki ne'mat,
Inson uchun yaralgan, derlar.
Daryolar ham tegrada faqat
Bizlar uchun taralgan, derlar.
Yer ostida konlar ham shundoq,
Tayyorlangan faqat biz uchun.
Yog' bilan sut, patir va qaymoq
Oshiradi tanamiz kuchin.
Men mantiqni sevdim juda ham,
Lekin chiqdi savollar doim.
Xo'sh, kim uchun yashaydi odam?
Yolg'iz O'zi bilgay Xudoyim.

2016-yil 10 sentabr,
Xyuston

CHIROQ

Uydami, ko'kdami — nur sochsa porloq,
Uning oti erur, albatta, chiroq.

Qalbingga yashirib qo'ygin quyoshni,
Ko'rgaysan, qanchalar burkama boshni.

Agar yuragingda bo'lsa zimiston,
Hech kim yoritolmas, bilib qo'y, Inson.

Yaxshisi so'qirdan olgin sen ibrat,
Yo'lida chiroqdir orzusi faqat.

Yolg'iz bitta nur bor, yo'qdir qiyosi,
U Alloh ziyosi, Alloh ziyosi!

2016-yil 13-sentabr

FASLLARIM

Yetaklashib qator va qator,
Yo‘ldan o‘tdi yetmish besh bahor.
U bahorlar meniki edi,
Bolam, bari seniki endi.
Yo‘ldan o‘tdi yoz bilan kuz ham,
Ular menga bo‘lganlar hamdam.
Ikkovi ham meniki edi,
Egalik qil, seniki endi.
Ortda qoldi chamanlar, bog‘lar,
Yo‘l so‘ngida ko‘rindi tog‘lar.
Muzliklarga borib yetdim men,
Faqat qishni ola ketdim men.

2016-yil 13-sentabr, Xyuston

OLAM MANZARALARI

Tunlarim bedor o‘tdi, mijja qoqmayin goho,
Bir zum orom olmoqni qo‘msab yashadim har dam.
Tegramda noz-ne’matning kami yo‘q edi aslo,
Va lekin tomog‘imdan o‘tmadi burda non ham.

Qay bir ishga qo‘l ursam, aksi bo‘ldi, vo ajab,
Do‘stlarimni chorlasam, g‘animlar yetib keldi.
Baxt izladim bir umr orqa-oldimga qarab,
Tashvish doim so‘ramay, g‘ovlardan o‘tib keldi.

Ba’zan esa tushingning teskarisi bo‘larmish,
Oyning orqa tomonin ko‘rmaganmiz hech qachon.
Holingga kimdir yig‘lab, kimdir zimdan kularmish,
Omad belgisi emish oydinda yotgan ilon.

Yig‘lay-yig‘lay tugatdi quvnoq dostonin shoir,
Terakning uzunligi yiqilganda bilingay.

Ushbu nisbat, cheki yo‘q fazolarga ham doir,
Nur dastasi zulmatda ko‘zga aniq ilingay.

Chorasiz qolsang agar, o‘kinib yurma zinhor,
Sendan ham bechoraroq kimsalar ko‘p dunyoda.
Kimdir amal sohibi, kimdadir boylik bisyor,
Balki o‘shalarning ham g‘ami haddan ziyoda.

Har ishning asosida qiyos yotar, albatta,
Bir yonda tog‘-u tosh-u, bir yonda turar ummon.
Kahkashonda zarraning salmog‘i behad katta,
Falakni suyab turgan mantiqdir necha zamon.

Siz-u biz ko‘rib turgan rang-barang ushbu xilqat,
Ehtimol o‘zga olam aksidir, soyasidir.
Insonni bunyod etgan faqatgina Muhabbat,
U koinot beshigin tebratgan doyasidir.

2016-yil 17-sentyabr, Xyuston

FOLBINLAR

Xalq o‘zi yaratar daholarini,
So‘ngra o‘zi berar baholarini.
Folbinlik qilishni juda sevasan,
Sen — qora qurtdirsan, qora bevasan.

Allaqachon ketgan boshingdan toming,
O‘ttiz milyon xalqqa ochmagin roming.
Gar o‘rta asrlar kelsaydi qaytib,
Seni janozangga yurmasdik aytib.

Sodda odamlarning o‘chin olardik,
Bir yo‘la, bigizlab qo‘yaqolardik.
Go‘yo sen bo‘lmasang tonglar otmaydi,
Sendan so‘ramasdan quyosh botmaydi.

Ertadan to oqshom "Men!" deysan faqat,
Zaboningga la'nat, fikringga la'nat.
Qanday taom yeymiz, boramiz qayga,
Balki uchajakmiz yulduzga, oyga.

Balki tongga qadar kitob yozarmiz,
Tog'larni tesharmiz, konlar qazarmiz.
Hech narsa bog'liqmas sening izmingga,
Hech kimsa tobemas aytar so'zingga.

Chaqaloq yig'lasa, so'rarmi sendan,
Kimdir baxtli bo'lsa, ko'rarmi sendan.
Nabiram maktabdan besh olib qaytdi,
So'zsiz, ustoziga raxmatlar aytdi.

Javobi bo'ladi har bitta ishning,
To'yning, ma'rakaning, oddiy tashvishning.
Hikmat bilan mashg'ul buyuk avliyo,
Sen kabi o'tirgan bekorchimas, yo.

Har kim mehnatiga rahmat olg'uvsi,
Tarixda albatta nomi qolg'uvsi.
Mudom yaxshilardan sen ham ibrat ol,
Sira o'lmas gap bu: "Kamtarga kamol!".

Menga she'r yozishni o'rgatolmassan,
Tog'dirman, o'rnimdan qo'zg'atolmassan.
Sen mantiq haqida bermagin e'lon,
Mantiqning o'ziga ergashar inson.

Sening pandlaringga xalqim zormikan,
Aytishga ma'naviy haqqing bormikan.
Aql o'rgatmoqni bas qil, xalqimga,
Bitta talabim bor: — Tegma qalbimga!

Dunyoni boshimga ko'targum yo'qsa,
Ochiq qozon bo'lsa to'ntargum, yo'qsa.

Sendek folbinlarga zor emas vatan,
Niyating boshingga yetgay da'fatan.

O'ylama, bu dunyo shunchaki kordir,
Uning ham darvoza, eshigi bordir.
Mard bo'lsang, hamisha sadag'ang ketay,
Yaxshi-yomon kuning qadringga yetay.

Asl inson sha'ni har nedan yuksak,
U Arshi A'loning bandasi, beshak.
O'zi ham azizdir non bilan tuzdek,
Ulug' darvozaning posboni O'zbek!

2016-yil 25-sentabr, Xyuston

SOVG'A

(Hazil emas)

Menga hech qanaqa sovg'a bermangiz,
O'g'irlab ketishar uni baribir.
Shu bois, she'rimda alam va angiz,
Shu sabab, sovg'a deb aytmasman takbir.

Sovg'adan ayrilib, kuyib turgandan,
Uning asli o'zi bo'lmagani soz.
Seyfga qulflab qo'yib, poylab yurgandan,
Tinchgina uxlaysan — tashvishing ham oz.

2016-yil 27-sentabr, Xyuston

XALOYIQ XOHISHI

Quduq qazding cho'l o'rtasida,
Suvi shirin, albatta, tekin.
Tengi yo'qdir uning aslida,
Birov ichmas bu suvni lekin.

Shiddat bilan oqadi daryo,
Ko‘prik qurding ba haqqi savob.
Biror kimsa o‘tmadi ammo,
Qolib ketdi go‘yoki sarob.

Qora tunda yoqding-ku gulxan,
Kelgaymi, deb biror yo‘lovchi.
Biroq hech kim o‘tmadi yo‘ldan,
Na bir hayvon va na bir ovchi.

She’rlar yozding bamisli olov,
Yaxshilarni kuylading rosa.
Qiziqmadi va lekin birov,
O‘qimadi she’ringni kimsa.

Tilla do‘kon ochding bir kuni,
Birdaniga o‘zgardi olam.
Kutgan ekan xaloyiq shuni,
Bosib ketdi tumonat odam.

2016-yil 10 oktabr, Xyuston

O‘NG QOVOG‘IM UCHDI-YO

(Xalqona)

O‘ng qovog‘im uchdi-yo,
Chap qovog‘im uchdi-yo.
Olislarda qolgan yurtim
Birdan esimga tushdi-yo.

Bolalarim omonmikan,
Gulzorlarim chamanmikan.
Davradosh-u jo‘ralarim
Haliyam men tomonmikan.

Hayitda ham borolmadim,
Jigarlarim so‘rolmadim.
Qancha hafta, oylar o‘tdi,
Qishlog‘imni ko‘rolmadim.

Men qarayman yulduzlarga,
Go‘yo qoshi qunduzlarga.
Ularni deb almashtirdim
Kechalarni kunduzlarga.

O‘ng qovog‘im uchdi-yo,
Chap qovog‘im uchdi-yo.
Uzoqdagi shoir o‘g‘li
Kimning yodiga tushdi-yo.

2016-yil 10 oktabr, Xyuston

YORONLAR

O‘z davring nash’asin meniki deb sur,
Hatto to‘fon tursin, hatto bo‘ronlar.
Doim og‘zi bir-u qalqon bo‘lib tur,
Orangizdan ola o‘tmas, yoronlar.

Boshqa yoqqa tortsa sen mingan tulpor,
Bundayin do‘stlikdan qandayin naf bor?
Kimdir aylamasa qasamingni xor,
Orangizdan ola o‘tmas, yoronlar.

Senga yot emasdir el quchgan zafar,
O‘zimniki desang bu yutuqni gar.
Seni ko‘rgan joydan qochgaydir xatar,
Orangizdan ola o‘tmas, yoronlar.

Hasadgo‘y ahliga duch kelding ko‘proq,
Qayoqqa borsang ham bir xildir tuproq.
Barchaga barobar, demakkim, charoq,
Orangizdan ola o‘tmas, yoronlar.

Bemor izlar edi dardiga chora,
Uni topolmadi, afsus, bechora.
Kimdir yordam qo'lin cho'zsa shu bora,
Orangizdan ola o'tmas, yoronlar.

Mayliga, davron sur qishloq, shaharda,
Turfa odam uchrar shomda, saharda.
Sen ham kechirimli bo'lsang agarda,
Orangizdan ola o'tmas, yoronlar.

2016-yil 16-oktabr, Xyuston

DOSTONLAR

JANNATGA YO‘L

(Dramatik doston)

Ishtirok etuvchilar

Yigit
Ona
Ota
Tarozibon
Yugurdak
Chol
Hur qiz
Farishta
Farishtalar
Do‘st
O‘zga odam
O‘spirin
Qariya
Kimsa
Sado

SADO

1

Koinotning gultojidir hazrati odam,
Lekin bilmas o‘z umrining nihoyasini.
Hamroh unga gohi zafar, gohida alam,
Tinglang, mana bir haqgo‘yning hikoyasini.
Aslida xos maktab erur naql-u tasavvur,
Ma’nosini anglay olgay qalb va tafakkur.

II

YIGIT MONOLOGI

1

Ulug‘ bir zot savob ishni har kun qil degan,
Kattaga ham, kichikka ham farzdir bu o‘git.
Gavjum yo‘ldan bu tarafga o‘tolmay turgan
Qariyaning holatini bir tasavvur et!
Balki unga yordam qo‘lin cho‘zmoqqa shaysan,
Lekin nega madad bergach, haqin so‘raysan.
Savob shumi?

2

Har kimsa ham yumush qilsin qarab kuchiga,
Har kimsa ham muammosin yecholsin eplab.
Lekin o‘g‘ri, muttahamga, tovlamachiga
Imkoniyat berib qo‘ysang, bu qandayin gap?
Bir do‘stingga omonat mol jo‘natsang agar,
Yo‘l-yo‘lakay yeb qo‘yarlar yarmin muqarrar.
Insof shumi?

3

Bir olimning nomin sotar ming bitta johil,
Bir dahoning soyasida gerdayar millat.
Garchi ko‘pdir bu dunyoda donishmand, oqil,
Har kimga ham yoqavermas bunaqa nisbat.
Barchasini ochiq-oydin ko‘rib turarlar,
Lekin nechun fozillarni yerga urarlar?
Adolat shumi?

4

Hali so‘fi tahoratin olmasdan avval,
Ibodatin boshlamasdan hattoki Haqqa
“Assalom!” deb o‘rnimizdan qalqardik har gal,
Bir xalq ta’zim qilar edi ikkinchi xalqqa.

Ustozlarga ergashardim, pildirar edim,
Men o'zim ham "Assalom!"deb chuldirar edim.
Diyonat shumi?

5

Men yaxshilik tilar edim Insoniyatga,
O'ylardimki, ezgulikni kuyladim faqat.
Lekin, afsus, yetolmabman qutlug' niyatga,
Kurashmog'im kerak ekan balki beshafqat.
Irodasiz do'stlarimning kasri uchun ham
Peshonamga yozilibdi do'zax, jahannam!
Kafolat shumi?

BIRINCHI KO'RINISH

Mahshar sahrosida g'ujg'on olomon. **Tarozibon** huzurida **Yigit** va **O'zga odam.**

Yigit
Mahshar tongi asta-sekin oqarib kelar,
Ko'z oldimda sodir bo'ldi Ulug' Qiyomat.
Necha yuz yil davom etdi, bilmam, bu yo'llar,
Tarozibon qoshiga ham yetdik, nihoyat.
Taroziga tushar emish gunoh va savob,
Qaysi biri ko'proq ekan peshonamizda?!
Ne bo'lsa ham, tarozisi bo'lmasin nobop.

O'zga odam
Tarozibon ne desa shu, ishonamiz-da!
Qaysi kuni yig'lab ketdi bir mo'ysafid chol,
Yetti bora haj savobi bo'lmabdi qabul.

Yigit
Nechuk endi?

O‘zga odam
U dunyoda yuz berib qay hol,
Otasini sansiragan ekan bir bor ul.

Yigit
Ming martaba shukur bo‘lsin parvardigorga,
Mendan rozi ketgan ekan qiblagohlarim.
Es bilmagan go‘daklikni yo‘ysak bekorga,
Sensiragan emasman men, yo‘q gunohlarim.

Do‘stlar bilan kaltaklashgan chog‘larim bo‘lgan,
Har xil kufr ishlarim ham ko‘pdir, bilmadim.
Balki mening gunoh xaltam limmo-lim to‘lgan,
Lekin ota hurmatini kanda qilmadim.

Tarozibon
Bildik, sipo zot ekansan, na xor-u na xas,
Navbating ham yetib qoldi, titrama, yur sen!

O‘zga odam
(titrab tarozibonga yaqinlashadi)
Salom, taqsir, bismillohir rahmonir rohiym.

Tarozibon
(qo‘lida daftarchasini varaqlab)
Bu yoqqa tur. Isming nima? Hojati ham yo‘q,
Tamg‘a bosib qo‘ygan ekan senga Ollohim.
Sening joying arosatda. Ko‘ngling bo‘lsin to‘q.

O‘zga odam
Taqsir, agar ruxsat bo‘lsa, bir savolim bor,
Umrim o‘tib, ilk martaba so‘z so‘rashim bu.

Tarozibon
Ha, tushundim. Do‘zaxdan ham bo‘lma umidvor,
Sening joying arosatda, tayin dedim-ku?

O‘zga odam
Taqsir, mening eng so‘nggi bir arizam shulki,
Nahot bekor ketaversa shunchalik tavof?!

Tarozibon
Gapni cho‘zma, arosatga borasan, chunki,
Sen na gunoh qilgansan-u, na zarra savob.
Qani kim bor?!

O‘zga odam
(tarozibondan uzoqlashadi)

Yigit
Xayr, birodar. Nima bo‘ldi?!

O‘zga odam
Arosatga.

Yigit
Xudo saqlasin!

Tarozibon
(Yigitga)
Hoy, yigitcha, imillama, karmisan battar,
Chidab kelgan bizning jonni Xudo yoqlasin.
Ming yilmikan tarozuning boshida joyim,
Jannat, do‘zax to‘lsa to‘lar, to‘lmas bu do‘kon.
Marhamatin darig‘ tutmay qodir Xudoyim,
Odamzodni sanamasdan yaratgan ekan.
Koshki bular farishtaga o‘xshasa sal-pal,
Shular kelib bu dunyo ham buzilib ketdi.
(ichkariga qarab)
Hoy, yugurdak, qara deyman, chilimga suv sol!

Yigit
Amakijon, men keluvdim, navbatim yetdi.

Tarozibon
Amakingni topib bo‘psan, jindek sabr qil,
Bizlarning ham jonimiz bor, biz ham mute’miz.
Nainki sen, ishlayversak bizlarning ham, bil,
Og‘zimizga kelib qolar ona sutimiz.
Sen qayoqqa shoshmoqdasan? Shuncha yil kutding, —
Qora go‘rda ko‘kragingni bosgancha zaxga,
Payt kelganda barchasini nahot unutding?
Shoshma, yigit, ulgurasan o‘sha do‘zaxga.

Yigit
Balki jannat kutmoqdadir...

Tarozibon
Qaydan bilasan?
(ichkariga)
Hoy, chilimni keltir deyman!

Yugurdak farishta
(ichkaridan)
Hozir, xo‘jayin!

Tarozibon
(Yigitga)
Sendaylarga do‘zax yaxshi, mulla bo‘lasan.

Yigit
Agar yordam qilsangiz-ku jannat ham tayin.
Ancha-muncha savobim ham bordir, o‘ldimi?!
Qarasangiz bo‘lar edi tezroq, amaki.

Yugurdak farishta chilim keltiradi.
Tarozibon chilimni peshlaydi.
Shu ham axir kayf bo‘ldimi, chilim bo‘ldimi,
Bilmasman hech, berganlari xasmi, tamaki.
Bir zum hordiq chiqarayin,

(Yugurdak farishtaga)

Hoy, sen bolakay,
Hisoblab kel menga buning qilmishlarini.
Sal yanglishsang, bilib qo'ygin, holing bo'lar voy,
(bir daftarcha uzatib)
Shu daftardan topajaksan bor ishlarini.
Bugungi kun hisobidan o'n minginchi bu.
Daftarchada qalam bilan belgi qo'yganman,
Bir ozgina dam olaylik, horib bo'ldim-ku.
Rostin aytsam,
shu ishlardan charchab to'yganman.
(Yigitga)
Qani, o'tir, yaqinroq kel, sen ham horibsan,
Omad kelib tushib qolsang behishtga shoyad.
Bu olamga ancha erta kelib qolibsan?
Boisi ne, falokatmi yoki jinoyat?

Yigit
Bir falokat yuz bergandi toshqin mahali,
Qizaloqni soy suvidan qilgandim xalos.

Tarozibon
Shunaqa de? Ammo, lekin yetmas bu hali,
Ba'zi ishlar bo'ladiki tasodif, xolos.
Savob degan narsa axir tasodif emas,
Yetmish ikki tomirdan u oqib kelgusi,
Yaxshi odam yaxshiligin anglamay qolmas,
U vijdonni bir vazifa deya bilgusi.
Qaysi kuni bir noshukur do'zaxga ketdi,
Men o'zim ham bir musht urdim,
rostin aytganda.
Qurib ketgan, suyagiga yopishgan eti,
Qalbi to'la hasad ekan — noshukur banda.
Qancha-qancha begunohning boshiga yetgan,
Hatto bola-chaqasiga urmish gunohi.
Kim bilsin, u do'zaxga ham chap berib ketgan,
Ha, bolakay, keng ekan-da Xudo dargohi.

Yigit
Bizlarning ham mahallada bor edi bir zot,
O'sha qayga borgan ekan, aytsangiz bilib.

Tarozibon
Kim edi u? Tekinxo'rmi, kofirmi, shaddod?

Yigit
Salom bersang cho'ntagingni ketardi shilib,
Kimdan zarra foyda chiqsa o'sha zahoti
Borib yotib olar edi ostonasiga.
Tovlamachi odam edi, o'tdi hayoti,
Tavqi la'nat osilmasdan peshonasiga.

Tarozibon
Kim biladi, unaqalar ko'p axir, ukam.
Kim ham axir bundaylarni yo'lga solibdi...
Qaysi kuni bittasini do'zaxga yozsam,
Go'ring kuygur naq jannatga o'tib olibdi.
Qayta olib kelishadi, yozib yubordim,
U nokasni tiqajakman do'zax qa'riga.
Inobatga o'tar axir mening ham qahrim,
Odamlar u, chidaydigan bari-bariga.
Balki sen ham o'g'ridirsan yo nokas, sulloh,
Turgandirsan noilojdan bo'yningni burib.
Balki olgan sal barvaqtroq joningni Olloh,
Gunohlarni qilmagansan balki ulgurib.

Yugurdak farishta ichkaridan chiqadi, qo'lida gunoh-savob daftarchasi.

Yugurdak
Mana, taqsir, olib keldim, tekshirib ko'ring!
Ikki paysa yetmas ekan behishtga.

Yigit
Hayhot!

Tarozibon
O'zingni bos, peshonangni ming joyga urgin —
O'zgartirgay taqdiringni na oh, na faryod —
Demak, sening gunohlaring haddan ziyoda,
Jahannamga borajaksan nachora, axir,
Bo'yningni eg, tavba qilgin, boqiy dunyoda
Boshqalarday bir bandasan,
Farqing yo'q taqir.

Yigit
Men do'zaxdan cho'chimasman, ustimdan kulma,
Men chidayman,
ammo qayda haqiqat, imon?

Tarozibon
O'zingni bos, hoy yigitcha, shakkoklik qilma,
Xudoyimning qahri yomon, g'azabi yomon!

Yigit
Men do'zaxdan ming martaba dahshatli bo'lgan
Hodisalar va kunlarni ko'rganman avval.
Men shaytondan ming martaba dahshatli bo'lgan
Olchoqlarni ko'rib, chidab turganman avval.
Lekin, ayting, qayoqda u oliy haqiqat?
Ketayotib faqat shuni bilmoq istayman.

Tarozibon
Sendaqangi botirlarni ko'rganman faqat —
Mayli, sening javobingni bermoqqa shayman.

Yigit
Nechun endi faqat mening?

Tarozibon
Chunki bir zamon
Sen qutqazgan u qizaloq menga xizmatkor.

Yigit
Yo Ollohim! Nechuk endi u jannatmakon
Xizmat qilib yurar ekan bu yerda bekor?

Tarozibon
Sabab shukim, u begunoh qizcha — farishta,
Mayliga u imon tilar senga Tangridan.
Xo'sh, sen uni qutqazibsan, qulluq bu ishga.
Lekin qismat og'irroq-ku buning baridan.
Sen jannatiy ish qilibsan buning uchun, bas.
Deylik bir zum qulluq bilan qilaylik ta'zim.
Lekin gunoh degan gap ham ro'y-rost ish emas,
Uni ko'rib ko'rmaslik ham gunohi azim.

Yigit
Mening qanday gunohlarim bor ekan, qani,
Iltimosim, eng og'irin bersangiz aytib.
Yana ayting, gunoh ishni ko'rgan mahali
Bo'lganmikan tilim tishlab o'girgan paytim?

Tarozibon
Aylantirma gapni buncha, ikkalamiz ham
O'zimizni galvarslikka solmaylik bekor.
Seni yaxshi taniyman-ku, sen sohib qalam,
Sen shoirsan!

Yigit
Vallohu a'lam!

Tarozibon
Shoshmay tur, gap bor.
Sen shoirsan, senga Olloh yorug' nur berdi,
Otash berdi, zabon berdi, ham ulug' yurak.
Timsolingda bechoralar o'z dardin ko'rdi,
Baxtin ko'rdi, shodliklarin ko'rganlar beshak.
Boya senga bir bandani aytib bergandim:
Qora yurak, hasadgo'y ham manfur va olchoq.

O‘zgasini qiziqsinib o‘zing aytganding:
Tovlamachi va tekinxo‘r, sulloh, yalinchoq.
Taniysanmi sen ularni?
(tepaga qarab)
Yo qodir egam,
Pardayi xob orqasidan ularni ko‘rsat!

Ikki arvoh namoyon bo‘ladi.

Yigit
Hayhot! Meni jahannamda yondirgin, biroq
Ko‘rsatmagin sen bularni, ko‘rsatma faqat!

Tarozibon
Tanidingmi?

Yigit
Ha, tanidim.

Tarozibon
Aybingni endi
Biroz anglab olgandirsan, zukkosan, gapir.
Ular qancha bandalarning boshiga yetdi.
Sen ularni ko‘rib, bir so‘z dedingmi axir?
Ilohiy dil bergan edi senga xudoyim,
Quloq sol deb sho‘rliklarning ohi-vohiga.
Sen-chi, samo shu’lasini kuylading doim,
She’rlar bitding yulduzlarga, gulga, ohuga.

Yigit
Men iqrorman.

Tarozibon
Ammo endi foydasi yo‘q-ku,
O‘z umrini yashab bo‘lgan endi odamzod.
Achinaman senga, inim, inimsan, chunki —
Gar qanoting bo‘lmasa-da sen ham parizod.

Qodir Egam muhiblarin siylagan mahal
Shoirlarni kiritmishdir pari qavmiga.
Farishtalar til farqlamas, millat ham azal,
Ular faqat quloq tutgay ko'ngil mayliga.

Yigit
Bu gaplarni oshirdingiz me'yoridan sal,
Eshitganmiz bundaqangi kinoyalarni.
Gunohimga iqrorman men, tonmayman tugal,
Yuzga solmang, lekin har xil rivoyatlarni.
Mayli, do'zax tublarida kuyib kul bo'lay,
Mayli, qaynoq daryolarda oqsin suyagim...
Ko'zlarimdan qon, yosh oqsin, zardobga to'lay,
Faqat bordir Ollohimdan bitta tilagim.

Tarozibon
So'yla, qani, otash to'la shu ko'kragingdan
Haqiqatning shu'lalari chiqsin so'nggi bor.

Yigit
Menga bir joy ko'rsatingki do'zax qa'ridan,
Toki o'sha arvohlarni ko'rmayin zinhor!

Tarozibon
Suhbatimiz mahsulidir bundayin talab,
Og'ir talab, rostin aytsam, bundaqa joy yo'q.
Bilmoqdaman, ko'kragingda isyonkor bir qalb,
Men o'zim ham senday edim, hozir-chi, maxluq..
Bor, sen hozir, arosatning dashtini aylan,
Mayli, jannat darvozasin qoshiga borgil.
Ikki paysa savobni sen topishga shaylan,
Mayli, yig'la, iltimos qil, mayli, yolvorgil!

Yigit
Yolvormasman, yig'lamasman, bu qandayin gap,
Boshqalardan savob olsam gunohim uchun.

Mayli, ketay do‘zax sari hech tortmasdan tap,
Mangu azob chekmoqqa ham yetadi kuchim.

Tarozibon
Ko‘p qaysarlik qilma, inim, bu azob boqiy,
Foniy dunyo azobi ham senga yetarli.

Yigit
Menga yana nechuk kerak o‘zgalar ohi,
Qarg‘ish o‘zi bor ekan-ku, ancha aytarli.

Tarozibon
Har kimdan ham so‘ramassan, albatta, savob,
Sen deb kim ham rohatidan kechar, ukajon.
Sen otangni va onangni ko‘rarsan shu tob.

Yigit
Men ularni ko‘ramanmi?

Tarozibon
Men aytsam, inon!

Yigit
Oh, falakning yulduzlari, chaqnang tobora,
Farishtalar, baxtlimassiz men kabi alhol.
Men do‘zaxda yonay, mayli, lekin bir bora
Men ularni ko‘rajakman, bu nechuk visol?

Tarozibon
Ha, ko‘rasan, lekin shuni unutma aslo,
Ahvolingni bayon qilgil farzandlarga xos.
Zora ular iltijosin tinglab taolo,
Jannat yo‘lin sen uchun ham ko‘rsatsa ro‘yirost.

Yigit
Rahmat senga, xolis xilqat, oliyhimmat zot,
Sendaylarni yaratibdi — Tangriga shukur.

Mening uchun bu yo'rig'ing oliy mukofot,
Ota-onam visolini ko'rayin bir qur.
Lekin bilgil, men ularga arz etib beshak,
Savob so'rab yig'lamasman, kechirsin Xudo.
O'zlariga yetmas balki, menga vasl kerak.
Balki qayta ko'rishmasmiz, xayr, alvido!
Menga visol kerak faqat.

(chiqib ketadi)

Tarozibon
Hoy, yana kim bor?

PARDA

IKKINCHI KO'RINISH

Arosat yalangligida **Yigit** yolg'iz o'zi.

Yigit
Umrim o'tdi sarsonlikda, sargardonlikda,
Yaxshi-yomon zamonlarni ko'rib keldim men.
Ba'zan ma'no topa oldim chin insonlikda,
Ba'zan esa uni yerga urib keldim men.
Mana, o'sha tarozibon, u-ku, farishta,
Insonlardan ko'ra yuksak turajak-ku u.
U zotga ham qiyin ekan bundaqa ishda,
Ko'zlarida allanechuk norizo tuyg'u.
Qiyin axir ularga ham, qalblari bordir,
Qiyin axir ularga ham — bordir ko'zlari.
Faqatgina farmon berar Ollohi qodir,
Lekin qalbni anglamaydi qizlar singari.
Endi qayga borsam ekan bu dasht, sahroda,
Qayga borib, padarimni kimdan so'rasam?
Bilolmasam, kim do'zaxda, kim arsh-a'loda..

Yigit qarshisida **Chol** paydo bo'ladi

Chol
Ha, yo'l bo'lsin, mulla yigit?

Yigit
Vallohu a'lam!

Chol
Kimsan, o'g'lim? Yo'ling qayga, imoning butmi?
Qadamingdan podsholarning hidi keladi?
Lekin endi hammaga bir Tangrining hukmi.
Kim jannati, kim do'zaxi — o'zi biladi.

Yigit
Ota, Adam sahrosida yo'lchiman tanho,
Do'zaximan, xudoyimning hukmiga ko'ra.
Marhamatin darig' tutmay Ollohim ammo
Visol uchun ruxsat berdi.

Chol
Erishsang zora.
Kim bilan sen uchrashmoqchi bo'lganding, o'g'lon?
Gar men bilan bo'lsa, qani, gapir, tinglayin.
Agar qarzing qolgan bo'lsa — aytgin shu zamon,
Aqcha emas, duo bilan, mayli, to'layin.

Yigit
Hech kimsada qarzim ham yo'q, oldi-berdim ham,
Garchand meni talamagan nokas qolmagan.
Aqcha uchun ikki dunyo chekmasman alam,
Zotan, uning o'zi menda sira bo'lmagan.

Chol
Hoynahoy, sen biror qizni ko'rmoqchidirsan,
Qasam ichgan bo'lsang kerak ikki dunyoga?

Yigit
Oh, otajon, qaniydi men sevilgan bo'lsam,
U qiz meni tanimagay yer-u samoda.

Chol
Unda kimni ko'rmoqchisan?

Yigit
Ota-onamni,
Endi so'ng bor ruhlariga boshimni egsam.

Chol
Buzrukvoring kim edilar?

Yigit
El chekkan g'amni,
Daf etuvchi bir zot edi, tabiblar otam.

Chol
Shunaqa de?! Otang bilan ikkalamizning
Vazifamiz o'xshash ekan.

Yigit
Siz kimsiz?

Chol
Go'rkov!
Shundoq, go'rkov, senga aytsam, har bittangizni
Bu yoqlarga olib kelgan ikkovmiz, ikkov.
U o'ldirgan, men bo'lsam-chi, o'zing bilasan,
Yer ostiga jo qilganman otang gunohin.
Ko'p masxara qilishardi bizlarni, bilsang,
Oh, tiriklar qaydan bilsin go'rkovlar ohin.
Menga, mana, jannat ato qildi Xudoyim,
Holbuki men odamlarni go'rga tiqardim.
Gap shundaki, yaxshilarni ko'mganda doim
Tuni bilan uxlayolmay yig'lab chiqardim.
Yaxshilari bor, albatta, tabiblarning ham,
Ana, biri hamroh bo'lib yuribdi menga.
Tuzuk odam, ha, chindan ham jannati odam,
Ana, o'zi kelayotir, tanitay senga.

Ota yaqinlashadi. Dastavval u **Yigit**ni —o'g'lini payqamaydi.

Ota

(go'rkov cholga)

Xo'sh, og'ayni, yo'lni endi jannatga boshla!

(o'g'liga ko'zi tushib)

Manovi kim? Tushimmi, o'ng?

Yigit

Ota, otajon!
O, Ollohim, boshimizga osmonni tashla,
Qaytdimi-a, qaytmas deya nom olgan zamon!

Ota

(o'g'li bilan ko'rishadi va go'rkov cholga)

Mening pushti kamarim bu, suyukli o'g'lim,
Nuridiydam vasli uchun Tangriga shukur.

Chol

Hasratlashib oling, mayli, men kutay bir zum.
Kampirni ham ko'rsaydingiz, boboyi tushkur.
Men befarzand bir odamman...

Yigit

(go'rkovga)

Rahmat, ey bobo,
Yor bo'lgusi sizga shoyad abadiy rohat.

Chol

(yigitga)

Tangri senga yo'ldosh bo'lsin, mayliga, ammo.
Hamrohimni xafa qilib qo'ymagin faqat.

Go'rkov chol uzoqlashadi.

Yigit

(bir necha daqiqadan so'ng)

Mendan rozi ketgandirsiz hoynahoy, dada,
Kimga fursat beribdi bu yugurik olam.

Ba'zan imkon topolmadim rostin aytganda,
Mo'jazroq bir tosh qo'ygandim qabringizga ham.

Ota

Marhumlarning hurmatini bajo etmoqlik
Tiriklarga ibrat uchun topilgan bir yo'l.
Murdalarga nima kerak? Faqat kafanlik,
O'g'lim, sendan men roziman, roziman butkul.
Yuragingda asrading sen ota hurmatin,
Marmartosh ham qo'yding mening tepamga, biroq
Kim munosib farzand bo'lsa, padar shavkati
Fir'avnning ehromidan bo'lar balandroq.
Bir qariya yotar edi mening yonimda,
O'g'li uning tepasiga qo'ydi ulkan tosh.
Biroq bir kun iblis kirdi o'g'il qoniga,
O'g'il bir kun tamasini aylab qo'ydi fosh:
Qabrtoshda o'zin ismi yozilmay qolmish,
Sangtaroshni olib keldi bir kun u nokas
Va o'z ismin o'ydirdi ham, bu savob emish,
Yo'q, bu savob atalmagay, manmanlik, xolos.
Qabristondan o'tib qolgan birorta kimsa
Hashamatli marmar toshni ko'rib qolgan on,
O, bu toshni qo'ygan falon azamat desa,
Ota emas, o'z obro'sin bilgan u inson.
Ko'ryapsanmi, inson zoti o'limni hatto
Manmanligi uchun ro'yirost ishlatmoq bo'lar.
Oqibati nima kechdi? Yetdi-yu fano
Hammasi ham yo'qlik sari ayladi safar.
Mendan avval sho'rlik onang o'tdi olamdan,
Mana, bugun ko'ribsanki, hammamiz foniy.
Biror xabar bormi, bilmam, sho'rlik onangdan.

Yigit

Sizni ko'rib turishim shu — kelganim oni.
Tarozibon qoshigacha yurdik necha yil,
Uning hisob-kitobidan sal avval o'tdik.

Ota
Endi jannat quchog‘iga borarmiz, o‘g‘il?

Yigit
Yo‘q, dada, men do‘zaximan.

Ota
Nimaga? Nechuk?

Yigit
Qo‘ying, bu hol yangilikmas men uchun, dada,
Olib qo‘ygan ko‘rinadi joyimni birov.
Bu dunyo ham olg‘irlarga boqar ekan-da.

Ota
Qo‘ygin, bolam, hazil qilma, qismat beayov!

Yigit
Bundan ortiq qismat bo‘lmas axir, dadajon,
Jazo uchun joy bormikan do‘zaxdan ortiq?
Endi menga baribirdir yer bilan osmon,
Do‘zax ekan xizmatimga berilgan tortiq.

Ota
Ne qilayin, ayblamasman Olloh dargohin,
Garchand sening qismatingdan chekmoqdaman oh.
Bor ekan-da, men bilmagan og‘ir gunohing,
O‘g‘lim, axir pok eding-ku, nur kabi, e voh!
Sendan rozi yurar edi katta-yu kichik.
Goho kelib roziligin menga aytardi.
Nechun endi do‘zaxisan? Nimaga? Nechuk?
Qaysi nokas gunohini senga ag‘dardi?

Yigit
Ha, dadajon. Hamma gap ham ana o‘shanda.

Ota
Nahot birov gunohlari senga yozilmish?

Yigit
Ha, dadajon, o‘zgalarning gunohi menda,
Nokaslarning gunohlari menga yozilmish.

Ota
Nima uchun? Joyidami, es-hushing, o‘g‘lim,
Chalkashtirib qo‘ymoqdasan har xil gaplarni.
Nokaslarning gunohiga javob berar kim?
Deylik, birov zino qilsa — senga xatlarmi?
Tushunmadim men sira ham.

Yigit
Eshiting, dada.
Siz javobgar bo‘lgandingiz bemorlarga.
Siz qanchalar qayg‘urgansiz ular o‘lganda,
Sog‘ayganda bo‘lardingiz xursand beqiyos.
Vazifamga ko‘ra men ham tabibroq edim,
Insonlarning ruhlariga edim javobgar.
Ruhi *majruh nokaslarni ko‘rsam, ne qildim,*
O‘z tinchimni o‘ylab nari qochganman battar.
Ular esa bamisoli quturgan itday
Ruhimizga solar edi, g‘ulu, qatag‘on.
Ojizlarni talar edi bijg‘igan bitday,
Bir pul bo‘lib qolar edi nomus, or, vijdon.
Ojiz qolgan bechoralar aylanib boshi
Sizdan dori so‘rar ekan endi o‘ylasam.
Barisiga men kabilar aybdordir rosti.
Men jazoga munosibman, o‘ylab qarasam.
Ammo, afsus, endi qayta o‘tmas odamzod.
O‘z umrini yashab bo‘ldi, yo‘qdir foydasi.

Ota
O‘ylantirib qo‘yding meni, bu qanday bedod,
Axir har bir hukm joriyning bor qoidasi.
Sen o‘z qo‘ling yetgunicha ish qilar eding,
Boshqasiga qolar eding axir noiloj.

Sen o‘zing ham boshqalardan g‘am ko‘rar eding,
Yo‘q edi-ku, o‘g‘lim, senda saltanat va toj.
Nahot endi hammasiga sen javob bersang,
Axir o‘zing pokdomonmi — shuning o‘zi, bas,
Ig‘volarga balogardon bo‘larding, bilsang,
Nahot o‘sha savobing ham bo‘libdi abas.
Abdullatif gunohi ham sendadir balki,
Kechir meni, Parvardigor, o‘zingsan hakam.

Yigit
Dada, Xudo boshqarmagan hech qachon xalqni,
Ixtiyorin bergan edi lekin chinakam.
Kimlarnidir yo‘ldan urgan hazrati shayton,
Kimlarnidir bandam degan Tangri taolo.
Shayton gapin muridlari bajargan obdan,
Xudo yo‘lin bandalari unutgan goho,
Hamma balo ana shunda, Qodiri G‘affor
O‘sha no‘noq bandalarni kechirmas hech bir.
Parvo qilmang, dadajonim, bahona bisyor,
Qismatdir bu, qabrda ham tuzalmas bukur.

Ota
Xo‘sh, bu yog‘i ne kechadi?

Yigit
Do‘zax — nadomat,
Lekin sira anduh chekmang men uchun, dada.
Qiynoqlarni ko‘p ko‘rganman avval ham, faqat
Alam qilar ikki paysa yetmay qolganda.

Ota
Yetim qoldim yoshligimdan men ham otamdan,
Odamlarning eshigida sanqidim itday,
Hatto do‘zax lol qotardi men chekkan g‘amdan,
Lekin shayton yo‘rig‘iga yurmadim qittay.
Urushlarda bo‘ldim qancha, o‘lmagan jonim,
Peshonamga yozgan ekan farzand, oila.

Sizlarni deb butun umr oqardi qonim,
Foniy umrim yashab o'tdim tashvishlar ila.
Imonimni butun qilib Olloh serkaram
Menga jannat darvozasin ko'rsatdi, shukur.
Oh, uchma-uch kelgan ekan savoblarim ham,
Lekin senga ikki paysa beraman.

Yigit
Hech bir.
Yetti qavat yer qa'riga tiqsa ham Tangri
Men dadamni jannatdan hech qilmasman judo.
Kechiringiz, dadajonim, bois safarim —
Vaslingizga kelgan edim, xayr, alvido!

Ota
Yo'q, yo'q, to'xta!

Yigit
Xayr, otajon, urinmang bekor,
Sizni yo'ldan qoldirmayin, garchi ketgum yo'q.
Bu ayriliq mangulikdir, oh na chora bor,
Tangri hukmi har narsadan oliy va buyuk...

PARDA

UCHINCHI KO'RINISH

Jannatdagi g'oyat go'zal qasr. Bu qasrda **Ona** istiqomat qiladi. Atrofida farishtalar

Farishtalar tilovati

Parvardigor shafqatni
Ixtiyor etdi.
O'n sakkiz ming olamni
Yo'qdan bor etdi.
Bandasiga bildirib

Ko‘ngillarini.
Tayin etdi payg‘ambar —
Rasullarini.
Hazrat Odam shu taxlit
Fasona bo‘ldi.
Maloyiklar Odamga
Parvona bo‘ldi.
To‘lsin boqiy farog‘at
Ushbu xonaga.
Rahmat nuri dastavval
Mushfiq onaga.

Ona baland taxtda.

Ona

Bir dahshatni sezayotir yuragim tayin,
Bezovtaman, bezovtaman anchadan buyon,
Garchand jannat oromiga noil bo‘lmayin,
Nimagadir yuragimda g‘ashlik hukmron.
Tavba, nechuk hasrat ekan mening hasratim,
Ona zoti ikki dunyo nahot tinchimas.
Tug‘ilgandan to so‘nggi dam farzand qismati
Onalarning qismatiga bo‘lganmi payvast...
Nuri diydam qayda ekan? Kim ham bilardi...
Ha, Ollohning dargohi keng, shahri ham katta.
Imkon bormi? Uni qanday ko‘rib bo‘lardi?
Uyda bo‘lsa, kelar edi o‘zi, albatta.
Daydi bo‘lib o‘smagandi o‘g‘lim har qalay,
Kutdirmasdi, uzoq qolsa maktub yozardi.
Bu yerda-chi, ko‘rishmoq yo‘q, afsus, na qilay,
Bu yerda yo‘q birov bilan birovning dardi.

Hur qiz yugurib kiradi.

Hur qiz

Qutulmadim, qutulmadim shulardan, e voh,
Har qayerda bir go‘r ekan bu yigit zoti.

Farishta
Ilakishib qoldimikan birorta arvoh,
Faqat, faqat nolib o'tgan buning hayoti.

Hur qiz
Nolimaymi? Hur ketsam-da boqmasdan, mana.
Mahramlikka keltirdilar, jannat behuda.
Sabab nima? Sabab — fe'ling yengil derlar, ha,
Haqiqatni topolmasdan kuyganman juda.

Ona
Ne gap, qizim? Bezovtasan, nima gap o'zi?

Hur qiz
Yo'q, yo'q, bekam, afv etingiz, shunchaki bir gap,
Nogahonda tushdi menga nomahram ko'zi.
Bu yerda ham bor shekilli bir xotintalab.
Ostonada o'ltiribdi merovlanib u.
Gap so'rasang, allanechuk duduqlanadi,
Tanir edim sizni, deydi, shunday deydi-yu,
Tupugini ichga yutib ham suqlanadi.

Ona
Balki biror tanishingdir, balki bir Majnun,
Balki mening o'g'lim kabi kuygan bir yigit?

Hur qiz
Tanimasman, ko'rmaganman, yot u men uchun,
Balki biror do'zaxidir, shilqim, besubut.

Ona
Kim ekan u? Bu qasrda qandoq ishi bor?
Nomahramlar nechun buyon qilibdi jur'at?
Har xil devlar kezar bunda, qo'lida cho'qmor,
Lekin qadam bosmas edi bandasi faqat.
Balki biror o'tkinchidir, balki, ehtimol...
Shundaqalar bo'lardi-ku u dunyoda ham.

Elimizda yaxshi odat bor edi, alhol,
Musofirdan ahvol so‘rash savob chinakam.
Chaqiringiz!

Hur qiz
Bekam, axir mumkinmas sira,
Erkak zoti bu qasrga qadam bosmagay!

Ona
Men — insonman! Agar inson bo‘lsa bokira,
Iblislarning qutqusiga quloq osmagay!
Tag‘in shuni unutmangki, unvonim — Ona!
Yuragimda ne kechishin bilolmassiz siz.
Siz-ku axir erta-yu kech menga parvona,
Buyrug‘imdan o‘zga bir ish qilolmassiz siz!

Hur qiz
Yo‘q bekachim, bu shunchaki yuzaki xizmat,
Aslida biz intizomga posbonmiz atay.

Ona
Shunaqami?
Xo‘p g‘alati ekan-ku jannat,
Posbonboshi kelganida bu sirni aytay.

Hur qiz
Yo‘q, bekachim... men shunchaki chalg‘idim gapdan,
Istasangiz kira qolsin... Mayliga... ma’qul.
Lekin faqat gap tegadi.

Ona
Kimning tarafdan?
U niqobda kirsin, mayli. Xohishimdir shul!

Hur qiz chiqadi.

Ne qilardim? Har qayda ham nuqtayi nizom,
Jannatning ham bor shekilli o‘z yo‘sinlari.

O‘g‘lim nolib aytganiday, poylaydi mudom
Mahallada choyxonachi ko‘sa singari.

Hu qiz Yigitni niqoblangan holda olib kiradi.

Hur qiz

(Yigitga)

Niqobingni ocha ko‘rma, yo‘qsa bu zotning
Kuyib ketar savob bilan topgan dunyosi.

Hur qiz chiqadi.

Yigit

Oh, u qanday zot ekanki, o‘rtar sabotni,
Niqobdan ham o‘tayotir uning ziyosi.

Farishta

U — onadir, bandalarning ibtidosidir,
Unga hurmat joyiz erur ikki olamda.
Uning mehri samovotning ilk sadosidir,
Shu boisdan g‘alat hislar qo‘zg‘ar odamda.

Farishtalar tilovati takrorlanadi.

Yigit

(tiz cho‘kib)

Ruxsat aylang, o, buyuk zot, tiz cho‘kay sizga,
Har xil chuchmal tavozedan yiroqman garchand.
Nogahonda kirib qoldim huzuringizga,
Lekin ona ekansizki, men sizga farzand.

Ona

Yetar, yetar, tur o‘rningdan, oliyjanob zot,
Balki keksa murabbiysan, padarsan buyuk.

Yigit

Kim esak ham barchamizga bergansiz hayot,
Onasi bor har qandayin zotning har nechuk.

Ona
Ha, barchasin tushunaman, onaman, to‘g‘ri,
Lekin buni anglamadi odamzod tugal.
Ona o‘g‘lin ardoqlar, u bo‘lsa ham o‘g‘ri,
Lekin farzand ona qalbin uqmas har mahal.
Yer yuzida janglar kechdi qattiq, qatag‘on,
Onalarning diydasidan oqdi qonli yosh.
Unutmangki, moyil bo‘lsa janglarga o‘g‘lon
Ona qalbi shu qadarli tortadi yovvosh.

Yigit
Nomukammal edi zamin shu sababdan ham,
Necha-necha zotlar unda axtarmishdi yo‘l.
Lekin ajab tarovatli edi u olam,
Juda qiyin tiriklikdan uzmoqlik ko‘ngil.

Ona
Shundoq gaplar aytar edi o‘g‘lim har doim,
Esimdadir, so‘nggi nafas topshirardim jon,
U deb edi: “Yaratibdi bizni Xudoyim,
Nachoraki, uning o‘zi qiladi payhon.
Sabr qiling, der edi u, bo‘ling mardona”.
Ajib quvvat olgan edim taskin so‘zidan.
Sabr qiling, der edi-yu, lekin xufyona
O‘krar edi, yosh oqardi uning ko‘zidan.

Yigit
(chetga)
Vo ajabo, onamni ham xuddi shu taxlit
So‘zlar bilan kuzatgandim boqiy dunyoga.

Ona
U hayotni sevar edi bosiq va sobit,
U topinib yashar edi nurga, ziyoga.
Foniy dunyo azoblarin u tatib ko‘rdi,
Ig‘volardan tilka bo‘ldi gohida dili.

Qayda hasad urug‘ qo‘ysa, bilingki, derdi,
O‘sha joyda baland bo‘lg‘ay ig‘vo hosili.
Yolg‘iz edi dunyoda u, lekin chinakam
Yolg‘izlatib qo‘ygan edi hayot beshafqat,
Derdi mudom: “Bu dunyoning doim biri kam,
Orzu bilan yashab o‘tar odamzod faqat”.

Yigit

(sergaklanib)

Kim edi u?

Ona

Kim bo‘lardi bundaqangi zot?
Yo bir darvesh, yo bir olim, yo shoir axir.
Shoir edi mening bolam, sohibi ijod,
Qismatini o‘ylab tun-kun o‘rtanar bag‘ir.

Yigit

(chetga)

Qodir egam, so‘nggi bora sabot ber o‘zing,
Darig‘ tutma bardoshingni mendan banogoh.
Chora qayda? So‘nggi daf’a niqobda yuzim
Volidamga duch kelishni o‘ylabmidim, oh,
Chora qayda?

Ona

...G‘alat gaplar aytardi goho,
Esimda bor, erkalanib degandi bir gal:
“Har bir zotga yodgorlik bor, men bo‘lsam ammo
Qo‘yar edim “Yaxshi Odam” nomli bir haykal.
Sabab shulkim, yaxshi odam azizdir, noyob,
Sayyoralar to‘pi ichra quyosh misoli”.

Yigit

(chetga)

Oh, onamning huzurida turibman shu tob,
Yozmishimda shundoq ekan uning visoli.

Ahvolimni bayon etsam kul bo'lar kuyib,
Bekor bo'lib ketajakdir topgan jannati.
Diydoriga boqolmadim bir bora to'yib,
O'zini ham o'rtayotir hijron kulfati.

(Onaga)

Bovar eting so'zlarimga, ona, onajon,
Jannat ruhin tuymoqdaman suhbatingizda.
Gar qoida ko'tarsa-yu, izn etsa osmon
Bo'lar edim azal-abad xizmatingizda.

Ona

Kimsan o'zi?
Qanday zotsan? Ayon et, yo Rab.
Iltijoying yurak-bag'rim yubordi ezib.
So'zing tinglab va shikasta bastingga qarab
Ona qalbim nimanidir turibdi sezib.
Kim biladi, sen singari o'g'lim ham bu kun
Qaylardadir kezib yurar ovora, sarson.
Jannatdami, do'zaxda u — mubham men uchun,
Lekin meni ona deding, demak — farzandsan.

Yigit

Ona dedim, chunki axir onasiz, ona!
Siz ham axir onalikdan tona bilmassiz.
Meni bolam deyavering dildan, rasmona,
Garchand farzand diydoriga qona bilmassiz.

Ona

Netay, nochor ahvolingni turibman ko'rib,
Netay, bunda turli nayrang o'ylab toparlar.
O'zlarining ruxsorlarin ochiq qoldirib,
Sendaylarning yuzlariga niqob yoparlar.
Kim ekaning noayondir menga bu fursat.
Bilmasmen hech — maqsading ne? Muroding nima?
Olag'ovur ichra hozir do'zax-u jannat,
Kimligingni istasang — de, istama — dema.

Yigit
Men o'tkinchi bir kimsaman, muhabbat bois
Nogoh to'xtab o'tgan edim ostonangizda.
Men xush ko'rgan, ammo lekin hur ketgan bir qiz
Xizmat qilib yurar ekan koshonangizda.
Sevar edim men bu qizni qizg'in dil bilan,
Barbod etgan niyatimni lekin sarhadlar.
Mendan avval do'stim unga oshufta bo'lgan,
Ko'rishmadim, yozdim faqat turfa xil xatlar.

Ona
Ha, hur qizning u dunyosi qoradir butun,
U qismatga bo'y bermagan, qismat bunga yov.
Begonadan xufiya sovg'a olgani uchun
Bo'g'ib ketgan buni bir kun bo'lajak kuyov.
Ha, har kimning o'z dardi bor,
men bo'lsam, mana,
Kimni ko'rsam farzandim deb xayol qilaman.
Ma'zur tutgin kalovlansam, men axir ona,
Jannatda ham bolam deya sochim yulaman.

Yigit
(chetga)
Na chora bor? Onalarning yo'rig'i shundoq,
Mana, menda ikki paysa yetmas jannatga
Ahvolimni deyolmadim onamga biroq,
Savob kerak o'ziga ham axir, albatta!

Ona
Onang bilan ko'rishdingmi?

Yigit
Jannatda onam,
Loyiq qasr ato etmish Parvardigorim.
Mening uchun tiriklikda u chekkan alam
Yetib ortar, shu boisdan yo'q zo'r-u zorim.

Ona
Savob kerak barchaga ham halol, befirib,
Mana, mening savoblarim uchma-uch ekan.
Lekin uni ko'rsaydim gar, savobim berib
Do'zaxga ham ketar edim, kechirsin Egam.

Yigit
Hamma gap ham shunda, Olloh serkaram
Qo'sh yaratmish chora ila bechora so'zin.
Oftobsiz-ku, mahv bo'lardi zulmatda odam,
Ammo tika olmasdi ham oftobga ko'zin.
Men otamni ko'rib qaytdim, otam, xayriyat,
Noil bo'lmish farog'atli jannat vasliga.
Hosil bo'ldi, inshoollo, dildagi niyat:
Men ularni ko'rmoqchiydim — ko'rdim aslida.
Boshim oqqan tomon endi ketarman giryon,
Men singari chorasizlar izg'ib yuribdi.
G'ovur ichra to'ntarilib yotibdi jahon,
Bizdaylarni esa do'zax kutib turibdi.

Ona
Qandoq madad bersam senga?
Ushbu ma'noda
Ko'z yoshidan bo'lak ishga yetmaydi kuchim.

Yigit
Yo'q, onajon, alam chekmang, nurli dunyoda
Yashang, mayli duo bilan barchamiz uchun.

Hur qiz kiradi

Hur qiz

(Yigitga)
Bo'ldi, endi tark etingiz ushbu qasrni,
Posbonboshi kelib qolar, kun og'ayotir.

Yigit

(chetga)

Abadiyan olib ketgum, oh, ushbu sirni,
Yuragimga hech yorishmas tun og'ayotir.

(Onaga)

Sizning bilan vidolashmoq og'ir naqadar,
Bizdaylarni ko'p ko'rgan gar bu ko'hna dayr.
Endi sizga so'nggi so'zni aytay muxtasar:
Qulluq sizga, onajonim, alvido, xayr!

Ona

To'xta, to'xta! Menda ham bor so'nggi iltijo,
Niqobingni bir zum olgin, ey, yaxshi odam!

Yigit

Yo'q, onajon, yo'q onajon, mumkinmas aslo,
Onalarning haqqi erur rohatbaxsh olam.

Ona

Ne ham derdim, notanishsan sen menga zero,
Odamlarni o'xshash qilib qo'yarkan zamon.

(Hur qizga)

Kuzatingiz ushbu zotni.

(Yigitga)

Endi alvido!

Yigit

Alvido, ey mehribonim, xush qol, onajon!

Hur qiz Yigitni kuzatib chiqadi.

Ona

Mahbus kabi turaverib ushbu qasrda
Balki fahmim o'tmaslashgan, toliqqan ruhim.
Kim bo'ldi bu ajab odam? Kim u aslida?
Shunchaki bir o'tkinchimi? Kim bo'ldi u? Kim?

Nimagadir tanitmadi o‘zin, har qalay,
Yuragida dardi to‘la, alamzada zot.
Murojaat qildi menga ona deb atay.
Yongan dilim qayta boshdan o‘rtadi, hayhot!

Hur qiz kiradi.

Ona

(Hur qizga)

Kuzatdingmi?

Hur qiz

Ha, kuzatdim, esin qo‘ygan yeb,
Tushunmadim, murodi ne? Qanaqa dardi?
Ikkinchi bor vidolashdim onam bilan deb,
Katta yo‘lda dabdurustdan yig‘lab yubordi.

Ona

Nima? Nima? Chaqir uni, qaytaring zinhor,
Oh, jannating poymol bo‘lsin, boshimga yetdi!

Hur qiz

Fursat o‘tdi, endi uni axtarmoq bekor,
U ulkan bir izdihomga qo‘shilib ketdi.

Ona hushidan ketadi.

Farishta

(Hur qizga)

Nima qilib qo‘yding, axir, hoy iblis qizi,
Bechoraning jannatini qilding-ku abas.
Bejiz seni yengiltak deb aytmagan o‘zi,
Yo‘qsa hozir sirni ochmoq shartmidi, nokas!

Zulmat cho‘kadi.

PARDA

TO‘RTINCHI KO‘RINISH

Do‘zax darvozasi oldidagi ulkan xandaq. **O‘spirin** va qariya pachakilashib turgan bir holat.

O‘spirin
Talantliman!

Qariya
Talantlisan!

O‘spirin
Takrorla tag‘in!

Qariya
Kuni bo‘yi takrorladim, yetmasmi, bo‘tam,
Yolvoraman, biroz tinch qo‘y, shafqat aylagin.
Xudodan qo‘rq, chol kishini qiynama ko‘pam.

O‘spirin
Bilasan-ku, azaliydir bizning bu janjal,
Bir tomondan vakil sensan, bir tomondan men.
Hozir seni bo‘g‘ajakman, chunki menda gal,
Navbat yetgach, hunaringni ko‘rsatgaysan sen,
Talantliman!

Qariya
Talantlisan!
(O‘spirin qariyani bo‘g‘a boshlaydi)
Qo‘yvor, hoy kofir!
Ahli insof, yordam bering!

O‘spirin
Baqir, ha, baqir!
Ko‘ramiz, xo‘sh, qani kimning talanti baland.

Qariya baqira boshlaydi. **Yigit** kirib keladi.

Yigit
Kimdir bunda Isrofilning suridan ortiq,
Qiyomatni qoyim qilib dodlayotgan zot?!

(ularni ajratib, o'spiringa)
Hoy, insofing bormi o'zi, bu nima qiliq,
Bobong tengi bir cholni-ya? Qo'yvor, hoy, shaddod!

O'spirin

(Yigitga)
Do'zaxda ham tarbiyachi paydo bo'ldimi?
Voizmisan, nima balo, tavbangdan ketay!

Qariya

(Yigitga)
Ko'rib sen ham atvoriga ko'ngling to'ldimi,
Lekin navbat bunikidir, chidayman, netay.

Yigit
Hech nimani tushunmadim.

Qariya
Ha, sening demak
Sohang boshqa yo dunyodan g'ofilsan butkul.
Taraqqiyot timsolidir bizlarning yurak,
Necha ming yil tortishamiz men zo'r deb nuqul.

Yigit
Yig'ishtirib qo'ysangiz-chi, bu ishlarni siz,
Chol kishisiz, yarashmaydi sizga bu savdo.

Qariya
Iloji yo'q, navbat bilan tortishamiz biz,
Tangri bizga shul jazoni ko'ribdi ravo.
Kimdir aytib ketgan ekan: hasad degan dard
Eng avvalo o'z egasin kemirgay deb. Rost!
Menga sira kun bermaydi mana bu nomard,
Yosh boshiga klassikman deydi-ya paqqos.
Hozir buning navbatiydi, meni u bo'g'di.

Yigit
Sizning navbat kelganida ne qilasiz, xo'sh?

Qariya
Ne qilardim, og‘zi burni aralash to‘g‘ri,
Bulg‘alayman va hokazo, ko‘nglim juda bo‘sh.

Yigit
Yo, alhazar! Shuncha xormi inson degan nom.

Qariya
(O‘spiringa)
Hoy, yur deyman, tarixni bu tushunmas ekan,
Yur, chetroqda ishimizni etaylik davom.
Bilib qo‘ygin, hozir mening navbatim yetgan!

Ular chetga chekinadilar.

Yigit
Inson zoti, sening nedan kaming bor edi?
Senga Tangri bergandi-ku tafakkur, imon.
Zamin, havo, — bari senda barqaror edi,
Nechun dildan insof hissin aylading gumdon?
Axir sen it emasding-ku, belanib loyga
Bir-biringni g‘ajisang to suyak talashib.
Samimiyat qayda edi, tafakkur qayda.
Lug‘atingda gar bu so‘zlar yotdi qalashib,
Hasad, ig‘vo qaydan kirdi sho‘rlik kallangga,
Qaydan seni chulg‘ab oldi xudbinlik, kufr.
Nechog‘liq sen shirin eding go‘dak pallangda
Va nechog‘liq balchiq ichra kechirding umr.
Mayli, ko‘kda kamaysa ham birorta yulduz,
Yerda bitta yaxshi odam ko‘paysa, derdim.
Inson uchun asli kurash ekan-ku joiz,
Ha, do‘zaxi ekanman men, o‘zimdan ko‘rdim.

Kimsa hovliqib keladi.

Kimsa
Qutqaz meni, o‘n daqiqa gapimni tingla,
Yo‘qsa hozir kelib qolar mening kushandam.

Yigit
Oh, bechora, hovliqmagin, o‘zingni o‘ngla,
Sho‘rpeshona bir kimsasan bilsam, bilmasam.

Kimsa
Bir zo‘ravon meni sira holimga qo‘ymas,
Topshirganlar meni uning ixtiyoriga.
Shafqat degan narsani hech bilmaydi nokas,
Kunda bir bor pishib olar sassiq doriga.

Yigit
Qanday dori?

Kimsa
Bilmaysanmi? Yangisan demak,
Bir o‘raga tiqib olar aziz boshimni.
O‘n daqiqa so‘zlab olay, choram yo‘q bo‘lak,
Hisobga ol kasalimni, ko‘zda yoshimni.

Yigit
Xo‘sh, nimani so‘zlagaysan?

Kimsa
Yomonlayman, bil!

Yigit
Nima, nima!

Kimsa
Uqmadingmi? Ig‘vo qilaman!

Yigit
Xo‘sh, sen kimni yomonlaysan?

Kimsa
Menga baribir,
Ig‘vo bilan o‘z dardimga shifo qilaman.

Payg‘ambarmi, Xudomi u, insonmi, shayton —
Men ajratib o‘tirmayman, demokratman chin.
Go‘l ekansan, kallavaram, galvars va nodon,
Odammassan, toki menga tushmabdi ishing.

Yigit
Sendaqalar qayda o‘sgan bilmadim aslo,
Shu yerda ham hunaringni qo‘ymabsan, sho‘rlik.

Kimsa
Nega qo‘yay? O‘zi shundoq yaralgan dunyo,
Birov kosib, birov tabib — kasb-kor turlik.
Rostin aytsam, bir sen emas, hammang ham po‘kka,
Ikki dunyo haqiqatga o‘zimman nozir.
Tarozibon ustidan ham xat yozdim ko‘kka,
Olatasir, tekshir-tekshir u yerda hozir.

Yigit
Ha, yumushing og‘ir ekan.

Kimsa
Nimaga og‘ir?
Ota-onam orasini buzganman hatto,
Bir-birini zaharlashib o‘lganlar oxir.
Qaynonamni esa esdan qilganman judo.
Zir titrardi meni ko‘rsa hatto toj-u taxt,
Yer yuzida sarhad bilmay davron surganman.
Xo‘sh, jannating nima bo‘pti? Buzuq bir xilqat.
Unda pora olishganin o‘zim ko‘rganman.

Yigit
Bas qil, nokas, bas qil, nokas, muroding so‘yla,
Yana qanday kasaling bor ig‘vodan battar?

Kimsa
Kasalimmi? Og‘ir kasal. Tanangga o‘yla,
Tek tursam gar, bor vujudim tinmay qichishar.

Yigit
Yo‘qol bundan, la’nati zot!

Kimsa
(ketayotib)
Aynidi bu ham,
Inshoollo, yaqin kunda tentak bo‘ladi,
Bir bor o‘lsa Azroilning qo‘lida odam,
Kaminaning dastlarida ikki o‘ladi.

PARDA

BESHINCHI KO‘RINISH

Yigit
(do‘zax qopqasi oldida)
Hali do‘zax qopqasidan ichkari kirmay
Ostonada shuncha savdo bo‘lsa-ya, yo Rab!
Umrim o‘tib ketibdi-da, hech neni ko‘rmay,
Tarozibon aytganiday, ko‘rmabman qarab.
(ovoz)
Ahli nokas, tingla, tingla! Hozir baringni
Axlat o‘ra eshigiga haydab yig‘aman.
Kim yashirgan bo‘lsa mening ig‘vogarimni
O‘zini ham o‘sha joyga birga tiqaman!

Do‘st kirib keladi

Do‘st
(Yigitni payqamay)
Qaydadir u, yigit umrim kuydirgan sulloh.
Boshimga u ne kunlarni axir solmadi.
Menga rohat bag‘ishlaydi uni qiynamoq,
Chunki menga o‘zga yupanch endi qolmadi.
(Yigitga ko‘zi tushib)
Ie, ie, bu senmi... yo... yo qudratingdan!

Yigit
Sen o'zing-chi? O'zingmi, yo mavhum nishona?!

Do'st
Ming roziman, parvardigor, bu nusratingdan!

Yigit
Oh,bormisan, birodarim, do'stim yagona!

Do'st
(Ko'rishadilar. Jimlikdan so'ng)
Shunaqami? Do'zax degin, Shundoq bo'ldimi?..

Yigit
Shundoq bo'ldi. Mana senga so'nggi xulosa!
O'ylagaymiz na tiriklik va na o'limni,
Qismat bilan na nizo bor va na murosa.

Do'st
Necha zamon bu xilqatda kezdim tentirab,
Qolgani yo'q men kirmagan bironta puchmoq,
Hatto jannat qoshiga ham bordim muqarrab,
Uchratmadim, topolmadim, men seni biroq.
Va so'ng Tangri marhamatin ado etay deb
Ig'vogarni topib oldim bu yerdan axir.
Ermagim shu, jazolayman alamim ortib,
Ko'p noloyiq ishlar bilan mashg'ulman hozir.

Yigit
Tentiradim o'shancha vaqt men ham taxminan,
Ota-onam vasliga ham yetishdim hatto.
Oqibatda loqayd bo'lib qolgandim chindan,
Na do'zax-u na jannatga bor edi parvo.
Ha, Tangriga aytay endi men ham shukurni,
Hasratdoshmiz, mana, endi sherikmiz, hamdam.
Ikki paysa savob bois ko'rdim ko'p yerni,
Olganim yo'q ammo uni ota-onamdan.

Do‘st
Sening aybing nima ekan? Gunohing qay xil?

Yigit
Gunohimmi?
Odamzodga ortiq ishonmoq!
Shu boisdan ikki paysa yetmadi sabil,
Tarozibon dashnom berdi, u haqdir biroq.

Do‘st
Nimasiga ishonding sen odam bolasin,
Ayt-chi, uning qay xislati seni etdi rom?
Yig‘lab turib, seva turib, deyman, tingla sen,
Ishonmadim insonga men, tamom, vassalom!
Osmondagi yulduzlarni mumkin sanamoq
Ammo inson fe’l-atvorin bormi poyoni.
Senga doim nima derdim, eslagin o‘rtoq:
Xayol bilan bezab bo‘lmas aslo dunyoni!
Esingdami, qutqazganding meni ig‘vodan,
Yig‘ishtirib olmasimdan hali hushimni,
Mahkamaning kotibasi to‘sib daf’atan
Tilab oldi og‘zimdagi tilla tishimni.
Ig‘vo, nayrang, hasad, g‘iybat bular barisi
Oh, azizim, ocholmadi ko‘zingni nahot?!
Senga vafo qildimi, xo‘sh, ilhom parisi,
Jannat ato qildimi yo “go‘zal” koinot?!

Yigit
Tugatdingmi?

Do‘st
Nimaydi, xo‘sh?

Yigit
O‘zing-chi, o‘zing,
G‘alva bilan ne orttirding? Aybing ne ekan?

Do'st
Ha, o'ylashga majbur etar sening bul so'zing,
Ishonchsizlik bo'ldi mening boshimga yetgan!
Tarozibon rappa-raso bir kun o'ltirib
Ko'z oldimda qilmishimni cho'tiga soldi.
Ishonmaysan menga ham deb, pisanda qilib,
Daftariga qo'l qo'ydirdi, tilxat ham oldi.

Yigit
Senga qancha yetmas ekan?

Do'st
Ikki paysa, ha,
Yetishmagan menda ham shu ma'naviy tomon.

Yigit
Yanglishibmiz ikkimiz ham nozik narsada,
Chunki inson o'z nomi-la Hazrati Inson!

Do'st
Hazrat Inson deganing ne? Quruq so'z faqat!
Men ham inson, sen ham inson, u ham inson-ku!
Esa qayda hazratga xos biror fazilat,
Bular bari biz to'qigan oddiy lison-ku!

Yigit
Ishonmaysan, demak shuldir aqidang tugal,
Seni kim deb atasak, xo'sh, odamzod uchun?

Do'st
Ishonchingni poymol qilib qo'yarlar avval,
So'ngra uni qayta talab qilmoqlik nechun?
Oh, azizim, meni aslo yovuz deb bilma,
Men yovuzlik qurboniman, qalbimda alam.
Ushbu g'alat nisbatimdan tag'in sen kulma:
Uraversang g'ayir tortar eng yuvosh it ham.

Yigit
Yashab o‘tdik tiriklikning tund sahrosida,
Masalan, bir nabototdek, bir chechak misol.
Yashnadik goh bahorlarning xush havosida,
Bandimizni bukib ketdi goh yovuz shamol.
Jami inson borasida mening bul so‘zim,
O‘ylab qara, tarixda bor ibrat doimo:
Ne-ne zotlar gar o‘zlari topsa ham to‘zim,
Odamzodga ko‘rmaganlar yomonlik ravo.
Ezgulikning yo‘li og‘ir, serg‘alva garchand,
Yuksaklarga ko‘taradi sohibin biroq.
Mayli, mening ruhim siniq, xayolim parkand,
His qilurman ezgulikning oftobin porloq.
Asablarim qaqshab ketdi, rostini aytsam,
Jannat, do‘zax g‘alvasidan bo‘ldim ham bezor
Do‘stim, senga bir niyatim izhor aylasam.

Do‘st
Xo‘sh, u qanday niyat ekan?

Yigit
Rad etma zinhor.
Hozir ikkov kirib borsak, deylik, masalan,
To‘larmidi jahannamning cheksiz maskani?!
Do‘stlik haqqi, iltimosim eshit qa’tiyan:
Olgin mendan yetmagan shul ikki paysani!

Do‘st
Nima? Nima?
Esing butmi? Senga ne bo‘ldi?
Eshitmadim gapingni men! Qaytib ol darhol!
Bilsang, hozir koinotning beli bukildi,
Oh, sarsonlik qurib ketsin, charchabsan alhol.

Yigit
Gapim qat’iy!

Do‘st
Qulluq! Ammo sabr etib birrov
Mening aytar gaplarimga qulog‘ing tutgin.
Yaxshi-yomon hikmatlaring o‘zingga siylov,
Falsafangni, aziz do‘stim, bir zum unutgin,
Kimmanki men o‘z do‘stimdan olsam-u savob,
Yolg‘iz o‘zim ketaversam o‘sha jannatga.
Haqiqatning mezonidir azaldan insof.
Har narsaning o‘z yo‘rig‘i bordir, albatta.
Esingdami, Mahshar bag‘rin rosa oralab
Faqat seni, faqat seni axtardim dedim?!

Yigit
Deding.

Do‘st
Ammo nima edi mendagi talab?

Yigit
Nima edi?

Do‘st
Men qarzimni uzmoqchi edim!
So‘nggi paytda ig‘vogardan qilganding xalos.
Hayotimga baxsh etganding tinchlik, halovat.
Yaxshiliging qaytarolmay qarzdor edim, rost,
Bo‘ynimda burch, ezildim to ro‘zi qiyomat,
Mening uchun ikki olam bo‘ldi bir chaqa,
Bilasan-ku, qiyomat qarz degan narsani.
Tushun axir meni, do‘stim, quloq tut gapga,
Savobim ol, sen ol mendan ikki paysani!

Yigit
Vo ajabo, tomoshaning qizig‘i chiqdi!
Bilasanmi, tama zahri kufrdan ortiq.
Ig‘vogar-ku, g‘azabingga axir yo‘liqdi.
Lekin senda qarzim bo‘lsa — ol, senga tortiq!
Og‘aynimdan ikki paysa o‘marib shodon,

Maqtanaymi padarimning oldida, qani?!
Ahvolimni tushun, sen ham, bahaqqi imon.
Sen olasan mendan o'sha ikki paysani.

Do'st
Aslo! Aslo! Sen olasan!

Yigit
Yo'q, yo'q, mutlaqo!

Do'st
Sen olasan! Sen olasan! Oxirgi so'zim!

Tepada sado guldiraydi.

Yigit
Tingla, do'stim, kelayotir qandaydir sado!
Birga o'sdik, birga mayli topaylik to'zim.

Sado
Volida-yu padarlarga qulluq va rahmat!
Tashakkurlar bo'lsin nurli inson zotiga.
Fikringizni lekin bu yon buring bir fursat.
Zehn soling gapning asl tafsilotiga:
Ikki do'stning sadoqati, mehri, himmati
Koinotning qadridan ham turgaydir baland.
Hech ne bilan o'lchanmaydi do'stlik qimmati,
Qulatgay u sarhadlarni qudrati bilan.
Hikoyatdan murod shulkim, ulug', muhtaram
Do'sti sodiq nasib etsin har kimga har on,
Jannat ato qilajakman ikkingizga ham!
Jannat yo'li mana, Sizga ochiq, charog'on.

Atrof birdan yorishib ketadi

PARDA

1978

SOHIBQIRON

She'riy drama

Ishtirok etuvchilar:

Amir Temur
Bibixonim
Mir Said Baraka
Amir Husayn
Ahmad Yassaviy
Hazrati Xizr
Uljoy Turkon
Shohrux Mirzo
Mironshoh
Mirzo Pirmuhammad
Xonzoda begim
Aloviddin
Buqalamun
Shayxulislom
Kayxisrav
Barlos bahodir
Ibn Arabshoh
Qosimbek
Muhammad Qovchin
Hofiz Sheroziy
Darxon ona
Boyazid
Xoja Yusuf
Borchiq
Sharif
Sartarosh
Eshikbon
Yasovul
Elchilar
Amirlar
Sarkardalar
Choparlar
Mullavachchalar
Xaloyiq
Hofizlar
Raqqosalar

BIRINCHI SAHNA

Parda ochiladi. Samarqand. **Temur** saroyi. **Sohibqiron** soch oldirayotgan bir manzara.

Sartarosh
Sartaroshning kasb-kori hammaga ma'lum:
Soch-soqolni qirtishlayman. Tamom-vassalom!
Biroq Tangri xo'b inoyat aylamish menga,
Temurdayin buyuk Amir mening mijozim.
Olampanoh, necha yilki, mahramingizman,
Xizmat qilib kelmoqdaman dargohingizda.
Hatto hazil-huzulni ham iltifot aylab
Qulingizdan ayamaysiz.

Temur
Qul ko'p, sen — yolg'iz!

Sartarosh
Sohibqiron, boshingizni sal quyi eging,
Ustaramning tig'i o'tkir, dami ko'p tezkor.

Temur
Sartaroshga bosh egar, ha, jahongirlar ham,
Boshqalarga egilishdan asrasin Xudo!
Biroq senga oddiygina bir gapni aytay:
Sohibining xohishiga bo'ysunadi tig'.
Zarur bo'lsa kesgaydir u yomon yarani,
Jaholatda uzar lekin tilla boshni ham.
Marhamating uchun esa tashakkur senga.
Har qandayin bandaga ham kerakdir sirdosh,
Senga ko'ngil ochsam bo'lar...

Sartarosh
Qulluq, Hazratim!

Temur
Gap yurarmish, go'yo Temur tabassum qilmas,
Go'yo menga xursandchilik, shodlik begona.

Har qadamda bilintirmay og'u sochguvchi
Mansabparast, g'ayir, battol, o'g'ri, firibgar,
Xushomadgo'y kimsalarni mahram sanaymi?
Yo ularga yaltoqlanib,
Tabassum aylab,
Ko'ngillarin ovlash uchun muqom qilaymi?
Men ularning yuragida ne kechishini
Oyinaga boqqan kabi ko'rib turaman,
Odamlarning badnafs,
Yuho og'izlariga
Tizgin solib,
Qamchin bilan titratmoq darkor.
Shu yo'sinda rom eturlar hayvonlarni ham,
Odamzodni bir daqiqa bejilov qo'ysang
G'ajib tashlar, yeb bitirar bir-birlarini.
Qo'ni-qo'shni uluslarning hukmdorlari
Shamshirimdan qo'rqadilar, shonimdan emas.
Sartaroshsan, mana senga boshimni egdim.
Biroq meni afv etgaysan,
Tiz bukolmayman...

Sartarosh
Oyog'ingiz shikast topgan muhorabada,
Shu boisdan afv etadi sizni qulingiz.

Temur
Bekor uzoq kechmishimni solding yodimga,
Men onamdan shamshir bilan tug'ilmagandim.
Kesh shahrining sarhadida,
Voha bag'rida
Xo'ja Ilg'or degan joy bor.

Sartarosh
Olam biladi!

Temur
Ko'kka boqib,
Adirlarda yayrardim shodon,

Bahor chog'i sel toshqini, turfa chechaklar
Xo'b g'aroyib tuyg'ularni
Tuhfa etardi.
Yulduzlarga boqib goho baytlar bitardim.
Shoir ahli g'azallarin qog'ozga yozsa,
Men she'rimni o'chmas qilib shamshirga o'ydim.
U bitikning mazmuni shul:
"Kuch — adolatda!"
Yosh boshimdan qismat menga qilich tutqazdi.
Chingiziylar mo'r-malaxday bosgan bir paytda,
Necha-necha sher yurakli barlos yigitlar
Yovlariga yem bo'lganda boshi birikmay,
Tog'-u toshda sang'ib yurgan erksevarlarni
O'z tegramga to'pladim-u
Yalov ko'tardim.
Dovonlarda maskan qurdim,
Kezdim cho'llarda.
Hisor tog'in betkayida,
Yiroq-yiroqdan
O'pqon kabi g'or ko'rinar,
Ko'zing tushganmi?

Sartarosh
U — Sizning g'or!

Temur
U joyda men jon saqlaganman,
Tulporimning tezaklari to'zmagan hamon.
Yog'iy meni yo'lto'sar deb anglatdi elga,
Pistirmalar qo'yishardi yo'limga doim.
Parvardigor marhamati g'olib keldi-yu
Qara, omon o'ltiribmiz ikkov, tig'doshlar.
Ishing bitdi, jo'na endi, Senga tashakkur!
Eshikbon kirsin.

Sartarosh chiqadi.

Eshikbon
Olampanoh,
Xuttalondan hokim Kayxisrav
Bir bandini keltirmishdir.

Temur
Bandi kim u?

Eshikbon
Amir Husayn!

Temur
Amir Husayn?
Olib kirishsin!
Hozir bo'lsin Shayxulislom, amirlarim ham
Va albatta piri komil Said Baraka.

Eshikbon chiqadi.

Boshlangan har hikoyatning oxiri bo'lgay,
Mojaroni boshlagan kim?
Men-mi, Husayn?
Parvardigor barchasidan voqif va ogoh.
Qayin og'a hisoblanar menga bu amir.
Zaifamiz Uljoy Turkon uning singlisi.
Biroq yerga to'kilar payt qurt tushgan meva
Uni asrab qololmagay sog'lom ildiz ham.

Amir Husaynni ahli devon qurshovida olib kiradilar.

Temur
Qo'l-oyog'in yeching buni!
Marhabo, amir!
Kishan sendan xalos bo'lsin.

Amir Husayn
Taqdirga la'nat!
Tiriklayin sen Iblisga ro'baro' qildi.

Temur

(Mir Said Barakaga)

Eshitdingiz, muhtaram pir Said Baraka,
Siz bu bilan Balx shahrida suhbatdosh bo'lib
Yashagansiz,
Sinagansiz.
Taqdir deydi u.
Axir men ham tobemasmi o'sha taqdirga?

(Amir Husaynga)

Umringda hech kitob ko'rmay ulg'aygan eding,
Shu sababdan gaplaringda mantiq yo'q, amir.

Mir Said Baraka

Odamzodni yaratibdi Alloh serkaram.
Taqdirin ham belgilamish.
Biroq ayni payt
Odamzodni ozod qo'ymish sinamoq uchun,
Bu sinovdan o'tolmagay Amir Husayn.

Amir Husayn

Pirim, Sizga ne qilibmen?
Gunohim nedur?

Mir Said Baraka

Gunohingdan bittasini aytayin, amir,
Balx shahrida saroy qurding kayf-safo uchun.
Masjidlarning mablag'larin sarf etding unga.
Yana yig'lab taqdir deysan...

Temur

Umr chopag'on!
Bizlar mingan bedovlardan ko'ra uchqur u.
Yo Husayn!
Eslaysan-a, birga o'sgandik.
Sen Qozog'on nabirasi!
Men — barloszoda!

Amir Husayn
Bir qiblaga bab-barobar yuzni bursak ham,
Sen o'zga bir xonadondan,
Men — Chingiziyman!

Temur
Xotirangdan chiqmagandir u o'smir yillar,
Ikkimizni qo'yishgandi bir payt poygaga.
Mendan ortda qolib ketding, biroq past tushmay
O'shanda ham degan eding:
"Men — Chingiziyman!"
Odamlarning shajarasi daryolar kabi
Bir-biriga qo'shilmog'i shubhasiz, bor gap.
Sening bobong Chingiz emas,
Aslida Hasad!
Hasad!
Hasad!
Bilib qo'ygin, Amir Husayn.
Oyoq-qo'ling bog'lab kelgan o'sha hasaddir.
Men buyuk bir saltanatni tuzmoqdaman-u
Biring u yon,
Biring bu yon tortasan, attang.
O'rtamizga qo'yib hatto Kalomulloni
Necha marta qasam ichding,
Esla, Husayn!
Oxirgi payt seni bog'lab keltiray desam
Qochib qolding.

Amir Husayn
Omad mendan yuzin o'girdi.
Yo'qsa sening toj-u taxting bo'lardi menda!
Madrasaga bekingandim, ablah Kayxisrav
Tanib qolmish egnimdagi zarbof to'nimdan.

Temur
Kayxisravning otasini sen o'ldirganding,
O'sha xun deb seni tutib keltirmishdir u.

Omadsizlik emasdir bu — qilmish-qidirmish.
Meni esa rasman holda Balx qurultoyi
Mamlakatning amiri deb saylab qo'yibdi.
Endi sening kimligingni aytay, Husayn,
Lashkarini siylamagan sen — xasis amir!
Sirdaryoning bo'ylarida Jetega qarshi
Ikkalamiz chiqqan edik o'sha mash'um kun.
Osmon go'yo teshildi-yu jami bulutlar
Suvlarini to'kkan edi jang maydoniga.
Ust-boshi ho'l, holdan toygan sening lashkaring
Och-u nahor bo'lgani-chun ortga chekindi.
Loy jangida sen sababli nochor qolganman.
O'n ming askar nobud bo'ldi, afsus, o'shanda.

Amir Husayn
Temur, menga to'nkama u mag'lubiyatni,
Firibingni ko'rsat edi, sarkarda bo'lsang!

Temur
Ko'rmagansan firibimning mingdan birin sen.
Atrofimni zanjir kabi o'rab tursa ham
Jetelarni tumtaraqay quvdim Vatandan.
Bir jang chog'i muhtaram pir Said Baraka
Egildi-yu yerdan siqim tuproqni olib,
"Yog'iy qochdi!" — deya nido qilganlaricha
Yov tomonga sochdi uni,
Yov-chi, ha, qochdi!
Bu ham firib, shundoqmasmi?

Mir Said Baraka
Avval Xudodan!
Gar muzaffar qilar bo'lsa, madadin bergay.

Shayxulislom
Qiblagohning unvonlari Sohibqirondir.
Allohimning karami-la sakkiz yuz yilda

Yulduzlarning holatlari ayricha bo‘lgay,
Jadiy burji ko‘ringaydir kiyik shaklida.
O‘sha yili tug‘ilgaydir bir Sohibqiron.
Eng avvali shoh Iskandar, undan so‘ng esa
Tug‘ilmishdir Rasul Akram —
Payg‘ambarimiz.
Uchinchisi hazrat Temur —
Sohibqirondir.
Avliyolar allaqachon bashorat qilib
Aytmishlarkim, Sohibqiron dunyoni olgay.
Sakkiz yuz yil saltanati turgay barqaror.
Jahongirga abadiyan Xudo yor bo‘lgay.
Iloho omin!
Qolganlar ham “Omin,” “Omin “
deya yuzlariga fotiha tortadilar.

Kayxisrav
A’lohazrat, izn bering bir so‘z demoqqa.

Temur
Sening otang Badaxshonning hokimi edi,
Yurt talashib o‘ldirgandi uni Husayn.
Ha, Kayxisrav, tushunaman ahvolingni men.

Kayxisrav
Urushlarda qon to‘kilgay, men ham anglayman,
Padarimni o‘ldirgan-ku shu nomard, ammo
Necha bora qasam ichdi Sizni ham aldab.
Kamonining sadog‘idan mana bu o‘qni
Topib oldim.
A’lohazrat, yozuvi ham bor.
O‘qib ko‘ring!

Kayxisrav kamon o‘qini **Temur**ga uzatadi.

Temur
Yozuvni ovoz chiqarib o‘qiydi.

"Bu — Temur uchun".
Xuddi shundoq shakldagi paykonlar bilan
Sajistonda yog'iy meni yaralagandi.
Bir oyog'im ham bir qo'lim hanuz nogiron.
Ajab holkim, o'shanda sen malham qo'yganding,
Eslaysanmi o'sha kunni, Amir Husayn?

Amir Husayn
Ushbu o'qim yuragingga atalgan, ammo.

Temur
Zaharlidir?

Amir Husayn
Ha, albatta! Tegsa bilarding.

Temur
Qay bir fozil aytgan ekan:
"Tuz aynisa gar, uni nima tuzatar" — deb
O'h, ablah, olchoq!

Barlos bahodir
A'lohazrat, ruxsat bering, bu gazandaning
Paykonini o'z ko'ksiga joylab qo'yaylik.

Orqa eshikdan **Uljoy Turkon** yugurib chiqadi.

Uljoy Turkon
Olampanoh,
Olampanoh,
Bir zum sabr eting.

Temur
Uljoy!

Amir Husayn
Uljoy?!

Temur
Sen qayoqdan paydo bo'lding?

Uljoy Turkon
Xosxonada men,
Bosh yuvmoqqa suv tayyorlab odatdagidek,
Sartaroshning ketishini poylab turgandim.
Va da'fatan bu dahshatli suhbat g'ovuri
Qulog'imga chalindi-yu ketolmay qoldim.
Avf etgaysiz cho'ringizni.

Temur
Sen cho'ri emas,
Amir Temur zavjasisen, malikadursan.

Amir Husayn
Sen — Qozog'on nabirasi
Husaynga singil.

Uljoy Turkon
Men ikki o't orasida jizg'anak bo'lgan,
Ikkisin ham ayaydurgan Uljoy Turkonman.

Temur
Uljoy, mening gaplarimga quloq tut andak,
Sen go'yo g'ubori yo'q sahro guliday
O'z bag'riga bosguvchini tushungil deyman.
Shafqat bilmas hukmdor deb o'ylama meni,
Unutmaki, har qanday kas fe'lidan topgay,
Men akangning qilmishlarin avf eta-eta
Oqibatda botgandurman gunohga, balkim.
Afsus, akang shu qadarli ochofat, yuho,
O'ng'ay kelsa, ayamagan hatto seni ham.

Amir Husayn
Xudodan qo'rq,
Amir Temur, isbotingni ayt!

Temur
Necha muddat ikkalamiz it-mushuk bo‘lib
Uchrashmayin,
Arazlashib yurgan kezlarda
Makkor mo‘g‘ul Samarqandni qayta bosgandi.
Podshohi yo‘q mamlakatning ahvoli ma’lum:
Shunday paytda bosh ko‘tarib chiqdi bir guruh.

Amir Husayn
Sarbadorlar!

Temur
Sarbadorlar, ha, sarbadorlar!
Mardonavor qo‘riqladi ular shaharni,
Uloqtirib tashladilar mo‘g‘ul qo‘shinin.
Sen bilan men tayyor oshga bakovul bo‘lib
Saltanatni tortib oldik sarbadorlardan.
Sen o‘zingni amir deding, meni-chi, vazir.
Sarbadoming bitta aybi — uquvsizligi.
Umrida hech toj-u taxtni ko‘rmagan kosib,
Uchta-to‘rtta mullavachcha ne ish qilardi?
Pala-partish farmonlarni chiqarib ular
Boyonlarni o‘zlaridan tezda bezdirdi.
Shul sababli omadimiz chopdi bizlarning,
Biz ularni dorga tortdik — nomiga loyiq.

Amir Husayn
Men bilardim, moyil eding sarbadorlarga,
Dordan olib qolgan eding ulardan birin,
Ismi uning Mavlonozoda.

Temur
Sen sabab bo‘lib
Samarqandda norozilik boshlanib ketdi.
Bir och bo‘ri daf’atanda qo‘raga kirib,
Ko‘zi to‘ymay duch kelganni bo‘g‘izlagandek
Soliq solding beva demay, bechora demay.

Soliq yig'ish balosini menga topshirding.
Behuda qon to'kkanlaring bir karra bo'lsa
El-u yurtni talaganing o'n karra bo'ldi.
Men bir necha sarbadorni saqlab qololdim.
Vatan uchun jonin tikkan fidoyilarning
Qismatiga achingandim, taxtiga emas.
Qish faslida ochilgan bir chechakday ular:
O'z-o'zidan halokatga mahkum edilar.
Biroq sening ochiq go'rdek yuho og'zingni
O'sha paytda yopolmasdan armonda qoldim,
Elga solgan soliğ'ingning katta qismini
Uljoy bilan ikkalamiz qoplagan edik.
O'z singlingga o'zing hadya qilgan ziraklar
O'z qo'lingga qaytib borsa, olding, noinsof.

Uljoy Turkon
Nahot, aka?!

Amir Husayn
Ziragingni tanimaganman.
O'tgan o'tdi.
Temur endi valdirayverar.
Har doimo haq bo'ladi muzaffar odam.

Temur
Temur bilan gaplashganda bu hikmating puch,
Unutmagil, muzaffarman haqligim uchun.
Ulug' bir zot yashab o'tgan bizning zaminda.
Turkistonlik avliyo u Ahmad Yassaviy.
Tingla uning bir hikmatin, g'oyat ibratli.
"Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi.
Termiltirib xaloyiqqa zor ayladi".
Aynan senga mo'ljallangan bir juft o'qdir bu.

Uljoy Turkon
Afsuski, men xabardorman buning baridan,
Necha yildir orangizda qora xusumat.

Aka, Sizning joningizni Ulug‘ Amirdan
Qancha marta so‘rab oldim yig‘lab, yolborib.

Amir Husayn
Agar mening singlim bo‘lsang, yolborma, Uljoy.
Axir men ham jangchiman-ku, men ham bahodir.
Yaxshisi, sen ko‘shkingga ket, oromgohingga,
Kechir meni, aziz singlim!

Uljoy Turkon
O, Olampanoh,
Hadya qiling menga o‘sha kamon o‘qini,
U dahshatli bir tarixdan xotira bo‘lgay.

Temur
Modomiki, xosxonada bizni tinglabsan,
Xabardorsan bu suhbatning tafsilotidan.
Ma, ola qol,
Yozuvini o‘qima faqat.

Uljoy Turkon
Kamon o‘qini oladi. Chiqayotib o‘qiydi.
“Bu — Temur uchun”.
Yo‘q, bu — men uchun.

Uljoy Turkon chiqadi.

Temur
Men hamisha shukur aytdim Parvardigorga,
Qodir Alloh oydin qildi yo‘limni doim.
Zabt aylasam qay bir zamin,
Qay mamlakatni
Xudoyimning xohishiga tayandim mudom.
Hatto yiroq yulduzlarning fe’li qandoq deb,
Tinglaganman qur’achi-yu munajjimlarni.
Turfa din-u e’tiqodga ibodat qilgan
Necha-necha qavmlarni hukmimga oldim.

Muhammadning yalovini ko'tardim baland.
Biroq o'zing birga o'sgan,
Birga ot surgan,
Bir masjidga some bo'lgan zotdan ayrilmoq —
Bu g'oyatda ma'yus qilib qo'yar odamni.
Siz ne deysiz,
Muhtaram pir Said Baraka?

Mir Said Baraka
Musulmonning qonin to'kmoq joiz bo'lmag'ay.
Ammo-lekin dini Islom bayrog'in tutgan
Yo'lboshchiga pand bermoqlik gunohi azim.
Tavba qilsin,
Tavba qilsin, Amir Husayn.
Zero, shundoq lutf etmishlar payg'ambarimiz:
Erta-yu kech ochiq erur tavba eshigi.

Temur
Shayxulislom janoblari, fikringiz nedur?

Shayxulislom
Muborak bir kalimani keltirib o'tay,
U — "Qur'oni Karim"dandur!

Temur
Vujudim quloq!

Shayxulislom
"Yaf'alullohu moyashau va yaaxkumu mo yo'rid",
Ya'ni, Alloh nimaniki xohlasa agar
Irodasi bilan shuni hukm qilgaydir.

Temur
Inshoolloh, yaratganning o'zi bilgaydir.
Ey, Siz mening amirlarim, bahodirlarim.
Qadamidan o't chaqnagan lashkarboshilar.

Alloh Sizning dilingizga ne tuyg‘u solmish?
Muntazirman javobingga, Barlos bahodir.

Barlos bahodir
Muntazirmiz amringizga, o, Sohibqiron,
Siz amr eting — kemirgaymiz Ko‘hi qofni ham,
Siz amr eting — simirgaymiz Bahr-u ummonni.
Kuch olgaymiz shijoat-u himmatingizdan.
Sizga sodiq bo‘lurmiz deb qasam ichganmiz.
Ulug‘ Amir, Xudo shohid, jangchining onti
Har qandayin martabadan turar balandroq.
Sizning aziz joningizga otilgan har o‘q
Eng avvalo, kelib tekkay bizning ko‘krakka.
Nomard yovni agarda Siz kechirsangiz ham,
Biz mutlaqo kechirmasmiz. Ketgaymiz tarqab.

Kanizak jon holatda yugurib kiradi.

Kanizak
A’lohazrat,
A’lohazrat,
Mudhish bir xabar,
Bu xabarni sizga kelib aytgandan ko‘ra
Qani edi shu zahoti kesilsa tilim.

Temur
Qanday xabar? Dovdiramay gapir, Kanizak!

Kanizak
Xonasida jonsiz yotar malika Uljoy,
U o‘zini halok etmish, manov o‘q bilan.

Kanizak qonli kamon o‘qini Temurga uzatadi.

Temur
Evoh!

Amir Husayn
Hayhot!

Temur
Amir Husayn, oramizni bog‘lagan zanjir
Metin tog‘lar silsilasi qadar bo‘lsa ham,
Shu daqiqa parokanda bo‘ldi, uzildi.
(Kayxisravga)
Husaynni topshirdim men, Kayxisrav, senga!

Amir Husaynni olib chiqib ketadilar.

Mana bugun barham topdi ikkita umr,
Ikkisi ham bir onadan tug‘ilgan edi.
Biri singil, biri aka — izma-iz ketdi.
Birovining mehri qancha bepoyon bo‘lsa
Ikkinchisin g‘arazi ham shuncha mo‘l edi.
Xo‘sh, ularning halokati men tufaylimi?
Agar hayot pardasini ko‘tarib boqsang
Orasida ikki holat ko‘ringay ro‘y-rost:
Biri Rahmon qiyofasi,
Unisi — shayton.
Husayn-ku, manmanlikning qurboni bo‘lib,
Qilmishidan topdi.
Ammo Uljoy Turkon-chi?
Uning aybi nima edi?
Nahotki iblis
Och bo‘ridek bir qo‘zini albatta yegay.
Bu g‘alati jarayonda adolat bormi?
Yayrab yurar nega shayton korandalari?
Nega ko‘pdir nayrangboz-u kazzob kimsalar?
Nega bosgan yer yuzini buncha ko‘p illat?
Men zaminni tozalashim kerak ulardan.
Ajal mudom bekinmachoq o‘ynar biz bilan
Men o‘limdan qo‘rqamanmi?
Ko‘p chigal savol...
Biroq aniq fahm etaman,
Hayot bor joyda
O‘lim otliq surbet uchun aslo o‘rin yo‘q.

Shayxulislom, aytib qo'yay Sizga bir gapni:
A'yonlarga yetkazingiz, mashvaratlarda,
Yig'inlarda,
Bazmlarda,
Toki men borman,
Maqtanmasin biror kimsa qon to'kkanman deb.
Yuragimdan Rahmon mehri ketmasin zinhor,
Parvardigor irodamni sust qilmasa, bas.
Shayxulislom, tilovat qiling.

Shayxulislom

(Tilovat o'qiyotganda,
parda asta-sekin yopiladi.)

"...Iyyaka na'budu va iyyaka nasta'in.
Ihdinas-sirotal mustaqim. Sirotal
Lazina an'amta alayhim g'oyril ma'g'zubi
Alayhim va lazzolina..."

("*Mazmuni:* "...Faqat senga ibodat qilamiz va sendan yordam so'raymiz. Bizni to'g'ri yo'lga boshlagin. G'azabga duchor bo'lganlarning, adashganlarning yo'liga emas...")

PARDA

IKKINCHI SAHNA

Amir Temur taxtda. Taxt atrofida yarimoy shaklidagi holatda shahzodalar, nabiralar... Chap tarafda ruhoniylar, hakamlar, olimlar, a'yonlar. Taxt qarshisida amirlar, viloyat hokimlari. Taxt orqasining o'ng tarafida bahodir harbiylar.

Chap tarafda yengil qo'shin qo'mondonlari. Chodirga kiraverishda Oliy Kengash qo'riqchilari. O'ng va chapda — arzgo'ylar.

Temur

Biror mushkul muammoni hal etar bo'lsak,
Kengash qildik ahli din-u vazirlar bilan.
Kengash qildik bahodirlar, amirlar bilan.

Ikki daryo orasidan nari yoqdagi
Bizga tobe mamlakatlar to'rt ulus bo'ldi.
Biroq farmon yagonadir,
Saltanat bitta.
Har qandayin davlatni ham boshqarmoq uchun
Eng avvalo yo'riq kerak,
Qoida darkor.
Chingiz buni Yaso degan,
Biz Tuzuk dedik.
Tajribadan bunyod bo'lgan xulosalarni
Tuzukotda biz peshma-pesh bayon qilgaymiz.
Savol chiqsa toki javob har xil bo'lmagay.

Birinchi amir
A'lohazrat, ne baxtki bu, Sizdek Amirning -
Sarkardaning o'gitidan bahramand bo'lsak.
Tegramizda tariq kabi sochilib yotgan,
Erta-yu kech bir-birin yeb,
Jiqqamusht bo'lgan
Elatlarning boshin qo'shib davlat tuzdingiz.
Bunday davlat ko'rilmagan tarixda, zero
Uning asos tayanchlari nedur, hazratim?

Temur
Davlat aslo tavakkalning mevasi emas,
U raiyyat,
Ya'ni xalqning g'uj irodasi.
Uning asos tayanchidir ushbu uch jihat,
Yagona shoh,
Mo'l xazina,
Yengilmas lashkar.
Siz askardan ayamangiz mol-u dunyoni,
Suyurg'ollar bering unga,
Unvonlar bering.
Xasislarning qismatlarin yaxshi bilamiz,
Xazinani esa faqat raiyyat qoplar!

Ikkinchi amir
Olampanoh, yer yuzida shoxlar ham bisyor,
Odamzodni ular qay tarz idora etgay?

Temur
Siz falakka nazar soling,
Yulduzlar aro
Bizning uchun eng yorqini, shubhasiz, quyosh.
Nazar soling, yer yuzida darrandalarga,
Eng ulug'i, mukammali albatta arslon.
Turli-tuman odamlarni boshqarish esa
Podsholarga buyurilgan.
Alloh hukmi shu.
Suruv bitta bo'lsa agar, cho'ponlar soni
Qisqargaydir!
Bir suruvga bir cho'pon basdir!
Agarda biz zabt aylasak yetti iqlimni.
Unga endi boshqa shohning da'vosi g'alat.
Bizni ba'zan ayblaydilar boshi buzuqlar
Zo'ravonlik va noo'rin shafqatsizlikda.
Farzandlarim, bir gapimni aslo unutmang:
Tinchlik bilan hal bo'lsa gar biror muammo
Hech kimsaga o'zingizcha qurol ko'tarmang.
Birorta shoh o'z eliga o'tkazsa zulm
Adolatning qilichini baland ko'tarib,
Yanching uni!
Alloh o'zi madadkor bo'lgay!
Urushlarni daf etishning yo'li esa bu:
Qonunlarga har kim so'zsiz rioya qilgay.
Hamma uchun bab-baravar bo'lsin Adolat!
Mening ulug' va bepoyon mamlakatimda
Qaroqchi-yu yo'lto'sarning dasti qirqilgan.
Gar o'g'irlik sodir bo'lsa biror o'lkada
Biz dedikki, javob bersin yurtning hokimi.
Yo tinchitsin,
Yo to'lasin o'z hamyonidan.

Magar biror viloyatga nozir bo'lsangiz
Eng avvalo,
Peshvolarga hurmat ko'rgazing,
Daraxt eking,
Gul o'tqazing,
Imorat quring!
Kimki obod qilay desa tashlandiq yerni
Uch yil uni soliqlardan ozod qildik biz.
Dini Islom e'tiqodi bayroq biz uchun,
Uni tahqir etganlarga do'zax yarating.
Har qandayin saltanatning obro'si esa
Tayin bo'lgay ilm birlan,
Ma'rifat birlan.
Mashvaratga mutakallif bo'lgan zotlardan
Asli shomlik yosh bir olim ibn Arabshoh
Gapimizni tasdiq etsa ajab emasdir!

Ibn Arabshoh
Olampanoh,
Yosh bolalik chog'imda meni
Samarqandga asir qilib olib kelganlar.
Ilm-u urfon Makkasidir bu kun Samarqand.
Yetti iqlim me'morlari, muhandislari
Siz tufayli jam bo'lmishlar ushbu shaharda.
A'lohazrat,
Sizning ulug' marhamat bilan
Bunyod bo'lgan qasrlar-u saroy, masjidlar
Sharq-u g'arbda yagonadir!
Tengi yo'q aslo!
Ma'rifatga Sizdek homiy kelmagani rost!

Temur
Ko'p tashakkur, iqror bo'lib aytgan so'zingga,
Yuragingda bir armon bor lekin, Arabshoh.

Ibn Arabshoh
Yo, Allohim! Dilimdagin qaydan bilursiz?

Temur
Uni ko'zing aytib turar, zero u ko'zgu.

Ibn Arabshoh
Gohi-gohi xayolimdan o'tar yoshligim,
Sahrolarda sarson bo'lib yurgan kezlarim.
Tushlarimga kirib chiqar tahqir, xo'rliklar.
Va o'zimni tutolmasdan, taqdirdan nolib,
Kimlarnidir qoralayman goh beixtiyor.
Men vosvosga uchraganman,
Lekin Olimman!

Temur
Olim odam vosvos bo'lsa — bu yomon illat!
Inshoolloh, tuzalgaysiz.
Umid qilurmiz,
Dard qo'zimas rost tarixni yozayotganda.

Ibn Arabshoh
Qulluq, Hazrat!
Qulluq, Hazrat!

Temur
Ilm-u fan bilan
Mashg'ul bo'lish nasib etmas ehtimol menga,
Saltanatning poyoni yo'q,
Yumushlari mo'l.
Lekin oliy imoratlar barpo aylamoq,
Bog'-u rog'lar bunyod etmoq ezgu muroddir.
Samarqandim
Dunyodagi yagona shahrim.
Atrofdagi manzillarga Damashq, Bag'dod deb
Nom beribmen.
Yaxshi niyat yarim davlat-ku.
Ota yurtim Kesh shahrida bir saroy qurdim.
U — Oqsaroy!

Niyatimiz kabi pokiza.
Agar kimki shubha qilsa shavkatimizga
Oqsaroyni borib ko'rsin!
Ushbu gapimni
Peshtoqiga yozdirdim ham.
Zamonlar o'tar,
Imoratim mahobatin ko'rgan avlodlar
Buzgan emas, qurgan desin Temur bobomiz!

Shayxulislom
A'lohazrat, umr ko'ring dunyo turguncha!

Hamma
Dunyo turguncha! Dunyo turguncha!

Shayxulislom
Inshoolloh, boqiy bo'lgay saltanatingiz!

Hamma
Boqiy bo'lgay, boqiy bo'lgay saltanatingiz.
Omin!

Temur
Inson umri yelday o'tar.
Ammo ishlari,
Aytgan so'zi, ajab emas, abadiy qolsa.
Turkistonda yashab o'tgan hazrati Sulton
Xoja Ahmad Yassaviyni yaxshi bilursiz.
Hanuz yashar ul hazratning nasihatlari,
Hikmatlari,
Bitiklari,
Asl turkiycha.
Bobomizning ul muborak go'rlari uzra
G'oyat ko'rkam, hashamatli maqbara qurdik.
Ko'p g'alati avliyodir Ahmad Yassaviy.
Payg'ambarning yoshlariga yetganda yoshi

Etak silkib bu dunyoning tashvishlariga
Yer ostiga kirib ketmish.
Buyuk bir jumboq!
O'qtin-o'qtin tushlarimga kirar ul hazrat.
Bizlar esa yer ustiga mas'ulmiz ko'proq.
Tunda go'zal misralarni kashf etsa shoir,
Biz-chi, harbiy hiylalarni o'ylab topamiz.
O'zimizdan oldin o'tgan sarkardalarning
Xatolarin taxlil etib,
San'at yasaymiz.
Shundoqmasmi,
Barlos bahodir?

Barlos bahodir
Harb ilmining poydevorin qo'ygansiz, hazrat,
Alal-abad bu istehkom qo'zg'almas sira.
Qo'shinlarning saflariga Siz bergan tartib
Shoirlarning misrasidan ko'ra quymaroq.
Sizning san'at tufayli biz, o'n bora ortiq
Yog'iyni ham tirqiratib quvib solganmiz.
Mardlik bilan mahoratdir zafar garovi,
Qora kuchdan nima foyda,
Anqayib tursa.

Temur
Bizni g'oyat qiziqtirar, shahzodalarning
Harb ishida bilimlari qandoq ekani.
Shahzodalar Mironshoh-u Shohrux mirzolar
Guvoh bo'lgan bizning talay muhorabaga.
Ular bu kun uluslarni boshqarib turar.
Alloh o'zi rahmat qilgur bahodir o'g'lim —
Jahongirdan qolmish yodgor Pirmuhammad, Sen,
Aytib ber-chi,
Fil jangida yog'iyga qarshi
Qanday hiyla,
Qanday firib qo'llamoq darkor!

Mirzo Pirmuhammad
Olampanoh, Siz aytgandek, hayvonot zoti
O‘t-olovdan cho‘chir faqat.
Yaqin kelolmas.
Yer moyiga pishib olgach poxol-somonni
Tuyalarga kajavadek yuklamoq kerak.
Ularga o‘t qo‘yilganda, ming-minglab tuya
Jahannamning oloviday o‘rnidan ko‘chgay.
Fillar esa, o‘kirgancha orqaga qochib,
Oyoqosti qilib tashlar o‘z qo‘shinini.

Temur
Magar tuya ish bermasa changalzorlarda
Ne qilgaysen, toparmisan buning ham yo‘lin?
O‘nlab reja bo‘lmog‘i shart sarkardalarda.

Ulug‘bek
Olampanoh,
Izn bering, men ham so‘z aytsam,
Bunday ulug‘ imtihonda qatnashmoq sharaf.

Temur
Nabiramiz sen, Ulug‘bek,
Shohruhning o‘g‘li,
Tug‘ilganding jang mahali, Eronzaminda.
Yillar o‘tib ketibdi-ya...
Yodimda hamon
Tavalluding sharafiga raqiblarimni
Afv etgandim, bergan edim elga omonlik.
Padarimning xotirasin muborak etib
Men ismingni Tarag‘ay deb atagan edim.
Tarag‘ay deb chaqirishdan iymanishdilar.
Ulug‘bek deb atadilar,
Ulug‘bek bo‘lding.
Seni tiyrak deyishadi.
Shoyon bu xislat.
Xo‘sh, ne deysan filga qarshi jang xususida?

Ulug'bek
Olampanoh, Hindistonni zabt etganda Siz
Uchburchakli temir tikan yasattirgansiz.
Har qandayin holatda ham bunday tikanning
Bitta uchi tikka bo'lib tura beradi.
Yuzlab, minglab temir tikan sochilgan joydan
Fil o'tolmas, qanot bog'lab uchmasa agar.

Temur
Barakalla,
Qanot bog'lab uchsa fil agar,
Ikkalamiz topajakmiz bunga ham chora.
Bolalarim, unutmangki,
Davlat ishida
Har qandayin yumushning ham o'z o'rni bordir.
Minglab xufya xizmat qilar bizga, masalan
Ammo ular tanishmagay bir-birlarini.
Xabarlarni shoshilmasdan tinglab, o'rganib
Barchasidan chiqargaymiz zarur xulosa.
Yurish qilish lozim bo'lsa yiroq ellarga
Tadorigin ko'rmoq kerak uch-to'rt yil avval.
Siz, chunonchi, sarhadlarda yaylov tayyorlang.
Yilqilarni ko'paytiring o'sha joylarda.
Toki sizning horg'in otlar yetib borgan payt
Tulpor bo'lib, kishnab tursin minglab toychoqlar.
Yov qo'shinin tahlikaga solmoqlik uchun
Tunda uning atrofida gulxanlar yoqing.
Necha yuzlab miltillagan cho'g'larni ko'rgach,
Yog'iy sizning lashkarlarni ko'p deb o'ylagay.
Shabxun deya ataladi tungi hujumlar.
To'rtta otning biqiniga shox-shabbalardan
Oddiygina supurgini bog'lab qo'ysangiz —
Chunon to'zon ko'tarilgay
Deysiz qiyomat!
O'rni kelsa to'rt suvoriy to'rt ming otliqning
Vahimasin yaratadi qiyqiriq bilan.

Bayrog'ingiz egilmasin maydonda sira,
Jangda yolg'iz qolsangiz ham bayroq tik bo'lsin.
Hujum qilish arafasi "Allohu akbar", deb
Nido aylang.
Parvardigor kuch ato etgay.
"Suring" degan na'ra esa bosqinga da'vat.
Bizning oddiy "Ur-ho-ur"dan yov juda qo'rqar.
Endi jahon yaxshi bilar qudratimizni,
Pinhon joyi qolmagandir hiylalarning ham,
Biroq Temur firiblarin adog'i yo'qdir!
Endi ruxsat,
Mashvaratning mehmonlariga.

Bir qism ishtirokchilar chiqib ketadilar.

Shahzodalar, vazirlar-u amirlar qolsin.
Qani, ayting, vazirimiz Muhammad qovchin,
Ne gaplar bor saltanatning sarhadlarida?

Muhammad qovchin
A'lohazrat, saltanatda katta-yu kichik
Dorulamon,
Duoyingiz qilmoq bilan shod.
Xushxabarlar kelib turar shahzodalardan.
O'lpon, to'lov — bari-bari nazoratdadir.
Faqat Rumo hukmdori Sulton Boyazid
Sarkashligin qo'ymayotir.

Temur
Yana Boyazid!
Yassavuriy —
Samarqandning viloyatidan,
Xutalonda Kayxisrav-u Balhda Husayn,
Jaloyirbek —
Qadim Xo'jand mulkin hokimi
Bizga qarshi bosh ko'tarib nima bo'lishdi?
Bir paytlari Xorazmda So'fiy unvonli
Husayn va Yusuf degan hukmdorlar ham

Chig'atoyi ulusini e'tirof etmay
Yengilguncha dabdurustdan o'yin ko'rsatdi.
Oqibatda xarob bo'ldi, afsus, Xorazm.
Dini Islom,
Shariatning manfaati deb
Hindistonning poytaxtin ham fath aylagandik.
Inchunin, bir Zanjir Saroy o'chin olay deb
To'xtamishning O'rdasini chilparchin qildik.
Biz ham yoqib yuborganmiz Saroy Berkani.
Boyazidga lekin atay tegmadik, valloh,
G'ayridinlar ustimizdan kulmasin dedik.
Ikki tildosh,
Ikki dindosh bitta turk qavmi
Olishsalar,
Talashsalar nomus emasmi?

Shayxulislom
Ori rostdur.

Temur
Necha yilki, qochib yurgan ta'qibimizdan
Sulton Ahmad Jaloyir va Qora Yusuflar
Boyazidning saroyidan topmishlar panoh.
Bizning manfur dushmanlarga homiy Boyazid.

Barlos bahodir
A'lohazrat,
Boyazidni kechirib bo'lmas.

Amirlar
A'lohazrat,
Sabrning ham bor chegarasi.

Temur
Boyazidga yana maktub yo'llagan edik,
Yana imkon bergan edik o'ylab ko'rishga.
Biroq, hanuz javob yo'qdir.

Muhammad Qovchin
Balki Boyazid
Tavba qilib o'tirgandir, jur'ati so'nib,
Ko'z oldiga kelar balki, minglab kalladan
Yasalajak minoralar, seldek oqqan qon...

Temur
(g'azab bilan)
Nima deding, hoy vazirim Muhammad Qovchin?
Bizning jihod yo'lidagi uzgan kallalar
Ko'zlaringga minoradek ko'rinmoqdami?
Yo adolat jabhasida biz to'kkan qonlar
Nazaringda, sel misoli ko'pirmoqdami?
Balki diydor ko'rishsangiz qiyomat chog'i
Sulton bilan birgalikda tavba qilgaysiz?
Bu gapingni Amir Temur vaziri emas,
Boyazidning o'zi aytsa jo'yali edi.
Bundan buyon qilar ishing bilib ol, Qovchin,
Janggohlarda otboqarning to'rvasin olib
Sen uzilgan kallalarni yig'ib yurgaysan.
Otboqarni chorlang menga.

Muhammad Qovchin
A'lohazrat,
A'lohazrat!

Temur
Men Hazrat emas,
Men ham Temur deb atalmish oddiy bir banda.
Mumkin edi allaqachon o'lib ketishim
Ilon chaqib yo bo'lmasam otdan yiqilib.
Men o'lmadim!
Meni mana ko'rib turibsiz.
Boz ustiga fotih deya nom olgan Zotman.
Odam qavmi o'z qismatin sahrolarida
Tashnalikdan labi qaqrab tentiragan chog',
Qultum suvdek kerak bo'ldim shekilli unga.

Cheksiz cho'lda Insoniyat karvoni tarqab
Bir-birlarin tepib,
Surib g'ujgon bo'lgan payt,
Men ularni ipga tizdim bir sarbon bo'lib,
Ko'hna tarix oldidagi xizmatim shuldir.
Sen kabilar bu karvondan adashgan tuya.

Otboqarni olib kiradilar.

Temur
(Muhammad Qovchinga)
Otboqarning jomakorin kiyasan, Qovchin,
Sening zarbof to'ning esa otboqarniki.

Muhammad Qovchin
A'lohazrat, A'lohazrat!

Temur
Endi ketaver,
Irodasiz arboblarning jazosi shuldir.
(eshikbonga)
Xabar yo'qmi?
Chopar yo'qmi Rum taraflardan?

Eshikbon
Olampanoh, kutib turar ikkita chopar.

Temur
Kirsin ular!

Ikkita chopar oldinma-keyin kiradilar.

Temur birinchi choparga.
Qaydan kelding? Isming nadur?

Birinchi chopar
Sarandibdan. Ismim Borchiq.

Temur
Borchiq?

Birinchi chopar
Ha, Borchiq!

Temur
Birinchi bor eshitishim bundoq ismni,
Ma'nosi ne?

Birinchi chopar
Men bilmayman, o'ylab ko'rmabman.

Temur
O'z ismining ma'nosini bilmagan sendek
Elchi bilan gaplashmayman.
Kutib tur, bor, chiq!
Biron yurtga choparini yubormoq bo'lsa,
Avval uni tanlashni ham bilsin podshohlar.

Ikkinchi chopar
A'lohazrat, men Rumodan yetib kelmishman,
Qaysarimiz Boyazidning elchisidurman.
Sulton Shabli erur mening ismi sharifim.

Temur
Ko'pdan seni kutmoqdaman, xabar ber, elchi,
O'z-o'ziga qanday hukm chiqarmish Sulton?

Chopar maktubni uzatadi. **Temur** uni o'qiy boshlaydi.

"Urush bilan hal bo'lajak bu mojarolar".
"Agarda sen biz tomonga kelmasang, Temur,
Bilib qo'yki, xotinlaring uch taloq bo'lgay.
Agar seni yenga olmay chekinsam ortga
Unda mening xotinlarim bo'lsin uch taloq".
O'h, Boyazid, maqsadingni aytibsan, ammo

Shart edimi xotinlarni qimorga tikmoq.
O‘z ismini yozmish Sulton oltin hal bilan,
Bizning ism quyiroqda, oddiy siyoxda...
Tag‘in Sulton emish bu zot.
Bachkana qiliq.
Amir Temur irodamiz,
Farmon shul erur:
Rum Sultoni chorlabdimi jang maydoniga
Borajakmiz!
Bu shumoyoq choparni esa
Eson-omon kuzatingiz kelgan yo‘liga.
Barchangizga ruxsat.
Meni yolg‘iz qoldiring.

Hamma chiqib ketadi. **Temur** orqadagi parda tarafga qarab murojaat qiladi.

Temur
Buqalamun, sen qaydasan, bu yoqqa kel-chi.

Parda ortidan nogahonda **Buqalamun** — **Temur**ning xufiyasi chiqib keladi.

Buqalamun
Olampanoh, hozir bo‘ldim, ne buyurgaysiz?

Temur
Yana yumush topshiraman senga ishonib,
Zero, har ne mushkulni ham eplab kelgansan.
Xufiyalarim orasida epchili o‘zing.
Xohlasang gar o‘zgaradi butkul qiyofang.
O‘zgaradi va hattoki ko‘zingning rangi.
Sen bilmagan tillar ham yo‘q yetti iqlimda.

Buqalamun
Olampanoh,
Shu sababdan laqabimni ham

Juda topib qo'ygandingiz, Buqalamun deb.
Asl ismim bir zamonlar Itolmas bo'lgan.

Temur
Endi mag'rib kishisiga aylangaydirsan.
Mutakabbir va hiylakor farangiylarni
O'rgangaysan, og'izlarin hidlab ko'rgaysan.
Shoxlarining maqsadlarin obdan anglagach,
Elchilarin chodirimga boshlab kelgaysan.

Buqalamun
Samarqandga, shu yergami?

Temur
Yo'q, Buqalamun!
Nasib etsa Angoraning atroflarida,
Olis Rumo mamlakatin qoq yuragida
Tug' ko'tarib, g'olibona chodir tikkayman.

Buqalamun
Olampanoh, shu daqiqa, shu soniyadan
Meni farang deb hisoblang!

Temur
Javobing tuzuk.

Buqalamun g'oyib bo'ladi. **Temur** eshikbonni qars urib chorlaydi.

Taklif eting malikani — Bibixonimni.

Bibixonim!
Agarda u bo'lmasa edi
Kurashlarning va janglarning dolg'alarida
Qayroq toshga aylanardi balki bu yurak.
Ig'vo, fitna, g'araz to'la yolg'on dunyoda
Sabrim tugab, goho-goho o'ylab qolaman:
Zarurmikan barchaga teng yaxshilik qilmoq?!
Mehr bilan birortasin boshin silasang

G‘ayur itdek qo‘ling tishlar, talab tashlaydi.
Xudparastdir quldan tortib shoxlarga qadar.
Bunday holning boisi ne?
Sababi nima?
Men bildimki, bu qurama Inson zuryodi
Taxt talashib,
Shon talashib,
Boylik talashib,
Alloh bergan dil gavharin unutib qo‘ygan.
Tinglamasa, qamchin bilan urib va haydab
Insof tomon qaytarmoqlik kerak ularni.
Jondan to‘yib nokaslarning kirdikoridan
Darvish bo‘lib ketar ekan goho donolar.
Xo‘sh, men-chi, men?!
Axir men ham asli yolg‘izman,
Bugundan-u kelajakdan malomat bilan
Minglab ko‘zlar tikiladi bitta o‘zimga.
Chunki mening qismatimga janglar yozilgan.
Faqatgina Bibixonim to‘lin oy kabi
Yoritadi tund, qorong‘i kechalarimni.

Bibixonim kiradi.

Bibixonim
Chorlamishsiz, olampanoh...

Temur
Bibixon, bibi...
Kengash bilan band bo‘libman.

Bibixonim
Men ham band edim.
Hozirgina nabirangiz Mirzo Ulug‘bek
Aloviddin janoblarin shatranjda yengmish.
Buvijon,— deb kelmish menga suyunchi so‘rab,
Ko‘z tegmasin,
G‘oyat zukko kichkintoy Mirzo.

Temur
Oson emas mot qilmoqlik Aloviddinni.
Aloviddin shatranj ilmin jahongiri-ku.
Ha, bugungi mashvaratda — kengash chog'ida
Zukkoligin ayon etdi o'spirin Mirzo.
Inshoolloh,
Avlodlarim ulg'ayib bir kun
Yer yuzini zabt etarlar ilm-u fanda ham.
Mening esa peshonamga suronli janglar,
Ot ustida kun o'tkazish yozilgan ekan.

Bibixonim
Olampanoh, yana yurish, yana safarmi?

Temur
Hisoblashmas qismat bizning istaklar bilan,
Bamisoli quyosh botgach,
Oy chiqqanidek
Hodisalar silsilasi oqar bardavom.
Biz bir kuni xonadonga mehmon chorlasak,
Boshqa kuni chaqirishar qo'noqqa bizni.
Turkiylardan cho'chib farang mamlakatlari
Rumo bilan ikkimizni gijgijlab qo'ydi.
Bu nayrangni tushunmaydi, afsus, Boyazid,
Boz ustiga kimki qochsa bizning g'azabdan,
Boyazidning saroyidan topmoqda panoh.

Bibixonim
Uning asl maqsadi ne?
Murodi nima?

Temur
Sulton bizning Saltanatga bepisand boqib,
Hasadini bildirmoqda yosh bola kabi.
Men sabr etib, totuvlikka uni chaqirsam
U muttasil javob berar haqorat bilan.

Endi jangga chorlabdi u oshkora, ochiq.
Men — Temurman!
Oriyat ham bor-ku dunyoda.
Yetar, endi!
Kuno‘g‘longa egar urgayman,
Rum tarafga yuzlanadi tulporim jadal.

Bibixonim
Qaysi ona farzandini urushga yo‘llab,
Qaysi ayol orzu qilgay jang-u jadalni.
Sizga zafar tilamoqdan boshqa choram yo‘q,
Balki men ham yoningizda bo‘lay, Amirim.

Temur
Yo‘q, azizam, Samarqandning saltanatida
O‘zingiz-u nabiramiz Muhammad Sulton
Hukmfarmo bo‘lib turing.
Yumushlar talay.
Qurilishlar, bog‘-rog‘lar, bola-baqralar.

Bibixonim
Olampanoh, bilasizki, men o‘zim uchun
Jome masjid qurmoqdaman.
Bitkazay uni.
Toki Sizni kutib olay masjid qoshida.
U mendan bir yodgor bo‘lgay.
Farzandim yo‘q-ku...

Temur
Menga ham bir masjid bino qilingiz, ammo
Bunday g‘amgin bahonani keltirmang, bibi.
Shahzodalar, nabiralar barcha-barchasi
Ulg‘aymishdir,
Ulg‘aymoqda mehringiz bilan.
Saltanatni oltin uzuk desam men agar
Uning oliy bezagi — Siz,
Yoqut ko‘zi — Siz.

Eslaysizmi, ne deb yozmish eronlik Hofiz:
— Agar ko'nglimni shod etsa o'sha Sheroz jononi
Qaro xoliga baxsh etgum Samarqand-u Buxoroni.
Shoir bilmas, allaqachon bu ikki shahar
Hadya bo'lgan Bibixonning qaro xoliga.
Orzuim bor, yo'lim tushib, nasib etsa gar
O'sha tanti shoir bilan gaplashar edim.

Bibixonim
Olampanoh, Siz bir vaqtlar Balx taxtin emas,
Asli mening yuragimni zabt etgandingiz.
Toleyimdan ming roziman, valine'matim!

Temur
Qayda bo'lmay xayolimda Siz va Samarqand,
Go'yo ikki qarog'imdek doim birgasiz
Shahrimizning ishlari-yu tartibotiga
Mas'ul etib qoldirgaymiz Xoja Yusufni.
Umidvorman, bosh ko'tarmas nafsi buzuqlar,
Yurt tinch bo'lar, qon to'kilmas, gadoy ko'paymas.

Bibixonim
Tashvish chekmang, Olampanoh, bizlarni o'ylab,
Faqat aziz joningizni ehtiyot aylang.

Temur
Ma'zur tuting, Bibim, Sizga bir o'tinchim bor
Mayli, aytay, dilingizga og'ir botsa ham.

Bibixonim
Olam yuki qadar buyuk qudratingizni
Kiprigimda ko'targayman muhabbat bilan.

Temur
Ota-onam xoki yotgan Kesh tuprog'ida
Mening uchun dahma quring, maqbara quring.

Bibixonim

(tiz cho'kib)

Olampanoh!
Bu gaplarni aytayotgan Siz o'zingizmi?

Temur

Bilar edim talvasaga tushishingizni.
Inshoolloh, hali uzoq yasharmiz, bibi.
Alloh lozim ko'rganicha davron surgaymiz.
Biroq esdan chiqarmaylik bandalikni ham.
Fuqarolar goho meni ko'kka ko'tarib
Unutarlar ko'p qatori insonligimni.
Amir Temur o'lmaydi,
deb yurgandan ko'ra
Qora kunga ko'nikishib turgay fuqaro!
Boz ustiga, hovliqqanda mozorga bor, deb
Bejiz aytib ketmaganlar qadim bobolar.
Esga solar u umrning o'tkinchiligin
Va ko'ngilda shafqat hissin bisyorroq qilg'ay.

Bibixonim

Olampanoh, o'z lutfingiz bilan aytayin:
Bunday g'amgin bahonani keltirmang Siz ham.

Temur

Vaqti kelib, qilichini qayrab Azroil
Saltanatim tepasida paydo bo'lgan chog',
Maqbaramni ko'rib, ortga qaytib ketgaydir:
Allaqachon buning jonin olibman-ku deb.

Bibixonim

Jahongirning hazili ham naqadar dahshat.

Xonzodabegim g'oyat parishon, yuzlari momataloq holda daf'atan kirib keladi.

Xonzodabegim?!

Xonzodabegim
Olampanoh,
Bibioyim,
Ma'zur tutgaysiz...

Bibixonim
(Temurga)
A'lohazrat,
Kelinimiz Xonzodabegim,
Amirzoda Mironshohning zavjasidir bu.

Temur
Ne gap o'zi?
Bu ahvolda kelmishsiz, ajab!

Xonzodabegim
Bibioyim ikkalangiz xoli turganda
Men arzimni aytmoqlikka ayladim jur'at.
Olampanoh, farzandingiz — Amirzodamni
Yer-u ko'kka ishonmayin e'zoz etaman.
Shukur, Sizning mehringizdan bahramanddirmiz.
Amirzodam g'oyat xushfe'l, g'oyat mehribon.
Biroq sarxush bo'lgan chog'i, junbushga kelib,
Menga bot-bot qo'l ko'tarar,
Sabrim tugadi.

Temur
Hali qo'lin ko'tardimi Sizga Mironshoh,
Yuzlaringiz ko'kargani...
Uning ishimi?!
(eshikbonga)
Chaqiringiz Mironshohni!
(Xonzodabegimga)
Kechiring, kelin...
Boshim yerga tekkunchalik egilaman-u
Sizdan uzr so'rayman men —
Qayinotangiz!

Biroq bizdan yashirmangiz biror sir bo'lsa.
Voqeaning sababini bilmak istayman.

Xonzodabegim
Men aytishga...

Temur
Ayting, tortinmang!
Umrdir bu, axir bozor savdosi emas.

Xonzodabegim
Amirzodam sarxush bo'lgan kezlari doim
O'zlarini tutolmaslar...

Temur
Yetar, tushundim!..
Sizga ruxsat.
Ko'nglingizni cho'ktirmang, ammo
Bir barmog'im lat yebdi-yu, bilmayman, afsus.

Xonzodabegim chiqadi.

Bibi, Sizga necha bora aytgandim, eslang,
O'g'illarim sarxush bo'lib zinhor-bazinhor
Kelinlarim to'shagiga bormasinlar deb.
Sarxush bo'lgay sarxushlikdan tug'ilgan farzand.
Xonzodaga yetkazingiz tashakkurimni.

Bibixonim
Mironshohning bu fe'lidan voqif bo'lsam-da,
Sizga atay aytmagandim,
Ming o'yga borib!

Mironshoh ta'zim ila kiradi.

Temur
(Mironshohga)
Beri keling!
Beri keling!

Xo‘sh, Amirzodam,
Sizga yangi, sho‘x qiliqlar muborak bo‘lsin!

Mironshoh

(dovdirab)

A’lohazrat, ne qilibmen?!

Temur

(g‘azab bilan)

Qilmishing uchun
Seni hozir tilka-pora qilsam ham ozdir.
Sohibqiron o‘g‘liman deb,
Shahzodaman deb
Yoki bosar-tusaringni bilmay qoldingmi?
Yo saltanat yemishidan buqadek to‘yib,
Zanjiringni uzmoqlikka qasd ayladingmi?
Ayolingga sarxush holda qo‘l ko‘targuncha
Paxsakashlik qilgin edi,
Ko‘chaga chiqib!

Mironshoh

Afv etingiz, Olampanoh!..

Temur

Janjalning siri
Ayon bo‘ldi:
Zuryodiga,
Pusht-kamariga
Yomonlikni ravo ko‘rgan johil, xudbinsen!

Mironshoh

Afv etingiz!

Temur

Ayol kishiga
Qo‘l ko‘tarish nimaligin bilurmisan?
Ayt!

Sen-ku odam bolasisan,
Qaysi bir hayvon
Emayotib, uzib olar onasin ko‘ksin.
Shohlarni-ku qo‘yaturay,
Payg‘ambarlar ham,
Nabilar ham tug‘ilgan-ku ayol zotidan.
Unutibsan,
Senga bir vaqt aytib bergandim,
To‘maris deb atalguvchi yovqur momomiz
Turon zamin erki uchun maydonga chiqib,
Eron shohin kallasini qonga bo‘ktirgan.
U ham axir ayol bo‘lgan,
Bilib qo‘y, o‘g‘lim!
Ayol zoti xonadonning shamchirog‘idir,
O‘sha chiroq o‘chmasin, deb jang qilamiz-ku!
Endi esa, zindonga bor!
Qirq kun yotgaysan!

PARDA

UCHINCHI SAHNA

Angora yaqinidagi tepalikda **Temur** chodiri. Tashqaridan g‘ovur-g‘uvur, otlar kishnashi, fillar na’rasi eshitilib turadi. Chodir ichida taxtda Amir Temur. Uning atrofida shahzodalar, amirlar, lashkarboshilar. Amir Temur chodir tashqarisiga ko‘z tashlaydi va qulog‘iga sirg‘a taqqan sarbozga ko‘zi tushib uni o‘zining chodiriga chorlaydi.

Temur
Siz ayol-ku?! Astag‘firulloh.
Sirg‘angizdan payqab qoldim men.
Biroq bilib qo‘ying Siz,
Ayollarni men janggohga jalb qilmaganman.

Darxon ona
A'lo hazrat.
Onalarning qismati ma'lum,
Qayda bo'lsa bolajoni ko'ngli ham shunda.
Yolg'izgina o'g'lim Sizga navkardir — askar,
Sizga doim kamarbasta, sadoqatlidir.
Men pinhona oshpaz bo'lib, duogo'y bo'lib,
Sizning qutlug' karvonga ha, ergashib keldim.
Inshoolloh haqqa yetgay ona duosi.
Hazrat bu kun zafar Sizning qo'lda, inshoolloh.

Temur
Sizni qaydan so'ragaymiz.

Darxon ona
Keshning yonida
Darxon degan bir qishloq bor.
O'sha joydan men.

Temur
Vo ajabo? Bir zamonlar o'sha qishloqdan
O'tayotib mehmon bo'ldim bir onaxonga.
Xayolimdan u manzara ketmas sira ham.
Yigit chog'im mag'lubiyat alamin chekib,
Ot ustida kelar edim mahzun, mung'ayib.
Boz ustiga men g'oyatda ochiqqan edim.
Qultum suv-u bir burda non zardan azizroq.
O'sha lahza pastdakkina devor ortidan
Dimog'imga urildi-ku zig'irdog' hidi.
Ot boshini darhol burdim o'sha tomonga.
Supachada o'ltirardi mushtipar ayol.
Dasturxonda turar edi karson atala.
Surishtirmay atalani sipqora qoldim.
Hali sovib ulgurmagan qaynoq bu taom
Eritilgan qo'rg'oshinday kuydirdi og'zim.
Va men oh tortdim.

O‘sha lahza haligi ayol
Menga dedi: Shoshilmagin Temurga o‘xshab.
Men dedimki, qachon, qayda shoshgan Temurbek?
Ayol esa javob ayladi:
Qaysi kuni bir qo‘rg‘onni ololmay Temur
Mag‘lub bo‘ldi afsus, ko‘p afsus.
Yutqazganin sababchisi shoshgani edi.
Atalani sovitmasdan ichding-ku o‘g‘lon,
Og‘zing kuyib ataladan yengilding sen ham.

Darxon ona
Sizmidingiz o‘sha yigit?

Temur
Ha! Men — Temur edim.
Demak, Siz ham o‘shasiz.
Menga tanbeh bergandingiz shoshqaloqsan deb.

Darxon ona
Ha. Bu rost.

Temur
Menga abad saboq bo‘ldi bu tanbehingiz,
Yetti o‘lchab bir kesmoqlik qat’iy odatim.
Endi esa eson-omon qaytsinlar onam.

Darxon ona
Hazrat. . .

Temur
Jang-u jadal buyurmishdir faqat erlarga.
Onalar-u bolalarga munosib ishmas.

Darxon ona
Ezgulik deb, din-u islom himoyasi deb,
Vatanni deb, el-u yurtning oriyati deb
Ot surdingiz.

Siz jahongir Sohibqironsiz!
Modomiki, adolatni qilibsiz shior
Har jabhada unutmangiz ona nidosin.

Temur
Onamizni kuzatingiz uyga sog'-omon.
Bibixonning o'zi unga ko'z-quloq bo'lsin.
Zafar bilan biz qaytganda kutib olgaysiz.
Parvardigor, har soniya o'zing qo'llading,
Yana qo'lla va qo'llasin ona duosi.

Darxon ona chodirdan chiqib ketadi.

Shayxulislom
Olampanoh, izn bering.

Temur
Gapiring, hazrat.

Shayxulislom
Kecha tunda munajjimlar — axtarshunoslar
Yulduzlarning holatiga obdan boqishib,
Xosiyatli topishibdi bugungi kunni.

Temur
Qutlug' ta'bir.
Ammo bugun Boyazid bilan
Amir Temur jangga kirar.
Munajjimlarmas.
Shayxulislom, bilib qo'ying hasratimni Siz.
U ham muslim, men ham muslim.
Bu ne ko'rgilik.

Shayxulislom
Gap shundaki, muslimlikdan Boyazid yiroq,
U Mariya ismli bir nasoro qizni
Nikohiga olib qo'ymish.
Siz — asl muslim.

Temur
Jang taqdirin hal etajak mana shu jihat,
Inshoolloh,
Xudo menga madadkor bo'lgay!

Shayxulislom va boshqalar.
Inshoolloh, inshoolloh!

Temur
U ham turkiy, men ham turkiy.
Bu ne gustohlik!
Samarqanddan yetib kelgan mening lashkarim
Ot suradi akasi yo ukasi tomon.
Yuragimni o'rtar bu hol,
Lekin majburman.
Har qandayin muhoraba oldidan doim
Allohimdan madad so'rab, yolvoraman men.
Shayxulislom, zafar tilab tilovat qiling.

Shayxulislom tilovat qila boshlaydi.

Temur
(shahzodalar, amirlarga)
Shunqorlarim,
Ulug' jangga kirayotirsiz.
O'ng qanotni topshirgayman senga, Mironshoh,
So'l qanotni boshqarasan Shohruh Mirzo, sen!
Samarqanddan lashkar bilan madad bergani
Yetib kelar amirzoda Muhammad Sulton.
Obong'ortni faqat o'zim nazorat qilgum.
Hozirgacha ma'lum bo'lgan xabarga ko'ra
Jangga chiqmish yov tarafdan
to'rt yuz ming lashkar.

Shahzodalar, amirlar
Olampanoh, Allohdan-u Sizdan kuch olib
Har qandayin yog'iyni ham tor-mor etgaymiz.

Temur
Bolalarim, bu og‘ir jang.
Biling, bu jangda
Rumoning o‘z lashkarlari himoyadadir.
Ular axir o‘z yurtlarin qo‘riqlagaylar.
O‘ylab ko‘ring,
Agar ulkan bir qayrag‘ochga
O‘zga jonzot yaqinlashsa,
O‘sha zahoti
Qayrag‘ochda oshyon qurgan jami parranda
Chiyillashib, chuvullashib jangga shaylanar.
Ammo Rumo yerida men o‘zga emasman,
Men musulmon amiriman!
Nasabim turkiy!
Adolat va dini Islom posbonidirman.
Farmonimga quloq tuting:
Bizkim, mulki Turon,
Amiri Turkistonmiz.
Bizkim millatlarning
Eng qadimi va eng ulug‘i
Turkning bosh bo‘g‘inimiz.
Alloh Sizga madad berib, zafar yor bo‘lsin!
Nog‘oralar chalinsin.
To yer-u osmonni
Bizning lashkar suronlari chulg‘ab olsinlar.
Yog‘iylarni tahlikaga solsin bu suron.
Na’ramizga jo‘r bo‘lsinlar jangovar fillar.
Yasovullar har daqiqa menga paydar-pay
Yetkazishib turadilar jang tafsilotin.
Sarkardalar, Sizga ruxsat
Allohu akbar!

Amirlar, sarkardalar chiqadilar.

Temur
(eshikbon — yasovulga)
Endi esa chorlang buyon Aloviddinni.

U betimsol bir iste'dod, shatranj ustasi.
Samarqanddan atay uni olib kelganman.

Aloviddin kiradi.

Aloviddin
Olampanoh, chorlamishsiz...

Temur
Ha, Aloviddin,
Sen bilan biz necha yilki shatranj suramiz.
Ammo bilki, bu galgisi boshqacha o'yin,
Bu — boshqa jang! Donalarni ter, Aloviddin.

Aloviddin shatranj donalarini teradi. **Temur**da oq donalar.

Eshitgansan, Aloviddin.
Yoshlik chog'imdan
Men shatranjga ishqibozman.
U nozik o'yin.
Uni tengsiz san'at deya ta'rif etarlar.
Biroq shatranj o'xshar ko'proq jang san'atiga.

Aloviddin
Qani, yuring, olampanoh.

Temur
Yurdi, sipohim,
Qani olg'a, piyodalar,
Zafar yor bo'lsin.

Chodir tashqarisidan jang sadolari barala eshitila boshlaydi.

Aloviddin
Shoh sipohin bizga qarshi yo'naltirdingiz,
Kaminaning sipohi ham anoyi emas.

Temur
Hozir nechun jang qilmoqda piyodalarim,
Xabar kelib qolur hozir u tomondan ham.

Juda og'ir jang ketmoqda chodir ortida.
Inshoolloh, yengajakman!
Sen — Aloviddin,
Faqat shatranj sohasida jahongirdirsan,
Bizning esa chekimizga boshqa yuk tushgan,
Bizning uchun ulkan zamin — shatranj taxtasi.
G'olibning ham, mag'lubning ham turg'on qartasi
Qon to'la bir hovuz erur! Mamot jangi bu.

Aloviddin
Sizning buyuk iste'dodga ta'rif yo'q aslo,
Shatranjda ham betimsolsiz.
Iqrorman, hazrat,
Ammo menga izn bering, bir savolim bor.

Temur
Ayt, Aloviddin!

Aloviddin
Shu asnoda ulug' bir jang davom etmoqda,
Sizning g'olib bo'lmog'ingiz garchi muqarrar.
Lekin, hazrat, Siz men bilan chodir ichida
Shatranj o'ynab jang maqomin kuzatmoqdasiz,
Bir qarashda beparvodek,
Hatto sovuqqon.

Temur
Men bilaman, o'z qudratimni,
Raqibimni dovdiratar bu usulim ham.
Xabar kelib qolur hozir u tarafdan ham.

Aloviddin
Usulmi bu?

Temur
G'oyat zo'r usul!
Odamlarim allaqachon Rum sultoniga

Mening shatranj o‘ynab turib jang qilishimni
Yetkazdilar!
Boyazidni tahlika bosdi!
Dushmaningni bundan ortiq kamsitib bo‘lmas.
U go‘yoki filga qarshi chiqqan kuchukday
Alam bilan angillagay.

Yasovul
A’lohazrat, piyodalar nobud bo‘lmoqda.

Temur
Attang, attang.
O‘z kuchiga ortiq ishonsa
G‘aflat bosib qolgusidir hatto filni ham.
(ham yasovulga, ham Aloviddinga)
To‘lg‘ama deb atalguvchi bir yo‘limiz bor,
Yetkazingiz o‘ng qanot-u ham so‘l qanotga.
Mironshoh-u Shohruh Mirzo ikki tarafdan
Yog‘iylarni o‘rab olsin!
Obong‘ortda men!

Aloviddin
Shohga qarshi urush boshladim.

Yasovul
(yana kiradi)
Olampanoh, yov lashkari to‘p-to‘p bo‘lishib
Biz tomonga o‘tayotir.

Temur
Shoyad yaxshi gap!
Ular asl musulmondir,
Ziyon yetkazmang.

Aloviddin
A’lohazrat, har ikkala maydon ichra ham
G‘oyat qizg‘in tus olmoqda jangovar san’at.

Temur
Lashkarlarim urho-ur deb jang maydonida
Nayza bilan, qilich bilan va kamon bilan,
Yov saflarin qirib borar hozir ayovsiz.
Men ham hozir ular bilan ruhan birgaman
Shu gap haqqi, Sizga qarshi tashlayman ruxni.

Aloviddin
Olampanoh, ko'tarmoqchi bo'lsangiz tug'ni
Boyazidning alvon rangli chodiri uzra,
Ruxni emas, asplarni maydonga tashlash
Ma'qul tadbir bo'lg'usidir.

Temur
Tangrim madadkor!
Ruxni surish fikrini u o'rgatdi menga.
Asplarni qamchilaydi belida kuchi,
G'alabaga ishonch o'ti so'ngan kimsalar,
Eshitingiz,
Rux haqiqat qilichidek keskir, beomon.
Men rux bilan jang qilishni sevaman juda.

Aloviddin
Ruxingiz na'rasiga javobim shu-da.

Yasovul
Olampanoh, orqadagi yov o'rdasini
Halqa kabi o'rab oldi bizning lashkarlar,
Biroq o'rda ustuvordir!

Temur
Bizning qo'lda naftandoz deb ataluvchi bir
Ajdahodek o't purkagich yarog'imiz bor.
Bamisoli osmondan tushgandek quyun
U o't olov purkay boshlar zamin ustiga.
O'rda tomon yo'naltiring naftandozlarni!

O‘rda chilim sarxonasi kabi yonsin-u
Tamakidek tutab ketsin tubida yog‘iy.
(Aloviddinga)
Aloviddin, qay yo‘sinda yo‘limni to‘sma,
Mana, endi ishga tushar sarkardam farzin.
Va ortidan ikkinchi rux chiqar maydonga,
Endi qayga qochib borgay sho‘rlik qorashoh,
Endi kimdan madad kutsin
Yo kimga arzin bayon etsin?

Aloviddin
Chiroyli mot! Mot!

Temur
Bu — ruxning ishi...
Shoyad ruxlar menga mudom bo‘lgay madadkor.

Yasovul
A’lohazrat. Yaxshi xabar bor!
Shu asnoda Rum sultoni asir olinmish!

Temur
(yasovulga)
Isming nedur?

Yasovul
A’lohazrat, ismim Qosimbek.

Temur
Qayerdansan? Nasabing kim?

Yasovul
Men — shahri Keshdan.
Otam sizga sarboz bo‘lgan.
Dehli jangida
Shahid ketgan.
Bugun mening o‘zim sarbozman!

Temur
Bizning uchun g'oyat qutlug' mujda keltirding,
O'g'lim, seni siylagayman bu mujda uchun.
Inshoolloh, Samarqandga qaytib borgan chog'
Nikohingga berajakman bir nabiramni.

Yasovul
Olampanoh, o'lgunimcha Sizga sodiqman.

Aloviddin
O, Allohning marhamati bunchalar kengdir,
Bir bandasin daqiqada ko'kka ko'tardi.

Temur
Shukur, deyman, yaratganga — Parvardigorga,
Biroq, zafar nashidasin totmasdan burun
Ruhiyatim amri bilan bir gap aytaman:
Hech bir shohning boshiga bu kulfat tushmasin.
Olib kiring Boyazidni!

Boyazidni oyoq-qo'li bog'liq holda olib kirishadi.

Evoh, bu ne hol?
Oyoq-qo'lin yeching darhol,
U axir, Shoh-ku!
Chumolilar xor qilishsa arslon rutbasin
Buzilgaydir o'rmonning ham qonuniyati.
(Boyazidga)
Men taassuf bildiraman, tushungin, Sulton.

Boyazid
Asir bo'lib tursam hamki qoshingda, Temur,
Zor emasman iltifoting, taassufingga.

Temur
Oddiygina bir voqea yuz berdi, axir,
Sen yildirim laqabli bir qudratli chaqmoq
Cho'ng temirga urilding-u chilparchin bo'lding.

Boyazid
Sen ustimdan kulmoqdasan,
Masxara qilma!
Botirlarning ishi emas yotganni toptash.

Temur
Toptamasman va inchunin, kulmasman, aslo.
Biroq taqdir deb atalmish buyuk hukmdor
Kulgan ekan ikkimizning ustimizdan ham.

Boyazid
Bu gapingni qay yo'sinda anglamoq kerak?

Temur
Men bir lang-u,
Sen esa ko'r, notavon so'qir,
Bu dunyoda butun odam topilmaganday
Ikkimizga yer yuzining jilovin bermish,
Tavba qildim,
Tavba qildim,
Ming bora tavba!
Sen bilan men ne qadarli qudratga molik,
Qamchisidan qon tomguvchi podshoh bo'lmaylik,
Yaratganning huzurida ojiz bandamiz.
Alalxusus, bunga misol
Sening qismating.

Boyazid
Lashkarlarim so'nggi damda xiyonat qildi,
Bo'linib qochib ketdi ikki tarafga.
Afsus, chora topolmadi o'g'illarim ham.

Temur
O'z boshingga o'zing yetding, iqror bo'l Sulton,
Takabburlik va manmanlik hunaring bo'ldi.
O'z qavmingdan chiqqan bizdek Sohibqironga
Ko'p noloyiq maktublarni bitgan bu sen-ku.

Xudo sendan yuz o‘girdi
Lashkarlaring ham.
Qora Yusuf, Jaloyirdek g‘animlarimning
Boshin silab atay mening g‘ashimga tegding.
Yer yuzining bir bo‘lagin egallab olib
Jahongirlik da’vo qilish muroding edi.
O‘zing o‘yla, chiqishgaymi ikki jahongir?
Bu olamga ikki Xudo ko‘plik qilmasmi?

Boyazid
Agar mening qilmishlarim qusur sanalsa,
Buning bari senga ham xos, bilib qo‘y, Temur.

Temur
Biroq Alloh yo‘rig‘idan chiqmaganman men
Va, aksincha, bu yo‘rig‘ni buzgan zotlarning
Adablarin berib keldim, berajakman ham.

Boyazid
Tahqir qilma, musulmonman, alhamdulilloh!

Temur
Ana endi hushyor tortib tingla, ey Sulton,
Ikkimiz ham turkiymi?

Boyazid
Ha, shubhasiz, turkiy.

Temur
Turkiylarning ikki shohin gij-gijlab qo‘yib,
Urishtirish kimga zarur bo‘lganin o‘yla.
Ovrupaning nayrangiga laqqa uchding-ku
Sohibqiron Temuringdan yuzni o‘girding.
Qancha uzoq olishsalar ikki pahlavon,
Isrof bo‘lar ulardagi shunchalik kuch ham
Va o‘rtada g‘olib chiqar gij-gijlagan zot.

Boyazid
Murodingni aytgil menga. O'ldirsang o'ldir!

Temur
Bil'aks, Seni muhofaza qilurman, Sulton,
Turk elining noahillik tarixida Sen
Tirik timsol sifatida yashab yurgaysan.
Hurmating ham shu qadarli bo'ladi, qo'rqma,
Iltimos-u tilagingni Sen aytsang durust.

Boyazid
Vayron qilma Rumo yurtin.
Lashkaringga ayt,
Hech bo'lmasa, turk qavmiga shafqat ko'rsatsin.

Temur
Urushlarning o'z dahshatli nizomlari bor,
G'olib askar yuragida jo'shgaydir g'urur.
G'animini mag'lub holda ko'rar ekan u —
Xayoliga nima kelsa —shuni qilgaydir.
Menga esa har doimo zafar yor bo'ldi.
Balki xuddi shu sababdan lashkarlarimni
Shafqatsiz deb ataydilar, sababi —zafar.
Ha, gohida mash'um ishlar bo'lganligi rost.
Sen maishat ishqibozi, takabbur Sulton,
Bunyodkorlik nimaligin qaydan bilasan.
Men qurdirgan shaharlarni ko'rmog'ing darkor.
Kaforatga yuz burgan bu saltanatingdan
Olib ketgum yolg'izgina Qur'oni Karimni.

Boyazid
Ulug' Temur, men mag'lubman
Va lekin shu zum
Insonsifat, padarsifat bir gapni aytay:
Iso, Muso, Mustafo-yu Sulaymon degan
O'g'illarim jang qildilar,

Qaydadir ular?
Ahli ayol taqdiri ham noma'lum menga.

Temur
Mening ham bor farzandlarim Mironshoh,
Shohrux.
Ana ular, ro'parangda qator turibdi.
Samarqanddan nabiramiz Muhammad Sulton
Lashkar bilan yetib keldi.
Hozir u betob.
Ha, padarlik barobardir barchaga, Sulton.
(shahzodalarga)
Boyazidning yaqinlarin topib kelingiz.

Shohrux
A'lohazrat, asir tushgan Sulton harami.

Boyazid
Ayo, Temur, mardlik qilib, afv et ularni.

Mironshoh
Ulug' jangni kuzatmoqqa atayin kelgan
O'rusiya, Ovruponing elchilari bor,
A'lohazrat, qabulingiz kutar ular ham.

Temur
Hammasini olib kiring.
Chodirimiz keng.

Elchilar, haram ahli kiradilar.

Men — Temurman!
Xush kelibsiz, deyman.
Marhabo!
O'ylaymanki, mamnundirsiz jang tinganidan.
Rum Sultonin o'g'illari qaysi biringiz?

Shohrux
A'lohazrat, hozirchalik bittasin tutdik,
Uning ismi Muso ekan.
Mana bu yigit.

Temur
Uni darhol kiyintiring shahzodaga xos.

Boyazid
Manov ayol Mariyadir.
Bizning zavjamiz.
Ojiz banda, bir zamonlar islom yo'rig'in
Shu juvon deb buzgan edim.
Iqror bo'laman.

Temur
O'zing yozgan maktubingga rioya qilsak
Sen uchun u endi taloq,
Ko'nsang-ko'nmasang!
Uni biron nasoroga hadya etgaymiz.
(Buqalamunni imlab chaqiradi)
Nikohingga olgin buni.
Asrab-avayla.
Uning zarra gunohi yo'q.
U tutqun bo'lgan.

Buqalamun
A'lohazrat, minnatdorman. Ammo mening ham
Bir sovg'amni qabul qiling.

Temur
Nechuk sovg'a u?

Buqalamun
(qo'ynidan buqalamunni (xameleon) chiqaradi)
Bu — buqalamun.

Temur
Ha, tushundim.
Senmisan u ustasi farang.

Buqalamun
A'lohazrat, Siz buyurgan barcha yumushni
Ado etdim.
Necha-necha kibor elchilar
Sizning ulug' g'alabaga guvoh bo'ldilar.
Mariyani qabul etmoq mushkuldir ammo.
Odatim bor — bir yumalab muslim bo'laman.

Temur
Bu juvonni o'z yurtiga qaytaring omon.
Ayollarning sho'ri qursin.
Tandirdir ular.
Endi esa tilga kirsin ko'hna Ovrupo.

Ioan Sultoniy
Men Ioan Sultoniyman, farang elchisi,
Qirol Sharl derlar mening hukmdorimni.

Shiltberger
Men — Bovarlar vakiliman,
Shiltberger nomim,
Mening valine'matimni Genrix deydilar.

Temur
Sharlmi u, Genrixmi u — menga baribir,
Barchangizni ataganman farangilar deb,
Sizning chalkash ismlar hech yodimda qolmas,
Farmonim shul:
Yetkazingiz xonlaringizga,
Parvardigor xohishi-la omonlik berdim.
Unutmangki, do'stlashmoqchi bo'lsa insonlar
Bir-birlarin fe'l-atvorin bilmoqlari shart.
Bu dunyoni buzadigan gumon, mish-mishdir.

Siz o‘ylarsiz, Amir Temur boylikka o‘ch deb.
Menga yetgay bir burda non hamda qultum suv.
Taftish qilib ko‘ring qani bor xazinamni,
Ortiq aqcha toparmisiz.
Sababi — ayon.
Ne orttirsam barchasini lashkarlarim-u
Mamlakatning manfaati uchun sarfladim:
Shahar qurdim,
Ariq qazdim,
Yo‘llar o‘tkazdim.
Men — Amirman, jahongirman!
Raqiblarim-chi,
Chumolidek fahm eturlar ulkan dunyoni.
O‘zlaridek maydagina manfaat uchun
Alloh bergan buyuk baxtni barbod qilurlar.
Bo‘yin tovlar hamkorlikdan, ulug‘ ishlardan,
Men adolat o‘rnatgali yo‘lga chiqqanman.

Shiltberger
A’lohazrat, Ovruponi Boyaziddan Siz
Qutqardingiz.
Oltin haykal munosib Sizga.

Ioan Sultoniy
Xuddi shundoq, A’lohazrat.

Temur
Ahli Ovrupo!
Meni sodda osiyolik deya o‘ylamang.
Juda yaxshi bilaman men murodingizni,
Rum Sultonin menga qarshi gijgijladingiz,
Oqibatda qutuldingiz uning zulmidan.
Xudo o‘zi insof bersin senga, Ovrupo.
Oltin haykal. Oltin haykal.
Xushomadmi bu?
Mening qurgan shaharlarim — haykallarimdir.

Tag'in shuni bilingki, men butparast emas
Savdo-sotiq degan gap ham bordir dunyoda,
Ne-ne xalqlar do'stlashgaydir tijorat bois.
Samarqandga tashrif etsin karvonlaringiz.
Hindistondan Bolqongacha biror bolakay
Boshi uzra olib o'tsa lagan marvarid,
Yillar osha ulg'ayadi bolakay, ammo
Bir dona ham to'kilmagay o'sha lagandan.
Uqdingizmi, men qandayin tartib o'rnatdim.
Siz faranglar, yig'ishtiring qaroqchilikni,
Bizlar kabi halollikka rioya aylang.
Sizlar xochga topinasiz.
Xoch ko'rinishi —
Bamisoli Sharq-u G'arbning qo'shiluvidir.
Inshoolloh, musulmonman, aytar gapim shu:
Hamkor bo'lsin Ovrupo-yu ulug' Osiyo.

O'rusiya elchisi
A'lohazrat, men o'risman, Moskov tarafdan.
Sharq-u G'arbni bog'laydirgan bir hududdanman.

Temur
Siz ulug'vor bir muhitda yashaysiz, ammo
O'zingizni eplolmaysiz.
Parokandasiz.
Iqlimingiz g'oyat sovuq, buning ustiga
O'rusiya tuprog'idan bir karra o'tdim.
Sizning yelis deb atalmish istehkomingiz
Esda qoldi.
Bahodirlar bordir Sizda ham.
Ulug' ellar qo'shni bo'lib yashar ekanlar.
Unutmasin: to qiyomat taqdirlari bir,
Daryo toshsa — ofat yetgay ikki yonga ham.

O'rusiya elchisi
Bizni ozod etdingiz Siz Oltin O'rdadan.

Temur
To‘g‘rirog‘i — O‘rdani men oldim o‘rtadan.

Yasovul
A’lohazrat, tashrif etmish yo‘lovchi karvon.
Hofiz otlig‘ bir elchisi qabulga kelmish.

Temur
Hofiz?
Hofiz?
Kim u, Hofiz?

Yasovul
Sheroziy emish.

Temur
Nahot o‘sha shoir bo‘lsa,
Ko‘rmoqchi edim.
(chodirdagilarga)
Minnatdorman barchangizdan
Janob elchilar,
Tilagimni yetkazingiz ellaringizga.
Odatimcha,
Samarqandga taklif etaman.
Sizga ruxsat,
Qol men bilan Sulton Boyazid.

Boshqalar chiqib ketadilar.

Temur
(Boyazidga)
Tashvish tortma,
Sening o‘sha farzandlaringga
Bo‘lib bergum Rumning barcha viloyatlarin.

Boyazid
O‘zimga-chi?

Temur
O‘zing esa poytaxt shahring Bursaga borib
Mamlakatga valine’mat bo‘lib turgaysan.
Ishing esa o‘lpon to‘lash va tavba qilish.

Boyazid
Chidolmasman, chidolmasman, mag‘lubiyatga.

Temur
Tingla, Sulton!
Podshohliklar almashaverar.
Qabulimga kirar hozir ulug‘ bir siymo,
Buyuk shoir, Yassaviydek benazir daho.
U — abadiy faxri bo‘lg‘ay Eronzaminning.
Fahm aylagil, muzaffar-u mag‘lub podshohlar
Mangulikning ko‘zgusida nechog‘ kamtarmiz.

Boyazid
Seni johil der edilar.

Temur
Asli sen johil.
Kishilikning manglayiga bitgan shoirni
Sohibqiron Amir Temur qabul aylagay.
Sen-chi, Sulton, haram bilan ovora bo‘lib,
Unutgansan ham harbni-yu ham she’riyatni.
(yasovulga)
Boyazidni kuzatingiz,
Hurmatin qiling.
She’r Sultoni kirgay endi qabulimizga.
Sheroziyni taklif eting.

Hofiz Sheroziy kiradi.

Hofiz
Assalom, Amir!
(ta’zim ila)

Temur
Siz, Hofizmi?
Sheroziymi?
O'sha shoirmi?
Buncha og'in,
Buncha nochor,
Bunchalar yupun.
Nima bilan isbotlaysiz o'zligingizni?

Hofiz
Qora Yusuf deb atalmish sur bir qaroqchi
Karvonlarni talar ekan Makka yo'lida.
Bizni undan qutqazishdi sarbozlaringiz.
Elchi bo'lib keldim Sizga rahmat aytgali.

Temur
Qora Yusuf!
Qora Yusuf!
Azal dushmanim.
Undaylarga panoh bergan Boyazidni men
Tor-mor etdim.
Qo'rqmasinlar endi hojilar.

Hofiz
Endi men ham ishondim, ha,
Temur ekansiz,
Shoir esa o'zligini isbotlash uchun
She'rlaridan bo'lak biror ashyo topolmas.
"Agar on turki Sheroziy badast orad, dili moro
Ba xoli hinduyash baxsham
Samarqand-u Buxororo".

Temur
— Agar ko'nglumni shod etsa o'shal Sheroz jononi
Qaro xoliga baxsh etgum Samarqand-u Buxoroni.
Shundoqmi?

Hofiz
Ha, afsuski, shundoq.
Ushbu baytim uchun balki dorga tortgaysiz.
Demak, qismat isbot qilur Hofizligimni.

Temur
Samarqand-u Buxoro deb dunyoni oldim,
Bir xol uchun Siz ularni hadya etmishsiz,
Shunchalikmi?

Hofiz
Hazrat, axir ko'rib turibsiz,
Bisotimni go'zallarga ulasha berib.
Shundoq holga tushib qoldim,
Nochor, yupunman.
Oqibatda majbur bo'lib, bitta xol uchun
Dunyodagi eng betakror ikki shaharni —
Samarqand-u Buxoroni hadya etganman.

Temur
(qah-qah urib)
Shirin xayol bandasi Siz,
Eh, Siz, shoirlar,
Men rostini aytsam, agar yor xoli uchun
Shahar emas, jonni nisor aylamoq darkor.
Gapning asl indallosin eshiting endi:
Bizning ulug' shaharlarni baholash uchun
Bundan ortiq tashbih bo'lmas, tasanno Sizga.
Endi bir bayt hadya qilsin Sizga Temur ham:
— O'z lafzidan tinglash uchun Hofiz she'rini,
Qayta boshdan zabt etardim Sheroz yerini.

Hofiz
Ming tashakkur,
A'lohazrat, lutfingiz uchun,
Ammo u payt, bironta bayt aytmasdim, uzr.

Temur
Bu mushkulni Tangri o‘zi hal etdi oson.
Hofiz bilan suhbatdoshman bejang, bequrol.
Samarqand-u Buxoroga tashrif buyuring,
Ulug‘ zotlar yashab o‘tgan u joylarda ham.
Yassaviyni eshitgansiz?

Hofiz
Sulton ul Orifiyn,
Turkistonlik avliyodir.
Sohib hikmatdir.

Temur
Shoir ahli kuylasa bas ikki jihatni:
Yassaviydek hikmatlarin yozsinlar yoki
Yor jamolin vasf etsinlar Sizdek — Hofizdek.
Siyosatga aralashib hazrat Firdavsiy
“Shohnoma”da kamsitmishdir turk sultonlarin.
Shul sababli, jahli chiqqan Mahmud G‘aznaviy
Firdavsiyga arzigulik oltinni emas
Hadya qilmish bir kajava kumush tangani.
Lekin shoir baytlarida jannat isi bor,
Ikki olam shavkati bor dostonlarida.

Hofiz
She’riyat-u ilm-u fanga Siz kabi jo‘mard,
Oliyhimmat homiy bersin doim Allohim.
Ana shunda gullab-yashnab Eronzamin ham,
Ana shunda charaqlagay Turon ham abad.

Temur
Qars uradi.
Mulozim kiradi.
Siz shoirning yelkasiga zarbof to‘n yoping.
Ot mindiring,
Ilhomidek uchqur, saman ot.
Karvonini kuzatingiz manziligacha.

In'om bering, ikki shahar xiroji qadar.
Xayr, ustoz!

Hofiz
Xayr, Amir!
Alloh yor bo'lsin!

Yasovul
A'lohazrat, Samarqanddan chopar bor.

Temur
Kirsin.
Chopar kiradi.

Xo'sh, omonmi yor-u do'stlar, dorissaltanat?

Chopar
Bari omon!
Erta-yu kech faxr-u g'urur-la
Haqingizga duo qilib yashar Samarqand.
Sizni buyuk zafar bilan qutlamoq uchun
Muntazirdir yo'lingizga katta-yu kichik.

Temur
Qanday xabar keltirmishsan?

Chopar
Xitoydan maktub,
Chin fag'furin elchilari olib kelmishlar.

Temur
(choparga)
Sen ozodsan.
(maktubni o'qiy boshlaydi)
Bu qandayin qabohatkim, Chin hukmdori
Bizdan o'lpon talab qilmish!
Surbet, muttaham!

Bir zamonlar Sharq va Shimol uzra yastangan
Turkiylarning hududlarin zabt etdi ular.
Hatto Shoshning tog'laridan ma'dan konlarin
Xonbaliqqa tashib ketdi, yeb to'ymas yuho.
Mo'g'ullarning dashtlarin ham oldilar bosib.
Oyoqosti qildi qancha musulmonlarni.
Men dunyoning teng yarmini fath etibman-u
Kenja farzand emishman u osmon o'g'liga.
Tavba qildim!Mantiq qani?Adolat qani?
Men ularni o'rnatgumdir Xitoy yerida.
Yorab, qandoq yaratgansan kajrav falakni.
Meni kimdir ayblaydi-yu, men esa kimni..
Hali Misr tuprog'ida qilar ishim bor,
Tinchitmog'im kerak hali o'jar Qofqozni.
Inshoolloh barchasini uddalaydurman,
Lekin shu zum netmoq kerak?

Yasovul kiradi.

Yasovul
Olampanoh, shoshilinch xabar.

Temur
Tag'in ne gap?

Yasovul
Bandalikni bajo qilmish Sulton Boyazid.

Temur
(fotihaga qo'l tortib)
Xudo uni rahmat qilsin.
O'lim muqarrar.
(yasovulga)
Yetkazingiz amirlar-u shahzodalarga,
Ta'ziyaga kechikmasdan yetib borgaymiz.

Yasovul chiqadi.

G‘alati bir hikmat bordir bu hodisada,
Irodasiz bo‘lar demak takabbur odam.
Takabburning qurolidir demak o‘jarlik.
Mag‘lubiyat yukini u ko‘tarolmabdi.
Sultonga xos hurmatini qilgumdir lekin.

Yasovul
Olampanoh, chopar keldi Qora Hisordan.

Temur
Kirsin darhol!
Tinchlik bo‘lsin iloyim, bu gal.

Chopar kiradi.

Salomatmi Amirzoda Muhammad Sulton?

Chopar
Olampanoh, ming afsuski...

Temur
Tirikmi o‘zi?

Chopar
Umrlari uzoq bo‘lsin, Amirzodamiz
Betob erur, xiylagina betob va lekin.

Temur
(yasovulga)
Sen ketaver,
Yetib borgum.
U bemor edi.
Zora yumshoq ob-havosi shifo bo‘lar deb
Qora Hisor tomonlarga jo‘natgan edim.
U suyukli nabiramdir. Valiahdimdir.
Alloh menga qahr hissin qancha mo‘l bersa,
Yuragimga o‘shanchalik mehr ham solmish.
Meni yengsa — mehr hissi yengar olamda.

Aziz o'g'lim Jahongirdan ayrilgan chog'im
Faryod soldim:
Toj-u taxtni olgin-u Xudo,
Bolalarim jonlarini menga qoldir, deb.
Jahongirdan nabiram shul — Muhammad Sulton.
Nahot uning hayoti ham endi muallaq.
Bu taxt nima?
Nima o'zi Sohibqironlik?
Qurshab oldi bir-biridan noxush xabarlar.
Qo'lga olgin o'zingni ey, Temur Tarag'ay,
Barcha ishga ulgurmog'ing, yengmoqliging shart.
(qars uradi)
Kuno'g'longa egar uring!
Otni hozirlang!

PARDA

TO'RTINCHI SAHNA

Bibixonim jome masjidi oldidagi maydon, **Bibixonim** yuksak kursida. Atrofida **Devonbegi**, shahar dorug'asi, a'yonlar, qo'riqchilar. O'rtaga **Amir Temur** taxti qo'yilgan.

Bibixonim
Nusrat zafar Sohibqiron qaytib kelmoqda
Poytaxtiga — o'z muborak Samarqandiga.
Hazratimning xohishlarin so'zsiz bajarib,
Men ul zotni masjidimda kutib olgayman.
Saltanatning a'yonlari — arkoni davlat
Keshga ketdi — Jahongirga peshvoz chiqmoqqa.
Hayotimning eng charog'on kunlaridan bu,
Yana buyuk bir zafarning shohidi bo'ldim.
Zafar to'yi, nabiralar to'yi ketma-ket
Davom etar Registondan Konigilgacha,
Yetti iqlim elchilari yetib kelmishlar,
Intiq bo'lib kutayotir Jahongirni xalq,

Devonbegi, biz qurdirgan bu jome masjid
Sohibqiron nazariga loyiq bo'lurmi?

Dyevonbegi
Shoyon loyiq!
Shoyon loyiq!
Tengi aslo yo'q!

Bibixonim
(ro'baro'dagi kichikroq masjidni ko'rsatib)
Olampanoh nomidagi u masjid esa
Biznikidan sal mo'jazroq,
Xijolatdaman.

Devonbyegi
Ikkisi ham mansub axir bir xonadonga.

Bibixonim
Xoja Yusuf!
Samarqandning Siz dorug'asi,
Tantana-yu to'ylar uchun shahar tayyormu?
Konigilda bazm bo'lgay qirq kecha-kunduz.

Xoja Yusuf
Mablag'imiz sarf ayladik malikam, butkul,
Tashvish tortmang, Olampanoh xushnud bo'lgaylar.
Aqcha yetmay, qiynalishib qolgan fursatda
Raiyatga soliq soldik.

Bibixonim
Bema'ni bu ish!
Jahongirni kutib olish kunlari, atay
Cho'p tiqqanga o'xshaysiz-ku ari iniga.
Yer yuzining adadi yo'q barcha boyligi
Samarqandga oqib turgan shunday zamonda
Raiyatga Siz ortiqcha soliq solibsiz.
Bir kori hol bo'lmasaydi, ko'nglim sezmoqda.

Ana, maydon to'layotir xaloyiq bilan,
Samarqand xo'b sog'inibdir valine'matin.
Karnay-surnay, nog'oralar shay bo'lsin, Xoja.
Saltanatning tarixida ulug' kun bu kun.

Qorovulboshi
Xonim oyim, Sizning bergan buyruqqa ko'ra
Keltirmishlar uch nafar yosh mullavachchani.

Bibixonim
Olib keling, ular g'alat xayolkashdirlar.

Uch mullavachcha ta'zim ila yaqin keladilar.

Kecha tunda, odatimcha, shahar aylanib
Bir madrasa hovlisiga tashrif buyurdim.
Bu uchovlon hujranishin suhbat qilardi.
Biri dedi: "Oh, imkonim bo'lsaydi agar,
Hozir palov oshar edim to'yguncha rosa".
Ikkinchisi aytar edi: "Qo'limga tushsa,
Uxlamasdan o'qir edim falon kitobni".
G'oyat qiziq uchinchisin armoni esa
U der edi: "Qani, taqdir nasib etsa-yu,
Bibixonim visoliga bir zum yetishsam".

Devonbyegi
Chakki emas xumparlarning ishtahalari,
Aniqlasak bo'lar edi uchinchisini.

Bibixonim
Oshni orzu qilganingiz qaysi biringiz?

Birinchi mullavachcha
U men edim.

Bibixonim
Devonbegi bu yigitchaga seryog', sergo'sht
Bitta palov yasab bering.
Ilm-u fanga ruju qo'ygan qaysingiz edi?

Ikkinchi mullavachcha
Kitobni men tilagandim,
rahmat malikam.

Bibixonim
Samarqandning ulug‘, nomdor bir olimiga
Shogirdlika berilsin u.
Niyati qutlug‘.
(uchinchiga yaqinlashadi)
Demak, sensan oshiq bo‘lgan Bibixonimga?

Uchinchi mullavachcha
Men iqrorman!
Jazo bering, eng oliy jazo.

Devonbegi
Ruxsat bering, o‘sha gapni aytgan tilini
Shu zahoti tagi bilan sug‘urtirayin.

Bibixonim
(mullavachchaga)
Men Temurning zavjasiman,
Hoy, mullavachcha,
Javobim ham, jazoim shul:
Yetisholmassan!
(devonbegiga)
Devonbegi, Samarqandning eng go‘zal qizin
Bu yigitga olib bering.
Tamom.
Vassalom!

Otliq jarchi maydonga shitob bilan kirib keladi.

Jarchi
Sohibqiron Samarqandga kirib kelmoqda,
Sohibqiron Samarqandga kirib kelmoqda!

Xaloyiqda ulug‘ bir jonlanish. Karnay-surnay sadolari. Amir Temur jome masjidi oldida otdan tushadi. Poyandozlar to‘shalgan. **Bibixonim** Amir Temurga nisor-sochqilar sochadi.

Temur

(xaloyiqqa)

Salom bo‘lsin, firdavsmonand Samarqandimga.

Xaloyiq

Salom bo‘lsin, Sohibqiron Amir Temurga.
Salom bo‘lsin, Sohibqiron Amir Temurga.
Zafar va shon muborakdir Ulug‘ Temurga.
Zafar va shon muborakdir Ulug‘ Temurga.

Qariya

(oldinga chiqib)

Saltanat-u mamlakat-u xalqlar baxtiga
Umrlari boqiy bo‘lsin Sohibqironning,
Iloho Omin!

Xaloyiq

Omin!
Omin!
Iloho Omin!

Temur

Bizkim, mulki Turon,
Amiri Turkistonmiz.
Bizkim, millatlarning
Eng qadimi va eng ulug‘i
Turkning bosh bo‘g‘inimiz!
Allohimning iroda-yu inoyati-la
Yer yuzining teng yarmini qo‘lga kiritdik,
Zabt ayladik Rumo yurtin,
Misr-u Shomni ham.
Yalovimiz dini Islom uchun barq urib,
Shamshirimiz adolatni himoya qildi.

Ne botirlar halok bo'ldi buyuk janglarda.
Jannat ato qilgan bo'lsin ularga Alloh.
Iloho Omin!

Xaloyiq
Iloho Omin!

Temur
Yer yuzida yengilmas bir saltanat tuzdik,
Qovushtirdik boshlarini ne-ne xalqlarning.
Samarqandning qutlug' nomi bizni har qayda
Qo'llab turdi, yo'llab turdi g'alaba tomon.
Qirq kun zafar nashidasin sursin Samarqand,
Yetti iqlim to'y o'tkazsin biz bilan birga.
Farmonim shul:
Zindonlarda bandi yotganlar
Bugundanoq afv etilsin,
Ozod etilsin.

Xaloyiq
Ming bor qulluq, Olampanoh marhamatiga.
Ming bor qulluq, Olampanoh marhamatiga.

Qariya
A'lohazrat, farmoningiz g'oyat o'rinli,
Shu taxlitda himmat qilgan payg'ambarlar ham.
Bordir lekin farmongacha bandi bo'lmagan
Ozod yurgan turli-tuman jinoyatchilar.

Temur
Ular kimlar?
Ayting menga, Samarqand ahli,
Yer yuzini olibmiz-u adolat uchun,
Nainki, o'z yurtimizda beparvo bo'lsak.

Qariya
El-yurt to'ydi dorug'aning qilmishlaridan.

Xaloyiq
To‘ydik! To‘ydik!

Temur
Qilmishi ne?

Qariya
U poraxo‘rdir!
U jarima undiradi bo‘lar-bo‘lmasga,
Tekin bo‘lsa, mushugi ham oftobga chiqmas,
Faqatgina fikr qoldi soliqdan xoli.

Temur
Fuqarodan uch nafari guvohlik bersin.

Xaloyiq
Olampanoh, biz barchamiz guvohmiz, guvoh!

Temur
Samarqandning dorug‘asi dorga tortilsin!

Muhammad Qovchin
(oldinga chiqadi)
A’lohazrat, men qulingiz Muhammad Qovchin,

Temur
Bir tomchi qon ko‘zlariga seldek ko‘ringan,
G‘animlarning boshlariga achingan Qovchin,
Ne ish bilan mashg‘uldirsen?
Tilagingni ayt?

Muhammad Qovchin
Behushdekman men saroydan ketgandan buyon,
Navkarlikka olmadilar, yoshing o‘tgan, deb.
Erta-yu kech kushxonada jonliq so‘yaman.
Azbaroyi, kallasini olganda molni,
Men o‘zimcha, yovingiz, deb xayol qilaman.

A'lohazrat, qassoblarda insof qolmagan,
Mijozlarni aldaydilar, Xudodan qo'rqmas.
Mening o'zim guvohdirman, ko'rdim barchasin.

Xaloyiq
Haq gap!
Haq gap!
Qassoblar ham jazoga loyiq!

Temur
Har dahada bir nafardan noinsof qassob
O'zi qurgan qanoraga osib qo'yilsin!
Sen-chi, yana saroyga qayt,
Muhammad Qovchin.

Bibixonim
A'lohazrat, poyingizga jonimiz nisor,
Siz safarda vaqtingizda Samarqand ichra
Bunyod bo'ldi necha saroy,
Necha-necha bog',
Necha-necha madrasa-yu
Ne-ne masjidlar.
Bular bari farmoningiz ijrosi erur.
Nazar soling masjidimga.

Temur
Muborak bo'lsin!
G'oyat nozik ham munaqqash.
Mahobatlidir.
Bezaklari husningizdan nusxadir go'yo.
Haybati-yu salobati Malikaga xos.
Tarixda u Bibixonim masjidi deya
Alal-abad qolguvsidir.
G'oyat mamnunmen!
Ro'baro'da turgan anov nechuk imorat?
Bul masjidning qoshida u tovuq katagi...

Bibixonim
Olampanoh, kecching bizning gunohimizni,
Ne alamki, o'sha masjid Sizga atalgan.
Mahmud Dovud degan noshud bir vazirimiz
Bunyod etgan uni makkor dorug'a bilan.

Temur
Sizning ulug' masjidingiz uning qoshida
To xijolat chekmagaydir asrlar o'tgach.
Olam ahlin ko'zi tushmay, buzingiz uni.
Vazir esa Samarqanddan quvg'in qilinsin.
Ma'zur tuting meni, bibi, hatto arslon ham
Illatlardan tozalarmish o'z o'rmonini.
Odamlar-chi, ayblarini yashirar mudom,
Oh-voh chekar bir kun kelib, qo'lga tushganda.
Tili boshqa, dili boshqa lo'ttiboz zotlar
Podshohini aldamoqchi bo'lar, hay attang.
Mamlakatni buzadigan asli o'shalar.
Hukmdorlar seva turib fuqarolarin
Umid hamda qo'rquv aro saqlashi darkor.
Bibi, Sizning odamlarga mehringiz cho'ngdir,
Nobakorlar duch kelmagan g'azabingizga.
Shul sababdan ular Sizdan cho'chimay qo'ygan.

Bibixonim
Olampanoh, to odamzod yashar zaminda
O'tmagandir va o'tmagay Sizdek hukmdor.

Temur
Afsuski, men shamshir bilan do'st bo'ldim ko'proq,
Mash'alaga o'zin urgan parvonalardek
Kuyib ketdi qancha odam gunoh-begunoh.
Inshoolloh, yuvgaydirman, dog'larim bo'lsa...
Men g'olibmen!
Ayni chog'da mag'lubdirmen ham.
Qazo qilib nabiramiz Muhammad Sulton

Bukilmagan bu qaddimni bukdi-yu ketdi.
Uning uchun bir maqbara qurgaymiz, balki,
Alloh bilar, yotgaydirman unda o‘zim ham.

Bibixonim
A’lohazrat, yiroq bo‘ling g‘amgin o‘ylardan,
Mana bahor avjga kirdi, Siz ham avjdasiz.
Zafaringiz bayramiga qo‘shaloq qilib,
O‘tkazurmiz nabiralar nikoh to‘ylarin.
Konigilda bazm bo‘lar qirq kecha-kunduz.
Mehmonlarni taklif etdik yetti iqlimdan.
To‘yboshi Siz, Siz ularni kutib olgaysiz.
Eng avvalo, juft-juft bo‘lib kelin-kuyovlar
Duongizni olmoq uchun salomga kelar.
Ana ular fursatingiz poylab turibdi.

Temur
To‘yni boshlang!
Sochqilarni hozirlang, bibi.

Bibixonimning ishorasi bilan kelin-kuyovlar yaqin kela boshlaydilar. Musiqa sadolari. Hofizlar xonishi. Raqqosalar xiromi.

Kun hamalga kirdi ersa keldi olam navro‘zi.
Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori, muzi.
Kun kel-u ming ko‘rki ortib, tirilur o‘lmish jahon,
Tong badizlab naqshi birlan bezanur bu yer yuzi.
Kirshani qor qani englik boqsa tog‘lar surati,
To‘nliqi tangsuq yipardin Rum, Xitoy atlas chuzi.
Ko‘kda o‘ynar, qo‘l solishur qug‘-u qoz, qil,
qarlug‘och,
Yerda yugurib juft olishur os, tiying kish, kunduzi.
Lola sag‘roqin icharda sayrar usrub sanduvoch,
Turna un tortib o‘tarda sekrashur baqlan quzi.
Huri in ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur.
Yoz uza mundoq g‘azallar aymishda Nosir Rabg‘uziy.

Sokin va latif musiqa yangrab turadi. Boshlari uzra so‘zana soyabon ostida kelin-kuyovlar juft-juft bo‘lishib, Sohibqiron oldidan ta’zim ila o‘ta boshlaydilar. Isiriqlar tutatiladi.

Bibixonim
A’lohazrat, nabiramiz Mirzo Ulug‘bek
Amirzoda Shohruxning o‘g‘li.

Temur
(sochqi sochadi)
Baxtli bo‘ling, qo‘sha qaringlar.

Bibixonim
Nabiramiz Ibrohim Sulton,
Amirzoda Shohruxning o‘g‘li.

Temur
(sochqi sochadi)
Baxtli bo‘ling, qo‘sha qaringlar!

Bibixonim
Nabiramiz Ijil Mirzo,
Amirzoda Mironshoh o‘g‘li.

Temur
(sochqi sochadi)
Baxtli bo‘ling, qo‘sha qaringlar.

Bibixonim
Nabiramiz Sidi Ahmad,
Amirzoda Umarshayx o‘g‘li.

Temur
(sochqi sochadi)
Baxtli bo‘ling, qo‘sha qaringlar.

Bibixonim
Jiyaningiz Boyqaro Mirzo.

Temur

(sochqi sochadi)

Baxtli bo'ling, qo'sha qaringlar.

Bibixonim

A'lohazrat,
Va'dangizga rioya aylab,
Nabiramiz Zubaydani bunga uzatdik,
Bu— Qosimbek.

Temur

(sochqi sochadi)

Baxtli bo'ling, qo'sha qaringlar.
Jufti bilan barqarordir Inson bolasi,
Siz ham bizdek uvali-yu juvali bo'ling.
Omin!

Hamma

Omin!

Bibixonim

Konigilga yo'l olg'aydir kelin-kuyovlar,
Muntazirdir To'kal xonim, Bog'i Dilkusho.

Devonbegi

Muborakbod etmoq uchun Hazratimizni
Yaqin-yiroq o'lkalardan mehmonlar kelmish.
Olampanoh,
Shahri Keshdan— Ota makondan.
Qutlagali qarindoshlar tashrif buyurmish.

Oltin egar-jabduqli otni yetaklab, keshliklar yaqin keladilar.

Temur

(ulardan biriga)

Isming nedur?

Sharif
Ismim Sharif, tag‘oyingiz Jonuzoq o‘g‘li,
Siz ot surgan u cho‘llarda yilqi boqaman.
Bu arg‘umoq tulporingiz Kuno‘g‘longa xesh.

Temur
Keng dunyoning qadam yetmas bir burchagidan
Agar qo‘yib yuborsalar ko‘zimni bog‘lab,
Hech adashmay shahri Keshni topib kelardim.
U joydadir ota-onam xoki poklari,
Mangu orom olar unda o‘g‘lim Jahongir.
Kechagina tavof qildim mozorlarini.
Keshdan tortib Zanjir saroy hududlarida
Eng beg‘ubor yillarimni o‘tkazgan edim.
Jang-jadaldan horib-charchab qaytgan mahali
Tushlarimga kirar o‘sha osuda damlar.
Xotirlayman poygalar-u ko‘pkarilarni.
Mening asl zuvalamni pishitgan u yurt,
Ikki dunyo qarzdorman uning qoshida.
Keshdan kelgan mehmonlarga to‘n kiydirilsin!

Devonbegi
Olampanoh, sarandiblik elchi muntazir.
Sarandib elchisi yaqin keladi.

Temur
Sen ko‘zimga g‘oyat issiq ko‘rinmoqdasan,
Isming nedur?

Borchiq
Ismim Borchiq.

Temur
(qahqaha uradi)
O‘sha Borchiqmi?
Qabulimdan seni bir vaqt haydagan edim,

Ma'zur tutgin, xayolimni band etgandi jang.
Endi senga, xush kelibsan, marhabo deyman.

Borchiq
A'zohazrat, shu bema'ni ismim tufayli
Dakki yedim. Meni bu bor aybga buyurmang.
Sarandibdan o'rmon shohi — sherni keltirdim
Sizning qutlug' to'yingizga to'yona bo'lgay.

(qafasda sherni keltiradilar)

Temur
Biroz noxush o'rmon shohin qafasda ko'rmoq,
Sarandibning shohi lekin ozod yursa bas
Va, albatta, to'nga loyiq hazrati Borchiq.

Devonbegi
Ifranj yurti — Ispaniyo elchisi kelmish.

Temur
Klavixo, bizning eski birodarimiz,
Ayt-chi, o'g'lim, qirolingning ahvoli nechuk?
Unga jami ezguliklar yor bo'lsin deyman.

Klavixo
Qirolim ham Sizga mudom sog'liq tilaydi,
Karvon bilan yetib kelgay uning tuhfasi.
(Bir albom uzatadi)
A'lohazrat, bu muraqqa daftarda esa
Ispan yurti jilolari tasvir etilgan,
Shaharlari, qasrlari, manazaralari...

Temur
(muraqqani varaqlab)
G'oyat noyob sovg'adir bu, Senga tashakkur!
(devonbegiga)
Shoyon hurmat ko'rgazingiz Klavixoga,
Sarupolar hadya eting shohona, oliy.

Devonbegi
A'lohazrat, yetib keldi Chin elchilari.

Xitoy elchisi
Salom bo'lsin Sizga Osmon mamlakatidan.
Bizning ulug' podshohimiz —
Chinning fag'furi
Sizga maktub yo'llagandi.

Temur
(asabiylasha boshlaydi)
Oldim.
O'qidim.
Javobini o'zim borib ayturman unga.

Xitoy elchisi
Ulug' Amir,
Javobingiz eshitdik, ammo
Sovg'a bilan kelolmadik huzuringizga,
Chunki bizning fag'furimiz —
Chin hukmdori,
Sizdan o'lpon talab qilib yuborgan edi.

Temur
Kimki kelmish bizni dildan qutlamoq uchun
Barchasiga xush kelibsiz,
Marhabo deymiz,
Ammo o'sha qarorimni eslatib qo'yay:
Men kim Amir Temur,
Irodam shul: —
Qasamyodim shul.
Bo'ysunmadim,
Bo'ysunmasman bosqinchilarga.
Javobimda ochiq-oydin aytgan edim-ku?!
Men xalq bilan podsholarni farqlay olaman.
Menga sovg'a-salomlarning qimmati yo'qdir.

Hoy, sen elchi?!
Sen chinakam nodon ekansan!

Elchi
Buyurilgan yumushni men ado qilaman.

Temur
(o'zini arang tutib)

Eshit, elchi:
Har ne balo kelar qo'limdan,
Farmonimni oltin harf-la o'yib taningga
Jo'natishim mumkin edi, sabr etdim biroq,
Sira dushman emasman men sening xalqingga.
Konfutsiyni bilasanmi?

Elchi
(hayrat bilan)
U — bizning pir-ku!

Temur
Shunday zotni yetishtirgan sizning Chinlar-ku?
Ul zot aytmish:
Oddiygina kiyik bolasin
Asrab qolgan
Noil erur
Jannat vasliga!
Bildingmi sen?!

Elchi
Biroq, Amir,
Fag'furimga ne deb aytayin?
O'lpon bering, o'z yurtimga endi qaytayin.

Temur
Xalqimizda bir muqaddas odat bor, ya'ni
Kim bo'lmasin — mehmon kelsa ozor berilmas.

Siz yaxshisi, Konigilga — bazmga boring.
Biroq mening ruxsatimsiz, shu zumdan boshlab
Samarqanddan bir qadam ham nari jilmaysiz.

Xitoy elchilari uzoqlashadilar.

Bibixonim
Qanday jur'at etmish Sizga Chin hukmdori,
Bu qadarli surbetlikni jahon ko'rmagan.
Ne hayratki, A'lohazrat, toqat qildingiz.

Devonbegi
Bamisoli tig'i o'tkir, keskir qilichga
Besh panjasin telbalarcha urmoqchi ular.

Temur
Fag'fur bizdan hatto o'lpon talab qilmoqda,
Ayon gapki, kuni bitmish Chin hukmdorin.

Bibixonim
Olampanoh, nahot yana boshlanur urush?!

Temur
Iblisdan ham battar axir gap uqmas ular,
Istaydiki, biz ularga qaram, qul bo'lsak.
Istaydiki, tobe bo'lsa ahli musulmon.
Menga fag'fur mamlakatin taxti kerakmas.
Lekin mazlum elatlarni ozod eturman.

Bibixonim
Odamzodga rahm aylagil, yo Parvardigor,
Insof bergil sultonlarga, hukmdorlarga.
Hazratimning ot ustida o'tmoqda umri.
Bir insonga shuncha yumush,
shuncha tashvishmi?
Halovatni qachon ko'rgay mening Amirim?
A'lohazrat, yoningizda bo'lgum men endi.

Temur
Siz hoziroq Konigilga jo'nang, Malika,
Onaginam Neko'zbegim maqomida Siz
Kelinlar-u kuyovlarga bosh-qosh bo'lgaysiz.
Ortingizdan yetib borgum men ham albatta.

Bibixonim va boshqalar ketadilar.

Buqalamun, sen qaydasan?

Buqalamun daf'atan paydo bo'ladi.

Buqalamun
Labbay, hazratim!

Temur
Ko'zlaringni qisib, endi Xitoy bo'lgaysan.
Yetib borgin Chin davlatin hududiga sen.
Minglab ot-u toychoqlarni xarid qilgin-u
Chegaraga yaqin joyda shaylab, boqib tur.
Lashkar bilan juda uzoq yo'l bosib borgach,
Horib-tolgan otlarni biz almashtirgaymiz.
Inshoolloh, tez orada chiqqum safarga.

Buqalamun
A'lohazrat, otam asli ot jallob o'tgan,
Yilqi zotin men taniyman, yilqi ham meni.
U joylarda padarimning tanishlari ko'p,
Ishonchingiz o'zi menga omad bag'ishlar.

Temur
Balli, o'g'lim, yo'ling qutlug', bexatar bo'lsin.

Buqalamun ketadi.

Evoh, meni avlodlarim kim deb eslashur?!
Urushqoq bir jahongirmi yo haq posboni?
Ne bo'lsa ham yashadim men chigal davrda,

O‘ldirmasang o‘ldirurlar, tinchingga qo‘ymas.
Adolat deb umrim bo‘yi kurashdim, biroq
Afsuski, u bo‘lmas ekan jang-u jadalsiz,
Bir yog‘ini tiklasang gar dunyo devorin,
Nurab keta boshlar ekan ikkinchi yog‘i.
Asli nima yetmaydi bu hukmdorlarga?
Unvonlari shoh bo‘lsa ham, adovatga qul.
Tag‘in bir bor amin bo‘ldim, butkul jahonni
Boshqarmog‘i kerak ekan yagona bir zot.
Umr esa o‘tayotir oqqan daryodek.
Yer yuzini Chin xavfidan qutqazmoq shartdir.
Hozir esa Konigilga bormoqlik lozim,
To‘y ham meni shoshiltirar, o‘y ham qo‘ymaydi.

PARDA

BESHINCHI SAHNA

Turkistonda **Xoja Ahmad Yassaviy** maqbarasi. Tong payti. Maqbara eshigidan Amir Temur horg‘in holda chiqib keladi. Uni oppoq soqolli, nuroniy bir darvesh qarshi oladi.

Darvesh
Assalomu alaykum!

Temur
Vaalaykum assalom!
Bizdan oldin salom farzin ado etdingiz,
Valloh bizdan ulug‘ erur Sizning yoshingiz
Siz kimdirsiz, subhidamdek nuroniy bobo?

Darvesh
Men bul joyga kelib-ketib turguvchi darvesh,
Sizni esa biz taniymiz.
Siz — Amir Temur.
A’lohazrat, tunni yaxshi o‘tkazdingizmi?

Temur
Bobomizning poylarida bedor o'ltirib,
Ruhlariga orom so'rab tilovat qildim.

Darvesh
G'oyat maqbul!
Shod bo'lg'uvsi ruhlari beshak,
Bizning ulug' Xojamizda karomat bisyor.

Temur
Tongga yaqin bir daqiqa ko'zim ilinmish,
O'shal onda Hazrat go'yo namoyon bo'ldi.

Darvesh
Bir sultonga mehmon bo'lsa ikkinchi sulton,
Mezbon tomon iltifotlar qilgay, shubhasiz.

Temur
Yo'q, iltifot qilmadilar, afsus, ming afsus,
Holbuki, men bolalikdan o'sib-ulg'ayib
Bir nafas ham ul Hazratga shak keltirmadim.
Bobarakot sulukiga sodiqligimdan
Qurgan edim mahobatli bul maqbarani.
Yonlarida tikdim, ana, chodirimni ham.

Temur maqbaraga yaqin joydagi chodirini ko'rsatadi.

Atrofimda minglab emas, yuz minglab lashkar
Xoja Ahmad Yassaviyga talpinmoqdalar.

Darvesh
Siz qay tomon otlanmishsiz? Yo'lingiz qayon?

Temur
Yo, Alloh deb qo'shin tortdim Chin taraflarga.
Bul aziz zot ruhi meni qo'llasa derdim.

Tuni bo‘yi vujudimda sezdim bir og‘riq,
Buning aksi bo‘lmoqligi kerak edi-ku?!

Darvesh
So‘nggi yuz yil Turkistonda, Turon zaminda
Bunday sovuq bo‘lmagan hech,
Dahshatli sovuq.
Bir nafas ham ko‘z ochirmas izg‘irin, bo‘ron.
Ko‘zda yosh ham to‘ng‘ib qolar soqqadan chiqmay.
Illo, sovuq g‘olib kelmish vujudingizda.
A’lohazrat, men faqirni ma’zur tutgaysiz,
Safar qilmoq shart edimi shul qahratonda?

Temur
Siz bilmaysiz, g‘animatdir har bir fursatim,
Lashkarlarim esa obdan chiniqqan, jasur.
Sovuqni ham ular yovdek yenga oladi.

Darvesh
Modomiki, tanangizga kirmishdir og‘riq,
Saksovulning olovida toblaning, Amir.

Temur
Sarkardaning tahlikasi — ojizlik demak,
Men lashkarga ibrat bo‘lib turmog‘im shartdir.
Xayr, darvesh!

Darvesh
Xayr, Amir!

Temur
(darveshga qo‘l uzatib xayrlashayotganda birdan nido qiladi)
Yo, qudratingdan!

Darvesh
Qo‘yvoringiz qo‘limni tez!

Temur
Yo‘q, qo‘yvormayman!
Siz Xizrsiz.
Besuyak-ku bosh barmog‘ingiz.

Darvesh
Qo‘yvor, Amir!

Temur
Qo‘yvormayman!
Allohga shukur.
Tag‘in Sizga duch kelibman ellik yil o‘tgach.

Hazrati Xizr
Ha, Xizrman.
Tilagingni eshitmog‘im shart.
Yigit chog‘ing ko‘ringandim senga ilk daf’a.
Ammo endi nima yetmas senga, Jahongir?
Yaratganning iroda-yu inoyati-la,
Yer yuzining qoq yarmini qo‘lga kiritding:
Toj-u taxting, xonadoning, hadsiz mulking bor.

Temur
Barchasi bor.

Hazrati Xizr
Unda yana nima istaysan?
Faqatgina, Temur, mendan umr tilama.

Temur
Yaratganga shukur deyman barchasi uchun
Qancha umr bergan bo‘lsa shuncha yasharman.
Yillar bo‘yi qiynab kelgan savollarimni
Yechsam deyman suhbat qurib bir Inson bilan.

Hazrati Xizr
Sen dunyoning necha ulug‘ zotlari ila
Muloqotda bo‘lding, axir, shu yetmadimi?

Temur
Qovog'imga qarashardi, afsuski, ular,
Dillarini ochmadilar odamga o'xshab.

Hazrati Xizr
Unda kimni xohlaysan sen, so'yla-chi, Temur?

Temur
Yassaviyni ko'rsatingiz, so'rovim shuldir.

Hazrati Xizr
Allaqachon ketgan ul zot boqiy dunyoga,
Olam bo'ylab kezib yurar ruhlari lekin.
Podshohlarni xudoyimning soyasi derlar.
Sohibqiron istagini rad etmoq mushkul.
Sen tasavvur ayla, Temur, shu soniyadan
Yassaviy — men!
Men — Yassaviy!
Tayyorman, mana!

Temur
Tinsiz jang-u jadal bilan o'tdi hayotim
Balki qancha umrlarga zomin bo'lganman.
Oxiratda etagimdan tutmasmi ular?

Yassaviy
Allohimning xohishiga muvofiq kelsa
Ikki dunyo savob erur har qandayin ish.
Ayt-chi Temur, sen besabab qon to'kkanmisan?

Temur
Adolat va dini Islom himoyasi deb
Yer yuzini fath ayladim, tartib o'rnatdim.

Yassaviy
Ulug', ezgu niyatlarning ro'yobi uchun
Jang-u jadal, qon to'kishlik shartmikan, Amir?

Eng avvalo, har bir banda nafsini tiysin,
Bu dunyoning ne'matlari aldamchi, ro'yo,
Oxiratni o'ylaganlar komil bo'lgaylar.
Totlik-totlik yeganlar, turlik-turlik kiyganlar.
Oltin taxtda o'turg'onlar tufroq aro yotmishlar.
Mullo mufti bo'lg'onlar,
yolg'on da'vo qilg'onlar,
Oqni qaro qilg'onlar, ul tomug'ga kirmishlar.

Temur
Magar inson o'z nafsini tiya olmasa,
Uni majbur qilmoq lozim, choradir bu ham.

Yassaviy
Niyat qancha jozibali bo'lsa ham, Temur,
Qilich bilan murod hosil bo'lmog'i gumon.
Sendan keyin bilganini qilar odamzod.
Insonlarning shuuriga muttasil, tinsiz
Qanoat va insof hissin singdirmoq kerak.
Uraversang g'ayur tortar hattoki it ham.

Temur
Men dunyoda xuddi itdek talashib yotgan
Badnafs, yuho kimsalarning og'zini yopdim,
O'zingiz-chi, yer tagiga tiriklay kirib,
Ne karomat ko'rsatdingiz?
Nima o'zgardi?

Yassaviy
Yuzim yorug' bordim Tangri ostonasiga,
Mo'minlarga sabrim bilan ibrat bo'loldim.
Hikmatlarim o'lmay yashar, insofga chorlab.
Yer ostiga qochib kirdim nodonlardin,
Ilkim ochib duo tilab mardonlardin.
G'arib jonim yuz tasadduq donolardin,
Dono topmay yer ostiga kirdim mano.

Temur
Ha, insonlar yer yuzida komil bo'lolmas,
Axir nurdan yaralmagan inson bolasi.
Isboti bul:
Shayton hanuz ishsiz emas-ku!
Ko'cha-ko'yda to'p-to'p bo'lib zikr tushishdan
Bir manfaat chiqarmikan?
Ne deysiz, Hazrat?

Yassaviy
Nega alla aytishadi onalar mudom,
Nega Qur'on o'qiladi qiroat bilan?
Ular ta'sir etgay avval Inson qalbiga,
Ezgulikka moyil qilar yovuzlarni ham.
G'ariblarni ko'rgan yerda og'ritmangiz,
G'ariblarga achchig'lanib so'z qotmangiz,
Zaif ko'rib g'ariblarga so'z qotmangiz,
Bu dunyoda g'aribliqdek balo bo'lmas.

Temur
Hazrat,
Sizning hikmatlarni dilimga joylab,
Kuch bilan men gap uqtirdim insoniyatga.
Mana, hozir Chin tomonga lashkar tortganman,
Agar uni mahv etmasam, meni mahv etgay.

Yassaviy
Evoh, yana nafs dunyoda tantana qilmish.
Nafsning kuchi g'olib kelmish ikki yoqda ham.
Shul sababdan, tushingda men namoyon bo'ldim
Ro'yxush bermay, bezovta-yu tund qiyofada.
Vo ajabo, ikkimiz ham bitta eldanmiz,
Tilimiz bir, dinimiz bir, imonimiz bir.
Bir xil yumush yuklanmishdir ikkimizga ham.

Temur
Siz yer osti, men ustida lashkar tuzibmiz.

Yassaviy
Sen tig‘ bilan, men so‘z bilan boshqardik uni.
Biroq sening yo‘rug‘ingni yoqlay olmayman,
Voz kech, Temur, bu xatarli Chin safaridan,
Yosh bir joyga borib qolgach, uzlat afzaldir,
U dunyoning safariga tadorik lozim.
Bu dunyoda yuguruk otg‘a ming‘uchilar,
Harb kunida muborizlik qilg‘uchilar,
Olmos-po‘lad qilich-qurni chorg‘uchilar.
Ajal kelsa beg-u xonni qo‘ymas ermish.

Temur
Men umrimda g‘ayridinlar barobarida
Qonin to‘kdim balki qancha musulmonning ham.
Buni talab etar edi axir adolat.
Endi esa, to‘kilgan u qutlug‘ qonlarni
Majusiylar qoni bilan yuvmoqchiman men.
Men ularning zug‘umini bir yoqli qilmay.
Bu dunyodan ketolmasman, qa’tiy ahdim shu!

Yassaviy
Qaytgin, Amir!
Har neki ish taqdirdan bo‘lgay.
Seni qismat kutayotir, o‘zingni urma.

Temur
Qulluq, Hazrat!
Menga zafar tilang, yaxshisi,
Gadolik ham qismat erur, shohlik ham qismat.

Yassaviy
Boshing toshdan bo‘lsin, Amir!
Qul Xoja Ahamad so‘zlagani Haqning yodi,
Eshitmagan do‘stlariga qolsin pandi,
G‘urbatlanib o‘z shahriga qaytib yondi,
Turkistonda mozor bo‘lib qoldim mano.

Yassaviy g'oyib bo'ladi. **Temur** betob bir ahvolda tepalikka — chodiri tomon ko'tarila boshlaydi.

Temur

O'ngimmi bu yo isitma alangasimi?
Avval Darvesh, keyin Xizr, so'ngra Yassaviy...
Biz bilmagan sir-sinoat ko'pdir olamda.
Gohi-gohi aytar edi rahmatlik otam,
Mening fotih bo'lishimni tushda ko'rganin.
Ko'p g'alati suhbat qurdi anavi zotlar,
Balki ular rostdan keldi, balki xayoldir...
Ne bo'lsa ham Inson zoti yolg'iz qolmasin,
Hech bo'lmasa gaplashsin u o'z-o'zi bilan.

Temur og'ir tin oladi.

Vujudimda kuchaymoqda tobora og'riq,
Shuurimni qoplayotir noxush xayolot.
Nahot so'nggi safarim bu! So'nggi manzil bu?
Yo'q!
Vujudning nayrangiga quloq solmasman.
Mening ruhim, metin qo'rg'on, aslo qulamas.
Ikki daf'a menga zahar bergan edilar.
Necha bora ko'kragimga qadaldi nayza.
Biroq o'lmay qoldim-ku men,
O'lmay qoldim-ku!
Magar ajal kelganda ham, Samarqandimda
Bolalarim qurshovida jon bersam derdim.
Mendan keyin saltanatning holi ne kechar!
Nahot yana boshlanadi parokandalik?
Har bir ishning oqibatin o'ylamoq darkor,
Farzandlarning uquviga ko'zim yetarmi?
Barlos qoni jo'sharmikan tomirlarida?!
Jahongirning o'g'li Mirzo Pirmuhammad-chi?
Bul nabiram ayni paytda ona tomondan
Oltin O'rda taxtiga ham voris bo'lolgay.
Balki unga topshirurman valiahdlikni.
Ehhe, hali qancha gap u kunlargacha.

Temur o'z chodiri oldiga chiqib boradi. Uni amirlar, sarkardalar va boshqalar qarshi oladilar.

Sibiriyo sovug'idan battar bu sovuq,
Lashkarimning holi nechuk?
Tetikmi ruhi?

Barlos bahodir
Olampanoh, xush ko'rasiz rost gapni doim,
Lanjlik bordir askarlarning kayfiyatida.
Qahraton qish ta'siridan albatta, bu hol.

Temur
Sartaroshni chorlang buyon!
Yalangtepada
Lashkarlarim ko'z o'ngida soch oldiraman.
Toki hamma amin bo'lsin:
Sovuq pisandmas
Temurga ham, uning yovqur qo'shiniga ham!
Biz g'alaba nash'asini surganmiz hatto
Izillagan O'rusiya o'rmonlarida.

Sartarosh keladi.

Temur
(sartaroshga)
Ha, birodar, yuribsanmi sog'-u salomat,
Sen bilan biz kezib chiqdik yarim dunyoni.
Toshdan bo'lgan bu kallaga nazar tashla-chi.
Bitta-yarim tola bormi ermaging uchun.
(sartarosh ishga kirishadi)

Sartarosh
Olampanoh, navqironsiz, sochingiz hamon
O'spirinning sochi kabi qop-qora, quyuq.

Temur
Qulluq senga, ko'ngul uchun aytgan gapingga,
Ushbu boshdan o'sib chiqqan qora savdoni

Yolg'iz o'zing daf etgansan qirtishlab, yulib.
Seni ko'rsam, goho-goho o'ylab deymanki,
Sartaroshga o'xshab ketar shohlar ham, asli.
Ular faqat qirtishlaydi yumaloq yerni.

Sartarosh
A'lohazrat, Siz ortiqcha mo'ylarin qirib
Go'zal husn baxsh etdingiz yer degan boshga.

Temur
Ikkisi ham tashvishlardan xoli bo'lolmas.
Ha, shohlarga suyangaydir yurtda fuqaro,
Ammo kimga suyansinlar shohlarning o'zi?
Magar noshud farzandini eplay olmasa
Podshoh kimga dardin atib, kimga arz qilsin?
El oldida u o'zini dorga tortsinmi?
Uning o'zi tanlab olgan maslahatgo'ylar
Magar nobop chiqib qolsa, kimni ayblasin?
Tovoniga kirsa agar chaqirtikanak,
Alamidan ekinzorni payhon qilsinmi?!
Siz tunlari uxlagaysiz oyoq uzatib,
Shohni esa tergab chiqar uyg'oq vijdoni.
Hoy sartarosh, imillama, bitkaz ishingni,
Nogahoniy og'riq kirdi boshimga shu kez.

Sartarosh
Qahratonda soch oldirmang demoqchi edim,
Biroq Sizning ra'yingizni kim ham qaytarar?
Ishim bitdi!

Temur
Bitgan kabi mening ham ishim...
(yasovulga)
Chodiridan chaqiringiz Bibixonimni,
Pirmuhammad va Ulug'bek birga kelishsin.
(amirlar, sarkardalarga)

Mening sodiq amirlarim, sarkardalarim,
Gaplarimga quloq tuting, vahima qilmang,
Umidvorman,
yakdil bo'lib mendan keyin ham
Saltanatga sadoqatni saqlab qolgaysiz.

Amirlar, sarkardalar
Olampanoh, saltanatning Siz-ku tayanchi,
Sizga boqiy umr tilab kamarbastamiz.

Temur
Ana, ikki mirzo bilan keldi malika
Bamisoli qo'sh yulduzni yetaklagan oy.

Bibixonim, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Pirmuhammad ta'zim ila yaqin keladilar.

Bibixonim
A'lohazrat, yo'qlamishsiz...

Temur
Bezovta qildim,
Bezovtalik ta'qib etar, zero, bizni ham.

Bibixonim
U qandayin bezovtalik?
Boisi nima?
A'lohazrat, yuzingizda nechun horg'inlik?

Temur
Yuragimda tomchi-tomchi gaplar yig'ilmish,
Men ularni to'kay derman Sizga, Sizlarga.
Sen yonimga yaqinroq kel, Mirzo Ulug'bek.

Mirzo Ulug'byek
A'lohazrat!..

Temur
Hazrat emas,
Bobo degil, Bobojonim de.
Seni tiyrak nabiram deb suyub yuraman.
Ishtiyoqing bisyor emish ilm-u irfonga.
Yulduzlarning tilini ham uqar emishsan.
Orzu etgum, payti kelib, mening naslimdan
Zora osmon ilmining ham sardori chiqsa.
Yulduzlaring yaxshi gaplar aytsin, ilohi,
Ular senga ezgulikdan bersin daraklar.
O'sha kezlar bobojoning yulduzini ham
Nazaringdan qochirmagin, Mirzo Ulug'bek.
Men-chi osmon peshtoqidan abadiy bedor
Faxr bilan kuzaturman har biringizni.

Bibixonim
A'lohazrat, bunday g'amgin o'gitlar nechun,
Gaplaringiz yuragimni tilkalamoqda.

Temur
Hech bir banda bu dunyoda mangu qololmas,
Tug'ilmoqlik bor ekan-ki, o'lmoq ham bor gap.
Foniy dunyo Iskandarga vafo qildimi?
Yoki vafo qilganmidi Chingizxonga u?
Vujudimni mudhish og'riq tamom chulg'adi.
Borib yetdi u miyamning tubiga qadar.
G'oyat aniq ko'rinmoqda umrning shomi.

Bibixonim
(amirlarga)
Tabiblarni chaqiring tez!

Temur
Shoshmang, Bibijon,
Ulguramiz tabiblarning shifolariga.
Axir men ham shoshmoqdaman, ulguray men ham
Dilimdagi gaplarimni aytib qolishga.

Bibixonim
A'lohazrat, bunday demang.

Mirzo Ulug'bek,
Mirzo Pirmuhammad
Bobo, bobojon!

Amirlar, sarkardalar
Olampanoh, Olloh o'zi Sizni asrasin,
Toleyimiz oftobisiz, so'nmassiz aslo!

Temur
Balandparvoz xitoblarning mavridi emas,
Bolalarim, hushyor bo'lib tinglangiz meni.
Ruhim qushi uchishga shay, anglab turibman,
Foydasi yo'q, obidiyda qilmang bekorga.
(Bibixonim unsiz yig'lay boshlaydi)
Hayotimning charog'boni, aziz malikam,
Bibi, Sizdan ming roziman, yig'lamang ortiq,
Mendan so'ng ham o'ktam bo'lib onalik qiling
Saltanatga,
Farzandlarga,
Nabiralarga...
Garchi qolib ketayotir qancha niyatim,
Men suronli hayotimdan roziman, rozi...
Buyuk davlat barpo etdim,
Tangriga shukur,
Qo'riqlangiz, uni Sizga qoldirmoqdaman.
Zolimlarning taarruzli qo'llarini men
Mazlumlarning etagidan yulib tashladim.
Maslak ila tariqatni himoya aylab,
Mone' bo'ldim imonsizlik, zo'ravonlikka.
Siz millatning dardlariga darmon bo'lingiz.
Yo'qsillarni aslo boylar zulmiga bermang.
Orangizga sira-sira tushmasin nifoq,
Umr bo'yi hazar qiling munofiqlardan,
Bolalarim, xoinlardan bo'ling ehtiyot,

Inson zoti ko'p narsaga chidaydi, ammo
Gar adolat poymol bo'lsa — toqat qilolmas.
Adolat va ozodlikni muqaddas biling.
Yo'ldoshingiz bo'lsin doim aql-u tajriba,
Har kimlarning qutqusiga daf'atan uchmang.
Agar mening gaplarimga sodiq qolsangiz
Inshoolloh, boshingizga tosh tushmagaydir.
Pirmuhammad Jahongirni shu kundan boshlab
Toj-u taxtim vorisi, deb e'lon qilaman.
Ushbu kundan e'tiboran Samarqand taxti
Uning amr-u farmonida, hukmida bo'lg'ay.
Sizlar unga madad bo'ling,
Qo'llab-qo'ltiqlang,
Toki olam buzilmasin, to'zmasin dunyo.
Endi esa mening sodiq qo'mondonlarim,
Yosh amirga itoatning ominin ayting!

Amirlar, qo'mondonlar
(yig'lashib)
Sohibqiron farmoniga itoat aylab,
Yig'lay-yig'lay omin, deymiz, Iloho Omin.

Temur
Jang-u jadal orasida fursat topgan chog'
Bitik qildim qoida-yu amallarimni.
Men ularni ataganman Tuzukot deya.
Umidvorman, kelajakda bu tuzuklarim
Asqotgaydir saltanat-u avlodlarimga.

Temur qo'ynidan Tuzukot kitobini chiqarib, **Mirzo Pirmuhammad-ga** uzatadi.

Toj-u taxtni mendek uzoq saqlay desangiz,
Qilichingiz o'ylab cheking, bo'ling hamjihat.
Shunqorlarim, adolatni dastur qilingiz,
Eng avvalo,
Vatan ila Millatni asrang.

Qosimbek

(o'krab yig'lagancha)

Tashlab ketmang, Olampanoh, tashlab ketmangiz.

Temur

Sen, Qosimbek, nega bunday o'krab yig'laysan,
Angorada aytganimning ustidan chiqib
Men nabiram Zubaydani berdim-ku senga.

Barlos bahodir

Olampanoh, muntazirdir Sizga tabiblar.

Temur

Endi kechdir.
Men chodirga kirib ketaman.
Undan qachon qaytib chiqqum?
Bilmasman o'zim...

Bibixonim

(faryod solib)

Olampanoh, yoningizda bo'lay to abad!

Temur, uning izidan **Bibixonim** chodirga kirib ketadilar.

Barlos bahodir

Ko'zimizdan nihon bo'ldi ulug' bir hayot,
Uning yoniq nuri esa o'chmagay aslo.
Temur uchun,
Millat uchun,
Hur Vatan uchun,
Bahodirlar,
Hamdast bo'lib,
Qalqing oyoqqa!

TAMOM

1995

MUNDARIJA

Muazzam va dilbar she'riyat
(Doniyor Begimqulov)..... 3
Kuz xayollari.....15
Odamlar.....17
Eslash.....17
"Derazangni qoplar..."..... 18
"O'ylardimki, nomingni..."..... 18
"Jajji go'dak, sen..."..... 19
Sen bahorni sog'inmadingmi? ..20
"Kel, yorug' et, sensiz..." 21
Kuz manzarasi.....22
"Goho yer mehrini..."..... 22
Yuzma-yuz 22
"Qani, hey, do'stlarim, ..." 30
Shunday yashar odatda odam....30
Onamga xat.....31
Men nechun sevaman
O'zbekistonni.....32
Dorboz.....33
Asrimiz odami.....33
"Munojot"ni tinglab..... 34
Albomga.....35
O'zbekistonda kuz 36
"Oilada tug'ilsa ..." 38
Temir odam 39
Miltiraydi bir mitti yulduz... 41
Tilla baliqcha.....41
"Uchqur xayol ..." 42
"Quy, do'stim, ..." 43
Giyoh.....43
"Ko'pdan kutgan ..." 43
She'riyat.....44
"Yulduzlar o'tiga ..." 44
"O'tinaman, ..." 45
"Uni ko'rsam, ..." 45
"Yo'lim boshlar, ..." 46
"Jo'nar bo'ldim men ..." 47
"— Xayr endi ..." 47
Qasam dara.....48
Chol va kommunizm qissasi.....50
"Bulut toshdi ..." 52
"Qani, nay ber ..." 52
Ona tilimga.....53
Hayvonot bog'ida.....53
Bulbul.....54
Uyqu.....54

Otello....56
Ayol....57
Tun....59
Hayot ishqi....60
Armon....60
Muhabbat....61
Xo'rozqand....63
Avlodlarga maktub....64
"Xat yozmadim, ..."....67
Onam vafotiga....67
Ketganlar yodi bu....68
Onajon....69
Nay....72
Shoirlar hayoti....73
Jannat....73
"Chuvaladi o'ylarim ..."....74
"Yomg'irli kun edi ..."....75
"Osmon ufqlarga..."....75
Sarob....75
Tabiat....78
Bahor....80
Senga....84
Sozim....85
Ona....86
"O'zimni moziyning ..."....86
Men seni kuylamoq istayman ...86
Armaniston....88
Nechun tim qoradir
arman ko'zlari....90
"Alvido, deb ..."....91
Sevan ko'li....91
Yerevan ko'chasida....91
Qushchaga....92
"Qo'ygil, u kunlarni ..."....93
Go'zallik....94
Muvashshah....94
"Bahor kunlarida ..."....95
Kuz manzaralari....95
Sevgi o'limi....96
Ohu....96
Pahlavon Mahmud qabri
qoshida....97
"Umr o'tib borar ..."....98
"Dunyo bir gulzordir ..."....98
Shoir....98
Sovg'a....99
Yozajakman....101
Minorayi kalon
tepasidagi laylak....101
Alisher....102
Birinchi muhabbatim....103
"Bul ajab, xor ..."....104
"Sevgidan so'ylarding ..."....105
Bu kun....105

Bahor kunlarida.....106
Ketmoqdaman.....107
Ilg'or ishchi va chaqqon muxbir qissasi.....107
Haqiqat yo'llari.....111
Saraton.....112
Xotirot.....114
O'zbek shamoli.....115
Ona sayyora.....116
"Bu joylarga ..."....119
Qanot.....119
"Yondim-u va lekin "....119
Ilk sevgi.....120
"Oh, o'tgan u ..."....120
Biznikilar.....120
Ruhim.....121
Cheksizlik.....121
O'zbekiston.....122
Qarshi qo'shig'i.....127
Kenglik nuqtasi.....132
Iltijo.....134
Hamid Olimjon xotirasiga.....134
Qirg'iz diyori.....136
"Kuzak shamollari ..."....137
Xiva bozorida.....137
Mo'min Mirzo.....138
Noma'lum odam.....139
Nekrasov hasrati.....140
"Keldim qoshingizga ..."....141
Maktub.....142
Chorlash.....142
"Bulbul o'gay ..."....143
Yolg'izlik.....143
Suv.....144
"Nogoh entikdi-yu ..."....145
Hangoma.....145
Qo'shiq.....149
Sog'inch.....150
Genetika.....150
Dengizga.....153
Alloma.....155
Qasoskor haqida ballada.....157
Turmush tashvishlari.....157
Men anglab yetgan falsafa.....159
Onamni eslab.....159
Hayrat.....159
Yoshlik.....160
Hamza monologi.....162
Iroda.....163
Cho'li boboning nabiralariga degani.....164

"G'anim bo'lolmasmiz ....."165
Rayhon 165
"Haddim bormi ....."167
"Sen borsan ....." 167
"Sahro so'qmog'ida ....." 167
Shukrona 168
Ikki soniya.....168
"Tingla, bu abadiy ....." 169

Tarbiya

Birinchi mashg'ulot 169
Ikkinchi mashg'ulot 172
Tafakkur monologi.....175
Bir tanishim haqida ballada 177
Malomat toshlari 180
Surat va siyrat 183
Momo oftob 183
Nisbiylik.....185
Mish-mish 185
G'azal.....185
Yillar armoni 186
"Koinot gultoji ....." 187
Izhor 187
Xayrixoh 187
Holat.....188
Diyor 189
Kavkaz 190
Onajonim, she'riyat.....192
Yosh rassomlarga 194
Inson qalbi.....196
Oila.....196
Samoviy mehmon, besh
donishmand va farrosh
kampir qissasi.....197
"Hikmatli gaplarga ....."202
Ayon bo'lgay.....202
Bobo va nabira 203
"Bunchalar kamolot, ..." 204
Istak.....204
Ozarbayjon.....204
Inson manzarasi 206
Qo'riqxona 207
Uchinchi odam 208
Iltimos 210
Tulki falsafasi.....211
Do'stlarimga aytganim.....211
Sharq hikoyasi.....212
Ishonch.....215
Bobolarim yurti,
otam maskani 216
Sen qaydan bilasan.....217
"Umr qisqa edi, ..." 218
Deydilar, it hurar ....." 218
Olomonga.....219
Uy.....219

"Baxtiyor har ..." 220
"Dunyoda diyonat ..." 220
Shoir umri 220
"Yerdan o'zga ..." 221
Qirq yosh 221
Xayrlashuv 222
Meni olib keting 224
Ranglar 224
Hayronlik 225
"Senga bu dunyoning ..." 226
O'zbegim tojik bilan 226
Savob 227
"Yiroq Yevropada..." 229
Qonuniyat 229
Bobur 230
Bir sirki... 231
Bog'bon 232
So'nggi urush 232
Oftobshuvoq 234
Odam bolalari 235
Dialektika 236
Ona degan nom... 237
"Meni saylang" 237
Yalang'och satrlar 238
Ishonch ko'priklari 239
Adi-badi haqida
rivoyat 240
Qaldirg'och 240
Ko'ngil 241
To'lin oy 242
Otalar ilgida zamon
bilan vaqt 242
Aytishuv 243
Sarhadlar 244
Kometa 245
Xatolaring kerak ularga 246
Ismaloq 246
Furqat nidosi 248
"Yiroq bo'l hasratdan ..." 248
"Gar muhabbatning ..." 249
Turg'unboy 249
Uzlat 252
Malak 254
"Qul-qul" 254
Qush tili 259
Toqat 261
Rentgenchi do'stimga 261
"Boqar u zamonning ..." 262
E'tiqod 262
Begonalik 263
Shoshmaslik haqida
ballada 265
Elim deb yongaydir sohib
jur'atlar 266

Oxirat 267
Baxtsiz farishta....268
Yulduz qazosi 269
Iblis 269
Oyisining jamg'armasi....271
Sabablari qidirilmoqda....274
Oqar daryo 274
Dunyoning yo'rig'i 275
"O'kinma, ona yurt, ..."....276
Adolat oftobi 277
Fojia 278

Haj daftari

(Turkum)

Ka'batulloh 279
Payg'ambar 281
Tilanchi bola 284
Alloh dargohi 285
Hasrat 286
Ona 287
Arofat 288
Hayot haqiqati....289
Hojilar 289
Asliyat....290
Haj savobi 290
Shayton 292
O'zbekiston davlati 293
Turkiston bolalariga 294
Sharof Rashidov xotirasiga 296
Men kimga suyangum....298
Muloqot....299
O'zbek qomusi 300
Temur 301
O'zbekistonim, senga....302
Lo'ttiboz....303
Mehr-u oqibat haqida
ballada 305
Telefon daftari 307
Dunyo....308
"Balki chaman ..." 309
Vatan 309
Buyuklik....310
Dil og'rig'i 311
Vijdon....312
Shukur Burhon 314
Xalq....315
Armon emasmi....316
Amudaryoga....317
Tafsir 318
Armon 319
Ayrilmas 321
Bu yurtda....323
Tushmasin 323
Bir qarasam... 324
To'rtliklar 325

Luvr muzeyida 327
Uchar qushlar 327
"Yurtimda beso'rov ..." 327
O'zbek onasi 328
Oliy ne'mat 329
Aktyor 331
Ajrim 331
Ikki shoir 332
Shoir yuragi 332
Sirli olam 334
O'zbekman 336
Saharlik 337
Bo'ldilo 337
G'alati mantiq 338
Yaxshilik 340
Yapon 340
Ruhiyat 341
Ibrat 341
Karvon 342
Yapon 342
O'zbek noni 342
Iqror 343
Mening hasratlarim 344
Shambala 345
Tuyg'ular 346
Talosh pallasi 347
Keldim 348
Odina masjidi 349
Nakurt 349
Inson 350
Inson omili 350
Menga xushxabar ayt... 351
Chingiz Aytmatov 352
Imon 353
Himoya 353
Hujjatsiz odam 354
Avliyolar 355
Odat 355
Tavallo 356
Hurriyat 357
Oddiy haqiqat 358
Xabar 359
Qora taqdir 359
Begona 360
O'zbek 361
Qaytish 361
Vorislik 363
Fil 363
Poyezd 364
Iqror 364
Beruniyga maktub 365
Manzara 366
Odam 366
Ozon qatlami 367

Bir marta... 368
Apokalipsis 369
Merosiylik 371
Paradoks 373
Parkent 374
Shikva 375
Hayot 375
Sayyohlar 376
Tajriba 377
Qiziqish 378
Turnalar 378
Ayol madhi 379
Taraqqiyot 380
Mo'jiza 381
Yevropa 381
Umr manzillari 382
Maydanak 383
Qiyomat alomatlari 384
Savqi tabiiy 384
Hindiston 385
Kema 386
Ko'cha 387
Bobo duosi 388
Guldasta 389
O'zbekiston madhiyasi 390
Qora dengiz 391
Muhabbat 392
Tashlandiq vagon 392
Ranglar va ohanglar 393
Uyg'unlik 395
Qismat 397
Tafakkur 398
Millat 400
Himoyat 402
Mufti 404
Qadr 406
E'tiqod 407
Tarix 409
Yaxshilik 411
Haqiqat 413
Vatan 415
Ko'ngil 416
Sinov 418
Bobur shoh 420
Bosfor 421
Xalqim 421
Ko'nikish 422
Ikki bolakay 423
Odil Yoqubov 423
Pochta qutisi 424
Vatan mehri 426
Unutish 427
Madad 428
Qariyalar suhbati 428

Safar 429
Kun ko'rish 429
Nonushta 430
Kechir, she'rim 431
Fazilat 431
Uchinchi bo'lim 432
To'da 432
Uzr 433
Momo 434
Aksioma 435
Sog'inch 435
Do'stlar va raqiblar 436
Tanishlar 437
Poyezdda 437
Monolog 438
Qishloq ziyolilari 439
Qo'rquv 440
Himmat 441
Shoir qismati 442
Kasseta 443
Ikki xushomadgo'y 443
Kibr 444
Tog' bolasi 445
Oila yangiliklari 447
Ogohlik 447
Ziyoli 448
Namoyish 449
Tolstoy 450
Bandlik 450
Hamjihatlik 451
Qanoat 453
Kosmodrom 454
Paxsa uy 455
Boyqaro 455
So'nggi makon 456
Kapalak 457
Tush 457
Yurak 458
Uchar likopcha 458
Bozor 459
Ibodat 460
Abadiy sado 461
Ko'pchilik 462
Gulxaniy 463
She'riyat 463
Sog'uniy 464
Imon 465
Hayot 467
Imkon 467
Ko'prik 468
O'kinch 469
Tug'ma nodon 470
Imtihon 470
Atlantika 471

Osmondagi zilzila 472
Ummon qoshida... 474
Uzr.....475
Nasa.....475
Telefon suhbatlari.....476
Begona odam 478
Hayot kechinmalari.....479
Sehrli diyor.....480
Yangi asr mo'jizalari.....480
Inson uchun jang.....482
Ota-o'g'il tortishuvi 482
Yolg'onchi haqida ballada.....483
Abadiy jarayon.....484
Muvofiqlik.....485
Tafakkur madhi 486
Oqlovchi.....487
Tavsiya 487
Qadr.....488
G'urur.....490
Everest va ummon.....491
Vatanparvar 491
O'tgan tarixlar.....493
Hayot yo'llarida 494
Buyuk sabr 495
Baxshiyona.....496
Avgust 497
Ummon bo'yidagi o'ylar 498
Kuz tashrifi.....501
Hayot sinovlari.....502
Mas'ullar 503
Uchinchi yo'l 504
Xonaki fil 504
Ijod saboqlari 505
Kundalik hangomalar.....506
Agar sensiz... 508
O'tar dunyo 509
Koinot 510
Asr fojiasi.....510
Bashorat 512
O'g'rilar haqida ballada 513
Mangu panoh 514
Nodonlar haqida ballada 516
Muazzamlik.....518
Inson sharafi 518
Mumiyo.....520
Rang-baranglik.....521
Mardikor 521
Taqdir tuhfalari.....522
Hayot.....523
Armon 525
Vatanim 525
Zinalar 528
Yo'qolgan bo'ri 529
"Ikkichi" bola.....530

Don Kixot.....531
Hasbi hol.....532
Zamonlar.....533
Ona tuproq.....534
Hayot ibrati.....534
So'rovnoma.....534
Hayot tuhfalari.....535
Hayot jumboqlari.....536
Adolat.....537
Xonadon she'ri.....538
Gamlet.....540
Sharq qismati.....541
Yurak.....542
Hayot ibratlari.....542
Umrimiz yo'llari.....543
Xayol va hayot.....544
Istiqlol yurti.....545
Yolg'iz daraxt.....546
Sado.....547
Bardosh.....547
Hayotga muhabbat.....548
Tarozi.....549
Inson.....550
Nur.....551
Mantiq.....552
Chiroq.....552
Fasllarim.....553
Olam manzaralari.....553
Folbinlar.....554
Sovg'a.....556
Xaloyiq xohishi.....556
O'ng qovog'im uchdi-yo.....557
Yoronlar.....558

Dostonlar

JANNATGA YO'L.....560
Sado.....560
Yigit monologi.....561
Birinchi ko'rinish.....562
Ikkinchi ko'rinish.....573
Uchinchi ko'rinish.....581
To'rtinchi ko'rinish.....593
Beshinchi ko'rinish.....598
SOHIBQIRON.....605
Birinchi sahna.....606
Ikkinchi sahna.....622
Uchinchi sahna.....646
To'rtinchi sahna.....674
Beshinchi sahna.....692

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

ABDULLA ORIPOV

26-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Zulfiya G'ulomova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 45,0. Nashriyot-hisob tabog'i 36,8.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 94-1/22 Buyurtma raqami № 22-309

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



A 15 Abdulla Oripov [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Doniyor Begimqulov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 720 b.
ISBN 978-9943-8569-3-6

UO'K 821.512.133-1
KBK 84(5O')-5



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ABDULLA ORIPOV